«Нестандартный урок - это импровизированное учебное занятие, имеющее нетрадиционную структуру»[12]. То есть основной формой учебного процесса всё же остаётся традиционный урок, но в него в обязательном порядке вносятся некоторые элементы современных технологий для развития познавательных способностей учащихся, таких как знание, понимание, применение, анализ. Синтез и оценка.

Теоретическое изучение научной и методической литературы, связанной с проблемой нашего исследования. Определило необходимость проведения анализа данного вопроса в реальном учебном процессе. С целью выявления эффективности использования метода, включающего игровые элементы в рамках изучения методики преподавания русского языка, в школе №6 Сырдарьинской области города Гулистана, среди учеников 7 класса был проведён научный эксперимент, который проводился в три этапа.

Формирующий этап эксперимента был разделён на подготовительный и собственно экспериментальный (основной) этапы. На подготовительном этапе нами были подобраны и разработаны упражнения, включающие

отдельные элементы игры, а также мы познакомили учащихся с самой процедурой проведения данной технологии. На основном этапе нами были созданы необходимые условия для проведения данной технологии на занятиях по русскому языку с учениками.

В результате проведённого эксперимента нами было выявлено, что нетрадиционные формы работы с элементами игровых технологий – это сильная мотивация, которая помогает в формировании знаний, развитии интеллекта, эрудиции и расширении кругозора. Такие формы учебного процесса помогают оживить урок и сделать его ярким и запоминающимся. Учащиеся такие уроки предпочитают больше, чем занятия со строгой структурой, однако не следует превращать их в главную форму работы.

Таким образом, чтобы развить мотивацию на уроках русского языка, педагогу, прежде всего, необходимо иметь профессиональный потенциал, то есть совокупность знаний, умений и способности мыслить, действовать, творить, реализовать свои намерения в жизни, а также достигать запланированных результатов. На любом уроке именно учитель – человек, который руководит учебным процессом, от него зависит не только качество и организация урока, но и уровень мотивации школьников к учёбе.

Литература:

1. Баранов М. Т, Ипполитова Т. А, Ладыженская М. Р, Львов/Методика преподавания русского языка в школе: Учебник для студ. высш. пед. учеб. заведений/ Под ред. М. Т. Баранова. - М. :Издательский центр «Академия», 2001-368 с.

2. Батраева О. М. Игровые технологии как средство активизации учебного процесса при формировании коммуникативной и социокультурной компетенций/Теория и практика образования в современном мире: материалы междунар. науч. конф. -СПб. :реноме, 2012.

3. Бахтишаева А. Я. Мотивация школьников к обучению в современном мире/А. Я. Бахтишаева, Р. Б. Емельянова, М. И. марахтанова, М. Ю. Тихонова. -текст непосредственный//педагогическое мастерство: материалы XXXVIII Междунар. науч. конф. (г. Казань, ноябрь 2022 г)- Казань : Молодой учёный, 2022. С. 16-20.

4. Божович Л. И. Проблемы развития мотивационной сферы ребёнка//Изучение мотивации поведения детей и подростков. -М., 1972. -С. 7-44.

5. Гордеева Т. О. Мотивация школьников XXI века: практические советы. Методическое пособие-М. :Благотворительный фонд «Вклад в будущее», 2022-135 с.

6. Грицанов А. А. Новейший философский словарь/ сост. И гл. ред. А. А. грицанов. -2-е изд., перераб. И доп. - Минск:Изд. В. М. Скакун, 1998. -896 с.

7. Жорабекова М. К., Дуйсенова Г. Проблемы и перспективы изучения русского языка в школе// Наука и реальность. 2024 №3(19). С. 38-44

8. Закирьянов З. К. Актуальные проблемы преподавания русского языка в общеобразовательной школе на современном этапе//Филология и искусствоведение. -2020-№18. С. 114-121.

9. Ильин Е. П. Мотивация и мотивы-СПб. :Питер, 2002. -512 с.

10. Маркова А. К. Проблема формирования мотивации учебной деятельности. -Педагогика, 1979, №11, с. 63-71.

11. Никифорова Ф. В. Развитие и формирование мотивации учения//Эксперимент и инновации в школе-2011-№3. С. 53-55.

12. Подласый И. П. педагогика:[Учеб. пособие для высш. пед. учеб. заведений]. -Москва; Гуманитар. изд. центр «ВЛАДОС»: Просвещение, 1996. -630 с.

ZAMONAVIY PEYZAJ LIRIKASIDA EKOLOGIK TAFAKKUR MUAMMOSI

Jumanova Shaxnozaxon Ikromjonovna
Qo‘qon universiteti dotsenti, (PhD)

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy peyzaj lirikasida ekologik tafakkur muammosining badiiy-estetik talqini, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida yuzaga kelgan ekologik inqiroz sharoitida poeziyada tabiat obrazining funksional va semantik o‘zgarishlari tahlil qilindi. Tadqiqotda ekologik poetika va ekokrititsizm nazariyalari metodologik asos sifatida qo‘llanib, peyzaj lirikasida ekologik ongning shakllanish jarayoni yoritildi. XX asr oxiri o‘zbek shoirlari ijodi misolida tabiat va inson munosabatlarining poetik ifodasi, ekologik muammolarning ramziy va falsafiy talqini ochib berildi. Shuningdek, klassik va zamonaviy peyzaj lirikasining qiyosiy tahlili orqali ekologik tafakkur evolyutsiyasi aniqlandi. Maqola

natijalari zamonaviy adabiyotshunoslikda ekologik poetika masalalarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ekologik tafakkur, peyzaj lirika, ekologik poetika, ekokrititsizm, tabiat obrazi, zamonaviy poeziya, badiiy tafakkur, lirik qahramon, ekologik ong, qiyosiy tahlil.

Аннотацияю. В статье анализируется художественно-эстетическая интерпретация проблемы экологического мышления в современной пейзажной лирике, функциональные и семантические изменения образа природы в поэзии в условиях экологического кризиса, возникшего в конце XX и начале XXI веков. В качестве методологической основы исследования используются теории экологической поэтики и экокритики, освещается процесс формирования экологического сознания в пейзажной лирике. Поэтическое выражение взаимоотношений природы и человека, символическая и философская интерпретация экологических проблем раскрываются на примере творчества узбекских поэтов конца XX века. Также эволюция экологического мышления выявляется посредством сравнительного анализа классической и современной пейзажной лирики. Результаты статьи способствуют углублению понимания вопросов экологической поэтики в современном литературоведении.

Ключевые слова: экологическое мышление, пейзажная лирика, экологическая поэтика, экокритика, образ природы, современная поэзия, художественное мышление, лирический герой, экологическое сознание, сравнительный анализ.

Abstract. The article analyzes the artistic and aesthetic interpretation of the problem of ecological thinking in modern landscape lyrics, the functional and semantic changes in the image of nature in poetry in the conditions of the ecological crisis that arose at the end of the 20th and beginning of the 21st centuries. The research uses the theories of ecological poetics and ecocriticism as a methodological basis, and illuminates the process of formation of ecological consciousness in landscape lyrics. The poetic expression of the relationship between nature and man, the symbolic and philosophical interpretation of ecological problems are revealed on the example of the work of Uzbek poets of the end of the 20th century. Also, the evolution of ecological thinking is revealed through a comparative analysis of classical and modern landscape lyrics. The

results of the article serve to deepen the understanding of the issues of ecological poetics in modern literary studies.

Keywords: ecological thinking, landscape lyrics, ecological poetics, ecocriticism, image of nature, modern poetry, artistic thinking, lyrical hero, ecological consciousness, comparative analysis.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida insoniyat taraqqiyoti bilan bir qatorda tabiatga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgarib bordi. Texnogen rivojlanish, urbanizatsiya va ekologik muammolarning keskinlashuvi badiiy tafakkurda, xususan, poeziyada yangi mavzu va g‘oyaviy yo‘nalishlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Adabiyot, ayniqsa lirika, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni nozik poetik shakllarda ifodalash imkoniyatiga ega bo‘lgan san’at turi sifatida ekologik muammolarni badiiy idrok etishning muhim maydoniga aylandi.

Zamonaviy peyzaj lirikasida tabiat endilikda faqat estetik manzara yoki fon sifatida emas, balki insoniyatning ma’naviy-axloqiy mas’uliyatini sinovdan o‘tkazuvchi, ekologik ogohlantiruvchi badiiy timsol darajasiga ko‘tarildi. Bu jarayonda ekologik tafakkur tushunchasi markaziy o‘rin egallaydi. Ekologik tafakkur – insonning tabiatga nisbatan ongli, mas’uliyatli va axloqiy munosabatini anglatib, badiiy adabiyotda u obrazlar, ramzlar va poetik kechinmalar orqali namoyon bo‘ladi.

Mazkur masala adabiyotshunoslikda qator tadqiqotlarda yoritilgan. Jumladan, N. Rahimjonov ekologik ongning shakllanishi va uning badiiy tafakkurga ta’siri haqida so‘z yuritar ekan, “tabiat obrazi endi shoir qalbining tashqi bezagi emas, balki ichki iztiroblar va mas’uliyat hissining badiiy ifodasiga aylanmoqda” deb ta’kidlaydi. [1,42]. Shuningdek, M. Yo‘ldoshev zamonaviy poeziyada peyzajning funksional yuklamasi oshib, u falsafiy va ekologik mazmun kasb etayotganini qayd etadi [2,67]. Bugungi kunda ekologik inqiroz global muammo sifatida insoniyat taqdiriga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu holat adabiyotda, xususan, peyzaj lirikasida ekologik tafakkur muammosini chuqurroq va tizimli o‘rganishni taqozo etadi. Zamonaviy shoirlar ijodida tabiat obrazlari orqali ekologik ogohlik, inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi, mas’uliyatsizlik oqibatlari poetik tarzda ifodalanmoqda. Adabiyotshunos olim A. Rasulov ta’kidlaganidek, “zamonaviy lirika insonning tabiat oldidagi ma’suliyatini estetik ong darajasida shakllantirishga

xizmat qiladi” [3.91]. Shu bois peyzaj lirikasida ekologik tafakkur masalasini tadqiq etish nafaqat adabiy-nazariy, balki ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatga ham ega. Mazkur ilmiy maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, unda zamonaviy peyzaj lirikasida ekologik tafakkurning badiiy ifodalanish shakllari, poetik vositalari va g‘oyaviy-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Bu esa adabiyotshunoslikda ekologik poetika masalalarini yoritishga munosib hissa qo‘shadi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda ekologik muammolarni badiiy idrok etish masalasi asosan ekologik poetika va ekokrititsizm nazariyalari doirasida o‘rganiladi. Ekologik poetika adabiy asarda tabiat tasviri, inson va muhit munosabatlarining estetik ifodasi, ekologik ongning poetik shakllanish jarayonlarini tahlil qilishga qaratilgan yo‘nalishdir. Ushbu nazariya doirasida peyzaj nafaqat badiiy fon, balki g‘oyaviy-mazmuniy markaz sifatida talqin etiladi.

Ekokrititsizm esa XX asr oxirlarida G‘arb adabiyotshunosligida shakllangan bo‘lib, adabiyot va ekologiya o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadi. Ch. Glotfelti ta’kidlaganidek, ekokrititsizm “adabiyotda tabiatning qanday tasvirlanishi va bu tasvirlar insonning ekologik ongiga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlashni maqsad qiladi”[4.18]. Ushbu yondashuv zamonaviy peyzaj lirikasini ekologik muammolar kontekstida tahlil qilish imkonini beradi. Shu jihatdan, ekologik poetika va ekokrititsizm nazariyalari mazkur tadqiqotning muhim metodologik asosini tashkil etadi.

Ekologik tafakkur – bu insonning tabiatni idrok etishida mas’uliyat, muvozanat va axloqiy yondashuvni mujassam etgan ong shaklidir. Adabiyotda ekologik tafakkur estetik idrok bilan uyg‘unlashib, obrazli fikrlash vositasida namoyon bo‘ladi. Peyzaj lirikasida bu tushuncha ko‘pincha tabiatning iztirobli holatlari, vayronaga yuz tutgan makonlar, jimjit va bo‘sh manzaralar orqali ifodalanadi. Zamonaviy shoirlar tabiatni inson faoliyatidan zarar ko‘rayotgan tirik mavjudot sifatida tasvirlab, o‘quvchini ekologik mushohadaga chorlaydi. Bu holat badiiy tafakkurning ekologiklashuvi jarayonini ko‘rsatadi.

Zamonaviy peyzaj lirikasida ekologik muammolar bevosita yoki bilvosita tarzda ifodalanadi. Shoirlar ko‘pincha qurigan daraxtlar, ifloslangan suv manbalari, jimjit dalalar obrazlari orqali ekologik fojeani ramziy tarzda ko‘rsatadi. Bunday tasvirlar estetik ta’sir kuchiga ega bo‘lib, o‘quvchini chuqur mulohazaga undaydi. Peyzaj endi shunchaki tasviriy unsur emas, balki g‘oyaviy markaz vazifasini

bajaradi. Tabiat va inson munosabatlaridagi ziddiyatlar lirik qahramonning ichki kechinmalari bilan uyg‘unlashadi.

XX asr oxiri o‘zbek poeziyasida ekologik tafakkur masalasi qator shoirlar ijodida yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, O. Matjon, Sh. Rahmon, R. Parfi singari shoirlar ijodida tabiat obrazi inson ruhiyati va jamiyat muammolari bilan uzviy bog‘langan holda tasvirlanadi.

Masalan, O. Matjon she’rlarida tabiat ko‘pincha iztirob chekayotgan tirik mavjudot sifatida gavdalanadi. Shoir peyzaj orqali ekologik muvozanatning buzilishi va inson mas’uliyatsizligini badiiy ramzlar vositasida ifodalaydi. R. Parfi lirikasida esa peyzaj falsafiy umumlashmalar manbai bo‘lib, unda inson va tabiat o‘rtasidagi begonalashuv fojeaviy ohangda tasvirlanadi. Bu holat XX asr oxiri o‘zbek peyzaj lirikasida ekologik tafakkurning individual poetik uslublar orqali shakllanganini ko‘rsatadi. Zamonaviy peyzaj lirikasida ekologik muammolar bevosita yoki bilvosita tarzda ifodalanadi. Shoirlar ko‘pincha qurigan daraxtlar, ifloslangan suv manbalari, jimjit dalalar obrazlari orqali ekologik fojeani ramziy tarzda ko‘rsatadi. Bunday tasvirlar estetik ta’sir kuchiga ega bo‘lib, o‘quvchini chuqur mulohazaga undaydi. Peyzaj endi shunchaki tasviriy unsur emas, balki g‘oyaviy markaz vazifasini bajaradi. Tabiat va inson munosabatlaridagi ziddiyatlar lirik qahramonning ichki kechinmalari bilan uyg‘unlashadi.

Omon Matjonning “Tilsiz narsalar” she’ridagi poetik mushohada tarzi inson va tabiat munosabati nafaqat estetik, balki axloqiy, ma’naviy va ekologik xususiyatlarga ega ekanini ko‘rsatadi:

Olimlar aytarki, bir gulni uzsang,
Boshqalari eslab qolarlar aniq.
Lekin fosh etolmas qotilni ular,
Tilsiz to‘lg‘anarlar g‘azabda, yonib... [6.177].

Tabiat bu yerda insonning o‘z xatolarini kuzatib turuvchi, uning axloqiy faoliyatiga javob beruvchi bir kuch sifatida tasvirlangan. Inson tabiatni faqat vosita sifatida emas, balki o‘z ruhiy kamoloti, axloqiy poklanishi yo‘lidagi muhit sifatida qabul qilishi zarur. She’rda tabiiy muhitning tirik mavjudot kabi xotiraga ega ekanligi badiiy ifoda etiladi. Gul, daraxt, ko‘l va zamin bir-biriga bog‘liq tabiat shajarasi sifatida tasvirlanib, ular insonning harakatlarini muhrlab qoladigan tirik guvohlar timsolida aks ettiriladi. Shoir tabiatni nafaqat beg‘araz go‘zallik manbai, balki jazo beradigan va xotiraga ega bo‘lgan kuch sifatida tasvirlaydi. “Tilsiz

narsalar” iborasi tabiatning jimjitligini, lekin u hech narsani unutmasligini, inson xatolarini kechirmasligini bildiradi.

Olimlar, aytarki, tabiat o‘zi
Nabotot, maxluqot dunyosin g‘oyat –
Erkin bir me’yorda boru yo‘q etar,
Chetdan zug‘um etmak so‘zsiz jinoyat . [6.177].

Shoir insonning tabiatga nisbatan buzg‘unchilik munosabatini qoralaydi. “Bir yog‘ochni kessang”, “bir ko‘lni quritsang” kabi misralar orqali insonning madaniy-ijtimoiy rivojlanishi fonidagi ekologik muammolar poetik tarzda ifodalanadi. Tabiatning tili yo‘q, ammo u insonning xatti-harakatlarini beshafqatlik bilan eslab qoladi. She’rda ekologik ma’rifat targ‘ib qilinishi bilan birga, tabiatga ziyon yetkazish inson uchun javobsiz qolmasligini ta’kidlaydi.

Bugun arra,
karbid,
aero bilan
Ne ishlar qilmaymiz yerga ozorlik!
Biz-ku og‘rinmaymiz,
yer ham voh demas,
Lekin zil sukutda qoladi borliq . [6.179].

“Gul”, “yog‘och”, “ko‘l”, “zamin” kabi tabiat unsurlari ijtimoiy hayot va inson taqdiri bilan o‘zaro bog‘liq ramzlardir. Ular inson madaniyati va sivilizatsiyasi rivojida asosiy o‘rin tutuvchi umrboqiy unsurlar sifatida tasvirlangan. “Arra”, “karbid”, “aero” kabi jumlalar bejiz ishlatilmagan, bu detallar orqali industrial rivojlanish va texnokratik sivilizatsiyaning muhitga keltirayotgan talofotlari tasvirlangan. Bu yerdagi peyzaj ekologik hodisa emas, balki insoniyat taqdiriga ta’sir etuvchi umumbashariy voqelikdir. She’rdagi umumiy konsepsiya – tabiatning tiriklik va xotiraga egaligidir. Tasvirlanayotgan peyzaj, daraxtlar va ko‘llar insonning ezgu yoki vayronkor faoliyatini o‘zida aks ettirib, uni qaytarib beradigan tirik kuch sifatida tasvirlangan. Bunda tabiat va inson o‘rtasidagi murakkab munosabatlarning ekologik, axloqiy va falsafiy mohiyati ochib beriladi. Omon Matjon she’riyatidagi peyzaj faqat manzara emas, balki insoniyatning o‘ziga berilgan savollar va javoblar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.

Klassik o‘zbek peyzaj lirikasida tabiat asosan go‘zallik va ilohiy uyg‘unlik timsoli sifatida tasvirlangan. Alisher Navoiy, Bobur singari mumtoz adiblar ijodida

peyzaj estetik zavq va ruhiy poklanish manbai bo‘lib xizmat qilgan. Zamonaviy peyzaj lirikasida esa tabiat obrazi murakkablashib, ekologik va falsafiy mazmun kasb etadi. Agar klassik poeziyada tabiat inson bilan uyg‘un holda tasvirlansa, zamonaviy lirika uchun bu uyg‘unlikning buzilishi, ekologik inqiroz motivlari xosdir. Ushbu qiyosiy tahlil peyzaj lirikasida ekologik tafakkur evolyutsiyasini aniqlash imkonini beradi.

Zamonaviy peyzaj lirikasida lirik qahramon tabiat bilan ichki muloqotda bo‘ladi. U tabiatdagi o‘zgarishlarni o‘z ruhiy holati bilan qiyoslaydi, ekologik muammolarni shaxsiy iztirob darajasida his etadi. Natijada peyzaj psixologik va falsafiy mazmun kasb etadi. Zamonaviy peyzaj lirikasida lirik qahramon tabiat bilan ichki muloqotda bo‘ladi. U tabiatdagi o‘zgarishlarni o‘z ruhiy holati bilan qiyoslaydi, ekologik muammolarni shaxsiy iztirob darajasida his etadi. Natijada peyzaj psixologik va falsafiy mazmun kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy peyzaj lirikasida ekologik tafakkur muammosi badiiy tafakkur taraqqiyotining muhim va yetakchi yo‘nalishlaridan biriga aylangan. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida yuzaga kelgan ekologik inqiroz jarayonlari poeziyada tabiat obrazining estetik funksiyasini tubdan o‘zgartirib, uni ijtimoiy, falsafiy va axloqiy mazmun kasb etuvchi murakkab poetik timsol darajasiga ko‘tardi. Endilikda peyzaj lirikasida tabiat faqat go‘zallik manbai sifatida emas, balki insoniyatning ekologik mas’uliyati va ma’naviy ongini sinovdan o‘tkazuvchi badiiy mezon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqotda ekologik poetika va ekokrititsizm nazariyalari asosida olib borilgan tahlillar zamonaviy peyzaj lirikasida ekologik ongning shakllanishi badiiy jarayon bilan uzviy bog‘liq ekanini tasdiqlaydi. Ekologik tafakkur shoir badiiy ongida tabiat va inson o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi, ekologik fojea va mas’uliyatsizlik kabi muammolarni poetik obrazlar orqali ifodalashga xizmat qilmoqda. Natijada peyzaj lirikasida ramziy tasvirlar, psixologik manzaralar va falsafiy umumlashmalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

XX asr oxiri o‘zbek shoirlari ijodi misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ekologik tafakkur individual poetik uslublar doirasida turlicha namoyon bo‘ladi. Ayrim shoirlar ijodida tabiat iztirob chekayotgan tirik mavjudot sifatida gavdalanib, ekologik fojea ramziy tarzda talqin etilsa, boshqalarida peyzaj inson ruhiyati va ichki kechinmalarining falsafiy aksiga aylanadi. Bu holat zamonaviy peyzaj lirikasida ekologik tafakkurning badiiy shakllari rang-

barangligini ko‘rsatadi. Klassik va zamonaviy peyzaj lirikasining qiyosiy tahlili esa ekologik tafakkur evolyutsiyasini yaqqol namoyon etdi. Mumtoz adabiyotda tabiat inson bilan uyg‘un va ilohiy tartib doirasida tasvirlangan bo‘lsa, zamonaviy poeziyada bu uyg‘unlikning buzilishi, tabiatning ekologik tahdid ostida qolishi markaziy g‘oyaga aylanadi. Ushbu farq badiiy tafakkurdagi tarixiy o‘zgarishlar va jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq ekanini tasdiqlaydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, zamonaviy peyzaj lirikasida ekologik tafakkur muammosini tadqiq etish adabiyotshunoslikda yangi ilmiy yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday tadqiqotlar nafaqat badiiy tafakkur taraqqiyotini anglash, balki jamiyatda ekologik ongni mustahkamlash, inson va tabiat o‘rtasidagi mas’uliyatli munosabatni qaror toptirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ekologik tafakkur masalasi zamonaviy adabiy jarayonni o‘rganishda dolzarb va istiqbolli ilmiy muammo sifatida e’tirof etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahimjonov N. Badiiy tafakkur va zamonaviy poeziya. – Toshkent: Fan, 2015.

2. Yo‘ldoshev M. Zamonaviy lirika poetikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

3. Rasulov A. Adabiyot va ekologik ong. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – 150 b.

4. Glotfelti Ch. The Ecocriticism Reader. – Athens: University of Georgia Press, 1996.

5. Ikromjonovna, J. S. (2024). ARTISTIC AND AESTHETIC PRINCIPLES OF LANDSCAPE IN 20TH CENTURY POETRY (IN THE EXAMPLE OF USMAN AZIM, SHAVKAT RAHMAN, KHURSHID DAVRAN). *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, *4*(05), 165-169.

6. Омон Матжон. Танланган асарлар. – Тошкент: Адабиёт нашриёти, 2023.

7. Alimova, S. G., Nargiza, N. N., Ikromjonovna, J. S., Lola, R. D., Isabayeva, D. K., & Sherali, Q. U. (2025). The Role of Educational Management in Improving the Quality of Teaching and Learning. *Cadernos de educação, tecnologia e sociedade Учредители: University of Minho*, *18*, 187-194.

8. Yo‘ldoshev A. O‘zbek lirikasida peyzaj poetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.

TILLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING AHAMIYATI

Maxmudova Nargiza Ravshanovna,
FarDU, katta o‘qituvchisi, PhD
Ortiqov Shohruhbek Farhodjon o‘g‘li,
FarDU, talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tillarini o‘qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlarning ahamiyati keng yoritiladi. Innovatsion yondashuvlarning o‘quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirish, dars jarayonini samarali tashkil etish hamda mustaqil fikrlashni rivojlantirishdagi roli ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tahlil va taqqoslash metodlari qo‘llanilgan bo‘lib, olingan natijalar kommunikativ yondashuvning o‘quvchilarda nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim omil ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: metodika, interfaol, kommunikativ yondashuv, til o‘qitish,

ЗНАЧЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ЯЗЫКОВ

Аннотация: В данной статье анализируются роль и значение современных технологий и интерактивных методов в процессе преподавания языков. Также раскрывается эффективность инновационных подходов в повышении умственной активности обучающихся. В ходе исследования были использованы методы анализа и сравнения. В результате установлено, что коммуникативный подход играет важную роль в развитии речевой деятельности учащихся.

Ключевые слова: методика, интерактивность, коммуникативный подход, обучение языку

THE IMPORTANCE OF MODERN APPROACHES IN LANGUAGE TEACHING

Abstract: This article analyzes the role and significance of modern technologies and interactive methods in language teaching. It also highlights the effectiveness of innovative approaches in enhancing students’ cognitive activity.

Analytical and comparative methods were used during the research. The findings show that the communicative approach plays a crucial role in developing learners’ speech activity.

Keywords: methodology, interactive, communicative approach, language teaching

Hozirgi globallashuv davrida xorijiy tillarni o‘qitish va o‘rganish jarayoni ham iqtisodiy ham siyosat tomondan mamlakatlar uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunonchi tillarni o‘rganish yoshlarning madaniy saviyasini va dunyoqarashini o‘sishida, shuningdek, kelajakda yetuk kadr bo‘lib yetishishida mustahkam poydevor vazifasini o‘tamoqda. Shu vaqtgacha ko‘plab olimlar tillarni o‘qitishni ko‘plab metodlarini tahlil qilgan bo‘lsada, o‘quvchilarning faolligini oshirish hanuz dolzarbligicha qolmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi esa, maktab o‘quvchilariga chet tillarini o‘qitishda zamonaviy usullarning samaradorligini tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Barchamizga ma’lumki, xorijiy tillarni bilish biz uchun ko‘plab imkoniyatlarni ochmoqda ya’niki xalq tili bilan aytganda “Til bilganga ming tanga, gap bilganga bir tanga”. Zero yirik biznes egalari ham doim 2 yoki undan ko‘p tilni biluvchi kadrlarni qidirishmoqda. Chunki tilni bilish chet el biznesmanlari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatishda ham juda qo‘l keladi. Xorijiy tilni bilish nafaqat iqtisodiy sohada, balki insoniyatning madaniy va ma’rifiy ongini shakllantirishda ham muhim rol egallaydi. Negaki til biluvchi shaxs biror bir chet davlatigaga sayohat uyushtirganda, hech qanday tarjimonga muhtojlik his etmaydi va hattoki oddiy aholi bilan suhbat qurib, natijada u davlatning madaniyatini va urf-odatlarini o‘zi uchun kashf etishi mumkin. Shuning uchun, tillarni o‘qitish hozirda insonlar madaniy saviyasi va dunyoqarashini o‘stirishda muhim omil kasb etmoqda va biz bunga yuzaki qaramasligimiz kerak.

Bugungi kunda chet tilini o‘qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish urfga aylandi. Negaki bu metodlar eski “o‘qituvchi gapiradi – o‘quvchi eshitadi” metodidan tubdan farq qiladi. Bu metodlar bevosita o‘quvchiga bog‘langan bo‘lib, o‘quvchini mustaqil fikrlashiga qaratilgan. Bu metodlarda o‘qituvchi faqatgina yo‘l ko‘rsatuvchi vazifasini egallaydi. Quyida esa bu metodlarga misollar keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir. [1; 44-46.]

Kommunikativ metod (Communicative Language Teaching CLT) – bu tilni real muloqot vositasi sifatida o‘rgatishga qaratilgan usuldir. Asosiy maqsad – grammatikani yodlash emas, balki til orqali fikr almashish, savol javob qilish, tushuntirish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Bu usulni eski an’anaviy metodlardan farqi shundaki, bunda o‘quvchini darsni to‘liq o‘zlashtirish ko‘rsatkichi taqriban 70% ga oshadi. Chunki bu usul o‘quvchini darsda faol qatnashishini ta’minlaydi va o‘quvchini o‘rgatilgan ma’lumotni faqatgina nazariy emas, amaliy takrorlashini ham ta’minlaydi. Bundan tashqari xatolar tabiiy jarayon sifatida qabul qilinadi – maqsad grammatika emas, muloqotda tushunarli bo‘lishdir. [2; 18.]. Mazkur metodning bir qancha afzalliklari mavjuddir:

- o‘quvchini nutq faolligini oshiradi.
- amaliy fikrlash va tinglab tushunish ko‘nikmalarini oshiradi.
- o‘rganilgan bilmlarni haqiqiy hayotda qo‘llash imkonini beradi.

Interaktiv metod – bu o‘qitish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida faol muloqot va o‘zaro hamkorlik asosida o‘rgatish usulidir. Bu metodda o‘quvchilar guruh ishlari, rol o‘yinlari, turli bahs va munozarlar qilishlari mumkin.

Uning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- bir-birini yanada yaxshiroq bilib oladi,
- ijodiy fiklash, mustaqil qaror qilish ko‘nikmalari rivojlanadi
- hamma o‘quvchi darsda aktiv holda qatnashadi – birorta han passiv tinglovchi bo‘lmaydi.

Innovatsion metodlar – bu dars davomida raqamli texnologiyalaridan foydanishga asoslangan usul bo‘lib, bu usulda o‘quvchilar qiziqarli mavzuga oid o‘yinlar o‘ynashi, yokida zarur video va animatsiyalardan foydalanishlari mumkin. [3; 35.]

Tadqiqot natijasida bir necha afzalliklar ko‘zga tashlanadi:

- o‘quvchilar mavzuni tez o‘zlashtiradi.
- yodda saqlab qolishi ortadi.
- va eng muhimi o‘quvchilarga bu motivatsiya bo‘ladi va darslar qiziqarli tarzda davom etadi.

Bugun texnologiyalar davriga kelib, vaqt o‘tishi sari yuqorida aytilganidek, eski an’anaviy o‘qitish usullari o‘rnini yangi zamonaviy metodlar egallab kelmoqda va oliy ta’limda davomiy holda foydalanib kelinmoqda. Negaki bu usullarni eski metodlar bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, ancha samaradorliklari

yuzaga chiqadi. Misol uchun: eski metodlarda o‘qituvchi dars jarayonining markazida turardi. U bilim manbayi, o‘quvchi esa, faqat tinglovchi va topshirqilarni bajaruvchi sifatida qatnashardi. Darslar asosan monolog shaklida bo‘lib, o‘qituvchi asosiy faol shaxs hisoblanardi. Zamonaviy metodlarda esa, buning aksi kuzatiladi: o‘qituvchi – yo‘naltiruvchi, o‘quvchi esa o‘rganish jarayonining faol ishtirokchisi bo‘ladi. Dars jarayoni interaktiv usullarga asoslanib, o‘quvchi fikr bildiradi bahslarda qatnashadi, o‘z fikrini himoya qiladi va real muloqotda o‘z tilini qo‘llay oladi. Shuningdek, ananaviy yondashuv bu grammatikani yod olish, so‘z boyligini oshirish va tarjima salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Zamonaviy metodlar esa, kommunikativ maqsadga asoslanadi – ya’ni tilni o‘rganishdan ko‘zlangan asosiy natija bu o‘quvchining real hayotiy vaziyatlarda erkin so‘zlasha olish qobilyatidir. Shunday ekan zamonaviy metodlardan foydalanish bu xorijiy tillarni o‘rganishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, bollarga faqatgina oliy ta’lim dargohida emas, balki o‘rta maktabda bo‘lgan vaqtidayoq zamonaviy interaktiv yondashuvlardan foydalanish ancha foydaliroq bo‘ladi. Zero, bobolarimiz aytganidek, “Ilm olish makon-joy va yosh tanlamas”. [4; 86.]

Xulosa qilib aytganda, tillarni o‘qitishda zamonaviy metodlar – kommunikativ, interaktiv va inovatsion yondashuvlar – an’anaviy usullarga nisbatan ancha sa’maraliroqdir. Ular o‘quvchini dars jarayoning markaziga qo‘yadi, mustaqil fikrlash va erkin muloqot qilish ko‘nikmlarini rivojlantiradi. Eski metodlar esa nazariy bilimga asoslangan bo‘lsa, zamonaviy metodlar amaliy nutq va real hayotiy muloqotni shakllantiradi. Shu nuqtayi nazardan hozirgi ta’limda ilg’or innovatsion metodlardan foydalanish eng muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Makhmudova, The use of multimedia learning tools in the English language. Мировая наука, 2019, (9/30), 44-46.

2. M. Akbarova, Communicative Language Teaching Approach, Toshkent-2014, p-18

3. Penny Ur, A course in Language Teaching// Cambridge University Press. – 2007, p-35.

4. Richards Jack C., Bohlke D, Creating effective language lessons. New York: Cambridge University Press. 2011, p-86.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SOG‘LOM OVQATLANISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR

Imomaliyeva Musharrafxon Ilhomjon qizi
Filologiya kafedrasi dotsenti v. b.
Aliyeva Sarvina Shavkatjon qizi
Ta’lim fakulteti Maktabgacha yo‘nalishi
1-23-guruh talabasi

Annotatsiya

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish zamonaviy jamiyatda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bolaning sog‘ligi, jismoniy va intellektual rivojlanishi ko‘p jihatdan uning to‘g‘ri ovqatlanishiga bog‘liq. Hozirgi kunda ko‘plab oilalarda bolaning ovqatlanish ratsioniga, uning oziq-ovqat mahsulotlarini tanlashi va iste’mol qilish madaniyatiga yetarlicha e’tibor berilmayapti. Ba’zan ota-onalar bandligi, zamonaviy turmush tarzining tezligi, hamda axborot texnologiyalarining bolalar hayotiga kirib kelishi natijasida ovqatlanish odatlarida muammolar paydo bo‘layotgani kuzatilmoqda.

Kalit so‘zlar: sog‘lom ovqatlanish, maktabgacha yosh, ovqatlanish madaniyati, bolalar salomatligi, ratsion muammolari, yomon odatlar, gigiyena, oziq-ovqat sifati, ovqatlanish ruhi, tarbiyaviy muammolar.

Аннотация

Формирование культуры здорового питания у детей дошкольного возраста является одной из актуальных проблем современного общества. Здоровье, физическое и интеллектуальное развитие ребёнка во многом зависят от его правильного питания. В настоящее время многие семьи уделяют недостаточно внимания питанию ребёнка, культуре выбора и потребления продуктов питания. В связи с занятостью родителей, темпом современного образа жизни и внедрением информационных технологий в жизнь детей порой наблюдаются проблемы с питанием.

Ключевые слова: здоровое питание, дошкольный возраст, культура питания, здоровье детей, проблемы питания, вредные привычки, гигиена, качество продуктов питания, пищевые привычки, проблемы в образовании.

Abstract

The formation of a healthy eating culture in preschool children is one of the urgent issues in modern society. The health, physical and intellectual development of a child largely depends on his proper nutrition. Currently, many families do not pay enough attention to the child's diet, the culture of choosing and consuming food products. Sometimes, due to the employment of parents, the pace of modern lifestyle, and the introduction of information technologies into children's lives, problems with eating habits are observed.

Keywords: healthy eating, preschool age, eating culture, children's health, diet problems, bad habits, hygiene, food quality, eating habits, educational problems.

Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining ilk bosqichi inson hayotida o‘ta muhim va mas’uliyatli davr hisoblanadi. Shu yoshda bola shaxs sifatida shakllana boshlaydi, uning xarakteri, dunyoqarashi, asosiy axloqiy va madaniy qadriyatlari, zamonaviy hayot uchun zarur bilim va ko‘nikmalari yuzaga keladi. Maktabgacha yosh — bu inson tanasi va ruhiy holati uchun o‘sish va rivojlanishning eng faol pallasi hisoblanadi, bu davrda bolaning atrof-muhit bilan tanishuvi bosqichma-bosqich chuqurlashadi, muomala doirasi kengayadi va o‘zini mustaqil his qilishi shakllanadi. Aynan maktabgacha yoshda bolada asosiy sog‘lom hayot tarzi odatlari, mehnatga va o‘qishga munosabat, to‘g‘ri ovqatlanish, shaxsiy gigiyena kabi muhim ko‘nikmalar vujudga keladi. Ushbu davrda bola nafaqat jismonan, balki ma’naviy va aqliy jihatdan ham rivojlanadi, yaqinlari bilan muloqot asosida o‘zini anglay boshlaydi. Oilada va maktabgacha ta’lim muassasalarida bolaga beriladigan mehr, e’tibor, turli mashg‘ulotlar va ko‘rsatmalar uning hayotiga muhim ta’sir ko‘rsatadi. Bolalarning maktabgacha yoshi, odatda, beshgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda bolaning o‘ziga xosliklari, qiziqishlari va ehtiyojlari shakllanadi, u atrofidagi dunyoni o‘zicha anglaydi va o‘rganadi. Bola bu vaqtda ko‘p savollar beradi, kattalarning harakatlari va so‘zlariga taqlid qilib, o‘z xatti-harakatlarini ham o‘zgartirishga harakat qiladi. Uning dunyoqarashi, xarakteri va fe’l-atvorining asoslari aynan shu davrda barpo bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning hayot tarziga oiladagi muhit, ota-ona va yaqinlari, tarbiyachilar va pedagoglarning yondashuvi bevosita ta’sir o‘tkazadi. Har bir bola o‘z hayotining boshlang‘ich davrida ko‘p narsa o‘rganadi: to‘g‘ri gapirish, o‘yin o‘ynash, ovqatlanish, muomala qilish qoidalari, madaniy va axloqiy qadriyatlar – bularning hammasi bolalikda o‘zlashtiriladi. Bu rivojlanish

jarayonining to‘g‘ri tashkil qilinishi kelajakda sog‘lom, ma’naviy boy, zakovatli va mustaqil shaxs ulg‘ayib yetishishiga zamin hozirlab beradi. Maktabgacha yosh bolalarni tarbiyalash va ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishda ota-ona, oila va jamiyat bir butun holda harakat qilishi kerak. Bola shu yoshda atrof-muhtariq voqeliklarni o‘rganishga qiziqadi, har bir narsaga e’tiborli bo‘ladi, yangi bilim va ko‘nikmalarni tez o‘zlashtiradi. Shu bois ham maktabgacha yosh davri — bolalarning hayotidagi eng mas’uliyatli va muhim bosqichlardan biri sifatida alohida o‘rin tutadi. Sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirishda asosiy muammolardan biri bu, birinchi navbatda, ovqatlanish ratsionining nomutanosibligi bo‘lib, bu ko‘pchilik oilalarda an’anaviy holda davom etmoqda. Ko‘pincha, bolaga parhezga moslashtirilmagan ovqatlar tayyorlanadi, ularni ma’lum bir vaqtda, tartibsiz holatda ovqatlantiriladi. Bunday yondashuv bolaning nafaqat jismoniy, balki psixologik holatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [1, 220].

Hozirgi kunda sog‘lom ovqatlanish borasida turli xil axborotlar mavjud bo‘lsa-da, ko‘plab ota-onalar ulardan to‘g‘ri foydalanilmaydi. Ba’zi ota-onalar esa, bola ovqatni tanlab iste’mol qilishini oddiy injiqlik sifatida qabul qiladilar va unga nisbatan muayyan chora-tadbirlarni ko‘rmaydilar. Bunday vaziyatda bola o‘z odatlariga mos ravishda ovqatlanishda davom etadi va natijada, uning rivojlanishida muammolar yuzaga kelishi mumkin. Chunki bolalik davri, ayniqsa, maktabgacha yoshda, inson hayotida sog‘lom hayot asoslarini shakllantirish davri hisoblanadi. Shu sababli, bolalarda sog‘lom ovqatlanishga nisbatan to‘g‘ri yondashuv juda muhim. Sog‘lom ovqatlanishga mas’uliyat bilan qarash bo‘yicha ota-onalar va tarbiyachilar o‘rtasida ham fikrlar turlicha. Ba’zan bog‘chalarda bolalarning umumiy ovqatlanish tartibi va ratsioni unchalik mukammal emas, bu esa bolaning uyda olgan ovqatlanish odatlaridan farq qilishi mumkin. Bola uyda bir xil ovqatlarga o‘rgatilgan bo‘lsa, bog‘chadagi ovqatlarning didi yoki ko‘rinishi unga noma’qul bo‘lishi mumkin, va bola ulardan bosh tortadi. Bu esa, bola organizmida muayyan ozuqa moddalarining yetishmasligiga olib kelishi mumkin. Sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirishdagi yana bir muammo — turli xil tez tayyorlanadigan ovqatlar, ya’ni fastfood va shirin ichimliklarni iste’mol qilishga moyillikdir. Bugungi kunda reklama va tashqi muhit ta’siri ostida bolalarda bu mahsulotlarga qiziqish oshib borayotgani kuzatilmoqda. Bunday mahsulotlarda zarur ozuqa moddalarining yetarli emasligi, ularning doimiy va haddan ziyod iste’moli esa bolalar salomatligiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bunday mahsulotlarni muntazam iste’mol qilgan bolalarda semirish, moddalar almashinuvi buzilishi, allergik kasalliklar va boshqa bir qator muammolar yuzaga kelmoqda [2, 123].

Ilmiy tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, maktabgacha yoshdagi bolalarda fastfood va shirin gazli ichimliklarga bo‘lgan qiziqish birinchi navbatda oiladagi muhit, ota-onalarning ovqatlanish madaniyatiga bo‘lgan munosabati bilan bog‘liq. Ba’zi hollarda bolalar, kattalardan ko‘rib, yoki reklama mahsulotlari ta’sirida bu mahsulotlarni tanlab iste’mol qiladilar. Bu vaziyatda ota-onaning faolligi va mas’uliyati asosiy o‘rinni egallaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yana bir omil – bu tarbiyachilarning va bolalar bilan ishlovchi pedagoglarning bilim darajasi va o‘z ishiga mas’uliyat bilan qaray olishidir. Afsuski, hamma ham ushbu masalaga ongli yondashavermaydi. Bog‘chalarda, ba’zan, sanitariya-gigiyena qoidalariga to‘liq rioya qilinmaydi, ovqatlarning sifati va kaloriyasi nazorat qilinmayotgan holatlar uchraydi. Buning natijasida bolalarda sog‘liq bilan bog‘liq muammolar, salbiy ovqatlanish odatlari shakllanadi. Ovqatlanish madaniyati faqatgina iste’mol qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan emas, balki ularni iste’mol qilish tartibi, odob-axloq qoidalari, tozaligi, ovqatdan oldin va keyingi holatlar bilan ham bog‘liq. Ko‘plab holatlarda bolalarni to‘g‘ri ovqatlanish odatiga o‘rgatishda ota-onalar yetarlicha vaqt ajratmaydilar, bolani mustaqil ovqatlanishga rag‘batlantirmaydilar, uni ovqatlanish jarayonida muloyimlik bilan nazorat qilishadi. Bu esa bolaning yanglish ovqatlanish odatlarini shakllantirishiga sababchi bo‘ladi. Yana bir muammo – bu bolalarni har xil foydali mahsulotlarni iste’mol qilishga o‘rgatishda, ularga to‘g‘ri motivatsiya bera olmaslikdir. Bolalar ko‘proq qiziqarli, rang-barang va shirin mahsulotlarni xohlashadi va nutq bilan asoslangan motivatsiyaga doimo ham rioya qilavermaydilar. Ko‘pchilik ota-onalar bolani eri-taqa bilan ovqatlantirishga urinishadi: bir vaqtlar jazo sifatida yoki rag‘bat sifatida ovqat berishadi, bu esa bolaning psixologik holatiga salbiy ta’sir qiladi. Bolada ovqatlanish jarayoni biron-bir hissiy holat bilan bog‘lanib qolsa, kelajakda bu odatlarning o‘zgarishi qiyin bo‘ladi [3, 178].

Ta’lim dasturlarida ham bolalarga sog‘lom ovqatlanish haqida ma’lumot beruvchi, ularda to‘g‘ri ovqatlanish odatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi mashg‘ulotlar yetarli emas. Ba’zan faqat ona tili yoki matematika kabi asosiy fanlarga ko‘proq e’tibor qaratiladi, biroq ovqatlanish madaniyati umuman nazardan

chetda qolib ketadi. Eng avvalo, bolalar bog‘chasida yetarlicha axborot berilishi, amaliy mashg‘ulotlar, turli tadbirlar va o‘yinlar tashkil qilinishi lozim. Sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirishda atrof-muhit va keng jamoatchilikning roli ham muhim. Mahallalarda, jamoat joylarida, ommaviy axborot vositalarida bolalarga va ularning ota-onalariga sog‘lom ovqatlanishning ahamiyatini targ‘ib qilish ishlari yetarli darajada olib borilmayapti. Ommabop o‘quv dasturlari, ijtimoiy loyihalar, sog‘lom ovqatlanish bo‘yicha bolalar bog‘chalarida ma’ruzalar va axborot soatlari tashkil qilish amaliyoti keng tarqalmagan. Shuningdek, zamonaviy hayot sur’atining tezligi, shahrilik hayot, oilalardagi bandlik va vaqt tanqisligi sababli, bolalar ko‘pincha tez tayyorlanadigan ovqat mahsulotlarini iste’mol qilishga majbur bo‘lmoqda. Buning natijasida esa bolalarda to‘g‘ri ovqatlanish odatlarining shakllanishi qiyinlashadi. Har bir oila o‘z farzandining sog‘lom ovqatlanishni o‘rganishini istaydi, biroq har doim ham harakat va natija o‘rtasida bog‘liqlik bo‘lavermaydi. Bundan tashqari, savdo nuqtalarida keng tarqalgan zararli mahsulotlarning bolalar uchun ochiq va oson harid qilinishi ham muammo yaratadi. Bozorda sun’iy va yarim tayyor mahsulotlarning turli ko‘rinishlari, shirinliklar, gazli ichimliklar, chips va ushbu mahsulotlarning keng targ‘ib qilinishi bolalarning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir qiladi. Bunaqa mahsulotlar arzon va yetarlicha ommalashgan bo‘lgani sababli, ota-onalar ba’zan mablag‘ va vaqt tejash maqsadida ularni xarid qilishga majbur bo‘lishadi. Bu esa bolalarning doimiy asosda zararli ovqatlarni iste’mol qilishiga sabab bo‘ladi [4, 198].

Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi oziq-ovqat mahsulotlari va tayyorlanayotgan taomlar, shuningdek, ularda foydalaniladigan texnologik jihozlarning sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga mosligi, oshxona xodimlari tomonidan sanitariya-gigiena tadbirlari bajarilishiga rioya etilishini aniqlash yuzasidan tasdiqlangan jadval asosida har oyda sanitariya holati o‘rganib borilishini ta’minlashdan iborat. Maktabgacha ta’lim vazirligi va Moliya vazirligi bilan birgalikda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashni belgilovchi sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlarini uch oy muddatda qayta ko‘rib chiqib, zarur hollarda o‘zgartirish kiritish choralari ko‘riladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida sog‘lom va xavfsiz ovqatlanishni tashkil etishning asosiy maqsadi tarbiyalanuvchilarining sog‘lom va barkamol o‘sishini ta’minlash, oshxonalarda sifatli taomlar tayyorlash, taomlarni iste’mol qilish uchun gigienik talablarga muvofiq sharoitlar yaratish

hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida sog‘lom va xavfsiz ovqatlanishni tashkil etishning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirishda psixologik muammolar ham muhim rol o‘ynaydi. Ba’zan, bolasining ovqatlanishiga haddan tashqari e’tibor qaratib, iste’mol qilish tartibini nazorat qilish orqali ota-onalar bolaning mustaqil qaror qabul qilishiga to‘sqinlik qilishadi. Natijada, bola mustaqil ovqat tanlash imkonidan mahrum bo‘ladi va so‘zsiz kattalarning aytganini bajarishga ko‘nikib qoladi. Bu esa bolaning kelajakda o‘zining ovqatlanish rejimini shakllantirishida muammolarga olib kelishi mumkin. Bolalarda to‘g‘ri ovqatlanish madaniyatini shakllantirishda davlat va jamoat tashkilotlarining ham roli juda muhim. Ayni paytda bolalar bog‘chalarida to‘g‘ri ovqatlanishni targ‘ib qilish bo‘yicha bo‘layotgan dasturlar ko‘lami yetarlicha keng emas. Ko‘plab rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning ovqatlanish ratsionini mutaxassislar nazorat qilsa-da, bizda hali bu tizim to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan. Mahalliy, an’anaviy ovqatlar bilan zamonaviy zamona ovqatlari o‘rtasidagi tafovut ham, bolaning ovqatlanish odatlarida muammolarga olib keladi. Ko‘pchilik oilalarda qadimiy an’anaviy ovqatlar tayyorlanadi va bolani ham shu ovqatlarga o‘rgatishadi. Ammo zamonaviy muhitda bolalarning istaklari va ovqatga bo‘lgan munosabati o‘zgarib, bu esa turli qarama-qarshiliklar va muammolarni yuzaga keltiradi.

Sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish zanjarida bolaga, ota-onaga va pedagoglarga teng e’tibor qaratilishi kerak. Har bir ishtirokchi o‘z mas’uliyatini anglab yetmas ekan, muammolar davom etaveradi. Bola hayotida sog‘lom ovqatlanish odatlarini shakllantirish uchun barcha ishtirokchilar birgalikda harakat qilishi kerak. Jamoatchilik hamda davlat organlari ushbu sohada muvofiqlashtirilgan va tizimli ishlarni olib borishi, zarur qonunlar va axborot dasturlari orqali bolalar va ularning ota-onalarini sog‘lom ovqatlanish, zararli mahsulotlardan yiroqlashish borasida har tomonlama ma’lumot bilan ta’minlashi lozim. Jamiyatda sog‘lom ovqatlanish madaniyati targ‘ibotining barcha bosqichlarida rasmiy va norasmiy ta’lim muassasalarining, ommaviy axborot vositalarining ishtiroki muhim hisoblanadi.

Bolalarda sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan muammolar turli sabablarga bog‘liq bo‘lishi mumkin, lekin ularning barchasi, asosan, ota-onalar, pedagoglar, jamiyat va davlatning

birgalikdagi sa’y-harakatlari orqali bartaraf etilishi mumkin. Zamonaviy hayot tarzida, bolaga to‘g‘ri ovqatlanish, sog‘lom mahsulotlar bilan tanishtirish, uni mustaqil ravishda ovqat tanlash va iste’mol qilishga o‘rgatish, fastfood va shirin ichimliklarni imkon qadar cheklash va ularning zararini yetarli darajada tushuntirish orqali muammolar oldini olish mumkin. Maktabgacha ta’lim muassasalari har bir jamiyat uchun eng muhim bo‘g‘inlardan biri hisoblanadi. Bu muassasalarda bolalarning erta yoshdan to‘g‘ri rivojlanishi, ularning jismoniy va aqliy salomatligi, madaniyati, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo‘lib shakllanishi uchun barcha sharoitlar yaratiladi. Aynan maktabgacha ta’lim tizimida sog‘lom ovqatlanish madaniyati, gigiyena, turli kasalliklarning oldini olish bo‘yicha dastlabki asoslar shakllanadi. So‘nggi yillarda ushbu muassasalarning faoliyatini tashkil qilish, u yerdagi ovqatlanish tizimini takomillashtirish, bolalarning ovqatlanish ratsionini zamonaviy va tibbiy talablar asosida rivojlantirish borasida tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning sog‘lom ovqatlanishi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Muassasalar oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlanishda sifatli, tabiiy va xavfsiz mahsulotlarga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Oziq-ovqatlar tarkibi, ularning me’yori, vitamin va mikroelementlarga boyligi mutaxassislar tomonidan chuqur o‘rganilib, muntazam ravishda ma’lumotlar monitoring qilinmoqda. Bu boradagi eng muhim o‘zgarishlardan biri sifatida, qabul qilingan yangi davlat standartlari va normativ hujjatlar asosida bolalar uchun tavsiya etilgan menular joriy etilganini alohida ta’kidlash mumkin. Endi taomlar bolalarning yosh xususiyati, fiziologik ehtiyojlari, metabolizm xususiyatlariga mos ravishda tuziladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ratsion xilma-xilligiga alohida e’tibor berilmoqda. Kundalik menyularda sabzavotlar, don mahsulotlari, go‘sht va baliq mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, tabiiy mevalar va rezavorlar yetarli miqdorda uchraydi. Bolalarning immunitetini kuchaytirish uchun foydali vitaminlar, mikroelementlarga boy oziq-ovqat mahsulotlari uzluksiz tarzda menyuga kiritilmoqda. Oziqa tayyorlash jarayonida zamonaviy texnologiyalardan, zamonaviy oshxona uskunalaridan keng foydalanilayapti. Barcha oshpazlar muntazam ravishda malaka oshiradi, oziq-ovqat gigiyenasi va xavfsizligi, sanitariya qoidalariga rioya etish bo‘yicha doimiy o‘qitiladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida nafaqat ovqat sifati va xavfsizligiga, balki ovqatlanish madaniyatiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Ovqatni to‘g‘ri va

ehtiyotkorlik bilan iste’mol qilish, gigiyena va sanitariya, qo‘lni yuvish, ovqatdan oldin va keyin tozalik qoidalariga rioya qilish bo‘yicha tarbiyaviy mashg‘ulotlar doimiy tashkil qilinadi. Pedagoglar bolalarni birgalikda toza dasturxon atrofida yig‘ilib, ovqatlanish jarayonida axloqiy normalarni, ozodalik, tozalik va odob saqlash ko‘nikmalarini shakllantirishga intiladilar. Bu esa nafaqat bolalar sog‘lig‘ini, balki ularning uyda, maktabda va jamiyatda to‘g‘ri ovqatlanish madaniyati asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Birinchi navbatda, maktabgacha ta’lim muassasalaridagi ovqatlanish tizimida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun maxsus dasturlar joriy etilgan. Bu dasturlarda bolalarni sog‘lom ovqatlantirish, ovqatdan ortiqcha foydalanish va yurak qon-tomir kasalliklari, ortiqcha vazn kabi muammolar oldini olish, allergik kasalliklar tarqalishini kamaytirish kabi asosiy vazifalar ilgari surilgan. Dasturda ovqatlanishni rejalashtirish, kaloriyalarning optimal darajada bo‘lishi, energetik balansni saqlash kabi ko‘rsatkichlar qat’iy nazorat ostida olib boriladi [5, 165].

Tibbiy ko‘riklar, bolalar salomatligini doimiy monitoring qilish va ularning individual alomatlarini hisobga olib ovqat berilishi tizimi ham takomillashtirildi. Kasal bolalarga yoki go‘shtga yoki sutsiz ratsion talab etiladigan bolalarga maxsus ovqat tayyorlash ko‘zda tutiladi. Har bir bola uchun moslangan maxsus menyular mavjud. Tibbiyot xodimlari va ovqatlanishni tashkil etish vakillari bilan yaqindan hamkorlikda ishlanadi. Barcha mahsulotlarning yaroqlilik muddati, sifat ko‘rsatkichlari, ishlab chiqaruvchisi va saqlash sharoitlari muttasil tekshirib boriladi. Odatda oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilishda yetkazib beruvchilardan amalga oshiriladigan davlat xaridlari shaffof tarzda olib boriladi. Bu esa sog‘lom va xavfsiz ta’lim muassasalari uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugungi globallashuv va raqobat kuchaygan davrda maktabgacha ta’lim tizimida ilg‘or xorijiy tajribalardan samarali foydalanilmoqda. Ayrim yirik hududlarda zamonaviy dasturxon madaniyati uchun mo‘ljallangan servirovka, yangi mahsulotlar turini sinov tariqasida muassasalarga joriy etish, eng so‘nggi tibbiy va fiziologik tadqiqotlar asosida bolalar uchun maxsus taomlar yaratish, ekologik toza ovqatlarni har kuni iste’mol qilish imkoniyati yaratilmoqda. Mahalliy mahsulotlar, turli mintaqaviy iqlim va o‘simlik xususiyatlariga e'tibor qaratiladi. O‘quv dasturiga sog‘lom ovqatlanish asoslari, ovqatlanish gigiyenasi bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar, interfaol o‘yinlar, to‘plamlar, rasmlar asosida bolalarga qulay va oddiy til bilan tushuntirish ishlari olib boriladi. Bu orqali bolalarda mustahkam

sog‘lom ovqatlanish ko‘nikmalari, toza dasturxon qoidalari va madaniyatini shakllantirish maqsad qilingan. Pedagoglar va oshpazlar izchil malaka oshirib, ularning malakali ishlashiga e’tibor kuchaytirilmoqda. Shunisi muhimki, maktabgacha ta’lim muassasalarida tez tayyor ovqatlar, ya’ni fastfud, chips, gazlangan ichimliklar, ko‘p miqdorda shirinliklar va boshqa zararli mahsulotlarni menyuga kiritmaslik bo‘yicha qat’iy talablar o‘rnatilgan. Bu kabi mahsulotlar tug‘dirishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarning oldini olish uchun ular qat'iyan man etiladi. Sabzavot va mevalardan iborat yangi foydali taomlar asosiy menyudan o‘rin olmoqda. Non, bo‘tqa, bug‘da yoki qaynatilgan go‘sht mahsulotlari, tabiiy sharbatlar, sut va tvorog, makaron mahsulotlari, qatiq va kefir singari ovqatlar iste'mol miqdoriga mos kiritiladi. Muassasalardagi infratuzilma ham butunlay yangilanmoqda: zamonaviy oshxona va taomlarni saqlash uchun sovitkichlar, gigiyena vositalari va yetarli miqdorda yuvinish jihozlari bilan ta’minlash holati yaxshilanmoqda. Oshxona binolari gigiyena talablariga to‘liq javob berishi, xodimlar va bolalarning yuvinish imkoniyatlari yetarli darajada bo‘lishiga alohida ahamiyat beriladi. Ovqat pishirilayotganda barcha sanitariya va gigiyena qoidalariga qat’iy amal qilinadi, oshpazlar maxsus kiyim va himoya vositalarini taqib yuradi [6, 156].

Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning o‘sish jarayoni, ovqatni tashkil qilish, ishtaha va salomatligi muntazam nazorat qilinadi. Tibbiyot xodimlari har kuni ovqat sifati va tozaligini kuzatib boradilar, bolalar orasida kasallik ko‘rsatkichlari monitoring qilib boriladi. Agar biror salbiy holat kuzatilsa, tezkor choralar ko‘riladi va sabablar bartaraf qilinadi. Ovqatlanish menyusi muntazam yangilanib turiladi va zamonaviy talablarga moslashtiriladi. Ota-onalarning hamkorligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir muassasada ota-onalar bilan ochiq muloqotlar o‘tkaziladi, sog‘lom ovqatlanish, bolalarning to‘g‘ri va xavfsiz ovqatlanishi borasida doimiy maslahatlar beriladi. Ota-onalar uchun sog‘lom ovqatlanish bo‘yicha broshyura, bukletlar, maslahat burchaklari tashkil qilinadi. Yangi dasturxon madaniyati qoidalari, ovqatlanish tartibi, gigiyena, menyu tuzish haqida ota-onalarga ham tushuntirish ishlari olib boriladi.

Hozirgi paytda maktabgacha ta’lim muassasalarida sog‘lom ovqatlanish masalasiga oid barcha islohotlar samaradorligiga davlat va jamoatchilik tomonidan alohida e’tibor berilmoqda. Har bir hududda bolalarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish, immunitetini oshirish, ularning salomatligini mustahkamlash eng muhim

ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Shu boisdan so‘nggi yillarda ajratilgan mablag‘lar, yangi loyiha va dasturlar, yangi avlod jihozlarining xaridi, ilg‘or texnologiyalar, yuqori saviyali mutaxassislar jalb qilinmoqda. Barcha amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar maktabgacha ta’lim muassasalarining zamonaviy va yuqori sifatli, bolalar uchun xavfsiz va sog‘lom muhit yaratishga xizmat qilmoqda. Texnologik taraqqiyot, innovatsion yechimlar, ilg‘or eksperemental dasturlar, xalqaro tajriba va milliy an’analar uyg‘unligi tufayli bolalarning jismonan baquvvat, sog‘lom, e’tiborli, toza va madaniyatli bo‘lib ulg‘ayishi uchun poydevor yaratilmoqda.

Maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatining tubdan isloh qilinishi, zamonaviy ozuqa dasturlarining joriy qilinishi, mahsulotlar sifatining doimiy nazorati, oshxona infratuzilmasining to‘liq yangilanib, gigiyena va sanitariya talablariga to‘liq moslashuvi, xodimlar va pedagoglarning malaka oshirishi, davlat va jamoatchilikning doimiy ishtiroki, ota-onalar bilan yaqin hamkorlik sog‘lom ovqatlanish madaniyatining nafaqat muassasalarda, balki jamiyat va oilalarda ham mustahkamlanishiga turtki bo‘lmoqda. Yangi standart va me’yorlar asosida bolalarning sog‘lig‘i ko‘proq himoyalangan hayot tarzini olib borishda maktabgacha ta’lim muassasalari eng muhim negizlardan biriga aylangan. Maktabgacha ta’lim muassasalarida sog‘lom va to‘g‘ri ovqatlanish tizimi jadal rivojlanmoqda. Ushbu tizim orqali jamiyatning eng kichik a’zolari bo‘lgan bolalarning jismoniy va aqliy salomatligini ta’minlash, ularda to‘g‘ri ovqatlanish madaniyatini shakllantirish, zamon talablariga mos, ekologik toza va xavfsiz ozuqa mahsulotlari bilan ta’minlashga erishilmoqda. Yangi standart va uslublar asosida zamonaviy, gigiyenik va ilmiy asoslangan, bolalar uchun xavfsiz muhitni tashkil etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar kelajakda farzandlarimizning baxtli va baquvvat avlod bo‘lib ulg‘ayishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu boradagi izchil va samarali ishlar davom etmoqda va bundan keyin ham taraqqiyot yo‘lidan borishi tabiiydir [7, 144].

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish bo‘yicha olib borilayotgan tadbirlar va ilgari surilayotgan tashabbuslar hozirgi kunda dolzarb masalalardan biridir. Sog‘lom ovqatlanish madaniyati — bu bolani jismonan sog‘lom, aqliy va ruhiy jihatdan yetuk inson etib voyaga yetkazishning asosiy poydevorlaridan sanaladi. Chunonchi, bolaning doimiy va muvozanatli ovqatlanishi uning organizmining

to‘g‘ri rivojlanishini, immunitetining mustahkamlanishini, aqliy va jismoniy salohiyatining oshishini ta’minlaydi. Bugungi kunda maktabgacha muassasalarda sog‘lom ovqatlanish madaniyatini rivojlantirishda yuzaga kelayotgan muammolar — bu nafaqat ta’lim muassasasining yoki ota-onalarning mas’uliyati, balki butun jamiyat, davlat va sog‘liqni saqlash tizimi oldidagi muhim vazifa hisoblanadi. Ovqatlanishga beriladigan e’tibor va tarbiya bolaning butun umri davomida salomatligiga, rivojlanishiga va kelajak hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onalar esa o‘z farzandlariga ijobiy namuna ko‘rsatib, yoshi kichik bolalarda to‘g‘ri ovqatlanish odatlarining shakllanishiga katta hissa qo‘shishadi. Shu bilan birga, tarbiyachilar va pedagoglar ilmiy asoslangan bilimlarni amaliyotda qo‘llash orqali bolalar uchun sog‘lom ovqatlanish tizimini tashkil etishlari kerak. Shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan aholining keng qatlamlari o‘rtasida sog‘lom ovqatlanish tamoyillarini targ‘ib qilish ishlari samarali olib borilishi lozim. Sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish — kelajak avlodning salomatligini asrash, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga zamin yaratadi. Bu yo‘lda barcha manfaatdor tomonlar hamkorlikda faoliyat olib borgandagina yuqori natijalarga erishish mumkin. Farzandlarimiz sog‘lom va baxtli yashashi uchun har birimiz kundalik hayotimizda sog‘lom ovqatlanish tamoyillarini ilgari surib, ularga to‘g‘ri namunani ko‘rsatishimiz, bilim va ko‘nikmalar ulashishimiz zarur. Oxir-oqibat, sog‘lom ovqatlanish madaniyati rivojlangan jamiyat — mustahkam sog‘liq, aqliy salohiyat va kuchli iqtisodiy salohiyat garovidir. Shu sababli mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan har bir tashabbus va harakat kelajak uchun mustahkam poydevor yaratishga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish borasidagi muammolarni hal etish uchun ota-onalar va pedagoglar ishtirokida muntazam ravishda sog‘lom ovqatlanish bo‘yicha ma’rifiy treniniglar va seminarlar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Dasturiy ovqatlanish menyularini zamonaviy ilmiy asoslarda ishlab chiqish, ular orqali bolaning yoshiga mos va ozuqaviy jihatdan muvozanatli ovqatlar berilishini ta’minlash lozim.

Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligini doimiy ravishda nazorat qilib borish, shuningdek, ta’lim muassasalarida zararli va nosog‘lom mahsulotlardan foydalanishni cheklash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraxmanova D. B. “Oziq-ovqat xavfsizligi va gigiyenasi”. – Farg‘ona, 2019. – 220 b.
2. Axmedova Z. X. “Yosh bolalarda ovqatlanishni to‘g‘ri tashkil etish”. – Toshkent, 2015. – 123 b.
3. Hasanova D. M. “Oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibi”. Andijon, 2021. – 178 b.
4. Komilova M. A. “Ovqatlanish biologiyasi va gigiyenasi”. – Samarqand, 2017. – 198 b.
5. Nazarova G. N. “Sog‘lom turmush tarzi va ovqatlanish”. – Toshkent, 2018. – 165 b.
6. Ro‘ziyeva Sh. M. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirishning ahamiyati”. – Toshkent, 2022. – 156 b.
7. Ro‘ziyeva Sh. M. “Sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish”. – Toshkent, 2020. – 144 b.
8. Sh. I. Karimov tahriri ostida. “Sog‘lom ovqatlanish – salomatlik mezoni”. – Toshkent, 2019. – 158 b.
9. To‘xtasinov O. S. “Oziq-ovqat gigiyenasi”. – Toshkent, 2016. – 210 b.

ONA TILI DARSLARINING NOAN’ANAVIY SHAKL VA USULLARI ORQALI O‘QUVCHILARNING FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Z. K. Kalendarova
Qo‘qon Universiteti “Ta’lim” kafedrasi v.b. dotsent

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar savodxonligini oshirish, fanlarni o‘qitishda ularning integratsiyasini ta’minlash, o‘quv fanlari bo‘yicha yangi bilimlarni shakllantirish, pedagogik texnalogiyalarni o‘zlashtirish va darsda interfaol usullarni qo‘llash, turli inter- faol usullar orqali yetkazish darsning sifat va samarador- ligini yanada oshirish, o‘quv fanlari integratsiyasining zaruriy shart-sharoitlari, shakl, mazmun va vositalarini ishlab chiqish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, o‘quvchi, o‘qituvchi, bilim, ko‘nikma, malaka, savodxonlik, dars jarayoni, pedagogik texnologiya, fan, integratsiya.

АННОТАЦИЯ: В данной статье речь идет о повышении грамотности учащихся младшего школьного возраста, обеспечении их интеграции в

преподавании предметов, формировании новых знаний по учебным предметам, освоении педагогических технологий и применении интерактивных методов на уроке, дальнейшем повышении качества и эффективности урока посредством различных интерактивных методов, разработке необходимых условий, форм, содержания и средств интеграции учебных предметов.

Ключевые слова: образование, ученик, учитель, знания, навыки, умения, грамотность, учебный процесс, педагогическая технология, наука, интеграция.

ANNOTATION: This article discusses improving the literacy of primary school students, ensuring their integration in teaching subjects, forming new knowledge in academic subjects, mastering pedagogical technologies and applying interactive methods in the lesson, further improving the quality and effectiveness of the lesson through various interactive methods, and developing the necessary conditions, forms, content, and tools for the integration of academic subjects.

Keywords: education, student, teacher, knowledge, skill, competence, literacy, lesson process, pedagogical technology, science, integration.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar savodxonligini oshirishda, ularning dunyoqarashini shakllantirishda, ona tili asosiy va yetakchi fanlardan biri hisoblanadi. U yuqori sinflarda o‘rganiladigan ona tili va adabiyot darslarining tarkibiy qismidir.

Ona tilini o‘qitish savodxonlikning asosiy kaliti ekanligini unutmasligimiz kerak. Chunki savodxonliksiz hech narsaga erishib bo‘lmaydi. Savodxonlikning zaminida husnihat ham yotadi.

Bu ham o‘quvchining aqliy qobiliyatini oshirishda asosiy rol’ o‘ynaydi. Bu esa ushbu jarayonni amalga oshirishda pedagogik texnalogiyalarni o‘zlashtirish va darsda interfaol usullarni qo‘llash orqali o‘quvchilar bilimi va ko‘nikma malakalarini mustahkamlashni taqozo etadi[2, 5]. 1-sinf «Ona tili» darsligida «Insonning yaxshi do‘sti» hikoyasi mavjud. Dars jarayonida bu hikoya orqali o‘quvchilar qushlar olami bilan tanishadi. Qushlar o‘zlarining jozibali raqsga tushishi, turli xil ohanglarda sayrashi va insonlarga zavq - quvonch olib kelishi bilan o‘quvchi e’tiborini o‘ziga jalb etadi. Bugungi kunda 450 turga yaqin qushlar yurtimizda yashaydi. Qushlar va jonivorlar ob-havo darakchisi sifatida ham

xarakterlidir. Jumladan, havo bulutli kunlari qanotli chumolilar paydo bo‘lsa, yomg‘ir yog‘adi. Turnalar erta uchib kelsa, ko‘klam erta boshlanadi.

Yozda pashshalar ko‘paysa, havo dim bo‘ladi. Qaldirg‘och yer bag‘irlab uchsa havo buziladi, u balandlab uchsa, havo yaxshi bo‘ladi. Bu kabi ma’lumotlarni o‘quvchilarga turli interfaol usullar orqali yetkazish darsning sifat va samaradorligini yanada oshiradi va o‘quvchilar bilimini mustahkamlaydi. O‘quvchilar bu qo‘shimcha ma’lumotlar orqali hikoyaning mazmunini chuqur o‘zlashtiradilar, qushlarning tabiati haqidagi tushunchalari kengayadi[2, 3, 4].

Zamonaviy sharoitlarda fanlarni o‘qitishda ularning integratsiyasini ta’minlashga yetarli e’tibor berilmay kelmoqda. Muammoni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar esa tegishli o‘quv rejalarida ushbu fanlarni o‘qitishning vaqt bo‘yicha muvofiqlashtirilishi yoki fanlar mazmunini qisman uyg‘unlashtirishga oid tadbirlar bilan cheklanmoqda. Uni tubdan hal qilish uchun esa, talabalar egallaydigan bilimlari yuqori sifat darajasini ta’minlovchi o‘quv fanlari integratsiyasining zaruriy shart-sharoitlari, shakl, mazmun va vositalarini ishlab chiqish talab etilmoqda [5, 6].

Zamonaviy didaktika **o‘quv fanlarini integratsiyalashga** bir qancha **yondashuvlarni taklif qiladi,** biroq hali bu jarayonning umum e’tirof etilgan mazmuni, shakl va vositalari yaratilgan emas. Ko‘pchilik pedagog olimlar ta’limdagi integratsion jarayonlarni o‘rganishda fundamental fanlarni integratsiyalashdagi tasavvurlardan kelib chiqqan holda ish ko‘radilar. Bu holat integratsiyaning dastlab fundamental tarmoqlarda amalga oshib, keyinchalik pedagogika sohasiga tarqalganligi bilan izohlanadi. Ta’kidlash joizki, o‘quv fanlari ilmiy fanlardan farq qiladi. Faqat bu farq ular mazmunida emas, balki bilimlarning berilish shakli, hajmi va bayon qilinish chuqurligida o‘z aksini topadi[*587–594*].

O‘quv fanini o‘rganishdan maqsad o‘quvchini fandagi obyektiv yangilik bilan tanishtirish emas, balki unda subyektiv yangilikka ega bo‘lgan bilimlarni shakllantirishdan iborat. Shu sababli, o‘quv fanlari integratsiyasi ilm-fandagi shu jarayonlardan farq qiladi. Bu ma’noda **integratsiya** – fanlarning differentsiatsiyasi tufayli tarixan tarkib topgan o‘quv fanlariga bo‘lib o‘qitish tizimining kamchiliklarini tuzatishga qaratilgan ularning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash shakli sifatida qaralishi mumkin.

O‘quv fanlarini integratsiyalashning didaktik mohiyati turli o‘quv fanlari bo‘yicha yangi bilimlarni shakllantirishning kontseptual tuzilma va

metodlarini aniqlash imkonini beruvchi pedagogik tadbirlar tartibi hamda qonuniyatlarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Tor ma’noda qaralganda, o‘quv fanlari integratsiyasi fan sohalari va ilmiy bilimlar o‘zaro sintezining uzviy davomi hisoblanadi. O‘quv fanlari integratsiyasining asosiy maqsadi subyektiv yangi bilimlarni sintez qilishdan iborat bo‘lib, integratsiya jarayonlarining bosh vazifasi – subyektiv yangi ilmiy bilimlarni sintez qilishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishdan iborat [3, 4, 5].

O‘quv fanlarini integratsiyalashgan holda o‘rganishda subyektiv yangi bilimlar sintezi qanday kechadi? – degan savol yuzaga kelishi mumkin. Didaktikada turli fanlarga taaluqli o‘quv materiallarini bitta kursga birlashtirish kabi integratsiyaning turli shakllari taklif qilinadi. Biroq, pedagogik tajribalar bu kabi shakllarning yetarli samara bermasligini ko‘rsatmoqda. Biz, ta’lim tizimida tarixan tarkib topgan fanlarga bo‘lib o‘qitish tizimi saqlanib qolishining tarafdorimiz.

O‘quv fanlari nisbatan mustaqil bo‘lishi kerak, chunki ularning har biri o‘z tili, tushunchalar apparati, metodologiyasi, metodikasi, tadqiqot predmeti va konsepsiyasiga ega alohida fan sohasini ifoda etadi.

Shu bilan birga, ularni o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish bilan bog‘liq imkoniyatlar ro‘yobga chiqarilishi lozim. Bunday imkoniyat jumladan fanlararo yondashuv asosida ta’minlanadi. Uni o‘quv fanlarini integratsiyalash shakli sifatida ham, subyektiv yangi bilimlarni sintez qilish metodi sifatida ham qarash mumkin[5, 6].

Biz o‘quv fanlarini integratsiyalash natijasi fanlar o‘zaro bog‘lanmagan holda o‘rgatilganda shakllantirish mumkin bo‘lmagan subyektiv yangi bilimlarning o‘zlashtirilishi, - degan kontseptual g‘oyaga tayanamiz.

Ilmda yangi bilimlarning fanlararo sintez jarayoni juda sekin kechib, ba’zida u bir qancha o‘n yilliklarga teng davrni qamrab oladi. O‘quv jarayonida o‘qituvchi bir yoki bir necha mashg‘ulot, yoki hatto bir necha daqiqa ichida talabani turli fanlariga oid o‘zlashtirilgan bilimlarga tayanuvchi subyektiv yangi bilimga “olib kelishi” kerak bo‘ladi. Ya’ni, bilimlarni tayyor holatida berish emas, balki ularning sintezi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Bu vazifani amalga oshirishning texnologik usullaridan biri bir sohaga oid bilimlarni boshqasiga olib o‘tish bilan bog‘liq bo‘lib, u fanlararo aloqalarni o‘rnatishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, bilimlarning har qanday olib

o‘tilish holati subyektiv yangi bilimlar sinteziga olib kelmaydi. Buning uchun ushbu bilim inversiyaga uchrashi lozim[7, 8, 9].

Xulosa qilib aytganda maxsus turkumdagi fanlarni integratsiyalash imkoniyatlari ularning mazmunida mujassamlashgan, zero, u o‘zida tabiatiga ko‘ra yagona bo‘lgan atrof-olam to‘g‘risidagi bilimlarni ifoda etadi. Pedagogikaga oid ilmiy izlanishlarda o‘quv fanlarini o‘qitishdagi tarqoqlikni bartaraf qilishga qaratilgan shakl, metod hamda vositalari tizimini, ularning asosi bo‘lgan o‘qitish va tarbiyalash jarayoni metodologiyasini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmog‘i lozim.

Foydalangan adabiyotlar ro`yxati:

1. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Т. : “Ўзбекистон” -2017 йил. 14 январь. 104 бет.

2. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). Bo ‘lajak boshlang ‘ich sinf o ‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(12), 208-211.

3. Abduraxmonova, N. A. "qizi. (2023). Bo ‘lajak boshlang ‘ich sinf o ‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. " *Educational Research in Universal Sciences* 2. 12: 208-211.

4. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 198–201. Retrieved from http://erus. uz/index. php/er/article/view/5505

5. Ergasheva, A., & Hamrayev, M. A. (2025). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI O‘QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI. B ZDPP (T. 4, Выпуск 4, сс. 48–49). Zenodo. https://doi. org/10. 5281/zenodo. 14948697

6. Kalendarova, Z. K. (2024). INTEGRATSIYA NEGIZIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(2), 189-195.

7. Z. K. Kalendarova (Author). INTEGRATSIYA NEGIZIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH. 2024-12-07.

8. Kalendarova Zarafshan Kalbaevna, & Raximova Komila. (2024). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilish qobilyatini rivojlantirish. *university research base*, 274–277. retrieved from https://scholar. kokanduni. uz/index. php/rb/article/view/89

9. Z. K. Kalendarova. (2025). DEVELOPING STUDENTS’ THINKING ABILITY THROUGH THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATION. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *12*(04), 125–129. Retrieved from https://www. eijmr. org/index. php/eijmr/article/view/2859

10. Z. K. Kalendarova, “BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNING SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA ULARNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH. // “MURAKKAB MUAMMOLAR BILAN YUZLASHAYOTGAN ZAMONAVIY TA’LIM VA PSIXOLOGIYA: SHAXSIY RIVOJLANISHGA TA’SIR ETUVCHI SINERGETIK YONDASHUV MUAMMOLARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLAR TO‘PLAMI 2025-yil 15-aprel 1-QISM. 289-291 bet.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MATEMATIK TAFAKKURNI MANTIQIY MASALALAR ORQALI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI.

Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dehqonovam@gmail. com
+998904078293

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirishda mantiqiy masalalarning o‘rni, funksional ahamiyati va didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Mantiqiy masalalar orqali matematik fikrlash jarayonini faollashtirishning nazariy, psixologik hamda metodik asoslari ochib beriladi. Shuningdek, boshlang‘ich ta’limda mantiqiy masalalardan foydalanishning samaradorligini oshiruvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: matematik fikrlash, mantiqiy topshiriqlar, boshlang‘ich ta’lim jarayoni, analitik tafakkur, didaktik yondashuvlar.

Аннотация: В данной статье научно обоснованно анализируются образовательные и развивающие возможности логических задач в процессе формирования математического мышления младших школьников. Логические задачи рассматриваются как интеллектуальный инструмент, активизирующий аналитическое, логическое и моделирующее мышление учащихся. В исследовании подробно раскрываются их содержание, дидактические функции и психологические механизмы влияния, а также обосновывается их роль в развитии математического мышления. Кроме того, разрабатываются методические подходы к эффективному использованию логических задач и предлагаются рекомендации, направленные на развитие мыслительных компетенций учащихся в практике начального образования.

Ключевые слова: математическое мышление, логические задания, процесс начального обучения, аналитическое мышление, дидактические подходы.

Annotation: This article provides a scientifically grounded analysis of the educational and developmental potential of logical problems in fostering mathematical thinking among primary school students. Logical tasks are examined as an intellectual tool that activates analytical, logical, and modeling-related thinking skills in learners. The study elaborates on the content, didactic functions, and psychological mechanisms of these tasks, substantiating their role in the development of mathematical reasoning. In addition, methodological approaches for the effective use of logical problems are proposed, along with recommendations aimed at enhancing students’ thinking competencies within primary education practice.

Keywords: mathematical reasoning, logical tasks, primary education process, analytical thinking, didactic approaches.

Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv va innovatsion didaktik vositalarning joriy etilishi boshlang‘ich ta’limda matematik tafakkurni rivojlantirish masalasini yanada dolzarb muammolardan biriga aylantirmoqda. Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning matematik bilimlarni ongli, tizimli va mantiqiy asosda egallashi ularning keyingi bosqichlarda murakkab matematik tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini belgilab beradi. Shu nuqtai nazardan, mantiqiy mazmundagi masalalar

bilan ishlash jarayoni o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi eng samarali didaktik vositalardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Boshlang‘ich ta’lim dasturlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, mantiqiy masalalar o‘quvchilarda quyidagi fikrlash komponentlarini shakllantirishga yordam beradi:

Uahliliy fikrlash berilganlarni o‘rganish, ularning mohiyatini aniqlash, mantiqiy izchillikni ko‘ra olish;

Umumlashtirish turli holatlardan umumiy xulosa chiqarish;

Sabab - oqibat aloqalarini aniqlash jarayonlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishlarni tushunish;

Matematik modellash muammoni sxema, jadval, model orqali ifodalash; Abstrakt tafakkur obyekt yoki hodisalarni ularning umumiy belgilari orqali idrok qilish.

Pedagogik va psixologik manbalarda matematik tafakkur ko‘p komponentli jarayon sifatida baholanadi. Tadqiqotchilar uni asosan ikki asosiy yo‘nalishda ko‘rib chiqadilar:

1. Mantiqiy fikrlash tahlil, sintez, taqqoslash, klassifikatsiya, xulosa chiqarish kabi intellektual amallarni bajarish qobiliyati.
2. Kreativ fikrlash yechimning noan’anaviy yo‘llarini topish, turli variantlarni solishtira olish, muammoni keng qamrovli ko‘ra bilish.

J. Piagetning intellektual rivojlanish nazariyasi kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning konkret operatsiyalar bosqichida bo‘lishini ta’kidlaydi. Bu bosqichda bola umumlashtirish, taqqoslash, tartiblash va sodda mantiqiy xulosalar chiqarish kabi amallarni bajarishga tayyor bo‘ladi. Shuning uchun mantiqiy masalalarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi o‘quvchining tabiiy intellektual rivojlanish qonuniyatlariga mos keladi[4,78].

L. S. Vygotskiy esa o‘quv jarayonida masala yechish faoliyati bolaning yaqin rivojlanish zonasini kengaytiruvchi asosiy vosita ekanini ta’kidlaydi. Bu esa mantiqiy masalalar orqali bolaning mustaqil fikrlashi, umumlashtirishi va tushunchaviy tafakkuri rivojlanishini anglatadi[5].

A. V. Beloshistaya, M. A. Bantova, R. O. Mavlonova va boshqalar mantiqiy masalalarni boshlang‘ich ta’limda matematik tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning muhim komponenti sifatida baholaydilar[3]. Ularning fikricha, bunday masalalar faqat matematik mazmunga ega bo‘lish bilan cheklanmay, balki

o‘quvchida mustaqillik, izchillik, aniqlik, intellektual faollik kabi sifatlarni ham shakllantiradi[1].

Matematik tafakkur miqdorlar, munosabatlar, shakllar va jarayonlar mohiyatini yoritishga qaratilgan maxsus fikrlash shakli bo‘lib, u mantiqiy operatsiyalar tizimiga asoslanadi. Mantiqiy masalalar esa mazkur operatsiyalarni faollashtiruvchi va ularning izchil shakllanishiga xizmat qiluvchi samarali vositadir[2].

Bunday masalalar: tahlil qilish; taqqoslash; umumlashtirish; aloqadorliklarni aniqlash; mantiqiy xulosa chiqarish; kabi tafakkur amallarini faollashtiradi, natijada o‘quvchilarda matematik fikrlashning chuqurligi va izchilligi kuchayadi[6].

Mantiqiy masalalarning ta’limdagi funksional ahamiyati ko‘p qirrali bo‘lib, ular quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O‘quv funksiyasi o‘quvchilarning intellektual faolligini oshiradi, matematik tushunchalarni ongli o‘zlashtirishga yordam beradi.
2. Rivojlantiruvchi funksiyasi tafakkurning tahliliy, sintezlovchi va umumlashtiruvchi komponentlarini faollashtiradi.
3. Tarbiyaviy funksiyasi izchillik, puxtalik, to‘g‘ri xulosa chiqarish kabi sifatlarni shakllantiradi.
4. Motivatsion funksiyasi dars jarayoniga qiziqishni oshiradi, o‘quvchida ichki motivatsiyani shakllantiradi.

Mantiqiy topshiriqlarning turlari topishmoqlar, kombinatorik masalalar, geometriyaviy mantiqiy muammolar, algoritmik masalalar tafakkur faoliyatining turli jihatlarini rivojlantiradi.

Mantiqiy masalalarni o‘qitish jarayoni quyidagi metodik bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Muammoni anglash masala shartini to‘liq idrok etish, asosiy ma’lumotlarni ajratish.
2. Tahlil berilganlar va izlanayotganlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash, yechim yo‘lini rejalashtirish.
3. Model yaratish sxema, jadval, grafik yoki algoritmik ko‘rinishda masala modeli tuzish.
4. Yechimni asoslash mantiqiy ketma-ketlik asosida yechimni izohlash.

5. Natijani tekshirish yechimning to‘g‘riligi, izchilligi va mantiqiy asoslanganligini baholash.

Mazkur metodik ketma-ketlik matematik tafakkur shakllanishining didaktik mexanizmini ta’minlaydi.

Mantiqiy masalalardan na’munalar: 1. Darsda o‘qituvchi doskaga biror qonuniyat asosida 11, 16, 22, 29, 37.. . sonlarni yozmoqda. Bu sonlarni davom ettirgan holda keyingi 2 tasini yig‘indisini toping.

Yechim: Berilgan sonlar quyidagicha qonuniyat asosida yozilgan:

11+5=16 16+6=22 22+7=29 29+8=37. U holda keying 2 tasi: 37+9=46 46+10=56 va ularning yig‘indisi 46+56=102 ga teng.

2. O‘qituvchi 3 ta o‘quvchini doskaga chiqarib, ularning har biriga alohida vazifa berdi:

Sardorga: “Dastlabki 8 ta natural sonning yig‘indisini 6 ga bo‘ling. ”

Sanjarga: “Dastlabki 8 ta natural sonning yig‘indisini 12 ga bo‘l. ”

Sarvarga: “Sardorning natijasini Sarvarning natijasiga bo‘l. ” Bunga ko‘ra, Sarvarda qanday son hosil bo‘ladi?

Yechim: Sardor hosil qilgan son: (1+2+3+4+5+6+7+8): 6=36:6=6.

Sanjar hosil qilgan son: (1+2+3+4+5+6+7+8):12=36:12=3. Sarvar hosil qilgan son: 6:3=2.

Berilgan masala yechimi shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini sodda mantiqiy-amaliy topshiriqlarni bajarishga jalb qilish ularning matematik tafakkurini faollashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Sardor, Sanjar va Sarvar bajaradigan ketma-ket amallar o‘quvchidan sonlar yig‘indisini hisoblash, natijalarni taqqoslash, bo‘lish amalining mazmunini anglash hamda natijalar orasidagi mantiqiy bog‘lanishni topishni talab qiladi. Bu jarayon esa tahliliy fikrlash, izchil mulohaza yuritish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarining shakllanishini ta’minlaydi. Ayniqsa, masala bosqichma-bosqich yechilganida o‘quvchi turli natijalarni o‘zaro solishtiradi va yakunda umumiy xulosani hosil qiladi. Shunday mantiqiy mazmundagi topshiriqlardan tizimli foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik fikrlashning asosiy komponentlari tahlil, sintez, umumlashtirish, mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlash hamda amaliy xulosalar chiqarishni rivojlantiradi. Demak, bunday masalalar metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilganda, ular o‘quvchilarning matematik tafakkurini

chuqurlashtiruvchi samarali vosita sifatida xizmat qiladi va mavzu doirasida belgilangan nazariy-metodik talablarga to‘liq mos keladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar quyidagi psixologik xususiyatlarga ega: tasavvur kuchining rivojlanganligi; obrazli fikrlashning ustunligi; o‘yin faoliyati bilan chambarchas bog‘liqlik; mantiqiy xulosa chiqarish jarayonining shakllanish bosqichida bo‘lishi. Shu sababli mantiqiy masalalar o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos tarzda, yengildan murakkabga o‘tuvchi, vizual tasvirlar bilan boyitilgan shaklda taklif etilishi lozim.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mantiqiy masalalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirishda juda samarali vosita hisoblanadi. Bunday masalalar tahliliy fikrlash, umumlashtirish, mantiqiy xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish kabi muhim intellektual malakalarni shakllantiradi. Ularni dars jarayoniga tizimli ravishda kiritish o‘quvchilarning matematik bilimlarni ongli o‘zlashtirishini ta’minlaydi va ta’lim sifatini oshiradi. Shu asosda ishlab chiqilgan metodika boshlang‘ich ta’lim amaliyotida yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlonova R. O., To‘rayeva G. R. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. Toshkent: “O‘qituvchi”, 2014. 248 b.
2. Bantova M. A., Beltyukov A. G. Metodika prepodavaniya matematiki v nachalnyx klassax. Moskva: Prosveshchenie, 2012. 320 s.
3. Beloshistaya A. V. Razvitie logicheskogo myshleniya mladshikh shkolnikov. Moskva: Akademiya, 2011. 212 s.
4. Piaget J. The Psychology of the Child. New York: Basic Books, 1972. 240 p.
5. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978. 159 p.
6. Mavlonova R. O., Qodirova F., Raxmonkulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2016. 300 b.

TA’LIM JARAYONINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MUAMMOLI TA’LIMDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Z. K. Kalendarova
Qo‘qon Universiteti “Ta’lim” kafedrasi v.b. dotsent

To‘xtaboeva Muniraxon Nodir qizi
Qo’qon universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada muammoli o‘qitishning mohiyati, o‘qituvchi tomonidan talabalarning o‘quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o‘quv vazifalari, ta’limdagi muammolilik an’anaviy didaktikaning prinsiplari, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish bo‘yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish, maktablaridagi samarador o‘qitish texnologiyasi, o‘qitish jarayonida o‘quvchining mustaqilligi o‘qitishning reproduktiv shakllari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: muammoli vaziyat, ta’lim jarayoni, bilish faoliyati, fikrlash qobiliyati, ijodiy fikrlash, metod, texnologiya.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается сущность проблемного обучения, создание учителем проблемной ситуации в учебной работе учащихся и учебных задач, управление их познавательной деятельностью по усвоению новых знаний путем решения принципов, проблем и вопросов традиционной дидактики проблемности в образовании, эффективная технология обучения в школах, самостоятельность учащихся в процессе обучения, репродуктивные формы обучения.

Ключевые слова: проблемная ситуация, учебный процесс, познавательная деятельность, способность мыслить, творческое мышление, метод, технология.

ANNOTATION: This article discusses the essence of problem-based learning, the creation of a problem situation by the teacher in the educational work of students and educational tasks, the principles of problem-based learning in education, the management of their cognitive activity in acquiring new knowledge by solving problems and questions of traditional didactics, effective teaching technology in schools, student independence in the learning process, and reproductive forms of teaching.

Keywords: problem situation, educational process, cognitive activity, thinking ability, creative thinking, method, technology.

Jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida ta’lim jarayoniga qo‘yilgan talablar bir xil bo‘lgan emas. Chunonchi, ular jamiyat rivojlanishining

qonuniyatlaridan va uning eng muhim vazifasi - yosh avlodni o‘qitish hamda tarbiyalashdan kelib chiqqan. Hozirgi kunning vazifasi - o‘quv jarayonini o‘quvchilarda faqat reproduktiv fikrlashni emas, balki ijodiy fikrlashni ham shakllantiradigan yo‘sinda tashkil qilishdir. Psixologlarning ta’kidlashicha, fikrlash „doimo muammo yoki savoldan, ajablanish yoki tushuna olmaslikdan va ziddiyatdan boshlanadi“ (S. O. Rubinshteyn). [1]

Ana shularga ko‘ra, pedagogika nazariyasi va amaliyoti asosini o‘quv muammosi tashkil etadigan ta’limga muammoli yondashish tushunchasi faol kirib kela boshladi. Bu muammoning mohiyati o‘quvchiga ma’lum ko‘nikma va malakalar bilan tushunish hamda tushuntirish uchun ilgarigi bilimlar kamlik qiladigan voqealar o‘rtasidagi didaktik ziddiyatlardan iboratdir. Bunday ziddiyat ijodiy o‘zgartirishga turtki bo‘ladi (M. I. Maxmutov). [3]

Biz ta’limdagi muammolilikni o‘quvchilarning o‘quv muammosini anglash va hal qilish borasidagi bilish harakatlarini tashkil etish sifatida tushunamiz. Ta’limdagi muammolilikning muhim xususiyati muammoli vaziyatni vujudga keltirish hisoblanadi. Bunda shuni nazarda tutish lozimki, muammoli vaziyat hayotiy fakt va voqealar asosida vujudga keltiriladi, chunki bu vaziyat tabiiy shaklga qancha mos bo‘lsa, o‘quvchilarni faollashtirish va muammoni hal qilishga jalb etish imkoniyati shuncha katta bo‘ladi. Ta’limdagi muammolilik an’anaviy didaktikaning prinsiplarini va qoidalarini inkor qilmaydi, balki ularga tayanadi. Ta’limda muammoli yondashishni joriy etishdan maqsad hozirgi ta’lim jarayonini o‘quv-chilarning ijodiy fikrlashini faol rivojlantiradigan metodlar va usullar bilan to‘ldirishdan iborat. [2, 4]

O‘quv jarayonini takomillashtirishning asosiy maqsadi uni sifat jihatdan yangi pog‘onaga ko‘tarishdir. Ana shu maqsadga ko‘ra o‘qituvchining faoliyatida qanday yangilik namoyon bo‘lishi kerak? Eng avvalo, u materialni shunchaki bayon qilmasligi va o‘quvchilarga tayyor xulosalar hamda umumlashmalarni aytib bermasligi kerak. Balki ularning fikrini o‘rganilayotgan obyektga jalb etishi shart.

Hozirgi kun maktablaridagi samarador o‘qitish texnologiyasi – bu muammoli o‘qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy – tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o‘qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi. [5]

Muammoli o‘qitishning mohiyatini, o‘qituvchi tomonidan talabalarning o‘quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o‘quv vazifalarini, muammolarini va

savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish bo‘yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o‘zlashtirishning ilmiy – tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Ma`lumki o‘qitishning har qanday asosida, inson faoliyatining muayyan qonuniyatlari, shaxs rivoji va ular negizida shakllangan pedagogik fanning tamoyillari va qoidalari yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishdagi obektiv qonuniyatlari hamda didaktik tamoyil – muammolilikka tayanadi.

Demak, o‘zining tarbiyalanuvchilariga olgan bilimlarini kuzatilgan hayotiy fakt va voqealar bilan qiyoslashni, shu asosda to‘g‘ri xulosa va umumlashmalar chiqarishni o‘rgatishi darkor. Mana shularning hammasi birgalikda ta’lim jarayoniga zamonaviy tus beradi va muammoli o‘qitish jarayonida o‘quvchining mustaqilligi o‘qitishning reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o‘sib boradi. [5, 6]

Muammoli savollar tizimini ishlab chiqishda o‘quvchilarni o‘ylashga majbur qilish hamda ularning javoblari ehtimoli nazarda tutiladi. Shu bilan boG‘liq ravishda mashG‘ulot stsenariysi mashG‘ulotning biror variantini aks ettirishi lozim bo‘ladi, uning realligi esa o‘qituvchining o‘quvchilardagi boshlanG‘ich fikrlash qobiliyati darajasi haqidagi qay darajada bilimga ega bo‘lishiga boG‘liq. Shu bilan birga, hatto yaxshi ishlab chiqilgan stsenariy bo‘lsa – da, darsning borishida avval o‘ylangan rejadan chetga chiqishlar bo‘ladi. Chunki o‘quvchilarning individual xislatlari, bilimlarining darajasi va kengligi har xil bo‘ladi. Shu tufayli o‘qituvchi darsni samarali o‘tkazishi uchun mavzuga muvofiq material mazmunini o‘zi yuksak darajada egallagan bo‘lishi shart. [7]

Dars boshida o‘qituvchi tayyorlab kelgan savollari yoki vazifalaridan foydalangan holda, o‘quvchilarda darsda qatnashish uchun etarli bo‘lgan bilimlarni yuzaga chiqaradi.

Bilimlarni yuzaga chiqarish, bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo‘yicha darslardagi usullar asosida, amalga oshiriladi. So‘ng yuzaga chiqarilgan bilimlar asosida o‘qituvchi mashG‘ulotda hal qilinadigan muammoni o‘quvchilarga bildiradi va uni ifodalab beradi. Avval boshdanoq qo‘yilgan muammoning o‘quvchilar tomonidan qabul qilinishini ta`minlash uchun muammoni qo‘yishda uni echish uchun urinib ko‘rishni tashkil etish tavsiya etiladi. Bu bilan o‘qituvchi kutilayotgan echimni o‘quvchilar bilan tahlil qiladi, ularda ko‘ringan qiyinchiliklarni aniqlaydi. Muammoni echishdagi dastlabki urinish natijasida o‘quvchilar uni engilgina echish mumkin emasligini aniqlaydilar. Bunda

muammoli vaziyat o‘quvchilar uchun muammoni echish usullarining keyingi izlanishini avj oldirish zarurligining ichki ruhiy asoslanishi bo‘lib xizmat qiladi. [8, 9]

O‘qituvchi muammoni echish usullarini izlashni tashkil etishga o‘tar ekan, avvalo birinchi muammoni ifoda qiladi, so‘ng muammoli savollarni qo‘yadi va javoblarni muhokama qilib, o‘quvchilarning bu muammoni echish usulini izlashga, ya`ni birinchi oraliq xulosani qidirishga undaydi. So‘nga shu tahlitda yaxlitligicha muammoni echish va xotima xulosalarni ifodalash bilan tugallanish lozim bo‘lgan keyingi muammolarning echilish usulini izlashni tashkil etadi.

O‘qituvchi muammoni qo‘yishda uning mazmunini oydinlashtiruvchi muammoli savollarni berishdan oldin muammoni to‘laligicha echishga urinishni tashkil etilganidek, o‘quvchilarning muammo qismlarini echishga urinishlarini tashkil etishi mumkin. Bu urinish muammoni echishda ikkinchi mashaqqatni vujudga keltiradi. Uning o‘quvchilar tomonidan anglab etishini muammoning echilish usulini qidirishda faol ishtirok etishining qo‘shimcha motivi bo‘lishiga olib keladi.

Muammoli darsning eng muhim bosqichi hamda uning o‘zagi muammoli savolga javob qidirishni tashkil etish hisoblanadi. O‘qituvchi yangi bilimlarni bayon qilishni boshlashda muammoli vaziyatni yaratsa, keyin o‘quv materialini an’anaviy, axborot usulida tushuntiradi. [9, 10]

Hulosa qilib aytganda, muammoli vaziyat faqat tushuntirishning boshida vujudga keadi, o‘quv materialining o‘zi muammoni hal qilish sifatida bayon etilmaydi, u eng oddiy hisoblanadi va muayyan vaqt davomida yoki murakkab materialni bayon qilishda qo‘llaniladi. Umuman olganda, muammoli vaziyatni qanday tushuntirish o‘qituvchining iqtidori, tajribasiga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cardenal, J. (2024). Active learning and academic achievement in problem-based learning environments. *Journal of Educational Psychology*, 116(2), 210–225.

2. G‘afforova, M. (2023). Muammoli vaziyatlar orqali o‘quvchilarda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirish. *Pedagogical Research Journal*, 12(1), 56–62.

3. Maxmutov, M. I. (1975). *Muammoli ta’limning nazariy va amaliy asoslari*. Toshkent: Fan. (pp. 1–280).

4. Qodirova, H. Y. (2023). Muammoli ta’lim texnologiyasi o‘qitishning eng samarali usuli sifatida. *Science and Education*, 4(8), 248–252. https://openscience. uz/index. php/sciedu/article/view/6240

5. Savery, J. R. (2015). Overview of problem-based learning: Definitions and distinctions. *Interdisciplinary Journal of Problem-Based Learning*, 1(1), 9–20. https://doi. org/10. 7771/1541-5015. 1002

6. Turakulova, F. (2023). Muammoli ta’lim orqali dars mazmunini interaktiv tashkil etish. *Pedagogical Science*, 7(1), 112–120.

7. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes* (M. Cole, V. John-Steiner, S. Scribner, & E. Souberman, Eds.). Cambridge, MA: Harvard University Press. (pp. 1–159).

8. Kalendarova, Z. K. (2022). Ўқувчиларнинг фикрлаш қобилиятини муаммоли вазиятларни яратиш методи асосида шакллантириш технологиясини такомиллаштириш нуқтаи-назаридан таҳлил қилиш. *Uzluksiz ta’lim tizimida “boshlang‘ich ta’lim” mazmunini sifat jihatidan yangilash: muammo, yechimlar va istiqbollari* mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, 92–95. https://doi. org/10. 5281/zenodo. 7307482

9. Kalendarova, Z. K. (2022). Innovative model of shaping students' creative thinking skills in primary education in the process of creating problem situations and its content. *Innovative Achievements in Science 2022*, International Scientific Conference Proceedings (27 October 2022). Chelyabinsk, Russia: CESS. (Part 11, pp. 1–137).

10. Kalendarova, Z. K. (2025). Developing students’ thinking ability through the use of innovative technologies in primary education. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 12(4), 125–129. https://www. eijmr. org/index. php/eijmr/article/view/2859

THE TEACHING METHODS LIKE CONTENT-BASED AND TASK-BASED INSTRUCTIONS IN TEACHING ENGLISH CLASSES

D. B. Kayumov
SamSIFL, English Faculty

assistant teacher of English Language Theory,
Anarkulova Aizat Abdirashitovna
senior teacher KNU named after Zh. Balasagy n interfaculty department of foreign languages

Abstract: This article explores the efficacy and implementation of content-based and task based instruction methodologies in English language teaching. Content-based instruction (CBI) integrates language learning with content learning, aiming to enhance linguistic competence through the study of subject matter.

Key words: methods, content-based instruction (CBI), task-based instruction (TBI).

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz tilini o‘qitishda kontentga asoslangan va vazifaga asoslangan ta’lim usullarining samaradorligi va amalga oshirilishini o‘rganadi. Kontentga asoslangan ta’lim til o‘rganishni mavzu materialini o‘rganish orqali lingvistik kompetensiyani oshirishni maqsad qilib, mazmunni o‘rganish bilan birlashtiradi.

Kalit so‘zlar: Usullar, kontentga asoslangan ta’lim, vazifaga asoslangan ta’lim.

Аннотация: В этой статье исследуются эффективность и реализация методологий контентно-ориентированного и задачно-ориентированного обучения в преподавании английского языка. Контентно-ориентированное обучение объединяет изучение языка с изучением содержания, направленное на повышение лингвистической компетенции посредством изучения предметного материала.

Ключевые слова: методы, контентно-ориентированное обучение, задачно-ориентированное обучение.

Introduction. In the realm of English language teaching, content-based instruction (CBI) and task-based instruction (TBI) stand as two prominent methodologies. CBI involves integrating language learning with the exploration of meaningful content areas such as history or science, promoting language proficiency alongside knowledge acquisition. TBI, on the other hand, emphasizes practical language use through real-world tasks, fostering communication skills and fluency. Both methods strive to enrich students' understanding and command

of the English language in versatile contexts, offering impactful pathways for language acquisition and application.

Rebecca Oxford assumes them as integrated –skill instructions which enhance learners' performance in all language skills. According to her, "The first of these emphasizes learning content through language, while the second stresses doing tasks that require communicative language use. Both of these benefit from a diverse range of materials, text books, and technologies for the ESL or EFL classroom" [1, 79].

Content-based Learning is a type of education in which pupils are taught the substance of the information they will acquire. This style of learning encompasses all language skills and gives language learners with specific information that is tailored to their requirements. Language is viewed as a tool or medium for acquiring information about other things, demonstrating its use immediately. An important factor in this kind of learning is that the content itself determines what language items need to be mastered, not the other way around. When learners study math or science and other social studies using English as the medium, they are more intrinsically motivated to learn more of the language. Content-based language instruction is beneficial at all levels of skill, but the content must be appropriate for the level of skill. The content for beginners generally consists of basic social and interpersonal communications kills, but as the content progresses, it may get increasingly academic and sophisticated. The Cognitive Academic Language Learning Approach (CALLA), created by Chamot and O'Malley, shows "how language learning strategies can be integrated into the simultaneous learning of content and language. There are three common models of content-based learning:

The theme-based model may comprise themes such as global crime, membership, society, health and so on may be included in the model. The chosen themes should appeal to learners' interests and motivate them. This content based education style is extensively utilized and most textbooks are still designed using it. If you conduct your lessons due to adjunct model, you have to teach your students language and content separately but you should coordinate them carefully. In the sheltered model, the foreign language teachers should simplify the subject in accordance with students' English proficiency level" [2, 57]. The content of language classes has become increasingly rich in recent years as a result of

advances in technology. With the use of films, visual aids, graphics, and hypermedia technology, the contents have become more meaningful and cognitively accessible for the learners. "Short tales are also important, and short tales can act as a bridge to subject for students in CBI courses who are at a lesser level. In addition to videos, visual aids and short stories, trivia can also serve to ease the transition from regular language classes to content-based classes", as Wallace describes [3, 49]. In task-based instruction, tasks are main elements to engage learners in various activities. What is a task? A lot of definitions are given for this word. But, Watkin's view defined this notion completely:

"meaning is primary,
learners are not given other people's meanings to regurgitate,
there is some sort of relationship to comparable real-world activities,
task completion has a priority,
the assessment of tasks are done in terms of outcome" [4, 152].

Task-based training arouses students' interest in language learning. It offers a diverse range of activities to learners and creates a welcoming environment in which they may practice their linguistic skills. Projector problem solving is one of these activities, but each one should have its own goal, substance, context, and consequence. By participating in these activities, learners interact with each other. Interaction helps them to develop their language acquisition. As with content-based instruction, a task-based approach aims to provide learners with a natural context for language use. Content or theme-based instruction and contemporary teaching approaches such as content and task-based ones, which are all applications of the communicative approach at vocational colleges, are two ways to achieve the focus on meaning. Content and language integrated learning presume that learners' linguistic competency will be enhanced as a result of a greater amount of target language exposure. Among most favorably influenced by this kind of learning is the learner's lexicon. Through receiving FL input in different content subjects learners acquire more profound knowledge and specialized terminology for their future profession. But we should take into consideration that at vocational colleges we teach 1) general English and 2) specialized English. At the same time, content-based instruction, which aims to employ socially relevant topics, is an attempt to connect pupils with the world in which they live. As a result, this instruction may also be employed in academic

lyceums to teach/learn English. Basic pair work and group work are frequently utilized in task-based education to increase student interaction and collaboration. For instance, students work together to write and edit a class newspaper, develop a television commercial, enact scenes from a play, or take part in other joint tasks. At higher skill levels, tasks get increasingly complicated. Beginners, for example, would be asked to introduce each other and provide one piece of information about each other. More advanced students might do more intricate and demanding tasks, such as taking a public opinion poll at school, the university or a shopping mall. Using content from other disciplines in language courses is not a new idea. For years, specialized language courses have treated content relevant to a particular profession or academic discipline. So, for example, the content of a language course for airline pilots is different from one for computer technicians. This is usually thought of as teaching a language for specific purposes. In an academic setting it might be called teaching language for academic purposes. Other examples of language programs that use specific content to teach language to adults are programs that teach workplace literacy for adult immigrants and competency-based programs, which serve the same population. In the former, adult learners learn at their workplace to read and write about content that relates to what they need in their work environment, for ex ample, being able to read technical manuals. In content-based instruction, adults learn language skills by studying vital life-coping or survival skills such as filling out job applications or using the telephone.

Wallace proposes six types of tasks as the basis for TBI. They are followings:

1. "Listing tasks: For example, students might have to make up a list for the recipe of a meal

2. Sorting and ordering: Students work in pairs and sort out the mixed words about food and drink.

3. Comparing: Students compare two pictures and define the difference between them.

4. Problem-solving: Students find out the ways of combating with the social problem given by the teacher.

5. Sharing personal experience: Students debate their opinions about an ethical or moral dilemma.

6. Creative tasks: Students design their dream house and do it orally” [5, 39].

In conclusion, both content-based instruction (CBI) and task-based instruction (TBI) offer valuable approaches to teaching English. CBI integrates language learning with meaningful content areas, while TBI emphasizes language use in practical tasks. These methods provide students with opportunities to develop language proficiency, practical communication skills, and a deeper understanding of English in real-world contexts. By incorporating both CBI and TBI into English language classes, educators can create engaging and effective learning environments that cater to diverse learning styles and promote comprehensive language acquisition.

References:

1. RESEARCH ARTICLES Rebecca Oxford. Integrated Skills in the ESL/EFL Classroom. – New York: University of Maryland, 2001. – 219 p.

2. O‘Malley J. Michael & Anna Uhl Chamot. Learning Strategies in Second Language Acquisition. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 280 p.

3. Wallace Michael J. Training Foreign Language Teachers: A reflective approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1991. – 220 p.

4. Watkins. Learning to Teach English. – Essex: Delta Publishing, 2005. – 144 p.

5. Wallace Michael J. Training Foreign Language Teachers: A reflective approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1991. – 220 p.

TARIXIY REALIYALAR VA ULARNING O‘ZBEK-TURK BADIIY TARJIMASIDAGI LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Ergasheva Sug‘diyona
Qo‘qon universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda o‘zbek tilidan turk tiliga tarixiy asarlarni tarjima qilish jarayonida tarixiy realiyalarning tutgan o‘rni va ularni adekvat

yetkazish masalalari tadqiq etiladi. Tarixiy realiyalar muayyan xalqning o‘tmish ijtimoiy tuzumi, madaniy hayoti, siyosiy va ma’muriy institutlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, badiiy matnda tarixiy davr ruhini shakllantiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.Tadqiqotda Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani misolida XV asrga oid tarixiy realiyalarning o‘zbek va turk tillaridagi semantik yaqinligi, umumturkiy til qatlamiga mansubligi va bu holatning tarjima jarayonini nisbatan yengillashtirishi ko‘rsatib beriladi. Shu bilan birga, zamonaviy o‘zbek kitobxoni uchun izoh talab qiladigan ayrim istorizmlarning turk kitobxoni tomonidan oson idrok etilishi tarixiy-madaniy xotira omili bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: tarixiy realiya, arxaizm, istorizm, tarixiy kolorit, badiiy tarjima, o‘zbek-turk adabiy aloqalari, lingvomadaniyat, umumturkiy til, tarixiy roman.

Abstract. This thesis examines the role of historical realia in the process of translating historical works from Uzbek into Turkish and the issues of their adequate rendering. Historical realia are closely related to a particular nation's past social structure, cultural life, political and administrative institutions, and constitute one of the important factors shaping the spirit of a historical period in literary texts. The research demonstrates, using Isajon Sulton's novel "Alisher Navoi" as an example, the semantic proximity of historical realia related to the 15th century in Uzbek and Turkish languages, their belonging to the common Turkic linguistic layer, and how this situation relatively facilitates the translation process. At the same time, it is explained that certain historicisms requiring clarification for the modern Uzbek reader are more easily comprehended by the Turkish reader due to the historical-cultural memory factor.

Keywords: historical realia, archaism, historicism, historical color, literary translation, Uzbek-Turkish literary relations, linguoculture, common Turkic language, historical novel.

So‘nggi yillarda o‘zbek adabiyotining turk tiliga tarjimasi faol rivojlanmoqda. O‘zbek va turk adabiyoti o‘rtasidagi aloqalar bir necha ming yillik tarixga ega. O‘zbek va turk xalqlarining adabiy-madaniy aloqalari umumturkiy madaniy makon bilan chambarchas bog‘liq. Har ikki xalqning adabiy tili qadimgi turkiy yozma an’analarga borib taqaladi. Xususan, “O‘rxun-Enasoy” bitiklari, “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘otit-turk” kabi manbalar bugungi o‘zbek va turk

tillarining umumiy ildizga ega ekanini ko‘rsatadi. Ushbu asarlarda qo‘llangan ko‘plab leksik birliklar va tushunchalar keyingi davr o‘zbek va turk adabiy tillarida turli darajada saqlanib qolgan. XX-XXI asrlarda esa bu aloqalar yangi bosqichga ko‘tarildi: o‘zbek asarlari turk nashriyotlari tomonidan kattab qiziqish bilan qabul qilinmoqda. O‘tgan yillar davomida o‘zbek adabiyotining durdona asarlari turk kitobxonlari qalbidan va kitob javonidan keng o‘rin egalladi. Misol tariqasida, adabiyotimizning yetuk darrg‘alaridan Abdulla Qahhor hikoyalari, Primqul Qodirovning “ Yulduzli tunlar”, Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo”, “Ulug‘bek xazinasi” romanlari, Said Ahmadning hikoyalari “Özbek Edebiyati’nin Seçme Eserleri. Said Ahmed. Hikâyeler”(O‘zbek adabiyotining sara asarlari. Said Ahmad. Hikoyalar) nomi bilan, O‘tkir Hoshimovning turk tarjimoni Mahir Ünlü tomonida “Dünyanın İşleri” asari hamda Xayrulla Hamidov boshchiligidagi “Tasodif”, “Yanga”, “G‘aroyib sayohat”, “Urushning so‘nggi qurboni”, “Baxt” hikoyalari; Zamira Hamidova tomonidan Oybekning “Qutlug‘ qon” (Kutlu kan), “Navoiy”, “Oltin vodiydan shabadalar” (Altin vadiden esintiler), Zamonaviy o‘zbek adabiyotining zabardast vakili Isajon Sultonning “Boqiy darbadar”, “Alisher Navoiy”, “Beruniy”, “Bilgaxoqon” romanlari tarjimasi amalga oshirilib nashr etildi. “Tarjima – xalqlar o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy aloqalarning kengayish manfaatlariga xizmat qiladi. U milliy adabiyotlarning o‘zaro aloqasi va bir biriga ta’sir jarayonini tezlashtiradi, milliy adabiyotlarda mushtarak mavzular, umuminsoniy g‘oyalar, rang-barang adabiy-badiiy estetik shakllarning tug‘ilishiga sabab bo‘ladi”[1,13].

Bu tarjimalar turk adabiyoti va turk o‘quvchisi uchun qanday ahamiyatga ega? O‘zbek adabiyoti nuqtayi nazaridan-chi? Yuqoridagi tarjima qilingan asarlarning aksariyatini tarixiy romanlar tashkil etadi. Bu asarlarning turk tiliga tarjima qilinishi turk o‘quvchisiga Markaziy Osiyo tarixini, Temuriylar davrini, Movorunnahr ijtimoiy hayotini bevosit badiiy matn orqali anglash imkoniyatini beradi. Qolaversa, o‘zbek adabiyoti turk adabiyoti uchun mavzu va obrazlar xilma-xilligini ta’minlaydi, tarixiy roman janrining boyishiga xizmat qiladi. Chunonchi, o‘zbek taarixiy romanlarida realiyalarning ko‘pligi, tarixiy koloritning kuchliligi turk adabiy muhitida badiiy uslubiy tajribalarni kengaytiradi. O‘zbek adabiyoti nuqtayi nazaridan esa tarjima jarayoni milliy adabiyotning xalqaro maydonga chiqishi demaktir. Turk tili bugungi kunda keng o‘quvchilar auditoriyasiga ega til bo‘lgani uchun, o‘zbek adabiy asarlari turk tilida nashr etilishi ularning geografik

va madaniy ta’sir doirasini kengaytiradi. Shuningdek, tarjima o‘zbek adabiyotida o‘zini anglash va qayta baholash jarayonini kuchaytiradi, umumturkiy madaniy muloqotning faollashuviga xizmat qiladi.

Biroq shuni alohida ta’kidlab o‘tish zarurki, tarixiy romanlarni tarjima qilganda milliy-madaniy realiyalar yo‘qolib ketish yoki noto‘g‘ri tushunilish ehtimoli kuchli. Milliy o‘ziga xos so‘zlar (realiyalar) tarjimasi tarjimashunoslik tarixida ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan mavzu hisoblanadi. Rus tarjimashunosligida “realiya” tushunchasini ilmiy muomilaga ilk bor 1941-yilda rus olimi A.V. Federov tomonidan kiritilgan bo‘lib, u mazkur birliklarni “realiya so‘zlar” deb atashni taklif qilgan. Olimning ta’kidlashicha, “realiyalar jamiyat hayoti va moddiy turmush tarzini aks ettiruvchi, faqat ma’lum bir hudud yoki millatga xos bo‘lgan hamda boshqa xalqlar tilida va tafakkurida to‘liq ekvivalenti mavjud bo‘lmagan leksik birliklardir”[2,87]. Ularning tasnifi, tarjima qilish strategiyalari, madaniy fonni yetkazish zarurati nafaqat g‘arb va rus, balki o‘zbek tarjimashunoslik maktablarida batafsil o‘rganilib kelingan. Bu mavzuga qayta to‘xtalishni joiz deb bilmadim. O‘zbek tarjimashunosligida tarixiy kolorit va milliy o‘ziga xoslikni saqlash masalalari keng yoritilgan: “Har bir tarixiy yodgorlik muayyan bir davrda sodir bo‘lgan voqea-hodisalarni tasvirlaydi. Shunga ko‘ra tarixiy mavzuda bitilgan asar hozirgi zamon kitobxonini xalq hayotining tarixi bilan tanishtiradi. Tabbiyki, bunday asar davr ehtiyojiga muvofiq tarzda had-hisobsiz tarixiy va arxaik lisoniy vositalar bilan to‘lib toshgan bo‘ladiki, ular kitobxon ko‘z oldida davr ruhini, nafasini jonlantirish bilan birga asarning badiiy-estetik ta’sirchanligini ham oshiradi” [3,111]. Biroq bu masalaga “tarixiy realiyalar” termini ostida chuqur yondashilmagan, ularning mukammal tasnifi ishlab chiqilmagan, tarjima strategiyalari va tarjimonga qo‘yiladigan vazifalar belgilab berilmagan. Xorijiy kitobxonlar bizning uzoq o‘tmishga ega boy tariximiz, milliy an’analarimiz, o‘ziga xos qarashlarimiz aks etgan asarlarga katta qiziqish bildirmoqda. Shu sababli o‘zbek tarixiy realiyalari tasnifini, ularni tarjima qilishning asosiy yondashuvlarini belgilab olish tarjimonlar uchun amaliy yo‘riqnoma vazifasini o‘taydi. Bolar olimlari Sergey Vlaxov va Sider Florin “Tarjimada tarjima qilib bo‘lmaydigan” nomli asari realiyalarga bag‘ishlangan bo‘lib, tarixiy realiyalarni alohida tasnif sifatida emas, balki vaqt mezoniga ko‘ra realiyalarni zamonaviy hamda tarixiylik belgisiga ko‘ra ajratishgan[4,50].

Tarixiy romanlarda uchraydigan istorizmlar muayyan davr til manzarasini tiklashda muhim vosita hisoblanadi. Biroq ushbu birliklarning idrok qilinishi har bir til jamoasida bir xil emas. Ayrim tarixiy so‘zlar bugungi zamonaviy o‘zbek kitobxoni uchun semantik jihatdan noaniq yoki passiv qatlamga mansub bo‘lsa-da, turk kitobxoni uchun nisbatan tushunarli bo‘lib qolmoqda. Bu holat, avvalo, XV asrda shakllangan umumturkiy adabiy tilning hozirgi turk tili bilan tarixiy-genetik yaqinligi bilan izohlanadi. O‘zbek va turk adabiy aloqalarining chuqur tarixiy ildizlari tarixiy realiyalar tarjimasida muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Qadimgi va eski o‘zbek tilining turk tiliga yaqinligi tarjima jarayonini yengillashtirsa-da, bu holat har doim ham to‘liq semantik moslikni kafolatlamaydi. Shu sababli tarixiy realiyalarni tarjima qilishda turli strategiyalardan oqilona foydalanish tarixiy koloritni saqlash va badiiy matnning madaniy qiymatini to‘liq yetkazish imkonini beradi. Milliy-madaniy mazmunni tashuvchi til birliklari bo‘lgan tarixiy realiyalar masalasi tarjimada alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tarixiy realiyalar muayyan xalqning o‘tmishdagi ijtimoiy tuzumi, madaniy hayoti, siyosiy va ma’muriy institutlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ular badiiy matnda tarixiy davr ruhini shakllantiruvchi asosiy unsurlardan biri sanaladi. Shu bois tarixiy realiyalarni tarjima qilish jarayoni oddiy leksik almashtirishdan ko‘ra murakkabroq bo‘lib, tarjimondan chuqur lingvomadaniy va pragmatik yondashuvni talab etadi.

O‘zbek tilidan turk tiliga tarjima jarayonida tarixiy realiyalar masalasi alohida e’tiborga loyiqdir. Chunki o‘zbek va turk tillari qardosh tillar bo‘lishiga qaramay, ularning tarixiy taraqqiyot yo‘li, ijtimoiy-siyosiy tizimi va madaniy tajribasi turlicha shakllangan. Natijada ayrim o‘zbek tarixiy realiyalari turk tilida formal jihatdan tanish ko‘rinsa-da, ularning semantik hajmi va tarixiy mazmuni to‘liq mos kelmasligi mumkin. Bu holat tarjimada ma’no yo‘qotilishi yoki tarixiy koloritning susayishiga olib keladi.

XV asr Markaziy Osiyo va Xuroson hududida shakllangan adabiy til – eski o‘zbek (chig‘atoy) tili bo‘lib, u umumturkiy til xususiyatlariga tayangan. Misol tariqasida, İsajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani o‘zbek xalqining XV asrga oid ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma’naviy hayotini aks ettiruvchi tarixiy realiyalarga boy asar sanaladi. Romandagi til unsurlari fonetik, leksik va morfologik jihatdan hozirgi turk tiliga juda yaqin. Masalan, sofra (dasturxon), kaftan (chopon), cherik (askar), zerzamin (yerto‘la), sipahi (jangchi) kabi birliklar XV asrda ham, bugungi turk tilida ham deyarli o‘zgarmagan semantik yuk bilan

qo‘llanadi [5,16]. Bu esa turk kitobxoni uchun tarixiy matnni nisbatan oson idrok etish imkonini beradi.

Aksincha, zamonaviy o‘zbek tilida rus va sovet davri ta’siri ostida ko‘plab eski turkiy birliklar passivlashib, ularning o‘rnini yangi terminlar egallagan. Natijada tarixiy romanlardagi istorizmlar o‘zbek o‘quvchisi uchun izoh talab qiluvchi birlikka aylangan. Mazkur holat tarixiy realiyalarni turk tiliga tarjima qilishda muhim pragmatik ustunlikni yuzaga keltiradi. Tarjimon ayrim istorizmlarni izohsiz yoki minimal moslashtirish orqali berishi mumkin, chunki ular turk o‘quvchisining tarixiy-madaniy xotirasida mavjud.

Shu bilan birga badiiy tarjimada tarixiy realiyalarni adekvat yetkazish masalasi tarjimashunoslikning eng murakkab va dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tarixiy shaxslar hayoti va muayyan davr ruhini aks ettiruvchi romanlarda realiyalar nafaqat nominativ birlik, balki milliy-madaniy axborot tashuvchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, tarixiy realiyalarni tarjima qilish faqat lingvistik masala emas, balki umumturkiy madaniy xotirani tiklash jarayonidir. O‘zbek tarixiy realiyalarining turk tiliga tarjimasi turkiy xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu ma’noda tarjimon milliy tarix va umumturkiy qadriyatlar o‘rtasida vositachilik vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Salomov G‘. Tarjima nazaryasi asoslari. – Toshkent: “O‘qituvchi”,1983, -13 b.
2. Виноградов В. С. Лексические вопросы неревбда художественной прозы. М., 1978, с. 87.
3. Musayev Qudrat. Tarjima nazaryasi asoslari: Darslik. T.: Fan, 2002. – 111 b.
4. S .Vlaxov, S.Florin. Neperevodimoye v perevode. M.,1986, c. 50.
5.Isajon Sulton. Alisher Navoiy. – Toshkent: “Adabiyot”, 202, - 16 b.

IJODIY INDIVIDUALLIK
(Mukarrama Murodova she’riyati misolida)

Dilshunos Inomova,
Qo‘qon universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Uslub muhim estetik kategoriya sifatida adabiyotshunoslikda muhim o‘rin tutadi. Ijodkorning uslubi uning asarlaridagi individuallikni

belgilaydi. Ushbu maqolada shoira Mukarrama Murodova ijodining o‘ziga xos jihatlari, uning uslubi va badiiy mahorati “Mening uyim” she’ri tahlili misolida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Uslub, individuallik, badiiy mahorat, til, umumiylik, peyzaj, konsept, funksiya.

Abstract: Style, as an important aesthetic category, occupies an important place in literary studies. The style of the creator determines the individuality in his works. This article reveals the specific aspects of the work of the poetess Mukarrama Murodova, her style and artistic skill on the example of the analysis of the poem "My House".

Keywords: Style, individuality, artistic skill, language, commonality, landscape, concept, function.

Аннотация: Стиль, как важная эстетическая категория, занимает важное место в литературоведении. Стиль автора определяет индивидуальность его произведений. В данной статье на примере анализа стихотворения «Мой дом» раскрываются специфические аспекты творчества поэтессы Мукаррамы Муродовой, её стиля и художественного мастерства.

Ключевые слова: Стиль, индивидуальность, художественное мастерство, язык, общность, пейзаж, концепция, функция.

Aleksandr Blok shoirlar ijodining individual nuqtalari haqida gapirar ekan, “Shoirlar o‘z ijodlaridagi mushtarakliklar bilan emas, balki bir-birlaridan farq qilib turuvchi xususiyatlari bilan qiziqarlidir”[3,88] degan edi. Chindan ham ma’lum ijodkorning uslubi, o‘ziga xos ovozi, badiiy mahorati, so‘z tanlash qobilyati singari jihatlar uning asarlarining qiymatini belgilaydi. Shu jihatdan, Mukarrama Murodova she’rlarini tahlilga tortilganda ma’lum bo‘ladiki, shoira ijodida tasviriylik juda kuchli. Uning ifoda manerasi aynan shu jihat bilan ham boshqa ijodkorlar ijodidan ajralib turadi. U mavjud narsa-predmetlarning joylashuvini, holatini shunchaki bayon qilib qo‘yavermaydi. Ko‘p hollarda ularni boshqa narsalar bilan qiyoslashga, atrofidagi bo‘lak predmetlar bilan munosabatga kirgizishga harakat qiladi. Shoira “Mening uyim” she’rida so‘z bilan qishloq chetida joylashgan hovli tasvirini chizadi:

Shu mening maskanim, qishloq chetida,
Tong chog‘i qishloqni kutib turgan uy.
Bir qo‘lda mahalla, yana birida

Poyonsiz dalani tutib turgan uy. [2,39]

She’rda tasvir shu qadar mahorat bilan chiziladiki, o‘quvchi oldida uzuq-yuluq tasvirlar emas, balki bus-butun portret namoyon bo‘ladi. Beixtiyor o‘zi yashaydigan qishloq chetida, adoqsiz dalaning boshlanishida joylashgan uyni ko‘z oldiga keltiradi. Qishloq chetidagi uy tasviri badiiy adabiyotda juda ko‘p tasvirlangan. Xususan, Sergey Yeseninning “Ona ibodati”, Muhammad Rustamning “Tungi ovul”, Javhar Mirzoning “Qadim qo‘shiq” she’rlarida voqealar qishloq chetidagi kichik uylarda ro‘y beradi, ularning tavsifi keltiriladi. Ammo qishloq va dalaning “chegarasida” joylashgan uyga “**bir qo‘lida dalani, bir qo‘lida mahallani tutib turgan uy**” deya ta’rif berilishi boshqa shoirlar ijodida uchramaydi. Bundan tashqari uyning har tong quyoshni boshqa uylardan oldin qarshi olishi ham shoira ijodidagi yangilikdir. Shu jihatdan, mazkur ohorli tasvirlarni shoiraning badiiy topilmasi sifatida baholash mumkin.

Uy lirik qahramon uchun shu qadar azizki, uning devoridan zarra to‘kilishini ham iztirob o‘laroq qabul qiladi. Buning sababini esa shoira quyidagicha tushuntiradi:

Har zarra tuprog‘i qadrdon, tanish,
Iztirob chekaman ko‘chsa suvog‘i.
Shu bo‘ldi dunyoda eng yaqin sirdosh,
Shodlik, tashvishimning tanho guvohi.[1,40]

Lirik qahramon har safar biror tashvish bilan yuzlashar ekan, uyiga qochadi, u bilan dillashadi, qalbidagi bor hasratlarini, jami dard-alamlarini u bilan bo‘lishadi. Har gal biror quvonchli hodisa ro‘y bergan pallada ham uning quvonchlariga sherik bo‘lgan ham mana shu uy bo‘ladi. Shu sababdan ham u uyini yaxshi ko‘radi, qadrlaydi.

Keyingi misralarda shoira “uy”ining funksiyasi kengaya boradi. Endi uy faqat maishiy, hissiy vosita emas, balki didaktik ahamiyat kasb etadi, “uy” konseptining ma’nosi kengayib “Vatan” konseptiga yaqinlasha boradi:

Men hayot darsini o‘qidim shunda,
His etdim bir maskan, yurt tutish gashtin.
Vatan azizligin angladim chindan,
Va, shunda,o‘rgandim Vatan tutishni.

Inson yashar ekan, o‘zining uyini sevadi, uning toza turishi, ozodaligi uchun doimiy harakat qiladi. Uning chiroyli bo‘lishi uchun eng yaxshi narsalarni

keltirishga harakat qiladi. Xonadoniga begona kishining ruxsatsiz kirishiga yo‘l qo‘ymaydi, beruxsat kirganni jazosiz qoldirmaydi. Shoira shularni xotirlar ekan, uyni sevish, uni asrab-avaylash orqali insonda Vatanga muhabbat shakllanishiga, insonning uy tutish borasidagi ilk tasavvurlari kelajakda uning fuqorolik pozitsiyasini qattiq turib himoya qilishini, burchlariga sodiq qolishni, Vatan oldidagi shonli vazifalarni sidqidildan bajarishni o‘rganishiga sabab bo‘lishiga ishora qiladi. Vatanning muqaddas va aziz ekanligini inson tug‘ilib o‘sgan go‘shasida o‘zlashtirishini ta’kidlaydi, she’rdagi lirik qahramonning “His etdim bir maskan, yurt tutish gashtin” degan so‘zlari orqali buni tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Murodova M. Seni kuylayman. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974.
2. Murodova M. Bahor boshlanibdi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978.
3. Блок А. О литературе, Изд-во, Москва,1931. – С.88.
4. Садинов М. И мисль - всем вершинам сестра.... – М. Молодая гвардия, 1983 г.
5. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/mukarrama-murodova-poetry.html.

INTEGRATED EDUCATIONAL PATHWAYS: CHALLENGES AND STRATEGIES FOR CONTINUITY IN UZBEKISTAN ANNOTATION

Yokubjonova Dilnavozxon Serobjon qizi,
Qo‘qon Universiteti, Jahon tillar kafedrasi o‘qituvchisi
Mirzabadalova Shaxloxon Ravshanjon qizi
Xorijiy til va adabiyot yo‘nalishi talabasi

Annotation. This article analyzes the continuity of the education system and the importance of integration between different stages — preschool, general secondary, specialized secondary, and higher education. It examines how preparation in preschool affects subsequent stages, highlights the incomplete implementation of competency-based approaches in secondary education, and identifies coordination challenges between specialized secondary and higher education. Furthermore, it emphasizes that the lack of unified assessment criteria

and digital infrastructure hinders the integration process. The article argues for the necessity of a single competency framework, digital platforms, collaborative projects, and innovative approaches to ensure the smooth functioning of the lifelong learning continuum.

Key words: lifelong learning, integration, transformation, competency-based approach, digital education, educational stages, monitoring, STEAM

O‘ZBEKISTONDA UZLUKSIZ TA’LIM YO‘LLARINI INTEGRATSIYALASH: UZVIYLIKNI TA’MINLASH MUAMMOLARI VA STRATEGIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim tizimining uzluksizligi va turli bosqichlar — maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus hamda oliy ta’limo‘rtasidagi integratsiyaning ahamiyati tahlil etilgan. Maktabgacha ta’limda boshlanadigan tayyorgarlikning keyingi bosqichlarga ta’siri, o‘rta ta’limda kompetensiyaviy yondashuvning amaliyotga to‘liq joriy etilmagani, o‘rta maxsus ta’lim va oliy ta’limo‘rtasidagi muvofiqlashtirish muammolari qayd etilgan. Shuningdek, ta’lim pog‘onalari o‘rtasida baholash mezonlari va raqamli infratuzilma birligining yetishmasligi integratsiya jarayoniga to‘siq bo‘layotgani ta’kidlangan. Maqola uzluksiz ta’lim zanjirining izchil ishlashini ta’minlash uchun yagona kompetensiyalar tizimi, raqamli platformalar, hamkorlik loyihalari va innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: uzluksiz ta’lim, integratsiya, transformatsiya, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli ta’lim, ta’lim bosqichlari, monitoring, STEAM

ИНТЕГРИРОВАННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТРАЕКТОРИИ: ПРОБЛЕМЫ И СТРАТЕГИИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье анализируется непрерывность системы образования и значение интеграции между различными уровнями — дошкольным, общим средним, средним специальным и высшим образованием. Рассматривается влияние подготовки в дошкольном образовании на последующие этапы, отмечается неполная реализация компетентностного подхода в среднем образовании и выявляются проблемы координации между средним специальным и высшим образованием. Кроме того, подчеркивается, что отсутствие единых критериев оценки и цифровой

инфраструктуры препятствует процессу интеграции. В статье аргументируется необходимость создания единой системы компетенций, цифровых платформ, совместных проектов и внедрения инновационных подходов для обеспечения эффективного функционирования непрерывного образования.

Ключевые слова: непрерывное образование, интеграция, трансформация, компетентностный подход, цифровое образование, уровни образования, мониторинг, STEAM

In the context of rapid global transformations, education systems are required to ensure continuity, flexibility, and competitiveness at all levels. The effectiveness of lifelong learning largely depends on how strong the connection is between early childhood education, general secondary schooling, specialized secondary institutions, and higher education. Each stage plays a unique role in a learner’s personal, social, and cognitive development; therefore, the transition from one level to another must be smooth and pedagogically justified. In Uzbekistan, significant reforms have been undertaken to modernize curricula, improve quality standards, and enhance cooperation between institutions. However, the current level of integration across the stages of education remains insufficient to fully meet contemporary requirements.

Differences in children’s readiness at school entry, gaps in the implementation of competency-based education in general schooling, and the limited alignment of specialized secondary training programs with higher education demands continue to create challenges. [4] Moreover, the absence of unified assessment criteria and digital monitoring tools hinders the ability to track learner progress systematically through all stages. For these reasons, establishing a coherent pedagogical and technological bridge among the levels of education is a critical task. Strengthening integration will not only improve academic continuity but also support the development of a highly skilled and competitive workforce capable of contributing to national growth.

This study employed a combination of theoretical and empirical research methods to examine the level of integration between different stages of the education system in Uzbekistan. First, a document analysis method was used to review national education reforms, state standards, curriculum frameworks, and

policy documents related to early childhood, general secondary, specialized secondary, and higher education. [2] This enabled a comparison of learning outcomes, competency requirements, and assessment indicators across educational levels. Second, a literature review was conducted to analyze international best practices on continuity in education systems, focusing on countries such as Finland, Singapore, and South Korea, known for establishing successful educational integration models. Additionally, a qualitative inquiry approach was applied. Semi-structured interviews were conducted with 20 educators, including preschool teachers, secondary school instructors, academic lyceum specialists, and university lecturers. The interviews explored their perceptions of the strengths and shortcomings in current transitions between stages. Observations from pilot partnership projects between schools and universities were also examined to understand existing cooperation models. Finally, the collected data were categorized and analyzed thematically to identify common tendencies, challenges, and potential solutions. These methodological steps ensured a comprehensive understanding of integration issues and helped generate practical recommendations for improving continuity within the education system.

The findings of the study reveal that the current level of integration among educational stages in Uzbekistan has improved compared to previous years, yet several structural gaps still persist. Document analysis showed that learning standards across preschool, general secondary, specialized secondary, and higher education are formally aligned with the competency-based approach, but the progression of competencies is not always clearly defined. [1] For instance, while preschool programs emphasize social communication and curiosity-driven learning, these competencies are not consistently reinforced in primary classrooms, where academic subjects often dominate instructional time.

Interview results further indicated that educators from different levels hold diverse expectations regarding student readiness. Preschool teachers emphasized foundational socio-emotional skills, whereas general school teachers prioritized literacy and numeracy as the main indicators of preparedness. This disconnect leads to variations in students’ initial performance and presents challenges for teachers in adapting instruction to different learner needs. Similarly, specialized secondary institutions reported that graduates from general schools frequently lack independent research skills and problem-solving abilities necessary for advanced

coursework. Higher education representatives noted that institutional cooperation with lower stages is growing, especially through professional development initiatives, STEM-based school projects, and dual-education practices. Despite these positive developments, participants highlighted that such partnerships are not yet widespread and often rely on individual enthusiasm rather than systemic policy. [3] Another key finding concerns the assessment system: the absence of a unified digital monitoring mechanism prevents educators from tracking a student’s academic journey over time. As a result, learning gaps identified at upper levels are difficult to trace back to earlier stages. Analysis of pilot integration initiatives demonstrated clear effectiveness when collaboration is continuous and supported by shared target competencies. For example, joint curriculum planning and teacher exchanges helped smooth transitions and reduce knowledge gaps among learners. Overall, results suggest strong potential for a fully interconnected educational framework in Uzbekistan, provided that curriculum continuity, unified evaluation systems, and digital platforms are strengthened through national-level coordination.

The results of the study confirm that Uzbekistan’s education system is moving toward greater integration, yet the process remains incomplete and requires further strategic efforts. The observed misalignment between the competencies developed at each stage indicates that reforms have largely been implemented in isolation rather than as parts of a coordinated national framework. This situation is not unique to Uzbekistan; similar transitional gaps have been reported in many developing countries where rapid reforms outpace institutional readiness. Therefore, ensuring stronger policy coherence and pedagogical continuity is essential. The differences in expectations among educators from various stages reflect the need for a shared understanding of learner development. International experiences show that continuity is most successful when teachers across levels collaborate through joint professional development, lesson observations, and co-designed curriculum modules. Strengthening such collaboration in Uzbekistan could reduce discrepancies in students’ readiness, while also supporting teachers in applying modern instructional approaches, including problem-based learning, STEAM integration, and socio-emotional development strategies. The findings also highlight the urgency of creating a unified digital monitoring and assessment system. Without ongoing information about student progress, upper-level

educators encounter difficulties in addressing learning deficiencies that originate earlier. Countries like Singapore and Finland have demonstrated the importance of digital portfolios and longitudinal assessment models in maintaining educational continuity and equity. Uzbekistan can draw valuable lessons from these practices by promoting secure national educational platforms and gradually synchronizing evaluation standards. Furthermore, the success of pilot partnership projects suggests that practical cooperation can significantly improve transition outcomes and accelerate students’ academic growth. Expanding these initiatives nationwide would enable more systematic bridging between schools, colleges, and universities. The current momentum of education modernization in Uzbekistan presents a strong opportunity to institutionalize such cooperation. In conclusion, achieving full integration requires not only policy reforms but also cultural shifts within schools and higher education institutions — encouraging collaboration, innovation, and collective responsibility for learners’ lifelong success.

This study highlights the fundamental importance of ensuring smooth continuity within the education system of Uzbekistan. Although significant progress has been made toward strengthening the interconnectedness of preschool, general secondary, specialized secondary, and higher education, existing gaps continue to hinder the full realization of competency-based reforms. The misalignment of competencies across stages, inconsistent expectations concerning student readiness, and the absence of a unified digital tracking system collectively reduce the effectiveness of transitions from one educational level to another. To address these challenges, the establishment of a coherent national competency framework is crucial. Such a framework should define the gradual development of essential skills — including critical thinking, creativity, teamwork, and digital literacy — ensuring that each educational stage builds on the achievements of the previous one. Moreover, reinforcing collaboration between institutions through joint curriculum planning, teacher exchange programs, mentorship, and dual-education practices will promote a deeper pedagogical connection across levels. The introduction of a centralized digital assessment and monitoring platform will help educators identify learning gaps early and support differentiated instruction. Expanding successful integration pilot projects into a nationwide strategy can further accelerate progress. Ultimately, creating a fully integrated education system requires not only policy reforms but also a cultural transformation in which all

stakeholders share responsibility for learners’ development. Stronger continuity will contribute to improving educational quality, enhancing students’ academic success, and preparing highly qualified individuals capable of driving Uzbekistan’s social and economic advancement.

References

1. Ministry of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan. (2023). State standards for general secondary education. Tashkent
2. State Inspectorate for Quality Control in Education. (2022). Competency-based approach in national education reforms. Tashkent.
3. Sahlberg, P. (2018). Finnish lessons 2. 0: What can the world learn from educational change in Finland? Teachers College Press.
4. Ng, P. T. (2017). Educational reform in Singapore: From meritocracy to talent development. Educational Research for Policy and Practice, 16(3), 251–263.
5. UNESCO. (2021). Reimagining our futures together: A new social contract for education. Paris.

DIFFERENCE BETWEEN TEACHING ENGLISH TO CHILDREN AND ADULTS

Karimova Ozodaxon Avazxon qizi
Teacher of World Language department, Kokand University
e-mail: o1516067@gmail. com
ORCID: 0009-0009-0643-8445

Abstract: Teaching English to children and adults requires fundamentally different pedagogical approaches due to variations in cognitive development, motivation, learning styles, and emotional needs. Children acquire language primarily through implicit learning mechanisms; they respond well to play-based activities, multisensory input, and frequent repetition. Their shorter attention spans and developing self-regulation skills require highly engaging lessons supported by visual aids, movement, and clear routines. Adults, by contrast, rely on explicit learning, drawing on their advanced cognitive abilities, prior linguistic knowledge, and personal goals. They prefer structured instruction, analytical explanations, and tasks that relate directly to real-life situations. Error correction, classroom

management, and assessment also vary significantly between the two groups, as children benefit from gentle, indirect feedback while adults expect more direct evaluation and measurable progress. Understanding these differences enables educators to design age-appropriate instruction that maximizes learner engagement, supports effective language acquisition, and enhances overall educational outcomes. This article examines these distinctions in depth and highlights their implications for English language teaching practice.

Key words: English language teaching; young learners; adult learners; cognitive development; implicit learning; explicit instruction; motivation; classroom management.

BOLALAR VA KATTALARGA INGLIZ TILINI O‘RGATISH O‘RTASIDAGI FARQ

Annotatsiya: Bolalar va kattalarga ingliz tilini o‘rgatish kognitiv rivojlanish, motivatsiya, o‘rganish uslublari va hissiy ehtiyojlarning o‘zgarishi sababli tubdan farq qiladigan pedagogik yondashuvlarni talab qiladi. Bolalar tilni birinchi navbatda yashirin ta’lim mexanizmlari orqali egallaydi; ular o‘yinga asoslangan harakatlarga, multisensorli kiritishga va tez-tez takrorlashga yaxshi javob beradilar. Ularning diqqatini qisqartirish va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish ko‘rgazmali qurollar, harakat va aniq tartiblar bilan qo‘llab-quvvatlanadigan juda qiziqarli darslarni talab qiladi. Kattalar, aksincha, o‘zlarining ilg‘or kognitiv qobiliyatlari, oldingi til bilimlari va shaxsiy maqsadlariga tayanib, aniq o‘rganishga tayanadilar. Ular tuzilgan ko‘rsatmalar, analitik tushuntirishlar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri hayotiy vaziyatlar bilan bog‘liq vazifalarni afzal ko‘radilar. Xatolarni tuzatish, sinfni boshqarish va baholash ham ikki guruh o‘rtasida sezilarli darajada farq qiladi, chunki bolalar yumshoq, bilvosita fikr-mulohazalardan foydalanadilar, kattalar esa ko‘proq to‘g‘ridan-to‘g‘ri baholash va o‘lchanadigan taraqqiyotni kutishadi. Ushbu farqlarni tushunish o‘qituvchilarga o‘quvchilarning faolligini maksimal darajada oshiradigan, samarali til o‘zlashtirishni qo‘llab-quvvatlaydigan va umumiy ta’lim natijalarini yaxshilaydigan yoshga mos ta’limni loyihalash imkonini beradi. Ushbu maqola ushbu farqlarni chuqur o‘rganadi va ularning ingliz tilini o‘qitish amaliyotiga ta'sirini ta'kidlaydi.

Kalit so‘zlar: ingliz tilini o‘qitish; yosh o‘quvchilar; katta yoshdagi o‘quvchilar; kognitiv rivojlanish; bilvosita o‘rganish; aniq ko‘rsatma; motivatsiya; sinf boshqaruvi.

РАЗНИЦА МЕЖДУ ОБУЧЕНИЕМ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ ДЕТЕЙ И ВЗРОСЛЫХ

Аннотация: Обучение английскому языку детей и взрослых требует принципиально разных педагогических подходов из-за различий в когнитивном развитии, мотивации, стилях обучения и эмоциональных потребностях. Дети усваивают язык преимущественно посредством имплицитных механизмов обучения; они хорошо реагируют на игровые занятия, мультисенсорное воздействие и частое повторение. Их более короткая продолжительность концентрации внимания и развивающиеся навыки саморегуляции требуют высокоэффективных уроков, поддерживаемых наглядными пособиями, движением и четкими распорядками. Взрослые, напротив, полагаются на эксплицитное обучение, опираясь на свои развитые когнитивные способности, предшествующие лингвистические знания и личные цели. Они предпочитают структурированное обучение, аналитические объяснения и задания, непосредственно связанные с реальными жизненными ситуациями. Исправление ошибок, управление классом и оценка также значительно различаются между двумя группами, поскольку детям полезна мягкая, косвенная обратная связь, в то время как взрослые ожидают более прямой оценки и измеримого прогресса. Понимание этих различий позволяет педагогам разрабатывать соответствующие возрасту методы обучения, которые максимально вовлекают учащихся, способствуют эффективному усвоению языка и улучшают общие образовательные результаты. В этой статье подробно рассматриваются эти различия и освещаются их последствия для практики преподавания английского языка.

Ключевые слова: преподавание английского языка; юные учащиеся; взрослые учащиеся; когнитивное развитие; имплицитное обучение; эксплицитное обучение; мотивация; управление классом.

Introduction

The process of teaching English as a second or foreign language is shaped significantly by the age and developmental stage of the learners. While both children and adults share the ultimate goal of acquiring communicative competence in English, the ways in which they understand, process, and use language differ considerably. These differences stem from distinct cognitive capacities, motivational factors, emotional characteristics, and social roles, all of which influence how learners respond to instructional methods. As a result, teaching English to children requires strategies that differ fundamentally from those used with adult learners.

Children tend to absorb language naturally through implicit learning mechanisms. Their developing brains are particularly sensitive to sound patterns, rhythm, and intonation, making them highly receptive to input-rich environments where language is presented through play, stories, movement, and interaction. However, their limited attention spans and emerging self-regulation skills demand highly engaging, varied, and visually stimulating lessons. In contrast, adults use explicit learning processes, drawing on their fully developed cognitive abilities and prior knowledge of linguistic structures. Their learning is characterized by purposeful motivation, often related to professional, academic, or personal goals. As such, adults generally respond better to structured instruction, detailed explanations, and activities that reflect real-life communication needs.

Moreover, classroom dynamics, error correction techniques, and assessment practices differ widely between the two age groups. Children benefit from gentle, indirect feedback and informal, performance-based evaluation, while adults expect direct correction, detailed guidance, and measurable progression. Recognizing and addressing these differences is essential for effective English language teaching, as a mismatch between instructional strategies and learners’ needs can hinder progress and reduce motivation.

This article explores the major distinctions between teaching English to children and adults, examining how cognitive development, motivation, learning styles, classroom management, and assessment practices influence instructional approaches. By identifying these key differences, the article aims to provide educators with insights that support more effective, age-appropriate teaching practices and ultimately lead to improved language learning outcomes.

Research in second language acquisition highlights clear developmental differences between children and adults. Children acquire language primarily through implicit learning, relying on natural exposure and interaction rather than conscious study. According to Lightbown and Spada (2013), young learners process language holistically and internalize structures through meaningful communication rather than explicit instruction. Similarly, Cameron [4] argues that children's cognitive development supports intuitive learning, making play-based, multisensory activities highly effective for language acquisition. This natural learning process also contributes to children's stronger pronunciation skills, as their phonological systems remain flexible [2].

In contrast, adults depend more on explicit learning mechanisms. Ellis [6] notes that adult learners consciously analyze grammar rules, constructs, and vocabulary, drawing upon metalinguistic awareness developed through years of formal education. Adults benefit from comprehensible input, but often require conscious strategies and explanations to internalize complex structures. While adults may face difficulties with native-like pronunciation due to reduced neuroplasticity [9], research shows they learn faster than children in areas involving logical reasoning, vocabulary organization, and rule-based learning [8].

Motivation is another major difference. Children's motivation tends to be extrinsic, shaped by enjoyment, teacher approval, and classroom activities [5]. Their participation increases when learning is fun, visually stimulating, and supported by games and routines. Adults, however, are more likely to possess intrinsic or instrumental motivation, driven by academic, professional, or migration-related goals. Because adults link English proficiency with real-life outcomes, their motivation is generally deeper but more sensitive to anxiety, self-doubt, and time constraints [7].

Classroom management and teaching methodology also differ substantially between age groups. Research on young learners emphasizes the importance of clear routines, short tasks, storytelling, games, and movement-oriented methods such as Total Physical Response [1]. Adults require less behavioral management but benefit from collaborative problem-solving, discussions, and task-based learning that respects their experiences. Adult classrooms thrive on relevance, practicality, and opportunities to apply English to real-life contexts.

Error correction and assessment strategies show further differences. Young learners respond better to indirect feedback, such as recasting and modeling, which protects their emerging confidence. Adults generally prefer direct correction, detailed feedback, and opportunities to monitor progress. Assessing children often involves informal, performance-based methods, whereas adult assessment commonly includes tests, rubrics, and structured evaluation tools [3].

Overall, the literature underscores that effective English language instruction must be age-sensitive. Cognitive development, learning preferences, motivational patterns, and emotional needs shape the distinct strategies required for teaching children and adults. These findings form the theoretical basis for methodological decisions in ESL/EFL classrooms and highlight the importance of adapting pedagogy to learner characteristics.

Methodology

This study employs a qualitative, comparative research design to analyze the key differences between teaching English to children and teaching English to adults. The purpose of this approach is to examine instructional practices, learner characteristics, and pedagogical requirements associated with each age group, drawing upon existing theoretical frameworks and empirical findings in second language acquisition. A qualitative methodology was selected because it allows for an in-depth exploration of instructional contexts, cognitive and affective factors, and methodological implications that cannot be easily captured through numerical data.

Result and Discussion

The analysis identified five core differences between teaching English to children and adults: cognitive development, motivation, learning styles, classroom management, and assessment techniques.

First, results show that children acquire language largely through implicit learning, responding best to rich exposure, interaction, and playful activities [4]. Adults, however, depend more on explicit and analytical learning, using previously developed metalinguistic knowledge to understand rules and structures.

Second, the findings highlight motivational differences. Children’s motivation is mostly extrinsic, influenced by enjoyment, teacher approval, and interactive tasks [5]. Adult learners, conversely, tend to have intrinsic or instrumental motivation, tied to personal, academic, or professional goals.

Third, learning style differences were observed. Children learn best through multisensory, movement-based activities, imagination, and play [1]. Adults prefer discussion, problem-solving, and real-life relevance, reflecting their cognitive maturity.

Fourth, classroom management varies considerably. Teaching children requires well-structured routines, visual support, and frequent activity changes due to shorter attention spans [2]. Adults, however, require less behavioral control and respond well to collaborative, purposeful tasks.

Finally, assessment and feedback differ. Children benefit from indirect, gentle correction such as recasts, which help protect confidence. Adults expect explicit correctness, clear explanations, and formal assessment of progress [3]. These findings collectively demonstrate that effective English language teaching must acknowledge age-related cognitive and affective differences.

The results reinforce longstanding research on developmental differences in second language acquisition. The finding that children rely heavily on implicit mechanisms supports claims by Lightbown and Spada (2013) that young learners internalize language through natural exposure rather than conscious study. Cameron [4] similarly emphasizes that interactive, playful environments enhance children’s linguistic development. These results highlight the importance of incorporating storytelling, songs, games, and movement-based activities in young learner classrooms.

For adults, the reliance on explicit learning aligns with Ellis [6], who notes that adults’ metalinguistic awareness allows them to consciously analyze rules. Krashen’s (1985) Input Hypothesis also supports this finding, arguing that adults need both meaningful input and structured support. Therefore, teaching adults successfully requires clear explanations, logical sequencing, and opportunities to apply English to real-life contexts.

Motivational findings also align with theoretical models. Children’s extrinsic motivation reflects Dörnyei’s [5] view that engagement in young learners depends on fun, positive emotional climate, and teacher encouragement. Meanwhile, adult motivation confirms that meaningful personal goals drive adult persistence. These insights suggest that children need engaging, playful activities, whereas adults need purposeful, goal-oriented tasks that connect directly to their life experiences.

Classroom management differences reflect Brown’s [2] observation that children require structure, routine, and variety to maintain focus. Adults, on the other hand, value autonomy, respect, and interactive learning. This reinforces the idea that classroom strategies must be age-appropriate rather than uniform.

Finally, the feedback and assessment differences support Ellis [6], who argues that indirect correction is more effective and emotionally safe for children. Adults’ preference for explicit feedback reflects on adult language accuracy and self-monitoring. Assessment must therefore be informal and performance-based for children but formal and criterion-based for adults [3]. Overall, the discussion highlights that applying identical teaching strategies to both groups would disregard their fundamental cognitive, emotional, and motivational differences. Effective English language teaching must therefore adapt methodology, materials, and assessment to the developmental needs of each age group.

Conclusion

The comparative analysis of teaching English to children and adults highlights significant differences in cognitive development, motivation, learning styles, classroom management, and assessment practices. Children acquire language primarily through implicit learning, responding best to play-based, multisensory, and interactive activities. Their motivation is largely extrinsic, influenced by enjoyment, teacher approval, and positive classroom dynamics, and they benefit from indirect correction and informal assessment [4]. Classroom management for children requires structure, visual support, and frequent changes in activities to maintain attention [2].

Adults, in contrast, rely on explicit learning, drawing on cognitive maturity, prior knowledge, and metalinguistic awareness. Their motivation is mostly intrinsic or instrumental, linked to personal, academic, or professional goals [5]. Adults respond well to structured lessons, practical applications, discussion-based tasks, direct error correction, and formal assessment.

These findings underscore that a one-size-fits-all approach in English language teaching is ineffective. Educators must adopt age-appropriate strategies that address the unique cognitive, emotional, and motivational needs of each learner group. By tailoring methodology, materials, classroom management, and assessment practices, teachers can enhance engagement, facilitate meaningful learning, and maximize language acquisition outcomes.

Ultimately, understanding the distinctions between child and adult learners is essential for effective TESOL practice. This knowledge allows educators to design learning experiences that not only improve linguistic competence but also foster confidence, motivation, and long-term success in English language acquisition.

Reference

1. Asher, J. (2000). Learning another language through actions (6th ed.). Sky Oaks Productions.
2. Brown, H. D. (2007). Principles of language learning and teaching (5th ed.). Pearson Education.
3. Brown, H. D., & Abeywickrama, P. (2010). Language assessment: Principles and classroom practices (2nd ed.). Pearson.
4. Cameron, L. (2001). Teaching languages to young learners. Cambridge University Press.
5. Dörnyei, Z. (2001). Motivational strategies in the language classroom. Cambridge University Press.
6. Ellis, N. C. (2008). The study of second language acquisition (2nd ed.). Oxford University Press.
7. Horwitz, E. K. (2001). Language anxiety and achievement. Annual Review of Applied Linguistics, 21, 112–126. https://doi. org/10. 1017/S0267190501000071 Krashen, S. D. (1985). The input hypothesis: Issues and implications. Longman.
8. Larsen-Freeman, D., & Long, M. H. (1991). An introduction to second language acquisition research. Longman.
9. Singleton, D., & Ryan, L. (2004). Language acquisition: The age factor (2nd ed.). Multilingual Matters.

BOLALAR SHE’RIYATINI O‘QITISH JARAYONIDA KREATIV O‘QISH STRATEGIYALARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Inoyatova Dilnoza Qunonboy qizi
Qo‘qon universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda bolalar she’riyatini o‘qitish jarayonida kreativ o‘qish strategiyalarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy tafakkurini shakllantirishdagi pedagogik ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda poetik matnlar asosida tashkil etilgan kreativ topshiriqlar o‘quvchilarning obrazli, assotsiativ va divergent fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, she’rni talqin qilish, qayta yaratish hamda poetik dialoglar orqali nutqiy kreativlikni oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: bolalar she’riyati, kreativ o‘qish, ijodiy tafakkur, poetik matn, divergent fikrlash, obrazli tafakkur.

Аннотация. В статье раскрывается педагогическое значение стратегий креативного чтения в процессе обучения детской поэзии в начальных классах. Обосновывается, что творческие задания на основе поэтических текстов способствуют развитию образного, ассоциативного и дивергентного мышления учащихся. Особое внимание уделяется интерпретации и переработке стихотворных произведений, а также развитию речевой креативности посредством поэтических диалогов.

Ключевые слова: детская поэзия, креативное чтение, творческое мышление, поэтический текст, дивергентное мышление, образное мышление.

Abstract. This paper examines the pedagogical significance of creative reading strategies in teaching children’s poetry in primary education. It is substantiated that creative tasks based on poetic texts promote the development of students’ imaginative, associative and divergent thinking skills. The study also analyzes the possibilities of interpreting and recreating poems, as well as enhancing verbal creativity through poetic dialogues.

Keywords: children’s poetry, creative reading, creative thinking, poetic text, divergent thinking, imaginative thinking.

Hozirgi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirish eng ustuvor vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Raqamli globallashuv sharoitida shaxsning moslashuvchanligi, mustaqil fikrlashi va original g‘oyalar yaratish qobiliyati jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bu jarayonning samarali tashkil etilishi keyingi ta’lim bosqichlarida o‘quvchilarning bilimlarni chuqur o‘zlashtirishi va ijodiy yondashuvni namoyon etishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari – obrazli tafakkur, emotsional idrok va badiiy tasavvurning ustuvorligi bilan tavsiflanadi. Shu bois

bolalar she’riyati mazmunan sodda, badiiy jihatdan ta’sirchan va obrazlarga boyligi bilan o‘quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishda muhim didaktik manba hisoblanadi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, she’riy matnlarni o‘qitish jarayonida ko‘pincha reproduktiv yondashuvlar ustun bo‘lib, o‘quvchilarning ijodiy faolligi yetarli darajada ta’minlanmaydi.

Mazkur maqolada bolalar she’riyatini o‘qitish jarayonida kreativ o‘qish strategiyalarining pedagogik ahamiyati tahlil qilinib, ularning o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirishdagi imkoniyatlari yoritib beriladi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ayniqsa ularning ijodiy tafakkurini shakllantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Ushbu bosqichda o‘quvchilar atrof-muhitni obrazli idrok etadi, voqea-hodisalarni badiiy tasavvur asosida qabul qiladi va emotsional-ta’sirchan fikrlash xususiyatlariga ega bo‘ladi. Shu sababli bolalar she’riyati boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkurini rivojlantirishda muhim didaktik manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Bolalar she’riyati mazmunining obrazlarga boyligi, qisqa va lo‘nda tuzilishi, musiqiy ohangdorligi o‘quvchilarda badiiy idrok, estetik did va tasavvuriy fikrlashni faollashtiradi. Ammo she’riy matnlarning ta’limiy salohiyati faqatgina ifodali o‘qish bilan cheklanib qolmasdan, balki kreativ o‘qish strategiyalari asosida chuqurlashtirilganda o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashiga xizmat qiladi.

Kreativ o‘qish strategiyalari – bu o‘quvchini matnni passiv qabul qiluvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi, talqin etuvchi va qayta yaratuvchi subyektga aylantiruvchi pedagogik yondashuvdir. Ushbu strategiyalar asosida tashkil etilgan dars jarayonida o‘quvchi matn mazmunini o‘z hayotiy tajribasi bilan qiyoslaydi, qahramonlar xarakteriga baho beradi, voqealarga shaxsiy munosabatini bildiradi hamda poetik obrazlarni o‘z tasavvurida qayta yaratadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, bolalar she’riyatini kreativ o‘qish strategiyalari asosida o‘qitish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nafaqat badiiy-estetik didni, balki muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topish, erkin fikrlash va original g‘oyalar ilgari surish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Keyingi bandlarda darslik materiallari asosida kreativ o‘qish strategiyalarining amaliy qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishda bolalar she’riyati mazmuni alohida ahamiyat kasb etadi. O‘qish savodxonligi darsligida she’riy matnlar, ertaklar va ularga berilgan ijodiy topshiriqlar tizimi kreativ o‘qish strategiyalarining samarali namunasi sifatida e’tiborga loyiqdir.

Poetik matnlar asosida assotsiativ va obrazli tafakkurni rivojlantirish.

Boshlang‘ich sinf darslarida poetik matnlar asosida tashkil etilgan kreativ o‘qish jarayoni o‘quvchilarda assotsiativ va obrazli tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, 2-sinf darsligida berilgan Abdurahmon Akbarning “Bir qishloq bolalari” she’rida ikki do‘st o‘rtasidagi ziddiyat obrazli tasvirlangan bo‘lib, o‘quvchilar bu vaziyatni nafaqat tushunadilar, balki uni shaxsiy hayotiy tajribalari bilan qiyoslash imkoniga ega bo‘ladilar. She’rda:

“Qahramon bo‘lish oson,
Nomusli bo‘lmoq og‘ir”

misrasi orqali axloqiy tanlov masalasi ilgari suriladi .

Mazkur poetik misra o‘quvchini o‘zini qahramon o‘rniga qo‘yishga, vaziyatni ichki his-tuyg‘ulari orqali idrok etishga undaydi. Natijada, o‘quvchilarda empatik tafakkur, ya’ni boshqalarning kechinmalarini tushunish qobiliyati shakllanadi.

She’r oxirida berilgan topshiriqlar: “Bu holat boshqa takrorlanmasligi uchun nima qilish kerak?”, “She’rdan qanday xulosa chiqardingiz?” kabi savollar orqali o‘quvchilar tayyor javobni emas, balki mustaqil xulosani izlashga yo‘naltiriladi .

Bu jarayon kreativ o‘qishning “talqin va qayta yaratish” strategiyasini yuzaga chiqarib, poetik matn asosida o‘quvchilarning obrazli va assotsiativ tafakkurini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Konfliktli vaziyatlarni tahlil qilish orqali divergent fikrlashni rivojlantirish

Boshlang‘ich sinf darsliklarida keltirilgan poetik matnlar orasida konfliktli vaziyatlarni o‘z ichiga olgan she’rlar o‘quvchilarning divergent tafakkurini rivojlantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, Asen Bosevning “Sanko” she’rida o‘quvchi Sanko obrazida dars jarayonida do‘stlarning yordami va mas’uliyatsizlik oqibatida yuzaga kelgan noqulay vaziyatlar badiiy tasvirlanadi. She’rda Sanko doskaga chiqqanda noto‘g‘ri javoblar berib, sinfdoshlarining shipshishlariga quloq solib yuborishi konfliktli holat sifatida ifodalanadi.

Mazkur vaziyat asosida berilgan topshiriqlarda o‘quvchilardan: “Sanko nega bunday javob berdi?”, “Uning xatosiga nima sabab bo‘ldi?” kabi savollarga javob berish so‘raladi. Bu savollar o‘quvchini birgina sabab bilan cheklanib qolmasdan, turli ehtimoliy omillarni – do‘stlarga haddan tashqari suyanish, e’tiborsizlik, darsga yetarli tayyorlanmaslik kabi sabablarni izlashga undaydi.

Natijada o‘quvchilar mazkur konfliktli vaziyatni turlicha talqin qilishga, unga bir nechta yechim variantlarini taklif etishga harakat qiladilar. Bu esa kreativ

o‘qishning muammoli vaziyat yaratish strategiyasi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida divergent tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

She’rni talqin qilish va qayta yaratish orqali ijodiy faollikni oshirish

Poetik matnni talqin qilish va uni qayta yaratish jarayonlari o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Darslikda keltirilgan Olqor Daminning “Yer yuzi bolalari” she’rida bolalar o‘rtasidagi do‘stlik, birdamlik va mehr-oqibat g‘oyalari badiiy ifodalangan. She’rda:

“Yer yuzini bog‘ etsin,
Toshni gul yaproq etsin,”[1,27]

kabi obrazli misralar o‘quvchilarni tasavvur qilishga, she’r mazmunini o‘z hayotiy tajribasi bilan bog‘lashga undaydi.

Mazkur she’r yuzasidan berilgan topshiriqlarda: “Siz ‘Do‘stlik bog‘i’ni qanday tasavvur qilasiz?”, “Tasavvuringizdagi do‘stlik bog‘ining rasmini chizing” kabi ijodiy vazifalar o‘quvchilarni she’r mazmunini qayta talqin qilishga va uni yangi badiiy mahsulot – rasm yoki kichik matn ko‘rinishida qayta yaratishga yo‘naltiradi. Natijada o‘quvchilar poetik obrazni faqat tushunibgina qolmay, balki o‘z tasavvuri asosida boyitib, kreativ o‘qishning reflektiv strategiyasini amalga oshiradilar.

Nutqiy kreativlikni rivojlantirishda poetik dialoglar

Boshlang‘ich sinf darslarida poetik dialoglar o‘quvchilarning nutqiy kreativligini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Darslikda berilgan Kavsar Turdiyevaning “Muloyim ko‘chasi” she’rida shirinso‘zlik, muloyim nutq va odob-axloq masalalari badiiy ifodalangan. She’rda:

“Salom, hormang, marhamat,
Salomat bo‘ling, rahmat,”[1,27]

kabi misralar orqali so‘zning inson ruhiyatiga ta’siri ko‘rsatib beriladi

She’r asosida berilgan topshiriqlarda o‘quvchilar muloyim so‘zlarni ajratib yozish, ularni kundalik hayotda qo‘llashga oid gaplar tuzish vazifalarini bajaradilar. Bu esa kreativ o‘qishning kommunikativ strategiyasini amalga oshirib, o‘quvchilarning nutqiy ijodkorligini rivojlantiradi.

Shunday qilib, darslikdagi she’riy va badiiy matnlar asosida tuzilgan topshiriqlar tizimi kreativ o‘qish strategiyalarining samarali modelini yaratib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida:

obrazli tafakkur,
muammoli vaziyatlarda mustaqil fikrlash,
axloqiy-emosional baholash,

nutqiy ijodkorlik
kabi muhim ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bolalar she’riyati boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo‘lgan muhim didaktik vosita hisoblanadi. She’riy matnlarning obrazli, emotsional va badiiy ifodaga boyligi o‘quvchilarning tafakkur jarayonlarini faollashtirib, ularni mustaqil fikrlashga, hodisalarga shaxsiy munosabat bildirishga hamda original g‘oyalar ilgari surishga undaydi.

Kreativ o‘qish strategiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish natijasida o‘quvchilar matnni faqat o‘qib tushunish bilan cheklanmay, uni talqin qilish, qayta yaratish, qahramonlar xatti-harakatlariga baho berish hamda voqealarni real hayot bilan qiyoslashga o‘rganadilar. Bu esa ularning nafaqat badiiy savodxonligini, balki ijodiy tafakkurini ham izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, bolalar she’riyatini kreativ o‘qish strategiyalari asosida o‘qitish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodkor shaxs sifatida tarbiyalash, ularning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Tavsiyalar:

1. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida bolalar she’riyati bilan ishlash jarayoniga kreativ o‘qish strategiyalarini tizimli ravishda joriy etish, xususan, she’rni qayta talqin qilish, muqobil sarlavha topish, qahramonlar nomidan yangi misralar tuzish kabi ijodiy topshiriqlardan keng foydalanish lozim.
2. O‘qituvchilar uchun bolalar she’riyati asosida kreativ o‘qish strategiyalarini qo‘llashga bag‘ishlangan metodik qo‘llanmalar va topshiriqlar bankini ishlab chiqish hamda ularni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.
3. Raqamli ta’lim vositalaridan foydalangan holda she’riy matnlarni audio, video va vizual materiallar bilan uyg‘unlashtirish orqali multimodal o‘qish muhitini yaratish o‘quvchilarning qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.
4. Kreativ o‘qish strategiyalarining samaradorligini aniqlash maqsadida o‘quvchilarning ijodiy tafakkur darajasini baholovchi mezonlar va diagnostik vositalarni ishlab chiqish hamda muntazam monitoring olib borish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aydarova U.B. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. IV qism. – Toshkent: *Novda Edutainment*, 2023. – 80 b. – ISBN 978-9943-9713-1-8.
2. Torrance E.P. *Torrance Tests of Creative Thinking*. – Bensenville: 1974. Scholastic Testing Service

SHE’RIYATDA IJTIMOIY MUAMMOLARNING BADIIY TALQINI

Inomova Dilshunos,
Qo‘qon universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kishilik jamiyatidagi mavjud muammolarning iste’dodli shoira Mukarrama Murodova she’riyatida qay tarzda aks etishi tahlil qilinadi. Shoirani o‘ylashga undagan keraksiz odatlar, ayol-qizlar ma’naviyatining barcha narsadan ustuvorligi “Sep” she’rining tahlili orqali ochib berilgan. Ko‘hna mavzuning bugun ham dolzarbligi muallifning shaxsiy mulohazalari bilan dalillangan.

Kalit so‘zlar: Dunyoqarash, sotsiologik tahlil, problema, problematika, emotsionallik, badiiy obraz, detal, falsafiy mushohada, badiiy talqin.

Abstract: This article analyzes how the problems existing in human society are reflected in the poetry of the talented poetess Mukarrama Murodova. The unnecessary habits that prompted the poet to think, the priority of women's spirituality over everything else are revealed through the analysis of the poem "Sep". The relevance of the old theme today is evidenced by the author's personal reflections.

Keywords: Worldview, sociological analysis, problem, problematics, emotionality, artistic image, detail, philosophical observation, artistic interpretation.

Аннотация: В данной статье анализируется, как проблемы, существующие в человеческом обществе, находят отражение в поэзии талантливой поэтессы Мукаррамы Муродовой. Ненужные привычки, побуждавшие поэтессу к размышлениям, приоритет женской духовности над всем остальным раскрываются через анализ стихотворения «Сеп». Актуальность старой темы сегодня подтверждается личными размышлениями автора.

Ключевые слова: Мировоззрение, социологический анализ, проблема, проблематика, эмоциональность, художественный образ, деталь, философское наблюдение, художественная интерпретация.

Mukarrama Murodovaning falsafiy qarashlari ijtimoiy muammolarning badiiy talqinida nihoyatda aniqlik bilan ifodalanadi. Shoiraning “Sep” she’ri ham uning ayol dunyoqarashi, o‘zbek onasining o‘y-xayollari, orzu va umidlari aksi sifatida alohida ahamiyatga ega. She’rda butun bisotini qizining sepi uchun jamlagan ona va yig‘ilgan sarpolarni ko‘rgan vaqtdagi qizning holati, o‘zbek ayoliga xos qadriyatlar tasvirlanadi.

She’rning avvalida sandiqda yig‘ilgan bisotni ko‘rgan qiz onasiga yuzlanadi:

Sandiq to‘la shohi nega?
Kimga darkor, onajonim!
Kalitini bering menga,
Bering menga, nur jahonim![1:21]

Buncha ko‘p narsaning uylarida borligini qiz endigina bildi. Onasining kiyinishi, yurish-turishini ko‘rib u “bizda hech narsa yo‘q bo‘lsa kerak” degan tushuncha bilan ulg‘aygan. Shuning uchun ham bir sandiqdagi sarpolarga, bir onasiga qaraydi. Ammo sarpolardan uning ko‘zlari quvonmaydi, u uchun atalgan narsalardan shodlanmaydi. Aksincha, norozi ohangda onasiga xitob qiladi:

Jo‘ra-jo‘ra atlas yotib –
Egningizda – ko‘ylak odmi.
Yonboshingiz yerga botib –
Unda chirir parqu zoti.[1:21]

Bisotida to‘p-to‘p matolar bo‘lgani holda onaning eski libosda yurishi, kamsuqum hayot kechirishi qizda norozilik uyg‘otadi. Lekin ona barcha o‘zbek ayollari singari topganini qiziga atagan, uning kelinligi uchun to‘plagan. Bu azaldan momolarimizga xos xususiyat bo‘lib, qadim zamonlardan ular qiz tug‘ilishi bilanoq unga sep yig‘ishni boshlaganlar. She’rdagi qahramon esa bu holatni qabul qilmaydi, matolarni butun umr sodda yashagan onasining egnida ko‘rishni istaydi. Onaning quloqlariga boqar ekan, noroziligi yanada kuchayadi. Yillar davomida taqilmagan baldoqlar uni yana onaga yuzlanishga majbur qiladi:

Aqal bir bor ilmay zirak,
Qulog‘ingiz bitmoqdadir.
Taqmay saqlash kimga kerak?

Baldog‘ingiz kutmoqdadir [1:21].

Ona quloqlarining zirak ko‘rmasdan bitayotgani, zirak o‘rni yo‘qolib borayotgani qizni iztirobga soladi. Sandiqda yillar davomida taqilmay, foydalanuvchi insonni kutib yotgan baldoqlarning kerak emasligini, buyumlar insonga naf keltirgandagina qadrli ekanligini uqtirmoqchi bo‘ladi. Keyingi misrada qiz onaning tashqi ko‘rinishini tasvirlashdan, sepning bikr sandiqda “o‘lik mol” bo‘lib yotganini aytishdan to‘xtab, o‘zini malomat qilishni boshlaydi. Onaning shu holatga kelib qolishiga bosh sababchi sifatida o‘zini ko‘radi:

Yoshligingiz, yalab edim,
Kemiribman benihoya.
Oromingiz tilab edim,
Ko‘zingizga tushmish soya.
O‘ynab kular kez o‘tganda,
Baringizga bo‘lsam tushov.
Endi oyoq uzatganda,
Keksayganlik bo‘larmi g‘ov [1:22].

Qahramon bolalik chog‘larida, go‘dakligida onaning ko‘ksini emgandan boshlab uni kemira boshlaganini xayol qiladi. Onaning ko‘zlari ostidagi soyalar; keksalik, xastalik, xorg‘inlik alomatlari, barcha-barchasining sababchisi sifatida o‘zini ayblaydi. O‘yin yoshidan o‘tib, onasiga xizmat qilar davri kelganida, volidasining xizmatiga bel bog‘lagan pallada uning sep yig‘ib o‘zini qiynashi qizni ranjitadi. U “yillar davomida mening huzur-xalovatim uchun kurashgan insonga, nahotki, voyaga yetganimdan so‘ng ham yuk bo‘laman”, - deya xayol qiladi. Misralardan ma’lum bo‘ladiki, she’rdagi qahramon maishiy shaxs emas, uning dunyoqarashi keng, darajasi baland. U onaning umri mol yig‘ish bilan o‘tishiga, orzu-havaslarini matolar qatiga o‘rab-chirmab tashlanishiga jim qarab turolmaydi. Shu jihatdan ham keyingi bandda mavzu ohangi ijtimoiy ruhga ko‘tariladi:

Ortiq sipo yurmangiz, bas,
Bosiq qadam bosmang buncha.
Axir shodlik ona meros,
Qolgan emas va yo o‘lja [1:22].

U qat’iy ohangda onaga murojaat qilar ekan, undan avvalgi holatda yurmaslikni so‘raydi. Shodlik insonni qidirib kelmasligini, inson uni o‘zi yaratishini, hayotdan zavqlanish, chin ma’noda, uchish kerakligini ta’kidlaydi.

Onaning umr bo‘yi o‘ylanib, og‘ir qadam bosishlarining sababi sifatida seplarni ko‘rar ekan, ular qizga zarur emasligini, shuning uchun onaning xorg‘in, vazmin yurishiga ortiq hojat yo‘qligini tushuntirishga harakat qiladi. Shoira onaning masalani yorqinroq anglashi uchun retrospeksiya – vaqtni orqaga qaytarish usulidan foydalanadi. Qiz buvisining qiynalib yashaganligi, qorong‘u paranji-yu, biqiq chimmat ichida umrini o‘tkazgan buvining yagona tilagi qizining erkin, hur hayotga erishishini tilash bo‘lganligini yodga oladi:

Za’faronlik – buvim husni,
Ham paranji – oliy libos.
Manzil devor yeti paxsa,
Soch supurgi bo‘lgani rost.
Ana shu bor bisotini,
Tugunlarga boylab buvim,
Topgan namak – faryodini,
Sandiqlarga joylab buvim,
Qoldirmagan, sizga axir
Yuragini tutgan, xolos.
Erkin nafas olishdek bir
Tilagini tutgan xolos [1:22].

Qiz tarixni xotirlar ekan, avvalgi, “tariximizning kir zamonlarida” ayollarning erksizligi, qanchadan qancha iste’dod sohibalarining paxsa devorlar ichida mavhumlikka singib ketganini aytadi. Ana shu ayollar qatorida buvisining ham bo‘lganligini, uning yagona tilagi qizining erkin kunlarda, go‘zal davrda yashashini orzu qilganligini ta’kidlaydi. Mana ayollar erkin, nozik jins vakillari ozod yashamoqdalar. Ammo qizning onasi mana shunday dorulomon kunlarda ham og‘ir qadam tashlamoqda. Bu esa qizning ko‘nglini g‘ash qiladi. “Buvim sizga sep yig‘magan, ezgu tilaklarini yo‘llagan, orzularga to‘la yuragini bergan ekan, siz nega menga sep yig‘ish bilan ovvorasiz, onajon?”, - deb nola qiladi. Onasidan shoyi-yu baxmallar, atlas-u adraslar to‘la sandiqni emas, unga yuragini ochishini so‘raydi:

Sandiq to‘la shohi nega?
Kimga darkor, onajonim!
Yuragingiz oching menga,
O‘sha erur nur jahonim [1:23].

She’rning keyingi misralarida shoiraning asl maqsadi bo‘y ko‘rsata boradi. U endi ona va qiz o‘rtasidagi munosabatlarning muhimligiga, ikki avlod vakillarining muloqoti yosh qizning keyingi hayotida alohida ahamiyat kasb etishiga urg‘u beradi. Qiz katta hayot ostonasida turar ekan, uning qalbi hayajon va xavotirlarga to‘la. U kelajakdagi sinovlarga tayyor turishni istaydi, u onaning o‘gitlariga, tavsiya va tanbehlariga muhtojligini ich-ichida his qiladi. Shuning uchun ona bilan hasratlashishni, uzoq suhbat qurishni xohlaydi. Bu orqali kelajakka zamin hozirlashga urinadi:

So‘ng oldinga chopay ildam,
So‘zlaringiz mag‘zin chaqib.
O‘z chirog‘im yoqay men ham
Hayotga sal sergak boqib [1:23].

Misralardan ko‘rinadiki, qiz onaning tasallilarini hayotda olg‘a boshlovchi mayoq deb biladi. Hozirgi holati juda g‘o‘r ekanligini, hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun onaning nasihatlari zarur ekanligini tushunadi va hayot voqeliklarining mohiyatini anglash, ularni ilg‘ab olish uchun sergak bo‘lishga tirishadi. U yuqorida ta’kidlangani singari dunyoqarashi keng, fikri teran qiz. Uning ko‘ngli “molparastlik” illatidan xorijda. Shu tufayli sepning, sarpolarning qizning baxtiga kafolat bermasligini, kelajakda baxt atalmish ne’matni insonning o‘zi kashf etishini biladi va baralla:

Seplar meni qoniqtirmas,
Kelajakda baxt iqbolim [1:24]
– deb aytadi.

Bugun atrofni, jamiyat a’zolarining munosabatlarini, globallashgan zamon farzandlarining dunyoqarashini kuzatar ekanmiz, shoiraning bundan qariyb oltmish yil ilgari yozgan misralari hozirgi davr uchun ham ahamiyatli ekanligini anglash qiyin emas. Ayniqsa, farzandini boqish va uy-joy, mashina olish, pul topish ilinjida oilasini tashlab, olis yurtlarga ketayotgan insonlar yashayotgan hozirgi jamiyat uchun, shaxsiy rivojlanishni xayolining chekkasiga ham keltirmayotgan qizlar uchun, butun dard-u tashvishi qiziga sep yig‘ish bilan ovvora bo‘lgan, qizi bilan biror marotaba suhbatlashmagan, dillashmagan, uning nafis tuyg‘ulariga quloq tutmagan, beshavqat hayotning makrlaridan uni ogoh etmagan onalar uchun yuqorida tahlilga tortilgan she’r nihoyatda zarur. Shoira bu she’ri orqali onalarni ogohlikka chaqiradi, dabdababozlik illatidan chekinib, qizlarni tarbiyalashga,

ularga sep emas, ta’lim-tarbiya berishga da’vat etadi. Bu chaqiriqlarning tag zamirida shoiraning ayol deb atalmish xilqatga yuksak bahosiga, uni ayolni ulug‘lovchi falsafiy qarashlariga borib taqaladiki, bu qarashlarning nihoyatda to‘g‘ri ekanligini bugungi jamiyat, bugungi jamiyatda ro‘y berayotgan holatlar isbotlab turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Murodova M. Seni kuylayman. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974.
2. Murodova M. Bahor boshlanibdi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent. Akademnashr, 2019. B.277.
4. Садинов М. И мисль - всем вершинам сестра.... – М. Молодая гвардия, 1983 г.
5. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/mukarrama-murodova-poetry.html.

VIZUAL O‘QUV MUHITINING KASBIY KOMPETENTSIYA RIVOJLANISHIDAGI ROLI

Saparova Aysanem Ajiniyazovna
Qoraqalpoq Davlat Universiteti
Matematika Fakulteti
Matematik Tahlil Kafedrasi, Stajyor O‘qituvchi
saparovaaysanem09@gmail. com
+998998834187

Annotatsiya: Ushbu maqolada vizual o‘quv muhiti va uning talabalarda kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan grafik interfeyslar, interfaol vositalar, simulyatsiya va vizual modellashtirish tizimlarining o‘quv jarayoniga ta’siri yoritilgan. Tadqiqot natijalari vizual ta’lim muhiti o‘quvchilarni murakkab jarayonlarni tez anglash, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, kreativ fikrlash va

muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatlarini mustahkamlashga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: vizual o‘quv muhiti, interfaol ta’lim, kasbiy kompetentsiya, simulyatsiya, modellashtirish, raqamli texnologiyalar, muloqot ko‘nikmalari, o‘quv motivatsiyasi.

Аннотация: В статье анализируется визуальная образовательная среда и её значение в формировании профессиональных компетенций студентов. Раскрывается влияние графических интерфейсов, интерактивных инструментов, систем имитационного и визуального моделирования, созданных на основе цифровых технологий, на процесс обучения. Результаты исследования показывают, что визуальная образовательная среда способствует быстрому пониманию студентами сложных процессов, развитию практических навыков и укреплению их способности к творческому мышлению и решению проблемных ситуаций.

Ключевые слова: визуальная образовательная среда, интерактивное обучение, профессиональные компетенции, имитационное моделирование, цифровые технологии, коммуникативные навыки, мотивация обучения.

Hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida kasbiy kompetentsiyalarning shakllanishi zamonaviy texnologiyalar bilan bevosita bog‘liq. Ayniqsa vizual o‘quv muhiti — grafik interfeyslar, diagrammalar, infografikalar, animatsiya, simulyatorlar, multimedia darsliklari, virtual laboratoriyalar — o‘quvchilarni murakkab jarayonlarni tezroq tushunishiga va eslab qolishiga yordam beradigan samarali vositaga aylandi. Shu bois, hozirgi pedagogika vizual ta’lim muhitining afzalliklarini chuqur tahlil qilishni va uni kasbiy ta’lim jarayoniga integratsiya qilishni muhim vazifa deb biladi [1].

Kasbiy kompetentsiya — ma’lum bir kasbni puxta egallash uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmuasidir. Oddiy qilib aytganda, bu — insonning o‘z kasbini professional darajada bajara olishi.

Vizual o‘quv muhitining kasbiy kompetentsiya rivojlanishidagi roli — bu vizual (ko‘rgazmali) ta’lim vositalari yordamida talabaning bilim, ko‘nikma va malakalarini yanada tez, aniq va samarali rivojlantirish jarayonidir [3, 2].

1-jadval. Olimlarning ilmiy ishlaridan namunalar (chet olimlari asosida)

Muallif	**Yili**	**Asar/Maqola nomi**	**Asosiy mazmuni (mohiyati)**
Richard E.	200	Multimedia	Vizual + audio materiallar axborotni

Mayer (AQSh)	9	Learning	idrok qilishni 2–3 baravar oshiradi. Kognitiv yukni kamaytirish orqali kasbiy ko‘nikmalar tez shakllanishi ilmiy asoslangan.
Mayer & Moreno (AQSh)	2003	Nine Ways to Reduce Cognitive Load in Multimedia Learning	Interaktiv vizual materiallar (diagramma, animatsiya) o‘quvchining kasbiy fikrlashini shakllantirishda samarali ekanini isbotlagan.
Lev Vygotskiy (Rossiya)	1986	Thinking and Speech (fikrlash nazariyasi)	Vizual vositalar o‘quvchini murakkab amaliy jarayonga tayyorlashda “yaqin rivojlanish zonasi”ni kengaytiradi. Kompetensiya shakllanishida ko‘rgazmalilik muhim.
John Sweller (Avstraliya)	1988	Cognitive Load Theory	Vizual ta’lim murakkab axborotni qisqa vaqt ichida o‘zlashtirishni yengillashtiradi. Amaliy kasbiy ko‘nikmalarni oshirishi ilmiy asoslangan.
Allan Paivio (Kanada)	1971	Dual Coding Theory	Tasvir + matn birgalikda berilganda kasbiy bilimlar ancha samarali shakllanishini nazariy asoslab bergan.
D. Jonassen (AQSh)	1994	Towards a Constructivist Design Model	Vizual texnologiyalar konstruktiv ta’limni qo‘llab-quvvatlaydi, real kasbiy muammolarni modellashtirish imkonini beradi.
G. Salomon (Isroil)	1997	Interaction of Media, Cognition, and Learning	Vizual media o‘quvchining analitik fikrlashini kuchaytiradi va kasbiy muhitni simulyatsiya qilishda juda muhim.

1-jadvalda, chet el olimlari shuni isbotlagan:

1. Vizual o‘quv muhitlari kognitiv yukni kamaytiradi.

2. Bilimni uzoq saqlashga yordam beradi.
3. Kasbiy ko‘nikmalarni real vaziyatga yaqinlashtiradi.
4. Ta’limni interaktiv va samarali qiladi [4].

2-jadval. O‘zbek olimlarning ilmiy ishlaridan namunalar

Muallif	Yili	Asar/Maqola nomi	Asosiy mazmuni (mohiyati)
Q. Qodirov	2019	Raqamli ta’lim texnologiyalari asoslari	Vizual o‘quv vositalari talabalarda amaliy va kasbiy kompetentsiyani tezroq shakllantirishi haqida ilmiy asoslar keltirilgan.
O. Tolipov	2020	Pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuv	Kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishda ko‘rgazmalilik va vizual didaktik materiallarning roli ta’kidlangan.
M. Ochilov	2018	Axborot texnologiyalari va o‘qitish metodikasi	Vizual platformalar (simulyator, grafik interfeys) orqali amaliy kasb ko‘nikmalarining shakllanishi o‘rganilgan.
D. Raxmonov	2021	Interfaol o‘qitish usullari	Vizual-interaktiv muhit o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, kasbiy vaziyatni tushunish qobiliyatini oshirishini ko‘rsatgan.
X. Abdukarimov	2017	Multimedia vositalari yordamida o‘qitish samaradorligi	Multimedia (video, animatsiya, grafik) talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishi tajribalar asosida isbotlangan.
Sh. Toshpulatova	2022	Pedagogik dizaynda vizual vositalar	Vizual dizayn malakalari kasbiy kompetentsiyaning muhim tarkibiy qismi ekanini ilmiy asoslagan.
A. To‘laganov	2016	Oliy ta’limda elektron resurslar	Diagramma, grafik, infografika kabi vizual ta’lim vositalari

			kasbiy malakalarni shakllantiruvchi asosiy resurs ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbek olimlari ta’kidlashadi [5]:

1.Vizual o‘quv vositalari kompetensiyaviy ta’limning asosiy elementi.

2.Raqamli texnologiyalar, simulyatorlar va infografikalar amaliy malakalarni kuchaytiradi.

3.Vizual muhit talabaning kasbiy fikrlashini shakllantiradi.

Vizual o‘quv muhiti — bu ma’lumotni asosan ko‘rish orqali qabul qilishga asoslangan pedagogik sharoitdir. Bunda talaba o‘rganilayotgan tushunchalarni rasmlar, grafiklar, jadvallar, diagrammalar, video-animatsiyalar yoki interfaol kartalar orqali ko‘rib, idrok etadi.

Ushbu muhitning asosiy xususiyatlari:

1.murakkab ma’lumotlarni soddalashtirilgan grafik ko‘rinishda taqdim etish;

2.tez va intuitiv idrok etishni ta’minlash;

3.amaliy ko‘nikmalarni simulyatsiya orqali shakllantirish;

4.vizual kodlash orqali uzoq muddatli xotirani faollashtirish.

R. Mayerning multimodal o‘quv nazariyasi bo‘yicha, odam axborotni ko‘ruv va eshitish kanallari orqali parallel qabul qilganda o‘quv samaradorligi oshadi. Shuning uchun ham vizual o‘quv muhiti o‘quv jarayonini optimallashtiradi [7, 6].

3-jadval. Vizual ta’limning kasbiy kompetentsiya rivojlanishidagi o‘rni

Bo‘lim	Mazmuni	Kasbiy kompetentsiyaga ta’siri
Analitik va muammoli fikrlashni rivojlantirish	Diagramma, blok-sxema, jarayon xaritalari orqali jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligini tushuntirish.	Sabab–oqibat aloqalarini aniqlash ko‘nikmasi rivojlanadi. Murakkab tizimlarni modellashtirish qobiliyati kuchayadi. Muhandislik, IT, iqtisodiyot, tibbiyotda zarur bo‘lgan tahliliy fikrlash shakllanadi.
Amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish	Virtual laboratoriya, simulyator, 3D modellar orqali real jarayonlarni xavfsiz sharoitda modellashtirish.	Xatolardan qo‘rqmasdan tajriba qilish imkoniyati. Real kasbiy sharoitga yaqin mashqlar bajariladi. Texnika, tibbiyot, energetika va dasturlashda amaliy malaka mustahkamlanadi.

Kasbiy muloqot va taqdimot ko‘nikmalarini rivojlantirish	Vizual taqdimotlar, grafik ko‘rgazmalar, diagrammalar yordamida fikrni aniq ifodalash.	Fikrni mantiqiy va tushunarli yetkazish o‘rganiladi. Vizual materialni strukturaga solish malakasi rivojlanadi. Auditoriya oldida chiqish, himoya qilish ko‘nikmasi shakllanadi.
Kreativ fikrlash va innovasion yondashuvni rivojlantirish	Infografika, dizayn-fikrlash, prototiplash texnikalaridan foydalanish.	Yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati oshadi. Kreativ yechimlar ishlab chiqish rivojlanadi. Konsepsiyalarni vizual modelga aylantirish ko‘nikmasi shakllanadi.

Matematik masala (logarifm asosida vizual ta’lim misoli)

Masala:

Quyidagi funksiyani ko‘rib chiqing:

$y = \log_2(x)$

1. Funksiyaning hosilasini toping [8].
2. Grafik asosida funksiyaning o‘sish xususiyatini aniqlang.
3. Logarifmik funksiyaning real jarayonlardagi qo‘llanilishini tushuntiring.

Vizual yechim (o‘quvchi uchun grafik asosida):

1.Grafik ko‘rinishi: Logarifmik funksiya faqat musbat x-larda mavjud bo‘ladi va grafik sekin o‘suvchi egri chiziq ko‘rinishida tasvirlanadi.

2.Hosila:

$$y = \log_2(x) \Rightarrow y' = \frac{1}{x\ln 2}$$

Grafikda hosilaning qiymati quyidagicha ko‘rinadi:

1.$x$kichik bo‘lsa — qiyalik katta (tez o‘sish);

2.$x$katta bo‘lganda — qiyalik kichik (sekin o‘sish).

O‘sish xususiyati:

$$y' = \frac{1}{x\ln 2} > 0 \text{(har doim musbat)}$$

Demak, funksiya butun ta’rif oblastida o‘suvchi.

Real hayotdagi qo‘llanilishi (vizual misol):

1. kompyuter fanida: murakkablik darajasini baholash (O(log n))

2. kimyo: pH darajasi (logarifmik)
3. tibbiyot: desibel (nutq kuchi)
4. iqtisodiyot: foizli o‘sish modeli

Vizual diagrammalar orqali bu jarayonlar oson tushuniladi [9, 10].

4-Jadval. Logarifm misoli asosida vizual ta’limning roli

Bosqich	**Vizual element**	**O‘quv jarayonidagi foyda**	**Kasbiy kompetentsiyaga ta’siri**
Funksiyani tushuntirish	Logarifmik grafik: egri chiziq, x>0	Abstrakt logarifm mazmuni shaklga aylanadi	Matematik modellashtirishni tushunish rivojlanadi
Hosilani tahlil qilish	Teginma (tangent) qiyaligining real vaqt o‘zgarishi	O‘sish tezligi qanday sekinlashishini ko‘radi	Analitik fikrlash, algoritmik murakkablikni tahlil qilish
O‘sish xususiyatini aniqlash	Grafikda faqat yuqoriga o‘suvchi chiziq	Logarifmning har doim o‘suvchi ekanini darhol anglaydi	IT (O(log n)), iqtisodiyot, kimyo sohalari uchun tayyorgarlik
Amaliy qo‘llanishni tushuntirish	pH, decibel, foizli o‘sish grafiklari bilan solishtirish	Real hayotdagi logarifmik jarayonlarni grafik asosida tushunadi	Kasbiy kompetentsiya: modellashtirish, tahlil, qaror qabul qilish

Vizual ta’lim muhitini samarali joriy etish bo‘yicha tavsiyalar [11]:

1. O‘quv materiallarini diagramma, sxema, infografika ko‘rinishida tayyorlash.
2. Moodle, Google Classroom, Canva, Figma kabi vositalardan foydalanish.
3. Virtual laboratoriya va simulyatsiya dasturlarini o‘quv amaliyotiga kiritish.
4. Talabalarni vizual taqdimot va loyiha ishlari qilishga jalb etish.
5. VR/AR texnologiyalar bilan ishlash bo‘yicha maxsus treninglar o‘tkazish.

Xulosa

Vizual o‘quv muhiti zamonaviy ta’lim jarayonida kasbiy kompetentsiyani shakllantirishning eng samarali vositalaridan biridir. U nafaqat o‘quv materiallarini tez anglashni ta’minlaydi, balki talabalarda amaliy ko‘nikmalar, kreativ fikrlash, analitik yondashuv, muloqot va taqdimot mahoratini rivojlantiradi. Shuning uchun vizual texnologiyalarni kasbiy ta’limga integratsiya qilish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Qodirov, Q. (2019). Raqamli ta’lim texnologiyalari asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
2. Tolipov, O‘. (2020). Pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuv. Toshkent.
3. Ochilov, M. (2018). Axborot texnologiyalari va o‘qitish metodikasi. Toshkent: Fan.
4. Raxmonov, D. (2021). Interfaol o‘qitish usullari. Toshkent: Innovatsiya markazi.
5. Abdukarimov, X. (2017). Multimedia vositalari yordamida o‘qitish samaradorligi. Toshkent.
6. Toshpulatova, Sh. (2022). Pedagogik dizaynda vizual vositalar. Buxoro universiteti nashriyoti.
7. To‘laganov, A. (2016). Oliy ta’limda elektron resurslar. Toshkent: Oliy ta’lim agentligi.
8. Lowe, R. K., & Schnotz, W. (2014). Learning from visual representations. Routledge.
9. Stewart, J. (2016). Calculus: Concepts and contexts (4th ed.). Cengage Learning.
10. Larson, R., & Edwards, B. (2014). Calculus (10th ed.). Cengage Learning.
11. Sipser, M. (2013). Introduction to the theory of computation (3rd ed.). Cengage Learning.

TALABALARNING MUAMMONI HAL QILISH KO‘NIKMALARINI VIZUAL USULLAR BILAN SHAKLLANTIRISH

Saparova Aysanem Ajiniyazovna
Qoraqalpoq Davlat Universiteti
Matematika Fakulteti
Matematik Tahlil Kafedrasi, Stajyor O‘qituvchi
saparovaaysanem09@gmail. com
+998998834187

Annotatsiya: Maqolada talabalarning muammoni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda vizual usullarning roli tahlil qilinadi. Grafiklar, diagrammalar, infografikalar, simulyatsiya va interfaol platformalar orqali murakkab muammolarni anglash va yechim topish jarayoni yoritilgan. Tadqiqot natijalari vizual usullar talabalarda tahliliy fikrlash, kreativ yondashuv, amaliy ko‘nikmalar va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: muammoni hal qilish, vizual usullar, interfaol o‘quv muhit, tahliliy fikrlash, simulyatsiya, infografika, qaror qabul qilish.

Аннотация: В статье анализируется роль визуальных методов в формировании навыков решения проблем у студентов. Особое внимание уделяется процессу понимания и поиска решений сложных задач с помощью графиков, диаграмм, инфографики, симуляций и интерактивных платформ. Результаты исследования показывают, что визуальные методы эффективны в развитии аналитического мышления студентов, творческого подхода, практических навыков и способности принимать решения.

Ключевые слова: решение проблем, визуальные методы, интерактивная образовательная среда, аналитическое мышление, симуляция, инфографика, принятие решений.

Hozirgi ta’lim jarayonida talabalarning muammoni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ko‘nikma nafaqat ilmiy va texnik sohalarda, balki kundalik hayot va kasbiy faoliyatda ham talab qilinadi.

Vizual usullar — grafiklar, diagrammalar, infografikalar, interfaol modullar, simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar — talabalarga murakkab jarayonlarni ko‘rish, tahlil qilish va samarali qaror qabul qilish imkonini beradi. Shu sababli,

zamonaviy pedagogik texnologiyalar vizual yondashuvni qo‘llashga katta e’tibor qaratadi.

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy ta’lim jarayoni va raqamli iqtisodiyot sharoitida talabalar kasbiy kompetentsiyalarni tez va samarali rivojlantirishga muhtoj. Bugungi kunda:

1. Ma’lumotlar hajmi katta: Talabalar nafaqat nazariy bilim, balki murakkab amaliy vaziyatlarni tez tushunish va yechim topish qobiliyatiga ega bo‘lishlari kerak.

2. Muammoli vaziyatlar keng tarqalgan: Muhandislik, IT, iqtisodiyot, tibbiyot va boshqa sohalarda talabalar real muammolarni hal qilishga tayyor bo‘lishi zarur.

3. Vizual ta’lim vositalari samaradorligi: Diagramma, infografika, animatsiya, simulyator va virtual laboratoriyalar orqali murakkab jarayonlarni intuitiv tarzda tushunish mumkin.

4. Interaktiv va motivatsion ta’lim: Vizual usullar talabalarning o‘qishga qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Shuning uchun vizual usullar yordamida muammoni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish bugungi pedagogik jarayonlarda dolzarb vazifa hisoblanadi [1].

Mavzuning ilmiy yangiligi:

1. Texnologik yondashuv: So‘nggi yillarda raqamli va interaktiv platformalar (Canva, Figma, Moodle, Google Classroom) orqali vizual ta’lim samaradorligi ilmiy jihatdan o‘rganilmoqda.

2. Kognitiv samaradorlik: Richard Mayer va Jonassen kabi olimlar multimodal ta’lim (matn + grafik + video) orqali muammoni tez tushunish va yechim topish ko‘nikmalarini shakllantirishni isbotladilar.

3. O‘zbek pedagogikasida yangi yondashuvlar: Qodirov, Tolipov, Raxmonov va Toshpulatova kabi olimlar vizual-interaktiv metodlarni kasbiy kompetentsiya va muammoni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga integratsiya qilish tajribasini ilmiy asoslashdi.

4. Amaliy tadqiqotlar natijasi: Virtual laboratoriyalar va simulyatorlar yordamida talabalar muammolarni xavfsiz va real jarayonlarga yaqin sharoitda hal qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

5. Innovatsion pedagogika: Vizual dizayn, prototiplash va infografika metodlari talabalarda kreativ va analitik fikrlashni bir vaqtda shakllantirish imkonini beradi [2].

Vizual usullar orqali ko‘nikmalarni shakllantirish strategiyalari:

1. Muloqot va muhokama: Talabalar vizual diagrammalar va grafiklar yordamida yechimlarni taqdim etadi va muhokama qiladi.

2. Loyiha ishlari: Infografika va prototiplash orqali yechim ishlab chiqish.

3. Masala tahlili: Oqim sxemalari va konseptual xaritalar yordamida muammoni qadam-baqadam tahlil qilish.

4. Interfaol platformalar: Moodle, Canva, Figma, Tinkercad kabi vositalarda interfaol mashqlar orqali qaror qabul qilish.

5. VR/AR texnologiyalari: Virtual muhitda real sharoitlarni modellashtirish, strategiyalarni sinash va natijalarni vizual tahlil qilish [3].



1-rasm. 2020–2025 yillarda vizual ta’limning turli metodlarining keng qo‘llanilishi

1-rasmda, kognitiv samaradorlik eng ko‘p qo‘llanilgan (90%), ya’ni multimodal ta’lim (matn + grafik + video) talabalarda muammoni tez tushunish va yechim topish ko‘nikmalarini shakllantirishda eng samarali hisoblanadi. Texnologik yondashuv (85%) ham keng tarqalgan, xususan Canva, Figma, Moodle va Google Classroom kabi platformalarda. Amaliy tadqiqotlar natijasi (70%) va Innovatsion pedagogika (65%) ham sezilarli darajada ishlatiladi. O‘zbek pedagogikasida yangi yondashuvlar (40%) hali nisbatan kamroq keng qo‘llanilmoqda, lekin o‘sib borayotgan tendensiya mavjud.



2-rasm. Onlayn ta’lim platformalardagi faoliyat

Vizual usullar orqali ko‘nikmalarni shakllantirish strategiyasi muloqot va muhokamaga namuna quyida keltirilgan:



3-rasm. Chiqindilarni kamaytirish bo‘yicha mind map (aql xaritasi)

3-rasm markazida asosiy mavzu — *Chiqindilarni kamaytirish*. Shundan keyin besh asosiy strategiya tarmoq ko‘rinishida ko‘rsatilgan:

1. Qayta ishlash: plastik paketlarni kamaytirish, qog‘ozni tejash.
2. Kamroq ishlatish: oziq-ovqat va boshqa resurslarni tejash.
3. Axborot kampaniyasi: posterlar, video kampaniyalar orqali xabardorlikni oshirish [4].

Bu turdagi vizual diagrammalar talabalar muammolarni yechishda fikrlarini tartibga solish va muloqotda oson tushuntirishga yordam beradi.

Vizual usullar orqali ko‘nikmalarni shakllantirish strategiyasi loyiha ishlariga namuna quyida keltirilgan:

Loyiha ishlari: Infografika va prototiplash orqali yechim ishlab chiqish:

1. Maqsad: Muammoni aniqlash va yechim variantlarini vizual tarzda ifodalash.

2. Jarayon: Talabalar muammoni tushuntirib beruvchi infografika tayyorlaydi. Infografikada asosiy bosqichlar, sabab-vaqea munosabatlari va yechim variantlari ko‘rsatiladi. Keyin prototip yaratib, yechimning amaliy ishlashini namoyish qiladi.

3. Natija: Talabalar murakkab ma’lumotni ko‘rgazmali shaklda tahlil qiladi, muhokama qiladi va amaliy yechim ishlab chiqadi [5].

Vizual usullar orqali ko‘nikmalarni shakllantirish strategiyasi interfaol platformalarga namuna quyida keltirilgan:

Interfaol platformalar orqali ko‘nikmalarni shakllantirish:

1. Talaba Moodle platformasida interfaol test va vazifalarni bajaradi, muammoni turli yechimlar bilan sinab ko‘radi va natijalarni baholaydi [6].

2. Canva yordamida talaba yechimni infografika yoki vizual taqdimot shaklida ishlab chiqadi.

3. Figma orqali loyiha dizayni yoki konseptual sxema chizadi, muammoning strukturaviy yechimini vizual qiladi.

4. Tinkercad virtual modellashtirishda turli texnik yoki mexanik yechimlarni sinash imkonini beradi.

5. Natijada, talaba qaror qabul qilish, tahlil va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini amalda rivojlantiradi.

Vizual usullar orqali ko‘nikmalarni shakllantirish strategiyasi VR/AR texnologiyalariga quyida misol keltirilgan [7]:

Fanning mavzusi: Biologiya – Odam tanasining yurak qon-tomir tizimi. Strategiya: VR/AR texnologiyalari yordamida ko‘nikmalarni shakllantirish.

1. Ma’lumotni vizual modellashtirish. Talabalar VR ko‘zoynak orqali 3D virtual yurak va qon tomirlar tizimini ko‘radilar. Yurakning turli qismlari, qon oqimi va qon bosimi jarayoni real vaqt rejimida vizual tarzda modellashtiriladi.

2. Strategiyalarni sinash. Talabalar turli sharoitlarda yurak faoliyatini simulyatsiya qilishadi: masalan, yugurish paytida, stress ostida yoki dori ta’sirida. Har bir harakatning natijasi (masalan, yurak urish tezligi o‘zgarishi, qon bosimi) darhol virtual muhitda ko‘rsatiladi.

3. Natijalarni vizual tahlil qilish. Talabalar o‘z tajribalarini grafiklar, ranglar va animatsiyalar orqali tahlil qiladilar. Misol: yurakning har bir bo‘lagida qon oqimi tezligi rangli gradient orqali ko‘rsatiladi (qizil – tez, ko‘k – sekin). Shu orqali ular qon aylanishining fiziologik jihatlarini intuitiv va tez tushunadilar.

4. Amaliy natija. Talabalar murakkab jarayonlarni so‘zsiz tushunib oladi, real laboratoriyada qilsa ko‘rish qiyin bo‘lgan jarayonlarni vizualizatsiya qiladi. Masalan, yurakning turli qismlarini bloklab o‘rganish va ularni boshqarish orqali diagnostika yoki tibbiy strategiyalarni sinash ko‘nikmasi rivojlanadi [8].

Xulosa

Vizual usullar talabalarning muammoni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali vositadir. Grafiklar, diagrammalar, infografikalar, simulyatsiya va interfaol platformalar talabalarda tahliliy fikrlash, kreativ yondashuv va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Shu bois, zamonaviy pedagogik jarayonda vizual yondashuvni keng qo‘llash muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Jonassen, D. H. (2011). Learning to solve problems with technology: A constructivist perspective (3rd ed.). Routledge.

2. Qodirov, A., Tolipov, B., Raxmonov, S., & Toshpulatova, N. (2020). Vizual-interaktiv metodlar orqali talabalarning kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirish [O‘zbek pedagogikasi]. Qoraqalpog‘iston Davlat Universiteti.

3. Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2016). E-learning and the science of instruction: Proven guidelines for consumers and designers of multimedia learning (4th ed.). Wiley.

4. Brown, A. L., & Campione, J. C. (1994). Guided discovery in a community of learners. In K. McGilly (Ed.), Classroom lessons: Integrating cognitive theory and classroom practice (pp. 229–270). MIT Press.

5. Moodle. org. (n. d.). Moodle learning platform. Retrieved December 4, 2025, from https://moodle. org.

6. Canva. (n. d.). Canva design platform. Retrieved December 4, 2025, from https://www. canva. com.

7. Figma. (n. d.). Figma design and prototyping tool. Retrieved December 4, 2025, from https://www. figma. com.

8. Tinkercad. (n. d.). Tinkercad 3D design, electronics, and coding. Retrieved December 4, 2025, from https://www. tinkercad. com.

BOLALAR SHE’RIYATIDA MILLIY QADRIYATLAR VA ULARNING TAFAKKURGA TA’SIRI

Inoyatova Dilnoza Qunonboy qizi

Qo‘qon universiteti tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bolalar she’riyati vositasida milliy qadriyatlarni shakllantirish va ularning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy tafakkuriga ta’siri ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqot jarayonida bolalar she’riyati namunalarida aks etgan vatanparvarlik, oila, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, milliy urf-odatlar va madaniy an’analar kabi qadriyatlarning o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishdagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, bolalar she’riyati asosida ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: bolalar she’riyati, milliy qadriyatlar, ijodiy tafakkur, boshlang‘ich ta’lim, badiiy tafakkur, tarbiya, poetik obraz.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается роль детской поэзии в формировании национальных ценностей и их влияние на развитие творческого мышления учащихся начальных классов. В ходе исследования анализируются такие ценности, как патриотизм, семья, трудолюбие, уважение к старшим, национальные традиции и культурные нормы, отражённые в поэтических произведениях для детей. Особое внимание уделяется педагогическим подходам и интерактивным методам, направленным на развитие креативного мышления младших школьников на основе детской поэзии.

Ключевые слова: детская поэзия, национальные ценности, творческое мышление, начальное образование, художественное мышление, воспитание, поэтический образ.

ABSTRACT

This article examines the role of children’s poetry in shaping national values and its impact on the development of creative thinking among primary school pupils. The study analyzes key values such as patriotism, family, diligence, respect for elders, national traditions, and cultural norms reflected in children’s poetic texts. Particular attention is paid to pedagogical approaches and interactive methods aimed at fostering creative thinking through children’s poetry in the educational process.

Keywords: children’s poetry, national values, creative thinking, primary education, artistic thinking, upbringing, poetic image.

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘z oldiga nafaqat bilim berish, balki har tomonlama rivojlangan, o‘z xalqining tarixiy, madaniy va ma’naviy qadriyatlariga hurmat bilan qaraydigan ijodkor shaxsni shakllantirish vazifasini qo‘ymoqda. Ushbu jarayonda bolalar adabiyoti, xususan bolalar she’riyoti alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki she’r bolaning hissiy dunyosiga bevosita ta’sir qiladi, u orqali bola nafaqat til va estetik zavq oladi, balki obrazlar orqali fikrlashni, anglashni, qadrlashni o‘rganadi.

Ayniqsa, milliy qadriyatlar bolalar she’riyatining mazmuniy markazida turadigan muhim komponentlardan biridir. Vatan, ona til, bayroq, ota-ona, mehnat, halollik, poklik kabi tushunchalar she’riyatda obrazli va poetik shaklda ifodalanib, bolalarning ongiga estetik vositalar orqali singdiriladi. She’rdagi obrazli ifoda, his-hayajon, qahramonning ichki dunyosi bola ongida milliy g‘urur, shukronalik, hurmat va sadoqat tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bolalar adabiyotida milliy qadriyatlar mavzusining keng yoritilishi bejiz emas. Chunki aynan boshlang‘ich yoshda bolada shaxsiy va milliy identitet, ya’ni “Men kimman?”, “Qayerlikman?”, “Menga nima muhim?” kabi savollarga ichki javob shakllanadi. Bu jarayonda bolalarga yaqin, sodda va poetik tilda yozilgan she’rlar uning tafakkuriga bevosita ta’sir etadi. Zero, qadimiy urf-odatlarni bilishimiz, saqlashimiz va keyingi avlodga ham yetkazishimiz bizning insoniy burchimizdir [1,87].

Shu nuqtai nazardan, bolalar she’riyatida milliy qadriyatlarning qanday badiiy ifodalangani va ular bolaning tafakkuriga qanchalik ta’sir ko‘rsatishi masalasi dolzarb hisoblanadi.

Milliy qadriyatlar – bu xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, ma’naviy-me’yoriy qarashlari, axloqiy mezonlari va estetik qarashlarini mujassamlashtirgan ijtimoiy-ma’naviy hodisadir. Har bir millat o‘zining o‘ziga xos tafakkur modeli, axloqiy pozitsiyasi va jamiyatdagi o‘zaro munosabatlar madaniyatini aynan shu qadriyatlar orqali avloddan-avlodga o‘tkazadi.

Bola tarbiyasida esa bu qadriyatlar jonli, hayotiy obrazlar orqali singdiriladi. Boshlang‘ich yoshdagi bolalar uchun milliy qadriyatlar – bu mavhum tushunchalar emas, balki ona, otaxon, bayroq, non, maktab, bog‘, mahalla, milliy kiyim, xalq kuy-qo‘shiqlari, xalq ertaklari va she’rlar orqali his qilinadigan real hayot obrazlaridir. Bu obrazlar bolalarda shunchaki bilim emas, balki emotsional-tafakkuriy tushunchalar uyg‘otadi.

Bolalarning tafakkur faoliyati aynan obrazlar asosida shakllanadi. Shu sababli milliy qadriyatlar badiiy matnlar – ayniqsa she’rlar orqali yetkazilganda, bu qadriyatlar emotsional-ta’sirchanlik, esda qoluvchanlik va shaxsiy munosabat uyg‘otish xususiyatiga ega bo‘ladi. Masalan, “Ona” so‘zini bola nafaqat biologik kontekstda, balki mehr, g‘amxo‘rlik, ona yurt, ona til timsoli sifatida anglay boshlaydi. Bu esa tafakkurning ko‘p qatlamli, assotsiativ shakllanishiga olib keladi.

O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning “O‘zbekiston bayrog‘i” va Vatan ruhidagi she’rlari bolalarda milliy g‘urur, fuqarolik pozitsiyasi va tarixiy xotirani uyg‘otishga xizmat qiladi [2,192]. Bu she’rlar orqali o‘quvchi faqat yod olmasdan, balki milliy o‘zlikni his qiladi, badiiy obrazlar orqali o‘z ichki dunyosini boyitadi.

Demak, milliy qadriyatlar bolaning tafakkurida:

dunyoni axloqiy va estetik mezonlar asosida baholash,

o‘z-o‘zini jamiyat kontekstida anglash,

muqobil g‘oyalar haqida fikr yuritish,

vatan, xalq, til, tarix, an’ana haqida mustahkam tushunchaga ega bo‘lish singari tafakkur faoliyatlarini shakllantiradi.

Bolalar she’riyoti o‘zining soddaligi, ifodaviyligi, ritmik ohangi va ta’sirchanligi bilan kichik yoshdagi o‘quvchilarning estetik dunyoqarashini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, milliy qadriyatlar bolalar ongiga she’riy obrazlar orqali yetkazilganda, ularning shaxsiy fikrlash, his qilish va qadrlash qobiliyatlari yanada chuqurlashadi. Bolalar she’riyatida milliy qadriyatlar bevosita mavzu sifatida emas, balki obrazlar, timsollar, metaforalar va poetik tafsilotlar orqali ifodalanadi.

She’rda milliy qadriyatlar quyidagi obrazlar orqali badiiy aks ettiriladi:

Vatan – “Ona yurt”, “El-yurt”, “Yurt bayrog‘i”, “O‘zbekiston” kabi so‘zlar orqali ifodalanib, bolada fuqarolik hissini uyg‘otadi.

Bayroq – iftixor, g‘urur va birlik ramzi sifatida tasvirlanadi.

Ona – mehr, iltifot, himoya, sadoqat timsoli bo‘lib, ko‘p hollarda Vatanga tenglashtiriladi.

Non – mehnat, baraka va shukronalik obrazidir.

Til – o‘zlik, ma’naviy yuksaklik, ajdodlar xotirasi sifatida ifodalanadi.

Mehnat, poklik, halollik – axloqiy qadriyatlar sifatida bolalar she’rlarining g‘oyaviy markazini tashkil etadi.

She’rlarda ko‘pincha epitet, metafora, jonlantirish (personifikatsiya) kabi poetik vositalar orqali qadriyat obrazlari badiiy kuchga ega bo‘ladi. Masalan, “Ona

tilim – dilimda ezgu ohang”, “Non – dasturxon toji”, “Bayrog‘im – mening yulduzim” kabi misralar orqali bola tasavvurida abstrakt tushunchalar konkret obrazlarga aylantiriladi. Bu esa obrazli tafakkurning rivojlanishiga olib keladi.

Bolalar she’riyatidagi bu kabi badiiy obrazlar nafaqat fikrlashni faollashtiradi, balki bolaning shaxsiy va milliy identitetini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bola o‘zini millat vakili, ona tilining egasi, Vatan himoyachisi sifatida tasavvur qila boshlaydi.

Milliy qadriyatlar va bolalar tafakkuri o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik – bu bolalarning axloqiy-estetik qarashlarini shakllantiruvchi, ularning fikrlash uslubiga, voqealarga munosabatiga va ijtimoiy ongiga bevosita ta’sir etuvchi jarayondir. Milliy qadriyatlar bolaning tafakkurida nafaqat bilim va tushuncha sifatida, balki shaxsiy qabul qilingan hayotiy mezon, ichki tamoyil va qadriyatga aylanishi lozim.

Bolalar she’riyatida aks etgan milliy qadriyatlar o‘quvchilarning assotsiativ fikrlashini, muqobil tafakkurini, sabab-oqibatni tushunish qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, “Vatan nima?”, “Bayroq nimalarni bildiradi?”, “Til nega muqaddas?” kabi savollar bolaga she’rni o‘qigach o‘z tafsiri, munosabati, tasavvuri asosida izoh berishga yo‘l ochadi. Bu esa tafakkur jarayonini mustaqil, ichki motivatsiyaga tayangan holda shakllantirishga xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlar obrazini she’rda badiiy vositalar orqali berish o‘quvchining abstrakt tushunchani qabul qilishini osonlashtiradi. Masalan:

“Bayroq” – faqat rasmiy timsol emas, balki “elning sha’ni”, “bobolar ruhi”, “erkinlik nuri” sifatida talqin qilinadi.

“Til” – aloqa vositasi emas, balki “dilimdagi navolar”, “ajdodlar amrining sadosi” sifatida ko‘rsatiladi.

Bu turdagi ifodalar bolaning obrazli, emotsional va chuqur tafakkurini faollashtiradi. U o‘zida ma’no, ramz va hissiyot mujassam bo‘lgan obrazlar ustida ishlashga, ularga o‘z shaxsiy munosabatini bildirishga o‘rganadi. Bu esa kreativ va mustaqil fikrlash uchun muhim zamin yaratadi.

Shuningdek, milliy qadriyatlar vositasida bolaning tafakkuri:

o‘zligini anglash (men kimman, qayerlikman?),

umumiylik va farqlilikni tushunish (bizning urf-odatimiz, boshqalar bilan taqqoslash),

tarixiy xotira va shukronalik tuyg‘usini shakllantirish,

axloqiy-ijtimoiy baholash (bu yaxshi, bu noto‘g‘ri) kabi kognitiv va ijtimoiy jihatdan boyiydi.

Masalan, Abdulla Oripovning “O‘zbekiston bayrog‘i” she’ridan so‘ng o‘quvchiga:

“Bayroq sen uchun nimani anglatadi?” yoki “Sen ham o‘zingning biror timsolingni chizib bera olasanmi?” kabi savollar berilishi bolaning shunchaki o‘qiganini emas, balki o‘ylaganini, ijod qilganini, tafakkur qilganini yuzaga chiqaradi.

Shunday qilib, bolalar she’riyatida ifodalangan milliy qadriyatlar bolaning tafakkurini quyidagi yo‘nalishlarda boyitadi:

axloqiy-ijtimoiy anglash;

obrazli ifoda orqali tahliliy fikrlash;

estetik his-tuyg‘ular asosidagi xulosa chiqarish;

shaxsiy nuqtai nazarni mustahkamlash.

Demak, bolalar she’riyatida milliy qadriyatlarning obrazli, ifodali va poetik tasviri bolaning tafakkur dunyosida ramziy, hissiy va aqliy asoslarni uyg‘unlashtirgan holda samarali shakllanishiga xizmat qiladi.

Bolalar adabiyotining, xususan bolalar she’riyatining asosiy vazifasi – o‘quvchining nafaqat estetik dunyoqarashini, balki axloqiy, emotsional va tafakkuriy rivojlanishini ta’minlashdan iborat. Ayniqsa, bolalar she’riyatida ifodalangan milliy qadriyatlar bola tafakkurini shakllantiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar va kuzatuvlar asosida aniqlanishicha, she’rlarda obrazli ifoda orqali berilgan qadriyatlar bola tafakkurida milliy g‘urur, fuqarolik pozitsiyasi, estetik idrok, muqobil fikrlash, sabab-oqibatni tushunish, shaxsiy baho berish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bolalar she’riyatida milliy qadriyatlar badiiy vositalar orqali berilganida, u bola tafakkuriga chuqurroq kirib boradi, obrazga asoslangan fikrlashni rag‘batlantiradi va shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishiga xizmat qiladi.

1. Boshlang‘ich sinf darsliklarida milliy qadriyatlar mavzusidagi she’rlar sonini oshirish, ularni didaktik va poetik jihatdan sifatli namunalar bilan boyitish;
2. Har bir milliy ruhdagi she’rga ijodiy savollar, muhokama bo‘yicha topshiriqlar, dramatizatsiya yoki muqobil yakun yaratish kabi tafakkurga yo‘naltirilgan metodik elementlarni kiritish;
3. She’r orqali qadriyatlar bilan ishlash metodikasini o‘qituvchilar malaka oshirish dasturlariga kiritish;

4. Bolalar tomonidan milliy qadriyatlar mavzusida she’r yozish, rasm chizish, hikoya tuzish kabi ijodiy faoliyatlarni rag‘batlantirish;
5. Tadqiqot doirasini kengaytirib, xalq og‘zaki ijodi, ertaklar, maqollar, topishmoqlar orqali ham milliy qadriyatlarning tafakkurga ta’sirini chuqur o‘rganish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Oripov. Saylanma. – Toshkent:2018. Tafakkur qanoti. 128b
2. Л.С. Выготский. − М.: Педагогика − Пресс, 1999. − 295с.
3. Голышева, И.А. Детская художественная литература как средство духовно-нравственного воспитания младших школьников− М.: Молодой ученый.- 2016.- С.563-656.
4. Rustamova M.E MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MILLIY QADRIYAT, URF-ODATLARGA HURMAT BILAN MUNOSABATDA BO‘LISHLIKNI TARBIYALASH «MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMI XODIMLARINI RIVOJLANTIRISH: AMALIYOT VA XORIJIY TAJRIBA» RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI. -2024. 603-606-b.

TARIXIY REALIYALAR TARJIMASIDA REALIYALARNI FUNKSIONAL QAYTA KODLANISHI

Sug‘diyona Ergasheva
Qo‘qon universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur tezisda tarixiy roman tarjimasida uchraydigan realiyalarning funksional qayta kodlanishi masalasi tahlil qilinadi. Tarjima jarayonida tarixiy realiyalar faqat nominativ birlik sifatida emas, balki muayyan pragmatik va madaniy funksiyani bajaruvchi unsurlar sifatida namoyon bo‘lishi asoslanadi. O‘zbek tarixiy romanlarining turk tiliga tarjimasi misolida realiyalarning semantik saqlanishi, funksional o‘zgarishi hamda o‘quvchi qabuliga moslashtirilish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda funksional yondashuv, qiyosiy-tahliliy va pragmatik metodlardan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: tarixiy realiya, funksional qayta kodlanish, tarixiy roman, tarjima pragmatikasi, o‘zbek–turk tarjimasi.

Аннотация

В данной статье рассматривается проблема функционального перекодирования культурно-исторических реалий при переводе исторических романов. В процессе перевода исторические реалии представлены не только как номинативные единицы, но и как элементы, выполняющие определённые прагматические и культурные функции. На примере переводов узбекских исторических романов на турецкий язык исследуются сохранение семантического значения, функциональные трансформации и адаптация к восприятию читателя. В исследовании применяются функциональный подход, сравнительно-аналитические и прагматические методы.

Ключевые слова: историческая реалия, функциональное перекодирование, исторический роман, прагматика перевода, узбекско-турецкий перевод.

Annotation

This article examines the issue of functional recoding of cultural-historical realities in the translation of historical novels. In the translation process, historical realities are represented not only as nominative units but also as elements performing specific pragmatic and cultural functions. Using the example of Uzbek historical novels translated into Turkish, the study analyzes the preservation of semantic meaning, functional transformation, and adaptation to the reader’s perception. The research employs functional approaches, comparative-analytical, and pragmatic methods.

Keywords: historical reality, functional recoding, historical novel, translation pragmatics, Uzbek–Turkish translation.

Tarixiy roman tarjimasi badiiy tarjimaning murakkab yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unda tarixiy realiyalar alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy realiyalar asarda muallif yaratgan davr manzarasini, milliy-madaniy muhitni hamda tarixiy xotirani aks ettiruvchi asosiy vositalardan biridir. Har bir badiiy yodgorlik muayyan davrda sodir bo‘lgan voqea va hodisalarni tasvirlaydi. Shunga ko‘ra, tarixiy mavzuda bitilgan asar hozirgi zamon kitobxonini xalq hayotining tarixi bilan tanishtiradi. Tabiiyki, bunday asar davr ehtiyojiga muvofiq tarzda

ko‘plab tarixiy va arxaik lisoniy vositalar bilan to‘lib toshgan bo‘ladiki, ular kitobxon ko‘z oldida, davr ruhini, nafasini jonlantirish bilan birga asarning badiiy-estetik qiymatini ham oshiradi[1,111]. Shu bois ularning tarjimada berilishi nafaqat leksik moslik, balki funksional va pragmatik muvofiqlikni ham talab qiladi. O‘zbek tarixiy romanlarining turli tilga tarjimasi jarayonida realiyalar ko‘pincha to‘liq ekvivalentga ega bo‘lmaydi. Bunday holatda tarjimon realiyani bevosita ko‘chirish bilan cheklanmay, uning matndagi vazifasini saqlagan holda qayta kodlashga majbur bo‘ladi. Mazkur jarayon tarjimashunoslikda funksional qayta kodlanish tushunchasi bilan izohlanadi.

Tarjimashunoslik tarixida realiya tushunchasi yetarlicha chuqur o‘rganilgan. Xususan, realiyaning ta’rifi, umumiy tasniflari, madaniy belgilangan leksika sifatidagi xusuiyatlari, ularni tarjima qilish usul va strategiyalari ko‘plab olimlar (S.Vlahov, S.Florin, V.N.Komissarov, A.D.Shveyser, V.S.Vinogradov, L.S.Barxudarov, A.V.Federov, L.N.Sobolevlar) tomonidan ishlab chiqilgan. Biroq, tarixiy realiyalar masalasi alohida mustaqil obyekt sifatida to‘liq va tizimli tarzda o‘rganilgan deb bo‘lmaydi. Chunki, nazariy darajda tarixiy realiyalar ko‘pincha umumiy realiyalar tarkibida, yoki umumiy arxaizm va istorizmlar bilan bir qatorda yoritiladi. Ularning faqat tarixiylik xususiyatiga asoslangan alohida nazariy modeli deyarli ishlab chiqilmagan. S.Vlahov va S. Florinlar realiyalarni vaqt mezoniga ko‘ra tasniflashda uni zamonaviy hamda tarixiy realiyalarga ajratishadi[2,65]. Shu bilan birga tarjimashunoslikda realiyalar tasnifi mavjud, lekin tarixiy realiyalarning mukammal, umumqabul qilingan tasnifi yo‘q. Ayniqsa, ularning davrga ko‘ra, funksiyasiga ko‘ra , o‘quvchi kompetensiyasiyaga ko‘ra, asar retsepsiyasiga ko‘ra tasnif yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ko‘plab tadqiqotlarda tarixiy realiyalar leksik birlik sifatida, tarixiy kolorit elementi sifatida ko‘riladi. Ammo ularning tarjimadagi pragmatik funksiyasi, o‘quvchiga ta’siri, qabul mexanizimi kam o‘rganilgan. Amaliy tarjima tahlillari ya’ni, muayyan til juftligi (masalan o‘zbek-turk), konkret muallif yoki asar tarjimasi doirasida tarixiy realiyalar bo‘yicha tizimli tahlillar juda kam.

Tarixiy realiya muayyan tarixiy davrga xos bo‘lgan predmet, hodisa, lavozim, urf-odat yoki ijtimoiy munosabatni ifodalovchi leksik birliklardir. Badiiy matnda bu realiya tarixiy koloritni saqlash, davr ruhini aks ettirish, milliy madaniyatni namoyon qilish, obraz xaraxteristikasini chuqurlastirish kabi funksiyalarni bajaradi. Tarjima jarayonida ushbu funksiyalar saqlanmasa,

realiyaning faqat tashqi shakli berilib, uning badiiy ahamiyati yo‘qoladi. Shu sababli tarixiy realiyani tarjima qilishda asosiy e’tibor matndagi funksiyasiga qaratiladi.

Funksional qayta kodlanish – bu tarjimada realiyaning to‘g‘ridan to‘g‘ri ekvivalentini berish imkoniyati mavjud bo‘lmaganda, uning asliyatdagi vazifasini saqlagan holda boshqa til vositalari orqali ifodalash jarayonidir. Bu jarayonda tarixiy realiyaning semantik yadrosi qisman o‘zgarishi mumkin, lekin uning pragmatik va badiiy funksiyasi saqlanib qoladi. Masalan, o‘zbek tarixiy romanlarida uchraydigan ayrim lavozim yoki ijtimoiy unvonlar turk tilida bevosita muqobiliga ega emas . Tarjimon bunday birliklarni izohli, umumlashtirilgan yoki kontekstual moslashtirilgan shaklda beradi. Natijada realiya yangi kodda namoyon bo‘ladi, ammo o‘quvchi uchun uning funksiyasi tushunarli bo‘lib qoladi.

Bu termin aynan shu nom bilan doimo ishlatilavermaydi, lekin mazmuni bir necha yetakchi olimlar konsepsiyasida mavjud. E.Nida dinamik (funksional) ekvivalentlik haqida so‘z yuritganda tarjimaning asosiy vazifasini quyidagicha belgilaydi: “ Tarjimadaa sosiy maqsad – o‘quvchida asliyatdagi kabi ta’sir uyg‘otish”[3,127]. Uning fikricha, tarjima jarayonida kodlash – manba tildagi matynni ma’no va pragmatik funsiyasini saqlagan holda tarjima tiliga o‘tkazishdir. Bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri funksional yondashuv bo‘lib, realiyalarni funksiyasiga ko‘ra qayta kodlashni oqlaydi. Kodlash va dekodlash nazariyasi Styuart Hall tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, har bir matn yoki meadia xabari kodlanadi (muallif tomonidan ma’no beriladi) va dekodlanadi(qabul qiluvchi tomonidan talqin qilinadi). Dekodlash esa o‘quvchi yoki kitoxonni ya’ni qabul qiluvchi matndan shu ma’noni anglab olishi[4]. Tarjimashunoslikda bu konseptsiya: muallif matrndagi realiyani qanday kodlagan bo‘lsa, tarjimon yoki o‘quvchi uni qanday dekodlaydi degan analogiya ishlatiladi. K.Reiss va H.Vermeerlarning skops nazariyasiga ko‘ra tarjima qarorlarini matnning maqsadi(skopsi) belgilaydi[5,82]. Bu yondashuvda realiya qanday atalganiga emas, tarjimamatnida qanday vazifani bajarish kerakligiga qarab beriladi. Bu funksional kodlashning nazariy asosidir desak yanglishmagan bo‘lamiz. Peter Newmark esa realiyalar tarjimasida funsional ekvivalent tushunchasini kiritadi. U shunday yozadi: “ Funksional ekvivalent madaniy jihatdan betaraf(madaniy yuklamaga ega bo‘lmagan) so‘zdan foydalanishni anglatadi[6,99]. V.N. Komissarov esa tarjimada semantik moslik bilan birga funsional moslikni ham zarur deb hisoblaydi[7, 47].

O‘zbek va turk tillaridagi tarixiy realiyalar tarjimasi – bu nafaqat lingvistik, balki madaniy ko‘prik qurish vazifasi hamdir. To‘g‘ri tarjima strategiyasini tanlash tarjimada ikki qardosh xalqning bir-birini to‘g‘ri tushunishiga, umumiy tarixiy xotira va madaniy merosni baham ko‘rishga ximat qiladi. O‘zbek tarixiy romanlarining turk tiliga tarjimasida realiyalar quyidagi usullar orqali qayta funksional kodlanadi:

1. Kontekstual almashtirish – realiya o‘rniga uning vazifasini ochib beruvchi umumiy birlik qo‘llaniladi.
2. Izoh orqali kodlash – realiya qisqa tushuntirish bilan birga beriladi.
3. Qisman moslashtirish(adaptatsiya) – turk kitobxoniga yaqin bo‘lgan tarixiy yoki madaniy birlik tanlanadi.
4. Kompensatsiya – realiya to‘liq berilmagan holatda, uning funksiyasi matnning boshqa joyida tiklanadi.

Masalan, “…sal narida ***bakovul*** taom pishirish uchun chaqmoqtosh ila urina-urina o‘t yoqardi”[8,17]. Ushbu parchada *bakovul* so‘zi tarixiy realiya hisoblanadi. Turk tiliga esa funksional qayta kodlanish orqali “Biraz ötede ***bekçi*** sütlü çay pişirmek için çakmaktaşiyla ateş yakmaya çalışıyordu” tarzida tarjima qilingan[9,18]. *Bakovul* aniq tarixiy lavozim bo‘lib, zamonaviy turk kitobxoni uchun tushunarsiz. Shu sababli tarjimada u nomi bilan emas, balki bajarayotgan vazifasi (ovqat tayyorlashni tashkil etuvchi shaxs – *bekchi*) orqali beriladi. Bu fnksional qayta kodlashdir. Yana bir misol keltiramiz, “ Hozir ***bek*** bog‘ining katta darvozasi ochiq…”, tarjimada: “ Artık ***bey*** bahçesinin büyük kapısı açıktı…”. Ushbu parchadagi bek hamda bey so‘zlari turk tilida ham o‘zbek tilida ham tarixiy, madaniy shakllangan birlik sanaladi. “Bek”ning turk o‘quvchisi uchun ma’nosi (hokimyat mavqei) turk madaniy kontekstiga adaptatsiya(madaniy-semantik moslashtirish) usuli orqali moslashtirilgan. Ushbu misol biz yuqorida ta’kidlab o‘tgan Komissarov nazariyasiga mos tushadi. Ushbu usullar tarjimada milliy va tarixiy koloritni yo‘qotmasdan, o‘quvchi qabulini yengillashtirishga xizmat qiladi.

Funksional qayta kodlashning pragmatik jihatining ahamiyatli tomoni shundaki, tarjima pragmatikasi nuqtayi nazaridan funksional qayta kodlanish o‘quvchi bilan matn o‘rtasidagi kommunikativ aloqani ta’minlaydi. Agar tarixiy realiya begona va tushunarsiz qoldirilsa, tarixiy roman o‘quvchi uchun yopiq matnga aylanadi. Qayta kodlash esa uni “o‘zga”ligini saqlagan holda, uni idrok etadigan darajaga olib keladi. Shu jihatdan funksional qayta kodlanish tarjimonning ijodiy va mas’uliyatli

qarori bo‘lib, u nafaqat tili bilimini, balki, tarixiy va madaniy kompensatsiyani ham talab etadi.

Xulosa sifatida, tarixiy roman tarjimasida realiyalarning funksional qayta kodlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. U realiyaning faqat nomini emas, balki uning badiiy, madaniy va pragmatik vazifasini saqlashga qaraqtilgan. O‘zbek tarixiy romanlarining turk tiliga tarjimasi misolida shuni ta’kidlash mumkunki, funksional yondashuv tarixiy koloritni yetkazish va o‘quvchi qabulini muvozanatlashtirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur masala tarjimashunoslikda, ayniqsa tarixiy realiyalarni o‘rganishda istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Musayev Qudrat. Tarjima nazaryasi asoslari: Darslik. T.: Fan, 2002. – 111 b.
2. S .Vlaxov, S.Florin. Neperevodimoye v perevode. M.,1986, c. 65.
3. Eugene A.Nida.Toward a Science of Translating. – Netherlands,1964. – P. 127.
4. Hall S. Encoding/Decoding in the Television Discourse. 1973.
5. Katharina Rei, Hans J.Vermeer. Towards A General Theory of Translational Action. – Routledge, 2014.- b. 82.
6. Peter Nyumark, A textbook of translation. Shanghai foreign language education press.1988, -B.99.
7. Комиссаров В. Н., Теория перевода (лингвистические аспекты). –М.: Высшая школа, 1990.
8. Isajon Sultona. Alisher Navoiy. – Toshkent: Adabiyot,2021. – B.17.
9. Isacan Sultan. Ali Şir Nevai. - Ankara: Bengü, 2024. - B.18. Sema Eynel tarjimasi

MUHIDDIN OMON SHE’RLARIDA UMR SARHISOBINING POETIK TALQINI

Ziyauddinova Gulnoza Iqboljon qizi
Qo‘qon universiteti mustaqil izlanuvchisi
@ziyauddinova92.gmail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahoratli ijodkor Muhiddin Omonning umr haqidagi falsafiy mushohadalari tasvirlangan “Har narsa foniydir, yo‘qlikning xasmi” misralari bilan boshlanuvchi she’ri tahlilga tortilgan. Shoirning hayot, tiriklik, haqiqat va yolg‘on haqidagi qarashlari yuzasidan tahlillar muallifning shaxsiy mulohazalari bilan dalillanadi.

Kalit so‘zlar: badiiy talqin, she’r, shoir, introspektiv kayfiyat, modus, lirik qahramon, badiiyat, falsafiy mushohada.

Abstract: This article analyzes the poem of the talented artist Muhiddin Amon, which begins with the lines "Everything is ephemeral, the essence of nothingness", which describes his philosophical observations about life. The analysis of the poet's views on life, vitality, truth and falsehood is supported by the author's personal reflections.

Keywords: artistic interpretation, poem, poet, introspective mood, mode, lyrical hero, art, philosophical observation.

Аннотация: В данной статье анализируется стихотворение талантливого художника Мухиддина Амона, начинающееся со строк «Всё эфемерно, сущность небытия», в которых описываются его философские размышления о жизни. Анализ взглядов поэта на жизнь, жизненную силу, истину и ложь подкрепляется личными размышлениями автора.

Ключевые слова: художественная интерпретация, стихотворение, поэт, интроспективное настроение, стиль, лирический герой, искусство, философские размышления.

Inson umrining ma’lum qismini yashab o‘tar ekan, qilgan ishlaridan ko‘ngli to‘lishi, amalga oshirgan ishlarining kelajak avlodga nafi tegishidan huzurlanishi, eng asosiysi, hayotiy prinsplariga sodiq qolishi eng katta baxtlardan biri. Aksariyat ijodkorlar asarlarini mutola qilar ekanmiz, umr poyonida yozgan iqrorlarida katta

yo‘lga chiqish oldidan qo‘ygan maqsadlariga sobit qololmaganidan, shaxs sifatida pozitsiyasida mahkam tura olmaganidan afsuslanish tasvirlangan o‘rinlarga ko‘zimiz tushadi. Ulardan farqli ravishda Muhiddin Omon hayotning har pallasini qadrli deb biladi, mehnatlari samarasidan quvonadi, amalga oshirgan ishlaridan lazzatlanadi. Xususan, uning “Har narsa foniydir, yo‘qlikning xasmi” misralari bilan boshlanuvchi she’rida umr sarhisobini qilayotgan, dunyoning o‘tkinchiligini tobora teranroq anglayotgan va o‘zining ana shu foniy olamda qanday yashab o‘tganligini tafakkur mezonida o‘lchab ko‘rayotgan lirik qahramon tasviri chiziladi. She’rning birinchi bandida tabiat hodisalari lirik qahramonning falsafiy mushohadalari bilan omuxtalashib, hayotning o‘zgarmas haqiqatlaridan hikoya qilinadi:

Har narsa foniydir, yo‘qlikning xasmi,
Yam-yashil yaproqning qismati-xazon.
Gar bugun tilimda muhabbat vasfi,
Ertaga umrimda hokimdir hijron [1:248].

Lirik qahramon dunyoning o‘tkinchi ekanligini his qiladi, olamdagi mavjud narsalarning barchasini ontologik yo‘qlikning sherigi deb biladi. Bahorda mavj urgan yashil barglarning kuzga borib zarcha tusga kirishini umrga muqoyasa etadi. Garchi fasllarning umrga o‘xshatilishi, yashillikning yoshlikka, xazonning inson umrining nihoyasiga yaqinlashganligiga qiyoslanishi ko‘plab ijodkorlar asarlarida ta’kidlangan bo‘lsa-da, mazkur she’rda shoirning “muhabbat vasfi tilida bo‘lgan” va “hijron umrga hokimlik qilgan” shaklidagi o‘xshatishlari falsafiy mushohadaning yangicha tasvirlarda, yanada teranroq ifodalanishiga xizmat qilgan.

She’rning keyingi qismlarida lirik qahramon baqo va fano haqidagi mushohadalar masshtabini yanada kengaytiradi. Endi u o‘tkinchi insonlarning

ajdodlar tomonidan bot-bot takrorlangan xulosalarini xotirlaydi, Umar Hayyom, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy singari buyuklar so‘zlagan haqiqat lirik qahramon xulosalarida qaytalanadi:

Kelganlar – ketajak, ketganlar – qaytmas,
Umr daryosining o‘zani nishab.
Ajabki, hech kimsa to‘ydim, deb aytmas,
Hattoki qo‘ysa-da, yuz yilni yashab...[1:248]

U umr daryosining o‘zani yuqoridan pastga tomon oqishini ta’kidlar ekan, yillar insonni tobora yo‘qlik chuquri tomon tortqilashini, nishab holatdagi o‘zan manzilga yaqinlashgani sari suv oqimini tezlashtirgani kabi, hayotning ikkinchi yarmi ham tobora tezlashib borayotganligini ich-ichidan his qiladi. Bu o‘rinda shoirning fizik hodisalarning badiiy talqinidan falsafiy fikrni mahorat bilan tasvirlay olganligi ko‘rinadi. Chunki, fizikadagi energiya saqlanish qonuniga binoan nishab holdagi jismning yuqori qismidan oqizilgan suv potensial energiyaning kinetik energiyaga aylanishi oqibatida yuqori tezlanish oladi. Shu jihatdan, masofaning oxiriga yetgani sari jism ustida turganlik vaqti qisqaradi. Insonning umri ham shunday, vaqt qanchalik oz qolganligini anglaganing sari belgilangan yumushlarga shunchalik kam ulgurayotganligingni tushunib yetasan.

She’rning keyingi misralarida lirik qahramon to‘la introspektiv kayfiyatga tushadi. U endi o‘z ichki dunyosi kengliklarida yolg‘iz qoladi. O‘z umrini daryoga qiyoslagan qahramon hayotining bahorida toshib, kuzida vazminlik bilan oqayotganligini xotirlaydi:

Men ham bir daryodek oqib o‘tarman,
Bahorimda toshib, kuzlarda sokin.
Baxt so‘rab ko‘klarga boqib o‘tarman,
Kun kelib to‘ldirgum ajdodlar xokin...[1:248]

She’rdagi falsafiy manzara qanchalik vazmin, o‘yga toldirivchi bo‘lmasin, unda lirik qahramonning minnatdor kayfiyati seziladi. U baxt tomon talpinganini emas, talpinayotganligini, umidvor nigohlari osmonga qadalganini emas, qadalayotganini tasvirlash orqali hayotga muhabbatini, yashashga bo‘lgan ishtiyoqini to‘la namoyon etadi. “Ajdodlar xokini to‘ldirish” inson qismatidagi isbotsiz aksioma ekanligini anglagan qahramon tinglovchiga murojaat qiladi:

Balki kimdir yo‘qlar, kimdir so‘ragay:
“Qanday yashab o‘tdi Muhiddin Omon?”
Shunda aytavering xijolat bo‘lmay:
Uning har satrida umri namoyon…[1:249]

Adabiyotshunos, yozuvchi va jurnalist Rahimjon Rahmat ijodkorlik haqida gapirar ekan, “Shoir ham yozuvchi ham ikki xil bo‘ladi: birinchisi shoirlik yoki yozuvchilikni o‘zi tanlaydi. Ikkinchi tur ijodkorlarni adabiyot o‘zi tanlaydi” [5], - degan edi. Muhiddin Omon ana shunday adabiyot tanlagan shoir. U shoirlikni kasb emas, qismat deb biladi. Shu sababdan ham o‘quvchiga hech ikkilanmay uning umri va shaxsiyati haqida xulosa qilish uchun yozdiqlari bilan tanishish mumkinligini aytadi. Uning she’rlari yolg‘ondan yiroq, soxtakorliklardan ancha olisda. U nima yozmasin, avvalo, uni qalb qozonida obdon qaynatadi. Shundan keyingina o‘quvchiga tortiq qiladi. Shaxsiyati va qalbi, his qilganlari va qog‘ozga tushurganlari bir-biriga to‘la-to‘kis mos bo‘lgani uchun ham “satrlarim – bu o‘zim”, - deb ayta oladi. Kitobxon oldida yuzi yorug‘, vijdoni pok ekanligi uchun uchinchi tomondan berilgan savolga shoir aytganidek javob berishda “xijolat bo‘lmaslik”ka chaqiradi.

Muhiddin Omonda o‘ziga bino qo‘yish kayfiyati yo‘q. U “ideal inson”likka da’vo qilmaydi. Hayotining barcha insonlar qatori o‘tkazganligini aytar ekan, shoir:

Shoir ham biz kabi tug‘ildi, o‘sdi,
Unga ham insoniy barcha qusur xos,
Faqat HAQIQATning edi chin do‘sti,
Faqat U – Oshiqdek yashadi, xolos...[1:249]

deydi.

Mazkur bandda ijodkor xato va kamchiliklarini inkor etmaydi. Bashar farzandlarining barchasi singari u ham xatolarga yo‘l qo‘yganligini tan oladi. Ammo bu o‘rinda bir narsani nazardan qochirmaslik kerakki, shoir o‘zining holatini bayon qilar ekan, atrofdagi insonlardan shikoyatini ham “kosa tagida nim kosa” shaklida berib ketadi. “Faqat HAQIQATning edi chin do‘sti” misrasida shoir ifodalamoqchi bo‘lgan yashirin ma’no zuhur etadi. Ha, shoir sirtdan boshqa insonlardan unchalik ham farq qilmaydi: tug‘ildi, yashadi, o‘sdi. Lekin uni atrofdagilardan ajratib turadigan bir xususiyat bor. U haqiqat bilan do‘st tutingan. Uning oshiq qalbi hech qanday soxtalikni tan olmaydi. She’rni o‘qir ekan, o‘quvchi haqiqatning do‘stlari tobora kamayib borayotgan zamonda shoirning hissiy holatini to‘la tushunadi va ijodkorning yolg‘onga bo‘lgan qarshiligiga xayrixohlik bildiradi. Bandda shoir “haqiqat”, “oshiq” so‘zlarini qo‘llar ekan, o‘quvchiga bu so‘zlarni istaganidek tushunish imkonini beradi. She’r mutolasida oshiqlikni yorga ham, Haqqa ham nisbatan tushunish mumkin. Har ikki holatda ham tushunilayotgan fikr she’rda ifoda etilgan umumiy mazmunga mos keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muhiddin Omon. Bahorlar qaytadi. – Toshkent: Sahhof, 2023. – 256 b.
2. Muhiddin Omon. Bizni yod etsalar. – Toshkent: Sahhof, 2021. – 198 b.
3. Адабий турлар ва жанрлар. Уч томлик, II том. Лирика. – Тошкент: Фан, 1992. –Б.63.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent. Akademnashr, 2019. B.277.

5. www.facebook.com
6. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ -poetry.html;

NUTQNING TURLI TIPLARIDA SHAXSIY IFODALARDAN FOYDALANISH: KASBIY RIVOJLANISH NUQTAYI NAZARIDAN

Ashrabiyeva Kamolaxon Israiljan qizi
Oriental Universiteti Magistratura Lingvistika: Ingliz tili yo‘nalishi 201 guruh

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutqning turli tiplari – rasmiy, norasmiy, ilmiy va kasbiy muloqotda shaxsiy ifodalardan foydalanish masalasi yoritiladi. Shaxsiy iboralar nutqning samimiyligi va ta’sirchanligini oshirishi bilan birga, kasbiy rivojlanishda kommunikativ kompetensiyani mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqotda turli vaziyatlarda shaxsiy ifodalarning o‘rni, ularning to‘g‘ri qo‘llanishi hamda mutaxassisning nutq madaniyatiga ta’siri tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Shaxsiy ifodalar, nutq tiplari, kasbiy muloqot, kommunikativ kompetensiya, rasmiy nutq, ilmiy uslub, nutq madaniyati, ifoda samaradorligi.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЛИЧНЫХ ВЫРАЖЕНИЙ В РАЗЛИЧНЫХ ТИПАХ РЕЧИ: С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация: В данной статье рассматривается использование личных выражений в различных типах речи — официальной, неофициальной, научной и профессиональной коммуникации. Личные обороты не только повышают искренность и выразительность высказывания, но и способствуют укреплению коммуникативной компетентности в процессе профессионального развития. В исследовании анализируются роль личных выражений в разных ситуациях, их корректное употребление и влияние на речевую культуру специалиста.

Ключевые слова: Личные выражения, типы речи, профессиональное общение, коммуникативная компетенция, официальная речь, научный стиль, речевая культура, эффективность выражения.

THE USE OF PERSONAL EXPRESSIONS IN DIFFERENT TYPES OF SPEECH: FROM THE PERSPECTIVE OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT

Annotation: This article examines the use of personal expressions in various types of speech, including formal, informal, scientific, and professional communication. Personal phrases not only enhance the sincerity and expressiveness of speech but also help strengthen communicative competence in the process of professional development. The study analyzes the role of personal expressions in different situations, their proper use, and their influence on a specialist’s speech culture.

Keywords: Personal expressions, types of speech, professional communication, communicative competence, formal speech, scientific style, speech culture, expressiveness.

Introduction: Personal expressions are words or phrases that people use to describe themselves or others. they can include personality traits, habits, skills, and professional qualities. in the context of career development and professional growth, these expressions are very important because they help individuals understand their own strengths and weaknesses, communicate effectively, and present themselves confidently in different situations. depending on the type of speech—formal, informal, or pedagogical—personal expressions are used in slightly different ways. in formal speech, they are often used to highlight professional achievements and skills. in informal speech, they help show personality, social skills, and personal interests. [1, p. 23]; in pedagogical or mentoring settings, personal expressions can motivate learners, encourage self-reflection, and guide them toward their career goals. understanding how to use these expressions appropriately can make a big difference in professional communication and personal development, helping people grow in their careers while building stronger relationships with colleagues, mentors, and teams. [2, p. 51];

Literature Review: Personal expressions have been widely studied in linguistics and psychology literature. They organize the ways in which individuals express themselves and others in speech and play an important role in professional and social communication. Linguists, including Levinson (1983) and Brown &

Levinson (1987), emphasize that personal expressions in different types of speech have a pragmatic function. [3, p. 38]; According to them, personal expressions vary depending on the context of speech, the listener, and the situation. For example, in formal speech, professional qualities and skills are highlighted, whereas in informal speech, personal traits and social abilities are more prominently expressed. In psychology literature (Maslow, 1943; Goleman, 1995), it is noted that personal expressions help individuals understand themselves, increase motivation, and define their professional path. [4, p. 56]; Research on career design and professional development (Savickas, 2005; Super, 1980) shows that employees or students actively use personal expressions to identify their strengths and weaknesses, communicate with mentors, and participate effectively in job interviews. Studies also explore the connection between speech types and personal expressions. In formal speech (meetings, reports), expressions are used to emphasize professional qualities and competencies. [5, p. 75]; In informal speech (team discussions, informal meetings), they help express personal characteristics, social skills, and interests. In pedagogical speech (mentoring, training), personal expressions serve motivational and developmental functions (Johnson, 2010; Byram, 1997). In Uzbek linguistics and pedagogical sources, the importance of personal expressions for professional development is also emphasized. For instance, the works of Toshpulatova (2015) and Karimov (2018) discuss how personal expressions can support the professional growth of students or employees and facilitate effective communication in mentoring and training sessions. [6, p. 29];

Methodology: In this study, we examine how personal expressions — such as “I, ” “we, ” or “our client” — are used in different types of speech and how they influence professional development in the workplace. The goal is simple: to understand how the words we use in our communication can support our professional growth. [7, p. 34];

We selected people working in various professions: teachers in the education sector, managers, and employees in sales and service industries. By observing their speech, we aim to see how personal expressions function in the workplace.

Text and speech analysis: We study formal and informal conversations, emails, and presentations at work.

Surveys and interviews: We ask participants how they use words like “I” and “we” in their speech and how it affects their professional development.

Observation: We observe real-life situations at work to see how these expressions are used in practice.

We examine the role of these expressions, the tone of speech, and their social and emotional functions.

First, we studied the theoretical background and categorized the expressions.

Next, we collected real data: conversations, surveys, and texts.

Finally, we analyzed the results and provided practical recommendations for professional growth.

Discussion and Results

When employees use “I” in their speech, they tend to take personal responsibility and acknowledge both their successes and mistakes. This habit helps them reflect on their work and grow professionally. In contrast, using “We” strengthens team spirit, encourages collaboration, and helps solve problems together. Teams that say “we” more often also show better communication culture and higher efficiency at work.

In formal settings, personal expressions are usually used in a neutral, balanced way. For example, “we” is common when distributing responsibilities in large projects.

In informal conversations, “I” is often used to share personal opinions and feelings. This openness helps build trust and honesty among colleagues.

Consciously using personal expressions can boost professional growth. Employees who describe their work using “I” find it easier to evaluate themselves and plan their development. Teams that effectively use “We” tend to support each other, collaborate better, and achieve stronger results. The way personal expressions are used depends on the situation and type of speech. For instance, teachers often use “I” when assessing their own teaching and building individual relationships with students. Managers and sales professionals, on the other hand, rely on “We” to coordinate team strategies and improve client relationships. [8, p. 48];

Conclusion: This study shows that personal expressions like “I” and “We” play a big role in workplace communication. Using “I” helps employees take

responsibility for their work, reflect on their strengths and weaknesses, and plan their own professional growth. On the other hand, “We” strengthens team spirit, encourages collaboration, and improves overall efficiency. We also found that the context matters: in formal speech, “We” is often used to divide responsibilities in projects, while in informal conversations, “I” is used to share personal opinions and feelings, which helps build openness and trust. Overall, being aware of how and when to use these expressions can make communication at work more effective. Balancing “I” and “We” not only helps teams succeed together but also supports individual development. In short, using these expressions consciously is a simple but powerful way to grow professionally and work better with others.

References

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge University Press.
2. Fairclough, N. (2010). *Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language*. Routledge.
3. Holmes, J. (2013). *An Introduction to Sociolinguistics* (4th ed.). Routledge.
4. Crystal, D. (2003). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language* (2nd ed.). Cambridge University Press.
5. Halliday, M. A. K., & Matthiessen, C. M. I. M. (2014). *Halliday’s Introduction to Functional Grammar* (4th ed.). Routledge.
6. Gumperz, J. J., & Hymes, D. (Eds.). (1986). *Directions in Sociolinguistics: The Ethnography of Communication*. Blackwell.
7. Tannen, D. (2007). *Talking Voices: Repetition, Dialogue, and Imagery in Conversational Discourse*. Cambridge University Press.
8. Swales, J., & Feak, C. (2012). *Academic Writing for Graduate Students* (3rd ed.). University of Michigan Press.

MUSIQA TA’LIMIDA O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Karimova Xushnavozxon G‘afforion qizi
Qo‘qon davlat universiteti
Musiqa ta’limi va san'at yo‘nalishi

1-bosqich Magistiranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqiy ta’lim orqali o‘quvchilarning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish masalalari uzluksiz ta’lim tizimi kontekstida o‘rganilgan. Ijtimoiy kompetensiya — o‘quvchining jamiyatda faol ishtirok etishi, muloqot va hamkorlik qobiliyatini rivojlantirish, madaniy qadriyatlarga hurmat, empatiya va boshqalar kabi shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Musiqa ta’limi esa nafaqat badiiy va estetik tarbiya vositasi, balki shaxsning ijtimoiy, emotsional va madaniy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi samarali pedagogic vosita hisoblanadi.

Maqolada uzluksiz ta’lim konsepsiyasi va xalqaro tajriba asosida musiqiy pedagogikaning zamonaviy innovatsion yondashuvlari tahlil qilingan. Finlyandiya, Yaponiya, AQSh va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda musiqiy ta’lim orqali o‘quvchilarda jamoaviy ishlash, liderlik ko‘nikmalari, madaniy savodxonlik va kreativ fikrlash kabi kompetensiyalarni shakllantirish tajribasi o‘rganilgan.

Kalitso‘zlar: Musiqata’limi, Ijtimoiykompetensiya, Uzluksizta’lim, Pedagogikinnovatsiyalar, Xalqarotajriba, Guruhiyijro, Loyihaasosidao‘qitish, STEAMintegratsiyasi, Raqamlitransformatsiya, Empatiyavaliderlik.

Annotation: This article examines the issues of developing students’ social competencies through music education within the context of continuous education. Social competence includes personal and social skills such as active participation in society, communication and collaboration abilities, respect for cultural values, empathy, and others. Music education serves not only as a means of artistic and aesthetic development but also as an effective pedagogical tool supporting students’ social, emotional, and cultural growth.

The article analyzes modern innovative approaches in music pedagogy based on the concept of continuous education and international experience. The practices of countries such as Finland, Japan, the USA, and South Korea in developing students’ competencies through music education—such as teamwork, leadership skills, cultural literacy, and creative thinking—are examined.

Keywords: Music education, Social competence, Continuous education, Pedagogical innovations, International experience, Group performance, Project-based learning, STEAM integration, Digital transformation, Empathy and leadership

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы формирования социальных компетенций учащихся через музыкальное образование в контексте непрерывного образования. Социальная компетенция включает личные и социальные навыки, такие как активное участие в жизни общества, способность к коммуникации и сотрудничеству, уважение к культурным ценностям, эмпатия и другие. Музыкальное образование является не только средством художественного и эстетического воспитания, но и эффективным педагогическим инструментом, поддерживающим социальное, эмоциональное и культурное развитие учащихся.

В статье анализируются современные инновационные подходы в музыкальной педагогике на основе концепции непрерывного образования и международного опыта. Рассматривается опыт таких стран, как Финляндия, Япония, США и Южная Корея, в формировании у учащихся компетенций через музыкальное образование, таких как работа в команде, лидерские навыки, культурная грамотность и творческое мышление.

Ключевые слова: Музыкальное образование, Социальная компетенция, Непрерывное образование, Педагогические инновации, Международный опыт, Групповое исполнение, Обучение на основе проектов, Интеграция STEAM, Цифровая трансформация, Эмпатия и лидерство.

Global ta’lim tizimida so‘nggi yillarda asosiy e’tibor faqat bilim berishga emas, balki kompetensiyalarni shakllantirishga, xususan, ijtimoiy kompetensiyaga qaratilmoqda. Uzluksiz ta’lim konsepsiyasi har bir ta’lim bosqichida o‘quvchining shaxs sifatida rivojlanishini taqozo etadi. Musiqa ta’limi esa nafaqat badiiy-estetik tarbiya, balki ijtimoiylashuv, kommunikatsiya, hamkorlik, madaniy identitet va empatiya kabi kompetensiyalarni shakllantirishga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan soha hisoblanadi.

Bugungi transformatsiya jarayonlari, innovatsiyalar va xalqaro standartlar musiqiy ta’limning rolini yanada oshirmoqda. Shu sababli o‘quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni samarali shakllantirish musiqiy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ho‘sh shunday ekan, bu masalada bugungi kun dars jarayonlarida nimalarga e’tibor qaratish lozim:

1. Uzluksiz ta’lim konsepsiyasida musiqa ta’limining o‘rni:

Uzluksiz ta’lim tizimi maktabgacha ta’limdan boshlanib, maktab, kollej va oliy ta’lim bosqichlarini o‘z ichiga oladi hamda umrbod o‘qish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi Bu tizim doirasida har bir ta’lim bosqichi o‘quvchining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi Shu nuqtayi nazardan musiqa ta’limi o‘quvchilarning ijodiy, emotsional va ijtimoiy salohiyatini rivojlantirishda muhim vosita sifatida ahamiyat kasb etadi[1. 153.].

Uzluksiz ta’lim konsepsiyasida musiqa ta’limining samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagilar ahamiyatlidir:

1) shaxsning ijtimoiy-emosional rivoji;

Musiqa bolalarda muloqot madaniyati, jamoada ishlash ko‘nikmalari, o‘z fikrini ifoda etish va boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish qobiliyatini rivojlantiradi Shu bilan birga musiqa orqali o‘quvchilar emotsional intellektni oshiradi va boshqalar bilan hamjihatlikda ishlashga o‘rgatiladi Bu jarayon shaxsning ijtimoiy moslashuvchanligi va empatiya ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi[2]

2) madaniy kompetensiyani rivojlantirish;

Musiqa ta’limi o‘quvchilarga milliy madaniyatni singdirish va uni qadrlash imkonini beradi. Shu orqali madaniy identifikatsiya rivojlantiriladi va turli madaniyatlar bilan muloqot qilish ko‘nikmalari shakllanadi. O‘quvchilar milliy va xalqaro madaniyatni o‘rganish orqali bag‘rikenglik va global fikrlashni rivojlantiradi.

3) raqamli davrda yangi vazifalarni belgilash [2. 53.].

Zamonaviy musiqa ta’limi multimediali o‘quv resurslari, virtual cholg‘ular va onlayn ansambllar orqali yangi ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyatini beradi. Shu orqali o‘quvchilar texnologiyalar bilan ishlashni o‘rganadi, raqamli savodxonlik va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

2. Musiqa darslarida zamonaviy ta’rim orqali ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish:

Ijtimoiy kompetensiya o‘quvchining jamiyatda faol va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishi, samarali muloqot qilish, boshqalar bilan hamkorlikda ishlay olish va o‘zini ijtimoiy kontekstda to‘g‘ri tutish qobiliyatini bildiradi. Musiqa ta’limi ushbu ko‘nikmalarni tabiiy ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Dars jarayonida o‘qituvchi ijtimoiy kompetensiyaning asosiy komponentlariga to‘liq rioya qilishi lozim. Ijtimoiy kompetensiya kommunikativ ko‘nikmalar, kooperatsiya va jamoaviy faoliyat, ijtimoiy moslashuvchanlik, madaniy savodxonlik, empatiya va tolerantlik, mas’uliyat va liderlik kabi komponentlardan tashkil topadi. Musiqa mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilar ushbu komponentlarni amaliy tarzda o‘rganadilar va shakllantiradilar [3. 253.].

Musiqa darslarida o‘quvchilarning ijtimoiy kompetensiyani oshirishda xalqaro ta’lim tajribasining ham o‘rni kattadir. Musiqa orqali ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish modeli dunyoning yetakchi ta’lim tizimlarida ijtimoiy kompetensiya rivojini ta’minlovchi vosita sifatida faol qo‘llaniladi. Biz mazkur ishimizda quyidagi xalqaro ta’lim modellarini misol tariqasida keltirib o‘tishimiz mumkin:

- Finlyandiya modeli.

Finlyandiya ta’lim tizimida musiqa maktab dasturining majburiy qismi hisoblanadi. O‘quvchilar guruh bo‘lib kuylash va ansambl faoliyati orqali jamoaviy mas’uliyatni o‘rganadilar. Darslar o‘quvchilarning markazli yondashuviga asoslanadi. Bu esa o‘quvchilarga o‘zini erkin ifoda qilish va hamjihatlik ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

- Yaponiya tajribasi.

Yaponiyada “Dokei” tamoyiliga asoslangan ta’lim tizimi mavjud. Bu tizimda o‘quvchilar musiqiy mashg‘ulotlar orqali sinf hamjihatligini va jamoaviy ish ko‘nikmalarini o‘rganadilar. Yapon bolalariga milliy qadriyatlar musiqiy tarbiyasi orqali singdiriladi. O‘quvchilarning madaniy meroslar bilan tanishishi natijasida ulardagi musiqiy ta’limga bo‘lgan qiziqishlari ortadi.

- AQSh modeli.

AQSh ta’lim tizimida STEAM kontsepsiyasida san’atning o‘rni muhim hisoblanadi. Musiqada loyihaviy o‘qitish metodlari keng qo‘llanadi. Bu orqali o‘quvchilar kreativ fikrlash, ijtimoiy va texnologik ko‘nikmalarni rivojlantiradilar.

- Koreya tajribasi.

Janubiy Koreyada raqamli texnologiyalar asosida musiqa dasturlari yaratilib, elektron cholg‘ularda ijro qilish imkoniyati beriladi. Onlayn ansambl va kollektiv loyihalar orqali masofaviy hamkorlik ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bu jarayon o‘quvchilarning raqamli savodxonligi va jamoaviy ishlash qobiliyatini oshiradi.

Darhaqiyat, musiqa ta’limida ijtimoiy kompetensiyani shakllantirishning samarali usullari bir qanchadir. Shulardan biri guruhiy ijrodir. Guruhiy ijro ya’ni, xor, ansambl va orkestr orqali o‘quvchilar jamoaviy mas’uliyatni, muloqotni, bir-birini tinglashni va qo‘llab-quvvatlashni hamda hamjihatlik kabi ko‘nikmalarni shakllantiradilar. Ushbu metod o‘quvchilarni bir-biriga bog‘laydi va ularni hamkorlikda ijro etishga o‘rgatadi[4. 155.].

Musiqa ta’limida ijtimoiy kompetensiyani shakllantirishning samarali usullari bir loyiha asosida o‘qitishdir. Loyiha asosida o‘qitish metodida o‘quvchilar “Milliy cholg‘ular tarixi”, “Mening musiqa maktabim”, “Musiqa janrlari festivali” yoki “Oila ansamblini tuzish” kabi amaliy loyihalarda ishtirok etadilar. Bu metod liderlik, tashabbus, tadqiqot ko‘nikmalari va jamoaviy tashkilotchilikni rivojlantiradi.

Musiqa ta’limida ijtimoiy kompetensiyani shakllantirishda interfaol metodlarga tayanib dars olib borish yuksak samara beradi. Interfaol metodlar qatoriga aqliy hujum, rol o‘ynash, debat, juftlikda o‘rganish va doira bo‘lib tinglash kiradi. Ushbu metodlar o‘quvchilarga fikrni erkin ifodalash, o‘zaro hurmat va tolerantlikni o‘rgatadi.

Undan tashqari, musiqiy ta’limda ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish uchun STEAM integratsiyasi, madaniyatlararo ta’lim ham muhim o‘rin tutadi.

STEAM integratsiyasi darslarida musiqa, texnologiya, matematika va san’at uyg‘unligida o‘quv jarayoni tashkil etiladi. Masalan, ritmlarni matematik tahlil qilish, elektron musiqa yaratish va audio montaj qilish orqali o‘quvchilar raqamli savodxonlik, kreativ fikrlash va muammoni yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar[4. 173.].

Madaniyatlararo ta’lim orqali turli xalqlarning musiqasini o‘rgatish o‘quvchilarda bag‘rikenglik, millatlararo hurmat va global fikrlashni rivojlantiriladi. Ushbu metod o‘quvchilarni madaniy muloqotga va dunyoqarashini kengaytirishga o‘rgatadi.

O‘quvchilarni musiqiy savodxonligini oshirishda bugungi raqamli transformatsiya sharoitida musiqa ta’limi quyidagi yo‘nalishlarda rivojlantiriladi:

- Mobil va onlayn musiqa ilovalari.

Yousician, Perfect Ear, Solfeg. io kabi platformalar o‘quvchilarga interaktiv tarzda musiqa o‘rganish imkonini beradi. Shu orqali o‘quvchilar texnologiya bilan ishlash ko‘nikmalarini oshiradilar.

- Virtual cholg‘ula.

Virtual cholg‘ular yordamida o‘quvchi real cholg‘usiz ham ijro qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu jarayon ijodiy va texnologik ko‘nikmalarni birlashtiradi.

- Onlayn ansambl.

Onlayn ansambllar orqali masofadan turib birgalikda ijro qilish imkoniyati beriladi. Bu jamoaviy kompetensiyani rivojlantirishning yangi shakli hisoblanadi.

- Multimedia darslar.

Vizual, audio va interfaol elementlar yordamida darslar jonlantiriladi. Shu orqali o‘quvchilar o‘zining musiqiy qobiliyatlarini, raqamli savodxonligini va ijodiy fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydilar[5. 215.].

Xullas, musiqa nafaqat san’at va estetik tarbiya vositasi sifatida, balki o‘quvchilarning ijtimoiy, emotsional va madaniy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim pedagogik instrument sifatida ko‘rib chiqishimiz mumkin. Shunday ekan, uzluksiz ta’lim tizimi doirasida musiqa ta’limining roli juda keng bo‘lib, u bolalardan tortib to oliy ta’lim jarayonlarida shaxsning ijtimoiy va emotsional rivojlanishini ta’minlaydi. Musiqiy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarda muloqot madaniyati, jamoaviy ishlash ko‘nikmalari, empatiya, liderlik va kreativ fikrlash kabi ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanadi. Shu bilan birga milliy va xalqaro madaniyatni o‘rganish orqali madaniy savodxonlik va bag‘rikenglik rivojlanadi. O‘zimizning musiqiy ta’lim tizimimizni shakllantirishda ilg‘or xalqaro tajriba tahlili - Finlyandiya, Yaponiya, AQSh va Janubiy Koreya kabi davlatlarda musiqa ta’limi ijtimoiy kompetensiyani shakllantirishda qanday samarali vosita ekanligiga tayanishimiz lozim. Ushbu mamlakatlarda guruhiy ijro, loyihaviy metodlar, interfaol darslar va STEAM integratsiyasi kabi zamonaviy pedagogik yondashuvlar keng qo‘llanilishi orqali o‘quvchilar nafaqat musiqiy ko‘nikmalarini, balki jamoaviy mas’uliyat, muloqot qobiliyati, kreativ fikrlash va raqamli savodxonlikni ham rivojlantiradilar.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Jalilov, F. A. Musiqa ta’limida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, innovatsion g‘oyolardan foydalanishning nazariy asoslari. Science and Education, 6(4). 2025., B. 153–157.

2. Karimova, N. D. Musiqiy ta’lim jarayonida bolalarning ijtimoiylashuv jarayonlarini psixologik qo‘llab-quvvatlash. Science and Education, 6(3). 2025., B. 254–259.

3. G‘iyozova, Sh. Z. Musiqa ta’limida integratsiyalashgan yondashuvning didaktik asoslari. Science and Education, 6(3). 2025., B. 209–213.

4. Madaminova, X. Musiqa ta’limida pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari. Journal of Science and Innovation. 2025. B. 120-132.

5. Ergashev, M. I. Musiqa ta’limida o‘quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari. Best Publication, 2025., B. 215-245.

FROM ZOOLOGY TO PRAGMATICS: A SEMANTIC-PRAGMATIC ANALYSIS OF ANIMAL-BASED IDIOMS IN ENGLISH

Jurakhonov Azamat Azamkhon ugli
Student of Uzbek State World Languages University

Abstract: This article analyzes the semantic and pragmatic features of idioms expressed through animal names in English. Despite the fact that animal names are used in the example of several phraseological units, including: kuchuk, mushuk, and ot, the general meaning they express is significantly distant from the zoological characteristics of animals and acquires a meaning based on metaphorical concepts, cultural representations, and communicative context. The article analyzes the cognitive-semantic foundations, cultural motives, and speech functions of phraseological units widely used among English users.

Keywords: animal idioms, English phraseology, semantic analysis, pragmatic analysis, metaphor, linguocultural context, cognitive-semantics, speech task.

ОТ ЗООЛОГИИ К ПРАГМАТИКЕ: СЕМАНТИКО-ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИДИОМ НА ОСНОВЕ ЖИВОТНЫХ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация: В данной статье анализируются семантико-прагматические особенности идиом, выраженных через названия животных в английском языке. Несмотря на то, что в приведенных в качестве примера нескольких фразеологических единицах используются названия животных, в

том числе: kuchuk, mushuk и ot, общее значение, которое они выражают, значительно удалено от зоологических особенностей животных и приобретает значение, основанное на метафорических концептах, культурных представлениях и коммуникативном контексте. В статье анализируются когнитивно-семантические основы, культурные мотивы и речевые функции фразеологических единиц, широко используемых среди пользователей английского языка.

Ключевые слова: идиомы с названиями животных, фразеологизмы английского языка, семантический анализ, прагматический анализ, метафора, лингвокультурный контекст, когнитивно-семантика, речевая задача.

ZOOLOGIYADAN PRAGMATIKAGA: INGLIZ TILIDAGI HAYVON NOMLARI BILAN IFODALANGAN IDIOMALARNING SEMANTIK-PRAGMATIK TAHLILI

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz tilidagi hayvon nomlari orqali ifodalangan idiomalarning semantik-pragmatik xususiyatlarini tahlil qiladi. Misol sifatida keltiriladigan bir nechta frazeologik birliklarda hayvonlarning, jumladan: kuchuk, mushuk va ot nomlari qo‘llangan bo‘lsa-da, ular anglatadigan umumiy ma’no, hayvonlarning zoologik xususiyatlaridan ancha uzoqda bo‘lib, ko‘proq metaforik konseptlar, madaniy tasavvurlar va kommunikativ kontekstga tayangan holda ma’no kasb etadi. Maqola ingliz tili foydalanuvchilari o‘rtasida keng istemolda bo‘lgan frazeologik birliklarning kognitiv-semantik asoslari, madaniy motivlari va nutqiy vazifalarini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: hayvon nomli idiomalar, ingliz tili frazeologizmlari, semantik tahlil, pragmatik tahlil, metafora, lingvomadaniy kontekst, kognitiv-semantika, nutqiy vazifa.

Hayvonlar insonlarning hayotida nafaqat biologik, balki madaniy va ramziy tomondan ham ahamiyatlidir. Dunyo bo‘ylab ko‘pchilik jamiyatlarda odamlar o‘z tajribalarini, kuzatishlarini va hissiyotlarini til orqali ifodalashda hayvon obrazlaridan ko‘p foydalanadilar. Ayniqsa, idiomalar tizimida hayvon nomlarini tez-tez uchratish odatiy holga aylangan va ular odatda asl ma’nosini yo‘qotib, metaforik ma’no kasb etadi. Idiomalar mavzusi olimlar tomonidan tez-tez qiziqish bildiriladigan mavzu hisoblanadi. Fernando [1], Kövecses[2], Lakoff [3], Makkai [4] kabi bir qator olimlar o‘z izlanishlarida idioma mavzularini keng yoritishgan.

Masalan, ingliz tilidagi kuchuk, mushuk, ot yoki qo‘y kabi hayvonlarning nomlari orqali inson xatti-harakatlari, xulq-atvori, ijtimoiy o‘zini tutishi va emotsional holatlari ifoda etilishi mumkin. Shunday ekan, hayvon nomlari yordamida tashkil topgan idiomalar lingvistikada qiziqarli tadqiqot obyekti sifatida qaraladi. Ingliz tilidagi frazeologik birliklar o‘zining figurativ, metaforik jihatdan o‘ziga xos mazmuni bilan boshqalardan ajralib turadi. Ular so‘z birikmasi sifatida grammatik barqaror, ammo ma’nolari kontekstga qarab o‘zgarishi mumkin. Bunday turdagi idiomalar, qolganlari singari ko‘pincha antropomorfik xarakterga ega: ya’ni hayvonlardagi mavjud bo‘lgan va tez-tez ko‘zga tashlanadigan odatlar, instinktlar yoki umuman ularning xarakterlari insonlarning kundalik hayotda duch keladigan vaziyatlari bilan qiyoslab, o‘xshatiladi. Masalan, **“work like a dog”** frazeologik birligi *insonning qattiq mehnat qilishini, mehnatkashlik xususiyatini* ifodalaydi, **“curiosity killed the cat”** iborasi esa ortiqcha va befoyda qiziqishlarning yaxshi oqibatlarga olib kelmasligi haqida uqtiradi. Lakoff, G., & Johnson, M. [3] kabi olimlarning “Metaphors we live by” nomli ishlarida bu kabi frazeologik birliklarning ma’nolarini ko‘p uchratamiz. Albatta bu holatda “insonning o‘lim holatini” keltirish mumkin edi, ammo bunday holatda idiomadagi badiiy bo‘yoq kuchayib, undan foydalanayotgan kishining psixologik-emotsional holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi e’tiborli. Shunday ekan, ortiqcha qiziqish doim ham o‘limga emas balki katta-kichik yomon holatlarga olib kelishi mumkinligi haqidagi ushbu idiomadan ko‘pchilik ongsiz tarzda foydalanganda ta’sir kuchi biroz kamayib, idiomadagi negativ ohang minimum tarzda kamaytirilgan. Bu ham qaysidir ma’noda idioma va frazeologik birliklarda hayvon nomlaridan foydalanishning ahamiyatini oshiradi. Shunday qilib, idiomalar nafaqat leksik birlik, balki kognitiv model sifatida ham til tizimida, u qaysi til bo‘lmasin, ko‘pchiligida mavjuddir. Ushbu tadqiqotning fokusi hayvonlar nomi asosida shakllangan idiomalarni semantik va pragmatik nuqtai nazardan yoritishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — quyida keltiriladigan iboralardagi metaforik motivlar, kontekstual qo‘llanilish va kommunikativ vazifalarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda 15 ta keng qo‘llaniladigan idioma tanlangan bo‘lib, ular kuchuk, mushuk va ot obrazlariga tegishli. Ushbu idiomalar orqali ingliz madaniyati, insonlarning hayvonlarga doir stereotip tushunchalari shuningdek, idiomalarning nutqiy funksiyasi va muloqotdagi ahamiyati o‘rganiladi. Bugungi kunda bunday turdagi idiomalarni tushunish nafaqat so‘z boyligini oshiradi, balki

ularni real nutqda to‘g‘ri ishlatish imkonini ham beradi. Bundan tashqari, hayvon nomlari asosidagi idiomalarni o‘zbek tilidagi ekvivalentlar bilan solishtirish madaniyatlararo tafovutlarni va universal kognitiv asoslarni aniqlashga yordam beradi. Fixed Expressions and Idioms in English *nomli ishida* Moon, R [5] bir qator idiomalarning bu boradagi ahamiyatiga alohida urg‘u berib o‘tgan. Tadqiqot idiomalar bilan bog‘liq kognitiv-semantik yondashuv, lingvomadaniy tahlil va pragmatik yondashuvni o‘z ichiga olish bilan birga, idiomalarni nutqiy kontekstda tushunishga qaratilgan pragmatik tadqiqot sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Quyida Nunberg, G., Sag, I., & Wasow, T. [6] kabi olimlar tomonidan yaratilgan “Idioms Language” ga asoslangan, va boshqa bir qator ilmiy ishlarga tayangan idiomalarning semantik va pragmatik ma’nolari keltirilgan.

1. Kuchuk nomlari bilan bog‘liq idiomalar:

A) *Let sleeping dogs lie* — ***eski muammoni qo‘zg‘amaslik;***

Odatda kuchukning uxlashi tabiiy holat, ammo ba’zi idiomalarni so‘zma-so‘z tarjima qilganda shunday ma’nolar kelib chiqadiki, ular mantiqqa umuman to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Ushbu iboradagi semantik jihat esa:“sleeping dog” metaforasi — **tinch vaziyatni buzib, kimnidir yoki qaysidir holatni qo‘zg‘amaslik** ma’nosi anglashiladi. **Pragmatik tomondan esa:** kimdir uchun maslahat, ogohlantirish berish kabi vaziyatlar uchun qo‘llanilishi mumkin. **Ushbu idiomaning aynan o‘zbek tilidagi ekvivalenti ham mavjud:** *“Yopiq qozon yopiq qolsin. ”*

Example: *Come on, Sherzod, let the sleeping dogs lie and do not discuss who stole his cell phone again.*

Misol: *Qo‘ysangchi, Sherzod, uning telefonini kim o‘g‘irlaganini ortiq muhokama qilma, yopiq qozon yopiqligicha qolsin.*

B) *Every dog has its day* — ***har kimning omadli kuni keladi;***

Kuchuklarning odatiy kuni hammamizga ma’lum. Lekin bu idioma odatiy kuchuk kuni haqida emas, qachondir keladigan va biz kutadigan omad haqida. Semantik jihatdan kuchukni – oddiy, kamsitilgan mavjudot sifatida tasavvur qilsak, ibora optimistik kayfiyat beradi. Hamda qachondir yaxshi kunlar kelishini ifodalashu uchun qo‘llaniladi. **Pragmatik tomondan esa ushbu iborani odamlarga, do‘st-yaqinlarimiz, yoki umuman, notanish insonlarga** motivatsiya berish, ularni ruhlantirish uchun ishlatish mumkin.

Example: *Every dog has its day, may be tomorrow you will win the award, do not be upset.*

Misol: *Har kimning ham bir omadli kuni bor, ehtimol ertaga sovrinni qo‘lga kiritarsan, tashvishlanma.*

C) *Work like a dog — juda qattiq ishlamoq;*

O‘zbek tilidagi *“itdek ishlamoq”* iborasiga alternativ ushbu idioma kuchuklarning qattiq mehnatiga qiyosiy tarzda insonlarning qanchadir vaqt mobaynida mehnat qilib, charchaganini ifodalaydi. Semantik nuqtai nazardan

kuchuk jamiyat tasavvurida mehnatkash hayvon sifatida shakllangan jonivor. **Pragmatik jihatdan esa** bajarilgan mehnatni kuchaytirib, bo‘rttirib ko‘rsatish yoki achinish bildirish uchun ushbu ibora qo‘llanilishi mumkin.

Example:*Ravshan was going to bed too early, because he worked like a dog yesterday.*

Misol: *Ravshan kecha juda erta uyquga yotdi, chunki juda qattiq ishlagandi.*

D) *Go to the dogs* — ***buzilmoq, xarob bo‘lmoq;***

O‘zbek tilida kuchuk so‘zi bilan bog‘liq bunday ibora mavjud emas, “Kuchukka bor”. Semantik jihatdan “dog” so‘zi past maqomdagi joy yoki holat sifatida qo‘llangan bo‘lsa. p**ragmatik nuqtai nazardan** tanqid, ta’na, salbiy baho ma’nosini keltirish uchun aynan “dog” so‘zi ishlatilgan.

Example: *Doniyor’s legos went to the dogs when Khusan acted inappropriately.*

Misol: *Xusanning nojo‘ya harakati tufayli Doniyorning legolari buzilib ketdi.*

2. Mushuk bilan bog‘liq idiomalar

A) Curiosity killed the cat — ortiqcha va befoyda qiziqish yomon

Semantikada mushuk — qiziquvchan hayvon metaforasi sifatida qo‘llanilgan, ammo pragmatik jihatdan bu so‘z tanbeh yoki ogohlantirish ma’nosini keltirish uchun qo‘llanilmoqda. Ya’ni ortiqcha qiziqishning zarari haqida mushukning qiziqishlari uning o‘limiga sabab bo‘lgani orqali ifodalanmoqda.

Example*: Rushana’s curiosity killed the cat when she tried riding a bike despite of she is only 3 years old.*

Misol: *Ruxshona 3 yosh bo‘lishiga qaramay velosiped minishga harakat qilib ko‘rgani yomon oqibatga olib keldi.*

B) Let the cat out of the bag — ***sirni oshkor qilish***

Biror kishining mushukni majburlab xaltaga solib qo‘yganiini ko‘z oldimizga keltirsak, mushuk tabiiyki, tashqariga intiladi, ammo bu yerda mushukning tashqi muhitga intilishi emas, balki aynan o‘sha odamning mushukning chiqishiga yo‘l qo‘ymayotgani e’tiborli. Pragmatik jihatdan ushbu idioma biror kishini haqiqatni oshkor qqilmaganlikda ayblash, norozi bo‘lib unga tahdid qilish paytida qo‘llaniladi. Aynan mushukni xalqaga yoki sumkaga berkitib, uni tashqariga chiqishiga yo‘l qo‘ymaydigan odam haqiqatni aytmaydigan yoki aytmayotgan odamga qiyoslanadi.

C) A fat cat — boy, qudratli odam

Semantik nuqtai nazardan mushuk — ortiqcha semirishga misol, chunki u kun bo‘yi hech qanday mehnatsiz faqat uyqu bilan band bo‘lishi hammamizga ma’lum. Aynan mana shu jihat boy odamlarning shunday xxususiyatlariga qiyoslanmoqda. Moliyaviy farovonlikka ega har qanday inson ham mushukday hech qanday ish bilan band bo‘lmasdan dam olishi tabiiy. **Pragmatikada esa “semiz mushuk” o‘xshatishi orqali bunday turdagi odamlarga** ijtimoiy tanqid yoki istehzo bilan qarashadi.

Example:*Shahzoda’s father is a fat cat because he always buys so many toys.*

Misol: *Shazodaning dadasi juda boy kishi, chunki unga doim ko‘pkina qo‘g‘irchoqlar olib beradi.*

D) Like a cat on hot bricks — bezovta odam

Issiq g‘isht ustida yoki umuman, g‘ishtmi, boshqa turdagi metallmi, uning ustida turissh odam uchun noqulaylik tug‘diradi: oyoqlari kuyishi mumkin. **Pragmatika bu** holatni jonli tasvirlash maqsadida biror muammosi bilan bezovtalanayotgan odamni huddi issiq g‘isht ustida turgan odamga qiyoslamoqda, albatta ushbu idiomada tavsifga emotsional tus berilishini kuzatish mumkin, lekin bu holat idiomaning ta’sir kuchini yanda oshirishga imkpon yaratmoqda.

E) Cat got your tongue? — nega gapirmay qolding?

Mushuk inson tilini uzib olishi haqiqatga yaqin tushuncha emas, bu esa idiomalarga xos xususiyatdiir. Pragmatikada ushbu idioma biror

kishini yengil kinoya, hazil yoki bosim orqali gapirishga undash chog‘ida qo‘llaniladi. O‘zbek tilida ham bu idiomaga o‘xshash: *Tilingni yutib yubordingmi?* Shaklida tez-tez uchratamiz.

Example: *Cat got your tongue? Why you stopped to talk?*

Misol: *Tilingni tishlab oldingmi? Nega gapirishdan to‘xtab qolding?*

Ingliz tilidagi hayvonlar orqali ifodalanuvchi idiomalar ko‘pincha **madaniy stereotiplar** asosida shakllanganligini ko‘rish mumkin. Idiomalar ***nutqni yumshatish***, ***kinoya qilish***, ***nasihat berish***, ***tasvirni kuchaytirish*** *va boshqa bir qator* pragmatik maqsadlarga xizmat qiladi. Hayvonlar esa odatda inson xarakterini **metaforik modellashtirish** uchun ishlatiladi. O‘zbek tilida ingliz tilidagi bir qator idiomalar bilan **ma’nodoshlik holati kuzatiladi**, bu esa ikki madaniyat orasidagi o‘xshash umumiy kognitiv asoslarni tasdiqlaydi. Ingliz tilida nafaqat hayvon nomlari asosida balki qaysi nom asosida tashkil topgan bo‘lmasin, idiomalar tildagi metaforik hodisalarga yaqqol misoldir. Ular nafaqat leksik birlik sifatida, balki insonlarning dunyoqarashi, madaniy tajribasi va kognitiv modelini aks ettiruvchi semantik-pragmatik tizim sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada keltirilgan kuchuk va mushuk obrazlari ingliz tilidagi idiomalarda turli ma’nolarni ifodalash uchun kuchli ramziy vosita sifatida qo‘llanadi. Ularning semantik talqini hayvonlarning haqiqiy zoologik xususiyatlaridan ko‘proq metaforik konseptlar, madaniy tasavvurlar va nutqiy vazifalarga asoslanadi. Tahlil qilingan idiomalar shuni ko‘rsatadiki, hayvon obrazlari inson xulqi, hissiyotlari va ijtimoiy xatti-harakatlarini ifodalashda universallik kasb etuvchi kognitiv asosga ega. Shu bilan birga, ular ingliz tiliga xos bo‘lgan madaniy stereotiplar, hazil, kinoya, tanqid, ogohlantirish yoki maslahat kabi pragmatik maqsadlarga xizmat qiladi. O‘zbek tilida ham mazkur idiomalarning ko‘plab semantik ekvivalentlari mavjudligi ikki xalq lingvomadaniy tafakkurida o‘xshash umumiy kognitiv modellar mavjudligini anglatadi. Ingliz tilidagi hayvon nomlariga asoslangan idiomalarni o‘rganish nafaqat tilning metaforik kriteriyalari va madaniy qatlamlarini chuqurroq o‘rganishga, balki ularning nutqiy kontekstdagi qo‘llanilish mexanizmlarini tushunishga ham keng imkon yaratadi. Bu esa chet tilini o‘rganuvchilar uchun lug‘at boyligini oshirish, madaniyatlararo muloqotni chuqurlashtirish va idiomatik nutqni to‘g‘ri qo‘llashda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Reference:

1. Fernando, C. (1996). *Idioms and Idiomaticity*. Oxford University Press.

2. Kövecses, Z. (2010). *Metaphor: A Practical Introduction* (2nd ed.). Oxford University Press.

3. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.

4. Makkai, A. (1972). *Idioms Structure in English*. Mouton.

5. Moon, R. (1998). *Fixed Expressions and Idioms in English*. Oxford University Press.

6. Nunberg, G., Sag, I., & Wasow, T. (1994). Idioms. *Language*, 70(3), 491–538.

7. *Oxford Dictionary of Idioms* (2020). (3rd ed.). Oxford University Press.

2-SHO‘BA
TA’LIMDA INNOVATSIYALAR, RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR ORQALI TA’LIM JARAYONINI TRANSFORMATSIYA QILISH: DIGITAL VA BLENDED LEARNING YONDASHUVLARI

Ashurov Ma’rufjon Abdumutalibovich
Andijon davlat pedagogika instituti professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab va oliy ta’lim tizimida pedagogik innovatsiyalarni qo‘llash orqali ta’lim jarayonini transformatsiya qilish masalalari tahlil qilinadi. Blended learning (aralash ta’lim) va digital platformalardan foydalanish, virtual laboratoriyalar va interaktiv dars materiallari yordamida o‘quv jarayonini individualizatsiyalash va sifatini oshirishning samarali metodlari o‘rganiladi. Shuningdek, maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy va tanqidiy yondashuvlarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Pedagogik innovatsiya, Blended learning, Digital platforma, Virtual laboratoriya, Interaktiv ta’lim, Ta’lim jarayoni, Individualizatsiya, Ta’lim sifatini oshirish, O‘quvchi kompetensiyasi, Ta’lim texnologiyalari

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы трансформации образовательного процесса через применение педагогических инноваций в системе школьного и высшего образования. Исследуются эффективные методы индивидуализации и повышения качества учебного процесса с использованием blendedlearning (смешанное обучение), цифровых платформ, виртуальных лабораторий и интерактивных учебных материалов. Кроме того, статья освещает возможности развития самостоятельного мышления, творческого и критического подходов у учащихся через внедрение современных педагогических технологий.

Ключевые слова: Педагогическая инновация, Смешанное обучение, Цифровая платформа, Виртуальная лаборатория, Интерактивное обучение, Образовательный процесс, Индивидуализация, Повышение качества образования, Компетентность учащегося, Образовательные технологии

Abstract: This article examines the transformation of the educational process through the application of pedagogical innovations in school and higher education systems. Effective methods for individualizing and enhancing the quality of learning are explored through the use of blended learning, digital platforms, virtual laboratories, and interactive teaching materials. Additionally, the article highlights opportunities to develop students’ independent thinking, creativity, and critical approaches by implementing modern pedagogical technologies.

Keywords: Pedagogical innovation, Blended learning, Digital platform, Virtual laboratory, Interactive learning, Educational process, Individualization, Improving educational quality, Student competence, Educational technologies

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quv jarayonining samaradorligi va sifatini oshirish dolzarb masalalardan biridir. Raqamli va interaktiv pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish orqali o‘quvchilarning individual rivojlanishini ta’minlash, bilimlarni amaliy qo‘llashga yo‘naltirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish mumkin. Blended learning va virtual laboratoriyalar maktab va oliy ta’lim jarayonini nafaqat qiziqarli, balki samarali qiladi, bu esa uzluksiz ta’limning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli pedagogik innovatsiyalarni tizimli ravishda joriy etish, o‘quv jarayonini transformatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Pedagogik innovatsiyalar nazariy asoslari. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogik innovatsiyalar o‘quv jarayonini sifatli, samarali va o‘quvchi markazida tashkil etishning eng muhim vositasi sifatida qaraladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar, avvalo, ta’lim nazariyasi va metodikasidagi ilg‘or yondashuvlarga tayangan holda ishlab chiqiladi, bu esa ta’lim jarayonini faqat nazariy bilim berishdan ko‘ra kengroq, interaktiv va amaliy jihatdan boyitadi. Innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘qitish imkoniyatini yaratadi, ularni mustaqil fikrlash, ijodiy va tanqidiy qaror qabul qilishga rag‘batlantiradi.

M. Alimov o‘z tadqiqotida: “Pedagogik innovatsiyalar zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchi markazida tashkil etilgan, sifatli va samarali o‘qitishni ta’minlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar o‘quv jarayonini interaktiv va amaliy jihatdan boyitadi, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashgan o‘qitish imkonini yaratadi hamda ularni mustaqil

fikrlash, ijodiy va tanqidiy qaror qabul qilishga rag‘batlantiradi”[1, 43], deya ta’kidlagan.

Nazariy jihatdan pedagogik innovatsiyalar o‘quv jarayonini interaktiv va moslashuvchan qilishga xizmat qiladi. Masalan, konstruktivizm nazariyasiga asoslangan yondashuvlar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi va bilimlarni amaliy faoliyat orqali mustahkamlash imkonini beradi. Shu tariqa, loyiha asosida o‘rganish, case-study va problem-based learning metodlari ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish va o‘quvchilarning qiziqishlariga moslashtirish imkonini beradi.

Xalqaro tajribada ham pedagogik innovatsiyalar nazariy asoslarda rivojlangan. Masalan, Finlyandiya maktablarida innovatsion yondashuvlar yordamida o‘quvchilar o‘z o‘rganish strategiyalarini tanlay oladi, mustaqil va mas’uliyatli o‘quvchi sifatida shakllanadi. Singapur universitetlarida blended learning metodlari nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtiradi va o‘quvchilarning individual rivojlanish ehtiyojlarini qondiradi. Kanada oliy ta’lim muassasalarida esa digital va interaktiv platformalar orqali pedagogik innovatsiyalar tatbiq etilib, o‘quv jarayoni doimiy baholash va feedback asosida individualizatsiyalanadi.

Shuningdek, pedagogik innovatsiyalar nazariy asoslari o‘qituvchilarning professional kompetensiyasini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish uchun o‘qituvchilar doimiy treninglar, professional master-klasslar va onlayn kurslar orqali tayyorlanadi. Bu jarayon o‘qituvchining metodik va pedagogik kompetensiyalarini oshiradi, ta’lim sifatini yuqori darajaga ko‘taradi va o‘quv jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik innovatsiyalar nazariy asoslari zamonaviy ta’limning markaziy komponenti sifatida interaktiv, individual va moslashuvchan o‘qitish tizimini yaratadi. Ular o‘quv jarayonini shaxsiylashtiradi, o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda pedagogik faoliyatni sifatli transformatsiya qilish imkonini beradi. Shu tariqa innovatsion yondashuvlar nafaqat o‘quv jarayonini, balki butun ta’lim tizimini uzluksiz va samarali rivojlantirishning nazariy va amaliy asosini tashkil qiladi.

Digital va blended learning yondashuvlari. Zamonaviy ta’lim jarayonida digital va blended learning yondashuvlari o‘quv jarayonini individualizatsiyalash, interaktivlashtirish va samaradorligini oshirishning eng muhim vositalaridan biridir. Blended learning yoki aralash ta’lim modeli onlayn va oflayn

komponentlarni uyg‘unlashtirib, o‘quvchilarning mustaqil va faol o‘rganish jarayonini ta’minlaydi. Ushbu yondashuv nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki ularni amaliy mashg‘ulotlar, loyihalar va interaktiv mashqlar orqali mustahkamlashga xizmat qiladi.

Misol tariqasida, Singapur universitetlarida blended learning metodlari keng qo‘llaniladi. Bu yerda talabalar darslarni video va interaktiv modul orqali mustaqil o‘rganadi, so‘ngra seminarlar va laboratoriya mashg‘ulotlarida o‘z bilimlarini amaliyotda sinab ko‘radi. Shu tarzda, aralash ta’lim modeli nazariy va amaliy bilimlarni birlashtiradi, talabalarning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarini rag‘batlantiradi.

D. Qodirov o‘z tadqiqotida: “Digital va blended learning yondashuvlari o‘quv jarayonini individualizatsiyalash, interaktivlashtirish va samaradorligini oshirishning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Aralash ta’lim modeli onlayn va oflayn komponentlarni uyg‘unlashtirib, o‘quvchilarning mustaqil va faol o‘rganish jarayonini ta’minlaydi, nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar va interaktiv loyihalar orqali mustahkamlashga yordam beradi. Singapur universitetlarida ushbu yondashuv talabalarning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarini rag‘batlantirishda samarali qo‘llanilmoqda”[4, 62], deya ta’kidlagan.

Digital platformalar, masalan Moodle, Canvas yoki Google Classroom, ta’lim jarayonini shaxsiylashtirishga imkon beradi. Har bir o‘quvchi o‘z bilim darajasiga mos mashqlarni bajaradi, o‘zining rivojlanish sur’atini kuzatadi va o‘qituvchidan individual feedback oladi. Kanada va Finlyandiya oliy ta’lim muassasalarida ham digital platformalardan foydalanish orqali talabalar o‘z o‘rganish jarayonini boshqaradi va bilimlarni amaliy jihatdan qo‘llash imkonini topadi.

Shuningdek, blended learning yondashuvi o‘qituvchilarga ham yangi pedagogik strategiyalarni qo‘llash imkonini yaratadi. O‘qituvchi dars jarayonini interaktiv modul, video darsliklar va virtual mashg‘ulotlar orqali boyitadi, bu esa o‘quvchilarning faolligini oshiradi va ta’lim sifatini yuqori darajaga ko‘taradi. Shu bilan birga, bu yondashuv ta’lim jarayonida uzluksiz baholash va o‘quvchilar kompetensiyalarini doimiy monitoring qilishni ham osonlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, digital va blended learning yondashuvlari maktab va oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayonini individualizatsiyalash, interaktivlashtirish va sifatini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi. Bu metodlar o‘quvchilarning

mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi, shuningdek, o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini oshirish va ta’lim jarayonini uzluksiz transformatsiya qilish imkonini yaratadi.

Virtual laboratoriyalar va interaktiv resurslar. Zamonaviy ta’lim jarayonida virtual laboratoriyalar va interaktiv resurslar o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini amaliyotda mustahkamlash, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida keng qo‘llanilmoqda. Virtual laboratoriyalar real laboratoriya muhitini raqamli muhitga ko‘chirib, o‘quvchilarga xavfsiz va qulay sharoitda tajriba o‘tkazish imkonini beradi. Shu bilan birga, interaktiv resurslar, masalan simulyatsiyalar, 3D-modellar, virtual eksperimentlar va o‘quv modullari, o‘quv jarayonini qiziqarli va jalb qiluvchi qiladi, bu esa bilimlarni mustahkamlash va o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi.

Masalan, Finlyandiya maktablarida virtual laboratoriyalar fizika, kimyo va biologiya fanlarida keng qo‘llaniladi. O‘quvchilar tajribalarni virtual muhitda sinovdan o‘tkazib, parametrlarni o‘zgartirish orqali natijalarni kuzatadilar, bu esa amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Kanada oliy ta’lim muassasalarida virtual laboratoriyalar va interaktiv simulyatsion resurslar yordamida talabalarga murakkab ilmiy tushunchalarni vizual va amaliy jihatdan o‘zlashtirish imkoniyati beriladi. Masalan, kimyo va biologiya fanlarida murakkab reaksiyalar va eksperiment jarayonlari virtual laboratoriya orqali amalga oshiriladi, bu esa real laboratoriya sharoitidagi xavf-xatarlarni kamaytiradi va o‘quv jarayonini samarali qiladi.

S. Ergashev o‘z tadqiqotida: “Virtual laboratoriyalar va interaktiv resurslar o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini amaliyotda mustahkamlash, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida xizmat qiladi. Ular real laboratoriya muhitini raqamli muhitga ko‘chirib, xavfsiz va qulay sharoitda tajriba o‘tkazish imkonini yaratadi, shuningdek, simulyatsiyalar, 3D-modellar va virtual eksperimentlar orqali o‘quv jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi. Finlyandiya va Kanada tajribasida bu yondashuvlar o‘quv jarayonini samarali, amaliy va individualizatsiyalashgan qiladi”[2, 51], deya ta’kidlagan.

Interaktiv resurslar o‘quv jarayonini individualizatsiyalash va differensial yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Masalan, talaba turli fanlar bo‘yicha

o‘z darajasiga mos virtual mashqlarni bajaradi, natijalarni baholaydi va o‘z bilim darajasini kuzatadi. Shu tariqa, interaktiv resurslar o‘quvchilarning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatini oshiradi, ularni mustaqil va mas’uliyatli o‘quvchi sifatida shakllantiradi.

Shu bilan birga, virtual laboratoriyalar va interaktiv resurslarni qo‘llash o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini oshirishga ham xizmat qiladi. O‘qituvchi turli interaktiv texnologiyalar yordamida darslarni boyitadi, o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va ta’lim jarayonini samarali monitoring qilish imkoniyatini yaratadi. Finlyandiya va Kanada tajribasida bunday yondashuvlar ta’lim sifatini yuqori darajaga ko‘tarishga xizmat qiladi va uzluksiz ta’limning samarali tashkil etilishiga hissa qo‘shadi.

Xulosa qilib aytganda, virtual laboratoriyalar va interaktiv resurslar maktab va oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayonini interaktiv, qiziqarli va amaliy jihatdan boyitishning asosiy vositasi hisoblanadi. Ular o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi, pedagogik jarayonni individualizatsiyalash va ta’lim sifatini uzluksiz oshirish imkonini beradi. Shu tariqa, virtual laboratoriyalar va interaktiv resurslar pedagogik innovatsiyalar orqali ta’lim jarayonini transformatsiya qilishning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonini transformatsiya qilish strategiyalari. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogik innovatsiyalarni samarali tatbiq etish va ta’lim jarayonini transformatsiya qilish strategiyalari ta’lim sifatini uzluksiz oshirishning eng muhim omili hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalarni tizimli joriy etish, raqamli platformalar va blended learning metodlarini integratsiya qilish orqali o‘quv jarayoni individual va interaktiv shaklda tashkil etiladi. Bu yondashuv o‘quvchilarning bilim olish jarayonini shaxsiylashtiradi, har bir talabaning o‘ziga xos ehtiyojlariga mos o‘qitishni ta’minlaydi hamda ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Strategiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun birinchi navbatda o‘qituvchilarning professional kompetensiyasini oshirish zarur. Kanada va Finlyandiya oliy ta’lim muassasalarida pedagoglarni blended learning va digital platformalarni tatbiq etish bo‘yicha muntazam treninglar, mentorlik dasturlari va professional master-klasslar orqali tayyorlaydi. Bu jarayon o‘qituvchilarga yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish, darslarni interaktiv va samarali tashkil etish imkonini beradi.

B. Jalilov o‘z tadqiqotida: “Pedagogik innovatsiyalarni tizimli tatbiq etish, raqamli platformalar va blended learning metodlarini integratsiya qilish orqali o‘quv jarayoni individual va interaktiv shaklda tashkil etiladi. Bu yondashuv o‘quvchilarning bilim olish jarayonini shaxsiylashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, pedagoglarning professional kompetensiyasini oshirish, mentorlik va treninglar orqali yangi pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash ta’lim jarayonini transformatsiya qilish strategiyasining muhim elementidir”[3, 41], deya ta’kidlagan.

Blended learning strategiyalari orqali o‘quv jarayoni onlayn va oflayn komponentlarning uyg‘unlashuvi orqali individualizatsiyalashadi. Misol tariqasida, Singapur universitetlarida talabalar video darslar, virtual mashg‘ulotlar va loyiha ishlari orqali bilimlarni mustahkamlaydi. Shu tarzda, o‘quv jarayoni nafaqat nazariy bilimlar bilan cheklanmay, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli platformalarning joriy etilishi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash, o‘z bilim sur’atini kuzatish va individual taraqqiyotini rejalashtirish imkonini beradi. Masalan, Moodle yoki Canvas kabi platformalarda o‘quvchilar turli fanlar bo‘yicha interaktiv testlar, simulyatsiyalar va virtual mashg‘ulotlar orqali bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar o‘quv jarayonini real vaqtda monitoring qilishi, har bir talabaning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi va tegishli pedagogik yondashuvlarni qo‘llashi mumkin.

Ta’lim jarayonini transformatsiya qilish strategiyalari shuningdek, ta’limning sifatini milliy va xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Finlyandiya va Kanada tajribasida ko‘rinib turibdiki, pedagogik innovatsiyalar, virtual laboratoriyalar, blended learning va digital platformalardan tizimli foydalanish orqali ta’lim jarayoni nafaqat samarali va interaktiv, balki uzluksiz rivojlanadigan modelga aylantiriladi. Shu yo‘l bilan o‘quv jarayoni zamonaviy talablar, ijtimoiy va professional ehtiyojlar bilan moslashtiriladi, pedagoglarning va o‘quvchilarning doimiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonini transformatsiya qilish strategiyalari pedagogik innovatsiyalarni tizimli tatbiq etish, raqamli platformalar va blended learning metodlarini integratsiya qilish orqali ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning individual rivojlanish ehtiyojlariga mos interaktiv ta’limni tashkil

etish va o‘qituvchilarning professional kompetensiyasini doimiy rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu strategiyalar ta’lim jarayonini shaxsiylashtiradi, interaktiv va amaliy jihatdan boyitadi hamda uzluksiz ta’limning samarali tashkil etilishiga hissa qo‘shadi.

Zamonaviy pedagogik innovatsiyalar, digital platformalar va blended learning yondashuvlari ta’lim jarayonini sifatli va samarali qilish imkonini beradi. Virtual laboratoriyalar va interaktiv resurslar o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi, mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni shakllantiradi. Shu tariqa pedagogik innovatsiyalarni tizimli tatbiq etish maktab va oliy ta’lim tizimida uzluksiz va samarali ta’limni ta’minlashning asosiy omili sifatida xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alimov M. A. Pedagogical Innovations in Modern Education: Theoretical Foundations and Practical Implementation. Journal of Contemporary Education Strategies, 12(2), 2024. 33–50.
2. Ergashev S. Virtual Laboratories and Interactive Resources in Modern Education: International Practices. Journal of Innovative Educational Technologies, 9(3), 2024. 41–59.
3. Jalilov B. Strategies for Transforming Educational Processes through Pedagogical Innovations. Journal of Educational Transformation, 11(2), 2024. 27–45.
4. Qodirov D. Blended Learning and Digital Approaches in Modern Higher Education. Journal of Innovative Pedagogy, 10(4), 2023. 58–76.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH: DRAYVERLAR VA MUAMMOLAR

Nilufar Yuldasheva Abdullayevna
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
pedagogika fanlari doktori, professor.
Bekturdiyev Sanjarbek Sharifboyevich,
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti,
sanjarbeksharifboyevich@gmail. com

Tursunova Sadoqat Abdusalomovna,
Toshkent davlat texnika universiteti
sadoqatabdusalomqizi@gmail. com,
Bekmurzayeva Ozoda Murodqosim qiz
Toshkent davlat texnika universiteti
ozodamurodqosimqizi@gmail. com

Annotatsiya: Ushbu maqola ta’lim tizimlarida “raqamli transformatsiya”kontseptsiyasining mohiyati, asosiy drayverlari (raqamli iqtisodiyot, globalizatsiya, pandemiya sharoiti kabi omillar), shuningdek, texnik, tashkiliy, kadrlar va ijtimoiy-madaniy to‘siqlarini tahlil qiladi. Avvalgidek alohida raqamli vositalarni joriy qilish emas — balki ta’lim jarayonlari, boshqaruv va o‘quv jarayonining konseptual va struktural reorganizatsiyasini nazarda tutadi. Muallif shuningdek LMS-platformalar, elektron hujjat aylanishi, adaptiv onlayn-o‘qitish, sun’iy intellekt va gamifikatsiya kabi vositalarni o‘rganib, ularning afzalliklari va cheklovlarini ko‘rsatadi. Xulosa qilingan tavsiyalar ta’lim muassasalarida raqamli strategiyani tizimli yo‘lga qo‘yish, infratuzilma hamda pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, raqamli texnologiyalar, ta’lim, drayverlar, to‘siqlar, adaptiv ta’lim, elektron o‘quv platformalari, gamifikatsiya, ta’lim strategiyasi, raqamli savodxonlik.

Аннотация: В данной статье анализируется сущность понятия «цифровая трансформация» в системах образования, ее основные драйверы (такие как цифровая экономика, глобализация, условия пандемии), а также технические, организационные, кадровые и социокультурные барьеры. Она подразумевает не внедрение отдельных цифровых инструментов, как раньше, а концептуальную и структурную реорганизацию образовательных процессов, процессов управления и обучения. Автор также исследует такие инструменты, как платформы LMS, электронный документооборот, адаптивное онлайн-обучение, искусственный интеллект и геймификация, показывая их преимущества и ограничения. В обобщенных рекомендациях подчеркивается необходимость системного внедрения цифровой стратегии в образовательных учреждениях, улучшения инфраструктуры и цифровой грамотности учителей.

Ключевые слова: цифровая трансформация, цифровые технологии в образовании, драйверы, барьеры, адаптивное обучение, LMS-платформы, геймификация, электронное обучение, цифровая грамотность, образовательная стратегия

Abstract: This article analyzes the concept of "digital transformation" in education systems, its main drivers (such as the digital economy, globalization, and the pandemic), as well as technical, organizational, personnel, and sociocultural barriers. This approach does not imply the implementation of individual digital tools, as was previously the case, but a conceptual and structural reorganization of educational processes, management, and learning. The author also examines tools such as LMS platforms, electronic document management, adaptive online learning, artificial intelligence, and gamification, highlighting their advantages and limitations. The recommendations emphasize the need for the systematic implementation of a digital strategy in educational institutions, improving infrastructure, and enhancing teachers' digital literacy.

Keywords: digital transformation, digital technologies in education, drivers, barriers, adaptive learning, LMS platforms, gamification, e-learning, digital literacy, educational strategy.

Ta’limning raqamli transformatsiyasi tez texnologik taraqqiyot sharoitida ta’lim tizimlarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi.

An’anaviy o‘qitish usullaridan raqamli texnologiyalarni integratsiyalashga o‘tish talabalarni axborot jamiyatida hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash zarurati bilan bog‘liq.

Zamonaviy ta’lim muassasalari yangi sharoitlarga moslashish, ta’limning mavjudligi va sifatini ta’minlash, ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari o‘rtasida raqamli kompetentsiyalarni rivojlantirish zarurati bilan bog‘liq muammolarga duch kelmoqda.

Globallashuv va iqtisodiyotning raqamlashtirilishi sharoitida ta’lim jamiyatning barqaror rivojlanishi va millatlarning raqobatbardoshligida muhim omilga aylanib bormoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi ta’limning raqamli transformatsiyasining mohiyatini tahlil qilish, uning asosiy yo‘nalishlari, afzalliklari va xavflarini aniqlash hamda ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etishning amaliy jihatlarini o‘rganishdir.

Mahalliy va xalqaro tajribani tahlil qilishga, shuningdek, ta’lim tashkilotlarida raqamli transformatsiyani samarali amalga oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratiladi [1, 2].

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etishga tizimli yondashuv zarurligidan, ularning samaradorligi va barqarorligini ta’minlash hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarni minimallashtirish zaruratidan kelib chiqadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun maqolada quyidagi maqsadlar ko‘rib chiqiladi:

- ta’limda raqamli transformatsiya tushunchasi va mohiyatini o‘rganish.
- raqamli transformatsiyaning asosiy omillari va to‘siqlarini aniqlash.
- ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish amaliyoti va holatlarini tahlil qilish.
- raqamli transformatsiyaning ta’lim sifatiga ta’sirini baholash.
- ta’limda raqamli transformatsiyani yanada rivojlantirish istiqbollarini aniqlash va tavsiyalar ishlab chiqish

Ta’limning raqamli transformatsiyasi shunchaki ta’lim jarayonining alohida komponentlarini raqamlashtirish emas, balki zamonaviy raqamli texnologiyalarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’limning roli, tuzilishi va mazmunini tizimli va strategik qayta ko‘rib chiqishdir [3, 4].

Bu nafaqat texnologik yangilanishni, balki pedagogik yondashuvlarni,



ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarni va butun ta’lim infratuzilmasini ham o‘zgartirishni o‘z ichiga oladi.

Raqamli transformatsiyani mustahkamlaydigan o‘zgarishlar.

Raqamli transformatsiya shuningdek, ta’lim muassasasini boshqarishni, uning ma’muriy va strategik jarayonlarini ham qamrab oladi.

Hisobot berish, tahlil qilish, rejalashtirish va tashqi muhit bilan o‘zaro ta’sirning yangi shakllari paydo bo‘lmoqda [5].

Raqamli ta’lim zamonaviy pedagogik yondashuvlarga asoslangan:

1. Konstruktivizm: o‘quvchilar raqamli muhit bilan faol o‘zaro ta’sir orqali bilim yaratadilar.

2. Kompetensiyaga asoslangan ta’lim: asosiy e'tibor raqamli savodxonlikni o‘z ichiga olgan asosiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan.

3. Adaptiv ta’lim: o‘quv yo‘lini shaxsiylashtirish uchun katta ma’lumotlar tahlili va AI dan foydalanish.

Raqamli ta’lim muhiti texnik infratuzilmani (internet, uskunalar, serverlar), raqamli kontentni (kurslar, testlar, video ma’ruzalar), tashkiliy va me'yoriy hujjatlarni va barcha ishtirokchilarning kompetensiyalarini o‘z ichiga oladi.

Raqamli transformatsiya ta’lim tashkilotlaridan strategik yondashuvni qo‘llashni, raqamli tashabbuslarni muassasaning missiyasi va maqsadlariga integratsiya qilishni, IT kompaniyalari bilan hamkorlikni rivojlantirishni va xodimlarining raqamli madaniyatini oshirishni talab qiladi.

Ta’limning raqamli transformatsiyasi bir qator omillar bilan bog‘liq bo‘lib, ularni taxminan tashqi va ichki deb ajratish mumkin.

Tashqi omillar: Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi. Zamonaviy mehnat bozori bitiruvchilardan nafaqat fanga oid bilimlarni, balki raqamli ko‘nikmalarni, ijodkorlikni, tanqidiy fikrlashni va raqamli jamoalarda ishlash qobiliyatini ham talab qiladi. Ta’lim xizmatlarining globallashuvi: Global ta’lim dasturlari bozorida bilimlarga kirish va raqobatni kengaytirish universitetlardan moslashuvchan va yuqori texnologik moslashuvchanlikni talab qiladi.

Ichki harakatlantiruvchi kuchlar. Ta’lim jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirish. Raqamli texnologiyalar akademik ko‘rsatkichlar, davomat va talabalar faoliyati bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish imkonini beradi, bu esa ta’lim jarayoniga tezkor o‘zgartirishlar kiritish imkonini beradi.

Shaxsiylashtirilgan yo‘llarga talabalarning talabining ortishi. Zamonaviy o‘quvchilar ta’limdan ko‘proq moslashuvchanlik, shaxsiylashtirish va o‘zlarining professional qiziqishlari bilan integratsiyani kutishadi.

Ma’muriyatning raqamli yetakchiligi. Universitet darajasida raqamli transformatsiya strategiyalarining paydo bo‘lishi, raqamli jamoalar va bo‘limlarining shakllanishi.

Ushbu harakatlantiruvchi kuchlar bilan bir qatorda, raqamli transformatsiya texnik, tashkiliy, kadrlar va ijtimoiy-madaniy deb tasniflanishi mumkin bo‘lgan jiddiy cheklovlarga duch kelmoqda.

Texnik to‘siqlar: infratuzilma resurslarining notekis taqsimlanishi:

yuqori tezlikdagi internetning yo‘qligi, ayniqsa mintaqaviy universitetlar va maktablarda eskirgan uskunalar; turli platformalar va tizimlarning past mosligi, ularni integratsiyalashdagi qiyinchilik; tashkiliy to‘siqlar: yagona raqamli transformatsiya strategiyasining yo‘qligi, raqamli yechimlarning parchalanib ketgan amalga oshirilishi, dasturiy ta’minotni sotib olish va texnik xizmat ko‘rsatish uchun moliyaviy resurslarning yetarli emasligi va texnik yordam [6, 7].

Inson resurslari to‘siqlari: o‘rnatilgan o‘qitish usullarini o‘zgartirishni istamaydigan o‘qituvchilarning qarshiligi; raqamli pedagogika bo‘yicha malakali mutaxassislarning yetishmasligi.

Ijtimoiy-madaniy to‘siqlar: internetga kirish, texnologiya va raqamli ko‘nikmalardagi farqlar tufayli talabalar o‘rtasidagi raqamli tengsizlik. Yuzma-yuz muloqotni yo‘qotish va ta’limni insonparvarlikdan mahrum qilish xavfi.

Ushbu to‘siqlarni bartaraf etish hukumat, ta’lim muassasalari va xususiy sektor darajasida tizimli yondashuv va muvofiqlashtirilgan harakatlarni talab qiladi. Xususan, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, o‘qituvchilarni tayyorlash, yuqori sifatli raqamli kontentni ishlab chiqish va inklyuziv ta’lim muhitini yaratishga investitsiya kiritish muhimdir.

Yurtimizda va xorijda ta’limni raqamlashtirish turli xil amaliyotlar orqali amalga oshirilmoqda, bu ham ta’lim jarayonini, ham ma’muriy va tadqiqot komponentlarini qamrab oladi. Ushbu amaliyotlarni quyidagi sohalarga ajratish mumkin: platforma yechimlari, AI dan foydalanish, o‘yinlashtirish, moslashuvchan o‘rganish va boshqalar.

Moodle, Blackboard va Canvas kabi o‘quv boshqaruv tizimlari (LMS), shuningdek, Digital University, Stepik, Foxford. Teacher, Yandex. Textbook va

boshqalar kabi ruscha ekvivalentlar raqamli o‘rganishda markaziy rol o‘ynaydi. Ushbu platformalar kontentni saqlash va tarqatish, akademik ko‘rsatkichlarni monitoring qilish va talaba-o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni osonlashtiradi.

Elektron hujjatlarni boshqarish tizimlari, raqamli jadvallar va onlayn baholash va sertifikatlash platformalari ham joriy etilmoqda. Ushbu tizimlar ta’lim va ma’muriy faoliyatni avtomatlashtirish va talabalarning xulq-atvor modellarini tahlil qilish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt (SI) ta’lim muhitida tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda, aqlli repetitorlar va chatbotlardan tortib bashoratli tahlil tizimlarigacha. Masalan, SI quyidagilarni amalga oshirishi mumkin: individual o‘quv traektoriyalarini tahlil qilish; bilimlardagi bo‘shliqlarni aniqlash; akademik muvaffaqiyatsizliklarni bashorat qilish; va o‘qituvchilarga o‘quv dasturiga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha tavsiyalar berish [7, 8].

Ta’lim tahlili — talabalarning o‘quv faoliyati bo‘yicha katta ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlash, ta’lim yo‘llarini moslashtirish imkonini beradi — ham tez rivojlanmoqda.

O‘yin texnologiyalari (gamifikatsiya) o‘quv jarayoniga reytinglar, ballar va yutuqlar kabi o‘yin elementlarini kiritish orqali talabalarning motivatsiyasini oshiradi.

Hayotiy professional vaziyatlarni (masalan, iqtisodiyot, tibbiyot va huquq sohasida) simulyatsiya qiluvchi ta’lim simulyatorlari ommalashib bormoqda, bu ayniqsa amaliy fanlar uchun dolzarbdir.

Adaptiv ta’lim tizimlari kontentni har bir talabaning darajasi va o‘rganish uslubiga moslashtiradi. Ushbu texnologiyalar sun'iy intellekt va mashinaviy o‘qitish yordamida amalga oshiriladi va noyob ta’lim yo‘llarini yaratish imkonini beradi.

Universitetlarda maqsadli raqamli transformatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Masalan, Hemis raqamli talabalar profili (Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi) barcha talabalar ma’lumotlarini yagona raqamli platformaga birlashtirgan tizimdir; Raqamli kafedralar universitetlarda raqamli kompetensiyaning fanlararo markazlarini yaratish tashabbuslaridir; va Milliy ochiq ta’lim platformasi mamlakatning yetakchi universitetlarining onlayn kurslarini agregatoridir. Ushbu loyihalar raqamlashtirishga tizimli yondashuv

tendentsiyasini namoyish etadi va ochiqlik, shaxsiylashtirish va texnologik taraqqiyotga asoslangan ta’lim modelini shakllantirmoqda.

Ta’limda raqamli transformatsiyaning kelajagi texnologik tendentsiyalar sintezi, o‘zgaruvchan ijtimoiy va iqtisodiy talablar va ta’lim muassasalarining o‘zlarining transformatsiyasi bilan belgilanadi. Ilmiy va ekspert tahlillariga ko‘ra, ta’lim tizimlarining rivojlanish vektorini belgilaydigan asosiy sohalarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak. Ilgari asosiy e’tibor asosan individual raqamli yechimlarni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lsa, bugungi kunda asosiy e’tibor yaxlit raqamli universitet ekotizimlarini yaratishga qaratilgan. Bunday ekotizimlarga quyidagilar kiradi: onlayn o‘qitish va baholash uchun platformalar; raqamli talabalar profillari; bashoratli tahlil tizimlari; martaba kuzatuv xizmatlari; raqamli kontent kutubxonalari; tashqi professional platformalar bilan integratsiya. Ekotizim yondashuvi nafaqat jarayonlarni avtomatlashtirishni, balki moslashuvchan, individual va ochiq tuzilma sifatida ta’lim mantig‘ini chuqur qayta qurishni ham o‘z ichiga oladi.

Ta’lim tizimlarining diqqat markazida talabalar o‘zlarining qiziqishlari, o‘rganish sur’ati va martaba maqsadlariga asoslanib individual ta’lim yo‘nalishini shakllantiradigan shaxsiylashtirilgan va moslashuvchan o‘qitishga o‘tilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, raqamli texnologiyalar quyidagilar uchun vositalar bo‘lib xizmat qiladi: kontentga moslashish; fikr-mulohaza; o‘quv natijalarini bashorat qilish; va raqamli portfellar va kompetensiya xaritalarini yaratish.

Bu o‘zgarish kontentga yo‘naltirilgan dasturlardan yumshoq, raqamli va fanlararo ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyaga asoslangan modellarga o‘tishni talab qiladi.

Raqamli ta’limning kelajagi o‘qituvchilarni yuqori sifatli qayta tayyorlashsiz, jumladan: raqamli vositalar va platformalarni o‘zlashtirish; raqamli didaktikani ishlab chiqish; onlayn kurslar va multimedia kontentini loyihalash; va raqamli etika va media savodxonligini rivojlantirishsiz imkonsizdir.

Raqamli ustozlikning rivojlanishi va pedagogik innovatsiyalar uchun universitetlararo markazlarni yaratish raqamlashtirish strategiyasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Raqamlashtirishning o‘sishi yangi ahloqiy va huquqiy muammolarni keltirib chiqarmoqda, jumladan: shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish; sun'iy

intellektdan foydalanish etikasi; onlayn muhitda akademik yaxlitlikni ta’minlash; raqamli inklyuziya va ta’limning mavjudligi.

Kengaytirilgan va virtual reallik (VR/AR) texnologiyalari, shuningdek, metaverse tushunchasi, o‘rganish immersiv raqamli muhitda amalga oshiriladigan ta’lim tajribasining tubdan yangi shakllarini ochmoqda.

Bunday texnologiyalar quyidagilarda qo‘llanilmoqda: muhandislik va tibbiy ta’lim (simulyatorlar, virtual laboratoriyalar); til o‘rganish (immersiv aloqa muhitlari); va fazoviy jihatdan murakkab fanlarni (arxitektura, geografiya, biologiya) o‘zlashtirish.

Ta’limning raqamli transformatsiyasi nafaqat yangi texnologiyalarni joriy etishni, balki ta’lim tizimining o‘zini chuqur qayta qurishni ham o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali va murakkab jarayondir. Ushbu maqolada raqamlashtirishning asosiy jihatlari, jumladan, qiyinchiliklar va imkoniyatlar, ta’lim muhitini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari va texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning eng yaxshi amaliyotlari ko‘rib chiqilgan.

Raqamlashtirish shaxsiylashtirilgan o‘qitish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, ta’lim resurslarining mavjudligini oshiradi va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Biroq, bu jarayon raqamli tengsizlik, xavfsizlik va axloqiy muammolar hamda o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini yangilash zarurati kabi bir qator qiyinchiliklar bilan birga keladi.

Kelajakda raqamli ta’lim sun'iy intellekt, kengaytirilgan va virtual haqiqatni joriy etish va turli ta’lim resurslari va vositalarini birlashtirgan yaxlit raqamli ekotizimlarni yaratish orqali rivojlanishda davom etadi. Ushbu texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun adolatlilik va ochiqlikni ta’minlash uchun axloqiy, huquqiy va ijtimoiy jihatlarni ham hisobga olish muhimdir.

Ta’limning raqamli transformatsiyasi nafaqat texnik, balki madaniy jarayon bo‘lib, ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilaridan moslashuvchanlikni, o‘zgarishga tayyorlikni va raqamli kompetensiyalarni doimiy ravishda rivojlantirishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. GryzlovaO. Yu., BelovaYe. S. Smart-технологии в образовании. – Санкт-Петербург, 2020.

2. Abduqodirov A. X. Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta’lim tizimi. – Toshkent, 2018.

3. Tashanov Sh. A. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining didaktik asoslari. – Toshkent, 2021.

4. Sattorova N. A. Smart-ta’limda o‘quvchilarning raqamli madaniyatini rivojlantirish. – Samarqand, 2022.

5. To‘xtasinov U. R. Smart-ta’limda o‘qituvchi kompetensiyasining rivoji. – Toshkent, 2023.

6. Xodjamqulova G. X. STEAM va smart-ta’lim integratsiyasi: pedagogik yondashuv. – Toshkent, 2023.

7. Begmamat, D., Sanjarbek, B., Utkirjon, U., Shohrukh, N., Umidjon, K. (2023). SMART Education Framework to Assess the Knowledge of Engineering Students. In: Cioboată, D. D. (eds) International Conference on Reliable Systems Engineering (ICoRSE) - 2023. ICoRSE 2023. Lecture Notes in Networks and Systems, vol 762. Springer, Cham. https://doi. org/10. 1007/978-3-031-40628-7_7

8. Begmamat, D., Sanjarbek, B., Utkirjon, U., Shohrukh, N., Umidjon, K. (2023). Comparative Analysis of SMART Education Framework and Traditional Assessment Techniques in Evaluating the Knowledge of Engineering Students. In: Cioboată, D. D. (eds) International Conference on Reliable Systems Engineering (ICoRSE) - 2023. ICoRSE 2023. Lecture Notes in Networks and Systems, vol 762. Springer, Cham. https://doi. org/10. 1007/978-3-031-40628-7_8

ZAMONAVIY SHAROITDA TA’LIMNING IQTISODIYOT VA JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Davlatova Gulnora Muhammedjanovna,
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti i. f. n.,
e-mail: g.davlyatova@ferpi.uz, +998 90 634 30 88.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda ta’limning ahamiyati va uning shaxs hamda jamiyatga ta’siri haqida so‘z yuritiladi. Unda ta’limning daromad topish va hayot sifatini oshirishdagi o‘rni ta’kidlangan. Shuningdek tadqiqotda intellektuallashuv, globallashuv va axborot jamiyatining shakllanishi sharoitida

ta’lim tizimining iqtisodiy o‘sish, raqobatbardoshlik va ijtimoiy barqarorlikka ta’siri tahlil qilinadi. O‘zbekiston misolida ta’lim sohasidagi islohotlar, qonuniy hujjatlar va milliy dasturlar tahlil qilinib, ularning jamiyat va iqtisodiyotga integratsiyasi ko‘rib chiqiladi. Xalqaro tajriba, jumladan, Bolonya jarayoni ham ta’lim tizimining integratsiyasi va sifat oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Statistik ma’lumotlar asosida ta’lim darajasining o‘sishi, savodxonlik ko‘rsatkichlari va ta’lim bozorining istiqbollari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, iqtisodiy rivojlanish, inson kapitali, axborot jamiyati, O‘zbekiston ta’lim islohotlari, intellektual kapital, raqobatbardoshlik.

РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ И ОБЩЕСТВА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ

Аннотация. В данном исследовании обсуждается важность образования и его влияние на личность и общество. В нем подчеркивается роль образования в получении дохода и повышении качества жизни. Также в исследовании анализируется влияние системы образования на экономический рост, конкурентоспособность и социальную стабильность в условиях интеллектуализации, глобализации и формирования информационного общества. На примере Узбекистана анализируются реформы в сфере образования, законодательные акты и национальные программы, рассматривается их интеграция в общество и экономику. Освещается международный опыт, в том числе роль Болонского процесса в интеграции и повышении качества системы образования. На основе статистических данных анализируется рост уровня образования, показатели грамотности и перспективы рынка образования.

Ключевые слова: образование, экономическое развитие, человеческий капитал, информационное общество, образовательные реформы Узбекистана, интеллектуальный капитал, конкурентоспособность.

THE ROLE OF EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY AND SOCIETY IN MODERN CONDITIONS

Abstract. This study discusses the importance of education and its impact on individuals and society. It highlights the role of education in generating income and improving the quality of life. The study also analyzes the impact of the

education system on economic growth, competitiveness and social stability in the context of intellectualization, globalization and the formation of an information society. Using the example of Uzbekistan, educational reforms, legislative acts and national programs are analyzed, and their integration into society and the economy is considered. International experience is highlighted, including the role of the Bologna process in integrating and improving the quality of the education system. Based on statistical data, the growth of the level of education, literacy rates and the prospects of the education market are analyzed.

Keywords: education, economic development, human capital, information society, educational reforms in Uzbekistan, intellectual capital, competitiveness.

Zamonaviy globallashuv, raqamlashtirish va bilimga asoslangan iqtisodiyot sharoitida ta’limning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotdagi ahamiyati beqiyos darajada ortib bormoqda. Bugungi kunda milliy raqobatbardoshlikning asosiy omili tabiiy resurslar yoki sanoat quvvati emas, balki inson kapitali sifati, ya’ni aholining bilim darajasi, malakasi va innovatsion salohiyatidir. Shu bois ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning samaradorligini oshirish va uni bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Birinchidan, zamonaviy ta’lim iqtisodiyotning barqaror o‘sishi uchun zarur bo‘lgan malakali kadrlarga bo‘lgan talabni qondiradi. Har bir tarmoq – sanoat, qishloq xo‘jaligi, bank-moliya sektori, raqamli iqtisodiyot – zamonaviy bilim va kompetensiyaga ega mutaxassislarni talab qiladi. Ta’lim tizimining sifati mamlakatning investitsion jozibadorligi, mehnat unumdorligi va texnologik yangilanish sur’atlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, raqamli transformatsiya davrida ta’lim innovatsiyalarni yaratish va joriy etishning asosiy manbai sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ilm-fan va ta’lim integratsiyasi, startaplar ekotizimi, tadqiqot institutlari faoliyatining kuchayishi jamiyatning intellektual salohiyatini oshirib, yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

Uchinchidan, ta’lim jamiyat barqarorligi va ijtimoiy farovonlikning muhim omili hisoblanadi. Sifatli ta’lim aholining ijtimoiy faolligini oshiradi, kambag‘allikni qisqartiradi, demokratik qadriyatlarni mustahkamlaydi, yoshlarni kasbga yo‘naltiradi va ularning global mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlaydi.

To‘rtinchidan, O‘zbekistonning 2030-yilgacha rivojlanish strategiyasida [1] ham ta’lim tizimini tubdan modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga moslashtirish, raqamli va innovatsion ta’limni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa mavzuning amaliy va strategik ahamiyatini yanada oshiradi.

Intellektuallashuv va globallashuvning zamonaviy tendensiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning murakkablashuvi mehnat va intellektual resurslarga bo‘lgan talablarning ortishini taqozo etmoqda. Bu o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim doirasida kadrlar tayyorlash sifatiga ham taalluqlidir. Ta’lim, malaka va kasbiy tajriba alohida korxona va tashkilotlarning ham, butun bir hududning ham raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillarga aylanmoqda. Ular barqaror iqtisodiy o‘sishga yordam beradi. Ta’lim bilimlar manbai bo‘lib xizmat qiladi, insonga ijtimoiy me’yorlarni o‘zlashtirishga yordam beradi, iqtisodiy faol hayotga kirishish uchun ishonchli asos yaratadi.

Davlat darajasida shuni ta’kidlash kerakki, mamlakat intellektual salohiyatni rivojlantirishdan manfaatdor. Bilim iqtisodiyotning asosiga aylanayotgan bugungi dunyoda ta’lim iqtisodiy o‘sish va milliy boylik to‘plashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Xalqning ma’naviy boyligi mamlakatda huquqiy madaniyatni shakllantiradi, fuqarolarning erkin, demokratik, huquqiy davlatda o‘z huquq va erkinliklarini anglab yetishiga yordam beradi. Bu huquq va erkinliklardan shaxsiy manfaat yo‘lida ham, jamiyat va davlat manfaatlari yo‘lida ham foydalanish lozim. Jamiyat darajasida ta’lim umuminsoniy ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bu jamiyat rivojiga hissa qo‘shadigan kuchli vositadir. Jamiyatning intellektual rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyotning asosidir.

Iqtisodiyot nuqtai nazaridan bilimlarni egallash jamiyat taraqqiyotida, uning iqtisodiy, ilmiy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Taniqli amerikalik iqtisodchi T. Stounerning ta’kidlashicha, postindustrial iqtisodiyot davrida bilimlar zamonaviy ishlab chiqarish tizimlari uchun asosiy resursga aylanib, yer, mehnat va kapital kabi an’anaviy resurslar o‘rnini egalladi [4].

Mutaxassislarning fikricha, hozirgi vaqtda milliy boylikning moddiy tarkibi o‘rtacha jahon darajasining atigi 16 foizini tashkil etadi. Shu bilan birga, intellektual kapital 64 foizni, tabiiy kapital esa 20 foizni tashkil etadi [5]. Iqtisodiy rivojlanish darajasining o‘sishi bilan intellektual kapitalning milliy boylikdagi

ulushi ham ortib boradi. Germaniya, Shveysariya, Yaponiya kabi davlatlarda bu ko‘rsatkich 80 foizga yetadi. Iqtisodiy farovonlik insonning yangi bilimlarni egallashi va ularni amalda qo‘llay olishi bilan bevosita bog‘liq. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarida global darajada ham, alohida davlatlar darajasida ham ta’lim inson taraqqiyoti konsepsiyasining asosiy elementi sifatida qaraladi.

Yurtimizda ham 2020-yil 23-sentyabrda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni [1] va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022 — 2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-sonli Farmoni [3] qabul qilinishi respublika ta’lim tizimini keng ko‘lamda isloh qilishning boshlang‘ich nuqtasi bo‘ldi.

Ta’lim inson taraqqiyotining asosi bo‘lib, u ko‘plab iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va gumanitar muammolarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu muammolar orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

Har bir mamlakatda fuqarolar uchun munosib turmush darajasi va sifatini ta’minlash;

- Samarali bandlik tizimini yaratish;
- Iqtisodiy rivojlanishning barqarorligi;
- Ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish;
- Fuqarolik jamiyatini mustahkamlash;
- Inson huquqlariga rioya qilish va ularni samarali amalga oshirish;
- Shaxs imkoniyatlarini to‘liq va ko‘p qirrali amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Zamonaviy dunyoda ta’lim darajasi sezilarli darajada oshdi. Buni turli statistik ma’lumotlar ham tasdiqlaydi, ular bu sohada katta yutuqlarga erishilganligini ko‘rsatadi. 1960-yilda 15 yoshdan oshgan odamlar uchun o‘rtacha o‘qish muddati to‘rt yildan kam edi. Ammo 2010-yilga kelib bu ko‘rsatkich ikki barobarga, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa uch barobarga, ya’ni 1, 9-yildan 6, 4-yilgacha o‘sdi. Bugungi kunda dunyo yoshlarining savodxonligi ma’lumotlar mavjud bo‘lgan 104 ta davlatning 63 tasida 95, 0 foizni, 35 ta davlatda esa 99, 0 foizni tashkil etadi.

Hozirgi kunda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda aholini boshlang‘ich ta’lim bilan qamrab olish darajasi 100 foizni tashkil etmoqda. Bolalar nafaqat maktabga boradilar, balki uni muvaffaqiyatli tamomlaydilar. Dunyoda

boshlang‘ich ma’lumotga ega bo‘lganlarning umumiy aholi sonidagi ulushi 84 foizdan 94 foizga oshdi.

Dunyoning turli davlatlarida aholining ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish tendensiyasi kuzatilmoqda, bu ushbu sohani davlat tomonidan moliyalashtirishning ko‘payishi bilan bog‘liq. O‘quvchilarning aksariyati davlat ta’lim muassasalari bilan qamrab olingan. Ayniqsa, davlat maktablarida o‘quvchilar ko‘p: boshlang‘ich maktablarda — umumiy o‘quvchilar sonining 92 foizi, o‘rta maktablarda — 85 foizi.

Tahlilchilarning prognozlariga ko‘ra, 2025-yilga borib jahon ta’lim bozori har yili 5, 2 foizga o‘sib, 7, 3 trillion dollarga yetadi. Bu raqamlar nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarni, balki millionlab o‘quvchilarning taqdirini ham aks ettiradi, ular uchun olingan bilimlarning sifati ularning kelajagini belgilaydi. Axir atigi yuz yil oldin ta’limga davlat xarajatlari yalpi ichki mahsulotning atigi 1 foizini tashkil qilardi.

Ma’lumki, aksariyat sanoati rivojlangan mamlakatlarda zamonaviy ta’lim tizimi XX asrning 50-70-yillarida shakllana boshlagan. Bu davrda inson kapitali nazariyasi paydo bo‘ldi, bu esa jamiyat va davlatning ta’limni rivojlantirishga bo‘lgan munosabatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Insonni yangi bilim va ko‘nikmalarga uzluksiz o‘rgatish jarayoni yanada chuqur va ko‘p qirrali bo‘lib qoldi, bu zamonaviy jamiyatda fanning ahamiyati ortib borayotgani bilan bog‘liq. Endi bu shunchaki bilim va ko‘nikmalarni to‘plash emas, balki odamlarni ilmiy bilimlar va ularni amalda qo‘llash ko‘nikmalari bilan boyitishdir. Buning uchun uzluksiz rivojlanuvchi va differensiatsiyalanuvchi ta’lim tizimi zarur. Iqtisodiyot sohasida kadrlar, jumladan, tadbirkorlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Zamonaviy jamiyatda bilim va axborot uning rivojlanishini belgilovchi muhim omilga aylandi. Bu axborot jamiyati nazariyalari va axborot sivilizatsiyasining vujudga kelishida o‘z aksini topgan. Axborotlashgan jamiyat davrida doimiy ravishda yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash sanoat iqtisodiyoti xodimlaridan tortib, tadbirkorlar va biznes rahbarlarigacha majburiy bo‘lib qolmoqda. Axborotdan samarali foydalanishga asoslangan iqtisodiy o‘sishning yangi modeli barchadan uzluksiz malaka oshirishni talab qiladi.

Zamonaviy axborot jamiyati sharoitida ta’lim sohasi iqtisodiyot bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib bormoqda. Ta’lim iqtisodiy o‘sishning asosiy

omillaridan biriga aylanmoqda. Zamonaviy axborot infratuzilmasining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish istagi, balki biznesning yangi texnologiyalar, zamonaviy texnik tizimlar, shuningdek, ta’limsiz erishib bo‘lmaydigan muayyan bilim, ko‘nikma va xatti-harakatlar modellarini qo‘llashga bo‘lgan ehtiyoji bilan ham bog‘liq.

Shunday qilib, jamiyat taraqqiyotida bilim va axborotning ahamiyati ortib borishi va ularning asta-sekin inson kapitaliga aylanishi zamonaviy dunyoda ta’limning rolini tubdan o‘zgartirmoqda. Albatta, turli mamlakatlar va mintaqalarda ta’lim tizimi o‘ziga xos xususiyatlarga ega, ammo yangi axborot sivilizatsiyasining paydo bo‘lishi ta’limni ijtimoiy hayotning markaziy elementiga aylantirdi.

Ushbu jarayonlar ko‘plab mamlakatlar uchun umumiy ekanligini hisobga olib, 1990-yillarning oxiriga kelib Yevropa qit’asida Bolonya jarayoni belgisi ostida Yevropa ta’lim makoni shakllana boshladi. 1999-yilda Italiyaning Bolonya shahrida oliy ta’lim uchun mas’ul bo‘lgan Yevropa vazirlarining birinchi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi va unda Deklaratsiya qabul qilindi. Jarayonning mohiyati oliy ta’limning umumevropa tizimini shakllantirishdan iborat bo‘lib, u kelajakda Yevropa oliy ta’lim zonasi deb ataladi va faoliyat yuritishning asosiy tamoyillari to‘plamiga asoslanadi [6,33].

Demak, ta’lim axborotlashgan jamiyatni rivojlantirishga qaratilgan barcha milliy va xalqaro loyihalarning asosidir. Ta’limning qanchalik yaxshi tashkil etilishiga jamiyatimizning kelajagi bog‘liq. Ta’lim xizmatlari alohida shaxslarning ham, butun jamiyatning ham ehtiyojlariga javob berishi kerak.

Zamonaviy dunyoda sezilarli iqtisodiy o‘zgarishlar yuz bermoqda va inson kapitalining roli tobora ortib bormoqda. Jahon tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, 192 mamlakatda iqtisodiy o‘sishning atigi 16 foizi asbob-uskunalar, infratuzilma va boshqa moddiy resurslar kabi moddiy aktivlar bilan bog‘liq. Yana 20 foizi tabiiy resurslar bilan bog‘liq. Qolgan 64 foizi inson omili, xususan, iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi mumkin bo‘lgan yangi turdagi tadbirkorlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq [7,48].

Ushbu muhim xulosa va dalillar turli mamlakatlar hukumatlarini biznes-ta’lim tizimini rivojlantirish orqali biznes sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga undaydi. Fikrimizcha

O‘zbekistonda ta’lim sifatini yaxshilash va iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

1. Bilim va ko‘nikmalarga bo‘lgan talabni mhnat bozor bilan uyg‘unlashtirish. O‘quv dasturlari mehnat bozori talablariga mos kelishi uchun ularni muntazam ravishda yangilab turish muhim. Korxonalar, ta’lim muassasalari va talabalar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish zarur. Bu sanoat, IT, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish kabi turli sohalarda ko‘proq mutaxassislar tayyorlash imkonini beradi.

2. Ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. Raqamli ta’lim resurslari, onlayn platformalar va ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va qo‘llash kerak. Ular ta’limning barcha bosqichlarida mavjud bo‘lishi kerak.

3. Ta’limga ko‘proq sarmoya kiritish, davlat va xususiy kompaniyalar bilan hamkorlikni rivojlantirish kera,. Davlat biznesga yangi ta’lim muassasalarini ochish va ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishda yordam berishi mumkin.

4. O‘qituvchilik kasbining obro‘sini oshirish muhim. Agar munosib maosh va xalqaro dasturlarda ishtirok etish imkoniyati bo‘lsa, buni amalga oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ta’limni nafaqat ma’naviy-ma’rifiy, balki mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy strategik investitsiya manbai sifatida qarash zarur. Ta’lim siyosatini yugoridagi yo‘nalishlar bo‘yicha izchil amalga oshirish O‘zbekistonni bilim asosida rivojlanuvchi, raqobatbardosh iqtisodiyotga ega davlat darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 23. 09. 2020 yildagi O‘RQ-637-son. https://lex. uz/docs/-5013007

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 28. 01. 2022 yildagi PF-60-son. https://lex. uz/docs/-5841063

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 11. 05. 2022 yildagi PF-134-son. https://president. uz/oz/lists/view/5199

4. Стоуньер, Т. (1986). Информационное богатство: профиль постиндустриальной экономики. Новая технократическая волна на Западе, 5.

5. Драйверы инклюзивного развития: [монография] / Т. Н. Долинина. — Минск: БГТУ, 2019. — 252 с.

6. Нажимова, Н., Токарев, С., & Кулигина, Н. (2022). Современный вуз и качество образования в условиях Болонского соглашения. Norwegian Journal of Development of the International Science, (86), 29-35.

7. Исроилов, М. Я. (2019). Образование и его развитие в Узбекистане. Academy, (5 (44)), 48-49.

BADIIY VA ILMIY-OMMABOP MATNLAR ASOSIDA O‘QUVCHILARNING O‘QISH MOTIVATSIYASINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Muxtoriy Mohro‘yi Sodirzoda
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
0000-0002-1656-1991
m_muxtoriy@mail. ru

Annotatsiya Ushbu maqolada badiiy va ilmiy-ommabop matnlar asosida o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish texnologiyasining mazmuni va pedagogik imkoniyatlari yoritib berilgan. O‘qish motivatsiyasi shaxsning bilishga bo‘lgan ehtiyoji, hissiy munosabati va tafakkur faolligi bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida talqin qilinadi. Badiiy matnlarning emotsional-ta’sirchanlik xususiyati hamda ilmiy-ommabop matnlarning bilishga undovchi mazmuni asosida o‘quvchilarda o‘qishga qiziqishni barqaror shakllantirish mexanizmlari asoslab berilgan. O‘quvchilarning matn bilan mustaqil ishlashga bo‘lgan ehtiyoji kuchaygani, savol berish faolligi, tahliliy fikrlash va baholash ko‘nikmalari rivojlangani aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: o‘qish motivatsiyasi, badiiy matn, ilmiy-ommabop matn, ta’lim texnologiyasi, bilishga qiziqish, tahliliy fikrlash, emotsional idrok, mustaqil o‘qish, pedagogik samaradorlik, matn bilan ishlash.

ТЕХНОЛОГИЯ ПОВЫШЕНИЯ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ МОТИВАЦИИ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ И НАУЧНО-ПОПУЛЯРНЫХ ТЕКСТОВ

Аннотация. В данной статье раскрываются содержание и педагогические возможности технологии повышения читательской мотивации учащихся на основе художественных и научно-популярных текстов. Читательская мотивация рассматривается как процесс, неразрывно связанный с познавательной потребностью личности, её эмоциональным отношением и активностью мышления. На основе эмоционально-воздействующих особенностей художественных текстов и познавательно-стимулирующего содержания научно-популярных текстов обосновываются механизмы устойчивого формирования интереса учащихся к чтению. Установлено, что у учащихся усиливается потребность в самостоятельной работе с текстом, возрастает активность постановки вопросов, развиваются навыki аналитического мышления и оценочной деятельности.

Ключевые слова: мотивация чтения, художественный текст, научно-популярный текст, образовательная технология, познавательный интерес, аналитическое мышление, эмоциональное восприятие, самостоятельное чтение, педагогическая эффективность, работа с текстом

TECHNOLOGY FOR ENHANCING STUDENTS’ READING MOTIVATION BASED ON LITERARY AND POPULAR SCIENCE TEXTS

Abstract. This article examines the content and pedagogical potential of a technology aimed at enhancing students’ reading motivation through the use of literary and popular science texts. Reading motivation is interpreted as a process that is closely connected with an individual’s cognitive needs, emotional attitude, and intellectual activity. On the basis of the emotional and expressive features of literary texts and the cognitively stimulating content of popular science texts, the mechanisms for the stable formation of students’ interest in reading are substantiated. It is revealed that students’ need for independent work with texts increases, while their activity in asking questions, as well as their analytical thinking and evaluative skills, are effectively developed.

Keywords: reading motivation, literary text, popular science text, educational technology, cognitive interest, analytical thinking, emotional perception, independent reading, pedagogical effectiveness, text-based work

Boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta’lim bosqichida o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan munosabati, avvalo, ularning ichki motivatsiyasi bilan belgilanadi. So‘nggi

yillarda kuzatilayotgan muhim muammolardan biri shundaki, o‘quvchilar texnik jihatdan o‘qishni o‘rganayotgan bo‘lsalar-da, o‘qishga bo‘lgan qiziqishning barqaror emasligi, matn bilan ishlashga nisbatan befarqlik va tashqi rag‘batlarga haddan tashqari bog‘lanish holatlari tobora kuchayib bormoqda. O‘quvchi matnni o‘qiydi, biroq uning mazmuniga chuqur kirib bormaydi, muallif g‘oyasini anglamaydi va shaxsiy munosabat bildirishga ehtiyoj sezmaydi[3,148]. Badiiy va ilmiy-ommabop matnlar asosida o‘quvchilarning o‘qish motivatsiyasini oshirishga yo‘naltirilgan maxsus pedagogik texnologiyani ishlab chiqish zarurati dolzarb ilmiy muammo sifatida yuzaga chiqadi.

Badiiy va ilmiy-ommabop matnlar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarning ichki o‘qish motivatsiyasini faollashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyaning mazmuni, mexanizmlari va samaradorligini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. O‘quvchilarning mavjud o‘qish motivatsiyasi darajasi aniqlanib, asosiy muammo sifatida o‘qishga tashqi rag‘bat ustuvorligi, ichki qiziqishning sustligi, badiiy va ilmiy-ommabop matnlar mazmunining shaxsiy tajriba bilan yetarlicha bog‘lanmasligi aniqlandi. Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan pedagogik texnologiya hissiy-jalb etish, intellektual faollashtirish va refleksiv baholash kabi uch asosiy yo‘nalishga tayandi. Badiiy matnlar orqali o‘quvchining emotsional olami, tasavvuri va empatiya qobiliyati harakatga keltirildi. Ilmiy-ommabop matnlar esa o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan tabiiy qiziqishini, sabab-oqibat bog‘lanishlarini izlash, savol berish va javob topishga intilish ehtiyojini faollashtirdi[1,156]. Matnlar bilan ishlash jarayonida muammoli vaziyatlar yaratildi, taxmin ilgari surish, dalillash, qiyoslash, baholash kabi tafakkur amallari izchil qo‘llanildi. O‘quvchilar matn mazmunini shunchaki qayta aytib berish bilan cheklanmay, undagi g‘oya, asosiy fikr, muallif pozitsiyasi hamda yashirin mazmun qatlamlarini ochishga yo‘naltirildi.

Pedagogik tajriba davomida texnologiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida interfaol muloqot muhitini yaratishga alohida e’tibor qaratildi. O‘quvchi matn bilan yolg‘iz qolmadi, balki tengdoshlari bilan fikr almashdi, bahs yuritdi, qarama-qarshi nuqtai nazarlarni solishtirdi. Oqibatda o‘qish faoliyati individuallikdan ijtimoiy tafakkur darajasiga ko‘tarildi[2,228]. O‘qish jarayonida o‘quvchilar o‘z fikrining qadrli ekanligini his qildi, bu esa ichki motivatsiyaning tabiiy kuchayishiga olib keldi. Tajriba jarayonida badiiy matnlar bilan ishlashda personajlarga baho berish, voqealarning muqobil rivojini tasavvur qilish, syujet

davomiga ijodiy yechim taklif qilish kabi topshiriqlar qo‘llandi[4,142]. Ilmiy-ommabop matnlar bilan ishlashda esa sabablarni izlash, tajriba natijalarini tahlil qilish, kundalik hayot bilan bog‘lash asosiy faoliyat turiga aylandi.

Badiiy va ilmiy-ommabop matnlar asosida o‘quvchilarning o‘qish motivatsiyasini oshirish texnologiyasi asosida tashkil etilgan o‘qish mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabati barqarorlashdi, matn bilan mustaqil ishlashga bo‘lgan ehtiyoj kuchaydi, o‘qishga tashqi majburiyat emas, balki shaxsiy ehtiyoj sifatida qarash shakllandi. O‘quvchilarda savol berish faolligi oshdi, matn asosida mulohaza yuritish, dalillash, xulosa chiqarish ko‘nikmalari rivojlandi. Ilmiy-ommabop matnlar asosida olib borilgan ishlar o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirib, ularni oddiy kuzatuvdan tahliliy fikrlash darajasiga olib chiqdi. Badiiy matnlar bilan ishlash esa o‘quvchilarning hissiy kechinmalarini boyitib, axloqiy baholash va empatiya ko‘nikmalarini shakllantirdi.

O‘qish motivatsiyasi o‘quvchining shaxsiy rivoji, qadriyatlar tizimi, emotsional ehtiyojlari va tafakkur faoliyati bilan uzviy bog‘liq murakkab psixopedagogik jarayondir. Badiiy va ilmiy-ommabop matnlar esa ushbu jarayonni faollashtiruvchi eng samarali vositalardan biri ekanligi amaliy va nazariy jihatdan asoslandi. Badiiy matnlar o‘quvchini ichki kechinmalar olamiga olib kirsa, ilmiy-ommabop matnlar unga bilish zavqini, kashfiyot hissini beradi. Ushbu ikki yo‘nalish uyg‘unligi o‘qish motivatsiyasining barqaror shakllanishiga olib keladi.

Badiiy va ilmiy-ommabop matnlar asosida o‘quvchilarning o‘qish motivatsiyasini oshirish texnologiyasi o‘quvchilarda o‘qishga bo‘lgan ichki ehtiyojni shakllantirish, mustaqil fikrlash, tahlil qilish, baholash va ijodiy yondashish kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligi tajriba orqali isbotlandi[5,134]. Mazkur texnologiya o‘qish jarayonini majburiyat doirasidan chiqarib, shaxsiy taraqqiyot vositasiga aylantiradi hamda zamonaviy ta’limning eng muhim talablariga to‘liq javob beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayeva Sh. Boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Fan va ta’lim, 2020. – 156 b.
2. Davletshin M. Umumiy pedagogik psixologiya. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2017. – 228 b.

3. Karimova D. Ilmiy-ommabop matnlar asosida o‘qish kompetensiyalarini shakllantirish texnologiyasi. – Toshkent: Pedagogika, 2022. – 148 b.

4. Qodirova F., Ne’matova G. O‘quvchilarda o‘qishga motivatsiya va mustaqil fikrlashni shakllantirish asoslari. – Toshkent: Universitet, 2019. – 142 b.

5. Zunnunov R. Badiiy matn orqali o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya, 2021. – 134 b.

ПРАКТИЧЕСКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ФАСИЛИТАТИВНОГО ПОДХОДА

Рахманкулова Нафиса Хасановна
В. о. доцента кафедры Начального образования Кокандского государственного университета

Аннотация. Статья посвящена рассмотрению практических аспектов применения методики развития когнитивной компетентности будущих учителей на основе фасилитативного подхода. Описаны ключевые механизмы формирования когнитивных умений, условия эффективной реализации фасилитации в образовательном процессе, а также результаты апробации данной методики в педагогических вузах. Результаты исследования подтверждают эффективность фасилитативных стратегий в развитии критического мышления, рефлексивных навыков, самостоятельности и способности к решению педагогических задач.

Ключевые слова: фасилитативный подход; когнитивная компетентность; профессиональная подготовка учителей; когнитивное развитие; педагогическая фасилитация; критическое мышление.

Practical Application of the Facilitative Approach–Based Methodology for Developing Cognitive Competence in Future Teachers

Abstract. The article examines the practical application of a facilitative-approach-based methodology aimed at developing cognitive competence in future

teachers. It analyzes pedagogical conditions, tools, and techniques that enhance cognitive activity, foster critical and creative thinking, and promote learner autonomy and reflective skills. The study presents the results of implementing the methodology in the teacher training process and highlights its advantages, effectiveness, and impact on the professional development of prospective educators. Special emphasis is placed on the design of learning tasks, interactive communication forms, and the creation of a facilitative educational environment that contributes to improving the quality of teacher training.

Keywords: facilitative approach; cognitive competence; teacher training; cognitive development; pedagogical facilitation; critical thinking.

Fasilitativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasining amaliy qo‘llanilishi

Annotatsiya. Maqola bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan fasilitativ yondashuv metodikasining amaliy qo‘llanishiga bag‘ishlangan. Unda kognitiv jarayonlarni faollashtiruvchi pedagogik shart-sharoitlar, vositalar va metodlar tahlil qilinadi, tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish, mustaqillik va refleksivlikni rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqotda metodikaning o‘quv jarayoniga tatbiq etilishi natijalari, uning afzalliklari, samaradorligi hamda bo‘lajak pedagoglar kasbiy rivojlanishiga ta’siri ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, o‘quv topshiriqlarini yaratish, interaktiv muloqot shakllari va fasilitativ ta’lim muhitini tashkil etishning o‘qituvchilar tayyorgarligi sifatini oshirishdagi ahamiyati alohida ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: fasilitativ yondashuv; kognitiv kompetensiya; bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorgarligi; kognitiv rivojlanish; pedagogik fasilitatsiya; tanqidiy fikrlash.

Современные требования к качеству педагогического образования определяют необходимость подготовки учителя как высококвалифицированного специалиста, обладающего не только профессионально-предметными знаниями, но и сформированной когнитивной компетентностью. Когнитивная компетентность охватывает способность анализировать, интерпретировать, сопоставлять, делать выводы, осуществлять рефлексию и принимать обоснованные педагогические решения.

В условиях трансформации образовательной среды особую актуальность приобретает фасилитативный подход – подход, предполагающий создание педагогом условий для активного, автономного и осмысленного познания студентов [Брушлинский, 2015; 30-31]. При таком подходе учитель рассматривается как помощник, модератор и координатор познавательной деятельности.

Несмотря на растущий интерес к фасилитации, практические методики, направленные на развитие когнитивной компетентности будущих учителей, разработаны недостаточно. Это определяет актуальность исследования и необходимость внедрения новых педагогических решений.

Фасилитативный подход опирается на идеи гуманистической педагогики и конструктивистской модели обучения, в рамках которой студент выступает как активный субъект, самостоятельно конструирующий знание [1,13]. Основные принципы – диалогичность, вариативность, рефлексивность, субъектность и поддержка индивидуального темпа развития.

В контексте подготовки будущих учителей фасилитация направлена на развитие следующих когнитивных качеств:

– критического мышления;

– аналитических навыков;

– способности к интерпретации педагогических ситуаций;

– информационно-аналитической компетентности;

– рефлексивности и самооценки деятельности [2, 2].

В рамках исследования была разработана и апробирована методика, включающая следующие фасилитативные техники:

– Метод когнитивного моделирования

Студенты создают когнитивные карты, схемы и модели педагогических ситуаций, что способствует развитию структурного и логического мышления [3, 30].

– Диалогово-дискуссионные практики

Используются дебаты, кейс-дискуссии, педагогические диалоги, позволяющие развивать умение аргументировать, сравнивать точки зрения, делать выводы [4, 40].

– Проблемно-ситуационный анализ (case-study)

Работа с реальными педагогическими кейсами развивает способность анализировать причины, прогнозировать последствия, находить решения.

– Рефлексивные практики

Дневники рефлексии, «микропреподавание» с последующим анализом, самооценочные карты педагогических действий.

– Средства цифровой фасилитации

Платформы Mentimeter, Padlet, Miro позволяют студентам совместно создавать цифровые когнитивные продукты.

Для успешного применения методики необходимы следующие условия:

– фасилитативная позиция преподавателя: поддержка, сопровождение, создание доверительной среды;

– вариативность учебных форм и гибкость образовательного процесса;

– обеспечение студента возможностью выбора, самостоятельного планирования и рефлексии;

– наличие цифровых инструментов для совместной работы [5,53].

В рамках курса «Педагогическая психология» и «Методика обучения» были введены фасилитативные модули, включающие:

– проблемно-ориентированные задания;

– ролевые педагогические ситуации;

– групповое проектное обучение;

– упражнения «Когнитивная лестница», «Анализ противоречий», «Слепая зона восприятия».

Анализ данных (анкетирование, тестирование, экспертная оценка) показал:

– повышение уровня развития критического мышления (в среднем на 23%);

– развитие рефлексивных навыков у 78% испытуемых;

– рост самостоятельности при решении педагогических задач;

– улучшение качества интерпретации педагогических ситуаций.

Студенты отмечали, что фасилитативные стратегии позволили им активнее участвовать в учебном процессе, лучше понимать собственные когнитивные затруднения и пути их преодоления.

Полученные результаты показывают, что фасилитативный подход способствует осознанному формированию когнитивной компетентности. При этом важную роль играет готовность преподавателя к отказу от традиционной директивной модели обучения и переходу к позициям партнёрства.

Однако методика требует дальнейшей адаптации для различных дисциплин и может быть расширена за счёт внедрения игровых, симуляционных и искусственно-интеллектуальных инструментов.

Фасилитативный подход представляет собой эффективный инструмент развития когнитивной компетентности будущих учителей. Разработанная методика показала высокие результаты в формировании аналитических, интерпретационных и рефлексивных умений студентов педагогических вузов.

Ключевые выводы:

– фасилитация усиливает субъектную позицию студента;

– способствует развитию критического и аналитического мышления;

– обеспечивает глубокое понимание профессиональных задач;

– формирует навыки самостоятельного принятия педагогических решений.

Методика может быть внедрена в программы педагогического образования, модифицирована для онлайн-обучения, а также использоваться в курсах повышения квалификации учителей.

Перспективы дальнейшего исследования:

– расширение выборки студентов;

– развитие цифровых фасилитативных инструментов;

– изучение влияния фасилитации на эмоциональный интеллект педагогов;

– сравнение эффективности методики в разных культурных контекстах.

Список использованной литературы:

1. Асмолов А. Г. Психология личности: культурно-исторический подход. – М. : Смысл, 2020.

2. Брушлинский А. В. Психология мышления и проблемность обучения. – М. : Педагогика, 2015.

3. Захарова И. Г. Образовательные технологии: системный подход. – М. : Академия, 2021.
4. Лернер И. Я. Дидактические основы методов обучения. – М. : Педагогика, 2016.
5. Матюшкин А. М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении. – М. : Педагогика, 2017.
6. Носов Н. А. Когнитивная психология: основы и перспективы. – М. : Юрайт, 2020.

TALABALARNI KASBIY INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHNING METODIK JIHATLARI

Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna
Andijon davlat tibbiyot instituti
“O‘zbek tili va adabiyoti, tillar” kafedrasi o‘qituvchisi
Pedagogik fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Murodjonov Temur Malik G‘iyosiddin o‘g‘li
Andijon davlat tibbiyot instituti
Davolash fakulteti talabasi
e-mail: murodjonov2006@gmail. com

Annotatsiya. Zamonaviy mehnat bozori yuqori darajada raqobatbardosh bo‘lib, ta’lim muassasalaridan mutaxassislarni nafaqat kasbiy bilim, balki innovatsion faoliyatga tayyorlik (ijodiy muammolarni hal qilish va yangi g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyati) bilan ta'minlashni talab qiladi. Ushbu maqolaning maqsadi talabalarni kasbiy innovatsion faoliyatga samarali tayyorlashning metodik jihatlarini nazariy asoslash va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda muammoli ta’lim, loyihaviy yondashuv (*Project-Based Learning*), keys-stadi usuli hamda dizayn-fikrlash (*Design Thinking*) texnologiyalari kabi innovatsion didaktik metodlar tahlil qilingan. Bu metodlar talabalarning faol o‘rganishini ta'minlash, ularning tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, amaliy kasbiy muammolarni hal qilishda jamoaviy ishlash qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Maqolada, shuningdek, ta’lim jarayonini real ishlab chiqarish sharoitlari (texnoparklar, startap-markazlar) bilan integratsiyalash orqali tayyorgarlik samaradorligini oshirish mexanizmlari yoritilgan. Xulosa o‘rnida, ilgari surilgan metodik yondashuvlarni OTM ta’lim

amaliyotiga tatbiq etish kasbiy innovatsion kompetensiyalarga ega bo‘lgan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyatga egaligi ta'kidlangan.

Kalit so‘zlar: Kasbiy innovatsion faoliyat, Metodik jihatlar, Loyihaviy ta’lim (PBL), Dizayn-fikrlash, Innovatsion kompetensiya, Muammoli ta’lim, Talabalarni tayyorlash.

Аннотация. Современный рынок труда является высококонкурентным и требует от образовательных учреждений подготовки специалистов, обладающих не только профессиональными знаниями, но и готовностью к инновационной деятельности (способностью творчески решать проблемы и внедрять новые идеи на практике). Целью данной статьи является теоретическое обоснование методических аспектов и разработка практических рекомендаций по эффективной подготовке студентов к профессиональной инновационной деятельности. В исследовании проанализированы инновационные дидактические методы, такие как проблемное обучение, проектный подход (*Project-BasedLearning*), метод кейс-стади и технологии дизайн-мышления (*DesignThinking*). Эти методы направлены на обеспечение активного обучения студентов, развитие их навыков критического и творческого мышления, а также формирование способности к командной работе при решении реальных профессиональных задач. В статье также освещены механизмы повышения эффективности подготовки путем интеграции учебного процесса с реальными производственными условиями (технопарки, стартап-центры). В заключение подчеркивается, что внедрение предложенных методических подходов в образовательную практику вузов имеет решающее значение для подготовки конкурентоспособных кадров с профессиональными инновационными компетенциями.

Ключевые слова: Профессиональная инновационная деятельность, Методические аспекты, Проектное обучение (PBL), Дизайн-мышление, Инновационная компетенция, Проблемное обучение, Подготовка студентов.

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli transformatsiya davrida o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari va metodologik yondashuvlari tahlil qilinadi. Raqamli ta’lim muhitida pedagogning kasbiy salohiyati, raqamli savodxonligi va innovatsion faoliyatga tayyorligini oshirishga doir ilmiy qarashlar yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy raqamli vositalar ta’sirida o‘qituvchining pedagogik mahorati, refleksiv tafakkuri va kommunikativ kompetensiyalarining o‘zgarish jarayoni tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, kasbiy kompetensiya, raqamli savodxonlik, pedagogik faoliyat, innovatsion ta’lim, refleksiv yondashuv.

Annotation. This article analyzes the theoretical foundations and methodological approaches to developing a teacher's professional competence in the era of digital transformation. Scientific views on increasing a teacher's professional potential, digital literacy and readiness for innovative activity in a digital educational environment are highlighted. Also, the process of changing a teacher's pedagogical skills, reflexive thinking and communicative competencies under the influence of modern digital tools is analyzed.

Keywords: digital transformation, professional competence, digital literacy, pedagogical activity, innovative education, reflexive approach.

Аннотация. В статье анализируются теоретические основы и методические подходы к развитию профессиональной компетентности педагога в эпоху цифровой трансформации. Освещены научные взгляды на

повышение профессионального потенциала педагога, его цифровой грамотности и готовности к инновационной деятельности в цифровой образовательной среде. Также анализируется процесс изменения педагогических навыков, рефлексивного мышления и коммуникативных компетенций педагога под влиянием современных цифровых инструментов.

Ключевые слова: цифровая трансформация, профессиональная компетентность, цифровая грамотность, педагогическая деятельность, инновационное образование, рефлексивный подход.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida yuz berayotgan **raqamli transformatsiya** o‘qituvchining kasbiy faoliyatini tubdan o‘zgartirmoqda. Ta’lim jarayoniga sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar, masofaviy platformalar, virtual laboratoriyalar kirib kelishi o‘qituvchidan nafaqat fan sohasida chuqur bilim, balki **raqamli kompetensiya, innovatsion tafakkur va refleksiv tahlil qilish qobiliyati**ni talab etadi. Shu bois, bugungi kunda o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini raqamli muhitda rivojlantirish **pedagogika nazariyasining strategik yo‘nalishlaridan biri** hisoblanadi. Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining nazariy asoslari, shakllanish bosqichlari hamda rivojlantirish mexanizmlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

1. Kasbiy kompetensiya tushunchasining nazariy mohiyati. **Kasbiy kompetensiya — bu o‘qituvchining kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, qadriyat va shaxsiy sifatlar majmuasidir.**

Pedagogik adabiyotlarda (Qodirova, 2022; Hasanov, 2024) o‘qituvchi kompetensiyasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat deb ko‘rsatiladi:

Fan kompetensiyasi – o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur nazariy va amaliy bilimga ega bo‘lish;

Pedagogik kompetensiya – o‘qitish metodlari va texnologiyalarini to‘g‘ri tanlash va qo‘llash;

Kommunikativ kompetensiya – o‘quvchilar, hamkasblar va ota-onalar bilan samarali muloqot o‘rnatish;

Axborot-texnologik kompetensiya – raqamli vositalar, onlayn resurslar va sun’iy intellekt tizimlaridan foydalana olish;

Refleksiv kompetensiya – o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va o‘z-o‘zini rivojlantirishga qodirlik.

2. Raqamli transformatsiya va o‘qituvchi faoliyatidagi o‘zgarishlar

Raqamli transformatsiya — bu ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali o‘qituvchining kasbiy roli, metodik yondashuvlari va muloqot madaniyatining sifat jihatdan yangilanishidir. Raqamli transformatsiya o‘qituvchi faoliyatida quyidagi o‘zgarishlarni keltirib chiqardi:

Soha	**O‘zgarishlar**
O‘qitish metodikasi	Traditsion darsdan gibrid va masofaviy o‘qitish modeliga o‘tish
Baholash tizimi	AI asosida avtomatik tahlil va diagnostika vositalaridan foydalanish
O‘qituvchi roli	“Bilim beruvchi”dan “o‘quv jarayoni dizayneri”ga aylanish
Muloqot shakli	Onlayn interaktiv platformalarda pedagogik kommunikatsiya
Kasbiy o‘sish	Doimiy raqamli o‘quv va o‘zini rivojlantirish jarayoni

Bu o‘zgarishlar o‘qituvchidan **moslashuvchanlik, o‘zgaruvchan sharoitga tayyorlik, raqamli madaniyat** va **innovatsion fikrlash**ni talab etadi.

3. O‘qituvchining raqamli kompetensiyasini rivojlantirish nazariy asoslari

Raqamli kompetensiya — bu o‘qituvchining raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayonida maqsadli va samarali qo‘llash qobiliyatidir. UNESCO (2023) tomonidan ishlab chiqilgan “Teacher ICT Competency Framework”da bu kompetensiya quyidagi bosqichlarda shakllanishi ta’kidlanadi:

Texnologik savodxonlik – asosiy raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmalari;

Integratsiya – texnologiyalarni dars jarayoniga to‘g‘ri singdirish;

Innovatsiya – yangi raqamli metod va texnologiyalarni yaratish va moslashtirish.

Shu nuqtai nazardan, o‘qituvchining raqamli kompetensiyasini rivojlantirishda quyidagi nazariy tamoyillar muhim:

Inson markaziyligi tamoyili – texnologiya emas, inson faoliyati markazda bo‘lishi kerak;

Uzluksizlik tamoyili – raqamli ko‘nikmalarni muntazam yangilab borish;

Refleksiya tamoyili – o‘z faoliyatini raqamli kontekstdan tahlil qilish.

4. Amaliy mexanizmlar va model taklifi

Raqamli transformatsiya sharoitida o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi amaliy mexanizmlar taklif etiladi:

Raqamli treninglar va master-klasslar — yangi platformalar, sun’iy intellekt vositalari va AR/VR texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha o‘qituvchilar uchun doimiy o‘quv kurslari tashkil etish.

Mentorlik tizimi — ilg‘or pedagoglar tomonidan raqamli kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha individual yordam.

Professional tarmoq hamjamiyatlari — onlayn pedagogik forumlar va tajriba almashish platformalari.

Refleksiv monitoring tizimi — o‘qituvchi faoliyatini sun’iy intellekt orqali tahlil qilish va rivojlanish dinamikasini kuzatish.

Ushbu mexanizmlar asosida quyidagi **“Raqamli kompetensiya modeli”** taklif etiladi: **Bilim → Ko‘nikma → Refleksiya → Integratsiya → Innovatsiya**

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim jarayoniga integratsiyasi o‘qituvchilarning ish uslublarini tubdan o‘zgartirib, yangi pedagogik yondashuvlarni qo‘llash imkonini yaratmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalari yordamida o‘qituvchilar nafaqat o‘quv materiallarini tayyorlash va taqdim etishda samaradorlikni oshiradilar, balki o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu boisdan, kasbiy rivojlanish strategiyalarida o‘qituvchilarning texnologik malakalarini oshirish, yangi dasturiy ta’minotlar va platformalarni o‘zlashtirish muhim o‘rin tutadi. Sun’iy intellektning ta’lim sohasida qo‘llanilishi o‘qituvchilarning ishini yanada samaraliroq qilishga xizmat qiladi. Sun’iy intellekt tizimlari o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, individual o‘quv yo‘nalishlarini ishlab chiqish va baholash jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Bu esa o‘qituvchilarga ko‘proq ijodiy va pedagogik vazifalarga e’tibor qaratish imkonini beradi. Kasbiy rivojlanish strategiyalarida sun’iy intellekt texnologiyalarini o‘rganish va ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish ko‘zda tutiladi, bu esa o‘qituvchilarning zamonaviy raqamli pedagog sifatida shakllanishini ta’minlaydi. [2,78] Raqamli pedagogika vositalari o‘qituvchilarga yangi metod va texnologiyalarni qo‘llash imkonini beradi. Masalan, interaktiv ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar, onlayn kurslar va multimedia resurslari ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida ushbu vositalarni o‘zlashtirish va

samarali qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimdir. Shuningdek, raqamli pedagogika yordamida o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilishga o‘rgatish mumkin. Kasbiy rivojlanish strategiyalarining asosiy yo‘nalishlaridan biri o‘qituvchilarning doimiy ta’lim olishini ta’minlashdir. Raqamli transformatsiya sharoitida bu jarayon onlayn va aralash ta’lim shakllarida amalga oshirilmoqda. O‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan vebinarlar, onlayn treninglar, sertifikatlash kurslari va professional hamjamiyatlar faoliyati ularning malakasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu esa o‘qituvchilarning o‘z bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishiga yordam beradi.

Raqamli transformatsiya sharoitida o‘qituvchi nafaqat ta’lim jarayonining ishtirokchisi, balki uni loyihalovchi, boshqaruvchi va innovatsiyalarni joriy etuvchi shaxs sifatida shakllanmoqda. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish endilikda **faqat pedagogik tajriba bilan emas, balki raqamli savodxonlik, texnologik fikrlash va refleksiv madaniyat bilan** uzviy bog‘liq. Shu bois, ta’lim tizimida o‘qituvchilar uchun **raqamli kompetensiyani rivojlantirish dasturlarini** kengaytirish, **AI asosidagi monitoring tizimlarini** joriy etish va **o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlovchi raqamli ekotizim**ni yaratish muhim strategik vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO. (2023). *Teacher ICT Competency Framework for Education 4. 0*. Paris: UNESCO Publishing.

2. OECD. (2024). *Teachers in Digital Education: Challenges and Competencies.* Paris: OECD.

3. Hasanov, M. (2024). *Pedagogik kompetensiyalar nazariyasi va raqamli rivojlanish yo‘nalishlari.* Toshkent: Fan nashriyoti.

4. Qodirova, N. (2022). *Raqamli pedagogika va o‘qituvchi kasbiy rivoji.* Samarqand: SamDU nashriyoti.

5. Karimova, G. (2023). *Innovatsion ta’lim texnologiyalari.* Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti.

EKOLOGIK TARBIYA VA BARQAROR RIVOJLANISH

Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna
Qo‘qon universiteti Ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchi
Mamadaliyeva Muxaramoy
Qo‘qon unversiteti boshlang‘ich ta’lim
3-bosqich talabasi

Anotatsiya. Ushbu maqolada ekologik ta’limning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati va uning barqaror rivojlanishga erishishdagi o‘rni yoritilgan. Ekologik inqirozlar va atrof-muhit muammolarining ortib borayotgani insoniyatni bu muammolarga ongli yondashishga undaydi. Shu nuqtai nazardan ekologik bilim, madaniyat va ongni shakllantirish – ta’lim tizimi zimmasiga tushadigan dolzarb vazifadir. Ta’lim orqali yosh avlodda ekologik mas’uliyatni shakllantirish, ularni tabiatga nisbatan e`tiborli, ekologik jihatdan savodli fuqarolar etib tarbiyalash masalalari tahlil etiladi. Muallif barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ekologik ta`limning o‘rni va istiqbollari orqali yosh avlodda ekologik mas`uliyatni shakllantirish, ularni tabiatga nisbatan e`tiborli, ekologik jihatdan savodli fuqarolar etib tarbiyalash masalalari tahlil etiladi.Yoshlarning ekologik ongini rivojlantirish, ekologik ta’lim va tarbiya orqali jamiyatda barqaror rivojlanishni ta'minlash usullari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: ekologik ta’lim, ekologik amaliyot, barqaror rivojlanish, ekologik ong, ekologik madaniyat, atrof-muhit, ta’lim tizimi.

ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ

Аннотация. В данной статье раскрывается значение экологического образования в условиях современного общества и его роль в достижении целей устойчивого развития. Углубление экологических кризисов и рост экологических проблем требуют формирования осознанного отношения человека к окружающей среде. В этом контексте развитие экологических знаний, культуры и экологического сознания становится одной из приоритетных задач системы образования. В статье анализируются вопросы формирования экологической ответственности у подрастающего поколения посредством образовательного процесса, воспитания бережного отношения к природе и становления экологически грамотных граждан. Особое внимание

уделяется перспективам экологического образования в реализации целей устойчивого развития и его влиянию на формирование экологического мышления молодежи. Рассматриваются эффективные методы экологического обучения и воспитания, направленные на обеспечение устойчивого развития общества.

Ключевые слова: экологическое образование, экологическая практика, устойчивое развитие, экологическое сознание, экологическая культура, окружающая среда, система образования.

ENVIRONMENTAL EDUCATION AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Abstract. This article highlights the importance of environmental education in modern society and its role in achieving sustainable development goals. The growing scale of environmental crises and ecological challenges requires a conscious and responsible attitude toward the environment. In this context, the development of environmental knowledge, culture, and awareness becomes a priority task of the education system. The article analyzes issues related to fostering environmental responsibility among the younger generation through education, promoting respect for nature, and developing environmentally literate citizens. Special attention is given to the prospects of environmental education in achieving sustainable development and its contribution to shaping environmental awareness among youth. Effective methods of environmental education and upbringing aimed at ensuring sustainable development of society are discussed.

Keywords: environmental education, environmental practice, sustainable development, environmental awareness, environmental culture, environment, education system.

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar tobora murakkablashib bormoqda. Atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi kabi muammolar nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va ma’naviy inqiroz alomatlari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois ekologik muammolarni faqat texnik yoki iqtisodiy choralar bilan hal etish mumkin emas; bu jarayon, avvalo, inson tafakkuri va madaniyatini

o‘zgartirishni talab qiladi. Ana shunday sharoitda ekologik tarbiya barqaror rivojlanishning muhim poydevori sifatida maydonga chiqmoqda. [1]

Ekologik tarbiya — bu shunchaki tabiatni asrashga chaqiriq emas, balki shaxsning tabiatga ongli, mas’uliyatli va axloqiy munosabatini shakllantirish jarayonidir. U insonning ekologik bilimlari, qadriyatlari, e’tiqodlari va xulq-atvorini yagona tizimga birlashtiradi. Ayniqsa, ta’lim tizimi orqali beriladigan ekologik tarbiya jamiyatda barqaror rivojlanish g‘oyalarini qaror toptirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki insonning tabiatga bo‘lgan munosabati aynan bolalik va yoshlik davrida shakllanadi, keyinchalik esa bu qarashlar uning butun hayot faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi.

Barqaror rivojlanish tushunchasi esa ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash g‘oyasiga asoslanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan barqaror rivojlanish konsepsiyasida kelajak avlod manfaatlarini hisobga olgan holda bugungi ehtiyojlarni qondirish asosiy tamoyil sifatida belgilangan. Mazkur yondashuvda ekologik tarbiya markaziy o‘rinni egallaydi, chunki ekologik ong va mas’uliyat shakllanmagan jamiyatda barqaror rivojlanish g‘oyalari amalda ro‘yobga chiqmaydi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ekologik tarbiya va barqaror rivojlanish bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tushunchalardir. Ekologik tarbiya insonni tabiat bilan uyg‘un yashashga o‘rgatsa, barqaror rivojlanish ushbu uyg‘unlikni jamiyat taraqqiyoti bilan muvofiqlashtiradi. Ayniqsa, ta’lim tizimi orqali ekologik tarbiyani tizimli va izchil yo‘lga qo‘yish jamiyatning ekologik madaniyatini oshirish, fuqarolarning ekologik mas’uliyatini kuchaytirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishga erishishning eng samarali vositasi hisoblanadi.

Ushbu maqolada ekologik tarbiyaning nazariy asoslari, uning barqaror rivojlanish konsepsiyasidagi o‘rni, ta’lim tizimidagi ahamiyati hamda zamonaviy jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirishdagi roli chuqur ilmiy-analitik nuqtai nazardan yoritiladi. Keyingi boblarda ekologik tarbiyaning mazmuni, metodlari, xalqaro tajribalar va milliy ta’lim siyosati doirasidagi ahamiyati keng tahlil qilinadi.

Bugungi kunda ekologik muammolar insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biriga aylandi. Global iqlim o‘zgarishlari, biologik xilma-xillikning kamayishi, atrof-muhitni ifloslanishi kabi muammolar nafaqat tabiatga, balki inson salomatligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu holat ekologik

ongli shaxsni shakllantirish zaruratini kun tartibiga chiqarmoqda. Ekologik muammolarni hal etishda ta’limning roli beqiyosdir. Chunki aynan ta’lim orqali biz yosh avlodga atrof-muhitni asrash, unga ehtirom bilan qarash, mas’uliyat hissini singdira olamiz. Shuning uchun ham ekologik ta’lim – barqaror rivojlanish poydevoridir. [1]O‘zbekiston Respublikasi Prezdenti SHavkat Mirziyoyevning 31. 05. 2023 yildagi PQ-171- sonli qarori bilan “Ekalogoya, atrof- muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faolyatini samarali tashkil etish chora -tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. [2]

Ekalogik tarbiya ham, ekologik madaniyat singari:”oila, bog‘cha, maktab, o‘rta mahsus o‘quv yurti(yoki oliy o‘quv yurti), korhona mahalla” bo‘g‘inida shakillanib boradi. Albatta, bu ketma ketlik shartlidir, ammo ekologik tarbiyaning shakillanishida oilaning o‘rni beqiyosdir. Oilada Bolani tabiatni sevishga, uni e’zozlash ruhida tarbiyalash kelajakda bolada yumshoq fe’llik, bag‘ri kenglik, go‘zallikni his qila bilish, borini avaylashga, yo‘qqa chidashga, sabr -toqat, xushmuomala bo‘lish xislatlarini shakillantirishga turtki bo‘ladi. [3.]

Ekologik amaliyot - yuksak ekologik ma'naviyatli va ma'rifatli shaxs imkoniyatini uning hayot va mehnat faoliyatida qo‘llay olishning motivatsiyalanganlik darajasi. Ya'ni ekologik ong va madaniyatni hayotiy faoliyatda nechoqlik zarur ekanligini his etish va uning ijobiy natijalaridan bahramand bo‘la olish sharoitining muayyan ma'muriy boshqaruv birliklar yoki iqtisodiyot tarmoqlari doirasida yaratilganligi. U davlat, jamiyat va korporativ uyushmalarning olib borayotgan ekologik konsepsiyasida, siyosatida, qonunuchiligida, harakatlar dasturi va ish rejalarida, prioritet tadqiqotlar yo‘nalishlarida, kadrlar tayyorlash va ularni amalda tatbiq etilganligida namoyon bo‘ladi.

Ekologik ta’lim, tarbiya va amaliyot mohiyati uning uch yo‘nalishdagi tadqiqot qilish, o‘rgatish va amalga joriy etish predmetida o‘z aksini topadi:ekotizimlarni (tabiiy va antropogen o‘zgargan) muhofaza qilish; ekotizimlarning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish;buzilgan ekotizimlarni qayta tiklash.

Ekologiyaning maqsadi - hozirgi va kelajak avlodlarning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi ekotizimlar xavfsizligiga erishish uchun ekologik ta’lim, tarbiya va amaliyot birligini ta'minlash. Ushbu maqsadga erishmoq uchun milliy miqyosda quyidagi ekologik tusdagi vazifalarni bajarish talab etiladi:

ekologiyaning umume'tirof etilgan ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish; uning tarixi, hozirgi holati va kelajak istiqbollarini turli ekotizimlar doirasida uzviy bog‘langan holda baholash; ekologik konsepsiya va harakatlar dasturini ishlab chiqish; taktik va strategik ekologik rivojlanish rejalarini qabul qilish; ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga doir kadrlar tayyorlash tizimini qayta ko‘rib chiqish; ekologik qonunchilik bazasini har tomonlama tahlil qilish va uni amaliyot bilan bog‘lash mexanizmini yaratish; milliy ekologik ta’limning majburiylik prinsipini amalda qo‘llash; ekologik ta’limni barqaror rivojlanish qoidalariga mos ravishda qayta ko‘rib chiqish kabi masalalarni hal etishga undaydi [4] Hozirgi vaqtda tabiiy boyliklarga ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Shu sababli, har bir yoshda ijtimoiy ongni shakllantirish va taraqqiy ettirish kerak. Ijtimoiy ong shakllari xilma-xilligi, obyektiv olamning - tabiat va jamiyatning boyligi, serqirraligi va turli-tumanligidan kelib chiqadi. “Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish” kursi ishlab chiqarishning geografik joylashishi. uning turli davlatlar va hududlarda rivojlanish sharoiti va xususiyatlarini o‘rganadigan ijtimoiyiqtisodiy geografiya bilan chambarchas bog‘liqdir. Ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaning asosiy tarmoqlaridan hisoblangan joyning tabiiy boyliklariga xo‘jalik nuqgai nazaridan baho berish ham kiradi. Chunki, tabiiy sharoit xo‘jalikka, mehnat unumdorligiga, aholi va aholi joylarining tarqalish xususiyatlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun, soha tadqiqotlarida hududning tabiiy boyliklarini iqtisodiy baholash katta ahamiyatga ega. [5.]

Ekologik tarbiya bugungi kunda ta’lim tizimining ikkilamchi yo‘nalishi emas, balki jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi strategik omilga aylangan. Chunki atrof-muhit muammolari — iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi, biologik xilma-xillikning kamayishi, chiqindilar muammosi — insonning tabiat bilan munosabatini qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda. Bu jarayonda aynan ta’lim orqali ekologik ongni shakllantirish eng samarali va uzoq muddatli yechim sifatida e’tirof etiladi. UNESCO hujjatlarida ekologik ta’lim shaxsning tabiatga mas’uliyatli munosabatini shakllantirish, barqaror turmush tarzini qaror toptirish va kelajak avlod manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiluvchi asosiy vosita sifatida ta’riflanadi.

Ekologik tarbiya mazmunan faqat tabiatni muhofaza qilish haqidagi bilimlar bilan cheklanmaydi. U insonning axloqiy qarashlari, ijtimoiy mas’uliyati va hayotiy tanlovlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, ta’lim jarayonida

ekologik muammolarni real hayot bilan bog‘lash, ularni shaxsiy mas’uliyat nuqtayi nazaridan tahlil qilish o‘quvchilarda chuqur ekologik tafakkurni shakllantiradi. Shaxs tabiatni faqat resurs emas, balki hayotning ajralmas qismi sifatida anglay boshlaydi. Bu esa barqaror rivojlanish falsafasining asosiy tamoyili hisoblanadi.

Boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta’lim bosqichlarida ekologik tarbiya ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davrda bola dunyoni yaxlit holda qabul qiladi, unda hissiy munosabatlar ustun bo‘ladi. Tabiatga mehr, tirik mavjudotlarga rahm-shafqat, atrof-muhitga ehtiyotkorlik aynan shu yoshda shakllanadi. Agar ekologik tarbiya bu bosqichda tizimli yo‘lga qo‘yilsa, keyingi ta’lim bosqichlarida u bilim, kompetensiya va hayotiy pozitsiyaga aylanishi osonlashadi. Shu ma’noda ekologik tarbiya uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarini qamrab olishi lozim. Barqaror rivojlanish tushunchasi ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillar uyg‘unligiga asoslanadi. Ta’lim jarayonida bu uchlikni bir-biridan ajratmagan holda tushuntirish muhimdir. Masalan, suvni tejash faqat ekologik masala emas, balki iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyat bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘quvchi buni anglagan sari uning ekologik qarorlari ongli va mas’uliyatli bo‘lib boradi. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) ham aynan shu integratsiyalashgan yondashuvni ta’limning asosiy vazifasi sifatida belgilaydi. Ekologik tarbiyani samarali tashkil etishda fanlararo integratsiya muhim rol o‘ynaydi. Tabiiy fanlarda ekologik muammolar ilmiy jihatdan yoritilsa, ijtimoiy fanlarda ularning jamiyatga ta’siri tahlil qilinadi, adabiyot va san’atda esa tabiatga bo‘lgan estetik munosabat shakllantiriladi. Bunday yondashuv o‘quvchida ekologik masalalarga kompleks qarashni rivojlantiradi. Natijada ekologik tarbiya alohida mavzu emas, balki ta’lim mazmunining ajralmas qismiga aylanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ekologik tarbiyaning ta’sirchanligini yanada oshiradi. Loyihaviy ta’lim, muammoli vaziyatlar tahlili, tadqiqot ishlari, ekologik aksiyalar va amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Masalan, “Maktab hududida chiqindilarni kamaytirish loyihasi” yoki “Suv resurslarini tejash bo‘yicha mini-tadqiqot” kabi ishlar orqali o‘quvchilar ekologik muammolarni real hayotda his qiladi va ularni hal etish yo‘llarini izlaydi. Bu esa ekologik kompetensiyaning shakllanishiga xizmat qiladi.

Ekologik tarbiyaning muhim jihatlaridan biri — shaxsiy namuna omilidir. O‘qituvchining tabiatga bo‘lgan munosabati, kundalik hayotdagi ekologik xulqi,

ekologik masalalarga nisbatan pozitsiyasi o‘quvchilar uchun kuchli ta’sir vositasidir. Agar pedagog ekologik qadriyatlarni faqat so‘zda emas, amalda ham namoyon etsa, ta’lim jarayonining tarbiyaviy samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Shu sababli ekologik tarbiya o‘qituvchi pedagogik mahoratining muhim ko‘rsatkichi sifatida qaraladi. Raqamli texnologiyalar ham ekologik tarbiyani yangi bosqichga olib chiqmoqda. Virtual laboratoriyalar, interaktiv xaritalar, ekologik simulyatsiyalar va raqamli platformalar orqali o‘quvchilar global ekologik jarayonlarni vizual tarzda kuzatish imkoniga ega bo‘lmoqda. Masalan, iqlim o‘zgarishining oqibatlarini modellashtiruvchi dasturlar bolalarda sabab-oqibat bog‘liqligini aniqroq anglashga yordam beradi. Bu esa ekologik masalalarga befarq bo‘lmaslik hissini kuchaytiradi.

Ekologik tarbiya faqat maktab doirasida qolib ketmasligi kerak. Oila, mahalla va jamiyat bilan hamkorlik bu jarayonning uzviy davomidir. Ota-onalarning ekologik madaniyati, mahalliy ekologik tashabbuslar, jamoaviy aksiyalar o‘quvchilarning ekologik qarashlarini mustahkamlaydi. Shu tariqa ta’lim muassasasi va jamiyat o‘rtasida ekologik mas’uliyatga asoslangan hamkorlik shakllanadi. Umuman olganda, ekologik tarbiya va barqaror rivojlanish ta’lim tizimining mazmunini yangilovchi, uni kelajak ehtiyojlariga moslashtiruvchi asosiy yo‘nalishlardan biridir. Ekologik ongli, mas’uliyatli va faol fuqaroni tarbiyalash orqali jamiyatning barqaror rivojlanishiga erishish mumkin. Bu jarayonda ta’lim nafaqat bilim beruvchi, balki inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi kuchga aylanadi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari– bu Birlashgan Millatlar Tashkilotining dunyoda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vaziyatni har tomonlama yaxshilash orqali butun insoniyatning hayot tarzini yaxshilash va turmush farovonligini oshirishga, adolatli va barqaror jamiyat qurishga qaratilgan global chaqirig’idir. Barqaror rivojlanish sohasidagi turli mamlakatlarning tajribasi juda katta farq qilganligi sababli, 2030 yil kun tartibining barcha maqsadlari va tegishli vazifalari umumiy, universal shaklda shakllantirilgan va qoida tariqasida aniq miqdoriy maqsadlar mavjud emas. Har bir mamlakat BRMni lokalizatsiya qilishi, ya’ni 2030 yilga mo‘ljallangan kun tartibidagi 169 ta vazifadan o‘zining rivojlanish ustuvorligi va moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, milliy rivojlanish maqsadlarini ishlab chiqishi belgilangan. Mamlakatlar ushbu maqsadlarni o‘zining milliy sharoitlariga moslashtirishi, har bir vazifaga tegishli

statistik ko’rsatkichlar uchun miqdoriy ko’rsatkichlarni aniqlashi hamda vazifalar va aniq miqdoriy ko’rsatkichlarni milliy strategik hujjatlarda belgilashi kerak[6]Ekologik ong-ekologik tarbiyaning asosi bo‘lib, tabiatni asrab avaylashda, unga ongli munosabatda bo‘lishda, boyliklardan tejamkorona foydalanish, nohush tabiiy hodisalarni oldini olish, eng muhimi atrof muhitni doimo toza saqlashda nomoyon bo‘ladi. [7]

Ekologik tarbiya jarayonida baholash masalasi ham alohida e’tiborni talab qiladi. An’anaviy baholash tizimi ko‘proq bilimni tekshirsa, ekologik tarbiyada o‘quvchining munosabati, xulqi va amaliy faoliyati muhimroq hisoblanadi. Masalan, o‘quvchining ekologik loyihada ishtiroki, tabiatni asrashga qaratilgan tashabbuslari, kundalik hayotdagi ekologik odatlari uning ekologik kompetensiyasini aniqlashda muhim mezon bo‘la oladi. Shu sababli zamonaviy pedagogik yondashuvlarda refleksiya, o‘zini baholash va jamoaviy baholash usullaridan foydalanish ekologik tarbiyaning samaradorligini oshiradi.

Ekologik tarbiyaning mazmuni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashganda yanada ta’sirchan bo‘ladi. O‘zbek xalqining tabiatga munosabati — suvni muqaddas bilish, daraxt ekishni savob ish deb hisoblash, yerga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish kabi qadriyatlar ekologik tarbiyaning boy manbai hisoblanadi. Ta’lim jarayonida xalq og‘zaki ijodi, maqollar, urf-odatlar va tarixiy tajribalardan foydalanish o‘quvchilarda ekologik mas’uliyatni milliy ong bilan bog‘lashga xizmat qiladi. Bu esa ekologik tarbiyani sun’iy emas, balki hayotiy va ichki ehtiyojga aylantiradi.

Shuningdek, ekologik tarbiya inklyuziv ta’lim tamoyillari bilan ham uyg‘un holda olib borilishi lozim. Turli imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarni ekologik faoliyatga jalb etish, ular uchun moslashtirilgan topshiriqlar va amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish ekologik tarbiyaning insonparvarlik mohiyatini kuchaytiradi. Masalan, jamoaviy ekologik loyihalarda har bir o‘quvchining imkoniyatidan kelib chiqib rol berilishi bolalarda o‘ziga ishonch va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi. Ekologik tarbiyaning uzoq muddatli ta’siri uning uzluksizligida namoyon bo‘ladi. Agar ekologik masalalar faqat ma’lum bir dars yoki tadbir bilan cheklansa, u barqaror natija bermaydi. Aksincha, ta’limning barcha bosqichlarida izchil davom ettirilgan ekologik tarbiya o‘quvchining dunyoqarashiga chuqur singadi va hayotiy pozitsiyasiga aylanadi. Shu bois ekologik tarbiya strategik rejalashtirilgan, tizimli va bosqichma-bosqich amalga

oshirilishi zarur. Ekologik tarbiya orqali shakllangan mas’uliyat hissi kelajakda jamiyatning ijtimoiy faolligini ham oshiradi. Ekologik muammolarga befarq bo‘lmagan shaxs jamiyatdagi boshqa muammolarga ham loqayd bo‘lmaydi. U muammolarni ko‘ra oladi, tahlil qiladi va ularni hal etishda faol ishtirok etishga intiladi. Shu jihatdan ekologik tarbiya fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishning muhim omili sifatida ham qaraladi. Natijada ekologik tarbiya va barqaror rivojlanish g‘oyalarini ta’lim jarayoniga chuqur singdirish orqali nafaqat ekologik bilimlarga ega, balki mas’uliyatli, ongli va faol fuqarolarni tarbiyalash mumkin bo‘ladi. Bu esa jamiyatning barqaror kelajagini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ekologik ta’lim insonlarning tabiatga bo‘lgan munosabatini yaxshilash, Ekologik tarbiya bugungi kunda jamiyat rivojining ajralmas qismi bo‘lib, yosh avlodda tabiatga nisbatan ongli munosabat, ekologik madaniyat va mas’uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Barqaror rivojlanish esa hozirgi va kelajak avlod manfaatlarini uyg‘unlashtirgan holda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta’minlashni ko‘zda tutadi. Ushbu ikki tushuncha bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, samarali ekologik tarbiya barqaror rivojlanishga erishishning eng muhim shartlaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, ekologik tarbiya va barqaror rivojlanish masalalari bugungi ta’lim tizimining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida ekologik ong va mas’uliyatni shakllantirish kelajak avlodning tabiatga munosabatini belgilab beruvchi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu jarayonda o‘qituvchining pedagogik mahorati, shaxsiy namunaliligi va ekologik qadriyatlarga bo‘lgan ongli munosabati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ekologik tarbiyani milliy qadriyatlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar bilan uyg‘un holda tashkil etish o‘quvchilarda nafaqat ekologik bilimlarni, balki barqaror xulq-atvor va ijtimoiy mas’uliyatni ham rivojlantiradi. Bunda ta’lim jarayonining uzluksizligi, amaliy faoliyatga yo‘naltirilganligi va baholashning innovatsion shakllaridan foydalanish ekologik tarbiyaning samaradorligini oshiradi. Shu bois ekologik tarbiya ta’lim jarayonining ikkinchi darajali yo‘nalishi emas, balki shaxsni har tomonlama kamol toptirishga xizmat qiluvchi strategik vazifa sifatida qaralishi lozim. Ekologik ongli, milliy qadriyatlarga sodiq va barqaror rivojlanish g‘oyalarini chuqur anglagan

avlodni tarbiyalash esa jamiyatning uzoq muddatli taraqqiyoti va ekologik xavfsizligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. UNESCO. (2017). Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.
2. Barqaror rivojlanish: Nazariya va amaliyot. – Toshkent, 2020
3. L. M Abdunazarov, SH. SH. Bo‘ronov Ekalogiya va tabiatni muhofaza qilish 2024. 16 bet
4. Barqaror rivojlanish atrof muhit muhofazasi va uzluksiz ta’lim 2023.
5. . Golish L. V., Fayzullaeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O‘qFuv uslubiy qo‘llanma/ Ta’limda innovatsion texnologiya seriyasi. - T.: 2010. - 149 b.
6. Barqaror rivojlanish atrof muhit muhofazasi va uzluksiz ta’lim 2023.
7. Sustainable Development Goals
8. Barqaror rivojlanish atrof muhit muhofazasi va uzluksiz ta’lim 2023.
9. Murtozaqulova, N. (2025). SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING TA’LIMGA INTEGRATSIYASI VA UNING IMKONIYATLARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 16, 20–24. https://doi. org/10. 54613/ku. v16i. 1290
10. Murtozaqulova Nafosatxon Akmaljon qizi. “YOSH AVLOD MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MAKTABNING O‘RNI VA TAJRIBASI ”. Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi 57, no. 2 (November 22, 2025): 62–66. Accessed November 22, 2025. https://openresearch-hub. com/index. php/tal/article/view/511.

GERMANIYA BOG‘CHALARIDA TA’LIM-TARBIYA JARAYONINING O‘ZIGA XOSLIGI

Komilova Zulfiyaxon Poziljonova
University of economics and pedagogy

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim kafedrasi assistenti
https://orcid. org/0009-0001-2971-9428
komilovazulfiya73@gmail. com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Germaniya bog‘chalarida ta’lim-tarbiya jarayonining tashkiliy-huquqiy asoslari, mazmuni va o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Mamlakat maktabgacha ta’lim tizimida ixtiyoriylik tamoyili, bolalarni parvarish va tarbiyalashning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, ta’lim muassasalarining mustaqil faoliyat yuritishi hamda ota-onalar bilan hamkorlikning o‘rni yoritiladi. Shuningdek, bog‘chalarga qabul mexanizmi, imtiyozlar tizimi, pedagogik jarayonning mazmuni va maktabga tayyorlov dasturlarining amaliy ahamiyati ilmiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Germaniya bog‘chalari, maktabgacha ta’lim, ta’lim-tarbiya jarayoni, ixtiyoriylik tamoyili, pedagogik tajriba, qabul tizimi, maktabga tayyorlov

Аннотация: В данной статье анализируются организационно-правовые основы, содержание и особенности воспитательно-образовательного процесса в дошкольных учреждениях Германии. Рассматриваются принцип добровольности в системе дошкольного образования, поэтапность ухода и воспитания детей, автономность деятельности учреждений, а также роль взаимодействия с родителями. Кроме того, исследуются механизмы приёма детей, система льгот, содержание педагогического процесса и практическая значимость подготовительных программ к школе.

Ключевые слова: дошкольное образование Германии, воспитательно-образовательный процесс, принцип добровольности, педагогический опыт, система приёма, подготовка к школе.

Abstract: This article examines the organizational and legal foundations, content, and distinctive features of the educational and upbringing process in German preschool institutions. The study discusses the principle of voluntariness in the preschool system, the step-by-step approach to child care and education, the institutional autonomy, and the role of cooperation with parents. It also explores admission mechanisms, the system of privileges, the structure of pedagogical activities, and the practical significance of school readiness programs.

Keywords: German preschool education, educational process, voluntariness principle, pedagogical experience, admission system, school readiness.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilikni mustahkamlash, suverenitetni yuksaltirish, mamlakat xavfsizligi, huquq-tartibotning barqarorligini ta’minlash, jamiyatda qonun ustuvorligi va inson huquq hamda erkinliklarini kafolatlash uchun mustahkam zamin yaratdi. Bu jarayonlar millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini yanada mustahkamlab, aholining munosib turmush kechirishi, zamonaviy ta’lim olishi hamda kasb-hunar egallashi uchun zarur sharoitlarni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda uzluksiz ta’lim tizimining poydevori sifatida maktabgacha ta’lim tizimiga e’tibor tubdan o‘zgardi. Bu jarayonda rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish hamda ularning ta’lim va tarbiya usullarini ta’lim jarayoniga integratsiyasini amalga oshirish muhim vazifa sanalmoqda.

Barcha rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta’lim tizimiga urg‘u beriladi hamda asosan 3-6 yoshgacha bo‘lgan bolalar qamrab olinadi. Shunday mamlakarlardan biri – Germaniyadir. Germaniya – jahon ilm-fani va madaniyati o‘choqlaridan biri. Bu mamlakat ildizi asrlarga borib taqaluvchi ilmiy maktablarni, Gyote, Gegel, Betxoven, Nitshe, Eynshteyn singari olim va ijodkorlarni bilan dunyoga mashhur. Xalqaro doirada e’tirof etilgan olmon ta’lim dargohlarida mustaqil fikr hamda keng dunyoqarash shakllanishiga alohida e’tibor beriladi. Ta’lim tizimiga tatbiq etilayotgan yangi usullar, so‘nggi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanmaganlarga esa juda qiyin. Taraqqiyot manzili sari oshiqayotgan jamiyatda bilimsiz o‘z o‘rniga ega bo‘lish amri mahol. Shuningdek, olmonlarga xos temir intizom, bir so‘zlilik xislatlari ham aynan ta’lim dargohlarida shakllanadi.

Germaniya maktabgacha ta’lim tizimi to‘rtta asosiy institutdan iborat:

1. Kinderkrippe (yasli) – ta’lim tizimining boshlang‘ich bosqichi bo‘lib, 2 oylikdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar qabul qilinadi. Bu yerda nutq ko‘nikmalarini shakllantirish, mayda motorika rivoji hamda ovqatlanish madaniyatiga katta e’tibor qaratiladi.

2. Kindergarten (bolalar bog‘chasi) – 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarni qamrab oladi. Mazkur muassasalarning ko‘pchiligi xususiy bo‘lib, ular o‘z nizomi asosida faoliyat yuritadi. Kun tartibi va pedagoglarning ish haqi muassasa rahbari tomonidan belgilanadi. Maktabgacha ta’lim vazirligi tasarrufiga kirmagani sababli bog‘chalar asosan ota-onalar ish vaqti davomida bolalarni parvarish qilishni asosiy vazifa sifatida bajaradi. Ta’limiy faoliyat ko‘pincha qo‘shimcha to‘lov asosida amalga oshiriladi.

3. Vorklassen (maktabga tayyorlov sinflari) – 5 yoshli bolalarni maktabga qabul qilish mezonlariga muvofiq tayyorlaydi. Bu bosqichda o‘quvchilar bilim va ko‘nikmalarining rivojlanishiga e’tibor kuchaytiriladi.

4. Schulkindergärten (maktab qoshidagi bog‘chalar) – 5–6 yoshli bolalarga yo‘nalishga mos aniq bilimlar berishga qaratilgan bo‘lib, ularni ma’lum turdagi maktablarga kirish uchun tayyorlaydi[1].

Vorklassen va Schulkindergärten muassasalari ayrim hududlarda maktabgacha ta’lim tizimiga, boshqalarda esa boshlang‘ich ta’lim tizimiga mansubligi bilan farqlanadi. Bu jarayon mahalliy qonunchilik asosida belgilanadi. Intellektual rivojlanishda orqada qolgan bolalar uchun esa ayrim joylarda tayyorlov muassasalariga qatnash majburiy etib belgilangan.

Umuman olganda, Germaniya maktabgacha ta’lim tizimi moslashuvchanligi, ixtiyoriylik tamoyili hamda ota-onalarning ehtiyoj va imkoniyatlariga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Hali aqlini tanib ulgurmagan bolalarda o‘z fikrini ifodalash, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish, ularni boshlang‘ich ta’limga tayyorlashda bog‘chalarning o‘rni katta. Shu bois ham olmonlar bog‘chalarni "tafakkur ustaxonasi” deb atashadi. Maktabgacha tarbiya tashkilotlarinin rang-barang shakllari va turlari hayratlantiradi.

Eng qiziqarli bolalar bog‘chalari turlari quyidagicha:

Waldkindergarten (nemischa Wald so‘zidan – o‘rmon, Kindergarten – bolalar bog‘chasi). Bunday bolalar bog‘chalarini yaratish fikri Skandinaviyada boshlangan. Ko‘pincha bunday bog‘chalar o‘rmonda joylashadi. Bolajonlar doimo ochiq havoda bo‘ladilar, daraxtlar va boshqa o‘simliklarni o‘rganadilar, tabiiy materiallardan turli narsalar yasaydilar. Bolalarga tabiatni sevish va uni asrab-avaylash o‘rgatiladi[2].

Bauernhofkindergarten (nemischa Bauernhof so‘zidan – dehqon xovlisi, qo‘rg‘oni; Kindergarten – bolalar bog‘chasi). Bunday bog‘chalar dexqon xo‘jaliklarida, fermalar yoki ularga yaqin yerlarda joylashgan bo‘ladi. Bolalar kuchlari yetguncha fermerlarga mollarni boqishda, dala va bog‘larda sabzavot va mevalar o‘stirishda yordam beradilar[3].

Reggio-Kindergarten. Har kuni ertalab bolalar tarbiyachi bilan katta xonada yig‘ilishib, kun rejasini maslahatlashadilar, so‘ngra xonalarga tarqalishadi. Bitta xona qurilish va turli konstruktorlar yig‘ish xonasiga aylantiriladi. Bu yerda bolalar kubiklar o‘ynashi, konstruktorlar yig‘ishi mumkin. Yana rasm chizish xonasi ham bor, odatda u yerda bo‘yoqlar va devorlarga vatman qog‘ozlar osib qo‘yilgan. Bolalarga maxsus kiyim kiygazib ko‘yiladi va ular xohlagan yerlariga – devorlar, pol, bir-birlariga rasm chizishlari mumkin[4].

Freinet-Kindergarten. Maktabgacha pedagogikaning bu yo‘nalishi o‘z nomini bolalar tarbiyasiga o‘ziga xos yondashish usulini ishlab chiqqan italiyalik oilaviy juftlik familiyasidan olingan. Bu yo‘nalishning asosiy tamoyili - bolaning butunlay erkinligi va mustaqilligidir. Fraynet-bog‘chasida bolalar nima qilishlari, qanday o‘yin o‘ynashlari, nima bilan shug‘ul lanishlari, qachon ovqatlanishlari va uxlashlarini o‘zlari hal qiladilar. “Bolalar konferensiyasi” deb nomlangan yig‘ilishlarda bolalar bog‘cha doirasida hulq-atvor qoidalarini o‘zlari belgilashadi. Bunday bog‘chalarda ijod qilish, syujet-rol o‘yinlari, tajribalar, tabiatga yoki shaharning korxona va tashkilotlariga ekskursiyaga borishlarga katta ahamiyat beriladi.

Integratsion bolalar bog‘chalari. Bunday turdagi bog‘chalarda sog‘lom bolalar bilan birgalikda jismonan va ruhiy nosog‘lom bolalar birgalikda tarbiyalanadi. Bunday sharoit oddiy bolalar uchun chidamlik, bag‘rikenglik va hurmat qilishni o‘rganishga ajoyib imkoniyat, deb qaraladi. Imkoniyatlari cheklangan bolalar jamiyatdan ajralgan holatda bo‘lmaydilar, o‘z tengdoshlari bilan muloqot va hamjihatlikda bo‘lishni o‘rganadilar. Shunday bog‘cha va maktablarning soni ko‘pligi Germaniyada nogironlarning yashashi, ta’lim olishi va o‘zini namoyon qilishi uchun qulay sharoitlar yaratadi[5].

Internatsional bolalar bog‘chalari. Bunday MTTlar emigrantlar uchun yaratilgan bo‘lib, ko‘pincha ularni emigrantlarning o‘zlari farzandlari uchun tashkil etadilar. Germaniyada turk-nemis, yahudiy, rus-nemis bolalar bog‘chalari juda ko‘p. Ya’ni, guruhlarda doimo bolalar bilan ona tilida so‘zlovchi tarbiyachi bilan

birga nemis tilida so‘zlovchi tarbiyachi ham bo‘ladi. Bunda bolalar ham ota-onalarining tilini, ham nemis tilini o‘rganadilar[6,170].

Shuningdek, Germaniyada Valdorf bolalar bog‘chalari va Montessori tizimida ishlaydigan bolalar bog‘chalari ham mavjud. “Kasb” loyihasi davrida bolalar tarbiyachi bilan ekskursiyalarga boradilar, turli narsalar yasaydilar, teatrlashtirilgan sahnalar qo‘yadilar, pechenye pishiradilar, loydan narsalar yasaydilar va hokazo. Bolalar stulchalarda o‘tirib tarbiyachini eshitadigan turdagi mashg‘ulotlar deyarli yo‘q. Bolalarga ko‘p erkinlik beriladi. Ular istagan narsani qilishlari, kiyimlarini iflos qilishlari, butun maydonda sakrashlari va yugurishlari mumkin. Bolalar bilan ishlashga bunday yondashishning ko‘p ijobiy va salbiy tomonlarini topish mumkin. Lekin ota-onalar oldida katta tanlash huquqi bor. Ular farzandlarini bola uchun eng qulay bog‘chani tanlashlari mumkin.

Shunday qilib, Germaniya tajribasi nafaqat maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, balki jamiyatning madaniy, intellektual va ijtimoiy taraqqiyotiga xizmat qiladigan samarali model sifatida e’tirof etiladi. Ushbu tajriba O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirishda, ayniqsa bolalarning ongini erta rivojlantirish, ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish, inklyuziv ta’limni kengaytirish va ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirishda muhim metodik manba bo‘la oladi. Germaniya maktabgacha ta’lim tizimi o‘z mohiyatiga ko‘ra “tafakkur ustaxonasi” bo‘lib, bolani hayotga muvaffaqiyatli tayyorlashning samarali mexanizmlarini taklif etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bundesministerium für Familie, Senioren, Frauen und Jugend. (2022). *Frühe Bildung und Betreuung in Deutschland: Kindertagesbetreuung im Überblick*. Berlin: BMFSFJ

2. Mayer, S., & Hartmann, K. (2021). *Waldkindergarten und Naturpädagogik: Konzepte, Chancen und Herausforderungen*. Berlin: Springer VS.

3. Schäfer, G. (2018). *Natur- und Bauernhofpädagogik im Elementarbereich*. München: Reinhardt Verlag.

4. Edwards, C., Gandini, L., & Forman, G. (2020). *The Reggio Emilia Approach: Advanced Reflections*. New York: Teachers College Press

5. Bundesministerium für Familie, Senioren, Frauen und Jugend (BMFSFJ). (2022). *Inklusive Bildung im frühen Kindesalter: Leitfaden für*

Integrationskindergärten. Berlin: BMFSFJ.

6. Yusupova D. Qiyosiy pedagogika asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: TDPU, 2020.

7. Juraqulova M. M. Maktabgacha ta’lim tizimining qiyosiy tahlili. Toshkent: 2021.

8. Xolboyeva G. Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta’lim tizimi. Toshkent: Ilm Ziyo, 2022.

9. Qurbonova O‘. U. Qiyosiy pedagogika Buxoro-2013

10. OECD. Starting Strong: Early Childhood Education and Care. Paris: OECD Publishing, 2020. 180 p.

11. UNESCO. World Conference on Early Childhood Care and Education: Final Report. Paris: UNESCO, 2022. 104 p.

12. UNICEF. Global Database on Early Childhood Development. New York: UNICEF, 2021. URL: https://data. unicef. org

DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI:INTERFAOL METODLAR

Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna
Qo‘qon universiteti Ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
Email: zulfiyaxon08@gmail. com

Shavkatova Mohiraxon Baxtiyorxon qizi
Qo‘qon universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi
mohiraxonshavkatova@gmail. com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida dars samaradorligini oshirishda interfaol metodlarning to‘g‘ri qo‘llanilishi va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, interfaol metodlarning o‘quvchilar bilimiga, tafakkuriga va faolligiga ta’siri tahlil qilinadi. Interfaol metodlar o‘quv jarayonini jonlantirib, o‘quvchilarning fikrlash, tahlil qilish, bahs-munozarada ishtirok etish ko‘nikmalarini rivojlantirishi asoslab beriladi. Shuningdek, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Rol o‘ynash” kabi metodlarning boshlang‘ich ta’limda qo‘llanish samaradorligi o‘rganiladi. Shuningdek, taklif etilgan “Raketa va metyoridlar” didaktik o‘yini darsni faollashtirishning innovatsion usuli sifatida tahlil qilinadi.

Maqolada o‘qituvchilarning innovatsion yondashuvlari orqali dars jarayonini qanday jonlantirish mumkinligi haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: interfaol metodlar, ta’lim samaradorligi, innovatsion yondashuv, o‘quvchi faolligi, talaba faolligi zamonaviy dars.

ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКА: ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ

Аннотация: В данной статье освещены правильное применение и значение интерактивных методов в повышении эффективности урока в современном образовательном процессе. Также анализируется влияние интерактивных методов на знания, мышление и активность учащихся. Обосновано, что интерактивные методы оживляют учебный процесс, развивают навыки мышления, анализа, участия в дискуссиях. Изучается эффективность применения таких методов, как “Мозговой штурм”, “Кластер”, “Ролевая игра” в начальном образовании. Кроме того, предлагается анализ дидактической игры “Ракета и метеориты” как инновационного способа активизации урока. В статье даны рекомендации о том, как с помощью инновационных подходов преподавателя можно оживить учебный процесс.

Ключевые слова: интерактивные методы, эффективность обучения, инновационный подход, активность учащихся, активность студентов, современный урок.

FACTORS FOR IMPROVING LESSON EFFECTIVENESS: INTERACTIVE METHODS

Annotation: This article highlights the correct use and significance of interactive methods in enhancing lesson effectiveness within the modern educational process. It also analyzes the impact of interactive methods on students’ knowledge, thinking, and activity. It is substantiated that interactive methods enliven the learning process and develop students’ skills in thinking, analysis, and participation in discussions. The effectiveness of methods such as “Brainstorming, ” “Cluster, ” and “Role-playing” in primary education is examined. In addition, the proposed didactic game “Rocket and Meteors” is analyzed as an innovative way to activate the lesson. The article provides recommendations on how teachers can enliven the teaching process through innovative approaches.

Keywords: interactive methods, learning effectiveness, innovative approach, student activity, learner engagement, modern lesson.

Ta’lim oluvchilar bilimi, ko‘nikmasi va malakalari zamon talablariga javob beradigan darajada bo‘lishini ta’minlash maqsadida pedagog xodimlarga yuklangan vazifalar nihoyatda salmoqli va mas’uliyatlidir. Bu vazifani ado etish uchun o‘qituvchilar qaysi turdagi ta’lim muassasasida mehnat qilishidan qat’iy nazar doimiy ravishda o‘z ustilarida mustaqil ishlashlari, malakalarini oshirib borishlari va ilmiy ijodiy izlanishlari zarurdir. Davlat ta’lim standartlari talablarini bajarish majburiyligi nuqtai nazaridan ham o‘qituvchining kasbiy kompetentlik darajasi davr talabiga mos kelishi muammo yechimini ijobiy hal etilishini ta’minlashi shubhasiz. [1,180]

Hozirgi zamon ta’limi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – bu ta’lim oluvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Bunday maqsadlarga erishishning eng samarali yo‘li – bu interfaol metodlardan To‘g‘ri va o‘z vaqtida foydalanishdir. Interfaol metodlar o‘quv jarayonini jonlantirib, ta’lim oluvchilarning darsga faol ishtirok etishga undaydi va dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методические возможности преподавания концепции «детства», ярко представленной в произведениях Уткира Хошимова, с использованием современных инструментов цифровой педагогики. Образы детства, отражающие духовные, психологические и социальные аспекты взросления, способствуют развитию у обучающихся эмоционального восприятия, критического мышления и нравственных ценностей. Показано, что применение интерактивных платформ, мультимодальных ресурсов, анимированных фрагментов, технологий цифрового сторителлинга и виртуальной среды позволяет глубже осмыслить художественные тексты Хошимова и повысить их педагогический потенциал. В исследовании предлагается эффективная модель организации уроков литературы на основе возможностей цифровой трансформации образования. Такой подход способствует формированию у учащихся навыков современного прочтения художественного текста, развитию самостоятельного анализа и укреплению социально-эмоциональных компетенций.

Abstract: This article explores the methodological possibilities of teaching the concept of “childhood, ” vividly portrayed in the works of Utkir Hoshimov, through modern tools of digital pedagogy. The representations of childhood in Hoshimov’s texts—which reflect spiritual, psychological, and social dimensions—contribute to the development of students’ emotional perception, critical thinking, and moral values. The study demonstrates that the use of interactive platforms, multimodal resources, animated scenes, digital storytelling technologies, and virtual learning environments enhances learners’ understanding of Hoshimov’s works and increases their educational potential. An effective model for organizing literature lessons within the framework of digital transformation is proposed. This approach enables students to engage with literary texts in contemporary formats, encourages independent reflection, and strengthens socio-emotional competencies.

Kalit so‘zlar: Raqamli pedagogika, bolalik konsepsiyasi, O‘tkir Hoshimov, multimodal ta’lim, raqamli storytelling, virtual ta’lim muhiti, innovatsion metodlar, adabiy ta’lim, emotsional kompetensiya, tanqidiy fikrlash**.**

Ключевые слова: Цифровая педагогика, концепция детства, Уткыр Хошимов, мультимодальное обучение, цифровой сторителлинг, виртуальная образовательная среда, инновационные методы, литературное образование, эмоциональная компетентность, критическое мышление**.**

Key words: Digital pedagogy, childhood concept, Utkir Hoshimov, multimodal learning, digital storytelling, virtual learning environment, innovative methods, literary education, emotional competence, critical thinking.

Bolalik inson hayotining eng sezgir va shakllanadigan davri hisoblanadi. Ushbu davrda bola nafaqat ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtiradi, balki ijtimoiy ko‘nikmalar, tanqidiy fikrlash va emotsional kompetensiyalarni rivojlantiradi. O‘tkir Hoshimovning ijodi esa bolalikni juda realistik, badiiy va ijtimoiy kontekstda tasvirlaydi. Uning asarlarida bolalikning turli jihatlari: o‘yinlar, oilaviy hayot, sinfdoshlar bilan munosabatlar va jamiyatdagi o‘rni chuqur tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida esa raqamli pedagogika vositalari keng qo‘llanilmoqda [2. 6]. Interaktiv platformalar, multimodal resurslar, raqamli hikoyalash (digital storytelling) va virtual muhitlar o‘quvchilarda o‘zlashtirishni yanada samarali qiladi. Shu bois, Hoshimov asarlarini raqamli pedagogika yordamida o‘qitish pedagogik nazariya va amaliyotning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [7].

O‘zbekiston adabiyotining zabardast namoyandalaridan biri O‘tkir Hoshimov ijodi milliy badiiy tafakkur rivojida alohida o‘rin tutadi. Uning asarlarida inson ruhiyatining eng nozik qatlamlari, turmushning oddiy, lekin chuqur ma’noli holatlari, ezgulik, adolat va poklik falsafasi o‘ziga xos badiiy uslubda aks ettiriladi. Shulardan eng markaziylaridan biri — bu **bolalik** fenomenidir. Hoshimov uchun bolalik shunchaki bosib o‘tilgan hayot bosqichi emas, balki inson ruhiyatining eng beg‘ubor, sof, haqiqatga eng yaqin davri sifatida tasvirlanadi. Bugungi kunda ushbu konsepsiyani yosh avlodga yetkazish va Hoshimov asarlaridagi tarbiyaviy-estetik mazmunni chuqur o‘rgatish uchun raqamli pedagogika imkoniyatlarini qo‘llash dolzarb metodik zaruratga aylandi.

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari”, “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”, “Ikki eshik orasi”, “Urushning so‘nggi qurboni” kabi asarlarida bolalik obrazi jamiyatning ma’naviy holatini ochib beruvchi badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi bolalikni romantiklashtirmaydi, lekin uni eng sof insoniy fazilatlarning manbai sifatida ko‘rsatadi. U bolalikni poklik, halollik, samimiyat, adolat, mehr-muruvvat kabi qadriyatlarning shakllanish joyi sifatida talqin etadi. Ayniqsa “Dunyoning ishlari” asarida bolalikning hissiy dunyosi orqali butun bir jamiyatning madaniy va ma’naviy manzarasi ochiladi. Bola nigohi orqali biz mahalla muhiti, qo‘shnichilik odoblari, ota-onaga hurmat, tabiatga mehr, inson qadrini anglash kabi tushunchalarni yanada ta’sirli ko‘ramiz. Shu jihatdan bolalik konsepsiyasi Hoshimov ijodining markazida turadi va har bir voqea, har bir epizod inson ruhiyatining shakllanish bosqichlarini anglashga xizmat qiladi [6. 10].

Bugungi zamon ta’limining o‘zgaruvchan talablari adabiyot o‘qitish jarayoniga ham yangicha yondashuvlarni taqozo etadi. Raqamli pedagogika — bu an’anaviy dars shakllarini to‘ldiruvchi emas, balki o‘zgartiruvchi ta’lim falsafasidir [5. 32]. Raqamli texnologiyalar yordamida matnni multimediali formatda idrok qilish, vizual va audio vositalar orqali hissiy ta’sirni oshirish, interaktiv muhitda matn bilan ishlash, shaxsiylashtirilgan o‘qish, tezkor fikr almashish kabi imkoniyatlar yaratiladi. Hoshimov asarlaridagi bolalik konsepsiyasini raqamli muhit orqali o‘rgatish esa ushbu jarayonni yanada mazmunli qiladi. Chunki bolalik — bu hissiyotlar, xotiralar, ranglar, tovushlar olami; raqamli texnologiyalar esa ushbu olamni talabalarning ongida yana-da jonliroq tasvirlashga yordam beradi.

Raqamli pedagogikaning asosiy tamoyillari — interfaollik, multimediaviylik, kreativlik, shaxsiylashtirilgan yondashuv, va o‘zaro hamkorlik — aynan adabiy ta’limda samarali qo‘llanadigan metodlar sanaladi. Masalan, o‘quvchi Hoshimov qahramonlarining hayotini tasvirlovchi **raqamli hikoya (digital storytelling)** yaratishi mumkin. Raqamli hikoya matn, rasm, audio, video va animatsiya uyg‘unligida tuziladi va bu o‘quvchini nafaqat matinni tushunishga, balki uni qayta yaratishga va ijodiy talqin qilishga undaydi [2. 24]. Masalan, “Dunyoning ishlari”dagi bola qahramonning bir kunini o‘quvchilar CapCut, Canva yoki Filmora orqali qisqa video-hikoya sifatida jonlantirishi mumkin. Bu jarayon o‘quvchilarda matnni chuqur o‘zlashtirish, voqealar ketma-ketligini anglash, eng muhim jihatlarni tanlash, ijodiy fikrlash va texnik ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Shuningdek, Hoshimov asarlarida aks etgan bolalik makonlarini tasvirlash uchun interaktiv xarita — **Virtual Mahalla** loyihasini yaratish ham samaralidir. Masalan, o‘quvchilar asarda tilga olingan joylar — hovli, ko‘cha, maktab, qo‘shnilar uyi, guzar kabi makonlarni onlayn platformalarda (Google Maps, MapHub, Genially) raqamli tarzda belgilab, har bir nuqtaga izoh, rasm yoki audio qo‘shishlari mumkin. Bu yondashuv o‘quvchilarga Hoshimov yaratgan badiiy olamni fazoviy tasavvur qilish imkonini beradi. Badiiy matnning ijtimoiy-madaniy manzarasi raqamli muhitda qayta jonlanadi — natijada o‘quvchi matnni o‘qish emas, balki “ko‘rish”, “his qilish” imkoniga ega bo‘ladi.

Raqamli vositalar orqali matn tahlili ham ancha samarali kechadi. Masalan, WordArt yoki WordCloud xizmatlari yordamida “bolalik” so‘ziga tegishli assotsiatsiyalar buluti yaratish mumkin. Bu dastlabki bosqichda o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilim darajasini aniqlashga yordam beradi. Padlet platformasida esa “Hoshimovda men sezgan bolalik” nomli virtual devor tashkil etilib, o‘quvchilar o‘z fikrlarini rasm, gif, video va matn orqali joylashtirishlari mumkin. Bu esa o‘quvchilarning individual mulohazalarini ommaviy tarzda almashish imkoniyatini beradi, tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradi va umumiy mavzuga ko‘p nuqtai nazardan yondashuvni rivojlantiradi.

Hoshimov asarlarining obrazlari va voqealarini raqamli tahlil qilish uchun interaktiv grafikalar, xarakterlar xaritasi (character map), vaqt chizig‘i (timeline), voqealar diagrammasi (story sequence map) kabi vositalar qo‘llansa, o‘quvchi matn tarkibidagi psixologik, ijtimoiy va badiiy qatlamlarni chuqurroq ko‘ra oladi. Chunki Hoshimov ijodida bolalik — bu oddiy estetik tasvir emas, balki psixologik jarayon, jamiyatning ma’naviy ko‘zgusi, insonning ichki o‘sish bosqichi sifatida muhim o‘rin tutadi [5. 35].

Bolalikning Hoshimov tomonidan berilgan psixologik talqini raqamli “qahramon kundaligi” yaratish metodida yanada samarali o‘zlashtiriladi. O‘quvchilarga “Men — Hoshimov qahramoniman” mavzusida Google Docs yoki Canva orqali virtual kundalik tarzida matn yaratish topshirig‘i beriladi. Bu yo‘l bilan ular qahramonning ichki monologini, qo‘rquvlarini, orzu va armonlarini, ijtimoiy munosabatlarini badiiy tarzda qayta tiklaydi. Bu usul chuqur psixologik tahlil, empatiya, badiiy talqin va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

Zamonaviy raqamli muhit nafaqat ijodiy, balki ijtimoiy muloqot maydonini ham kengaytiradi. Masalan, onlayn debatlar yordamida “Bolalik qanday bo‘lishi

kerak?”, “Hoshimov asarlaridagi bolalik va zamonaviy bolalik qiyoslanishi”, “Mahalla tarbiyasi o‘tmishda va hozir” kabi mavzular muhokama qilinishi mumkin. Bunday muhokamalar yoshlarni tanqidiy fikrlash, nutqiy kompetensiya, madaniyatlararo muloqotga tayyorlaydi.

Raqamli pedagogikaning afzalliklaridan biri — matnning hissiy qatlamini multimedia orqali kuchaytirish imkoniyati. Masalan, Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asaridan parchalar professional ovoz bilan audio tarzda tinglatilsa, o‘quvchilar voqealarning ruhiy ohangini yaxshiroq his qiladi. Film moslashuvlaridan qisqa fragmentlar ko‘rsatilsa, o‘quvchi matn va vizual obraz asosida taqqoslash, o‘xshashlik va farqlarni aniqlash imkoniga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, infografikalar yordamida qahramonlarning xarakter xususiyatlari, hayot yo‘li, tarbiyaviy xulosalar aniq va tizimli shaklda o‘quvchilar ongiga yetkaziladi [10. 42].

Ushbu metodlar natijasida ta’lim jarayonida motivatsiya oshadi, o‘quvchilar matnni mustaqil talqin qilishga o‘rgatiladi, kreativ tafakkur kuchayadi, shaxsiylashtirilgan ta’lim tamoyili amalga oshadi. Ayniqsa yosh avlodning raqamli savodxonligi oshadigan davrda adabiyot darslarini raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtirish ular uchun tabiiy jarayonga aylanadi. O‘quvchi endi matnni nafaqat o‘qiydi, balki uni yaratadi, jonlantiradi, bahs qiladi, baholaydi, tahlil qiladi va o‘z nuqtai nazarini multimedia orqali ifodalaydi.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, O‘tkir Hoshimov asarlaridagi bolalik konsepsiyasini raqamli pedagogika vositalari yordamida o‘qitish samarali pedagogik yondashuv hisoblanadi. Interaktiv platformalar, multimodal resurslar, virtual muhitlar va digital storytelling o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, emotsional kompetensiya va shaxsiy mushohada ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, Hoshimov ijodidagi badiiy obrazlar zamonaviy raqamli metodlar bilan birlashtirilganda, adabiyot darslarining nafaqat ma’naviy, balki texnologik jihatdan ham samaradorligini oshiradi. Ushbu yondashuv adabiy ta’limda innovatsion metodlarni tatbiq etish va raqamli transformatsiyaga moslashishning samarali usuli sifatida ko‘rib chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdurahmonov Z. (2018). *Bolalik psixologiyasi va pedagogikasi*. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

2. Asqarov D. (2020). *Raqamli pedagogika asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Hoshimov O. (1967). *Bolalik xotiralari*. Toshkent: Yosh gvardiya.
4. Hoshimov O. (1975). *Dunyoning ishlari*. Toshkent: Sharq nashriyoti.
5. Hoshimov O. (1980). *Urushning so‘nggi qurboni*. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
6. Islomov R. (2019). *Multimodal o‘qitish texnologiyalari*. Toshkent: Ilm.
7. Karimov A. (2017). *Adabiyot darslarida innovatsion metodlar*. Toshkent: Fan va ma’rifat.
8. Matkarimov S. (2016). *Ta’limda interaktiv platformalar va virtual resurslar*. Toshkent: Ta’lim nashriyoti.
9. Rustamov N. (2018). *Digital storytelling va o‘quvchilarning ijodiy rivoji*. Toshkent: Yoshlar nashriyoti.
10. Tashpulatov B. (2021). *Raqamli transformatsiya sharoitida adabiy ta’lim*. Toshkent: Ilm-fan.

RAQAMLI PEDAGOGIKA SHAROITIDA O‘QUV JARAYONIDAGI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Nishonov Ismoiljon Abdumutalibovich
Xorijiy tillar kafedra mudiri
University of Economics and Pedagogy

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli pedagogika konsepsiyasi doirasida o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari, raqamli vositalar va sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘quv jarayoniga ta’siri ilmiy tahlil qilinadi. Onlayn ta’lim platformalari, interaktiv media resurslar, mobil ilovalar hamda raqamli lingvodidaktikaning imkoniyatlari kommunikativ faoliyatni rivojlantirish nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. Shuningdek, raqamli ta’lim sharoitida yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish mexanizmlari ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli pedagogika, kommunikativ kompetensiya, raqamli lingvodidaktika, onlayn ta’lim, interaktiv texnologiyalar, sun’iy intellekt, muloqot madaniyati.

ФОРМИРОВАНИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ПЕДАГОГИКИ

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ теоретико-методологических основ формирования коммуникативных компетенций у учащихся в рамках концепции цифровой педагогики. Рассматривается влияние цифровых инструментов и технологий искусственного интеллекта на образовательный процесс. Изучается потенциал онлайн-платформ для обучения, интерактивных медиаресурсов, мобильных приложений и цифровой лингводидактики с точки зрения развития коммуникативной активности. Кроме того, освещаются проблемы, возникающие в условиях цифрового образования, и научно обоснованные механизмы их преодоления.

Ключевые слова. Цифровая педагогика; коммуникативная компетенция; цифровая лингводидактика; онлайн-обучение; интерактивные технологии; искусственный интеллект; культура коммуникации.

FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCIES IN THE LEARNING PROCESS IN THE CONDITIONS OF DIGITAL PEDAGOGY

Annotation. This article provides a scholarly analysis of the theoretical and methodological foundations for developing communicative competencies in students within the framework of digital pedagogy. It examines the impact of digital tools and artificial intelligence technologies on the learning process. The study explores the potential of online learning platforms, interactive media resources, mobile applications, and digital linguodidactics in fostering communicative activity. Furthermore, it addresses the challenges arising in the context of digital education and presents evidence-based mechanisms for their resolution.

Keywords. Digital pedagogy; communicative competence; digital linguodidactics; online learning; interactive technologies; artificial intelligence; communication culture.

Global raqamli transformatsiya jarayonlari zamonaviy ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Ta’limning raqamli muhitga ko‘chishi o‘quv materiallarini yetkazish shaklini, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi kommunikatsiya modelini hamda kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini tubdan o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda raqamli vositalarning o‘rni yildan-yilga ortib bormoqda. Kommunikativ

kompetensiya shaxsning og‘zaki va yozma nutq orqali fikrni aniq, mantiqiy va vaziyatga mos holda ifodalash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, raqamli pedagogika ta’lim jarayonida multimedia, internet texnologiyalari, sun’iy intellekt, virtual reallik va mobil platformalar kabi vositalardan integrativ foydalanishni nazarda tutadi. Bu qo‘shilish natijasida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning yangi didaktik mexanizmlari yuzaga kelmoqda, ular o‘quvchilarning malaka va ko‘nikmalarini zamonaviy raqamli muhitga mos ravishda rivojlantirish imkonini beradi.

Raqamli pedagogika — ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etish, boshqarish va optimallashtirishni o‘rganadigan ilmiy-amaliy yo‘nalishdir. Uning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Raqamli ta’lim platformalari – Moodle, Google Classroom kabi resurslar;

Masofaviy muloqot vositalari – Zoom, Microsoft Teams va boshqa onlayn konferensiya tizimlari;

Sun’iy intellekt asosidagi o‘quv tizimlari – individuallashtirilgan o‘quv jarayonlarini yaratishga imkon beruvchi vositalar;

Virtual va qo‘shimcha reallik resurslari – VR/AR texnologiyalari orqali interaktiv o‘quv tajribasi;

Kollaborativ onlayn muhitlar – hamkorlikka asoslangan masofaviy ishlash va loyiha faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi platformalar. [2;59]

Ushbu komponentlarning uyg‘unlashtirilishi ta’lim jarayonida yangi pedagogik yondashuvlar va o‘quv metodikalar paydo bo‘lishiga zamin yaratadi, shuningdek, talabalarning malaka va kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatini kengaytiradi.

Kommunikativ kompetensiya shaxsning og‘zaki va yozma muloqot orqali fikrini aniq, mantiqiy va vaziyatga mos ifodalash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. U quyidagi tarkibiy elementlardan tashkil topadi:

Lingvistik kompetensiya – til birliklarini bilish va ularni to‘g‘ri qo‘llash;

Nutqiy kompetensiya – fikrni og‘zaki va yozma shaklda ifodalash qobiliyati;

Sotsiolingvistik kompetensiya – vaziyatga mos nutq etiketi va uslubni qo‘llash;

Pragmatik kompetensiya – muloqot maqsadiga erishish uchun til vositalaridan samarali foydalanish;[1,69]

Raqamli kommunikativ kompetensiya – onlayn muloqot madaniyati, elektron yozishmalar etiketi, virtual muhitda nutqni boshqarish ko‘nikmalari.

Raqamli pedagogika ushbu kompetensiyalarni bir butun tizimda shakllantirishga xizmat qiladi, ta’lim jarayonini interaktiv, individuallashtirilgan va samarali qiluvchi integrativ yondashuvlarni tatbiq etadi.

Raqamli pedagogika sharoitida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

Interaktiv topshiriqlar – onlayn debatlar, virtual davra suhbatlari, rolli o‘yinlar va fikr-mulohaza almashinuvlari orqali talabalarning og‘zaki va yozma muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Raqamli loyihalar – talabalarning podkast, videoblog, infografika va onlayn prezentatsiyalar yaratishi orqali amaliy kommunikativ kompetensiyalarni mustahkamlash.

Mobil ta’lim – mobil qurilmalar yordamida mustaqil o‘qish, tezkor lingvistik mashqlar va o‘z-o‘zini baholash tizimlari orqali shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash.

Kollaborativ ta’lim – Google Docs, Padlet, Miro kabi platformalar orqali jamoaviy matn yaratish, loyiha ishlab chiqish va nutqiy muloqot olib borish imkoniyatini yaratish.

Shuningdek, raqamli kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida quyidagi muammolar uchraydi: texnologik savodxonlikning yetishmasligi, masofaviy ta’limda motivatsiya pasayishi, internet infratuzilmasining sustligi, virtual muhitda nutq etiketi buzilishi va pedagoglarning raqamli kompetensiyalarining yetarli emasligi. Ushbu muammolarni bartaraf etish zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalarni tatbiq etish orqali samarali o‘quv jarayonini ta’minlash imkonini beradi. [3,47]

Yuqorida berilgan ma’lumotlarga asoslanib quyidagi taklif va tavsiyalar berishimiz mumkin. Raqamli pedagogika va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini samarali tashkil etish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi: Pedagoglar uchun doimiy raqamli malaka oshirish kurslarini tashkil etish, bu orqali ularning texnologik va metodik salohiyatini oshirish;[4,251]

Sun’iy intellektdan foydalanish etikasi bo‘yicha maxsus o‘quv modullarini yaratish, talabalarda axloqiy va xavfsiz foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;

Virtual simulyatsiyalar asosida kommunikativ mashqlarni joriy etish, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini yaratish;

Raqamli pedagogika vositalarini milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilish, o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish;

Media-savodxonlik va onlayn muloqot madaniyatini o‘quv dasturlariga kiritish, talabalarni raqamli muhitda samarali muloqotga tayyorlash;

Kollaborativ loyihalarni kengaytirish, jamoaviy ish va hamkorlik kompetensiyalarini mustahkamlash. Ushbu tavsiyalar amalga oshirilishi raqamli transformatsiya sharoitida talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish va turizm sohasida yangi leksik birliklarni o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli pedagogika kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda samarali, innovatsion va integrativ yondashuvlarni taklif etadi. Raqamli vositalar yordamida o‘quvchilarning nutqiy, lingvistik, sotsiolingvistik va raqamli kommunikativ ko‘nikmalari kompleks tarzda rivojlanadi. Shunga qaramay, jarayon muvaffaqiyati texnologik infratuzilma, o‘qituvchilarning raqamli tayyorgarligi hamda o‘quvchilarning motivatsiyasiga bevosita bog‘liqdir. Raqamli pedagogika imkoniyatlaridan samarali foydalanish natijasida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni yanada takomillashadi va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Anderson, T. The Theory and Practice of Online Learning. Athabasca University Press, 2008. –59.
2. Bokiev M. Raqamli pedagogika: nazariy asoslari va rivojlanish istiqbollari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – 280 b.
3. Hasanboyeva O. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019. – 320 b.
4. Luckin, R. et al. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. London: UCL Institute of Education, 2016.
5. Mayer, R. Multimedia Learning. Cambridge University Press, 2021.

6. Nurmatova Sh. “Onlayn ta’limda muloqot kompetensiyasini shakllantirish texnologiyalari”. // Pedagogik mahorat, 2023, №1, 57–64-betlar.
7. Trilling, B., Fadel, C. 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. Jossey-Bass, 2009.
8. Z. T. Nishanova, N. G. Kamilova, D. U. Abdullayeva, M. X. Xolnazarova RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASI. PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA Toshkent –2018 251-252 b.

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN BUXGALTERIYA HISOBI O‘QITISHNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Qudbiyev Nodir Tohirovich,
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi assistenti,
e-mail: nodir. qudbiyev@fstu. uz, +998911054548.

Annotatsiya. Ushbu ilmiy tadqiqotda imkoniyati cheklangan bolalarga buxgalteriya hisobini o‘qitishning ijtimoiy ahamiyati va zarurligi masalasi ko‘tarilgan. Muallifning fikricha, zamonaviy dunyoda har bir inson uchun bazaviy moliyaviy bilimlarga ega bo‘lish muhimdir. Bu, ayniqsa, jamiyatda to‘laqonli hayot kechirishga tayyor bo‘lishi kerak bo‘lgan alohida ehtiyojli bolalarga taalluqlidir. Buxgalteriya hisobi ko‘nikmalarini egallash imkoniyati cheklangan bolalar uchun muvaffaqiyatli karyera va mustaqillikning kaliti bo‘lishi mumkin. Ular ishlash, biznes yuritish va atrofdagilar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, bu esa ularning oldida yangi ufqlarni ochadi. Muammoning yechimi sifatida alohida ehtiyojli bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablarda buxgalteriya hisobini o‘rgatish taklif etilmoqda. Shuningdek, maqolada ta’lim samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: imkoniyati cheklangan bolalar, buxgalteriya hisobi, inklyuziv ta’lim, moliyaviy savodxonlik, ijtimoiy integratsiya, kasbiy tayyorgarlik, maxsus ta’lim dasturlari, pedagogik metodika.

СОЦИАЛЬНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ОБУЧЕНИЯ БУХГАЛТЕРСКОМУ УЧЕТУ ДЛЯ ДЕТЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

Аннотация. В данном научном исследовании поднимается вопрос о социальной значимости и необходимости обучения бухгалтерскому учету детей с ограниченными возможностями. По мнению автора, в современном мире важно для каждого человека иметь базовые финансовые знания. Это особенно относится к детям с особыми потребностями, которые должны быть готовы к полноценной жизни в обществе. Овладение навыками бухгалтерского учета может быть ключом к успешной карьере и независимости для детей с ограниченными возможностями. Они получат возможность работать, вести бизнес и общаться с окружающими, что откроет перед ними новые горизонты. В качестве решения проблемы предлагается обучение бухгалтерскому учету в специализированных школах для детей с особыми потребностями. Также в статье даны рекомендации по повышению эффективности образования.

Ключевые слова: дети с ограниченными возможностями, бухгалтерский учет, инклюзивное образование, финансовая грамотность, социальная интеграция, профессиональная подготовка, специальные образовательные программы, педагогическая методика.

THE SOCIAL SIGNIFICANCE OF ACCOUNTING EDUCATION FOR CHILDREN WITH DISABILITIES

Abstract. This scientific study raises the issue of the social importance and necessity of teaching accounting to children with disabilities. According to the author, in the modern world it is important for everyone to have basic financial knowledge. This is especially true for children with special needs, who must be prepared for a fulfilling life in society. Mastering accounting skills can be the key to a successful career and independence for children with disabilities. They will have the opportunity to work, run a business and communicate with others, which will open up new horizons for them. As a solution to the problem, accounting training is offered in specialized schools for children with special needs. The article also provides recommendations for improving the effectiveness of education.

Keywords: children with disabilities, accounting, inclusive education, financial literacy, social integration, vocational training, special educational programs, pedagogical methodology.

Imkoniyati cheklangan bolalarga, ayniqsa, buxgalteriya hisobi sohasida kasb-hunar ta’limi berish jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Bugungi globallashuv va raqamli o‘zgarishlar davrida kasbiy integratsiya, imkoniyatlar tengligi va inklyuziv ta’limga ko‘maklashish davlat siyosatining eng muhim maqsadidir. Shunday qilib, alohida ehtiyojli talabalarga buxgalteriya hisobini o‘qitish ham ijtimoiy, ham iqtisodiy sabablarga ko‘ra muhimdir.

Hukumat inklyuziv ta’limni rivojlantirish va alohida ehtiyojli insonlarning jamiyat hayotida to‘laqonli ishtirok etishiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Buxgalteriya hisobi - bu talab yuqori bo‘lgan kasb bo‘lib, bu odamlarga mustaqil ish topish va mehnat faoliyatiga hissa qo‘shish imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari, 1S, ERP, MyBooks kabi zamonaviy iqtisodiy tizimlarda raqamli buxgalteriya dasturiy ta’minotidan keng foydalanish natijasida ko‘plab jarayonlar avtomatlashtirilgan. Bu jismoniy imkoniyati cheklangan odamlarga zarur ko‘nikmalarni egallashni osonlashtiradi va ularning masofadan ishlash qobiliyatini yaxshilaydi, ularni mehnat bozorida yanada raqobatbardosh qiladi. Buxgalteriya hisobini o‘rganish ijtimoiy integratsiya, shaxsiy o‘sish, mustaqillik va moliyaviy savodxonlik kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu notinch oilalar farzandlarining ijtimoiy faolroq bo‘lishiga, jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga va o‘z qobiliyatlariga ishonishiga yordam beradi. Bu ham ularni ijtimoiy faoliyatning faol ishtirokchisiga aylanishga undaydi.

Buxgalteriya hisobini o‘rganish, mehnat bozorida masofadan ishlash imkoniyatlarining ko‘payishi alohida ehtiyojli odamlarga uyda ishlash, frilanserlik va o‘z ehtiyojlariga mos keladigan ish jadvallarini yaratish kabi afzalliklardan foydalanish imkoniyatini beradi. Bu nafaqat ijtimoiy ta’minot tizimidagi yuklamani kamaytiradi, balki iqtisodiy unumdorlikni ham oshiradi.

Bundan tashqari, innovatsion hisobga olish usullari, audio darslar, interaktiv dasturlar, Brayl alifbosida yozilgan materiallar va eshitish va ko‘rish qobiliyati cheklangan o‘quvchilar uchun moslashtirilgan resurslar kabi ko‘rgazmali

vositalar va yordamchi texnologiyalar tufayli ta’lim alohida ehtiyojli o‘quvchilarni o‘quv jarayoniga jalb qilishning amaliy yechimiga aylanishi mumkin.

Bugungi kundagi ta’limdagi innovatsion yondashuvlar imkoniyati cheklangan bolalar o‘qitishga ham o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda, jumladan, masofaviy (onlayn) kurslar, video va audio ko‘rinishdagi darslar bularning barchasi inklyuziv ta’lim tizimi sifatida o‘z o‘rnini topmoqda.

Inklyuziv ta’lim tizimida imkoniyati cheklangan bolalarga buxgalteriya hisobi asoslarini o‘rgatish alohida o‘rin tutadi. Yana bir qulayligi shundaki inklyuziv ta’lim tizimi imkoniyati cheklangan bolalarning tengdoshlari bilan birgalikda ta’lim olishi uchun sharoit yaratishni nazarda tutadi, bu esa ularning ijtimoiylashuvi va moslashuviga ko‘maklashadi. Jismoniy zaif bolalar uchun ularning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim dasturlaridan, shu jumladan buxgalteriya hisobidan foydalanish imkoniyatini ta’minlash muhimdir. Bunga o‘quv materiallarini moslashtirish, maxsus metodikalar va texnik vositalardan foydalanish kirishi mumkin [2].

Hozirgi vaqtda buxgalter kasbi diqqatni jamlash, sabr-toqat va raqamlar bilan ishlash ko‘nikmalarini o‘z ichiga olgan talabgor sohadir. Ushbu ko‘nikmalar imkoniyati cheklangan bolalarda, ayniqsa ta’lim jarayoni ularning individual ehtiyojlariga moslashtirilsa, rivojlantirilishi mumkin. Bu orqali bolalar uchun buxgalteriya hisobi nafaqat kasbga, balki kognitiv qobiliyatlarni, mantiqiy fikrlashni va mustaqillikni rivojlantirish usuliga aylanishi mumkin.

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga buxgalteriya hisobi ko‘nikmalarini o‘rgatish ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga yordam beradi. Bu ularga ijtimoiy cheklovlarni yengib o‘tish va jamiyatning to‘laqonli a’zosi bo‘lish imkonini beradi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish jarayoni o‘ziga xos yondashuvni talab qiladi. Ularning jismoniy, psixologik va kognitiv xususiyatlarini hisobga olish kerak. Bunday ta’limning asosiy tamoyillari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Individual yondashuv. O‘quv dasturlari har bir bolaning o‘ziga xos ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

2. Moslashuvchan texnologiyalardan foydalanish. Ta’lim jarayonini yanada qulayroq qilish uchun maxsus dasturlar, audio va video materiallar, shuningdek, taktik vositalar qo‘llaniladi.

3. Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim. Asosiy e’tibor real vazifalar va misollarga qaratiladi, bu esa materialni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

4. Psixologik yordam. Bolalar o‘zlarini ishonchli his qilishlari, qo‘rquv va ishonchsizlikni yengishlari uchun qulay ta’lim muhiti yaratiladi.

Imkoniyati cheklangan bolalarga buxgalteriya hisobini o‘rganish yordamida ularning kelajakdagi, moliyaviy farovonligiga erishish mumkin. Bu ayniqsa ularning jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, oila qurishi, moliyaviy yuksalish kabi ijtimoiy masalalarni ham samarali hal etishga imkon beradi, bu davlatning ham birlamchi vazifalaridan hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2021- yil 12-oktyabrdagi 638-son qarori bilan tasdiqlangan “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori [1] imkoniyati cheklangan bolalarning alohida ta’lim ehtiyojlari hisobga olgan holda inklyuziv ta’limni tashkil etish belgilab berdi.

Buxgalteriya hisobini o‘qitish va o‘rganish, professional ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyati cheklangan bolalar uchun ko‘plab istiqbollarni ochib beradi, hamda ularni kelajakda jamiyatda o‘z o‘rnini topishlariga imkon beradi, xususan:

Ishga joylashtirish. Buxgalteriya sohasida ish qidirish turli xil xususiyatlarga ega bo‘lgan odamlar uchun moslashtirilishi mumkin. Ko‘pgina firmalar, korxonalar imkoniyati cheklangan xodimlar uchun masofadan ishlash imkoniyatini taqdim etadi yoki maxsus sharoitlar yaratib beradi.

Mustaqillik. Buxgalteriya hisobni yuritish va moliyani boshqarish ko‘nikmalari imkoniyati cheklangan bolalar uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi hamda kundalik hayotda yanada mustaqil bo‘lishga yordam beradi.

Ijtimoiy integratsiya. Buxgalteriya hisobi sohadagi ishlar jamiyatga qo‘shilishga yordam beradi va ijtimoiy yakkalanish hamda yolg‘iz qarashlarni yengishga ko‘maklashadi.

Oliy ta’lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalarni buxgalteriya hisobi sohasida o‘qitish, odatiy tarzda tashkillangan alohida ehtiyojli ega talabalar uchun sharoit yaratilmagan. Biroq ularni oliy ta’lim muassasalari qabul qilishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalariga nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘shimcha davlat granti kvotalari asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi nizomni tasdiqlash haqida qaroriga muvofiq bir

qator imtiyozlar berilgan. Bu shuni anglatadiki O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarni keyingi katta hayotida qiynalmasliklari va ma’lum bir sohada oliy ma’lumotli mutaxassis sifatida jamiyatga qo‘shilishlariga imkon beradi.

Biroq shuni yodda tutish kerakki imkoniyati cheklangan talabalarni o‘qitish masalasi dolzarb muammo bo‘lib, o‘qitishning innovatsion yondashuvlari, usullari va shakllarini, shu jumladan, masofaviy ta’limni izlashni talab qiladi.

Sharqiy va G‘arbiy Yevropa mamlakatlari, AQSH va Yaponiyada alohida ehtiyojli shaxslar uchun oliy ta’limdan foydalanish imkoniyati muammosi jiddiy tashvish uyg‘otmoqda. Bu muammo tobora dolzarb bo‘lib bormoqda, chunki masofaviy ta’lim texnologiyalari yordamida oliy ma’lumot olayotgan talabalar soni tobora ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda barcha talabalarning 5, 7 foizi shu tarzda ta’lim oladi va barcha talabalar, shu jumladan, alohida ehtiyojli shaxslar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash uchun oliy ta’lim olish imkoniyatini kafolatlash juda muhimdir [4,13].

Aynan imkoniyati cheklangan bolalarni buxgalteriya hisobi sohasida o‘qitishdagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llariga to‘xtaladigan bo‘lsak. Imkoniyati cheklangan bolalarni buxgalteriya hisobiga o‘qitish istiqbolli ko‘rinsada, hal qilinishi kerak bo‘lgan bir qator muammolar mavjud:

1. Tajribali mutaxassislarning yetishmasligi. Ko‘pgina o‘qituvchilar aynan imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash uchun yetarli tajriba va bilimga ega emas.

2. Maxsus dasturlarning yo‘qligi. Imkoniyati cheklangan bolalarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan maxsus kurslar va metodikalarni ishlab chiqish zarur.

3. Ijtimoiy stereotiplar. Jamiyat har doim ham imkoniyati cheklangan bolalarni kasbiy faoliyatning to‘laqonli ishtirokchilari sifatida qabul qilishga tayyor emas.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi qadamlarni qo‘yish kerak:

1. O‘qituvchilarning malakasini oshirish. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan samarali muloqot qilishlari uchun ularga qanday ishlashni o‘rgatish muhimdir.

2. Moslashtirilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish. Zamonaviy talablardan kelib chiqib imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan dasturlarni yaratish va joriy etish zarur.

3. Targ‘ibot va tarbiya ishlarini olib borish. Imkoniyati cheklangan bolalarning kasbiy rivojlanishiga ota-onalar va jamiyatning munosabatini o‘zgartirish muhimdir. Bu bunday bolalarning kasbiy muhitda yanada bag‘rikeng va ijobiy idrokini shakllantirishga yordam beradi.

Imkoniyati cheklangan bolalar faol rivojlanayotgan muhitda maksimal darajada ishtirok yetishlari va turli amaliy tadbirlarda ishtirok yetishlari juda muhimdir. Bu o‘quv va kasbiy faoliyatning asosiy bosqichlarini shakllantirishga yordam beradi, shuningdek, o‘quv va kognitiv faoliyatga qiziqishni oshiradi.

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ishlab chiqarish ta’limi darslarini ishlab chiqish ham ta’lim, ham tuzatish va rivojlanish maqsadlarini o‘z ichiga oladi:

1. Ishlab chiqarish ta’limi uchun ijobiy motivatsiyani shakllantirish.

2. Nutq muammolarini bartaraf yetish va professional so‘z boyligini kengaytirish.

3. Turli harakatlarni bajarishda nozik vosita mahoratini rivojlantirish va barmoq harakatlarini muvofiqlashtirishni yaxshilash.

4. Xotirani rivojlantirish.

5. Mantiqiy fikrlash, umumlashtirish va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

6. Diqqatni rivojlantirish.

Imkoniyati cheklangan talabalar uchun o‘quv jarayonidagi birinchi qadam ularni asboblar bilan ishlash ko‘nikmalarini egallashga tayyorlashga qaratilgan ixtisoslashtirilgan tuzatish ishlarini olib borishdir.

Treningni tashkil qilishda biz har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olamiz.

Birinchi semestrning ikkinchi yarmida ishlab chiqarish ta’limi darslarida, kirish brifingida va tanaffuslarda quyidagi mashqlar o‘tkaziladi:

Nozik vosita mahoratini rivojlantirish: talabalarga barmoq va qo‘l mashqlari kabi harakatlarni muvofiqlashtirishni yaxshilashga qaratilgan mashqlar beriladi.

Diqqat va vizual idrokni rivojlantirish: talabalar namuna asosida obyektning to‘liq tasvirini yaratishni, turli shakl va o‘lchamdagi shablonlarni taqqoslashni va tartibga solishni o‘rganadilar.

Eshitish e’tiborini rivojlantirish va grafik ko‘nikmalarini oshirish uchun talabalar rasm chizish bilan bog‘liq turli xil vazifalarni bajaradilar. Ular naqsh bo‘yicha turli xil chiziqlar chizishni, obyektlarning konturlarini nusxalashni va chizishni o‘rganadilar. O‘qituvchi yoki murabbiyning diktanti ostida katakli qog‘ozda bajariladigan grafik diktant ular uchun ayniqsa qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi.

Shunday qilib, biz imkoniyati cheklangan talabalar bilan darslarni o‘qitishda o‘qituvchi oldida turgan bir nechta asosiy maqsadlarni aniqlashimiz mumkin:

1. Bolalarni ishni boshlashdan oldin vazifani tushunishga va harakatlar ketma-ketligini yodda tutishga o‘rgating.
2. Ularga o‘z harakatlarini rejalashtirishga va ish natijalarini baholashga yordam berish.
3. O‘qituvchi yordamida o‘rgangan ko‘nikmalarini mustaqil ravishda qo‘llashga ko‘maklashish.
4. Ularni ish jarayonida turli xil texnikalar o‘rtasida almashishga o‘rgatish.
5. Ularga o‘z ishlari haqida og‘zaki hisobot berishni o‘rgatish.

Xulosa qilib aytganda, imkoniyati cheklangan bolalarga buxgalteriya hisobini o‘rgatish ularning kasbiy va ijtimoiy integratsiyasi yo‘lidagi muhim qadamdir. Ularga qulay sharoit yaratib berilsa, zamonaviy metodikalar qo‘llanilsa, jamiyatning qo‘llab-quvvatlashiga erishilsa, bunday bolalar ushbu kasb uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtira oladi. Bu nafaqat ularning oldida yangi martaba istiqbollarini ochadi, balki ularga yanada mustaqil va o‘ziga ishongan bo‘lishga yordam beradi. Bu esa, o‘z navbatida, ularga jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shish imkonini beradi.

Buxgalteriya hisobi sohasidagi inklyuziv ta’lim — bu shunchaki kasbga o‘rgatish emas, balki har bir bolaning jismoniy yoki psixologik xususiyatlaridan qat’i nazar, teng imkoniyatlar va to‘laqonli hayotga erishish yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni

tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, 12. 10. 2021 yildagi 638-son. https://lex. uz/ru/docs/-5679836

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalariga nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘shimcha davlat granti kvotalari asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi nizomni tasdiqlash haqida qarori, 02. 06. 2018 yildagi 417-son. https://lex. uz/docs/-3765153

3. Ерохина, И. Н., & Торгашова, А. А. (2018). Интегрированное обучение: опыт, проблемы, перспективы. Педагогический поиск, (1), 36-39.

4. Белявский, Б. В. (2012). Исследование социального взаимодействия обучающихся с нарушением интеллекта в процессе их трудовой деятельности. Специальное образование, (4), 5-14.

RAQAMLI TA’LIM MUXITIDA UZLIKSIZ TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Orziqulov Xusnidin
Qo‘qon universiteti pedagogika va psixologiya kafedrasi v.b. dotsenti
xusnidinorziqulov@gmail. com
Abdurashidova Durdonaxon
Qo‘qon universiteti xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
durona6abdurashidova@gmail. com

Anotatsiya: Maqolada, axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida ta’lim sifatini oshirishdagi asosiy muammolar va ular uchun taklif etilgan yechimlar batafsil tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan amaliyotda foydalanish o‘quvchilarning intellektual, ijodiy va axloqiy rivojlanishining zaruriy shartidir. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining mavjudligi o‘z-o‘zidan ta'lim jarayonida ulardan samarali foydalanish masalasini hal qilmaydi. Ular o‘qituvchi uchun ham, talaba uchun ham o‘ziga xos ma’no, mavzu mazmuni bilan to‘ldirilishi kerak. O‘qituvchi uchun ular pedagogik ish samaradorligini oshirish vositasi, o‘quvchi uchun ular uning bilim olish samaradorligini oshirish vositasidir. Kompyuter ta’limi texnologiyalari - o‘qituvchining axborotni taqdim etish, uzatish va to‘plash, nazoratni tashkil etish va boshqarish bo‘yicha funktsiyalarining bir

qismini modellashtiruvchi kompyuter texnologiyalari, telekommunikatsiyalar va interaktiv dasturiy mahsulotlarga asoslangan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish usullari, vositalari majmuidir.

Kalit so‘zlar: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta’lim sifati, raqamli ta’lim, masofaviy ta’lim, o‘qituvchilar malakasi, texnologiyalarga kirish, onlayn ta’lim platformalari.

ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация: В статье подробно анализируются основные проблемы повышения качества образования с использованием информационно-коммуникационных технологий и предлагаемые пути их решения. Практическое использование современных образовательных технологий является необходимым условием интеллектуального, творческого и нравственного развития обучающихся. Практика показывает, что наличие информационно-коммуникационных технологий в образовательных учреждениях само по себе не решает проблему их эффективного использования в образовательном процессе. Они должны быть наполнены определенным смыслом и предметным содержанием как для преподавателя, так и для студента. Для преподавателя они являются средством повышения эффективности педагогического труда, а для студента - средством повышения эффективности усвоения им знаний. Компьютерные образовательные технологии - это совокупность методов и средств создания педагогических условий на основе компьютерных технологий, телекоммуникаций и интерактивных программных продуктов, моделирующих часть функций преподавателя по представлению, передаче и сбору информации, организации и управлению контролем.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, качество образования, цифровое обучение, дистанционное обучение, квалификация учителей, доступ к технологиям, платформы онлайн-обучения.

PROBLEMS AND SOLUTIONS IN IMPROVING THE QUALITY OF CONTINUOUS EDUCATION IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Abstract: The article analyzes in detail the main problems of improving the quality of education using information and communication technologies and the proposed solutions for them. The practical use of modern educational technologies is a prerequisite for the intellectual, creative and moral development of students. Practice shows that the presence of information and communication technologies in educational institutions does not by itself solve the problem of their effective use in the educational process. They must be filled with a specific meaning and subject content for both the teacher and the student. For the teacher, they are a means of increasing the effectiveness of pedagogical work, and for the student, they are a means of increasing the effectiveness of his knowledge acquisition. Computer educational technologies are a set of methods and tools for creating pedagogical conditions based on computer technologies, telecommunications and interactive software products that model part of the teacher's functions in presenting, transmitting and collecting information, organizing and managing control.

Keywords: Information and communication technology, quality of education, digital learning, distance learning, teacher qualifications, access to technology, online learning platforms.

Kirish: Muxtaram prizidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid manoli gaplari ta’lim tizimini yanada rivojlantirish va unga zamonaviy texnologiyalarni kiritishning ahamiyatini ta’kidlaydi. U o‘z nutqlarida ta’lim sifatini oshirish, yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish va raqamli ta’limni rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab g‘oyalar va strategiyalarni ilgari surgan.

Quyida, Shavkat Mirziyoyevning ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar bilan bog‘liq ayrim manoli gaplari keltirilgan:[1]

1. “Bizning kelajagimiz bilimli, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirgan yoshlar qo‘lida. ”
2. “Yangi zamon talablari doirasida o‘qituvchilarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilishga, o‘quvchilarga interaktiv ta’lim berishga o‘rgatish zarur”.

Bu muloxazali fikirlarda o‘qituvchilarning malakasini oshirish va ular uchun zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratish zarurligi ta’kidlanadi.

Ta’lim tizimining rivojlanishi jamiyatning barcha sohalaridagi taraqqiyotga ta’sir ko‘rsatadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi ta’lim tizimini yangilashda muhim o‘rin tutadi. axborot-kommunikatsiya texnologiyalaryordamida ta’lim olishning yangi shakllari, masofaviy ta’lim, interaktiv darslar va onlayn resurslar imkoniyatlari yaratilgan. Shu bilan birga, ta’lim tizimining rivojlanishi faqatgina texnologiyalarga kirish imkoniyatlari bilan bog‘liq emas, balki o‘qituvchilarning bu texnologiyalarni qanday qo‘llashi va o‘quvchilarni samarali ta’lim olishga yo‘naltirishdagi malakalariga ham bog’liqdir. Biroq, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning ta’lim jarayoniga kirishdagi samaradorligi ba’zi muammolar bilan bog‘liq bo‘lib, ular yechim talab qiladi.

Maqolada, axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida ta’lim sifatini oshirishdagi asosiy muammolar va ular uchun taklif etilgan yechimlar batafsil tahlil qilinadi.

Asosiy qism: Ta’limdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati va ular bilan bog‘liq muammolar haqida ko‘plab tadqiqotlar mavjud.

Ali, S. (2020) “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim” maqolasida AKTlarning ta’limga ta’siri va bu texnologiyalardan samarali foydalanishning ahamiyatini ta’kidlagan. U o‘qituvchilarning texnologiyalarga bo‘lgan qiziqish va malakasini oshirish zarurligini ko‘rsatgan. [2;41-46]

Kishik, T. (2019) “Onlayn ta’lim va uning pedagogik muammolari” nomli tadqiqotida, internet orqali ta’lim olishning ijobiy va salbiy tomonlarini o‘rganib, texnologiyalarga kirishning cheklanganligi ba’zi o‘quvchilarning ta’lim olishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. [3; 45-58]

Rahmatov, A. (2021) “Raqamli ta’lim tizimlari: Ta’limda texnologiyalarning roli” nomli maqolasida, raqamli platformalarning ta’limda qanday qilib samarali ishlatilishini o‘rganib, ta’limda texnologiyalarni joriy etishda muhim omillarni belgilab beradi. Shuningdek, o‘qituvchilarni malaka oshirishning ahamiyatini va raqamli ta’lim dasturlarini samarali joriy etishning zarurligini ko‘rsatgan. [4; 25-30]

1. ***Ta’lim sifatini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni:***

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’limni yanada samarali va interaktiv qilish imkonini yaratadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar yordamida o‘quvchilar o‘z vaqtlarida masofaviy ta’lim olishlari, video darslar, onlayn mashqlar orqali o‘z bilimlarini mustahkamlashlari mumkin. Shuningdek, o‘qituvchilarga darslarni interaktiv tarzda o‘tish, o‘quvchilarning bilimi va malakasini real vaqtda baholash imkoniyatini beradi. Masofaviy ta’lim, ayniqsa, pandemiya davrida ta’lim jarayonini davom ettirishda muhim rol o‘ynadi.

2. ***Muammolar:***

- Texnologiyalarga kirishning cheklanganligi: Ba’zi hududlarda, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, texnologiyalarga kirish imkoniyati cheklangan. Internetning sekinligi, texnologik infratuzilmaning yetersizligi va kompyuterlar yoki mobil qurilmalarning yetishmasligi o‘quvchilarning ta’lim olishda qiyinchiliklarga duch kelishiga olib keladi;

- O‘qituvchilarning malakasi: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan samarali foydalanish uchun o‘qituvchilarni texnologiyalarga moslashtirish zarur. Biroq, ba’zi o‘qituvchilar yangi texnologiyalarni yaxshi tushunmasligi, bu esa ta’lim sifatini pasaytirishi mumkin. Shuningdek, o‘qituvchilarning texnologiyalarni ta’limda qanday qo‘llashini o‘rganish uchun doimiy malaka oshirish kurslari zarur;

- Raqamli ta’lim dasturlarining samarali ishlatilmasligi: Ba’zi hollarda, raqamli ta’lim dasturlari samarali ishlatilmaydi. O‘quvchilarning faqat video darslarni ko‘rish yoki materialni o‘qishdan ko‘ra, interaktiv metodlar va amaliy mashqlar orqali bilim olishlari ko‘proq samarali bo‘ladi.

3. ***Yechimlar:***

- O‘qituvchilarni malaka oshirish: O‘qituvchilarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun muntazam ravishda malaka oshirish kurslarini o‘tkazish zarur. Bu, o‘z navbatida, ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi;

- Texnologiyalarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish: Internet infratuzilmasi va texnologiyalarga kirishni kengaytirish uchun davlat va xususiy sektordan sarmoyalar jalb etish zarur. Bu, ayniqsa, qishloq joylaridagi o‘quvchilar uchun muhimdir;

- Interaktiv ta’lim platformalarini rivojlantirish: Ta’lim platformalari interaktiv va foydalanuvchiga qulay tarzda ishlab chiqilishi kerak. O‘quvchilar o‘zlashtirishni faqat ko‘rish va o‘qish bilan emas, balki amaliy mashqlar va testlar orqali ham mustahkamlashlari mumkin;

- Internet va tarmoq infratuzilmasini rivojlantirish: Internetning har joyda mavjud bo‘lishi ta’limning sifatini oshiradi. Tarmoq infratuzilmasini rivojlantirish, masofaviy ta’lim va o‘qitish uchun zarur bo‘lgan barcha shart-sharoitlarni yaratish zarur.

Xulosa: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’limda qo‘llanilishi ta’lim sifatini oshirishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, bu texnologiyalardan samarali foydalanish uchun o‘qituvchilarning malakasini oshirish, internet infratuzilmasini rivojlantirish va ta’lim platformalarini samarali joriy etish zarur. Texnologiyalarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va ularni ta’limda samarali qo‘llash, kelajakda ta’lim tizimini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Olimlarning yondashuvi asosida pedagogik nuqtai nazardan faol o‘qitish metodlarini talabalar bilish faoliyatini faollashtirish vositasi sifatida uch guruxga bo‘linadi: dasturli muammoli va interfaol shu nuqtai nazardan xar bir o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali qo‘llay olish zarur. [5;228-230]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev (2017) ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid gaplari.
2. Ali, S. (2020). **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim.** O‘zbekiston Ta’lim Akademiyasi.
3. Kishik, T. (2019). **Onlayn ta’lim va uning pedagogik muammolari.** Ta’lim ilmiy jurnali, 15(4), 45-58.
4. Rahmatov, A. (2021). **Raqamli ta’lim tizimlari: Ta’limda texnologiyalarning roli.** Ta’lim va Innovatsiyalar, 22(1), 25-30.
5. Orziqulov, X. (2024). BO‘LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IJTIMOIY PEDAGOGIK KOMPONENTLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, *1*(5), 228-230.

6. Tolkin, O. K. (2023). TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF SOCIAL-PEDAGOGICAL COMPETENCE IN FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS. *International Journal of Pedagogics*, *3*(11), 95-97.

7. Orziqulov, X. (2025). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING TARBIYAVIY FAOLIYATGA DOIR KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK SHART SHAROITLARI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *14*, 109-111.

8. Orziqulov, X., & Durdonaxon, A. (2025). PEDAGOGIK JARAYONDA TIL VA ADABIYOTNING O‘RNI VA TARBIYAVIY TASIRI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, *56*(2), 85-89.

9. Orziqulov, X. (2025). TARBIYA JARAYONIDA SHAXS ONGINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, *56*(2), 90-96.

10. Orziqulov, X., & Abdurashidova, D. (2025). FAOL O‘QITISH METODLARI ORQALI O‘QUVCHILAR TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, *56*(2), 222-228.

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Axmedov Sherdor Boxodirovich
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
Fizika va matematika kafedrasi katta o‘qituvchisi
Adhamova Oydinoy Zohidjon qizi
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi
1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi yoritilgan. Tadqiqotda interfaol metodlar yordamida o‘quvchilarda matematik tafakkurni rivojlantirish, bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish usullari tahlil qilingan. Maqolada ilg‘or pedaqgogik texnologiyalar asosida olib borilgan darslarning natijaviyligi tahlil etib, ularning ta’lim sifatiga ijobiy ta’siri asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: interfaol metodlar, boshlang‘ich ta’lim, matematika darsi, samaradorlik, o‘quvchi faolligi, pedagogik texnologiya, ijodiy fikrlash, “Aqliy hujum” metodi, “Blits” metodi, “Insert” metodi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi – o‘quvchilarda mustaqil fikrlrlash, ijodiy yondashuv va amaliy ko‘nikmalari shakllantirishdan iborat. Shu bois, dars jarayonlarida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish, ta’limni interfaol usullar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa boshlang‘ich sinf matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, balki ularning bilish faoliyatini faollashtiradi, matematik tafakkurini rivojlantirishga keng imkoniyat yaratadi.

Matematika fani o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va to‘g‘ri xulosalar chiqarish qobilyatini rivojlantiradi. Shu sababli bu fanni o‘qitishda interfaol metodlardan samarali foydalanish o‘quvchilarning bilim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Interfaol metodlar yordamida o‘quvchilar darsda faol ishtirok etadi, o‘z fikrini erkin bayon etadi, muammoli vaziyatlarni hal etishni o‘rganadi. Bunday darsda o‘quvchi shunchaki tinglovchi emas balki, faol ishtirokchi izlanuvchi va hamkor sifatida shakllanadi.

Matematika bugungi kunda fan va texnikaning barcha sohalarida – informatika, muhandislik, iqtisodiyot, tibbiyot, statistika, arxitektura va hatto san’atda ham keng qo‘llaniladi. Boshlang‘ich sinf matematika darsida interfaol metodlardan foydalanish bo‘yicha o‘zbek va horijiy olimlar tomonidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

F. Qodirova, D. To‘raqulovalarning “Matematika o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmasida matematika fanini boshlang‘ich sinflarda o‘qitishda interfaol metodlarning o‘rni batafsil yoritilgan. Mualliflar o‘quvchilarning yosh psixologiyasiga mos dars metodlarini tanlash, ularni dars jariyoniga faol jalb etish yo‘llarini ko‘rsatib bergan. “Aqliy hujum” “Zinama zina” “Klasster” “Blits so‘rov” kabi metodlar afzalliklari amaliy misollar bilan asoslab berilgan [1, 135].

D. A. Abdullayevailmiy tadqiqot ishlaridaboshlang‘ich ta’limda fanlarni jumladan matematika darslarni interfaol usullar orqali o‘qitishning didaktik tamoyillari tahlil qilingan. Darsni bosqichma-bosqich tashkil etish, o‘quvchilarni o‘zaro hamkorlikda fikrlashga o‘rgatish, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish masalalari yoritilgan [2, 65].

L. S. Vigotsky “Mind in society: The devolepment of higher psychological processes” nomli asarida ta’lim jarayonida o‘quvchilarni bilish faolyati ijtimoiy muhit orqali shakllanishi haqida fikr yuritiladi. Uning “yaqin rivojlanish zo‘nasi” nazaryasi interfaol metodlarning psihologik asosini tashkil etadi [3, 34]. Bu g‘oya matematika darslarda o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatini yo‘lga qo‘yishning ilmiy poydevorini yaratgan.

J. Bruner o‘qitish jarayonida o‘quvchining faol iwotirokini tajriba asosida bilim hosil qilishini ta’kidlaydi. U interfaol metodlarning samarali bo‘lishi uvhun dars mazmunini o‘quvchi yoshiga mos holda tashkil etish zarurligini asoslab beradi. Bu yondashuv boshlang‘ich sinf matematika darslarida “o‘rganish” prinsipini amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi [4, 67].

Zamonaviy ta’limda “Aqliy hujum”, “ Klasster”, “Blits-so‘rov”, “Tushunchalar xaritasi”, “Insert” kabi interfaol metodlardan foydalanish o‘qituvchining darsini samarali tashkil etishga yordam beradi. Bu metodlar orqali har bir o‘quvchi o‘z imkoniyatlarini namoyon etadi, matematik bilimlarnin hayotiy misollar asosida o‘zlashtiradi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchining tafakkuri dunyo qarashi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalari shakllanadigan eng muhim davr hisoblanadi. Shu bois aynan shu bosqichda matematika fanini o‘qitishda zamonaviy interfaol, usullardan foydalanish o‘quvchilarni bilim salohiyatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Interfaol metodlar ta’lim jarayonida o‘quvchini markazga qo‘yadi o‘qituvchi esa yo‘naltiruvchi maslahatchi ro‘lini bajaradi.

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida quyidagi interfaol metodlardan samarali foydalanish mumkin:

1. “Aqliy hujum” metodi- muammoli savollar orqali o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtiradi va bir necha yechim variantlarini topishga undaydi.

2. “Klasster” metodi- mavzu bo‘yiha asosiy tushunchalarni tizimlashtirish o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashga yordam beradi.

3. “Blits- so‘rov” metodi – o‘quvchilar bilimini tezkor aniqlash ularni faol muloqotga jalb etish imkonini beradi.

4. “Tushunchalar xaritasi” metodi – o‘rganilayotgan mavzuni tarmoqlab, vizual tarzda tushinishni osonlashtiradi.

5. “Insert” metodi – o‘quvchining ilgari bilgan va yangi o‘rganayotgan ma’lumotlarini solishtirish tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Interfaol metodlardan foydalanishning afzalliklari ko‘p bo‘lsa-da, ularning ayrim cheklovlari ham mavjud. Dars jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, metodlarni o‘quvchilarning yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos ravishda tanlash o‘qituvchidan yuqori metodik mahoratni talab qiladi. Quyidagi jadvalda interfaol metodlarning ijobiy va salbiy jihatlari solishtirilib, ularni amaliyotda qo‘llashda e’tibor berilishi lozim bo‘lgan jihatlar umumlashtirilgan **(1-jadvalga qarang).**

1-jadval.

Interfaol metodlarning ijobiy va salbiy jihatlari

Ijobiy jihatlari	**Salbiy jihatlari**
O‘quvchilarda matematik tafakkur va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.	Har bir o‘quvchining ishtirokini ta’minlash qiyin bo‘lishi mumkin.
Murakkab mavzularni oson va qiziqarli tarzda tushuntirish imkonini beradi.	Darsga tayyorgarlik ko‘p vaqt talab etadi.
O‘quvchilarning faolligi va ishtirokini oshiradi.	Texnik vositalar yetarli bo‘lmaganda metod samarasi kamayadi.
Matematik bilimlarni amaliyotga bog‘lash imkonini yaratadi.	Guruhli ishda, ayniqsa katta sinflarda boshqaruvni saqlash murakkab bo‘ladi.
Dars jarayonini jonlantiradi va motivatsiyani kuchaytiradi.	Ba’zi metodlar barcha o‘quvchilarga mos kelmasligi mumkin.

O‘quvchilarda mustaqil fikrlash tez yechim topish va tahlil qilish qobilyatini kuchaytiradi. O‘qituvchidan yuqori darajada metodik mahorat va tajriba talab etiladi. O‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va motivatsiyani kuchaytiradi. Vaqt chegarasi sababli barcha mashg‘ulotlarni to‘liq bajarish mushkul bo‘lishi mumkin. O‘quvchilar matematik tushunchalarni jonli misollar orqali yaxshiroq o‘zlashtiradilar. Ba’zi interfaol o‘yinlar dars maqsadidan chalg‘itishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, interfaol metodlar yordamida o‘quvchilarda matematik tafakkur, mantiqiy fikrlash, solishtirish, umumlashtirish kabi intellektual qobiliyatlar shakllanadi. Bu esa ularning kelgusida murakkab

fanlarni o‘zlashtirishga poydevor yaratadi. Shu bilan birga, mazkur metodlar o‘qituvchidan yuqori darajada metodik tayyorgarlik, darsni puxta rejalashtirish va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishni talab qiladi.

Umuman olganda, boshlang‘ich sinf matematika darslarida interfaol metodlardan oqilona foydalanish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning matematik savodxonligini rivojlantirish, ularni ijodkor, faolligi yuqori bo‘lgan shaxs sifatida tarbiyalashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, interfaol metodlarni dars amaliyotiga keng joriy etish, ularni takomillashtirish va o‘qituvchilarning metodik mahoratini oshirish bugungi ta’lim islohotlarining dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qodirova F. To‘raqulova D. “Matematika o‘qitish metodikasi”. - Toshkent, 2022.

2. Abdullaeva D. A. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti. “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi”. - Toshkent : O‘qituvchi nashriyoti. 2020.

3. Vygotsky L. S. “Mind in Society: The devolepment of Higher Psychological Processes”. – Cambridge, Harvard University Press. 1978.

4. Bruner J. “Toward a Theory of Instruction”. – Cambridge, Harvard University Press. 1966.

TA’LIMDA AKADEMIK HALOLLIKNING AHAMIYATI

Sadriddinova Zulfiyaxon Mirzaliyevna
Qo‘qon universiteti ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
Baxromova Zebuniso
Qo‘qon universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisning asosiy maqsadi akademik halollik tushunchasi, uning oliy ta’lim tizimidagi o‘rni va talabalar faoliyatidagi ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat. Tezisda akademik halollikning nazariy va amaliy jihatlari, shu jumladan ilmiy ishlarni bajarishda plagiatga yo‘l qo‘ymaslik, ishonchli manbalarni to‘g‘ri ishlatish, o‘z fikrini aniq va mantiqiy tarzda ifodalash kabi qoidalar o‘rganiladi. Shuningdek, akademik halollikni rag‘batlantirish va uning buzilishining salbiy oqibatlarini kamaytirish usullari ham

ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, ilmiy etikaga rioya qilish va ta’lim jarayonida shaffoflik akademik halollikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Tezisning amaliy qismi oliy ta’lim muassasalarida akademik halollikni oshirish bo‘yicha tavsiyalarni o‘z ichiga oladi va zamonaviy pedagogik metodlar yordamida uni mustahkamlash yo‘llarini aniqlaydi.

Tayanch so‘zlar: akademik halollik, ilmiy etik, plagiat, ilmiy ish, ta’lim jarayoni, manbalarni ishlatish, o‘qituvchi-talaba ishonchi, shaffoflik, ilmiy axloq, pedagogik metodlar

Аннотация: Основная цель данной работы заключается в научном анализе понятия академической честности, её роли в системе высшего образования и значении в учебной деятельности студентов. В работе рассматриваются теоретические и практические аспекты академической честности, включая соблюдение правил при выполнении научных работ, недопущение плагиата, правильное использование достоверных источников и чёткое, логичное выражение собственных мыслей. Кроме того, изучаются методы поощрения академической честности и снижения негативных последствий её нарушений. Результаты исследования показывают, что взаимное доверие между студентами и преподавателями, соблюдение научной этики и прозрачность образовательного процесса играют ключевую роль в обеспечении академической честности. Практическая часть работы включает рекомендации по повышению уровня академической честности в учреждениях высшего образования и определяет пути её укрепления с использованием современных педагогических методов.

Ключевые слова: академическая честность, научная этика, плагиат, научная работа, образовательный процесс, использование источников, доверие между преподавателем и студентом, прозрачность, научная мораль, педагогические методы

Abstract: The main objective of this thesis is to conduct a scientific analysis of the concept of academic integrity, its role in the higher education system, and its significance in students’ activities. The thesis examines both the theoretical and practical aspects of academic integrity, including rules for avoiding plagiarism in academic work, proper use of reliable sources, and clear and logical expression of one’s own ideas. Furthermore, methods for promoting academic

integrity and minimizing the negative consequences of its violations are discussed. The research results indicate that mutual trust between students and teachers, adherence to scientific ethics, and transparency in the educational process play a crucial role in ensuring academic integrity. The practical part of the thesis includes recommendations for enhancing academic integrity in higher education institutions and identifies ways to strengthen it using modern pedagogical methods.

Keywords:
academic integrity, scientific ethics, plagiarism, academic work, educational process, use of sources, teacher-student trust, transparency, scientific morality, pedagogical methods

Akademik halollik – bu oliy ta’lim muassasalarida va ilmiy faoliyatda talab qilinadigan eng muhim tamoyillardan biri bo‘lib, talabaning o‘z bilimini, ilmiy ishini va fikrini rostgo‘ylik va adolat asosida ifodalashini anglatadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida akademik halollik nafaqat talabaning shaxsiy intellektual rivojlanishi, balki oliy ta’lim muassasalarining ilmiy obro‘si va ta’lim sifatining kafolati sifatida ham muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, oliy ta’limda plagiatga yo‘l qo‘ymaslik, ilmiy manbalarni to‘g‘ri ishlatish, o‘z fikrini mantiqan va aniq ifodalash kabi qoidalar alohida e’tibor talab qiladi.

Akademik halollik kontseptsiyasi nafaqat talabalar uchun, balki o‘qituvchilar va ilmiy xodimlar uchun ham muhimdir. U ta’lim jarayonida o‘zaro ishonchni mustahkamlash, ilmiy etikani qo‘llash va bilimlarni to‘g‘ri baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, akademik halollikni buzish, masalan, plagiat yoki noto‘g‘ri manba ishlatish, nafaqat shaxsiy obro‘ga zarar yetkazadi, balki butun ilmiy jamoaning ish sifatini pasaytiradi.

Ushbu tezisning asosiy maqsadi akademik halollik tushunchasini nazariy jihatdan o‘rganish, uni ta’lim jarayonida amalga oshirish usullarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, ilmiy etikaga rioya qilish va shaffoflik kabi omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, akademik halollikni mustahkamlash orqali oliy ta’lim muassasalarida sifatli va ishonchli ta’lim muhitini yaratish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Akademik halollik tushunchasi oliy ta’lim tizimida nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ilmiy va ta’lim jarayonining barqarorligini ta’minlovchi

asosiy prinsip sifatida qaraladi. Bu tushuncha talabaning, o‘qituvchining va ilmiy xodimning o‘z ishlarini rostgo‘ylik, mantiqiy izchillik va adolat asosida bajarishini bildiradi. Akademik halollikning mohiyati plagiatga yo‘l qo‘ymaslik, ishonchli manbalardan foydalanish, o‘z fikrini aniq va mantiqan ifodalash, shuningdek, ilmiy etikaga rioya qilishni o‘z ichiga oladi.

Oliy ta’lim muassasalarida akademik halollik talabalar faoliyatining sifatini belgilovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Talabalar ilmiy ishlar, referat, kurs va diplom ishlari orqali o‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazadi. Agar bu jarayonda akademik halollik tamoyili buzilsa, shaxsiy bilim darajasi past baholanadi va oliy ta’lim muassasasining ilmiy obro‘si ham salbiy ta’sir ko‘radi. Shu bilan birga, akademik halollikni qo‘llash ilmiy jamoa va ta’lim jarayonida ishonch, shaffoflik va adolatli baholashni ta’minlaydi. [1,176]

Plagiat masalasi akademik halollik kontekstida dolzarb muammo sifatida ko‘plab tadqiqotlarda qayd etilgan. Plagiat, ya’ni boshqa shaxsning ilmiy ishini yoki fikrini manbasini ko‘rsatmasdan o‘z ishiga kiritish, talabalar va ilmiy jamoa obro‘siga jiddiy zarar yetkazadi. Bu nafaqat shaxsiy obro‘ni pasaytiradi, balki ta’limjarayonida ishonch va ilmiy axborotning sifatini kamaytiradi. Shu sababli plagiatga qarshi samarali nazorat va profilaktika tizimlarini yaratish oliy ta’lim muassasalarida muhim vazifa hisoblanadi.

Akademik halollikni ta’minlashning samarali usullari zamonaviy pedagogik va texnologik yondashuvlarda mujassam. Talabalarni ilmiy axloq qoidalari bilan tanishtirish, manbalarni to‘g‘ri ishlatish metodikasi, ishlarni bajarish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar berish – bu jarayonning ajralmas qismidir. Shu bilan birga, elektron topshiriqlar, onlayn resurslar va plagiatni aniqlash dasturlari akademik halollikni nazorat qilishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Akademik halollik talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlash, ta’lim jarayonini shaffof va samarali qilishga xizmat qiladi. Agar talabalar o‘z ishlarida rostgo‘y bo‘lsa va o‘qituvchilar adolatli baholash tizimini qo‘llasa, ta’lim jarayoni yuqori sifatli va barqaror bo‘ladi. Shu bilan birga, akademik halollik talabaning tanqidiy fikrlash, mas’uliyat va ilmiy-axloqiy yetuklik darajasini oshiradi.

Akademik halollikni buzilishining turli sabab va shart-sharoitlari mavjud. Ba’zi hollarda bilim yetishmasligi, vaqt yetishmasligi yoki ko‘rsatmalarning aniqligini yetarli darajada ta’minlanmasligi talabalarni plagiatga yo‘naltiradi. Shu

sababli akademik halollikni targ‘ib qilish va uni mustahkamlash jarayonida pedagogik rag‘batlantirish, bilim va ko‘nikmalarni oshirish ham muhim omil sifatida qaraladi. [2,213]

Zamonaviy ilmiy jamoatchilik va oliy ta’lim muassasalari talabalarning xalqaro standartlar, etik me’yorlar va akademik kodekslarga rioya qilishini ta’minlashga e’tibor qaratadi. Bu nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki mamlakatning ta’lim va ilm-fan sohasidagi obro‘sini oshirishga xizmat qiladi. Pedagogik yondashuvlar, interaktiv mashg‘ulotlar, seminar va treninglar talabalarning akademik halollikni tushunish va unga rioya qilish darajasini oshirishda samarali vositalardir. [3,188]

Nazorat va monitoring tizimlari ham akademik halollikni ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Plagiatni aniqlash dasturlari, elektron topshiriqlarni qabul qilish tizimi va ishlarni baholash mezonlarining shaffofligi talabalarni mas’uliyatga undaydi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning talabalarga maslahat berishi, ilmiy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi va ularni mustaqil izlanishga jalb qilishi akademik halollikni rag‘batlantiradi.

Akademik halollikni ta’minlash amaliyoti oliy ta’lim muassasalarida ilmiy va ta’lim jarayonining sifatini oshirishga qaratilgan strategik yondashuvlarni talab qiladi. Shu jarayonda pedagogik metodlar, motivatsion vositalar va texnologik yechimlar birgalikda qo‘llaniladi. Ilmiy adabiyotlarda akademik halollikni targ‘ib qilishning samarali yondashuvlari sifatida talabalarning axborot savodxonligi va ilmiy izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularni o‘z ishlarini mantiqan va adolatli tarzda bajarishga o‘rgatish tavsiya etiladi.

Ilmiy axloq qoidalarini o‘rgatish jarayoni nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga oladi. Talabalar manbalarni to‘g‘ri ishlatish, ilmiy dalillarni aniq va mantiqan keltirish, o‘z fikrini tushunarli va ilmiy asoslangan shaklda ifodalashni o‘rganadilar. Shu bilan birga, seminarlar, treninglar va amaliy mashg‘ulotlar talabalarning ilmiy axloq qoidalarini tushunish darajasini oshiradi va ularda mas’uliyat hissini shakllantiradi. Interaktiv metodlar – muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, guruhli muhokamalar, ilmiy ishlarni baholash mashg‘ulotlari – talabalarda akademik halollikni chuqurroq qabul qilishni ta’minlaydi.

Zamonaviy texnologiyalar akademik halollikni mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Elektron topshiriqlarni qabul qilish tizimlari, onlayn resurslar

va plagiatni aniqlash dasturlari ta’lim jarayonida shaffoflikni oshiradi va talabalarga o‘z ishlarini nazorat qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, texnologik vositalar talabalarning mustaqil izlanish faoliyatini rag‘batlantiradi, ularni ilmiy muloqotga jalb qiladi va manbalardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatadi. Masalan, plagiatni aniqlash dasturlari talabalarga o‘z ishlarining original ekanligini ko‘rsatadi va ilmiy ishlarni bajarishda mas’uliyatni oshiradi.

Motivatsion omillar akademik halollikni targ‘ib qilishda muhim ahamiyatga ega. Talabalar o‘z ishlarida rostgo‘y bo‘lishlari bilan nafaqat baholarni oshiradi, balki shaxsiy obro‘ va ilmiy ishonchni mustahkamlaydi. Rag‘batlantirish tizimi sifatida o‘quv jarayonida mukofotlash, ilmiy konferensiyalarda ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish va ijobiy baholash amaliyoti samarali natija beradi. Shu bilan birga, talabalarning akademik muvaffaqiyatini baholashda adolat va shaffoflikni ta’minlash ularning mas’uliyatini oshiradi va akademik halollikni mustahkamlaydi. [4,79]

Talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi muloqot ham akademik halollikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilarning maslahat berishi, ilmiy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi va talabalarning mustaqil izlanishlarini qo‘llab-quvvatlashi akademik axloq qoidalarini hayotga tatbiq etishda yordam beradi. Shu bilan birga, talabalarga o‘z fikrini erkin ifodalash imkoniyatini berish va ularni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish ilmiy izlanishlarni rivojlantiradi va akademik halollikni mustahkamlaydi.

Akademik halollikni buzilishining turli shakllari mavjud. Talabalar bilim yetishmasligi, vaqt cheklanishi yoki malakali ko‘rsatmalar yetarli bo‘lmasligi sababli plagiatga yo‘l qo‘yishi mumkin. Shu sababli, akademik halollikni rag‘batlantirishda pedagogik yondashuvlar bilan birga, vaqtni boshqarish, izlanish ko‘nikmalarini oshirish va ilmiy-resurslardan samarali foydalanish bo‘yicha treninglar o‘tkazish zarur. Ta’lim muassasalari talabalarga maslahat berish, individual yondashuv va qo‘llab-quvvatlash tizimlarini joriy qilish orqali akademik halollikni rag‘batlantiradi.

Global ta’lim kontekstida akademik halollikning ahamiyati oshmoqda. Talabalarni xalqaro standartlar, etik me’yorlar va akademik kodekslarga rioya qilishga o‘rgatish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki mamlakat ta’lim tizimi va ilmiy jamoatchilik obro‘sini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalari talabalarning akademik halollik bo‘yicha malakasini oshirish,

ilmiy axloq qoidalarini targ‘ib qilish va monitoring tizimlarini takomillashtirishga e’tibor qaratadi.

Shuningdek, akademik halollikni mustahkamlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Talabalar va o‘qituvchilar uchun ilmiy axloq bo‘yicha seminarlar tashkil etish, plagiatni aniqlash tizimlaridan muntazam foydalanish, shaffof baholash tizimini joriy etish va ilmiy-izlanish faoliyatini rag‘batlantirish amaliy tavsiyalar sifatida ko‘riladi. Bu tavsiyalar oliy ta’lim muassasalarida sifatli ta’limni ta’minlash va akademik halollikni barqaror rivojlantirish imkonini beradi.

Akademik halollikni oshirish nafaqat ta’lim sifati, balki talabalarning shaxsiy va ilmiy rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Rostgo‘ylik va adolat tamoyillariga rioya qilish talabalarda tanqidiy fikrlash, mas’uliyat, mustaqillik va ilmiy-axloqiy yetuklikni shakllantiradi. Shu bilan birga, akademik halollikni targ‘ib qilish oliy ta’lim muassasalarida ilmiy va pedagogik jarayonlarni shaffof, barqaror va sifatli qilishga yordam beradi. [5]

Akademik halollik oliy ta’lim tizimining eng muhim tamoyillaridan biri bo‘lib, ilmiy va ta’lim jarayonining sifatini ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi. Tezis davomida akademik halollik tushunchasi, uning nazariy asoslari, plagiat va uning oqibatlari, shuningdek, ta’lim jarayonida amalga oshiriladigan amaliy tadbirlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning ilmiy ishlarni rostgo‘ylik, adolat va mantiqiy izchillik asosida bajarishi oliy ta’lim sifatini oshiradi, shaffoflikni ta’minlaydi va ilmiy jamoa bilan ishonchli muloqotga imkon yaratadi.

Amaliy jihatdan, akademik halollikni mustahkamlash uchun pedagogik metodlar, zamonaviy texnologiyalar va motivatsion tizimlar samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Talabalarni ilmiy axloq qoidalari bilan tanishtirish, plagiatni aniqlash dasturlaridan foydalanish, elektron topshiriqlar va interaktiv mashg‘ulotlar akademik halollikni targ‘ib qilishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi muloqot, maslahatlar va rag‘batlantirish tizimi talabalarning mas’uliyatini oshiradi va ilmiy faoliyatni rivojlantiradi.

Akademik halollikni rivojlantirish oliy ta’lim muassasalarida sifatli va barqaror ta’lim jarayonini ta’minlashga, talabalarning tanqidiy fikrlash, mustaqillik va ilmiy-axloqiy yetuklik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga,

akademik halollikni rag‘batlantirish va monitoring qilish xalqaro standartlar va ilmiy etikaga mos ravishda ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi.

Natijada, akademik halollik nafaqat ilmiy va ta’lim jarayonining muhim tamoyili, balki oliy ta’lim muassasalarida sifatli ta’limni barqaror rivojlantirish va talabalarning shaxsiy hamda ilmiy rivojlanishini ta’minlashning asosiy poydevori sifatida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Барбашин А. Академическая честность в высшем образовании. – Москва: Просвещение, 2018. – 256 с.
2. Ройтберг А. Этика научной деятельности. – Санкт-Петербург: Питер, 2017. – 312 с.
3. Соловьёв И. Проблемы плагиата и академической этики. – Москва: Наука, 2019. – 208 с.
4. Козлова Е. Управление академической честностью в вузе. – Москва: Юрайт, 2020. – 184 с.
5. Иванов В. Академическая честность и стандарты качества образования. – Санкт-Петербург: БХВ-Петербург, 2021. – 240 с.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA TEZKOR HISOBLASH USULLARINI O‘RGATISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Ismoilova Dilrabo
FarDU Axborot texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi
Akbaraliyeva Marjona Xurshid qizi
FarDU 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tezkor hisoblash usullarini, xususan Traxtenberg algoritmik tizimini, o‘rgatishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi yoritiladi. Traxtenberg tizimining 11 ga, 12 ga, 7 ga va 9 ga ko‘paytirish, komplement topish kabi qoidalarini interaktiv ta’lim vositalari orqali o‘rgatishning o‘quvchilarda algoritmik fikrlash, tez javob qaytarish va mantiqiy amallarni

avtomatlashtirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. 7 ga ko‘paytirishda raqamga qo‘shni raqamning ikki baravari qo‘shilishiga asoslangan qoida, 9 ga ko‘paytirishda esa komplement tamoyili AKT yordamida vizual va bosqichma-bosqich ko‘rsatib berilishi o‘quvchilarning tushunish jarayonini osonlashtirishi qayd etilgan. Maqolada interaktiv taxta, mobil ilovalar, onlayn platformalar, virtual abakus va multimedia animatsiyalari yordamida tezkor hisoblashni o‘rgatishning motivatsion, vizual va individual yondashuvga asoslangan afzalliklari yoritiladi. Tadqiqot natijalari AKT bilan uyg‘unlashtirilgan darslar o‘quvchilarning hisoblash tezligi, aniqligi, diqqat, xotira va vizual tasavvurlarida sezilarli rivojlanish kuzatilishini ko‘rsatadi. Yakunda boshlang‘ich ta’limda Traxtenberg va boshqa tezkor hisoblash metodlarini AKT asosida qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Axborot texnologiyalari, ta’lim, interaktiv dars, ma’lumotlar, innovatsiya, traxtenberg usuli, raqamli resurslar, jamiyat

Аннотация: В статье рассматривается эффективность использования информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) при обучении учащихся начальной школы методам быстрого счёта, в частности алгоритмической системе Трахтенберга. Анализируется, как правила Трахтенберга, включая умножение на 11, 12, 7 и 9, а также методы дополнения, могут быть представлены в интерактивной форме с помощью образовательного программного обеспечения, мультимедийных инструментов, мобильных приложений и онлайн-платформ по математике. Метод умножения на 7 (добавление двойного соседнего разряда) и на 9 (принцип дополнения) представлен пошагово и визуально, что облегчает понимание, развитие алгоритмического мышления и быстроту вычислений у учеников.

Ключевые слова: Информационные технологии, образование, интерактивное обучение, данные, инновации, метод трахтенберга, цифровые ресурсы, общество. В статье подчеркиваются мотивационные, визуальные и индивидуализированные преимущества интеграции ИКТ в учебный процесс, включая интерактивные доски, виртуальную счёту и мультимедийные анимации. Результаты исследования показывают, что занятия с использованием ИКТ значительно повышают скорость и точность вычислений, внимание, память и визуальное воображение учащихся. Даны

практические рекомендации по применению системы Трахтенберга и других методов быстрого счёта в начальном образовании с использованием ИКТ.

Annotation: This article examines the effectiveness of using information and communication technologies (ICT) in teaching rapid calculation methods, particularly the Trachtenberg algorithmic system, to primary school students. The study analyzes how Trachtenberg rules, including multiplication by 11, 12, 7, and 9, as well as complement techniques, can be taught interactively through educational software, multimedia tools, mobile applications, and online math platforms. The method for multiplying by 7 (adding double the neighbor digit) and by 9 (using the complement principle) is presented in a step-by-step, visual format, facilitating students’ understanding, algorithmic thinking, and speed in arithmetic operations.

The article highlights the motivational, visual, and individualized advantages of integrating ICT in lessons, including interactive whiteboards, virtual abacus, and multimedia animations. Research results show that ICT-enhanced lessons significantly improve students’ calculation speed, accuracy, attention, memory, and visual imagination. Practical recommendations for applying Trachtenberg and other rapid calculation methods in primary education through ICT are provided.

Key words: Information technologies, education, interactive learning, data, innovation, trachtenberg method, digital resources, society

Boshlang‘ich ta’limda matematik ko‘nikmalarni shakllantirish o‘quvchilarning nafaqat hisoblash tezligi, balki mantiqiy fikrlash, diqqat, xotira va vizual tasavvur qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tezkor hisoblash usullari — Traxtenberg algoritmlari, 7 va 9 ga ko‘paytirish qoidalari, mental arifmetika va Vedalar arifmetikasining soddalashtirilgan qoidalari — boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun arifmetik amallarni tez, aniq va qiziqarli shaklda bajarishga imkon beradi. Biroq an’anaviy darslarda ushbu usullarni o‘rgatish ba’zan murakkab bo‘lishi mumkin, chunki ular algoritmik fikrlash va sonlarni mental tasavvur qilishni talab qiladi. Shu sababli, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida darslarni boyitish o‘quv jarayonini interaktiv, vizual va motivatsion qiladi. AKT vositalari — interaktiv taxta, ta’limiy mobil ilovalar, onlayn platformalar, virtual abakus va animatsiyalar —

o‘quvchilarning hisoblash tezligi, aniqligi, diqqat va xotira ko‘nikmalarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, ularning algoritmik fikrlash va mustaqil yechim topish malakalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga Traxtenberg, 7 va 9 ga ko‘paytirish, mental arifmetika va Vedalar arifmetikasini AKT yordamida o‘rgatish metodikasini, darslarni tashkil etish usullarini, pedagogik afzalliklarini va amaliy tavsiyalarini taqdim etadi. Shu yo‘l bilan o‘quvchilarning matematik savodxonligi va tezkor fikrlash ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlantiriladi.

Axborot texnologiyalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tezkor hisoblashni o‘rgatishda markaziy vosita hisoblanadi. U dars jarayonini nafaqat qiziqarli va interaktiv qiladi, balki o‘quvchilarning algoritmik fikrlash, diqqat, xotira va vizual tasavvur ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. AKTning pedagogik o‘rni quyidagilarda namoyon bo‘ladi: [9, 10]

1. Interaktivlik va vizualizatsiya: Traxtenberg usuli, 7 va 9 ga ko‘paytirish, mental arifmetika va Vedalar arifmetikasini animatsiyalar, onlayn mashqlar va virtual abakuslar yordamida o‘quvchilarga qadam-baqadam tushuntirish mumkin. Bu murakkab hisoblash qoidalarini oson va tushunarli qiladi. [3]

2. Motivatsiya va qiziqish: Interaktiv o‘yinlar va onlayn platformalar (masalan, game. afifedu. com, janbolot. oshsu. kg/oiun, Toytheater. com) orqali mashqlarni bajarish o‘quvchilarda o‘qishga qiziqish uyg‘otadi va mashq qilishga rag‘batlantiradi.

3. Xatolarni darhol aniqlash: AKT vositalari yordamida o‘quvchilar har bir qadamni bajaradi va natijani darhol ko‘radi. Bu xatolarni tez aniqlash va tuzatishga imkon beradi.

4. Individual yondashuv: Onlayn platformalar va ilovalar mashqlar darajasini o‘quvchining qobiliyatiga moslashtiradi, qiyinchilik darajasini oshirib yoki kamaytirib beradi.

5. Takrorlash va mustahkamlash: AKT yordamida o‘quvchilar darsdan tashqari ham mashqlarni interaktiv tarzda takrorlashi mumkin, bu esa bilimning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

6. Algoritmik fikrlashni rivojlantirish: Traxtenberg usuli va Vedalar arifmetikasidagi qoidalarni AKT orqali bajarish, o‘quvchilarga har bir qadamni rejalashtirish va mantiqiy yechim topish imkonini beradi.

Traxtenberg usuli nima?

Traxtenberg usuli — bu tezkor arifmetik hisoblash usuli, asosan ko‘paytirish amallarini oddiy va qiziqarli qadamlar bilan bajarishga mo‘ljallangan. Bu usulni o‘rgatish orqali o‘quvchilar sonlarni mental tasavvur qilish, diqqatni jamlash va hisoblash tezligini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. . [2]

Traxtenberg usuli asosiy xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. Qadam-baqadam yechim: Har bir ko‘paytirish amalini kichik qadamlar orqali hisoblash.

2. Sonlarni qismlarga ajratish: Katta sonlarni onliklar va birliklar bo‘yicha ajratib, alohida ko‘paytirish.

3. Mental hisoblash: Natijani xotirada yig‘ish orqali tez hisoblash imkonini beradi.

4. Qoidalarni vizual tarzda tushuntirish:O‘quvchilar raqamlar orasidagi aloqani ko‘rishi va oson eslab qolishi mumkin.

Traxtenberg usulining qoidalari va misollar

1. 11 ga ko‘paytirish

Qoidasi:

Sonning raqamlarini yozing.

Raqamlarni qo‘shing va o‘rtasiga yozing.

Agar qo‘shish natijasi 10 va undan katta bo‘lsa, ortiqchani keyingi raqamga qo‘shing.

Misollar:

$34 \times 11 \rightarrow 3 + 4 = 7 \rightarrow$ natija: 374

$56 \times 11 \rightarrow 5 + 6 = 11 \rightarrow 5 + 1$ (ortiqcha) $\rightarrow$ natija: 616

2. 12 ga ko‘paytirish

Qoidasi:

Sonning raqamlarini yozing.

Birinchi raqamni 2 bilan ko‘paytiring va ikkinchi raqamni qo‘shing.

Natijani yozing, ortiqchalarni keyingi raqamga qo‘shing.

Misollar:

$23 \times 12 \rightarrow 2 \times 2 + 3 = 7 \rightarrow$ natija: 276

$45 \times 12 \rightarrow 4 \times 2 + 5 = 13 \rightarrow 5$ yoziladi, 1 ortiqcha $\rightarrow$ natija: 540

3. 7 ga ko‘paytirish

Qoidasi:

Sonning raqamlarini mental tarzda qismlarga ajrating.

Har bir raqamni 7 bilan ko‘paytirish uchun tezkor qoidalarni ishlating: misol uchun 10ga yaqinlashtirib hisoblash.

Misollar:

34 × 7 → 30×7=210, 4×7=28 → 210+28=238

56 × 7 → 50×7=350, 6×7=42 → 350+42=392

4. 9 ga ko‘paytirish

Qoidasi:

1. Sonni 10 ga yaqinlashtiring.
2. 10 ga yaqinlashtirilgan sonni 9 bilan ko‘paytiring.
3. Ortiqcha farqni ayiring.

Misollar:

48 × 9

48 → 50 – 2

50 × 9 = 450

450 – 2×9 = 450 – 18 = 432

Natija: 432

67 × 9

67 → 70 – 3

70 × 9 = 630

630 – 3×9 = 630 – 27 = 603

Natija: 603

34 × 9

34 → 40 – 6

40 × 9 = 360

360 – 6×9 = 360 – 54 = 306

Natija: 306. [1]

Traxtenberg usulini AKT yordamida o‘rgatish

1. **Interaktiv mashqlar:** game. afifedu. com orqali o‘quvchilar qadam-baqadam mashqlarni bajaradi va natijani darhol ko‘radi.



. [7, 8]

2. Vizual tushuntirish: Toytheater. com orqali raqamlar va hisoblash jarayonini animatsiya orqali ko‘rsatish.



.

[5]

3. Onlayn mini-o‘yinlar: janbolot. oshsu. kg/oiun va janbolot. oshsu. kg/arkan saytlarida Traxtenberg qoidalari bilan tezkor mashqlar va viktorinalar.



[6]

4. Mental arifmetika bilan integratsiya: Virtual abakuslar (AbacusMaster, SorobanTrainer. com) yordamida sonlarni qismlarga ajratib tez hisoblashni o‘rgatish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tezkor hisoblashni o‘rgatishda Traxtenberg usuli, 7 va 9 ga ko‘paytirish, mental arifmetika va Vedalar arifmetikasini qo‘llashning samarali natijalari kuzatiladi. Ushbu usullar yordamida o‘quvchilar sonlarni mental tarzda idrok etish, diqqatni jamlash, xotira va vizual tasavvur qobiliyatlarini rivojlantiradi. Biroq, an’anaviy dars usullari har doim ham o‘quvchilarga qoidalarni tez va to‘g‘ri o‘zlashtirishni ta’minlay olmaydi. Shu sababli, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosiy vosita sifatida muhim o‘rin egallaydi. [4]

AKT darslarni interaktiv, qiziqarli va vizual tarzda tashkil etishga imkon beradi. Interaktiv taxtalar, ta’limiy mobil ilovalar, onlayn platformalar, virtual abakuslar va animatsiyalar yordamida o‘quvchilar har bir qadamni ko‘rish, tezkor mashqlarni bajarish va natijani darhol kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, game. afifedu. com va janbolot. oshsu. kg/oiun saytlari orqali Traxtenberg qoidalari bo‘yicha mashqlarni interaktiv tarzda bajarish mumkin. Toytheater. com sayti esa raqamlar va hisoblash jarayonini vizual animatsiyalar orqali tushuntiradi, bu esa o‘quvchilarning tushunishini sezilarli darajada osonlashtiradi.

AKT yordamida mashqlarni takrorlash va mustahkamlash imkoniyati oshadi. O‘quvchilar darsdan tashqari ham interaktiv mashqlarni bajarishi, xatolarni darhol ko‘rishi va tuzatishi mumkin. Shu bilan birga, individual yondashuvni

ta’minlash, o‘quvchining darajasiga mos mashqlar berish va algoritmik fikrlashni rivojlantirish AKT orqali juda osonlashadi. Shu tarzda, axborot texnologiyalari boshlang‘ich ta’limda tezkor hisoblash ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quvchilarning matematik savodxonligini oshirish, diqqat, xotira va vizual tasavvur qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhim pedagogik vosita hisoblanadi. AKT darslarni interaktiv va motivatsion qiladi, mashq qilish imkoniyatlarini kengaytiradi, va o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga rag‘batlantiradi. Umuman olganda, Traxtenberg usuli, 7 va 9 ga ko‘paytirish qoidalari, mental arifmetika va Vedalar arifmetikasini axborot texnologiyalari bilan birlashtirish boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tezkor hisoblashni samarali, qiziqarli va oson o‘rgatishning eng yaxshi usullaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Shu yo‘l bilan o‘quvchilar hisoblash tezligi, aniqligi va mustaqil yechim topish ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi, darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va matematikaga bo‘lgan ishtiyoqini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Akbaraliyeva, M. (2024). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tezkor hisoblash usullari. Toshkent: Ta’lim nashriyoti.

2. Trachtenberg, J. (1960). The Trachtenberg Speed System of Basic Mathematics. New York: Simon and Schuster.

3. Jaggi, S., & Vedic Math Forum. (2018). Vedic Mathematics Made Easy. New Delhi: Vedic Math Publications.

4. Mental Arithmetic: Theory and Practice. (2020). London: Oxford University Press.

5. Toytheater. com. Matematika uchun ta’limiy vositalar. [Onlayn] Available at: https://toytheater. com

6. Game. afifedu. com. Interaktiv matematik o‘yinlar. [Onlayn] Available at: https://game. afifedu. com

7. Janbolot. oshsu. kg. Interaktiv matematik mashqlar. [Onlayn] Available at: https://janbolot. oshsu. kg/oiun

8. Janbolot. oshsu. kg. ARKAN matematik platformasi. [Onlayn] Available at: https://janbolot. oshsu. kg/arkan

9. UNESCO. (2019). Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT). Parij: UNESCO.

10. Kukreja, R. (2017). Raqamli texnologiyalar yordamida matematika o‘qitish. Singapur: Springer.

INTERNET VA RAQAMLI MAYDONDA DINIY-MA’RIFIY AXBOROT: XAVFLAR VA IMKONIYATLAR

Abdulfaizova Durdona Ikromjon qizi
“University of economics and pedogogy” NOTM
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Gmail: abdulfaizovadurdona151@gmail. com

Annotatsiya: Ushbu tezisda tarmoqli axborot maydonida diniy-ma’rifiy axborotning tarqatilishi, uning imkoniyatlari va mavjud xavf omillari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilingan. Raqamli makon orqali diniy-ma’rifiy bilimlarga keng kirish, masofaviy ta’limning rivojlanishi va turli madaniy guruhlar o‘rtasida muloqotning kengayishi ijobiy jihatlar sifatida ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, ishonchsiz ma’lumotlarning tarqalishi, yoshlar orasida axborot savodxonligi yetarli emasligi hamda tasdiqlanmagan diniy-materiallarning ko‘payishi kabi xavflar ham yoritilgan. O‘zbekiston amaliy tajribasi asosida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: internet, raqamli maydon, diniy-ma’rifiy axborot, media savodxonlik, ekstremizm, informatsion xavfsizlik, kibermakon.

Аннотация: В данной тезис научно-теоретически проанализировано распространение религиозно-просветительской информации в сетевом информационном пространстве, ее возможности и существующие факторы риска. Широкий доступ к религиозно-просветительским знаниям через цифровое пространство, развитие дистанционного обучения и расширение диалога между различными культурными группами показаны как положительные аспекты. В то же время освещаются такие риски, как распространение недостоверной информации, недостаточная информационная грамотность среди молодежи, а также распространение неподтвержденных религиозных материалов. На основе практического опыта Узбекистана будут проанализированы существующие проблемы и пути их преодоления.

Ключевые слова: интернет, цифровое пространство, религиозно-просветительская информация, медиаграмотность, экстремизм, информационная безопасность, киберпространство.

Abstract: This thesis scientifically and theoretically analyzes the dissemination of religious and educational information in the online information space, its capabilities and existing risk factors. Wide access to religious and educational knowledge through the digital space, the development of distance learning and the expansion of dialogue between different cultural groups are shown as positive aspects. At the same time, risks such as the dissemination of false information, insufficient information literacy among young people, as well as the dissemination of unconfirmed religious materials are highlighted. Based on the practical experience of Uzbekistan, the existing problems and ways to overcome them will be analyzed.

Keywords: Internet, digital space, religious and educational information, media literacy, extremism, information security, cyberspace.

Raqamli texnologiyalar jadallik bilan rivojlanayotgan bugungi kunda diniy-ma’rifiy jarayonlarning asosiy qismi internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshmoqda. Virtual platformalar diniy bilimlarni ommaga tez yetkazish, ilmiy-ma’rifiy resurslarda erkin foydalanish, xalqaro diniy tadqiqotlar bilan tanishish uchun keng imkoniyat yaratmoqda. Shu bilan birga, raqamli makonning chegarasizligi, axborot oqimining haddan tashqari ko‘pligi va nazoratsiz tarqalishi diniy ongga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan xavf va muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.

Manuel Kastels ta’kidlaganidek, raqamli tarmoqlar jamiyatning madaniy va ma’naviy tuzilmasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan yangi kommunikativ makon sifatida shakllanmoqda [1]. Bu jarayon diniy qadriyatlar, e’tiqodiy qarashlar va ma’rifiy taraqqiyotga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotchilar internetdagi diniy kontentning ikki qirrali xususiyatga ega ekanini, bir tomondan, ilmiy ma’rifat darajasini oshirishi, ikkinchi tomondan esa noto‘g‘ri talqinlar, radikal materiallar va manipulyativ axborotlar ko‘payishiga sabab bo‘lishini qayd etadi [2; 3].

UNESCOning 2022-yilgi hisobotida raqamli muhitda tarqalayotgan diniy kontentning bir qismi ilmiy asosdan yiroqligi, ayrim materiallar esa ekstremistik qarashlarni targ‘ib etishi mumkinligi ta’kidlanadi [4]. Shu bois internetdagi diniy-ma’rifiy axborotni tizimli o‘rganish, uning imkoniyatlari va xavf omillarini tahlil

qilish bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar fanlar oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir.

O‘zbekistonda diniy-ma’rifiy siyosatning modernizatsiya qilinishi, yoshlar ongini sog‘lom diniy bilimlar bilan boyitish, radikal g‘oyalarga qarshi immunitetni kuchaytirishga qaratilgan islohotlar raqamli axborot makonining o‘rganilishini yanada ahamiyatli qiladi. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun (2021) hamda media savodxonlikni oshirish bo‘yicha qabul qilingan davlat dasturlarida internetdagi diniy materiallarning sifatini oshirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan [5; 6].

Mavzuning dolzarbligi raqamli makonning diniy ong va ma’naviy qadriyatlarga tobora kuchli ta’sir ko‘rsatishi, internetda diniy-ma’rifiy axborotning tez tarqalishi, lekin uning sifati va ilmiy asoslanganligi bo‘yicha muammolarning mavjudligi, yoshlar orasida diniy bilimlarning ko‘p qismi aynan onlayn manbalardan olinayotganligi (Pew Research Center ma’lumotlariga ko‘ra, 70 % dan ortiq yoshlar diniy ma’lumotni internetdan qidiradi) [7], onlayn ekstremizm, noto‘g‘ri diniy talqinlar va manipulyativ materiallarning ko‘payishi, O‘zbekiston hukumati tomonidan raqamli diniy ma’rifatni sog‘lomlashtirish, media savodxonlikni oshirish bo‘yicha qabul qilingan siyosiy hujjatlar mavzuning ilmiy jihatdan o‘rganilishini talab qilmoqda.

Tarmoqli axborot maydoni (global tarmoq) ijtimoiy hayotning muhim qismiga aylangan holda, odamlarning dunyoqarashi va e’tiqodiy qarashlarini shakllantirishda yangi muhit yaratdi. Bu muhit axborotni tarqatish, fikr almashish va ilmiy-ma’rifiy materiallarga kirish imkoniyatlarini kengaytirdi, biroq shu bilan birga ma’lumotlar sifati va ularning ta’siri masalalarini ham dolzarb qildi. Tadqiqotchi olimlar tarmoqli axborot maydonini jamiyatning kommunikatsion tizimi sifatida o‘rganib, u diniy-ma’rifiy jarayonlar ustida bevosita ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaganlar [1; 2].

Diniy-ma’rifiy axborot deganda, xalqning diniy bilimlarini, e’tiqodiy-amaliy tavsiyalarni, diniy ta’lim va tarbiya materiallarini ifoda etuvchi yozma, ovozli va ko‘rgazmali ma’lumotlar tushuniladi. Ushbu axborotning tarmoqli maydonda tarqalishi axborot manbasi va uning ishonchliligi; tarqatish qoidalari va texnik vositalari; qabul qiluvchining bilim darajasi va tanqidiy fikrlash salohiyati; hamda axborot bilan o‘zaro aloqaning xususiyatlari (masalan, tez-tez bahslar, izohlar va guruh muhokamalari) kabi elementlar orqali amalga oshadi.

Tarmoqli axborot maydoni diniy fanlar bo‘yicha manbalar va ilmiy tadqiqotlarga keng va tezkor kirishni ta’minlaydi. An’anaviy kutubxonalar bilan taqqoslaganda, yoshlar va olimlar bir vaqtning o‘zida turli mamlakatlardagi manbalarni o‘rganish imkoniga ega bo‘ladi, bu esa ilmiy izlanishlarga yangi imkoniyat beradi [2].

Onlayn darslar, vebinarlar va ma’ruzalarning mavjudligi diniy ta’limni geografik cheklovlarsiz amalga oshirishga yordam beradi. Bu, ayniqsa chekka hududlardagi talabalarga va ish bilan band kattalarga qulaydir. Bu usul orqali diniy savodxonlikni oshirish imkoniyati kengayadi. Shu bilan bir qatorda kibermakon turli konfessiyalar va madaniyatlar o‘rtasida muloqot o‘rnatishga xizmat qiladi. Bunday muloqot bag‘rikenglikni mustahkamlash, noto‘g‘ri tushunchalarni bartaraf etishga yordam berishi mumkin [4].

Internet va raqamli maydonda diniy-ma’rifiy axborotlarning yuqoridagi kabi imkoniyat va qulayliklari bilan bir qatorda salbiy jihatlari ham mavjud. Tarmoqli maydonda bilimga asoslanmagan, manipulyatsiyaga moyil materiallar paydo bo‘lishi mumkin. Bunday materiallar ayrim yosh qatlamlar uchun e’tiqodiy jihatdan xavfli bo‘lib, ularni noto‘g‘ri yo‘nalishga yo‘naltirishi ehtimolini keltirib chiqaradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayrim tashkilotlar axborotni maqsadli ravishda tarqatib, auditoriyani o‘z g‘oyalariga yo‘naltirishga harakat qiladi [3; 4]. Ayniqsa, yoshlarga, talabalarga kata e’tibor qaratishib, ularni noto‘g‘ri aqidalarni singdirishga harakat qilishadi. Raqamli xizmatlarning taqdim etish tartib-qoidalari ko‘pincha foydalanuvchiga mos keladigan materiallarni ko‘proq uzatadi. Natijada odamlar o‘z dunyoqarashiga mos kontentni ko‘proq qabul qilib, boshqa fikr bilan kamroq uchrashadi. Bu hol odamlarni ma’lum bir axborot maydoniga qaram qilib qo‘yadi.

Tarmoqli maydonda tez tarqaladigan ba’zi materiallar asl manbaga yoki ilmiy-mazmunli izohga ega bo‘lmaydi. Bunday kontent noto‘g‘ri talqinlarni keltirib chiqarib, ijtimoiy ziddiyatlarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois axborotning manbasini tekshirish va ekspert bahosini joriy etish zarur.

O‘zbekiston amaliy tajribasida tarmoqli axborot maydonida diniy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan davlat dasturlari va qonunchilik tarmoqli maydondagi ma’lumotning sifati va xavfsizligini ta’minlashga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni nazarda tutadi [5; 6]. Shuningdek, ilmiy markazlar va diniy

muassasalar tomonidan elektron darsliklar va ilmiy maqolalar tayyorlanmoqda, bu esa ma’rifiy materiallarni boyitmoqda. Biroq hamon bir qator muammolar mavjud. Masalan, ishonchli va ilmiy asoslangan ma’lumotlarning yetishmasligi; yoshlar orasida axborot savodxonligi darajasining pastligi; tarmoq xizmatlari bilan hamkorlik orqali noto‘g‘ri ma’lumotni tezkor aniqlash va bartaraf etish mexanizmlarining yetarli darajada tashkil etilmaganligi. Ushbu kamchiliklar onlayn makonda ma’rifatning samarali rivojlanishini cheklaydi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, kibermakon diniy-ma’rifiy jarayonlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi, ammo shu bilan birga jiddiy xavflarni ham keltirib chiqaradi. Ushbu muammolarni hal etish uchun bir qancha usul va choralar ko‘rish muhim hisoblanadi. Bularga **axborotning ekspert bahosini joriy etish** orqli davlat, ilmiy va diniy vakolatli tashkilotlar hamkorligida onlayn diniy kontentni ilmiy baholash tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Bu tizim kontentni tasniflash, noto‘g‘ri yoki xavfli materiallarni ko‘rsatish va foydalanuvchilarga ishonchli manbalarni tavsiya etishga xizmat qiladi [4; 8]. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida axborot savodxonligi darslariga diniy-amaliy tahlil ko‘nikmalarini kiritish orqali yoshlarni tanqidiy fikrlashga yo‘naltirish kerak. Raqamli xizmatlar bilan hamkorlik qilib, ma’lumot tarqatish qoidalarini shaffof va adolatli qilish, hamda xususiy xizmatlarning xavfli kontentga nisbatan javobgarligini oshirish lozim.

Shuningdek, **mahalliy, ishonchli ma’lumotlar bazasini ishlab chiqarish,** madaniy va til jihatidan mos, ilmiy asoslangan ma’rifiy resurslar yaratish va ularni yoshlar orasida targ‘ib qilish orqali tashqi noto‘g‘ri ta’sirlarni kamaytirish mumkin. **Xalqaro amaliyotni o‘rganish va joriy etish** orqali BMT va xalqaro tashkilotlar tavsiyalarini hisobga olgan holda, xalqaro tajribani o‘zlashtirish va mahalliy sharoitga moslashtirish muhimdir [4; 8].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, internetdagi diniy-ma’rifiy makonni to‘g‘ri boshqarish va unga ilmiy yondashish jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Кастельс М. Власть коммуникации. — М. : Изд-во ГУ ВШЭ, 2010. — 564 с.

2. Campbell H. Digital Religion: Understanding Religious Practice in New Media Worlds. — London: Routledge, 2017. — 252 p.

3. Weimann G. Terrorism in Cyberspace: The Next Generation. — New York: Columbia University Press, 2016. — 320 p.
4. UNESCO. Freedom of Expression and Addressing Online Extremism. — Paris: UNESCO Publishing, 2022. — 74 p.
5. O‘zbekiston Respublikasi. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun. — Toshkent, 2021.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Media savodxonlikni oshirish to‘g‘risida”gi Qarori. — Toshkent, 2022.
7. Pew Research Center. Religion and Digital Media Trends - Washington, 2023. - 41 p.
8. OSCE. The Role of Digital Platforms in Preventing Violent Extremism. — Vienna: OSCE, 2021. — 58 p.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA RAQAMLI SAVODXONLIKNI TAKOMILLASHTIRISH

Hotamova Dildora Komilovna
Buxoro davlat pedagogika institutining tayanch doktoranti.
edu. uz1991@gmail. com

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilar uchun raqamli savodxonlikni takomillashtirish masalasi keng tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning ta’lim sohasida o‘rni va ahamiyati tobora ortib borayotgan bir davrda, pedagoglarning ushbu texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimdir. Bo‘lajak o‘qituvchilar nafaqat o‘quv jarayonida turli raqamli vositalar va platformalardan foydalanishni o‘rganishlari, balki o‘quvchilarga ushbu vositalardan xavfsiz va samarali foydalanishni o‘rgatishlari ham zarur. Shuningdek, raqamli savodxonlikning asosiy tarkibiy qismlari, jumladan, axborotlarni izlash, baholash, yaratish va tarqatish ko‘nikmalarini o‘rgatish masalalari yoritiladi. Shuningdek, raqamli xavfsizlik, onlayn etika, intellektual mulk va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish kabi muhim mavzular ham tahlil qilinadi. Bundan tashqari, bo‘lajak o‘qituvchilar uchun raqamli texnologiyalarni o‘quv dasturlariga integratsiyalash usullari, pedagogik yondashuvlar va metodikalarni takomillashtirish strategiyalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Raqamli savodxonlik, Axborot texnologiyalari, Pedagogik innovatsiyalar, Raqamli xavfsizlik, Onlayn etika, Raqamli kompetensiyalar, Ta’limda texnologiyalar integratsiyasi, O‘qituvchilarning malakasini oshirish, Interfaol ta’lim, O‘quvchilarni tayyorlash.

Аннотатция: В статье рассматривается вопрос повышения цифровой грамотности будущих учителей. В условиях, когда роль и значение цифровых технологий в сфере образования стремительно растет, важно развивать навыки эффективного использования этих технологий у педагогов. Будущие учителя должны не только освоить различные цифровые инструменты и платформы в учебном процессе, но и научить учеников безопасному и эффективному использованию этих средств. В статье освещаются основные компоненты цифровой грамотности, включая навыки поиска, оценки, создания и распространения информации. Также рассматриваются важные вопросы цифровой безопасности, онлайн-этики, интеллектуальной собственности и защиты персональных данных. В статье анализируются методы интеграции цифровых технологий в учебные программы, подходы к педагогике и стратегии совершенствования методик.

Ключевые слова: Цифровая грамотность, Информационные технологии, Педагогические инновации, Цифровая безопасность, Онлайн-этика, Цифровые компетенции, Интеграция технологий в образование, Повышение квалификации учителей, Интерактивное обучение, Подготовка учащихся.

Annotation: The article addresses the issue of improving digital literacy for future teachers. In a time when the role and significance of digital technologies in education are rapidly increasing, it is essential to develop teachers' skills in effectively using these technologies. Future teachers should not only learn to utilize various digital tools and platforms in the learning process but also teach students how to use them safely and efficiently. The article highlights the key components of digital literacy, including the skills of searching, evaluating, creating, and distributing information. It also covers important topics such as digital security, online ethics, intellectual property, and the protection of personal data. The article explores methods for integrating digital technologies into educational curricula, pedagogical approaches, and strategies for improving teaching methodologies.

Keywords: Digital literacy, Information technologies, Pedagogical innovations, Digital security, Online ethics, Digital competencies, Technology integration in education, Teacher professional development, Interactive learning, Student preparation.

Raqamli savodxonlik bugungi kunda asosiy hayotiy ko‘nikmaga aylandi. Raqamli savodxonlik kompyuterlar, internet, mobil qurilmalar va boshqa raqamli texnologiyalar bilan samarali ishlash, axborotni qidirish va baholash, ma’lumotlar xavfsizligi, ommaviy axborot vositalarini o‘qish va ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. Ushbu ko‘nikmalar odamlarga kundalik hayotda, biznesda va ta’limda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Raqamli savodxonlik bugungi kunda ta’limda muhim rol o‘ynaydi. Pedagogikada raqamli savodxonlik talabalarning raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Ushbu ko‘nikmalar ma'lumotni baholash, to‘g‘ri manbalarni topish, raqamli vositalardan samarali foydalanish va onlayn muloqotda xavfsiz qolish kabi sohalarni o‘z ichiga oladi.

Raqamli savodxonlik talabalarga axborot asrida muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi. Talabalar internetdagi ma'lumotlarga kirishda malakali bo‘lishi va onlayn muhitda aniq va ishonchli ma'lumotlarni ajrata olishi kerak [1]. Shuningdek, ular raqamli platformalarda samarali muloqot qilish, raqamli kontentni yaratish va almashish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. Raqamli savodxonlikni rivojlantirish orqali o‘qituvchilar nafaqat ta’lim jarayonini zamon talablariga moslashtiradi, balki o‘quvchilarning raqamli dunyoda muvaffaqiyatli va ongli ishtirok etishlariga hissa qo‘shadilar.

Pedagogik nuqtai nazardan, raqamli savodxonlik o‘quvchilarga tanqidiy fikrlash qobiliyatini beradi va ularning ma'lumotlarga kirishda mustaqilligini oshiradi. O‘qituvchilarga raqamli savodxonlikning ajralmas qismi bo‘lgan raqamli fuqarolik va axloqiy foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilishi kerak, bu esa o‘quvchilarni raqamli bilimga yo‘naltiradi. Bu o‘quvchilarga raqamli dunyoda xafsiz harakat qilish va ma'lumotlardan to‘g‘ri foydalanishga yordam beradi.

Raqamli fuqarolik internet va raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha mas'uliyat va xatti-harakatlar standartlarini aniqlashni o‘z ichiga oladi. Axloqiy foydalanish boshqalarning huquqlarini hurmat qilishni va raqamli muhitda to‘g‘ri harakat qilishni anglatadi. Raqamli fuqarolik etikasiga quyidagilar kiradi:

- Internet foydalanuvchilari bir-biriga hurmatli va xushmuomala bo‘lishlari muhim. Har bir insonning internetdagi huquqlarini hurmat qilish maqsadga muvofiq.

- To‘g‘ri ma'lumot almashish va uning manbalariga murojaat qilish muhim. Noto‘g‘ri ma'lumot tarqatish yoki boshqa odamlarning g‘oyalarini o‘g‘irlash axloqqa ziddir.

- Shaxsiy maxfiylikni hurmat qilish va boshqalarning maxfiy ma'lumotlarini oshkor qilmaslik muhim. Internet foydalanuvchilari shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish uchun zarur choralarni ko‘rishlari kerak.

Haqiqiy hayotdagi xatti-harakatlar qoidalari onlaynda qo‘llanilishini yodda tutish kerak. Onlayn muloqotda halol va adolatli bo‘lish muhimdir.

- har kim raqamli xavfsizligini ta'minlash va o‘zini zararli dasturlardan himoya qilish uchun zarur choralarni ko‘rish muhimdir.

Raqamli fuqarolik va axloqiy foydalanish internet va raqamli texnologiyalardan xavfsiz va samarali foydalanishni ta'minlashning asosiy tamoyillari hisoblanadi.

O‘quvchilarda raqamli fuqarolik va axloqiy foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun turli usullardan foydalanish mumkin:

- Maktablar raqamli fuqarolik va axloqiy foydalanish bo‘yicha maxsus ta’lim dasturlari va tadbirlarni taklif qilishlari mumkin. Ushbu dasturlar o‘quvchilarga internetdan foydalanish, maxfiylik, xavfsizlik va aniq ma'lumot almashish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni berishi mumkin.

- O‘qituvchilar va ota-onalar namunali xulq-atvorni ko‘rsatish orqali o‘quvchilarni raqamli axloq va fuqarolikka yo‘naltirishlari lozim. Modellashtirish o‘quvchilarga to‘g‘ri xatti-harakatni o‘rganishga yordam beradi.

- O‘quvchilarga raqamli fuqarolik va axloqiy foydalanish bo‘yicha o‘z mas'uliyatini tushunish uchun tashkil etilgan loyihalarda o‘zlari ishtirok etish imkoniyati berish maqsadga muvofiq. Talabalar maktab ichidagi yoki maktabdan tashqari loyihalarda ishtirok etish orqali raqamli muhitda axloqiy yo‘l tutishni o‘rganishlari mumkin.

- O‘quvchilarga ijtimoiy tarmoqlardan to‘g‘ri va axloqiy foydalanish bo‘yicha maxsus seminar-treninglar o‘tkazilishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar xavfsizligi va noto‘g‘ri ma'lumotlarning tarqalishi haqida xabardorlikni oshirish ayniqsa muhimdir.

- Talabalarning raqamli axloq va fuqarolik borasidagi yutuqlarini baholash va fikr-mulohazalarini bildirish muhimdir. Talabalarning rivojlanishiga Internetdan foydalanish bilan bog‘liq axloqiy qoidalarga muvofiq xatti-harakatlari haqida fikr bildirish orqali yordam berish mumkin.

Talabalarning raqamli fuqaroligi va axloqiy foydalanish ko‘nikmalarini oshirish uchun seminar-trening, namunali xulq-atvor, talabalar ishtiroki, ijtimoiy media treningi va baholash kabi turli usullardan foydalanish mumkin. Ushbu usullar talabalarga raqamli dunyoda mas'uliyatli va axloqiy harakat qilish imkonini beradi.

Raqamli savodxonlikning asosiy tarkibiy qismlari raqamli dunyoda samarali faoliyat yuritishi uchun shaxslarga zarur bo‘lgan ko‘nikmalar va bilimlardir. Ushbu komponentlar odatda quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Axborot izlash va baholash: Raqamli savodxonlik ma’lumotlar dengizi bo‘lgan internet olamida aniq ma’lumotni topish va baholash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu ma'lumotni qidirishda to‘g‘ri manbalarni tanlash, ma'lumotni shubha ostiga qo‘yish va ishonchli manbalarni tekshirishni anglatadi. Bu ko‘nikma, ayniqsa, noto‘g‘ri ma'lumotlar va chalg‘ituvchi ma'lumotlarning keng tarqalganligini hisobga olgan holda juda muhimdir.

2. Media o‘qish va tushunish: Raqamli savodxonlik turli media formatlarini (matn, audio, vizual, video) tushunish, izohlash va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Mediasavodxonlik reklama, tashviqot va manipulyatsiya kabi turli xil media taktikalarini tan olish va ularga qarshilik ko‘rsatish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

3. Onlayn xavfsizlik: Raqamli muhitda xavfsizlik haqida xabardorlik - bu shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, onlayn tahdidlarga qarshi ehtiyot choralarini ko‘rish va xavfsiz internet odatlarini rivojlantirish qobiliyatidir. Bunga kuchli parollardan foydalanish, xavfsiz internet ulanishlari, ishonchli veb-saytlar va shaxsiy ma'lumotlarni o‘g‘irlashdan himoya qilish kiradi.

4. Ma’lumotlarni boshqarish va tahlil qilish: Raqamli savodxonlik ma’lumotlarni to‘plash, saqlash, tahlil qilish va sharhlash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu ma'lumotlar qanday to‘planganligini, qanday tahlil qilinishini va ushbu

tahlillarni qanday izohlashni o‘z ichiga oladi. Agar ma'lumotlar samarali boshqarilmasa, noto‘g‘ri xulosalar chiqarilishi va noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishi mumkin.

5. Raqamli ijodkorlik: Raqamli savodxonlik shaxslarning raqamli muhitda kontent yaratish, almashish va hamkorlik qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bunga blog yuritish, video yaratish, grafik dizayn, kodlash va boshqa raqamli ko‘nikmalar kiradi. Raqamli ijodkorlik original va samarali kontent yaratish orqali raqamli dunyoda mavjud bo‘lish imkonini beradi.

6. Internet etikasi: Raqamli savodxonlik internetda to‘g‘ri xatti-harakat, raqamli yorliqlash va onlayn axloq qoidalariga rioya qilishni o‘z ichiga oladi. Bunga onlayn muloqotda hurmatli bo‘lish, mualliflik huquqlarini hurmat qilish, onlayn ta'qib va zo‘ravonlikka qarshi turish va onlayn hamjamiyatning ijobiy a'zosi bo‘lish kiradi.

Raqamli savodxonlik ko‘nikmalari odamlarga raqamli dunyoda xavfsiz va samarali harakat qilish, ma'lumotlarga kirish va almashishga yordam beradi. Ushbu ko‘nikmalar shaxsiy, akademik va professional muvaffaqiyat uchun asosiy talabdir.

O‘rganish maqsadlari va kutilgan natijalar. O‘rganish maqsadlari odamdan odamga farq qilishi mumkin. Biroq, umuman olganda, o‘rganish maqsadlari shaxsning bilim va ko‘nikmalarini yaxshilash, yangi narsalarni o‘rganish va o‘zini yaxshilashga qaratilgan. Kutishlar - bu maqsadlarga erishish uchun belgilangan yo‘llar va jarayonlar. Ta’lim maqsadlari ko‘pincha shaxsiy rivojlanish, martaba maqsadlari, akademik yutuqlar yoki yangi mahoratga ega bo‘lish kabi sohalarga qaratilishi mumkin [2,24]. Har bir insonning o‘rganish maqsadlari va umidlari har xil bo‘lishi mumkin, shuning uchun ular individual asosda belgilanadi.

Ta’lim maqsadlari shaxsning shaxsiy, akademik va kasbiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu tushunchalar, odatda, shaxs qaysi sohalarda o‘zini yaxshilashni xohlashini va qanday tajribalardan foyda olishni umid qilishini belgilaydi. Kengroq nuqtai nazardan o‘rganish maqsadlari va umidlari haqida ba'zi ma'lumotlar:

1. Shaxsiy rivojlanish: Ko‘pchilik o‘z ta’lim jarayonlarini shaxsiy rivojlanish maqsadlariga muvofiq shakllantiradi. Bu maqsadlar o‘z-o‘zini hurmat qilish, hissiy aql ko‘nikmalarini yaxshilash, sog‘lom munosabatlar o‘rnatish yoki

baxtli hayot kechirish kabi shaxsiy maqsadlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bunday maqsadlarga erishish uchun ko‘pincha o‘z-o‘zini bilish, hissiy ong va shaxsiy farovonlikka qaratilgan o‘quv jarayonlariga ustunlik beriladi.

2. Karyera maqsadlari: Insonlar o‘z martabalarini ko‘tarish yoki yangi ish topish uchun ma’lum ko‘nikma va bilimlarga muhtoj. O‘quv maqsadlari ushbu martaba maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishni o‘z ichiga olishi mumkin. Misol uchun, biror kishi dasturlash tillarini o‘rganish orqali dasturiy ta'minotni ishlab chiqish bo‘yicha martaba orttirishni yoki biznes ko‘nikmalari kursini o‘tash orqali boshqaruv lavozimlariga ko‘tarilishni maqsad qilishi mumkin.

3. Akademik muvaffaqiyat: Talabalar o‘zlarining akademik muvaffaqiyatlarini oshirish uchun aniq o‘quv maqsadlarini qo‘yadilar. Ushbu maqsadlar ko‘pincha ma'lum bir kurs yoki mavzu bo‘yicha yaxshi natijalarga erishishni o‘z ichiga oladi. Misol uchun, talaba matematikada yaxshiroq ishlash uchun qo‘shimcha darslarni olishi yoki ma'lum bir imtihondan o‘tishga tayyorlanishi mumkin.

4. Yangi ko‘nikmalarni egallash: Odamlar ko‘pincha yangi ko‘nikmalarga ega bo‘lish uchun o‘quv maqsadlarini qo‘yadilar. Bu ko‘nikmalar tillarni o‘rganish, cholg‘u asboblarini chalish, hunarmandchilik, pazandalik kabi turli sohalarda bo‘lishi mumkin. Bunday maqsadlar ko‘pincha shaxsning shaxsiy qiziqishlari va ehtiroslariga asoslanadi.

Kutishlar manbalar, vaqt doirasi va shaxsning ushbu maqsadlarga erishish uchun motivatsiyasini o‘z ichiga oladi. Kutishlar o‘rganish jarayoni qancha davom etishi, qanday resurslar kerakligi va qanday qiyinchiliklarga duch kelishi kabi narsalarni o‘z ichiga oladi. Muvaffaqiyatga ta'sir etuvchi omillarga izchillik, qat'iyatlilik va moslashuvchanlik kiradi. Shuning uchun o‘quv maqsadlarini belgilashda o‘zining kuchli va zaif tomonlarini baholash va bu maqsadlarga erishish uchun zarur bo‘lgan harakatni amalga oshirish muhimdir.

Raqamli pedagogika raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayonlariga integratsiyalash va o‘rganishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan soha sifatida namoyon bo‘ladi. Raqamli pedagogika mazmunida talabalar egallashlari kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va tushunchalar quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

1. **Raqamli savodxonlik:** Talabalar raqamli muhitda axborotni izlash, baholash, sintez qilish va almashish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari muhim. Bu

ishonchli manbalarni aniqlash, axborotga kirishdagi to‘siqlarni bartaraf etish va turli media formatlarini tushunish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

2. Raqamli vositalardan foydalanish qobiliyati: Talabalar turli raqamli vositalardan samarali foydalana olishlari kerak. Ushbu vositalar o‘rganishni boshqarish tizimlari, ma'lumotlar bazalari, hamkorlik vositalari, kontentni boshqarish tizimlari va raqamli kitoblar kabi turli platformalarni o‘z ichiga olishi mumkin.

3. **Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish:** Raqamli pedagogika o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan [3,77]. Talabalar ma'lumotlarga shubha qilish, noto‘g‘ri ma'lumotlardan ehtiyot bo‘lish va onlayn manbalarni tahlil qilishda to‘g‘ri xulosa chiqarish ko‘nikmalarini egallashlari kerak.

4. **Raqamli axloq va xavfsizlik:** Talabalar onlayn axloq qoidalariga rioya qilishlari va raqamli dunyoda xavfsiz harakat qilishlari muhim. Bunga shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, onlayn ta'qib va zo‘ravonlikdan xabardorlik va mualliflik huquqini hurmat qilish kabi masalalar kiradi.

5. Muloqot qobiliyatlari: Raqamli muhitda samarali muloqot qilish qobiliyati muhim. Talabalar onlayn platformalarda xabarlar bilan samarali muloqot qilish, hamkorlik qilish va onlayn hamjamiyatlarda mas'uliyat bilan ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirishlari kerak.

6. Ijodkorlik va innovatsiya: Raqamli pedagogika talabalarning ijodiy fikrlash va innovatsion yechimlar ishlab chiqarish qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Talabalar raqamli vositalardan foydalangan holda kontent yaratish, raqamli hikoyalar, grafik dizayn va multimedia ishlab chiqarish kabi sohalarda o‘zlarini ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak.

Ushbu ko‘nikmalar va tushunchalar talabalarga raqamli dunyoda samarali harakat qilish va axborot asrida gullab-yashnashda yordam beradi. Raqamli pedagogika talabalarga ushbu ko‘nikmalar va tushunchalarni rivojlantirishga yordam berish, shu bilan birga o‘quv jarayonlarini yanada qiziqarli, interfaol va ishtirok etishga qaratilgan [4,98].

Raqamli pedagogika fanidan o‘rganish orqali olingan natijalarni maqsadga muvofiq qo‘llash uchun quyidagi bosqichlarni bajarishingiz mumkin:

1. Natijalarni baholash: Birinchidan, olingan natijalarni diqqat bilan baholang. Bu talabalarning raqamli vositalardan qanday foydalanishi, ularning

o‘quv jarayoniga qanday ta'sir qilishi va o‘qituvchilarning darslarga qanday rahbarlik qilishini o‘z ichiga olishi mumkin.

2. Ta’lim usullarini sozlash: Olingan natijalarga asoslanib, o‘qitish usullarini ko‘rib chiqing va agar kerak bo‘lsa, o‘zgartiring. Raqamli vositalar yordamida talabalarga qanday qilib samaraliroq ta’lim berish mumkinligini ko‘rib chiqing.

3. Talabalar ehtiyojlariga mos keladigan dars materiallarini yarating: Olingan natijalar sizga talabalar ehtiyojlariga moslashtirilgan kurs materiallarini yaratishda yordam beradi. Talabalarning turli ta’lim uslublari va tezligiga mos keladigan turli xil raqamli materiallarni taklif qiling.

4. Ta’lim texnologiyalarini integratsiyalash: Raqamli pedagogika natijalarini baholash, o‘qitish jarayoniga ko‘proq raqamli texnologiyalarni integratsiyalashni ko‘rib chiqing. Masalan, interaktiv o‘quv platformalari, onlayn kurs materiallari yoki moslashtirilgan o‘quv ilovalari kabi texnologiyalardan foydalangan holda talabalarning faolligini oshirishingiz mumkin.

5. O‘qituvchilar rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash: Raqamli pedagogikani samarali joriy etishda o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash uchun uzluksiz rivojlanish dasturini yaratish. Ushbu dasturlar o‘qituvchilarga raqamli vositalardan samarali foydalanishni o‘rgatishi va ularga raqamli pedagogikada doimiy yordam ko‘rsatishi kerak.

6. Monitoring va baholash: Siz amalga oshirayotgan o‘zgarishlarni muntazam ravishda kuzatib boring va baholang. O‘zgarishlarning ta'sirini baholang va o‘quvchilarning muvaffaqiyati, talabalarning fikr-mulohazalari va o‘qituvchilar tajribasi kabi omillarni hisobga olgan holda, kerak bo‘lganda tuzatishlar kiriting.

Raqamli pedagogikani o‘rganish orqali hosil qilingan bilim ko‘nikma malakalarni to‘g‘ri qo‘llash o‘quvchilarning o‘quv tajribasini boyitib ta’lim jarayonini samarali qiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli savodxonlikni bo‘lajak o‘qituvchilar uchun rivojlantirish zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismidir. Bu pedagoglarga nafaqat ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga, balki o‘quvchilarning raqamli dunyodagi kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi. Raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularni ta’lim jarayoniga integratsiyalash orqali, o‘qituvchilar zamonaviy texnologiyalarga asoslangan o‘qitish metodlarini muvaffaqiyatli amalga oshiradilar. Bu esa ta’lim jarayonini

boyitib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodiy yondashuvini va raqamli xavfsizlik bo‘yicha bilimlarini oshirishga imkon yaratadi. Shu sababli, bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli savodxonlikni takomillashtirish – ularning kelajakdagi professional faoliyatida muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Potemkina T. V. O‘qituvchining raqamli kompetentsiyalari profilini ishlab chiqish bo‘yicha xorijiy tajriba / jild. V. Potemkina // Kadrlarni takomillashtirishni ilmiy qo‘llab-quvvatlash tizimi. 2018. No 2. S. 25. 2.

2. Raqamli kompetentsiyaning o‘qituvchi faoliyatidagi ahamiyati. Akparova J. 1, t. f. n., “Bolashaq” akademiyasi professori, Qarag‘anda, Qozog‘iston, e-mail: zhan_mus@mail. ru

3. Hotamova D. K. Bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamlashtirish vositasida pedagogik faoliyatga tayyorlashning zarurati// Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal, 77-79 b. 2024.

4. Hotamova D. K. The history of the development of psychology, the subject and its place in the activity of medical personnel // International Journal Of Literature And Languages 3 (02), 97-99, 2023

MAQSUD SHAYXZODANING “JALOLIDDIN MANGUBERDI” DRAMASINI O‘QITISHDA TARIXIY MATERIALDAN FOYDALANISH MASALASI

Mamatvaliyev Muhammad Qo‘ymurodovich
NamDU mustaqil tadqiqotchisi
repetitor2008. 76@mail. ru

Annotatsiya: Ushbu maqola Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasini maktabda o‘qitish muammolariga bag‘ishlangan. Amaldagi 8-sinf “Adabiyot” darsligida dramadagi tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima masalasiga e’tibor qaratilmagan. Bu esa dars jarayonida o‘ziga xos muammoga sabab bo‘ladi, y’ani o‘quvchi badiiy haqiqatni tarixiy haqiqat sifatida qabul qiladi. Maqolada dars jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan mazkur muammoni bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatilgan, tarixiy haqiqat badiiy haqiqatdan farqli bo‘lishi

mumkinligi misollar asosida isbotlangan. Mulohazalarni dalillash jarayonida moziyning mashhur solnomachilari va zamonamizning taniqli muarrixlari qalamiga mansub muhim ilmiy-tarixiy manbalardan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy haqiqat, badiiy to‘qima, aqliy hujum, ekspozitsiya, konflikt, syujet, kulminatsiya, dramatizm.

ПРОБЛЕМА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО МАТЕРИАЛА ПРИ ИЗУЧЕНИИ ДРАМЫ МАКСУДА ШЕЙХЗОДЫ «ДЖАЛАЛ АД-ДИН МАНГУБЕРДИ»

Аннотация: В статье рассматриваются проблемы преподавания драмы Максуда Шейхзоды «Джалал ад-Дин Мангуберди» в школе. В действующем учебнике литературы для восьмого класса недостаточно освещены вопросы исторической достоверности и художественного вымысла в произведении. Это приводит к тому, что учащиеся нередко воспринимают художественно созданные эпизоды как реальные исторические факты. В статье анализируются пути преодоления данной методической проблемы, а также приводятся необходимые исторические сведения.

Ключевые слова: исторический факт, художественный вымысел, ментальная атака, экспозиция, конфликт, напряжение, кульминация, драматизм.

THE ISSUE OF USING HISTORICAL MATERIAL IN THE STUDY OF MAQSUD SHEYKHZODA’S DRAMA JALAL AD-DIN MANGUBERDI

Abstract: This article examines the challenges associated with teaching Maqsud Sheykhzoda’s drama Jalal ad-Din Manguberdi in schools. The current eighth-grade literature textbook does not sufficiently address issues of historical accuracy and artistic fiction within the work. As a result, students often perceive fictionalized episodes as actual historical facts. The article explores methods for overcoming this pedagogical issue and provides the necessary historical background.

Keywords:

historical fact, artistic fiction, mental attack, exposition, inciting incident, conspiracy, climax, dramatic effect.

Yangi O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning samarasi maktab darsliklaridagi poligrafik, mazmuniy hamda innovatsion o‘zgarishlarda ham yaqqol ko‘rinadi. Xususan, 8-sinf uchun mo‘ljallangan o‘quv dasturi va “Adabiyot” darsligidan Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasining o‘rin olishi g‘oyat quvonchli hodisadir [1,149]. Mazkur “Adabiyot” darsligida dramaning birinchi, ikkinchi va beshinchi pardasidan parchalar berilgan. Drama matnini o‘qitish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilar tafakkuriga ta’sir etish maqsadida o‘ziga xos “aqliy hujum” uyushtirishi maqsadga muvofiq. Aqliy hujum quyidagi savollar asosida uyushtiriladi:

1. Drama ekspozitsiyasida Jaloliddinning valiahdlikdan mahrum qilinishi tarixiy haqiqatga mos keladimi? Siz bu xususda qanday tarixiy ma’lumotlarni bilasiz?

2. Haqiqatan ham, Jaloliddin saman otida Amudaryodan sakrab o‘tganmi? 8-sinf “O‘zbekiston tarixi” darsligida bu voqea qanday tasvirlangan?

3. Jaloliddinning onasi o‘zini Amudaryoga tashlaganmi yoki u sultonning buyrug‘iga binoan Sind daryosiga cho‘ktirilganmi?

Aqliy hujum uyushtirish maqsadida qayd etilgan ushbu savollar nafaqat maktab o‘qituvchilari va o‘quvchilari, balki xalqimiz ong-u shuurida uzoq yillardan buyon mustahkam o‘rnashib kelayotgan. Tarixiy ma’lumotlarni o‘zgartirishga yordam beradi. Tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima masalasi haqida tasavvurga ega bo‘lmagan o‘quvchi drama matnini o‘zlashtirish jarayonida undagi ma’lumotlarni aynan qabul qilishi va tafakkurga singdirib olishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Bunday vaziyatda drama matnini o‘zlashtirish jarayoniga o‘qituvchining aralashuvi eng maqbul innovatsion yondashuvdir. Bundan o‘zgacha yondashuv o‘quvchini chalg‘itadi va u tarixiy haqiqatni badiiylik nuqtai nazaridan o‘zgartirish mumkinmligini tushunmay qoladi. Shuning uchun adabiyot fani o‘qituvchisi dramani o‘qitishdan avval 8-sinf “O‘zbekiston tarixi” darsligidagi ma’lumotlarni o‘qishini va tarixiy ma’lumotlardan dars jarayonida o‘rinli va unumli foydalanishni tavsiya etiladi [2,36].

Drama syujetidagi tugun Muhammad Xorazmshoh va Jaloliddin o‘rtasida Chingiz istilosiga qarshi qanday harbiy taktika tanlash borasida yuzaga qalqib chiqadi. Asosiy konflikt shu ziddiyat natijasida shakllanadi va Jaloliddinning valiahdlikdan mahrum etilishi bilan yakunlanadi. Akademik Naim Karimov

ma’lumotlariga ko‘ra, Maqsud Shayxzoda o‘rta asr muarrixlari Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy va Atomalik Juvayniy qalamiga mansub tarixiy kitoblarni sinchiklab o‘rgangan. Tarixiy manbalarda Muhammad Xorazmshoh hayotining so‘nggi kunlariga qadar valiahd deb tayinlanmaganligi qayd etiladi. Xususan, an-Nasaviy shunday yozadi: “Uning (Qutbiddinning) ikki akadan – Jaloliddin Manguberdi va Rukniddin G‘ursantjiydan oldin taxt vorisi qilib belgilanishi sultonning mavqeyi yuksak onasi Turkon xotun amriga bo‘ysungani bilan izohlanadi. Negaki, Qutbiddinning onasi, uning boshqa bolalarining onalaridan farqli o‘laroq, Turkon xotunga aloqador bo‘lgan bayot urug‘idan edi” [3,46]. Boshqa tarixiy manbalarda ham Qutbiddin O‘zloqshoh avvaldanoq Xorazmshohlar saltanati valiahdi ekanligi aniq-tiniq eslatilgan. Jumladan, turk olimi Meryam Gurbuz bu xususuda shunday mulohaza bildiradi: “Haqiqatan ham, Sulton Alouddin Muhammad oldin o‘g‘illaridan O‘zloqshohni valiahd qilib tayinlagan edi, keyinchalik esa bu qarorni o‘zgartirdi. Buning ustiga O‘zloqshoh sultonning eng kichik o‘g‘li edi. Ko‘rilganidek, eng katta shahzodaning valiahd bo‘lishiga doir bironta ham qoida yo‘q edi” [4,59]. Xalqimiz ong-u shuurida “Jaloliddin Manguberdi Xorazmshohlar davlatining valiahdi bo‘lgan, otasi Muhammad Xorazmshoh bilan tortishuvdan so‘ng va Turkon xotunning talabiga ko‘ra, valiahdlikdan mahrum etilgan” qabilidagi ma’lumot mahkam o‘rnashib qolgani uchun ham biz ayni jihatga alohida e’tibor qaratmoqdamiz. Yana bir bor takrorlaymiz: tarixiy haqiqatga ko‘ra, Jaloliddin Manguberdi Xorazmshohlar davlatining valiahdi bo‘lmagan. Avval boshdanoq valiahd Qutbiddin O‘zloqshoh bo‘lgani va unga Xorazm, Xuroson, Mozandaronni boshqarish topshirilganligi haqida an-Nasaviy guvohlik beradi [5, 45].

Maqsud Shayxzoda ayni shu tarixiy haqiqatga o‘zgacha yondashadi va tarixiy haqiqatni inversiyalash orqali syujet tugunini shakllantiradi. Ayni chog‘da dramatizmni yana ham kuchaytirish uchun yangi valiahd Qutbiddin O‘zloqshohni murg‘ak go‘dak ko‘rinishida tasvirlaydi. Qutbiddin O‘zloqshoh valiahdlik tojini kiyganda o‘smir yoshida bo‘lganligi va unga bir necha viloyatni boshqarish topshirilganligi tarixan ma’lum. Tomoshabin va kitobxon ko‘z o‘ngida qo‘rqmas va qaysar, mohir sarkarda va qahramon Jaloliddin Manguberdi valiahdlik tojidan ayriladi, toj-taxt taqdiri esa murg‘ak go‘dak Qutbiddin O‘zloqshohga bog‘lab qo‘yiladi. Shu tariqa tarixiy xronotop koordinata tekisligining vertikal chizig‘ida ulkanlik va bahodirlikka nisbatan murg‘aklik va zaiflik qarshilantiriladi.

Inversiyaga uchragan tarixiy haqiqat kitobxon va tomoshabinga ataylabdan shunday qarama-qarshilikda ko‘rsatiladi. Ikkinchi jahon urushi davrida dramaning spektakl variantini ko‘rgan tomoshabin tragik kolliziyalarni qabul qilishi qiyin edi. Shuning uchun ham dramaturg tomoshabin adolat va adolatsizlikni tez fahmlaydigan, oson ajratadigan variantni tanlaydi.

Dramaning Parvon jangidan so‘ng ro‘y beradigan voqealarini yozish jarayonida Maqsud Shayxzoda uchun jiddiy muammo tug‘iladi. Voqealarni bir makon va bir zamon uyg‘unligida ifodalash – xronotopdagi muvozanatni saqlash maqsadida muallif favqulodda va ko‘zda tutilmagan tarixiy inversiyaga qo‘l uradi. Avvalroq Sind daryosi bo‘yidagi jang Jaloliddin taqdiriga mash’um ta’sir ko‘rsatganini eslagandik. Mazkur tarixiy voqea, ya’ni Jaloliddinning Chingizxondan yengilib, o‘z oti bilan daryoga sakrash voqeasi hozirgi Pokiston hududi bilan bog‘liq. Jaloliddin ot bilan sakragan daryoning boshlanishi pokistonliklar tomonidan Sind, hindistonliklar tomonidan Hind deb ataladi. Maqsud Shayxzoda Sind daryosi bo‘yidagi jang tafsilotlaridan aynan foydalana olmasdi. Ikkinchi jahon urushi voqeligi, tomoshabin va kitobxon saviyasi drama voqealarini ixchamlashtirish zarurati dramaturgni tarixiy inversiyaga majburlaydi. Va u voqelikni Movarounnahr – hozirgi O‘zbekiston hududiga ko‘chiradi. Drama syujetiga muvofiq, Jaloliddinning Chingizxon bilan kechgan muhim jangi Amudaryoning chap sohilida – hozirgi Surxondaryo viloyati hududida bo‘lib o‘tadi. Jangda mag‘lubiyatga uchrashi aniqligini sezgan Jaloliddin O‘zbekistonning janubiy chegarasida – Amudaryoning chap sohilida turib, onasi va singlisi Sultonbegim bilan xayrlashadi. Singlisi va onasi bilan kechgan dialoglar chog‘i Jaloliddin nutqida Jayxun va Amudaryo atamalari ishlatiladi.

Umuman olganda, xalqimiz aksariyat hollarda uning oti bilan sakrash voqeasini Amudaryo bilan bog‘laydi. Qahramon shoirimiz Abdulla Oripov qalamiga mansub “O‘zbekiston” qasidasidagi mashhur misralar ham shu mantiq asosida yozilgan:

Seni Chingiz g‘azabga to‘lib
Yo‘qotmoqchi bo‘ldi dunyodan.
Jaloliddin samani bo‘lib
Sakrab o‘tding Amudaryodan. [6,224]

Amudaryo O‘rta asrlarda, xususan, arablar bosqinidan so‘ng Jayxun deb atalgani manbalarda qayd etilgan. Masalan, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida

daryoning Oksus yoki Oksos, Jayxun, O‘kuz, Balx, Vaxsh, Amul deb atalgani haqida ma’lumot keltirilgan [7,293].

Ilmiy nuqtai nazardan Jaloliddin nutqida Amudaryo atamasining qo‘llanilishi, Abdulla Oripovning “Jaloliddin samani bo‘lib sakrab o‘tding Amudaryodan” deb yozishi tarixiy haqiqatga zid ekanligi aniq.

Drama yakunida muallif tarix haqiqatiga u qadar mos tushmaydigan yana bir holatni tasvirlaydi, ya’ni onasi Sultonbegim bilan bog‘liq shunday muloqotni qalamga oladi:

Ona
(kirib keladi)
Buni bergin og‘angga, aytgin, bu – ma’jun.
(Bir shisha beradi)
Bilmasin, tomirimdan olingan sof xun!
U ochlikka yo‘liqsa safarda agar,
Buning bitta yutumi unga jonparvar.
Endi sizlar boringiz g‘urbat ellarga,
Tutqun vatan dardini chertib dillarga.
Qaytib kelgach go‘rlarga soling bir nazar,
Balki unda sunbulu rayhonlar o‘sar.
Mo‘g‘ullarga bir oqsoch bo‘lgandan ko‘ra,
Baliqlarga yem bo‘lsam – afzal ming karra.
Dunyoga oldin kelgan oldin ham ketar
Yashashim yetar!
O‘zini suvga tashlaydi. Sultonbegim yugurib sohilga yiqiladi [8,412].

Onaning so‘zlaridan ma’lum bo‘lmoqdaki, o‘zi turgan yer, ya’ni Amudaryoning chap qirg‘og‘i – uning uchun muqaddas vatan, narigi qirg‘oq, ya’ni hozirgi Afg‘oniston hududi – xorij, “g‘urbat el”dir.

Tarixiy haqiqatga ko‘ra, Jaloliddin o‘z onasi, xotini, o‘g‘li va boshqa yaqinlarini Sind daryosiga cho‘ktirishni buyuradi. Dramada esa ona o‘zini Amudaryoga tashlaydi. Bu jarayonni Maqsud Shayxzoda Jaloliddin so‘zlari orqali shunday ifodalaydi:

Jaloliddin
(shishani o‘padi)
Balki yurak qonidur, yoki bir eksir,

Bir eksirki, bag‘ishlar abadiy umr.
Aziz ona, qaydasan, o‘lsang ham tingla,
Qayerda men tiz cho‘kay qabringga, so‘yla!
Bildim sening qabringdur butun shu Vatan,
Daryo sening tobuting, ko‘piklar kafan.
Sohillar, izzat ila ko‘taring yelka,
Jayxun to‘g‘ri eltadi tobutni elga
Quyosh o‘zi guvohki azaldan beri,
Amudaryo oqqanmas aslo teskari! [8,413]

Jaloliddin nutqidagi obrazli ifoda Amudaryo tabiiy oqimi bo‘ylab Surxondaryo va Xorazm viloyatlarini bir-biriga bog‘lashiga mos tushadi va bu geografik jihatdan barchaga ayon ma’lumot.

Yuqoridagilardan ayon bo‘lmoqdaki, Maqsud Shayxzoda drama yakuniy qismida ikki tarixiy faktni o‘zining ijodiy manerasiga bo‘ysundiradi, ya’ni Sind daryosi bo‘yida yuz bergan tarixiy voqelikni Amudaryoning chap sohiliga ko‘chiradi. Yana bir bor ta’kidlash joizki, mustabid Sho‘ro tuzumi davrida xalqimiz Amudaryoning narigi qirg‘og‘ini – Afg‘oniston hududini begona yurt, hatto dushmanlar o‘lkasi sifatida bilgan. Ijtimoiy-siyosiy voqelikdagi mafkuraviy qarashlar oqibatida dramaturg shunday yo‘l tanlashga majbur bo‘lgan. Tarixiy faktlar esa Xuroson, ya’ni hozirgi Afg‘oniston, Eron hududlari ham Xorazmshohlar davlatiga qarashli ekanligini dalillaydi. Xususan, An-Nasaviy Qutbiddin O‘zlog‘shohning valiahd sifatida e’lon qilinishi haqidagi 11-bobda shunday yozadi: “G‘azna, Bomiyon, al-G‘ur, Bust, Takinobod, Zamin Davar va Hindiston bilan chegaradosh bo‘lgan viloyatlarni boshqarish huquqini katta o‘g‘li Jaloliddin Manguberdiga berdi” [9,58].

Adabiyotshunoslikdagi ilmiy-nazariy tamoyillarga tayanib, tarixiy-biografik metod va gipotetik yondashuvlar asosida Maqsud Shayxzoda tarixiy inversiya jarayonida oqilona yo‘l tutganini izohlash mumkin. An-Nasaviy qaydlaridan ma’lumki, Jaloliddin Xorazmshohlar davlatining hozirgi Afg‘oniston hududidagi viloyatlarini boshqargan. Gipotetik nazariyaga asoslansak, u Xorazmdan Afg‘onistonga borish asnosida Amudaryoni kechib o‘tgani, kechib o‘tish jarayonida lashkariga o‘rnak sifatida otini daryo qirg‘og‘idan sakratgani – tasavvur qilsa bo‘ladigan va mantiqqa mos hodisa. Qolaversa, Mirzo Ulug‘bek o‘zining “To‘rt ulus tarixi” asarida Balxda Muhammad Xorazmshoh ishtirokida

bo‘lib o‘tgan harbiy kengashda Jaloliddinning Amudaryo o‘ng sohilida istehkom qurib Chingiz qo‘shinlarini daryodan o‘tkazmaslik bilan bog‘liq takliflari haqidagi ma’lumotlarni yozib qoldirgan: “Sulton Muhammad Xorazmshoh diliga vatanga mehr hissini soldi. Bu jamoat ko‘p tortishuvlardan keyin o‘zni undan uzoqroqqa tortishimiz va Iroq tomonga ketishimiz lozim, degan qarorga keldi. U yerda lashkar to‘playajakmiz va so‘ng ishga kirishurmiz, dedilar. Sulton Jaloliddin Sulton Muhammad Xorazmshoh o‘g‘li bu vaqtda otasi bilan birga edi va otasining ra’yini inkor etdi va dedi: “Agar Sulton Iroqqa ketadigan bo‘lsa, lashkarlarini menga qoldirsin. Men esa Jayxun daryosi bo‘yida turgum. Daryoning u tomonini (mo‘g‘ullar) egallaydigan bo‘lsa, bu tomonga o‘tkazmagayman, mone’lik qilurmen. Eng to‘g‘ri yo‘l shul” [3,136].

Mavjud dalillar asosida xulosa qiladigan bo‘lsak, Abdulla Oripov mashhur misralarni yozganda, Maqsud Shayxzoda drama voqealarini Amudaryoning chap sohiliga ko‘chirganda nainki badiiylik mezonlari asosida qalam tebratilgan, balki tarixiy faktlar mohiyatiga ham jiddiy putur yetkazilmagan. Eng muhimi, bugungi o‘quvchi Jaloliddin Manguberdi tarixan Parvon jangidan so‘ng o‘z otida qoyadan Sind daryosiga sakragan va uni suzib o‘tganini, Abdulla Oripov gipotetik tasavvurida u bu ishini Amudaryo sohilida amalga oshirganini farqlamog‘i darkor. 8-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan amaldagi “Adabiyot” darsligida “Jaloliddin Manguberdi” dramasida 1217-1224-yil voqealari o‘z aksini topgani, Maqsud Shayxzoda Jaloliddinni “Manguberdi” deb atagani haqida ma’lumot berilgan [2,143]. Vaholanki, dramadagi tarixiy voqealar 1220-1221-yillarda ro‘y bergan. “Mangburni” so‘zini esa ilk bor yevropalik d’Osson “Manguberdi” shaklida qo‘llagan. Maqsud Shayxzoda esa bu so‘zni V. V. Bartoldning 1900-yilda nashr etilgan “Turkiston mo‘g‘ul bosqini” davridakitobida o‘qigan. Rus olimi “Mangburni” so‘zini o‘z kitobida “Manguberti” shaklida ishlatgan. Maqsud Shayxzoda ruscha so‘zni o‘zbekchalashtirganda “t” harfini “d”ga aylantirgan, xolos.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, maktab ta’limida tarixiy asarni o‘qitish o‘qituvchidan nafaqat pedagogik mahorat, balki yuksak tarixiy zakovatni talab qiladi. “Jaloliddin Manguberdi” dramasini o‘qitish jarayonida faqat 8-sinf “Adabiyot” darsligidan, undagi matn, metodik tavsiya, savol va topshiriqlardan foydalangan o‘qituvchi ko‘zlangan maqsadga erisholmaydi. Tarixiy materialdan

ijodiy foydalanish “Jaloliddin Manguberdi” kabi asarlarni o‘qitishda o‘qituvchi uchun o‘ziga xos muvaffaqiyat kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayeva Z., Qodirova N., Mamiraliyev Q. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik. - Toshkent: Respublika Ta’lim markazi, 2025. – 254 b.
2. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. – Toshkent: Cho‘lpon, 1993. – 352 b.
3. Oripov A. Yillar armoni. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1984. – 566 b.
4. Rahimov J. Jaloliddin Manguberdi – mardlik va jasorat timsoli. – Toshkent: Ziyo nashr, 2022. – 584 b.
5. Zamonov A., Istamova N. va b. O‘zbekiston tarixi. 8-sinf uchun darslik. - Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2023. -192 b.
6. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1-jild. - Toshkent: O‘zME, 2000. – 735 b.
7. Shihobiddin Muhammad an –Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. – Toshkent: Fan, 2018. – 432 b.

RAQAMLI PEDAGOGIKA SHAROITIDA INGLIZ TILINI O‘QITISH: TALABALARDA MEDIA SAVODXONLIK VA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Kodirov Alijon Abdumannonovich,
Teacher of University of Business and Sciences, Namangan

Annotatsiya: Ushbu maqola raqamli pedagogika sharoitida ingliz tilini o‘qitish jarayonida talabalarda media savodxonlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalalarini tadqiq qiladi. Tadqiqot barqaror rivojlanish konsepsiyasini ingliz tili darslariga integratsiya qilishning nazariy-metodik asoslarini yoritadi, raqamli ta’lim muhiti va multimodal o‘quv materiallarining samaradorligini tahlil qiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, barqaror rivojlanish mavzularini darslarga kiritish talabalarda global tafakkur, ekologik ong, ijtimoiy mas’uliyat va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu

bilan birga, maqolada o‘qituvchilarni yangi metodik yechimlar, raqamli vositalar va didaktik resurslar bilan ta’minlash zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: raqamli pedagogika, ingliz tilini o‘qitish, media savodxonlik, tanqidiy fikrlash, barqaror rivojlanish, o‘quv jarayoni, global tafakkur, ekologik ong, ijtimoiy mas’uliyat, multimodal o‘quv materiallar.

ПРЕПОДАВАНИЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ПЕДАГОГИКИ: РАЗВИТИЕ МЕДИАГРАМОТНОСТИ И КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития медиаграмотности и критического мышления студентов в процессе обучения английскому языку в условиях цифровой педагогики. В исследовании рассматриваются теоретико-методологические основы интеграции концепции устойчивого развития в уроки английского языка, анализируется эффективность использования цифровых образовательных сред и мультимодальных учебных материалов. Результаты показывают, что включение тем устойчивого развития в уроки способствует формированию у студентов глобального мышления, экологической осведомленности, социальной ответственности и навыков критического мышления. При этом в статье подчеркивается необходимость предоставления преподавателям новых методических решений, цифровых инструментов и дидактических ресурсов.

Ключевые слова: цифровая педагогика, преподавание английского языка, медиаграмотность, критическое мышление, устойчивое развитие, процесс обучения, глобальное мышление, экологическая осведомленность, социальная ответственность, мультимодальные учебные материалы.

TEACHING ENGLISH IN THE CONDITIONS OF DIGITAL PEDAGOGY: DEVELOPING MEDIA LITERACY AND CRITICAL THINKING IN STUDENTS

Annotation: This article examines the issues of developing media literacy and critical thinking in students in the process of teaching English in the conditions of digital pedagogy. The study highlights the theoretical and methodological foundations of integrating the concept of sustainable development into English lessons, analyzes the effectiveness of digital learning environments and

multimodal teaching materials. The results show that the inclusion of sustainable development topics in lessons serves to form global thinking, environmental awareness, social responsibility and critical thinking skills in students. At the same time, the article emphasizes the need to provide teachers with new methodological solutions, digital tools and didactic resources.

Keywords: digital pedagogy, English language teaching, media literacy, critical thinking, sustainable development, learning process, global thinking, environmental awareness, social responsibility, multimodal learning materials.

XXI asr ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi o‘qitish metodlari, o‘quv mazmuni va pedagogik yondashuvlarga tubdan ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy ta’lim talabalardan nafaqat til ko‘nikmalarini, balki media maydonda mustaqil fikrlay olish, axborotni tahlil qilish, haqiqatni feyk ma’lumotlardan ajrata olish hamda global axborot oqimida to‘g‘ri yo‘nalish topish qobiliyatini ham talab qiladi.

Ingliz tili darslarida raqamli pedagogika imkoniyatlarini qo‘llash media savodxonlikni shakllantirish, talabalarda tanqidiy fikrlash jarayonlarini faollashtirish, axborotni mustaqil izlash va qayta ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois “Digital Pedagogy in English Language Teaching” konsepsiyasi zamonaviy lingvodidaktikaning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Ushbu tadqiqot ingliz tilini o‘qitish jarayonida barqaror rivojlanish g‘oyalarini integratsiya qilishning nazariy-metodik asoslarini yoritishga qaratilgan bo‘lib, lingvodidaktika, pedagogika va ekologik ta’lim sohalarining o‘zaro uyg‘unlashgan yondashuvlariga tayanadi. Tadqiqot deskriptiv va tahliliy xarakterga ega bo‘lib, mavjud ilmiy manbalar, ta’limiy konsepsiyalar va xalqaro tajribalarni o‘rganish orqali amalga oshirildi.

Metodologiya asosida, avvalo, barqaror rivojlanish ta’limining konseptual tamoyillari, ekologik ongni shakllantirishga doir nazariy yondashuvlar, kommunikativ va kompetensiyaviy til o‘qitish nazariyalari tizimli ravishda tahlil qilindi. Ingliz tili ta’limida barqaror rivojlanish mavzularining o‘rni va ahamiyatini belgilashda UNESCO, TESOL, British Council kabi xalqaro tashkilotlarning metodik tavsiyalari asosiy ilmiy manba sifatida qo‘llandi [1,137].

Shuningdek, metodologik yondashuvning muhim jihatini mazmun va tilni birgalikda o‘rgatishga oid nazariy qarashlar tashkil etdi. Barqaror rivojlanish

mavzulari ingliz tili materiallari bilan uyg‘unlashganda talabalarda tanqidiy fikrlash, global mas’uliyat, madaniyatlararo muloqot kabi kompetensiyalar shakllanishi mumkinligi ilmiy nuqtayi nazardan asoslab berildi.

Tadqiqot davomida raqamli ta’lim muhiti va multimodal o‘quv materiallarining imkoniyatlari ham nazariy jihatdan o‘rganildi. Ekologik va ijtimoiy mazmundagi videolar, infografikalar, interaktiv topshiriqlar, media resurslarning til o‘qitish samaradorligiga ta’siri ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilindi.

Metodologiya yakunida mavjud ilmiy qarashlar umumlashtirilib, barqaror rivojlanish g‘oyalarini ingliz tili ta’limiga integratsiya qilish bo‘yicha nazariy xulosalar ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv amaliy tajribalar yoki eksperimental ko‘rsatkichlarga emas, balki konseptual tahlil va ilmiy-nazariy asoslashga tayanadi.

Tadqiqot natijalari ingliz tili ta’limiga barqaror rivojlanish konsepsiyasini integratsiya qilish o‘quv jarayonining mazmuniy va kompetensiyaviy samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Bunday yondashuv, avvalo, talabalarda **tanqidiy fikrlash**, **muammoli vaziyatlarni tahlil qilish**, **dalillarga asoslangan xulosa chiqarish** kabi yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarni shakllantiradi. Til o‘rganish jarayonida ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik masalalarini muhokama qilish talabalarning global muammolarni tushunish darajasini kengaytiradi va ularning akademik faolligini oshiradi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, barqarorlik mavzularini ingliz tili darslariga kiritish talabalar orasida **intermadaniy kompetensiya** rivojlanishiga xizmat qiladi. Ya’ni, talabalar turli madaniyatlarda ekologik siyosat, resurslardan foydalanish, ijtimoiy tenglik kabi masalalar qanday talqin etilishini ingliz tilidagi autentik materiallar orqali chuqurroq anglaydi [3,82].

Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlarda barqarorlik mavzularidan foydalanish talabalarda **o‘quv motivatsiyasini kuchaytiradi**. Talabalar ingliz tilini faqat grammatik tizim sifatida emas, balki global masalalarni tushunish va muhokama qilish vositasi sifatida ko‘ra boshlaydi. Bu esa ularning darsdagi ishtirokini faollashtiradi va o‘z fikrini erkin bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Natijalar talabalarda **ijodiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, muloqot qilish, muammoga yechim topish** kabi yumshoq ko‘nikmalar (soft skills) mustahkamlanishini ham ko‘rsatdi. Bunday mashg‘ulotlar o‘quvchilarda ekologik

madaniyat, ijtimoiy mas’uliyat, global fuqarolik qadriyatlari shakllanishi uchun samarali platforma yaratadi [2,38].

Tahlil davomida aniqlanishicha, ingliz tilini o‘qitishda barqaror rivojlanish konsepsiyasini qo‘llash bo‘yicha imkoniyatlar keng bo‘lsada, amaliyotda bir qator metodik va tashkiliy muammolar mavjud. Xususan, o‘qituvchilarning aksariyati barqaror rivojlanish mavzularini ingliz tili darslari bilan samarali uyg‘unlashtirish uchun yetarli metodik ko‘rsatmalarga ega emas. Ingliz tili bo‘yicha mavjud o‘quv qo‘llanmalarida ekologik va ijtimoiy barqarorlik masalalari chegaralangan darajada yoritilgan, bu esa o‘qituvchilardan qo‘shimcha materiallar yaratishni talab qiladi.

Shuningdek, o‘qituvchilar uchun maxsus treninglar, seminarlar va malaka oshirish kurslarining yetishmasligi barqaror rivojlanish mavzularini dars jarayoniga integratsiya qilishni murakkablashtiradi. Bu holat o‘qituvchilarning loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyatlar asosidagi o‘qitish yoki CLIL kabi zamonaviy metodlardan foydalanish darajasiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Baholash tizimi ham ko‘pincha an’anaviy lingvistik indikatorlarga tayanadi va barqarorlikka oid kompetensiyalarni yetarlicha qamrab olmaydi [4,62].

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, mavjud holatni yaxshilash uchun bir qator ilmiy-pedagogik yo‘nalishlar takomillashtirilishi lozim. Bular orasida fanlararo integratsiya muhim o‘rin tutadi. Ingliz tili ekologiya, iqtisodiyot, sotsiologiya kabi fanlar bilan uyg‘unlashtirilganda, til o‘rganish jarayoni mazmunan boyiydi va talabalarda keng qamrovli fikrlash shakllanadi.

Bundan tashqari, loyiha asosida o‘qitish talabalarning ijodkorligi va tashabbuskorligini rivojlantiradi. Raqamli platformalar, internet resurslari va sun’iy intellekt vositalari esa real hayotiy kontekstda tilni qo‘llash imkonini kengaytiradi. Ekologik aksiyalar, debatlar, munozarali darslar esa talabalarda ekologik ongni shakllantirish bilan birga, ingliz tilida og‘zaki nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ingliz tilini o‘qitishda barqaror rivojlanish g‘oyalaridan foydalanish nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki talabalarning ma’naviy-ijtimoiy tafakkurini boyitadi va ularni global jarayonlarda faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o‘qitish jarayoniga barqaror rivojlanish konsepsiyasini integratsiya qilish zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bu yondashuv talabalarda nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki global

tafakkur, ekologik ong va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Barqaror rivojlanish mazmunini ingliz tili mashg‘ulotlariga kiritish o‘quv jarayonini mazmunan boyitadi, talabalarning dunyoqarashini kengaytiradi hamda til o‘rganish motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, “Teaching English for Sustainable Development” yondashuvi o‘qituvchilar uchun innovatsion, gumanistik va global qadriyatlarni uyg‘unlashtirgan pedagogik modelni yaratish imkonini beradi. Bu modelda til o‘qitish jarayoni real hayotiy muammolarni anglash, ekologik va ijtimoiy masalalarga nisbatan ongli munosabat bildirish, shuningdek, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birgalikda olib boriladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida ingliz tili o‘qituvchilari barqarorlikka oid mavzularni o‘quv jarayoniga tatbiq etish uchun yangi metodik yechimlar, raqamli vositalar va didaktik resurslar bilan ta’minlanishi zarur. Shuning uchun o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish, ekologik savodxonlikni oshirish, innovatsion dars modellaridan foydalanishga yo‘naltirish bugungi kunning muhim talablaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, barqaror rivojlanish g‘oyalarini ingliz tili ta’limiga kiritish nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki jamiyatning ekologik va ijtimoiy barqaror kelajagini ta’minlashga xizmat qiladigan yetuk, ongli va faol shaxslarni tarbiyalashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **UNESCO** (2020). *Education for Sustainable Development: A Roadmap*. Paris: UNESCO Publishing.
2. **Crystal, D.** (2012). *English as a Global Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
3. **Cates, K.** (2019). *Teaching for a Better World: Global Issues in English Language Education*. Tokyo: JALT Publications.
4. **Brundiers, K., Barth, M., & Cebrián, G.** (2021). *Implementing Sustainability Across the Curriculum*. Higher Education Press.
5. **Widdowson, H. G.** (2017). *Language and Context: Essays in Stylistics and Pedagogy*. Oxford University Press.
6. *Til va ta’limda barqaror rivojlanish: metodik tavsiyalar*. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2023.

7. **Xudoyqulova, N.** (2022). “Ingliz tili ta’limida ekologik madaniyatni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari”. *Filologiya masalalari jurnali*, №4.

YOSH ORGANIZMNING RIVOJLANISHIDA STRESS VA UNING PSIXOLOGIK TA’SIRI

Qo‘qon universiteti
Pedagogika va Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
Anvarov Furqatjon Rovshanjon o‘gli
anvarovfurqatjon@gmail. com
Qo‘qon universiteti 2-kurs Psixologiya yo‘nalishi talabasi
Tojimamatova Ma’sumaxon Abrorjon qizi
masumaxontojimamatova@gmail. com

Annotatsiya: Stress omillari bizning kayfiyatimizga, farovonlik tuyg‘uyimizga, xatti-harakatlarimizga va sog‘lig‘imizga katta ta'sir ko‘rsatadi. Yosh, sog‘lom odamlarda o‘tkir stress reaktsiyalari moslashuvchan bo‘lishi mumkin va odatda sog‘liq uchun yuk bo‘lmaydi. Biroq, agar tahdid doimiy bo‘lsa, ayniqsa keksa yoki nosog‘lom odamlarda, stress omillarining uzoq muddatli ta'siri sog‘likka zarar yetkazishi mumkin. Psixosotsial stress omillari va kasallik o‘rtasidagi munosabatlarga stress omillarining tabiati, soni va doimiyligi, shuningdek, shaxsning biologik zaifligi (ya'ni, genetika, konstitutsiyaviy omillar), psixosotsial resurslar va o‘rganilgan kurash usullari ta'sir qiladi. Psixosotsial aralashuvlar stress bilan bog‘liq kasalliklarni davolashda foydali ekanligi isbotlangan va surunkali kasalliklarning kechishiga ta'sir qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: psixosotsial stresslar, stressga javoblar, gomeostaz, psixosotsial aralashuvlar, stressorlar o‘zaro ta'siri.

СТРЕСС И ЕГО ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ НА РАЗВИТИЕ МОЛОДОГО ОРГАНИЗМА

Стрессовые факторы оказывают глубокое влияние на наше настроение, самочувствие, поведение и здоровье. У молодых, здоровых людей острые стрессовые реакции могут быть адаптивными и обычно не представляют угрозы для здоровья. Однако, если угроза носит постоянный

характер, особенно у пожилых или ослабленных людей, долгосрочные последствия стресса могут быть пагубными для здоровья. Взаимосвязь между психосоциальными стрессорами и заболеваниями зависит от характера, количества и продолжительности стрессоров, а также от биологической уязвимости человека (т. е. генетики, конституциональных факторов), психосоциальных ресурсов и усвоенных стратегий преодоления трудностей. Психосоциальные вмешательства доказали свою эффективность в лечении заболеваний, связанных со стрессом, и могут влиять на течение хронических заболеваний.

Ключевые слова: психосоциальный стресс, стрессовые реакции, гомеостаз, психосоциальные вмешательства, взаимодействие стрессоров.

STRESS AND ITS PSYCHOLOGICAL IMPACT ON THE DEVELOPMENT OF A YOUNG ORGANISM

Abstract: Stressors have a profound impact on our mood, sense of well-being, behavior, and health. In young, healthy individuals, acute stress responses can be adaptive and usually do not pose a health burden. However, if the threat is persistent, especially in older or frail individuals, the long-term effects of stressors can be detrimental to health. The relationship between psychosocial stressors and illness is influenced by the nature, number, and persistence of the stressors, as well as the individual's biological vulnerability (i. e., genetics, constitutional factors), psychosocial resources, and learned coping strategies. Psychosocial interventions have been shown to be beneficial in treating stress-related illnesses and may influence the course of chronic illnesses.

Keywords: psychosocial stress, stress responses, homeostasis, psychosocial interventions, stressor interactions.

Psixologik stress zamonaviy jamiyatda eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib, insonning ruhiy va jismoniy salomatligiga jiddiy ta'sir ko‘rsatadi. Shuningdek JSST tashkiloti ham insonlarni kamroq stressga tushishi va stressorlardan uzoqroq yurishini tavsiya etadi. Tashkilot ta’kidlashicha insonni psixologik va sotsial osoyishtalligi taminlansa uning oilaviy va kasbiy faoliyati anchayin barqaror bo‘libgina qolmay samarali ham bo‘ladi. Hozirgi kunda jamiyatda ommalashayotgan infostress tushunchasi bo‘lib bu insonlarda

informatision axborotlarni ko‘pligi vaa ishonchsizligi oqibatida yuzaga keladigan stress sanaladi[1.71].

Klod Bernard ta'kidlaganidek, hayotning davom etishi o‘zgaruvchan muhit sharoitida bizning ichki muhitimizni doimiy saqlashga juda bog‘liq. Kannon (1929) buni "gomeostaz" deb atagan. Gomeostazga jiddiy tahdid soladigan har qanday narsaning ta'sirini ifodalash uchun "stress" atamasidan foydalangan. Organizm uchun haqiqiy yoki sezilgan tahdid "stressor" deb ataladi va stressorga javob "stress javobi" deb ataladi. Stress reaktsiyalari adaptiv jarayonlar sifatida rivojlangan bo‘lsa-da, Selye og‘ir, uzoq muddatli stress reaktsiyalari to‘qimalarning shikastlanishi va kasalliklarga olib kelishi mumkinligini kuzatdi.

Qabul qilingan tahdidni baholashga asoslanib, odamlar va boshqa hayvonlar yengish uchun javoblarni chaqiradilar. Bizning markaziy asab tizimimiz (CNS) yagona, izolyatsiya qilingan javob o‘zgarishlarini emas, balki integratsiyalashgan javoblarni ishlab chiqarishga intiladi. Shunday qilib, zudlik bilan jang qilish yoki parvoz qilish mumkin bo‘lganda, sutemizuvchilar mushaklarning kuchlanish imkoniyatlarini maksimal darajada oshiradigan vegetativ va gormonal faollikni ko‘rsatishga moyildirlar. Bundan farqli o‘laroq, faol kurashish reaktsiyasi mavjud bo‘lmagan aversive vaziyatlarda sutemizuvchilar hushyorlik reaktsiyasiga kirishishi mumkin, bu esa simpatik asab tizimining (SNS) qo‘zg‘alishini o‘z ichiga oladi, bu harakatni faol inhibe qilish va qonni periferiyadan uzoqlashtirish. Turli vaziyatlarning biologik javobning turli naqshlarini keltirib chiqaradigan darajasi "vaziyat stereotipi" deb ataladi[2.15].

Turli vaziyatlar stressga javob berishning turli shakllarini keltirib chiqarishga moyil bo‘lsa-da, bir xil vaziyatga stress reaktsiyalarida individual farqlar ham mavjud. Turli xil stress omillari bo‘yicha stress reaktsiyalarining ma'lum bir namunasini ko‘rsatish tendentsiyasi "javob stereotipi" deb ataladi. Turli xil vaziyatlarda ba'zi shaxslar faol kurash bilan bog‘liq stress reaktsiyalarini ko‘rsatishga moyil bo‘lsa, boshqalari esa aversive hushyorlik bilan bog‘liq bo‘lgan stress reaktsiyalarini ko‘rsatishga moyildirlar.

Garchi genetik meros evolyutsiya sutemizuvchilarni qisqa muddatli stresslar bilan kurashish uchun yetarli darajada samarali gomeostatik mexanizmlar (masalan, baroreseptor refleksi) bilan ta'minlaganligi sababli, yosh, sog‘lom odamlarda o‘tkir stress reaktsiyalari odatda sog‘liq uchun yuk bo‘lmaydi. Biroq, agar tahdid doimiy bo‘lsa, ayniqsa keksa yoki nosog‘lom odamlarda, stressga

javob berishning uzoq muddatli ta'siri sog‘likka zarar etkazishi mumkin. Surunkali stress omillarining salbiy ta'siri, ayniqsa, odamlarda keng tarqalgan, chunki ularning ramziy fikrlash qobiliyati keng doiradagi noqulay yashash va ish sharoitlariga doimiy stress reaktsiyalarini keltirib chiqarishi mumkin. Psixosotsiyal stresslar va surunkali kasalliklar o‘rtasidagi munosabatlar murakkab. Bunga, masalan, stress omillarining tabiati, soni va doimiyligi, shuningdek, shaxsning biologik zaifligi (ya'ni, genetika, konstitutsiyaviy omillar) va o‘rganilgan kurash usullari ta'sir qiladi. Ushbu sharhda biz o‘ziga xos stress omillarining ba'zi psixologik, xulq-atvor va biologik ta'siriga, vositachi psixofiziologik yo‘llarga va bu munosabatlarga vositachilik qilish uchun ma'lum bo‘lgan o‘zgaruvchilarga e'tibor qaratamiz. Davolanish oqibatlarini ko‘rib chiqish bilan yakunlaymiz.

Stressning Psixologik Aspektlari

Bolalik va o‘smirlik davridagi stress omillari va ularning psixologik oqibatlari

Bolalar va o‘smirlardagi eng ko‘p o‘rganilgan stresslar - zo‘ravonlik, zo‘ravonlik (jinsiy, jismoniy, hissiy yoki e'tiborsizlik) va ajralish / nikoh mojarosi shuningdek, bunday stresslarning psixologik oqibatlarini mukammal ko‘rib chiqadi. Yomon muomala suviste'mollikning psixologik ta'siriga ta'sirning buzilishi, provokatsion xatti-harakatlar, yaqinlikdan qochish va bog‘lanishdagi buzilishlar kiradi. Bolalik davridagi jinsiy zo‘ravonlikdan omon qolganlar umumiy qayg‘u va katta psixologik buzilishlar, shu jumladan shaxsiyat buzilishlarining yuqori darajasiga ega. Bolalik davridagi zo‘ravonlik, shuningdek, o‘rganishga va maktabning yomon ishlashiga nisbatan salbiy qarashlar bilan bog‘liq. Ajrashgan ota-onalarning bolalari tengdoshlariga qaraganda ko‘proq g‘ayrioddiy xatti-harakatlar, tashvish va depressiya haqida xabar berishgan. Ajrashgan ota-onalarning voyaga yetgan avlodlari ota-onalari ajrashmaganlar bilan solishtirganda ko‘proq hozirgi hayot stressi, oilaviy nizolar va do‘stlar qo‘llab-quvvatlashining yetishmasligi haqida xabar berishadi. Javob bermaydigan muhitlarga ta'sir qilish, shuningdek, o‘rganilgan nochorlikka olib keladigan stress omili sifatida tasvirlangan. [3.50]

Tadqiqotlar, shuningdek, bolalik davrida urush va terrorizmga ta'sir qilishning psixologik oqibatlarini ham ko‘rib chiqdi. Urushga duchor bo‘lgan bolalarning aksariyati jiddiy psixologik kasalliklarni boshdan kechirishadi, shu jumladan travmadan keyingi stress buzilishi (TSSB) va depressiv alomatlar.

Masalan, Quvaytlik bolalarning 70 foizi Fors ko‘rfazi urushidan keyin engil va og‘ir TSSB belgilari haqida xabar berishini aniqladi. Ba'zi ta'sirlar uzoq davom etadi: livanlik bolalarning 43 foizi urush bilan bog‘liq jarohatlarga duchor bo‘lganidan keyin 10 yil o‘tgach, post-travmatik stress belgilarini namoyon qilishda davom etishini aniqladi.

Rivojlanish yillarida kuchli va surunkali stress omillariga ta'sir qilish uzoq davom etadigan neyrobiologik ta'sirga ega bo‘lib, tashvish va kayfiyatning buzilishi, agressiv diskontrol muammolari, gipoimmun disfunktsiyasi, tibbiy kasallik, markaziy asab tizimining tarkibiy o‘zgarishlari va erta o‘lim xavfini oshiradi (

Voyaga etganlik davridagi stress omillari va ularning psixologik oqibatlari

HAYOT STRESSI, ANKSIYETE VA DEPRESSIYA

Ma'lumki, birinchi depressiv epizodlar ko‘pincha katta salbiy hayot hodisasi sodir bo‘lgandan keyin rivojlanadi Bundan tashqari, stressli hayot voqealari depressiyaning boshlanishiga sabab bo‘lganligi haqida dalillar mavjud qarang. Daniyadagi 13 006 bemorni o‘rganish, ruhiy tushkunlik tashxisi qo‘yilgan birinchi psixiatrik bemorlarning yoshi va jinsi bilan taqqoslaganda yaqinroq bo‘lgan ajralishlar, ishsizlik va o‘z joniga qasd qilish holatlari aniqlandi. Katta tibbiy kasallikning tashxisi ko‘pincha og‘ir hayot stressi deb hisoblanadi va ko‘pincha depressiyaning yuqori darajasi bilan birga keladi. Misol uchun, bir meta-tahlil saraton bemorlarning 24% katta ruhiy tushkunlik tashxisi, deb topildi.

Stressli hayot voqealari ko‘pincha anksiyete buzilishidan oldin ham sodir bo‘ladi Qizig‘i shundaki, uzoq muddatli kuzatuv tadqiqotlari tashvishlanishning depressiyadan oldin tez-tez sodir bo‘lishini ko‘rsatdi. Haqiqatan ham, istiqbolli tadqiqotlarda, tashvishli bemorlarda stressli hayot voqealari sodir bo‘lgandan keyin katta depressiya rivojlanishi mumkin. [4.5]

TRAVMA BILAN BUZISHLAR

Umumiy aholida travmatik hodisalarga umrbod ta'sir qilish darajasi yuqori bo‘lib, taxminlar 40% dan 70% gacha. Diagnostika va statistik qo‘llanma (DSM-IV-TR; travma bilan bog‘liq ikkita asosiy tashxisni o‘z ichiga oladi: O‘tkir stress buzilishi (ASD) va PTSD. Bu ikkala buzuqlik ham haqiqiy yoki tahdid ostidagi o‘lim yoki jiddiy jarohatlar bilan bog‘liq travmatik hodisaning o‘ziga xos xususiyatiga ega, shu jumladan travmatik hodisani qayta boshdan kechirish (masalan, intruziv fikrlar), eslatmalardan qochish qo‘zg‘alish va haddan tashqari

qo‘zg‘alish (masalan, uxlab qolish yoki uxlab qolish qiyinlishuvi). ASD uchun vaqt oralig‘i qisqaroq (ikki kundan to‘rt haftagacha davom etadi), tashxis hodisadan keyin bir oy ichida cheklangan. ASD 1994 yilda dastlabki travma reaktsiyalarini tavsiflash uchun kiritilgan, ammo zaif empirik va nazariy yordam uchun tanqid ostiga olingan. Shikastli hodisadan ko‘p o‘tmay, TSSB belgilari bo‘lgan odamlarning aksariyati tuzalib ketadi va TSSB rivojlanmaydi. Keng qamrovli tekshiruvda travmatik hodisalarga duchor bo‘lganlarning taxminan 25% TSSBni rivojlantiradi. Umumiy aholi o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlar shuni ko‘rsatadiki, TSSB 12 kattalarning 1-ga hayotining bir vaqtida ta'sir qiladi. Travma va ofatlar nafaqat TSSB, balki bir vaqtning o‘zida depressiya, boshqa anksiyete bozuklukları, kognitiv buzilish va moddalarni suviste'mol qilish bilan bog‘liq.

Stressning sog‘liq bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa oqibatlari, masalan, chekish, giyohvand moddalarni iste'mol qilish, baxtsiz hodisalar, uyqu muammolari va ovqatlanish buzilishining ko‘payishi aniqlangan. Ko‘proq stressli muhitda yashovchi aholi (ajralish darajasi yuqori bo‘lgan jamoalar, biznesdagi muvaffaqiyatsizliklar, tabiiy ofatlar va boshqalar) ko‘proq chekishadi va o‘pka saratoni va surunkali obstruktiv o‘pka kasalliklaridan o‘limni boshdan kechiradilar. Dengiz o‘quv markazida dengizchilarni kuzatib boradigan uzunlamasına tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, yuqori stressli kunlarda ko‘proq sigaret chekish sodir bo‘lgan. Hayotiy voqealar stressi va surunkali stressli sharoitlar ham spirtli ichimliklarni ko‘proq iste'mol qilish bilan bog‘liq. Bundan tashqari, tashvish kabi stress bilan bog‘liq kasalliklar uchun spirtli ichimliklarni o‘z-o‘zidan davolovchi vosita sifatida foydalanish mumkinligi taklif qilingan. Misol uchun, 3021 o‘smir va yosh kattalar bo‘lgan istiqbolli jamoatchilik tadqiqoti ma'lum anksiyete kasalliklari (ijtimoiy fobiya va vahima hujumlari) bo‘lganlar to‘rt yillik kuzatuv davomida giyohvand moddalarni suviste'mol qilish yoki qaramlikni rivojlantirish ehtimoli ko‘proq ekanligini aniqladi. Stressli muhitda hayot, shuningdek, halokatli baxtsiz hodisalar va bulimiya boshlanishi bilan bog‘liq. Salomatlik bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan stress bilan bog‘liq yana bir o‘zgaruvchi - bu psixologik travmadan so‘ng bildirilgan uyqu muammolarining kuchayishi. Uyqu muammolarining yangi boshlanishi, Endryu bo‘roni qurbon shikastlanishdan keyingi stress belgilari va kamaydi tabiiy qotil (NK) hujayra sitotoksikligi o‘rtasidagi munosabatlarga vositachilik qildi.

Xulosa qilib aytganda stress hayotni ham, evolyutsiyani ham tushunish uchun markaziy tushunchadir. Barcha mavjudotlar gomeostaz uchun tahdidlarga duch keladilar, bu esa moslashuvchan javoblar bilan javob berishi kerak. Bizning kelajagimiz individual va tur sifatida kuchli stress omillariga moslashish qobiliyatimizga bog‘liq. Ijtimoiy miqyosda biz institutsional resurslarning etishmasligi (masalan, etarli darajada tibbiy sug‘urta), o‘lat (masalan, OIV/OITS), urush va bizning qirg‘oqlarimizga etib kelgan xalqaro terrorizmga duch kelamiz. Individual darajada biz kundalik hayotimizdagi ishonchsizliklar, jumladan ishdagi stress, oilaviy stress, xavfli maktablar va mahallalar bilan yashaymiz. Bular mutlaqo yangi holat emas, chunki birgina o‘tgan asrning o‘zida dunyo ommaviy ocharchilik, genotsid, inqiloblar, fuqarolar urushlari, yirik yuqumli kasalliklar epidemiyasi, ikki jahon urushi va jahon tartibiga tahdid solgan dahshatli sovuq urushdan aziyat chekdi. Garchi biz ushbu maqolada ushbu global tahdidlarga e'tibor bermaslikni tanlagan bo‘lsak-da, ular stress va salomatlik o‘rtasidagi munosabatni ko‘rib chiqish uchun zamin yaratadi. [5.5]

Stressli vaziyatlarning keng tarqalgan ta'rifi - bu vaziyatning talablari shaxsning resurslaridan oshib ketishi bilan tahdid qiladigan. Hammamiz jamiyat, jamiyat va shaxslararo darajadagi stressli vaziyatlarga duchor bo‘lishimiz aniq. Bu qiyinchiliklarni qanday yengishimiz bizga jamiyatimiz va o‘zimiz salomatligi haqida gapirib beradi. Yosh, sog‘lom odamlarda o‘tkir stress reaktsiyalari moslashuvchan bo‘lishi mumkin va odatda sog‘liq uchun yuk bo‘lmaydi. Haqiqatan ham, optimistik va yaxshi javob beradigan shaxslar bunday tajribalardan foyda olishlari va surunkali stresslar bilan yaxshi kurashishlari mumkin. Aksincha, agar stress omillari yoshi, irsiy yoki konstitutsiyaviy omillar tufayli biologik zaif bo‘lgan shaxslarda juda kuchli va doimiy bo‘lsa, stress omillari kasallikka olib kelishi mumkin. Bu, ayniqsa, agar odamda psixo-ijtimoiy resurslar kam bo‘lsa va engish qobiliyati past bo‘lsa, to‘g‘ri keladi. Ushbu bobda biz stress omillari va kasallik o‘rtasidagi bog‘liqlikni hujjatlashtirdik va endokrin-immun o‘zaro ta'sirlari munosabatlarga vositachilik qilishini tasvirlab berdik. Shuningdek, biz psixo-ijtimoiy stresslar ruhiy salomatlikka qanday ta'sir qilishini va psixosotsial muolajalar ruhiy va jismoniy kasalliklarni qanday yaxshilashi mumkinligini tasvirlab berdik. Stress va salomatlik o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida hali biz bilmaydigan ko‘p narsalar mavjud, ammo kognitiv-emotsional psixologiya, molekulyar biologiya, nevrologiya, klinik psixologiya va tibbiyot sohalarida

erishilgan ilmiy topilmalar, shubhasiz, salomatlik natijalarini yaxshilashga olib keladi. Psixologik stress inson ongining, hissiyotlarining va butun organizmining tabiiy reaktsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda qisqa muddatli stress vaziyatlari ba'zan ijodiy faollik yoki xavfga tezkor javob berish kabi ijobiy samara berishi mumkin, lekin surunkali stress jiddiy sog‘liq muammolari, ruhiy buzilishlar, ijtimoiy munosabatlardagi murakkabliklar va umuman hayot sifatining pasayishiga olib keladi. Shuning uchun stressni minimallashtirish yo‘llarini o‘rganish, individual xususiyatlarga mos ravishda turli strategiyalarni qo‘llash, profilaktik choralar ko‘rish va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish har bir shaxs uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Vaqtni boshqarish, to‘g‘ri ovqatlanish, sport bilan shug‘ullanish, ijtimoiy va emosional ko‘makka ega bo‘lish, psixologik maslahatlardan foydalanish singari chora-tadbirlar insonni ruhiy mustahkamlikka yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy psixologiya (F. Xaydarov, N. Xalilova).
2. M. Aripov. B. Begalov. U. Begimquloy. U. Mamarajabov.
3. "Information technology". Tashkent. Noshir - 2009.
4. K. Ismanova. Organize hands-on activities using innovative methods.
5. Journal of Educational Problems. Issue 2, 2012
6. D. R. Garrison “E-Learning in the 21st Century”. Textbook. –New York. 2017.
7. Islamova, M. Sh. "Fundamentals of Forming a Professional Worldview. " Science and Education Special Issue 1 (2021): 78-87.
8. Orziqulov, X. (2024). BO‘LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IJTIMOIY PEDAGOGIK KOMPONENTLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, *1*(5), 228-230.
9. Furqatjon, A. (2025). Physiological Characteristics of Cardiovascular System Development in Children Engaged in Sports. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, *5*(06), 15-18.
10. Furqatjon, A. (2025). Age-Related Hormonal Changes and Their Impact on Psychophysiological State. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, *5*(06), 20-22.

11. J. O. Tolipova “Biologiyani o‘qitishda innovatsion texnolo giyalar” Pedagogika oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent - “Cho‘lpon” – 2011 y.
12. M. H. Ибодова Биологияни ўқитишнинг интерфаол ва муаммоли изланиш методлари. Педагог журнали 11. 07. 2022 й

AXBOROT TIZIMLARIDA OMMAVIY XIZMATLARNI AVTOMATLASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Abdullayev Abbosjon Xasanboy o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti
Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasi assistenti
abdullayevabbosjon@gmail. com
Turg‘unboyeva Dildoraxon Soibjon qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti
Axborot tizimlari va texnologiyalari yo‘nalishi 70-23 guruh talabasi
dildoraturgunboyeva426@mail. ru

Annotatsiya. Ommaviy xizmat ko‘rsatish jarayonlarining ko‘lami ortib borayotgani axborot tizimlarini avtomatlashtirish va ularning ishlash samaradorligini oshirishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Zamonaviy texnologiyalar — masalan, bulutli hisoblash, sun’iy intellekt, ma’lumotlarni katta hajmda qayta ishlash, mikroxizmatlar arxitekturasi va kontenerlash texnikalari — xizmatlarni tezkor, barqaror va iqtisodiy samarali boshqarish imkonini bermoqda. Mazkur yo‘nalishda ishlab chiqilgan texnologik yechimlar mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshiradi, navbatlarni optimallashtiradi, resurslardan foydalanish jarayonini avtomatik nazorat ostiga oladi va tizim yuklamasini bashoratlash orqali xizmatlarni uzluksiz boshqarishni ta’minlaydi. Tadqiqot doirasida zamonaviy avtomatlashtirish tamoyillari, texnologik yondashuvlar va ularning amaliy qo‘llanilishi tahlil qilinib, ommaviy xizmat ko‘rsatish axborot tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha asosli xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Natijalar xizmat jarayonlarining samaradorligini oshirish, harajatlarni kamaytirish va foydalanuvchi tajribasini yaxshilash imkonini beruvchi texnologik asoslarni yoritib beradi.

Tayanch so‘zlar: axborot tizimlari, ommaviy xizmatlar, avtomatlashtirish, samaradorlik, raqamli transformatsiya, bulutli texnologiyalar, sun’iy intellekt, xizmat sifatini oshirish, resurslarni optimallashtirish, navbatlarni boshqarish.

Аннотация. Рост масштабов процессов массового обслуживания делает автоматизацию информационных систем и повышение их эффективности одной из актуальных задач. Современные технологии — такие как облачные вычисления, искусственный интеллект, обработка больших данных, архитектура микросервисов и методы контейнеризации — обеспечивают быстрое, стабильное и экономически эффективное управление услугами. Разработанные в этом направлении технологические решения повышают качество обслуживания клиентов, оптимизируют очереди, автоматически контролируют использование ресурсов и обеспечивают бесперебойное управление услугами за счёт прогнозирования нагрузки на систему. В рамках исследования были проанализированы современные принципы автоматизации, технологические подходы и их практическое применение, а также разработаны обоснованные выводы и практические рекомендации по совершенствованию информационных систем массового обслуживания. Полученные результаты отражают технологические основы, которые позволяют повысить эффективность процессов, снизить затраты и улучшить пользовательский опыт.

Ключевые слова: информационные системы, массовые услуги, автоматизация, эффективность, цифровая трансформация, облачные технологии, искусственный интеллект, повышение качества обслуживания, оптимизация ресурсов, управление очередями.

Abstract. The growing scale of mass service processes is making the automation of information systems and the improvement of their operational efficiency an increasingly urgent task. Modern technologies — such as cloud computing, artificial intelligence, big data processing, microservices architecture, and containerization techniques — enable fast, stable, and cost-effective management of services. Technological solutions developed in this field improve customer service quality, optimize queues, automate the monitoring of resource usage, and ensure uninterrupted service management by predicting system load. Within the scope of this study, modern automation principles, technological approaches, and their practical applications were analyzed, and well-grounded

conclusions and practical recommendations were developed for improving mass service information systems. The results highlight technological foundations that enhance process efficiency, reduce costs, and improve user experience.

Keywords: information systems, mass services, automation, efficiency, digital transformation, cloud technologies, artificial intelligence, service quality improvement, resource optimization, queue management.

Axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda turli tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan ommaviy xizmatlar hajmi va ko‘lami sezilarli darajada kengayib bormoqda. Xizmatlar sonining oshishi bilan birga, ularni tezkor, aniq va uzluksiz tashkil etish zarurati yanada kuchaymoqda. Zamonaviy foydalanuvchi har bir jarayonning soddalashgan, tez ishlov beruvchi va ortiqcha vaqt talab qilmaydigan bo‘lishini kutadi. Shu sababli axborot tizimlarida xizmatlarni avtomatlashtirish nafaqat qulaylik yaratadi, balki xizmat ko‘rsatish samaradorligining asosiy omiliga aylanadi.

Ommaviy xizmat jarayonlari ko‘plab takrorlanuvchi amallar, katta hajmdagi ma’lumotlar almashinuvi va real vaqt rejimida boshqaruvni talab qiladi. An’anaviy qo‘lda boshqariladigan tizimlar bunday yuklamaga bardosh bera olmaydi, shu bois zamonaviy texnologiyalar, sun’iy intellekt, raqamli monitoring va optimallashtirish algoritmlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvlar xizmat sifati, uzluksizlik, tezkorlik hamda xarajatlarni qisqartirish bo‘yicha sezilarli natijalar beradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohalarida samaradorlikni oshirishning eng muhim yo‘li – jarayonlarni to‘liq yoki qisman avtomatlashtirishdir. Bu esa nafaqat tashkilotlarning raqobatbardoshligini kuchaytiradi, balki foydalanuvchilarga qulayroq, shaffofroq va ishonchliroq xizmat ko‘rsatish imkonini yaratadi. Mazkur yo‘nalishdagi zamonaviy yondashuvlarni chuqur tahlil qilish va ularni amaliyotga joriy etish orqali axborot tizimlarining umumiy samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Ommaviy xizmat jarayonlarini avtomatlashtirishda qo‘llaniladigan yondashuvlarni tahlil qilish uchun avvalo xizmatlarning tuzilishi, ularga bo‘lgan talab va foydalanuvchi tajribasiga ta’sir qiluvchi omillar o‘rganildi. Jarayonlarni baholashda real vaqt monitoringi, xizmat sifatini o‘lchash ko‘rsatkichlari va tizimning funksional imkoniyatlari asosiy mezon sifatida tanlandi. Har bir texnologik yechimning samarasi SLA, KPI va QoS kabi ko‘rsatkichlar orqali

solishtirildi. Bu ko‘rsatkichlar xizmatning barqarorligi, tezkorligi, aniqligi va foydalanuvchi ehtiyojlariga mosligini baholash imkonini berdi [1,133].

Texnologik jihatdan avtomatlashtirishning turli vositalari – sun’iy intellekt asosidagi navbatlarni boshqarish modullari, ma’lumotlarni tahlil qilish algoritmlari, bulutli xizmatlar, mikroxizmatlar arxitekturasi va integratsiya platformalari tahlil doirasiga kiritildi. Har bir yechimning qo‘llanilish sohasi, infratuzilma talablari, resurs sarfi va xizmat jarayoniga qo‘shadigan real foydasi aniqlashtirildi. Bundan tashqari, xizmatlarga bo‘lgan yuklama darajasi, foydalanuvchilar oqimi va tizimning uzluksiz ishlash ko‘rsatkichlari turli stsenariylar bo‘yicha ko‘rib chiqildi.

Olingan ma’lumotlarni qayta ishlashda taqqoslash, umumlashtirish va modellashtirish yondashuvlaridan foydalanildi. Bu orqali xizmat jarayonlarini optimallashtirish imkoniyatlari, samaradorlikka bevosita ta’sir qiluvchi omillar va ularning amaliy ahamiyati aniqlab berildi. Yondashuvlar bir-biri bilan solishtirilib, qaysi texnologik echimlar yuqori natija berishi va qaysilari muayyan sharoitlarda samaraliroq bo‘lishi aniqlandi [2,191].

Metodologiya ishlash usuli tizimli yondashuv asosida belgilandi: avvalo ommaviy xizmat jarayonlarining strukturaviy tahlili o‘tkazildi, so‘ngra eng ko‘p uchraydigan ish oqimlari identifikatsiyalandi va ularni avtomatlashtirish uchun amaliy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lgan texnologiyalar tanlandi. Jarayon xaritalari yordamida har bir xizmat bosqichi (foydalanuvchi so‘rovi, ma’lumotni tekshirish, qaror qabul qilish, javob qaytarish va monitoring) model qilindi; bu modellarga asosan avtomatlashtirish darajalari — to‘liq avtomatlashtirish, qisman avtomatlashtirish (gibrid) va yordamchi avtomatlashtirish — aniqlab olindi. Har bir daraja uchun zarur infratuzilma talablari, integratsiya nuqtalari va ma’lumot havzasi (data lake) strukturalari loyihalandi, bu esa takomillashtirish choralari va amalga oshirish xarajatlarini oldindan baholash imkonini berdi [3,59].

Ma’lumot manbalari va yig‘ish usullari keng ko‘lamda qo‘llanildi. Operatsion loglar, foydalanuvchi so‘rovlarini qayd etuvchi tizimlar, xizmat ko‘rsatish statistikasi va mavjud xizmat darajasi shartnomalari (SLA) tahlili asosiy kvantitativ ma’lumotlar sifatida ishlatildi. Shuningdek, xizmat xodimlari va foydalanuvchilar bilan olib borilgan yarimstrukturaviy intervyular orqali jarayonlardagi og‘riqli nuqtalar (bottleneck) va foydalanuvchi kutishlari sifat jihatdan qayd etildi. Ma’lumotlarni yig‘ishda anonimlik va maxfiylik tamoyillari

saqlanib, shaxsiy identifikatorlar ajratib olinib, faqat agregat tahlilga yo‘naltirilgan ma’lumotlar ishlatildi.

Texnologiyalarni tanlash va baholash mezonlari aniq belgilandi: javob vaqti, tizimning yuk ostida barqarorligi, xatolik darajasi, integratsiyalashuv darajasi, infratuzilma xarajatlari va texnik xizmat ko‘rsatish murakkabligi asosiy baholash mezonlari sifatida qabul qilindi. Ushbu mezonlar uchun o‘lchov birliklari aniqlab olindi—masalan, o‘rtacha xizmat ko‘rsatish vaqti (Average Response Time) millisekundlarda yoki minutlarda, tizimning mavjudlik darajasi (availability) foizlarda, xatoliklar soni va tranzaksiya muvaffaqiyati darajasi (success rate) kabi ko‘rsatkichlar. SLA, KPI va QoS tushunchalari amaliy kontekstga moslashtirilib, har bir xizmat turiga nisbatan mos KPI to‘plami ishlab chiqildi va monitoring instrumentlari orqali real vaqtda kuzatib borildi [4,177].

Sinov va modellashtirish bosqichi nazariy loyihalashdan amaliy tekshiruvga o‘tish uchun muhim bo‘ldi. Avtomatlashtirish modullari avvalo test muhitida (staging) yuk sinovlaridan o‘tkazildi: turli yuk stsenariylari (oddiy, pik, hatto stress) asosida tizimning javob vaqti, navbatlashuv tizimi ishlashi, va resurs iste’moli o‘lchandi. Sun’iy intellekt yoki mashinaviy o‘rganish modullari uchun trening va validatsiya to‘plamlari ajratildi, modelning overfitting holatlari va aniq ishlash ko‘rsatkichlari tekshirildi. Real muhitga joriy etishdan oldin A/B testlari va bosqichma-bosqich rollout strategiyasi qo‘llanib, yangi yechimlar qadam-baqadam ishga tushirildi hamda rollback mexanizmlari tayyorlandi.

Xavfsizlik, maxfiylik va axborot himoyasi masalalari metodik jarayonning ajralmas qismi sifatida integratsiyalashgan. Ma’lumot uzatishda shifrlash, autentifikatsiya va ruxsat boshqaruvi (RBAC) mexanizmlari joriy etildi; tizimdagi loglar, monitoring komponentlari va integratsiya nuqtalari auditlanib, zaifliklar aniqlanib to‘g‘irlandi. Bundan tashqari, avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish jarayonlarida shaffoflikni ta’minlash uchun qaror izlari (decision trace) hamda inson nazorati nuqtalari belgilab qo‘yildi, böylece noto‘g‘ri yoki ziddiyatli qarorlar holatida tezkor aralashuv imkoni bo‘ladi [5, 187].

Tahlil va baholash usullari sifatida statistik tahlil, vaqt qatorlari modeli, va samaradorlik ko‘rsatkichlarini solishtirish yondashuvi qo‘llanildi. Interventsiya oldingi va keyingi davrlar (pre-post) taqqoslandi, bu orqali avtomatlashtirish natijasida yuzaga kelgan o‘zgarishlarning aniq o‘lchovlari olinib, ular statistik jihatdan ahamiyatlilik darajasi bilan baholandi. Shuningdek, iqtisodiy effektlar —

operatsion xarajatlarning kamayishi, xodim mehnatidan samaradorlik oshishi va xizmat ko‘rsatish hajmidagi o‘sish kabilar kvantifikatsiyalandi.

Metodologik yondashuvning chegaralari ham e’tirof etildi: ayrim xizmatlar uchun to‘liq avtomatlashtirish amaliy jihatdan mumkin emasligi, mavjud legacy tizimlar bilan integratsiya qiyinchiliklari va trening uchun yetarli tarixiy ma’lumotlarning yo‘qligi kabi cheklovlar mavjud. Shu cheklovlarni kamaytirish maqsadida bosqichma-bosqich integratsiya strategiyasi, ma’lumotlarni to‘plashni kengaytirish va xodimlar malakasini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Umuman olganda, metodologiya amaliy yo‘nalishda qo‘llanilishga mos va moslashuvchan bo‘lib, turli sharoitlarda samaradorlikni oshirish uchun zarur ko‘rsatkichlarni taqdim etadi.

Ommaviy xizmatlarni avtomatlashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan tahlillar bir nechta muhim natijalarni ko‘rsatdi. Avvalo, avtomatlashtirilgan jarayonlar xizmat ko‘rsatish vaqtining sezilarli darajada qisqarishiga olib keldi. Qo‘lda boshqariladigan jarayonlarda xizmat ko‘rsatishning o‘rtacha davomiyligi yuqori bo‘lgan bo‘lsa, avtomatlashtirish natijasida ayni jarayonlar bir necha baravar tez bajarildi. Asosiy sabab — takrorlanuvchi amallarni avtomatik modullar bajarishi, ma’lumotlar real vaqt rejimida tekshirilishi va qaror qabul qilish mexanizmlarining inson omilisiz ishlashidir. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, yuqori yuklama davrlarida ham tizimning javob berish tezligi barqaror saqlanib, foydalanuvchi oqimining oshishi xizmat sifati pasayishiga olib kelmadi.

Navbatni boshqarish tizimlarini avtomatlashtirish xizmat uzluksizligiga eng katta ijobiy ta’sir ko‘rsatgan yo‘nalishlardan biri bo‘ldi. Real vaqt monitoringi asosida navbat uzunligi, foydalanuvchi oqimi va xizmat ko‘rsatish quvvati avtomatik tarzda muvozanatlashtirildi. Bu tizimlar yuklamaning notekis taqsimlanishini bartaraf etdi va eng yuqori davrlarda ham kutish vaqtining keskin oshib ketishini oldini oldi. Modellashtirish natijalariga ko‘ra, avtomatik navbat taqsimlash algoritmlaridan foydalanilganda kutish vaqti 25–40 foizgacha qisqargan, xizmat ko‘rsatuvchi bo‘limlarning ishlash samaradorligi esa o‘rtacha 30 foiz oshgani aniqlangan [7,143].

Sun’iy intellekt asosida ishlaydigan tahlil modullari xizmat sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ular foydalanuvchi talablarini tasniflash, so‘rovni to‘g‘ri bo‘limga yo‘naltirish, ma’lumotlar to‘g‘riligi va to‘liqligiga qo‘shimcha tekshiruv kiritish orqali ishlash natijalarini yaxshiladi. Bu orqali xatoliklar soni kamaydi, noto‘g‘ri

yo‘naltirilgan so‘rovlar qisqardi va jarayonlarning aniqligi oshdi. Xizmat jarayonida sodir bo‘ladigan tipik xatoliklar (noto‘g‘ri ma’lumot kiritish, qayta tekshiruvga ehtiyoj, ortiqcha kutish kabi holatlar) sun’iy intellekt modullari tomonidan avvaldan aniqlanib, avtomatik tarzda tuzatilgani bu tizimlarning samaradorligini yanada mustahkamladi.

Bulutli texnologiyalar joriy etilgach, tizimning barqarorlik darajasi va mavjudlik ko‘rsatkichi oshdi. Yuk taqsimoti, rezervlash va avtomatik kengaytirish (auto-scaling) mexanizmlari tufayli xizmatlar to‘xtamasdan ishlash imkoniga ega bo‘ldi. Monitoring vositalari yordamida tizimning holati uzluksiz nazorat qilindi, nosozliklar erta bosqichda aniqlanib, to‘xtashlar minimal darajaga tushirildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, bulutli infratuzilma joriy etilgach, xizmat uzluksizligi 99. 5–99. 9 foiz oralig‘ida barqarorlashgan [8,165].

Avtomatlashtirish resurslardan foydalanish darajasini ham optimallashtirdi. Xodimlar vaqtining katta qismi takrorlanuvchi amallarga emas, balki murakkabroq, mijoz bilan muloqot qilishni talab qiladigan vazifalarga yo‘naltirildi. Bu mehnat samaradorligining oshishiga, xizmat ko‘rsatish sifatining yaxshilanishiga va operatsion xarajatlarning kamayishiga olib keldi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, avtomatlashtirish natijasida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi o‘rtacha 20–35 foizgacha oshgan.

Umumlashtirilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, avtomatlashtirilgan ommaviy xizmat tizimlari kam vaqt sarfi, yuqori aniqlik, barqaror ishlash, minimal xatolik va foydalanuvchi uchun qulaylik kabi ko‘rsatkichlarni ta’minlaydi. Tizimlar o‘rtasidagi integratsiya kuchayishi esa xizmat jarayonlarining to‘liq raqamlashtirilishi va ma’lumotlar almashinuvining yengillashishiga yordam berdi. Yondashuvlarning barcha toifalarida ijobiy ko‘rsatkichlar qayd etilgan bo‘lib, ular kelgusida kengroq joriy etish uchun yetarli asos yaratadi.

Ommaviy xizmatlarni avtomatlashtirish yo‘nalishida qo‘llangan texnologik yechimlar samaradorlikning bir nechta muhim aspektlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Tahlillar ko‘rsatdiki, xizmat jarayonlarining raqamlashtirilishi nafaqat tezkorlik va aniqlikni oshirdi, balki tizimning umumiy barqarorligini mustahkamladi. Avtomatlashtirishning real amaliyotga joriy etilgan holatlarida xizmatlar yuklamasi keskin oshgan paytlarda ham tizimning uzluksiz ishlashi ta’minlandi, bu esa qo‘lda boshqariladigan tizimlar bilan solishtirganda sezilarli ustunlikni namoyon qildi. Ayni vaqtda, foydalanilgan texnologiyalar orasida sun’iy intellekt

asosidagi navbat boshqaruvi, bulutli infratuzilma va avtomatik monitoring tizimlari eng samarali yondashuvlar sifatida ajralib turdi.

Ko‘rib chiqilgan natijalar shuni tasdiqlaydiki, avtomatlashtirish xizmat sifatining yaxshilanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Foydalanuvchi kutish vaqtining qisqarishi, xizmatga murojaat qilish jarayonining soddalashishi va xatoliklarning kamayishi bu tizimlarning asosiy afzalliklari sifatida namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, foydalanuvchi so‘rovlarini to‘g‘ri yo‘naltirish va ma’lumotlarni avtomatik tekshirish mexanizmlari xizmat ko‘rsatish jarayonining aniqligini sezilarli darajada oshirdi. Bu esa xizmatning sifat ko‘rsatkichlari — javob berish tezligi, muvaffaqiyatli qayta ishlangan so‘rovlar ulushi va tizimning mavjudlik darajasining oshishiga yordam berdi.

Shu bilan birga, avtomatlashtirishning ayrim cheklovlari ham mavjudligi aniqlangan. Xususan, ayrim legacy tizimlar bilan integratsiya qilinishi murakkab bo‘lib, qo‘shimcha moslashtirish ishlarini talab qildi. Ba’zi xizmatlar inson qaroriga tayanadigan murakkab jarayonlarni o‘z ichiga olgani sababli to‘liq avtomatlashtirish imkoni mavjud emas. Sun’iy intellekt modellarini samarali ishlatish uchun katta hajmdagi sifatli tarixiy ma’lumotlar talab qilinishi ham yana bir cheklov sifatida qayd etildi. Shunga qaramay, bu muammolarni bartaraf etish uchun mos strategiyalar — bosqichma-bosqich joriy etish, ma’lumotlarni to‘plashni kengaytirish va xodimlar malakasini oshirish kabi choralar samarali natija berdi.

Mavjud tajribalar shuni ko‘rsatadiki, xizmat jarayonlarini avtomatlashtirishning keng ko‘lamli natijalari faqat texnologik yutuqlar bilan emas, balki tashkiliy o‘zgarishlar bilan ham chambarchas bog‘liq. Xodimlar yangi tizimlarga moslashtirilishi, jarayonlar qayta optimallashtirilishi va raqamli fikrlash madaniyati shakllanishi avtomatlashtirishning umumiy samaradorligiga sezilarli ta’sir qiladi. Tizimning muvaffaqiyatli ishlashi uchun inson omili va texnologiya imkoniyatlarining uyg‘unlashuvi muhim bo‘lib qoldi.

Umuman olganda, avtomatlashtirishning zamonaviy yondashuvlari xizmat ko‘rsatish jarayonlarining ishonchliligini oshirdi, resurslardan foydalanishni optimallashtirdi va foydalanuvchi tajribasini sezilarli darajada yaxshiladi. Bu natijalar ommaviy xizmat ko‘rsatish sohalarida raqamli transformatsiyaning muhim bo‘g‘ini sifatida avtomatlashtirishning strategik ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ommaviy xizmat jarayonlarining avtomatlashtirilishi zamonaviy axborot tizimlarining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, texnologik yechimlardan samarali foydalanish xizmat ko‘rsatish jarayonlarining tezkorligini oshiradi, xatoliklarni kamaytiradi va tizimning barqaror ishlashini ta’minlaydi. Sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar, real vaqt monitoringi va avtomatik navbat boshqaruvi kabi yondashuvlar foydalanuvchi tajribasini sezilarli darajada yaxshilab, xizmat ko‘rsatish sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Avtomatlashtirish natijasida xizmatlarning mavjudlik darajasi barqarorlashdi, resurslardan foydalanish samaradorligi oshdi va takrorlanuvchi operatsiyalar avtomatik tarzda bajarilishi tufayli xodimlar yuklamasi yengillashdi. Yondashuvlar o‘rtasida aniqlangan ayrim cheklovlar — integratsiya qiyinchiliklari, ma’lumotlar sifati va ayrim jarayonlarning murakkabligi — bosqichma-bosqich joriy etish modeli va infratuzilmani diversifikatsiya qilish orqali bartaraf etilishi mumkin.

Umuman olganda, avtomatlashtirilgan ommaviy xizmat tizimlari yuqori samaradorlik, uzluksizlik va ishonchlilikni ta’minlab, tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omilga aylanadi. Kelgusida yanada keng qamrovli raqamli integratsiya va sun’iy intellekt imkoniyatlarining to‘liq joriy etilishi xizmat sifati va foydalanuvchi tajribasini yanada yuqori darajaga olib chiqadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Бегимкулов, У. Ш., Хасанбойева, О. У. Raqamli pedagogika va axborot texnologiyalari. — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021. — 284 b.
2. Тожибоев, М. Т., Абдуллаев, А. М. Axborot tizimlari va texnologiyalari: nazariya va amaliyot. — Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020. — 312 b.
3. Норматова, Ш. Х. Axborot xavfsizligi asoslari. — Toshkent: “Noshir”, 2019. — 256 b.
4. Маманазаров, А. А. Axborot tizimlarini loyihalash va boshqarish. — Samarqand: “SamDU nashriyoti”, 2021. — 228 b.
5. Саидов, Б. Қ., Рафиқов, Ё. Ғ. Raqamli iqtisodiyot asoslari va IT xizmatlari. — Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2022. — 304 b.

6. Мирзаев, Н. А., Эргашев, Б. М. Sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili. — Toshkent: “O‘zbekiston texnika universiteti nashriyoti”, 2022. — 210 b.
7. Жабборов, Қ. Raqamli transformatsiya va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari. — Buxoro: “BuxDU nashriyoti”, 2020. — 195 b.
8. Бобоев, Д. С., Хамраев, Ш. Б. Axborot texnologiyalarida bulutli servislar va ulardan foydalanish. — Namangan: “NamDU nashriyoti”, 2021. — 188 b.

UDK: 37. 02:004. 4

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA TARIX FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION USULLAR VA METODLARDAN FOYDALANISH

Abduvaxidov Dilshod Narbotirovich,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Samarqand kampusi ass. o‘qituvchisi,
Samarqand, O‘zbekiston.
e-mail: norbotirovich@mail. ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida tarix fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari va raqamli ta’lim platformalaridan foydalanishning nazariy-amaliy masalalari yoritiladi. Zamonaviy yondashuvlarning o‘quvchilarning tarixiy tafakkuri, manbashunoslik kompetensiyalari va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o‘rni ilmiy dalillar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar:innovatsion ta’lim, tarix o‘qitish metodikasi, interfaol metodlar, AKT, media resurslar, kompetensiya, tarixiy tafakkur.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические вопросы использования инновационных педагогических технологий, интерактивных методов, информационно-коммуникационных средств и цифровых образовательных платформ в преподавании истории в общеобразовательных школах. На основе научных данных анализируется роль современных подходов в развитии исторического мышления, источниковедческих компетенций и навыков критического мышления учащихся.

Ключевые слова: инновационное образование, методика преподавания истории, интерактивные методы, ИКТ, медиаресурсы, компетентность, историческое мышление.

Abstract. This article discusses the theoretical and practical issues of using innovative pedagogical technologies, interactive methods, information and communication tools and digital educational platforms in teaching history in secondary schools. The role of modern approaches in the development of students’ historical thinking, source research competencies and critical thinking skills is analyzed based on scientific evidence.

Keywords: innovative education, history teaching methodology, interactive methods, ICT, media resources, competence, historical thinking.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari jadal kechayotgan sharoitda ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Xalqaro baholash dasturlari — PISA, TIMSS, PIRLS kabi jarayonlar o‘quvchilarning faqat bilim darajasini emas, balki ularning amaliy fikrlash ko‘nikmalari, tahliliy yondashuvi, muammoli vaziyatda qaror qabul qilish salohiyati kabi kompetensiyalarini ham baholamoqda. Bu esa, o‘z navbatida, o‘qitish jarayonining mazmuni va metodikasini yangilashni taqozo etadi. Ta’lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqish, o‘quvchini tayyor bilim oluvchi emas, balki faol bilim yaratuvchi sifatida shakllantirish zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Tarix fani umumta’lim maktablari tizimida o‘quvchilarning tarixiy xotirasini mustahkamlash, milliy o‘zlikni anglash, umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, ijtimoiy tafakkurni shakllantirish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Tarix ta’limi nafaqat fakt va sanalarni bilish, balki tarixiy tafakkur, tahliliy yondashuv, sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash, tarixiy manbalarni solishtirish, mantiqiy xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, tarixni o‘qitish metodikasini zamonaviy innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish bugungi ta’lim siyosatining markaziy masalalaridan biri sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda ta’lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilish, o‘quv dasturlarini xalqaro tajriba asosida yangilash, o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish bo‘yicha tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Yoshlarni ma’naviy-

axloqiy yetuk shaxs sifatida tarbiyalash”ga doir davlat dasturlari, maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar innovatsion ta’lim metodlarini amaliyotga keng joriy etishni talab qilmoqda. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning “milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”. degan fikrlari tarix fanining o‘quvchi ongini shakllantirishdagi o‘rnini yanada yuksaltiradi [1, 5].

Umuman olganda, bugungi kunda tarix darslarida innovatsion metodlardan foydalanish o‘quvchilarni faollikka chorlaydi, mustaqil izlanishga undaydi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, ta’lim jarayonini jonlantiradi, tarixiy voqealarni vizual idrok etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

XXI asr ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar — bu o‘quv jarayonini zamonaviy ilmiy-pedagogik tamoyillar asosida tashkil etish, talabalar tajribasiga yo‘naltirilgan, muammoli, interfaol hamda raqamli texnologiyalarni uyg‘unlashtirgan holda o‘qitish tizimidir. Innovatsion yondashuvlarning nazariy asoslari konstruktivizm, kompetensiyaviy yondashuv, faol ta’lim nazariyasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi va kognitiv psixologiya tamoyillariga tayanadi. Zamonaviy pedagogika ilmida konstruktivizm nazariyasi innovatsion ta’limning asosiy g‘oyaviy manbalaridan biridir. J. Pijet va L. S. Vigotskiy tomonidan asoslangan bu yondashuvga ko‘ra, bilim tayyor shaklda berilmaydi, balki o‘quvchining shaxsiy tajribasi, faol fikrlashi orqali **quriladi**[2**,** 55].

Tarix fanida konstruktivistik yondashuv quyidagilarni taqozo etadi:

- o‘quvchi tarixiy jarayonlarni tayyor bayon orqali emas, balki **analiz, taqqoslash, qiyoslash, izohlash** orqali tushunadi;
- dars jarayoni o‘quvchining tarixiy tafakkuri rivojlanadigan **faol muhit**ga aylanadi;
- muammoli vaziyatlar, tarixiy manbalar, xaritalar, statistik jadval, davriy jarayonlar ustida ishlash o‘quvchining “bilim qurish” jarayonini faollashtiradi.

Bu yondashuv E. Carrning “tarix bu tarixchining tafakkurida qayta yaratilgan voqelikdir” degan g‘oyasi bilan hamohang [3, 15].

Darhaqiqat, o‘z mamlakati va o‘zi yashayotgan hududning tarixini bilmaslik butun jamiyatning ijtimoiy-madaniy darajasiga ta’sir qiladi va milliy

o‘ziga xoslik yo‘qolib boradi. Milliy o‘zlik implantatsiya qilinadigan narsa emas. Bu tuyg‘uni maktab o‘quvchilari, talabalarni tarix faniga qiziqtirish orqaligina tarbiyalash mumkin. Bugungi kunda yoshlarning tarix sohasidagi bilimlari yetarli deb bo‘lmaydi. Bizningcha, buning bir necha sabablari bor. Eng avvalo, tarix fanini o‘qitishning an’anaviy usuli o‘zini oqlamayotganligi vaziyatga jiddiy ta’sir o‘tkazmoqda. O‘quv dasturlari hamon sovet davridagi qolip asosida ishlab chiqilmoqda va shu asosda darsliklar nashr etilmoqda. Umumta’lim maktablari uchun tarix fanini o‘qitish bo‘yicha amaldagi davlat ta’lim standartlari tarixiy sanalar, joy nomlarini eslab qolish, O‘zbekiston va jahon tarixining eng qadimgi davridan XX asr boshlariga qadar insoniyat tarixida muayyan iz qoldirgan muhim voqea va jarayonlar haqida ma’lumotlarni yodda saqlash, bir so‘z bilan aytganda, o‘quvchi ongini «ma’lumotlar ombori»ga aylantirishga yo‘naltirilgan. Ammo o‘quvchiga tarixiy tadqiqot metodlarini o‘rgatish, bunda muzeylardan, yodgorliklardan, arxeologik tepaliklardan, arxivlardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish haqida so‘z bormaydi. Yapon xalqida ajoyib bir maqol bor: «Kimgadir yaxshilik qilishni istasang, unga baliq berma, baliq tutishni o‘rgat». Hozirda umumta’lim maktablarida 5-11 sinflarda jami 12 dona darslik o‘qitiladi. Ularning hammasi sanalar, joy nomlari, tarixiy-voqealarga to‘la. Maktablarimizning aksariyatida an’anaviy ta’lim usullari qo‘llanmoqda. Bunday usul o‘tgan asrning 70-90 yillarida samara bergan bo‘lishi mumkin. Chunki u vaqtlarda o‘quvchining diqqatini o‘ziga tortadigan turli-tuman texnologiyalar hali udum bo‘lmagan, o‘quvchi uchun yagona qiziq joy, bu – maktab bo‘lgan. Hozir o‘quvchilarning diqqatini tortadigan texnologiyalar juda ko‘p. Bular qatoriga maktablar yaqinida ochib qo‘yilgan kompyuter o‘yinlari klublaridan tortib, har bir o‘quvchining qo‘lida uchratish mumkin bo‘lgan smartfonlargacha kiritish mumkin. Ana shu chalg‘ituvchi unsurlardan o‘quvchining diqqatini dars mashg‘ulotlariga qaratish hozirgi dunyoning eng dolzarb muammosidir [4,563]. Shuning uchun ham bugunning o‘quvchilarga o‘qitishning yangi strategiyalari va yondashuvlari orqali murojaat qilish kerak. Aks holda o‘qituvchilar, masalan, tarix fani o‘qituvchilari deyarli har kuni o‘quvchilar tomonidan beriladigan «Tarix zerikarli», «Eslab qolish kerak bo‘lgan sanalar juda ham ko‘p», «Qachonlardir bo‘lib o‘tgan voqealar haqida bilishim nimaga kerak?» kabi savollarga duch kelaverishadi. Ta’lim va tarbiya sohasidagi faoliyat ko‘rsatuvchi tadqiqotchilarning fikricha, zamonaviy ta’limo‘quvchilarning mustaqil faoliyati, jamoaviy ishi, o‘z-o‘zini o‘qitishi,

innovatsion va amaliy mashg‘ulotlar, tanqidiy fikrlash, tashabbuskorlikka e’tibor qaratishi lozim. Tarix ta’limning muhim tarkibiy qismi bo‘lganligi sababli, o‘qituvchilar o‘quvchilarni qiziqtirishga harakat qilishlari va ularni tarixni yodlashdan ko‘ra tushunishga undashlari kerak.

Tarixni o‘qitishdagi eng ta’sirli zamonaviy yondashuvlardan biri bu interfaol multimedia ta’lim vositalaridan foydalanishdir. Ular orasida virtual haqiqat simulyatsiyalari, kengaytirilgan haqiqat ilovalari va ta’limga oid video o‘yinlar kiradi. Ular orqali o‘quvchilar tarixiy voqealarga deyarli qadam qo‘yishlari mumkin, o‘tmish haqidagi tushunchalarini qiziqarli va immersiv tarzda kuchaytiradi. Ilovalar tarixiy tasvirlar va ma’lumotlarni haqiqiy dunyoga qo‘shib, tarixni sinf doirasida jonlantirishi mumkin. O‘quv video o‘yinlari nafaqat o‘rganishni qiziqarli qiladi, balki tarixiy tahlilda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rag‘batlantiradi. Raqamli hikoya qilish tarix sinflarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan yana bir innovatsion uslubdir. O‘quvchilar tarixiy voqealar yoki shaxslarni muloqot qilish uchun tasvirlar, videolar va hikoyalarni o‘z ichiga olgan multimedia taqdimotlarini yaratishi mumkin. Bu usul nafaqat tadqiqot va taqdimot mahoratini oshiribgina qolmay, balki tarixga ijodiy nuqtai nazardan yondashish imkonini ham beradi. O‘quvchilarni o‘z hikoyalarini yaratishga rag‘batlantirish tarixiy kontekstlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi va o‘rganilayotgan odamlar va voqealarga nisbatan hamdardlikni rag‘batlantiradi. Birlamchi manbalardan foydalanish tarixiy tadqiqotning asosiy jihati hisoblanadi. Raqamlashtirilgan tarixiy hujjatlar, xatlar, fotosuratlar va artefaktlar kabi birlamchi manbalarni tahlil qilishning innovatsion usullarini integratsiyalash o‘quvchilarning tahliliy ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Onlayn ma’lumotlar bazalari va arxivlar birgalikda kirish va tahlil qilish mumkin bo‘lgan asosiy manbalarning keng omborini taqdim etadi. O‘quvchilarni ushbu manbalarni tanqidiy baholashga yo‘naltirish ularga tarixiy voqealar haqida nozik tushunchani rivojlantirishga yordam beradi va ularni mavjud ma’lumotlarning ishonchliligi va noto‘g‘riligiga shubha qilishga undaydi. Gamifikatsiya o‘yin elementlarini o‘yindan tashqari kontekstlarga kiritib, o‘rganishni yanada interaktiv va qiziqarli qiladi. Tarixga oid viktorinalar, boshqotirmalar va o‘quv stol o‘yinlari sinf muhitini o‘zgartirishi mumkin. Bunday tadbirlar nafaqat tarixiy bilimlarni mustahkamlaydi, balki sog‘lom raqobat va jamoaviy ishlashga yordam beradi. Gamifikatsiya yutuq va motivatsiya tuyg‘usini

uyg‘otadi, o‘quvchilarni tarix fanlarida faol ishtirok etishga va ustunlikka undaydi [5, 6].

Muammoning muhimligi bevosita umumta’lim maktablaridagi o‘quvchilarning va oliy ta’lim tizimidagi talabalarning demokratik jamiyatda kechayotgan jarayonlarning mazmuniga to‘liq tushunishlari, yangilanayotgan davrda vatanimizga sodiq farzandlar bo‘lib yetishishlariga a’lohida e’tibor qaratilishidadir. Xususan, O‘zbekiston tarixi fanini mazmunini muntazam takomillashtirish zarurati, ushbu fanga oid mavzular jamiyatdagi doimo rivojlanib boradigan ma’naviy, iqtisodiy, ijtimoiy, fikrlar majmuasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuning uchun ham darsliklardagi mavzularga kiritilgan materiallarni o‘quvchilarga tushuntirish, o‘qituvchilardan muntazam ravishta o‘qitishning uslubiy tajribasini mukammallashtirib borishni, tarix faniga davlat ta’lim standartlari asosida o‘quv dasturlariga, darsliklarga kiritilgan materiallarga qo‘shimchalar, yangi topilgan arxiv materiallari, mustaqil ilmiy izlanishlar natijalari asosida ma’lum darajada o‘zgartirishlar kiritish hamda, o‘zlashtirishda yangi pedagogik texnologiyalardan innovatsion ijodiy metodlardan foydalanib, o‘qitish jarayonini ham takomillashtirish zarurligini talab etadi. Yana shuni muammo o‘rnida shuni aytish kerakki, bugungi kunda ta’limda xususan umumta’lim maktablarida va oliy ta’lim tizimida tarix fanini o‘qitishda nazariy ma’lumotlar bilan cheklanib, bir yoqlamalikka qat’iy yondashib qolishdir. O‘quvchi maktabda va oliy ta’limda olayotgan bilimlarini hayotiy ekanligini hamda ularni amalda qo‘llash, muammo yechimida qo‘l kelishiga ishonib yondashish lozimligini ko‘rsatadi. Bu muammoni bartaraf etish uchun tarix darslarini o‘qitishda samarali interaktiv metodlardan foydalanish o‘z navbatida dars jarayoniga o‘quvchining dars vaqtida va darsdan tashqari ijodiy izlanuvchanlik qobilyatini shakllantiradi, manbalar asosida ijodiy ish olib borishiga imkon beradi.

O‘quvchilarga dars jarayoni bilan bog‘liq video lavhalar, filmlardan parchalar namoyish etilishi aynan ko‘rilgan lavhani uyda to‘liq ko‘rish shuningdek internet tarmog‘idan to‘g‘ri foydalanishni ham shakllantiradi. Bugungi kunda sir emaski, o‘quvchi va talabalarning aksar qismi mobil aloqa vositalari va ijtimoiy tarmoqlardan doimiy foydalanadi bu holat ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishini ham samarali yechim topishiga asos bo‘ladi. Tarix fanini o‘qitishda darslarni haqiqiy ijod muhitiga aylantirishda interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchi-

talabalarning kreativ fikrlashini shakllantiradi va darsning samaradorligini oshiradi. G‘arb pedagogikasida doimiy ravishda tarix darslarini o‘qitishda didaktik o‘yinlarni dars davomida qo‘llash juda yaxshi natija berishi asoslangan. Ta’lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida (PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, ICILS) nazarda tutilgan natijalarni oladigan bo‘lsak, ta’limdagi samaradorlikda eng yuqori o‘rinda turgan Rossiya, Singapur, Gonkong, Irlandiya, Finlandiya, Polsha, Shimoliy Irlandiya davlatlari ta’limning samarali o‘qitish tizimida yetakchilik qiladi. Biz darsning mazmunli bo‘lishiga erishmog‘imiz uchun albatta interaktiv metodlardan foydalanishimiz muhimdir. Birinchi navbatda shovqinli sinf bilan ishlash ustida, jalb qilish jarayonini tezlashtirishda, biror bir topshiriqni berganda darxol bajarishda va keyingi topshiriqqa o‘tish jarayonini tartiblashtiradi, o‘quvchi-talabalarni rag‘batlantirishda va bir qancha maqsadlarda qo‘llash samarali natija beradi. Eng asosiysi oddiygina qo‘l harakatlaridan foydalanib ijod muhitini shakllantirish mumkingini anglatadi. Shu bilan bir qatorda didaktik o‘yinlarni dars davomida qo‘llash darsdagi o‘qituvchi erishmoqchi bo‘lgan bir qancha maqsadlarni o‘z ichiga oladi. Bular: tizimlilik, tarixiylik, tipologiya, dialektika, madaniy muvofiqlik, faoliyat, amaliyot va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlik, ta’limning umumiyligi, barchani qamrab olishi, umumiy ta’lim muassasasidagi maxsus tayyorgarlik, o‘yin faoliyati kabi erishilgan maqsadlar o‘quvchi shaxsini rivojlantirishda psixologiya va boshqalar. O‘quvchilar tomonidan esa o‘yin texnologiyalari haqida tasavvur, jarayonga bo‘lgan qiziqish kuchli xotirani, jamoa bo‘lib shakllanishni, tafakkur qilishni, shovqinli harakatlardan voz kechishni, faoliyatni, qiziquvchanlikni, taqqoslashni, diqqatni jalb qilishni, tortinchoq o‘quvchi va talabalarni ham ijod muhitiga qo‘shilish jarayonini, tajriba orttirishni, mustaqil fikrlashni, o‘yin orqali o‘ziga xos bo‘lgan jamoaviy tafakkurni hosil qiladi, qoidalarga va muayyan shartlarga amal qilishni, vaqt meyorlarini inobatga olib, tezkor xulosalashni, tezkor bilim orqali o‘zlarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishni o‘rganadilar, bolalarning bir-birlariga o‘zaro ta’siri shakllanadi [6,122].

Umuman olganda, innovatsion metodlar o‘qituvchidan muntazam o‘z ustida ishlashni, darslarni samarali rejalashtirishni, turli raqamli va manbaviy resurslardan foydalanish ko‘nikmasini talab etadi. Bu jarayonda zamonaviy o‘quv dasturlari, elektron platformalar, tarixiy xaritalar, multimedia darsliklari, interaktiv testlar, virtual sayohatlar imkoniyatlaridan keng foydalanish ta’lim sifatininig

oshishiga bevosita ta’sir qilmoqda. Shuningdek, o‘quvchilarda tarixiy tafakkur, madaniy merosga hurmat, milliy o‘zlik, global dunyoqarashni shakllantirishda innovatsion metodlarning o‘rni beqiyosdir. Tadqiqotlar ham shuni ko‘rsatadiki, innovatsion metodlar qo‘llangan darslarda o‘quvchilar faolligi 30–40 foizga, mavzuni eslab qolish darajasi esa 25–35 foizga oshadi [7,45]. Bunday yondashuvlar o‘quvchini jarayon ishtirokchisiga aylantirib, tarixiy voqealarga shaxsiy munosabat bildirish, muqobillarni taqqoslash, sabab-oqibatni tahlil qilish kabi yuqori darajadagi fikrlash amaliyotini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, umumta’lim maktablarida tarix fanini innovatsion usullarda o‘qitish — nafaqat dars samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarni XXI asr ko‘nikmalariga ega intellektual shaxs sifatida kamol toptirishga xizmat qiladi. Tarix fanini an’anaviy yondashuvlardan zamonaviy, interfaol va integratsiyalashgan yondashuvlarga o‘tkazish bugungi ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Kelgusida ushbu sohada raqamli ta’lim platformalarini yanada rivojlantirish, o‘qituvchilarning innovatsion kompetensiyalarini oshirish hamda maktablar o‘rtasida ilg‘or tajribalarni almashish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. R. H. Murtazayeva. O‘zbekistonning eng yangi tarixi, Darslik, T.: 2022
2. Piaget J. The Child’s Construction of Reality. – New York: Basic Books, 1954.
3. Carr E. H. What is History? – London: Penguin Books, 1961
4. H. Ne’matillayeva. “Umumta’lim maktablarida tarix fanini o‘qitishda noan’anaviy usullaridan foydalanishning axamiyati hamda yutuqlari”. Yangi O‘zbekiston. Yangi tadqiqotlar jurnali, Volume I, Issue 4, 2024.
5. R. Hakimova. “Umumta’lim maktablarida tarix fanini o‘qitishda zamonaviy innovatsion yondashuvlardan foydalanish”, Zamonaviyilm-fanvata’limistiqbollariilmiy-amaliykonferensiyasimateriallari, 2024.
6. O‘. Q. Tolipov, M. Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari (o‘quv qo‘llanma). – T.: “Fan” nashriyoti, 2006.
7. J. Jalolov. *Pedagogiktexnologiyalarnazariyasivaamaliyoti*. – Toshkent: Fanvatexnologiya, 2020.

TURKIY ADABIYOTDA SHAXS KAMOLOTI: HOFIZ XORAZMIY DIDAKTIK QARASHLARI MISOLIDA PEDAGOGIK MODEL

Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi
shukurjonyeldashbayevna@gmail. com
ORCID: 0009-0006-3301-0776

Annotatsiya. Mazkur maqolada Hofiz Xorazmiy ijodining tarbiyaviy-ma’naviy mohiyati, xususan shoirning ishq falsafasi va didaktik qarashlarining shaxs kamolotini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot turkiy mumtoz adabiy merosning zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishining nazariy asoslarini yoritadi hamda shaxsning ma’naviy, ruhiy va intellektual rivojlanishini ta’minlovchi pedagogik modelning konseptual tamoyillarini ochib beradi. Hofiz Xorazmiy qit’alari asosida shaxsning ichki o‘zgarish mexanizmlari, refleksiv fikrlash, axloqiy-etik tanlovlar, ruhiy barqarorlik va iztiroblardan konstruktiv foydalanish jarayonlari ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari Hofiz Xorazmiy didaktik merosining zamonaviy pedagogik amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini belgilab, shaxs kamolotini shakllantirishda samarali ta’sir ko‘rsatadigan taklif va tavsiyalarni ilgari suradi. Maqola natijalari ta’lim jarayonini ma’naviy boyitish, shaxs tarbiyasini takomillashtirish va turkiy mumtoz merosni amaliy pedagogik resurs sifatida qo‘llashga qaratilgan ilmiy-uslubiy asoslarni mustahkamlaydi.

Tayanch so‘zlar: Hofiz Xorazmiy, turkiy adabiyot, shaxs kamoloti, didaktik model, axloq, pedagogika, tarbiya.

ЛИЧНОСТНОЕ РАЗВИТИЕ В ТУРЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ НА ПРИМЕРЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ ХАФИЗА ХОРЕЗМИ

Аннотация. В данной статье анализируется воспитательно-духовная сущность творчества Хафиза Хорезми, в частности, роль философии любви поэта и дидактических взглядов в формировании личности. Исследование освещает теоретические основы интеграции тюркского классического литературного наследия в современный образовательный процесс и раскрывает концептуальные принципы педагогической модели,

обеспечивающей духовное, духовно-нравственное и интеллектуальное развитие личности. На основе континентов Хафиза Хорезми с научной точки зрения анализируются механизмы внутренних изменений личности, рефлексивного мышления, морально-этического выбора, процессов психической устойчивости и конструктивного использования страданий. Результаты исследования определяют возможности применения дидактического наследия Хафиза Хорезми в современной педагогической практике и выдвигают предложения и рекомендации, которые окажут эффективное воздействие на формирование личности. Результаты статьи укрепляют научно-методические основы, направленные на духовное обогащение образовательного процесса, совершенствование личностного воспитания и использование тюркского классического наследия в качестве практического педагогического ресурса.

Ключевые слова: Хафиз Хорезми, тюркская литература, личностное развитие, дидактическая модель, этика, педагогика, образование.

PERSONAL DEVELOPMENT IN TURKISH LITERATURE: A PEDAGOGICAL MODEL ON THE EXAMPLE OF HAFIZ KHOREZMI'S DIDACTIC VIEWS

Annotation. This article analyzes the educational and spiritual essence of Hafiz Khorezmi's work, in particular the role of the poet's philosophy of love and didactic views in the formation of personal development. The study highlights the theoretical foundations of the integration of the Turkic classical literary heritage into the modern educational process and reveals the conceptual principles of the pedagogical model that ensures the spiritual, spiritual and intellectual development of the individual. Based on the continents of Hafiz Khorezmi, the mechanisms of internal change of the individual, reflexive thinking, moral and ethical choices, processes of mental stability and constructive use of suffering are analyzed from a scientific point of view. The results of the study determine the possibilities of applying the didactic heritage of Hafiz Khorezmi in modern pedagogical practice and put forward proposals and recommendations that will have an effective impact on the formation of personal development. The results of the article strengthen the scientific and methodological foundations aimed at spiritual enrichment of the

educational process, improving personal education, and using the Turkic classical heritage as a practical pedagogical resource.

Keywords: Hafiz Khorezm, Turkic literature, personal development, didactic model, ethics, pedagogy, education.

Sharq mumtoz adabiyoti asrlar davomida insoniyat tafakkuri, axloqiy qadriyatlari hamda badiiy-estetik didining shakllanishi va takomillashuviga ulkan hissa qo‘shgan yirik ma’naviy hodisadir. Xususan, turkiy xalqlar yaratgan adabiy meros o‘ziga xos badiiy-falsafiy tizimga ega bo‘lib, unda til, tafakkur va tarbiya bir-biridan ajralmas holda mushtarak yaxlitlikni tashkil etadi. Mazkur uyg‘unlikni yorqin namoyon etgan ijodkorlardan biri — uzoq vaqt davomida shaxsi va merosi ilmiy jamoatchilikka noma’lum bo‘lib kelgan, biroq XX asrning ikkinchi yarmida professor Hamid Sulaymonning izchil tadqiqotlari natijasida ilm-fanga olimiga kiritilgan XIV—XV asrlar she’riyoti namoyandasi Hofiz Xorazmiydir [1,39].

Hofiz Xorazmiy lirikasi o‘zining didaktik yo‘nalganligi, axloqiy qarashlarning qat’iy tizimga solingani va ijtimoiy ong bilan uyg‘unligi bilan mumtoz turkiy adabiyotda o‘ziga xos maktab yaratgan ijod sifatida baholanadi. Bu jihatlar shoirning badiiy tafakkuri, estetik qarashlari va didaktik konsepsiyasini o‘rgangan tadqiqotchilar tomonidan ilmiy asosda yoritilgan. Xususan, M. Sulaymonov o‘zining “Hofiz Xorazmiyning didaktik qarashlari” [2,21], “Hofiz Xorazmiy lirikasida didaktik qarashlar” [3,145] nomli maqolalari hamda Sh. Kurbanova “Hofiz Xorazmiyning didaktik qarashlari va uning pedagogik ahamiyati” [4] nomli uslubiy qo‘llanmalarida ijodkorning ma’naviy-axloqiy konsepsiyasi, tarbiyaviy g‘oyalari va ular mujassamlashgan poetik vositalarni tahlil qilib beradi.

E’tiborlisi shundaki, Hofiz Xorazmiy merosiga qiziqish so‘nggi o‘n yilliklarda nafaqat mahalliy ilmiy muhitda, balki xalqaro miqyosda ham ortib bormoqda. Ayniqsa, turkiy tilli xalqlarning adabiyotshunoslik maktablarida shoir ijodi alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Turkiya tadqiqotchilari R. Toparli, A. Ustuner [6], A. Karahan [7] va boshqa olimlarning izlanishlari Hofiz Xorazmiy poetikasini yangi nazariy nuqtayi nazardan o‘rganish, uning turkiy adabiyotdagi o‘rnini qayta baholash imkonini bermoqda.

Hofiz Xorazmiyning ishq-muhabbat mavzusi atrofida shakllangan poetik qarashlari shaxs kamolotiga xizmat qiluvchi murakkab ma’naviy-axloqiy tizimni

o‘zida mujassam etadi. Shoirning ishq falsafasida estetik zavq, ruhiy iztirob, tafakkur, axloqiy yetuklik va komillikka intilish bir-birini to‘ldiruvchi didaktik tamoyillar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jihatdan Hofiz Xorazmiy lirikasidagi ishq masalasi faqat hissiy tajriba emas, balki shaxsning ma’naviy rivojlanish bosqichlarini o‘zida mujassam etuvchi falsafiy-didaktik konsepsiya sifatida namoyon bo‘ladi. Shoirning quyidagi qit’asi mazkur konsepsiyaning asosiy semantik qatlamlarini yoritishda muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi:

Dard-i jondin dam urma, ey Hofiz,
Chun jahon ichra yo‘q turur hamdam.
Mahrame izdar ersang o‘zunga,
Dard-i jonso‘z erur sanga mahram.
So‘z-i jonning so‘zinikim yozdim
Kuydiyu yondi kog‘az ila qalam.
G‘am taqi ne’mate erur haqdin
Ne’matin yeyu ayla shukr-i niam.
Hamdame chunki yo‘q bu olamda,
Izdayu bo‘lmag‘il nadim-i nadam. [8]

Mazkur qit’a tahlili shuni ko‘rsatadiki, Hofiz Xorazmiy ishqni shaxsning ruhiy-mantiqiy o‘zgarishi, o‘zlikni idrok etish va ichki komillikka erishish jarayoni sifatida talqin qiladi. “*Dard-i jondin dam urma*” bayti shaxs kamolotini kechiktirish, ichki iztirobdan qochish, ruhiy jarayonlarni bostirish inson taraqqiyotiga zid ekanini bildiradi. Bu fikr zamonaviy rivojlanish psixologiyasidagi “kognitiv-emotsional integratsiya”, “ichki kechinmalarni boshqarish” kabi tamoyillar bilan uyg‘un bo‘lib, shaxsning kamolotida emotsional yetuklik muhim ustunlardan biri ekanini tasdiqlaydi. Bu jihatlarning shaxs kamolotida qanday adamit kasb etishini biz F. Abdug‘opirova [9], M. Badritdinova [10], L. Eshonqulov [11], E. Kurbanov [12] va boshqa tadqiqotlarning izlanishlarida ko‘rishimiz mumkin. Demak, shoir didaktikasida iztirob destruktiv emas, balki transformativ kuch — ya’ni shaxs o‘sishining ichki ruhiy kuchi sifatida talqin qilinadi.

Qit’adagi “*jahon ichra yo‘q turur hamdam*” va “*Dard-i jonso‘z erur sanga mahram*” misralari insonning o‘z-o‘zi bilan qolganda kechadigan ruhiy yakkalanish, o‘zlikni anglash va metafizik fikrlash jarayonining zarurligini ta’kidlaydi. Didaktik nuqtayi nazardan qaralganda, bu — shaxsning metakognitiv

kompetensiyalarini shakllantirish, mustaqil fikrlash va ichki refleksiyani rivojlantirishning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Hofiz Xorazmiyning poetik diskursida mavjud bu jarayon tasavvufiy tushunchalar bilan uyg‘un bo‘lib, komillikka erishishning muhim bosqichi sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, bu g‘oya zamonaviy shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda qo‘llanilayotgan “ichki dialog”, “reflektiv amaliyot” kabi pedagogik-psixologik tushunchalarga hamohangdir.

“*So‘z-i jonning so‘zinikim yozdim*

Kuydiyu yondi kog‘az ila qalam” bayti Hofiz Xorazmiy poetikasida ichki kechinmaning tashqi ifodaga aylanish jarayonini aks ettiradi. Bu jarayon psixologik-pedagogik jihatdan shaxsning o‘z fikr va tuyg‘ularini ifodalash qobiliyatini ekspressiv kompetensiyani shakllantirish uchun zarur bo‘lgan mexanizm sifatida qayd etilishi mumkin. O‘zini ifoda eta olgan shaxs o‘zligini anglashda faolroq bo‘ladi, bu esa shaxsiy kamolotning asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir.

Shoirning “*G‘am taqi ne’mate erur haqdin*” degan fikri g‘am va iztirobning ijobiy, tarbiyaviy mohiyatini ochadi. Bu g‘oya didaktik jihatdan “qiyinchilik orqali rivojlanish” (growth through adversity) modeliga raqamli mos tushadi. Qiyinchiliklarni boshdan kechirish, ularga nisbatan qabul va sabr holatini namoyon qilish insonning ruhiy chidamliligi, voliy sifatlarining shakllanishi va irodaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Hofiz Xorazmiy uchun g‘am — ruhiy zaiflik belgisi emas, balki komil inson sifatini shakllantiruvchi ilohiy sinovdir.

“*Hamdame chunki yo‘q bu olamda*

Izdayu bo‘lmag‘il nadim-i nadam” — deya xitob qiluvchi qit’aning yakuniy misralari shaxs kamolotining eng yuqori bosqichi sifatida mustaqillikni, ichki erkinlikni va ayni paytda o‘zligiga halol sodiq bo‘lishni ta’kidlaydi. Bu g‘oya shaxs taraqqiyotida axloqiy tarbiya hamda avtonomiya (moral autonomy) tamoyili bilan mos keladi. Zamonaviy ta’lim nazariyasiga ko‘ra, axloqiy tarbiya hamda avtonomiya shaxsning mustaqil qaror qabul qilish, o‘z harakatlari uchun ma’suliyatni his etish, ichki e’tiqod va qadriyatlarga asoslanib yashash qobiliyatidir. Hofiz Xorazmiy esa bu tamoyilni poetik timsollar orqali ifodalab, shaxs kamolotini ilohiy mantiq va ma’naviy mustahkamlik bilan bog‘laydi.

Yuqoridagi tahlil natijalariga ko‘ra, Hofiz Xorazmiyning ishq falsafasi 1-rasmda keltirilgan didaktik model uchun uch asosiy komponentni shakllantiradi.



1-rasm. Hofiz Xorazmiyning ishq falsafasi keltirilgan didaktik modeli.

Ruhiy-transformatsion komponent: iztirobni komillik sari yetaklovchi ichki mexanizm sifatida talqin qilish.

Refleksiv-intellektual komponent: o‘zlik bilan suhbat, mustaqil fikrlash, metakognitiv fikr doirasini kengaytirish.

Aksil-stressiv va axloqiy barqarorlik komponenti: g‘am, sinov va qiyinchilikni ijobiy rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qilish.

Natijalardan ko‘rinadiki, Hofiz Xorazmiy didaktik qarashlaridan foydalanish shaxs kamolotini shakllantirishga qaratilgan mazkur model har jihatdan ahamiyatli bo‘lib, u shaxs rivojlanishini ruhiy-intellektual uyg‘unlikda ko‘radi, shaxs kamolotini ichki o‘zgarishlar, ma’naviy izlanishlar, qiyinchiliklarni yengish va o‘zligini anglash jarayoni sifatida talqin qiladi. Bu esa turkiy mumtoz adabiyotning zamonaviy ta’lim jarayonida qo‘llanilish imkoniyatlari nihoyatda keng ekanini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, Hofiz Xorazmiy ijodidagi ishq-muhabbat falsafasi shaxs kamolotini shakllantirishda nafaqat estetik, balki pedagogik va didaktik ahamiyatga ega bo‘lgan murakkab tizimni tashkil etadi. Zero, Hofiz Xorazmiy ishq falsafasi va didaktik qarashlaridan foydalanish shaxsning ichki dunyosini boyitish, axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, mustaqil va mas’uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek ruhiy-barqaror va intellektual yetuk shaxsni tarbiyalash imkonini beradi.

Hofiz Xorazmiy ijodida shaxs tarbiyasi va axloqiy mukammallikka erishish mezonlarini pedagogik faoliyatda samarali foydalanish uchun quyidagi ilmiy asoslangan takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

- Turkiy mumtoz adabiyot va Hofiz Xorazmiy lirikasini o‘rganish jarayonida shaxs tarbiyasiga oid metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilishi va pedagoglar uchun treninglar tashkil etilish;

- Tadqiqot natijalari asosida Hofiz Xorazmiy ishq falsafasi va didaktik qarashlarini pedagogik model sifatida maktab va universitet darajasidagi dasturlarga integratsiya qilish tavsiya etiladi.

Yakuniy fikr sifatida aytish mumkinki, Hofiz Xorazmiy ijodi va turkiy mumtoz adabiy meros zamonaviy ta’lim jarayonida shaxs tarbiyasini boyitish, ma’naviy va intellektual salohiyatni rivojlantirish, axloqiy yetuklikni shakllantirishda amaliy va nazariy asos sifatida keng qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sulaymon H. O‘zbek s’hoiri Hofiz Xorazmiy va uning Haydaroboddan topilgan devoni. // Adabiy meros. - T., 1976. 6-son., – 34-43 b.

2. Sulaymonov M. Hofiz Xorazmiyning didaktik qarashlari // Xalq ta’limi, jur. – T.. : 1992. № 10-12. - 20-22 b.

3. Sulaymonov M. Hofiz Xorazmiy lirikasida didaktik qarashlar. // Til va adabiyot masalalari 3-kitob. Filologiya fanlari doktori, professor Begmatov Ernst Azimovich tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlangan respublika oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilarining ilmiy maqolalari to‘plami. – Namangan. : 2016. 144-148 b.

4. Kurbanova Sh. Ye. Hofiz Xorazmiyning didaktik qarashlari va uning pedagogik ahamiyati. Uslubiy qo‘llanma. - Urganch: Quvanchbek-Mashxura, 2025. - 36 b.

5. Toparlı, Recep. Hâfız-ı Harezmî’nin Sultan İbrahim’in Ölümü Üzerine Yazdığı Mersiye // Marmara. Türklük Araştırmaları Dergisi, 8, 1997, 511-524 s.

6. Üstüner, Ahat. “Hârezmli Hâfız Divanında Türk Adı // Turkish Studies 9(6), 2014. Ankara. – 1107-1116 s.

7. Karahan Akarturk. Hafiz-i Harizmi // Tarihte Müslümanlar №5, 2020, Ankara. – 244-248 s.

8. Hofiz Xorazmiy. Devon. 2 tom. 2-kitob. – T.: O‘zKPMK, 1981. – 312 b.

9. Abdug‘opirova F. A. Kognitiv faoliyatni rivojlantirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashning didaktik tizimi: Ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori(PhD) … diss. – Namangan, 2022. – 153 b.

10. Badritdinova M. B. O‘smirlarda kognitiv uslub rivojlanishining psixologik xususiyatlari: Psixologiya fan. bo‘yicha falsafa doktori(PhD) … diss. – Toshkent, 2022. – 147 b.

11. Eshonqulov L. N. Yoshlar estetik tafakkurini shakllantirishda hajviylikning kognitiv ahamiyati: Falsafa fan. bo‘yicha falsafa doktori(PhD) … diss. – Samarqand, 2022. – 153 b.

12. Kurbanov E. E. Nutqiy ta’sir etishning kognitiv-pragmatik xususiyatlari Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori(PhD) … diss. – Andijon, 2022. – 142 b.

ZAMONAVIY O‘ZBEK HIKOYACHILIGINI UZLUKSIZ TA’LIMDA O‘QITISHNING METODIK ASOSLARI

Hayrullayeva Muhabbat Pirmamat qizi
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 2-bosqich magistranti.
hayrullayevamuhabbat35@gmail. com
+99893 557 89 91

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdusaid Ko‘chimov hikoyalarining badiiy tabiati, ularda namoyon bo‘ladigan psixologik tasvir, realizm va modernistik unsurlar sintezi, kompozitsion ixchamlik hamda badiiy detalning funksional yuklanishi ilmiy-nazariy asosda tahlil qilingan. Adib hikoyalarida zamonaviy insonning ruhiy kechinmalari, ijtimoiy-axloqiy munosabatlar, hayotning falsafiy talqini kabi masalalarning yoritilishi amaliy misollar yordamida ochib beriladi. Tadqiqot jarayonida tarkibiy-tahliliy, poetik va kontekstual tahlil metodlari qo‘llanib, Ko‘chimov ijodining hozirgi o‘zbek hikoyachiligidagi o‘rni aniqlangan. Maqola natijalari yozuvchining hikoya janri taraqqiyotiga qo‘shgan badiiy-estetik hissasini ko‘rsatib, uning nasr maktabidagi o‘rni va ahamiyatini belgilashga xizmat qiladi. Maqolada, shuningdek, adib hikoyalarini o‘rganish jarayoniga zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion ta’lim texnologiyalari va kompetensiyaviy metodlarning tatbiq etilishi bo‘yicha ilmiy xulosalar ham berilgan. Ushbu yondashuvlar badiiy matnni chuqur anglash, tahlil qilish va talabalarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: Abdusaid Ko‘chimov, zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi, psixologik tasvir, realizm, modernistik unsurlar, kompozitsion ixchamlik, badiiy detal, adabiy tahlil, innovatsion texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, adabiy ta’lim, badiiy matn metodikasi, poetika, hikoya janri, uzluksiz ta’lim.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ РАССКАЗЧЕСКОЙ ПРОЗЫ В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье научно-теоретически анализируются художественная природа рассказов Абдусаида Кўчимова, особенности психологического изображения, синтез реалистических и модернистских элементов, композиционная лаконичность и функциональная нагрузка

художественной детали. На основе конкретных примеров рассматривается отражение в его произведениях духовных переживаний современного человека, социально-нравственных отношений и философского осмысления жизни. В исследовании применены структурно-аналитический, поэтический и контекстуальный методы, что позволило определить место творчества Кўчимова в современном узбекском рассказоведении.

Результаты статьи раскрывают художественно-эстетический вклад писателя в развитие жанра рассказа и определяют его значимость в национальной прозе. Кроме того, в работе представлены научные выводы о внедрении современных педагогических подходов, инновационных образовательных технологий и компетентностных методов в процесс изучения рассказов автора. Указанные подходы способствуют глубокому пониманию художе.

Ключевые слова: Абдусаид Кўчимов, современная узбекская рассказческая проза, поэтика рассказа, психологическое изображение, реалистическое повествование, модернистские элементы, композиционная лаконичность, функциональная роль художественной детали, методы литературного анализа, инновационные педагогические технологии, компетентностный подход, методика преподавания художественного текста, литературное образование, жанр рассказа, система непрерывного образования.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR TEACHING MODERN UZBEK SHORT STORY PROSE IN THE SYSTEM OF CONTINUOUS EDUCATION

Abstract. This article presents a scholarly and theoretical analysis of the artistic nature of Abdusaid Ko‘chimov’s short stories, focusing on the features of psychological depiction, the synthesis of realistic and modernist elements, compositional conciseness, and the functional role of artistic detail. Using specific textual examples, the study examines how the author reflects the spiritual experiences of contemporary individuals, socio-moral relations, and the philosophical interpretation of life.

The research employs structural-analytical, poetic, and contextual methods, which make it possible to determine Ko‘chimov’s place within modern Uzbek

short story studies. The results of the article reveal the artistic and aesthetic contribution of the writer to the development of the short story genre and emphasize his significance in national prose. Furthermore, the paper provides scientific conclusions regarding the integration of contemporary pedagogical approaches, innovative educational technologies, and competence-based teaching methods into the process of studying the author’s works. These approaches.

Keywords: Abdusaid Ko‘chimov, contemporary Uzbek short-story writing, narrative poetics, psychological depiction, realistic representation, modernist elements, compositional conciseness, functional role of artistic detail, methods of literary analysis, innovative pedagogical technologies, competency-based approach, methodology of teaching literary texts, literary education, short story genre, lifelong (continuous) education system.

XXI asr ta’lim tizimining eng muhim talabi — shaxsning uzluksiz rivojlanishiga zamin yaratishdir. Uzluksiz ta’lim konsepsiyasi ta’lim jarayonini bosqichma-bosqich, tizimli, uzviy va kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishni taqozo etadi. Adabiy ta’limda, xususan, hikoya janrini o‘qitishda mazkur tamoyillar alohida o‘rin tutadi. Chunki hikoya o‘quvchida badiiy tafakkur, mantiqiy fikrlash, voqelikni obrazlar orqali idrok qilish va emotsional-estetik qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bugungi zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi — mazmuniy yangilanish, badiiy izlanishlar, yangi estetik yo‘nalishlar bilan boyigan adabiy jarayondir. Abdusaid Ko‘chimov, Xurshid Do‘stmuhammad, Nazar Eshonqul kabi ijodkorlarning hikoyalari yoshlarda ma’naviy-estetik dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Shu bois hikoya janrining uzluksiz ta’lim bosqichlarida o‘qitilishini nazariy va metodik jihatdan takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi mazmun va badiiy izlanishlar jihatidan boy va rang-barang bo‘lib, jamiyat, ma’naviyat, inson tabiati, bolalik, maishiy hayot va psixologik holatlarni keng yoritadi. Adabiy jarayonning rivojida hikoya janri ixchamlik, dinamik syujet, badiiy aniqlik va teran g‘oyaviylik kabi sifatlari bilan ajralib turadi.

Har bir davr adabiyotida o‘sha zamon jamiyatining ong darajasi aks etadi. Shu bilan birga badiiy adabiyot o‘zi aks ettirgan g’oyalar bilan kishilar qalbiga, ruhiga kuchli ta’sir o‘tkazib, ularda yangi-yangi qarashlar, fikrlar tug’ilishiga, ularning ma’naviy jihatdan boyishiga, ongning o‘sishiga xizmat qiladi. Shu xususiyatlarga ko‘ra adabiyot ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanadi. [1,47].

Zamonaviy hikoyachilar, xususan Abdusaid Ko‘chimov, o‘z asarlarida inson ruhiy olamiga kirish, xotira, bolalik tasvirlari, oilaviy muhit, ijtimoiy munosabatlar kabi mavzularni badiiy yuksaklikda talqin qiladi. Ko‘chimov hikoyalaridagi sodda, lekin ta’sirchan uslub, obrazlarning hayotiyligi va tarbiyaviy mazmuni ularni uzluksiz ta’lim bosqichlarida o‘qitishga mos keladi. Hikoyachilikni uzluksiz ta’limda o‘qitish uchun quyidagi nazariy yondashuvlar muhim:

Kompetensiyaga asoslangan o‘qitish, shaxsga yo‘naltirilgan pedagogika, badiiy idrok jarayonini bosqichma-bosqich shakllantirish, konstruktivizm (o‘quvchining faol ishtiroki), matn bilan ishlashning zamonaviy strategiyalari. Badiiy adabiyot shaxslararo, avlodlararo, millatlararo muloqotning amalga oshishiga xizmat qiladi. Badiiy asarni yaratish davomida ijodkor tasavvuridagi o‘quvchi bilan muloqotga kirishsa, uni o‘qish jarayonida o‘quvchi ijodkor bilan muloqotga kirishadi. Muloqot jarayonida keng kitobxonlar ommasiga badiiy informatsiya yetkaziladi, bu esa o‘quvchining bilim va tasavvurlar dirasini kengaytiradi, uning informatsiyaga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi. [2,55]

Uzluksiz ta’lim tizimida hikoyalarni o‘qitishning metodik asoslari. Uzluksiz ta’lim uch bosqichni qamrab oladi: boshlang‘ich ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim va oliy ta’lim. Har bir bosqichda hikoya janrini o‘rgatish mazmuni o‘quvchilarning yosh xususiyati va fikrlash darajasiga mos ravishda bosqichma-bosqich chuqurlashib boradi.

Boshlang‘ich ta’limda hikoya o‘qitish. Mantiqiy tafakkur, matnni anglash, personajlarni farqlash, voqealar ketma-ketligini idrok qilish kabi asosiy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bu bosqichda insert, klaster, 6 savol va “Nima uchun?” texnologiyalari samarali.

O‘rta ta’limda hikoya tahlilini chuqurlashtirish. 5–11-sinflarda hikoya badiiy qatlamlari — kompozitsiya, obrazlar, g‘oya, psixologizm, tasvir uslubini anglashga e’tibor kuchayadi. Abdusaid Ko‘chimov hikoyalaridagi bolalik dunyosi, tasviriy aniqlik, hayotiylik va teran ma’naviy g‘oyalar o‘quvchilarni mustaqil o‘qishga rag‘batlantiradi. 5-sinf adabiyot darsligida berilgan “Boychechak” hikoyasini o‘qitishda qo‘llaniladigan metodlar, avvalo, o‘quvchilarda badiiy matnni anglash, voqeani tahlil qilish, personajlar xarakterini ochish va hikoyadagi ma’naviy-axloqiy g‘oyalarni idrok etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Quyidagi metodlar hikoyani samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi:

Muammoli ta’lim metodi. Hikoya mazmunidan kelib chiqqan holda muammoli savollar beriladi: — “Hikoya qahramonining qarori to‘g‘ri bo‘lganmi?” — “Boychechak obrazi nimani anglatadi?”. Bu savollar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, matn ustida mushohada yuritish, mantiqiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Klaster (grafik organayzer) metodi. Hikoya asosiy g‘oyalari, obrazlari va badiiy detallarini klasterga joylashtirish orqali o‘quvchilar matnning tarkibiy qismlarini yaxlit idrok etadi. Bu metod tahlil jarayonini vizuallashtiradi.

Bahs-munozara metodi. Hikoyaning g‘oyasi, qahramonlarning harakatlari, boychechak ramzi haqida kichik guruhlarda bahslar tashkil etiladi. Bu metod o‘quvchilarning muloqot madaniyati va analitik fikrlashini rivojlantiradi.

Rolli o‘yin (dramatizatsiya). Hikoya sahnalashtiriladi. Personajlarning hissiyotini his qilish, ularning holatiga kirish o‘quvchilarda emotsional-intellektual qobiliyatni oshiradi. Adabiy qahramonlarni jonlantirish estetik didni rivojlantiradi.

Savol-javob va PISA tipidagi topshiriqlar. Mazmunni aniqlash, kontekstli savollar, matndan dalil topish, qiyosiy tahlil kabi topshiriqlar o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshiradi.

Masalan: — Hikoyadagi asosiy g‘oya nimada? — Qahramonning harakati nimaga olib kelganini matndan misol bilan isbotlang.

Kreativ yozuv metodi. O‘quvchilar “Agar men qahramon o‘rnida bo‘lsam…”, “Hikoyaning davomini yozing” kabi topshiriqlarni bajaradi. Bu metod ularning tasavvurini va ijodiy fikrlashini faollashtiradi.

Komparativ tahlil metodi. Hikoya mavzusini boshqa tabiat, fasl, bahor haqidagi asarlar bilan qiyoslab o‘rganish o‘quvchilarda keng qamrovli adabiy tafakkurni shakllantiradi.

Xalqaro tajriba asosida hikoya o‘qitish strategiyalari. Dunyo ta’lim tizimlarida, xususan Finlandiya, Estoniya, Koreya, Singapurda matn bilan ishlash kompetensiyasi ustuvor hisoblanadi. Xalqaro yondashuvlarda: matnni tushunish, tahlil qilish, fikr chiqarish, matnga nisbatan munosabat bildirish**,** ko‘nikmalari asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Badiiy matnlarni o‘qitish bo‘yicha xalqaro tajribalar. Finlandiya tajribasi – o‘quvchi markazidagi tahliliy yondashuv. Finlyandiyada adabiy ta’limning asosiy tamoyili – o‘quvchi tajribasiga tayangan tahlildir. Bu yondashuv quyidagilarni nazarda tutadi: o‘quvchi matndagi g‘oyani o‘z ta’limiy tajribasi bilan

bog‘laydi; “muallif – matn – o‘quvchi” modeli qo‘llaniladi; kichik guruhlarda muloqot asosidagi tahlil amalga oshiriladi; badiiy asarlarning estetik qimmati ustuvor hisoblanadi. Bu metod “Boychechak” hikoyasi tahlilida o‘quvchini o‘z kechinmasi orqali matnni his etishga undaydi.

AQSH tajribasi – “Reader Response Theory” (o‘quvchi javobi nazariyasi). Bu nazariya quyidagilarga asoslanadi: o‘quvchining shaxsiy talqini muhim; matnni o‘qish jarayoni ijodiy faoliyat sifatida qaraladi; bir xil asarga turli talqinni tan olish o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. “Boychechak” hikoyasida bahor, hayot, poklik ramzlari o‘quvchilar tomonidan turlicha sharhlansa, bu nazariyaga mos keladi.

Kanada tajribasi – ko‘p madaniyatli yondashuv. Kanada maktablarida adabiy ta’lim: Multimadaniy kompetensiya, qiyosiy o‘qish, matnlararo tahlilga tayanadi. Bu orqali o‘quvchilar bir xil mavzudagi boshqa millat adabiyotidagi asarlar bilan qiyoslash imkoniga ega bo‘ladi. “Boychechak” hikoyasi bahor mavzusidagi xalq ertaklari yoki boshqa mamlakat bolalar adabiyoti bilan solishtirilishi mumkin. Masalan, boychechak haqidagi ertak-multfilmlarni eslatish.

Yaponiya tajribasi – emotsional-intellektual tarbiya. Yapon ta’limida badiiy matnni o‘qitishning asosiy vazifasi, bolalarda emotsional sezgirlik, estetik did, jamiyatga moslashuv, tabiatga hurmatni shakllantirishdir. Hikoya o‘qilganidan so‘ng o‘quvchilar rasm chizadi, voqeani dramatizatsiya qiladi, tabiat manzaralarini tasvirlaydi. “Boychechak” hikoyasidagi tabiat obrazlari uchun ayni mos yondashuv.

Koreya tajribasi – integrativ STEAM yondashuvi. Janubiy Koreyada adabiy darslar: S – Science, T – Technology, E – Engineering, A – Art, M – Mathematics fanlari bilan bog‘lab o‘tiladi. Masalan: hikoyadagi bahor fasli haqida ilmiy izoh; boychechak o‘simligi biologiyasi; fasllar almashinuvi haqida kichik tajribalar; sahnani tasvirlash (ART) kabi mashg‘ulotlar adabiy o‘qishni ko‘p yoqlama rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o‘zbek hikoyachiligini uzluksiz ta’lim tizimida o‘qitish metodikasi hozirgi pedagogik jarayonning dolzarb yo‘nalishlaridan biri ekanini ko‘rsatadi. Zamonaviy hikoyachilikda psixologik tasvir, modernistik unsurlar, kompozitsion ixchamlik va badiiy detalning semantik yuklanishi kuchaygani sababli uni o‘rgatish jarayonida an’anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda innovatsion metodlar, kompetensiyaviy yondashuv va integrativ

ta’lim texnologiyalarini qo‘llash zarurati yuzaga keladi. Adabiy matnni chuqur anglash, tahliliy fikrlash va estetik qabul qilishni shakllantirishda interfaol metodlar, tanqidiy fikrlash texnologiyalari, muammoli ta’lim, klaster, konseptual xaritalar, STEAM elementlari, shuningdek, xalqaro tajriba asosidagi ko‘nikmalarni tatbiq etish samarali natija beradi. Bunday yondashuvlar nafaqat o‘quvchilarni matn mazmunini tushunishga, balki ularni mustaqil izlanish, baholash, asoslash va ijodiy yondashishga yo‘naltiradi.

Uzluksiz ta’limda zamonaviy hikoyalarni o‘qitish jarayoniga texnologik vositalarni, elektron resurslarni, multimodal yondashuvlarni jalb etish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, yosh avlodning adabiy-estetik dunyoqarashini rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari zamonaviy o‘zbek hikoyachiligini o‘rganish metodikasini takomillashtirish nafaqat adabiyot ta’limining sifatini oshirish, balki o‘quvchi shaxsida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligini uzluksiz ta’limda o‘qitishning metodik asoslari innovatsion texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv va xalqaro tajribalar integratsiyasi asosida shakllanishi lozim. Bu yondashuv adabiyot ta’limining yangi bosqichga ko‘tarilishiga, o‘quvchilarning badiiy tafakkuri va madaniy saviyasining yuksalishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. XX asr o‘zbek hikoyasi antologiyasi. –Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2011.
2. Quronov D. H. Adabiyot nazariyasi asoslari. –Toshkent: “Noshir”, 2019. 3-b.
3. Pedagogik mahorat. – Toshkent: M. M. Ahmedjanov, B. Q. Xo‘jayev, Z. D. Hasanova, 2010.
4. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
5. “Adabiyotshunoslik nazariyasi” fanidan ma’ruzalar matni. – Samarqand: 2012.
6. Adabiyotshunoslikka kirish. –Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. 31-b.

7. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: “Sharq” nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2008. 47 b.
8. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –Toshkent: “Navoiy universiteti”, 2018. 55 b.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR PEDAGOGIK IMIDJINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TA’LIM YONDASHUVLARI VA AUDITORIYADAN TASHQARI MASHG‘ULOTLAR INTEGRATSIYASI

Tohirova Mohira Samandar qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti
e-mail: mohira_tohirova@mail. ru

Annotatsiya: Maqolada ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar faollashib borayotgan sharoitda auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarning bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik imidjini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil etiladi. Pedagogik imidj tushunchasi keng talqin qilinib, uning kasbiy, kommunikativ, axloqiy va tashqi qiyofa kabi asosiy komponentlari yoritiladi. Shu bilan bir qatorda to‘garak va klub mashg‘ulotlari, volontyorlik va loyihaviy faoliyat, madaniy-ma’rifiy tadbirlar hamda raqamli ta’lim muhiti (onlayn kurslar, ta’limiy platformalar, ijtimoiy tarmoqlar) bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy qiyofasini shakllantirishga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, kuzatish va so‘rovnoma metodlaridan foydalaniladi. Olingan ma’lumotlar asosida auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar va raqamli ta’lim muhitini integratsiyalashgan tarzda tashkil etish bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik imidjini rivojlantirishning samarali yo‘li ekanligi asoslanadi. Shuningdek, pedagogik imidjni baholashga oid ayrim mezon va ko‘rsatkichlar taklif qilinadi. Mazkur yondashuv pedagogik ta’lim yo‘nalishidagi o‘quv rejalar mazmunini boyitish, maxsus mashg‘ulotlar tizimini shakllantirish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-imidj salohiyatini maqsadli rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: innovatsion yondashuv, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar, raqamli ta’lim muhiti, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik imidj.

Аннотация. В статье анализируется значение внеаудиторных занятий в формировании педагогического имиджа будущего учителя в условиях активизации инновационных подходов в системе образования. Понятие «педагогический имидж» раскрывается в расширенном трактовании, освещаются его основные компоненты: профессиональный, коммуникативный, нравственный и внешний облик. В этом контексте рассматривается влияние кружковой и клубной деятельности, волонтёрских и проектных форм работы, культурно-просветительских мероприятий, а также цифровой образовательной среды (онлайн-курсы, учебные платформы, социальные сети) на становление личного и профессионального облика будущего педагога. В рамках исследования использованы методы анализа педагогической литературы, сопоставления, наблюдения и анкетирования. На основе полученных данных обосновывается, что интеграция внеаудиторных занятий и цифровой образовательной среды является эффективным путём развития педагогического имиджа будущего учителя. Также предлагаются отдельные критерии и показатели для оценки педагогического имиджа. Данный подход может способствовать обогащению содержания учебных планов педагогического образования, формированию системы специальных занятий и целенаправленному развитию профессионально-имиджевого потенциала будущих учителей.

Ключевые слова: инновационный подход, внеаудиторные занятия, цифровая образовательная среда, будущий учитель, педагогический имидж.

Abstract. The article analyzes the role of extracurricular activities in shaping the pedagogical image of future teachers under the conditions of increasing use of innovative approaches in education. The concept of pedagogical image is interpreted in an extended way, and its main components – professional, communicative, ethical, and external – are highlighted. In this context, the impact of circle and club activities, volunteering and project work, cultural and educational events, as well as the digital educational environment (online courses, learning platforms, social networks) on the formation of the personal and professional profile of future teachers is examined. Within the framework of the study, methods of pedagogical literature analysis, comparison, observation, and questionnaire survey are used. Based on the obtained data, it is substantiated that organizing extracurricular activities and the digital educational environment in an

integrated way is an effective means for developing the pedagogical image of future teachers. In addition, certain criteria and indicators for assessing the pedagogical image are proposed. This approach can contribute to enriching the content of teacher education curricula, building a system of special activities, and purposefully developing the professional image potential of future teachers.

Keywords: innovative approach, extracurricular activities, digital educational environment, future teacher, pedagogical image.

Hozirgi davrda ta’lim tizimida kechayotgan raqamli transformatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi va o‘quv dasturlari mazmunining yangilanib borishi bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiga qo‘yiladigan talablarni sezilarli darajada murakkablashtirmoqda. Endilikda bo‘lajak pedagogdan o‘z fanini yaxshi bilishi va metodik jihatdan tayyor bo‘lishi bilangina cheklanmasdan, o‘quvchi-talabalar, ota-onalar va kasbiy hamjamiyat nigohida ijobiy qabul qilinadigan barqaror pedagogik imidjga ega bo‘lishi ham kutilmoqda [1,42]. Pedagogik imidj ilmiy manbalarda o‘qituvchining tashqi ko‘rinishi, nutq madaniyati, muloqot uslubi, kasbiy mahorati va axloqiy qarashlarini birlashtiruvchi yaxlit obraz sifatida talqin etiladi [3,74]. Ayrim tadqiqotchilar uni, avvalo, kasbiy va metodik kompetensiyalar, darsni tashkil etish madaniyati, refleksiya qobiliyati bilan bog‘lab izohlasa [5,166], boshqalar kommunikativ madaniyat, hamkasb va talabalarga munosabat, shaxsiy qadriyatlar va tashqi qiyofani alohida komponent sifatida ajratadi [6,97]. Raqamli muhitning ta’siri ortib borishi natijasida o‘qituvchining onlayn muloqot uslubi, ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi, raqamli ta’limiy kontent yaratish madaniyati bilan bog‘liq “raqamli imidj” tushunchasi ham pedagogik imidj tarkibiy qismi sifatida shakllanmoqda.

Shu bilan birga, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, auditoriyadagi mashg‘ulotlar bo‘lajak o‘qituvchining nazariy va metodik tayyorgarligini shakllantirishda asosiy platforma bo‘lib xizmat qilsa-da, uning shaxsiy va kasbiy imidjini har tomonlama rivojlantirish uchun yetarli darajada imkon yaratmaydi [8,132]. Talabaning tashabbuskorligi, liderlik salohiyati, jamoa bilan ishlash ko‘nikmalari, mas’uliyat va ochiq muloqotga tayyorligi ko‘pincha auditoriyadan tashqari faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladi. To‘garak va klub mashg‘ulotlari, volontyorlik, loyihaviy ishlar, madaniy-ma’rifiy tadbirlar, tanlov va musobaqalar ana shu sifatlarni rivojlantiruvchi muhim maydon sifatida qaraladi. Biroq ko‘p hollarda bu faoliyatlar umumiy tarbiyaviy ishlar tizimiga kiritilib, ularning bo‘lajak

o‘qituvchining pedagogik imidjiga maqsadli ta’siri alohida yondashuv sifatida loyihalanmaydi [9,115].

Innovatsion ta’lim yondashuvlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar ko‘proq AKTdan foydalanish, raqamli ta’lim muhitini yaratish, masofaviy va aralash ta’lim modellarini joriy etish masalalariga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu ishlar bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli kompetensiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq innovatsion texnologiyalarni auditoriyadan tashqari faoliyat bilan integratsiyalash, ularni pedagogik imidjni maqsadli shakllantirish vositasi sifatida ko‘rib chiquvchi kompleks izlanishlar yetarlicha emasligi kuzatiladi [10,696]. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik imidji nafaqat auditoriya darslari, balki uning auditoriyadan tashqari hayoti, ijtimoiy faolligi, omma oldidagi chiqishlari va raqamli maydondagi ishtiroki orqali ham shakllanadigan ko‘p komponentli tizimdir. Shu nuqtai nazardan, pedagogik imidj tarkibiy qismlari va ularga mos auditoriyadan tashqari faoliyat yo‘nalishlarini tizimlashtirish, keyingi bo‘limlar uchun metodik asos vazifasini bajaradi:

1-jadval. Bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik imidji komponentlari va auditoriyadan tashqari faoliyat yo‘nalishlari

Pedagogik imidj komponenti	**Asosiy ko‘rsatkichlar**	**Mos auditoriyadan tashqari faoliyatlar**
Kasbiy komponent	Fan bo‘yicha chuqur bilim, metodik saviya	Fan to‘garaklari, olimpiyadalar, ilmiy konferensiya va seminarlar
Kommunikativ komponent	Nutq madaniyati, muloqot uslubi, empatiya	Debat klublari, treninglar, jamoaviy loyiha ishlari
Axloqiy komponent	Kasbiy etikaga rioya, ijtimoiy mas’uliyat	Volontyorlik, mahalliy hamjamiyat bilan ijtimoiy loyihalar
Tashqi qiyofa komponenti	Saranjomlik, o‘zini tutish, sahnadagi obraz	Madaniy-ma’rifiy tadbirlar, sahna chiqishlari, taqdimotlar
Raqamli imidj komponenti	Onlayn muloqot madaniyati, ta’limiy kontent	Blog yuritish, onlayn kurslar, ta’limiy ijtimoiy tarmoq loyihalari

Mazkur tadqiqot metodologik jihatdan aralash (mixed) yondashuvga tayangan bo‘lib, nazariy-tahliliy va empirik usullar bir-biri bilan uyg‘un holda

qo‘llanildi. Birinchi bosqichda pedagogik imidj, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar va innovatsion ta’lim yondashuvlariga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tizimli tahlil qilindi, mavjud konsepsiyalar solishtirildi hamda ular asosida bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik imidjini ifodalovchi konseptual model ishlab chiqildi. Mazkur modelda pedagogik imidj I bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy (C_k), kommunikativ (C_{kom}), axloqiy (C_a), tashqi qiyofa (C_t) va raqamli (C_r) tarkibiy qismlaridan iborat ko‘p omilli tizim sifatida qaralib, u quyidagicha ifodalandi:

$$I = f(C_k, C_{kom}, C_a, C_t, C_r), (1) \quad , \quad (1)$$

bu yerda har bir komponent auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar tizimida maqsadli rivojlantirilishi lozim bo‘lgan yo‘nalish sifatida talqin qilinadi.

Keyingi, empirik bosqichda pedagogik ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilar ishtirokida tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi. Tanlov maqsadli yondashuv asosida shakllantirilib, ishtirokchilar shartli ravishda eksperimental va taqqoslovchi guruhlarga ajratildi. Eksperimental guruhga innovatsion ta’limtexnologiyalari bilan boyitilgan auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar dasturi joriy etildi, taqqoslovchi guruh esa mavjud, an’anaviy tashqi faoliyat tizimi sharoitida faoliyatini davom ettirdi. Tajriba boshida so‘rovnoma, pedagogik kuzatish va suhbat metodlari yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik imidj darajasi, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlardagi ishtirok faolligi hamda raqamli ta’limiy loyihalarga bo‘lgan munosabati bo‘yicha boshlang‘ich diagnostik ma’lumotlar yig‘ildi. So‘rovnoma 5 balli Likert shkalasiga tayangan bo‘lib, yuqorida qayd etilgan komponentlarning har birini alohida baholashga yo‘naltirildi. Kuzatish varaqalarida esa talabalar ishtirokining sifat ko‘rsatkichlari – tashabbuskorlik, muloqotga kirishuvchanlik, liderlik, jamoada ishlash qobiliyati va ijtimoiy mas’uliyat darajasi – muntazam ravishda qayd etib borildi. Shundan so‘ng integratsion dastur ishlab chiqildi: fan va metodika yo‘nalishidagi to‘garaklar, debat klublari, kommunikativ treninglar, volontyorlik va ijtimoiy loyihalar, madaniy-ma’rifiy tadbirlar, shuningdek blog yuritish, videodars tayyorlash va ta’limiy onlayn kontent yaratish kabi raqamli tashabbuslar yagona tizimga keltirildi. Ushbu mashg‘ulotlar ma’lum davr mobaynida reja asosida eksperimental guruh talabalari bilan muntazam amalga oshirildi; jarayon davomida kriterial kuzatish asosida talabalarning xulqi va pedagogik imidj bilan bog‘liq namoyon bo‘lishlari qayd etildi. Tajriba yakunida dastlabki diagnostika vositalari qayta

qo‘llanib, eksperimental va taqqoslovchi guruhlar o‘rtacha ko‘rsatkichlari solishtirildi, har bir komponent bo‘yicha o‘zgarish dinamikasi aniqlanib, zarur hollarda statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Miqdoriy natijalar jadval, grafik va diagrammalar yordamida vizual ravishda ifodalanib, pedagogik imidj komponentlari bo‘yicha o‘sish tendensiyalari ko‘rsatildi. Sifat xarakterdagi ma’lumotlar suhbatlar, fokus-guruhlar va raqamli loyihalar materiallari bo‘yicha kontent-tahlil yordamida talqin qilindi. Raqamli imidj komponentini baholashda talabalarning blog yozuvlari, ta’limiy videolari va ijtimoiy tarmoqlardagi ta’limiy sahifalari mazmunan ko‘rib chiqildi, ularda kasbiy qadriyatlar, kommunikativ madaniyat va o‘qituvchi shaxsining ijobiy obrazi qay darajada aks etgani aniqlashtirildi. Tadqiqotning barcha bosqichlarida ishtirokchilarning ixtiyoriy roziligi, ma’lumotlarning maxfiyligi va natijalardan faqat ilmiy maqsadlarda foydalanish kabi etik talablarga qat’iy rioya qilindi.

Ishlab chiqilgan metodologik yondashuv ta’limda innovatsion yondashuvlar va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar integratsiyasining bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik imidjini shakllantirishga ko‘rsatadigan real ta’sirini kompleks ravishda aniqlash imkonini berdi.

Tajriba-sinov ishlari yakunida olingan ma’lumotlar bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik imidji integratsion yondashuv tatbiq etilgan sharoitda sezilarli darajada o‘sganini ko‘rsatdi. 1-rasmda eksperimental va taqqoslovchi guruhlarda pedagogik imidjning umumiy integral ko‘rsatkichlari dinamikasi aks ettirilgan. Boshlang‘ich diagnostika bosqichida har ikki guruhda o‘rtacha ball deyarli bir xil, taxminan 3, 1 atrofida qayd etilgan. Semestr yakunidagi takroriy o‘lchovlarda esa eksperimental guruh ko‘rsatkichi 4, 2 ballgacha oshgan bo‘lsa, taqqoslovchi guruhda bu ko‘rsatkich 3, 4 ball atrofida shakllandi. Bu farq auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarni innovatsion yondashuvlar bilan integratsiyalash pedagogik imidjni rivojlantirishga ancha kuchli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi: eksperimental guruhdagi o‘sish nafaqat mutlaq qiymat jihatidan, balki nisbiy o‘sish sur’atlari bo‘yicha ham ustun bo‘ldi.



1-rasm. Eksperimental va taqqoslovchi guruhlarda pedagogik imidjning integral ko‘rsatkichlari dinamikasi

Pedagogik imidjning qaysi tarkibiy qismlari ayniqsa faol rivojlanganini aniqlash maqsadida eksperimental guruh natijalari komponentlar kesimida tahlil qilindi. 2-rasmda kasbiy, kommunikativ, axloqiy, tashqi qiyofa va raqamli komponentlar bo‘yicha boshlang‘ich va yakuniy o‘rtacha ballar taqqoslangan. Kasbiy komponent bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 3, 2 balldan 4, 3 ballgacha oshgani fan bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirish va metodik tayyorgarlikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan fan to‘garaklari, ilmiy chiqishlar va amaliy mashg‘ulotlar samaradorligini tasdiqlaydi. Kommunikativ komponentning 3, 0 dan 4, 2 ballgacha ko‘tarilgani debat klublari, kommunikativ treninglar va jamoaviy loyihalarda faol ishtirok etish natijasida nutq madaniyati va muloqot ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanganini ko‘rsatadi. Axloqiy komponent bo‘yicha ko‘rsatkich 3, 1 balldan 3, 9 ballgacha oshgan. Bu volontyorlik, ijtimoiy loyihalar va mahalliy hamjamiyat bilan ishlash tajribasi bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy etika, ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik pozitsiyasi mustahkamlanishiga xizmat qilganidan dalolat beradi. Tashqi qiyofa komponenti 3, 0 dan 3, 8 ballgacha ko‘tarilgani talabalarning madaniy-ma’rifiy tadbirlar, sahna chiqishlari, taqdimotlar va omma oldidagi chiqishlarda ishtiroki ortgani sari libos, o‘zini tutish, sahnadagi obraz va umumiy ko‘rinishga nisbatan ongli munosabat shakllanganini anglatadi.

Raqamli komponentning 3, 0 dan 4, 1 ballgacha o‘sishi ayniqsa diqqatga sazovor. Blog yuritish, videodars tayyorlash, ijtimoiy tarmoqlarda ta’limiy kontent yaratish kabi topshiriqlar talabalarning raqamli muloqot madaniyati, ta’limiy

kontent bilan ishlash ko‘nikmalari va raqamli maydondagi shaxsiy pedagogik obrazini shakllantirishga kuchli turtki bo‘lganini ko‘rsatadi. Suhbat va fokus-guruh natijalari ham bu tendensiyani tasdiqladi: eksperimental guruh ishtirokchilari raqamli loyihalarni endilikda oddiy topshiriq emas, balki bo‘lajak kasbiy “brend”ini shakllantirish vositasi sifatida qabul qila boshlaganini ta’kidlashdi.



2-rasm. Eksperimental guruhda pedagogik imidj komponentlari bo‘yicha o‘rtacha ballar dinamikasi

Umuman olganda, 1-rasm va 2-rasmlarda aks etgan ma’lumotlar tadqiqot boshida taklif etilgan $I=f(C_k, C_{kom}, C_a, C_t, C_r)$ modelining amaliy samaradorligini ko‘rsatadi. Tajriba boshida komponentlar bo‘yicha ko‘rsatkichlar o‘rtacha darajada va bir-biriga yaqin bo‘lgan bo‘lsa, tajriba yakuniga kelib aynan integratsion dastur tatbiq etilgan eksperimental guruhda bu komponentlar majmuasi bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik imidjining sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilganini kuzatish mumkin. Bu holat ta’limda innovatsion yondashuvlar va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar integratsiyasi bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining kasbiy-pedagogik qiyofasini maqsadli shakllantirishda samarali metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkinligini tasdiqlaydi. Natijalarni chuqurroq tahlil qilish sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham muhim ma’lumotlar berdi. Fokus-guruh suhbatlarida eksperimental guruh talabalari auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarni endi “haftalik majburiyat” emas, balki “o‘zini bo‘lajak o‘qituvchi sifatida sinab ko‘rish va namoyon etish maydoni” sifatida qabul qila boshlaganini ta’kidlashdi. Ularning fikricha, aynan shu jarayonlarda nazariy jihatdan o‘rgangan konsepsiyalar real vaziyatlar bilan uyg‘unlashgan, o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashgan, sahna va auditoriya oldidagi qo‘rquv va tortinchoqlik asta-sekin kamaygan. Bu, bir

tomondan, kommunikativ va tashqi qiyofa komponentlaridagi o‘sishni izohlasa, boshqa tomondan, ichki motivatsiya va kasbiy o‘zini-o‘zi anglash jarayonining faollashganini ko‘rsatadi.

Taqqoslovchi guruh suhbatlarida esa auditoriyadan tashqari faoliyat ko‘proq “epizodik tadbirlar majmui” sifatida tasvirlandi. Ko‘pchilik talaba bunday tadbirlarda ishtirok etishni asosan rasmiy talab yoki bahoga ta’sir qiluvchi omil deb qabul qilayotgani, ularni shaxsiy va kasbiy imidj bilan bevosita bog‘lamayotgani kuzatildi. Mazkur omil taqqoslovchi guruhda qayd etilgan sust o‘sishni tushuntiradi: faoliyatda qatnashish mavjud bo‘lsa-da, u maqsadli va konseptual asosga ega bo‘lmagani sababli pedagogik imidj komponentlarini chuqur rivojlantirishga yetarli ta’sir ko‘rsatmayapti. Yana bir muhim jihat shundaki, eksperimental guruh talabalari o‘zlarining raqamli faolligiga nisbatan munosabatini tubdan qayta ko‘rib chiqqanini bildirishdi. Tajribagacha ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini asosan “shaxsiy hudud” sifatida ko‘rgan bo‘lsalar, tajriba yakunida ko‘pchiligi ta’limiy kontent joylashtirish, kichik metodik tavsiyalar, videoizohlar, “savol-javob” formatidagi postlar tayyorlashni boshlagan. Ularning fikricha, bu faqat bo‘lajak kasbiy imidjni shakllantirishga emas, balki shaxsiy portfelni to‘ldirish va keyinchalik ishga joylashish jarayonida ham qo‘l kelishi mumkin. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, raqamli komponentdagi o‘sish faqat texnik ko‘nikmalar bilan emas, balki kasbiy o‘zini namoyon qilishga oid yangi qarashlar va pozitsiyalar shakllanishi bilan ham bog‘liqdir.

Tadqiqot natijalari ta’limda innovatsion yondashuvlar va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar integratsiyasi bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik imidjini sezilarli darajada rivojlantirishini ko‘rsatdi. Eksperimental guruhda pedagogik imidjning integral ko‘rsatkichi 3, 1 balldan 4, 2 ballgacha oshgani, ayniqsa kasbiy, kommunikativ va raqamli komponentlarda yaqqol o‘sish kuzatilgani buning amaliy dalilidir. Fan va metodika to‘garaklari, debat klublari, volontyorlik, madaniy-ma’rifiy tadbirlar hamda blog, videodars kabi raqamli loyihalar tasodifiy emas, balki maqsadli rejalashtirilganida talabalarga o‘zini bo‘lajak o‘qituvchi sifatida sinab ko‘rish, ijobiy pedagogik obrazni shakllantirish va kasbiy motivatsiyani kuchaytirish uchun samarali maydon yaratadi. Shu bois pedagogik ta’lim dasturlarida auditoriyadan tashqari faoliyatni umumiy tarbiyaviy ishlar tarkibida emas, balki alohida konseptual yo‘nalish sifatida ko‘rib, uni bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik imidjini rivojlantirish maqsadiga bo‘ysundirish zarur..

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sharueva, E. V. Organizational and pedagogical conditions of formation of teacher’s professional image in the context of education standardization. – *Perspektivy razvitiya obrazovatelnyh system*, 2021.
2. Norkobilovna, J. S. Structural components of a teacher’s professional image. – *International Journal of Academic Research*, 2019.
3. Kalahurka, K. The development of teacher’s professional image in a modern school. – *Pedagogical Sciences Journal*, 2022.
4. Dimkova, R. The image of the teacher in pedagogic science and practice. – *Knowledge International Journal*, 2024.
5. Uysal, F. The impact of extracurricular activities on pre-service teachers’ professional development. – *Journal of Intelligence*, 2025.
6. İleritürk, D. Evaluation of extracurricular activities in education according to pre-service teachers’ views. – *Education for the 21st Century*, 2023.
7. Tomczyk, Ł. Digital competence among pre-service teachers: A global perspective. – *Educational Research Review*, 2024.
8. Marais, E. The development of digital competencies in pre-service teachers. – *Research in Social Sciences and Technology*, 2023.
9. Beijaard, D., Meijer, P. C., & Verloop, N. Reconsidering research on teachers’ professional identity. – *Teaching and Teacher Education*, 2004, 20(2), 107–128.
10. Izadinia, M. A review of research on student teachers’ professional identity. – *British Educational Research Journal*, 2013, 39(4), 694–713.

FIZIKA FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARDA INNOVATSION FIKRLASH VA IZLANISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Ummataliyeva Nilufar
Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda innovatsion fikrlashni rivojlantirish va izlanish madaniyatini

shakllantirishning samarali yondashuvlari yoritiladi. Unda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, muammoli vaziyatlar yaratish, tajribalar asosida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undash kabi metodlarning ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, ijodkorlikni rivojlantirish va ilmiy izlanishga bo‘lgan qiziqishni oshirishning amaliy yo‘llari tahlil qilinadi.

ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ И ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ КУЛЬТУРЫ У УЧАЩИХСЯ В ПРЕПОДАВАНИИ ФИЗИКИ

Аннотация: В данной статье рассматриваются эффективные подходы к развитию инновационного мышления и формированию исследовательской культуры у учащихся в процессе преподавания физики. Показано значение современных педагогических технологий, создания проблемных ситуаций и использования экспериментов, направленных на стимулирование самостоятельного мышления учащихся. Также анализируются практические методы развития творческих способностей и повышения интереса к научно-исследовательской деятельности.

WAYS OF DEVELOPING INNOVATIVE THINKING AND RESEARCH CULTURE AMONG STUDENTS IN THE TEACHING OF PHYSICS

Annotation: This article explores effective approaches to developing innovative thinking and fostering a research culture among students in the process of teaching physics. It highlights the importance of modern pedagogical technologies, the creation of problem-based situations, and the use of experiments that encourage students to think independently. The article also analyzes practical methods for developing creativity and increasing students’ interest in scientific research activities.

Kalit so‘zlar: fizika, o‘quvchi, innovatsion fikrlash, izlanish madaniyati, pedagogik texnologiyalar, ijodkorlik, mustaqil fikrlash, ilmiy izlanish.

Ключевые слова: физика, учащийся, инновационное мышление, исследовательская культура, педагогические технологии, креативность, самостоятельное мышление, научные исследования.

Keywords: physics, student, innovative thinking, research culture, pedagogical technologies, creativity, independent thinking, scientific research

Zamonaviy ta’lim jarayonida fizika fanini o‘qitish nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, izlanish va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Bugungi kunda ilm-fan va texnologiyalar tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda, shuning uchun maktab yoshidagi o‘quvchilarni faqat faktlar bilan cheklash yetarli emas. Ularni ijodiy fikrlashga, tajribalar o‘tkazishga va ilmiy izlanishga rag‘batlantirish orqali kelajakda ilmiy va amaliy faoliyatga tayyorlash mumkin. Shu bois, fizika darslarida zamonaviy pedagogik metod va texnologiyalarni qo‘llash, muammoli vaziyatlar yaratish va o‘quvchilarning mustaqil izlanishlarini rag‘batlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada ushbu jarayonlarni samarali tashkil etish yo‘llari va ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. [1,46];

Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarda innovatsion fikrlash va izlanish madaniyatini rivojlantirish masalasi so‘nggi yillarda pedagogika sohasida keng o‘rganilmoqda. Tadqiqotchilar, jumladan, A. Islomov (2020) va N. Karimova (2021), o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda tajribalar va eksperimental metodlardan foydalanish muhimligini ta’kidlashadi. [2, 38];

Shu bilan birga, S. Rahimov (2019) pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq etish orqali o‘quvchilarda ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishning samaradorligini o‘rganadi. [3,52];

Boshqa tadqiqotlarda, masalan, J. Ahmedov va R. Tursunov (2022), muammoli vaziyatlar yaratish va interaktiv metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning ilmiy izlanishga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkinligi ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, xalqaro adabiyotlarda ham innovatsion pedagogik yondashuvlar, loyiha asosida o‘qitish va tadqiqot metodlari o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga rag‘batlantirishda samarali ekanligi qayd etilgan (Smith, 2018; Johnson, 2020). Shuni ta’kidlash joizki, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, fizika darslarida o‘quvchilarda ijodiy va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy, interaktiv va muammoli metodlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Bu esa dars jarayonini yanada qiziqarli, samarali va o‘quvchilar uchun foydali qiladi. [4, 26];

Ushbu tadqiqotda o‘quvchilarda innovatsion fikrlash va izlanish madaniyatini shakllantirish yo‘llarini aniqlash va tahlil qilish uchun bir qator metodlardan foydalanildi. Asosiy e’tibor empirik va amaliy metodlarga qaratildi, chunki fizika fanida nazariy bilimlarni amaliy tajribalar bilan uyg‘unlashtirish

o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. [5, 52];

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, intervyu va suhbatlar, shuningdek, o‘quvchilarning dars jarayonidagi faoliyati tahlil qilindi. Bu metodlar o‘quvchilarning qaysi sharoitlarda ijodiy yondashuv va ilmiy qiziqishlarini ko‘rsatishini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, eksperimental metod qo‘llanilib, sinfda muammoli vaziyatlar yaratish, loyiha asosida ishlash va tajribalar o‘tkazish orqali o‘quvchilarning izlanish madaniyati va innovatsion fikrlashini rivojlantirishning samaradorligi sinovdan o‘tkazildi. Tadqiqotda solishtirma tahlil metodidan ham foydalandik: an’anaviy metodlar bilan zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ta’lim jarayoniga ta’siri solishtirildi. Shu orqali qaysi usullar o‘quvchilarning ijodiy va tadqiqotchilik qobiliyatlarini samaraliroq shakllantirishini aniqlash imkoniyati yaratildi. Bundan tashqari, loyiha va guruh ishlari, interaktiv dars metodlari va muammoli vaziyatlar tadqiqotning amaliy qismida sinovdan o‘tkazildi. Bu metodologiya o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv va ilmiy izlanish ko‘nikmalarini tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, fizika darslarida o‘quvchilarda innovatsion fikrlash va izlanish madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar an’anaviy metodlarga qaraganda samaraliroq. Muammoli vaziyatlar yaratish va tajribalar o‘tkazish orqali o‘quvchilar mustaqil fikrlashni o‘rganadi, ilmiy izlanishga qiziqish ortadi va darsga faol ishtirok qiladi.

Eksperimental sinfda kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatdiki, loyiha asosida ishlash va guruh faoliyatlari o‘quvchilarda ijodiy yondashuvni kuchaytiradi. Masalan, murakkab fizik masalalarni hal qilish jarayonida o‘quvchilar bir nechta yechim variantlarini taklif qilganlari kuzatildi, bu esa ularning innovatsion fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Shuningdek, darslarda interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning ilmiy tadqiqotga bo‘lgan qiziqishini oshirdi. [6,32]; Suhbat va intervyular natijasida ko‘pchilik o‘quvchilar o‘zlarining mustaqil izlanish va tajriba o‘tkazish imkoniyatlaridan mamnun ekanliklarini bildirishdi. Umuman olganda, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, fizika fanini o‘qitishda ijodiy va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlar, loyiha ishlari, tajribalar va interaktiv metodlarni tizimli qo‘llash zarur. Bu usullar nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki

o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv va ilmiy izlanish qobiliyatlarini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarda innovatsion fikrlash va izlanish madaniyatini shakllantirish pedagogik jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Muammoli vaziyatlar yaratish, tajribalar o‘tkazish, loyiha va guruh ishlari, shuningdek interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, bunday yondashuvlar o‘quvchilarda ilmiy izlanishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, dars jarayonini qiziqarli va mazmunli qiladi hamda ularni kelajakda ilmiy va amaliy faoliyatga tayyorlaydi. Shu bois, fizika darslarida innovatsion pedagogik metodlarni tizimli qo‘llash nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning kreativ va tadqiqotchilik salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Fizika fanini o‘qitishda ijodiy va izlanishga yo‘naltirilgan yondashuvlar o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini yanada boyitadi, ularni zamonaviy ilmiy va texnologik jarayonlarga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islomov A. (2020). *Fizika darslarida o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodlari*. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti.
2. Karimova, N. (2021). *Maktab fizikasida tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish*. Andijon: Andijon davlat pedagogika instituti nashriyoti.
3. Rahimov, S. (2019). *Pedagogik texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning ijodiy yondashuvini rivojlantirish*. Toshkent: Fan va ta’lim.
4. Ahmedov, J., & Tursunov, R. (2022). *Muammoli vaziyatlar va loyiha asosida o‘qitish metodlari*. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
5. Smith, J. (2018). *Innovative teaching methods in physics education*. New York: Academic Press.
6. Johnson, L. (2020). *Developing students’ research skills in science classrooms*. London: Routledge.

ANDIJON VILOYAT TARIXI VA MADANIYATI DAVLAT MUZEYINING HABIBIY MUZEYI FILIALIDA TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI VA O‘QUVCHILAR MA’NAVIY TARBIYASIDAGI O‘RNI

Ergasheva Moxiraxon Baxtiyorjon qizi
Qo‘qon universiteti Andijon filiali,
IT va ijtimoiy-gumanitar fakulteti,
Tarix yo‘nalishi, 1-kurs, MT-25-02-guruh talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Andijon viloyati Paxtaobod tumanida joylashgan Zokirjon Habibiy uy-muzeyining ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati, uning yoshlar tarbiyasidagi roli hamda muzeyda ochiq darslar tashkil etishning samaradorligi yoritilgan. Habibiy nafaqat o‘zbek she’riyati rivojiga katta hissa qo‘shgan ijodkor, balki XX asr o‘zbek adabiyotining shakllanishida muhim o‘rin egallagan shaxs sifatida baholanadi. Muzeyda shoirning shaxsiy buyumlari, qo‘lyozmalari, qo‘shiqlariga oid materiallar, tarixiy eksponatlar saqlanadi. Ushbu ilmiy-ma’rifiy maskanda dars o‘tish o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, adabiyotga muhabbat va vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytiradi.

Kalit so‘zlar. Habibiy, uy-muzey, Andijon, ma’naviy meros, ochiq dars, adabiyot, tarbiya, eksponatlar, madaniyat, tarix.

ЗНАЧЕНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ФИЛИАЛЕ «МУЗЕЙ ХАБИБИЯ» ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ ИСТОРИИ И КУЛЬТУРЫ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ И ЕГО РОЛЬ В ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В данной статье рассматривается духовно-просветительское значение дома-музея Хабибия, расположенного в Пахтаабадском районе Андижанской области, его роль в воспитании молодежи и эффективность проведения открытых уроков на базе музея. Хабибий является одним из ярких представителей узбекской поэзии XX века. В музее хранятся личные вещи поэта, рукописи, документы, фотографии и другие ценные экспонаты. Проведение занятий в музее способствует формированию национальной идентичности учащихся, развитию интереса к литературе и укреплению чувств патриотизма.

Ключевые слова. Хабибий, дом-музей, Андижан, духовное наследие, открытый урок, литература, воспитание, экспонаты, культура, история.

THE IMPORTANCE OF ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS AT THE “HABIBIY MUSEUM” BRANCH OF THE ANDIJAN REGION STATE MUSEUM OF HISTORY AND CULTURE AND ITS ROLE IN THE MORAL AND SPIRITUAL EDUCATION OF STUDENTS

Abstract. This article explores the cultural and educational significance of the Habibiy House-Museum located in Paxtaobod district of Andijan region, its role in shaping youth upbringing, and the effectiveness of holding open lessons within the museum environment. Habibiy is recognized as a prominent figure in 20th-century Uzbek poetry. The museum preserves his personal belongings, manuscripts, photographs, and various historical artifacts. Conducting classes in this educational space enhances students’ national identity, deepens their appreciation for literature, and strengthens patriotic values.

Keywords. Habibiy, house-museum, Andijan, cultural heritage, open lesson, literature, education, exhibits, culture, history.

Har bir xalq o‘zining tarixi, madaniyati, an’analarini asrab-avaylash, o‘rganish va keyingi avlodlarga yetkazishda aynan muzeylar boy merosni asrab-avaylash, ma’naviy barkamol jamiyatni tarbiyalash, milliy iftixor va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini singdirishning eng samarali vositalaridan biri sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san’at, sport va axborot-texnologiyalariga jalb etish, kitobxonlikni targ‘ib qilish hamda xotin-qizlar bandligini oshirish maqsadida ilgari surgan besh muhim tashabbusdan birinchisi – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va boshqa san’at turlariga qiziqishini oshirishga qaratilgan. Ayniqsa, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Xalq ta’limi vazirligiga tarix darslarini muzeylar, tarixiy obidalar, qadamjolar va teatrlarda sayyor o‘tkazish topshirig‘i berilgan[1].

O‘zbekistonda Andijon viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi o‘zining yuksak salohiyati bilan ajralib turadigan ilmiy-ma’rifiy muassasalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 975-sonli qarori asosida 2017-yil 11-dekabrda Andijon viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi tashkil etildi.

Hozirgi kunda muzey to‘rt bo‘lim va bitta filialdan iborat. Yuqorida qayd etilgan filial bu Andijon viloyati Paxtaobod tumanida joylashgan Habibiy uy-muzeyidir.

O‘zbek xalqining taniqli shoiri, mumtoz she’riyat an’analarini davom ettirgan ijodkor Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Habibiy 1890-yil 16-aprelda Andijon viloyati Paxtaobod tumani Qo‘qon qishlog‘ida oddiy dehqon oilasida dunyoga kelgan. U dastlab eski uslubdagi maktab va madrasalarda, xususan, Andijon va Qo‘qon madrasalarida ta’lim olgan. Navoiy, Fuzuliy, Muqimiy, Furqat kabi buyuk adiblarning asarlarini chuqur mutolaa qilib, aruz vaznini puxta o‘zlashtirgan va yoshligidanoq ularga taqlid qilib she’r yozishni boshlagan.

1920-yillardan boshlab Habibiy o‘zbek xalq qo‘shiqlarining ohangi va uslubida ijod qilib, yangi davr ruhiga mos she’rlar yaratgan. U o‘z zamonasining eng muhim mavzularini – katta kanallar qurilishi, cho‘llarni o‘zlashtirish, Farhod GESining barpo etilishi kabi ulkan o‘zgarishlarni o‘z asarlarida yorqin aks ettirdi. Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan tayyorgarlik ishlari doirasida Boqiy, Mahjuriy, Anisiy, Sayfiy kabi safdoshlari bilan birga Navoiy qo‘mitasi tomonidan Toshkentga taklif etilib, poytaxtga ko‘chib o‘tgan.

1939-yilda Farg‘ona kanalining qurilishiga shoir sifatida safarbar qilingan va aynan shu davrdan boshlab uning g‘azallari respublika matbuotida muntazam e’lon qilina boshladi va taniqli hofizlar tomonidan kuylana boshladi. Mumtoz adabiyot va musiqa sohasidagi chuqur bilimi, o‘zbek g‘azalchiligiga sodiqligi tufayli katta hurmat qozondi. 1940-yilda Yangiyo‘l shahrida tashkil etilgan viloyat musiqali drama va komediya teatriga adabiy yordamchi etib tayinlandi va 1946-yilgacha shu lavozimda samarali mehnat qildi.

Andijon viloyati tarixiyi va madaniyati davlat muzeyining Paxtaobod tumanidagi filiali – “Zokirjon Habibiy” yodgorlik uy-muzeyi deb ataladi. Ushbu muzey 1990-yilda buyuk shoirning tavalludining 100 yilligi munosabati bilan xalq xayriya (hashar) yo‘li bilan qurilgan. Bu ezgu ishda tuman hokimligi rahbarlari, xususan, o‘sha paytdagi tuman partiya qo‘mitasi birinchi kotibi Munisxon Ergasheva hamda taniqli faol Abdullajon Raximovlarning tashabbusi va faolligi katta rol o‘ynagan. Har kuni 200 dan ortiq hasharchilar qatnashgan.

Muzeyning tantanali ochilish marosimida o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalari – Abdulla Oripov, Ibrohim G‘ofurov va boshqa taniqli ijodkorlar ishtirok etgan. Muzeyda shoirning shaxsiy buyumlari, qo‘lyozmalari, fotosuratlari,

she’riyat va san’atga oid ko‘plab eksponatlar saqlanadi. Har yili avgust oyida Habibiy tavalludining yillik bayrami keng nishonlanadi. Ushbu kunlarda respublika miqyosidagi san’atkorlar, adabiyotshunoslar, yosh ijodkorlar yig‘ilib, she’riyat kechalari, adabiy-madaniy anjumanlar, ilmiy konferensiyalar o‘tkaziladi.

Muzey faoliyatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy ma’naviy, madaniy va ilmiy merosni to‘plash, o‘rganish va asrab-avaylashdan iboratdir.

Muzey ekspozitsiyalari va ko‘rgazmalari muntazam yangilanib, yangi eksponatlar bilan boyitib boriladi. Har yili unga tashrif buyuruvchilar, ayniqsa sayyohlar soni tobora ortib bormoqda. Yana shuni ta’kidlash joizki, ekspozitsiyalar xronologik tartibda tuzilgan.

Muzeyning ilmiy salohiyati yildan-yilga ortib bormoqda. Uni mustahkamlashda turli soha vakillari — tarixchilar, arxeologlar, filologlar, geologlar ishtirok etgan.

Muzey xodimlari uzoq yillar davomida xalq amaliy san’ati namunalarini muntazam to‘plash bilan shug‘ullangan. Shu tariqa muzey fondida amaliy-bezak san’ati asarlarining kolleksiyasi shakllangan.

Umuman olganda, muzey kolleksiyasini to‘ldirish uchun kulolchilik, zargarlik buyumlari, mis idishlar, oshxona anjomlari, yog‘och o‘ymakorligi, to‘quvchilik va kashtachilik namunalari, musiqa asboblari, kiyim-kechak, bosh kiyimlari va boshqa noyob hunarmandchilik buyumlari doimiy ravishda sotib olinmoqda. Ushbu predmetlar XIX–XX asrlardagi badiiy hunarmandchilik va amaliy san’at rivojlanish tarixini o‘rganish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Muzey fondida Andijon viloyatida yashab ijod qilgan taniqli olimlar, yozuvchilar, madaniyat va san’at arboblarining hujjatlari, fotosuratlari, shaxsiy buyumlari va asarlari saqlanadi. Muzey xodimlarining uzoq yillik ilmiy tadqiqotlari, ommaviy axborot vositalarida maqolalar e’lon qilinishi, televideniye va radioda chiqishlari muzey faoliyatida, eksponatlarni ommalashtirishda alohida ahamiyatga ega[2. 6].

Ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish maqsadida muzey va ko‘rgazmalarga tashrif buyurish, ilm-fan, texnika va zamonaviy texnologiyalar haqida qiziquvchan suhbatlar tashkil qilish ham katta tarbiyaviy samara beradi[3. 97].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yilda qabul qilingan “Muzeylar to‘g‘risida”gi qonunga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar (PQ-752-sonli qaror) doirasida muzeylar faoliyatini yanada rivojlantirish, ularni zamonaviy talablarga moslashtirish ko‘zda tutilgan. “Zokirjon Habibiy” yodgorlik uy-muzeyi kabi muassasalarda muntazam tarixiy-madaniy darslar, ekskursiya-darslar tashkil etish, eksponatlar bilan interaktiv ishlash, raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali yosh avlodda o‘z ajdodlariga munosib farzand bo‘lish, vatanparvarlik va tinchliksevarlik g‘oyalarini chuqur singdirish mumkin.

Shu bilan birga, muzeylarda tashkil etilgan “Shahidlar xotirasi”, “Urush va tinchlik” bo‘limlari orqali ota-bobolarimizning jasorati, ularning xotirasini abadiylashtirish an’anasini davom ettirish, yoshlarni milliy g‘urur va vatan himoyasiga sadoqat ruhida tarbiyalashda bunday muzeylarning o‘rni beqiyosdir. Zokirjon Habibiy nomidagi yodgorlik muzeyi ana shunday muqaddas ma’rifat maskanlaridan biri bo‘lib, kelajak avlodni milliy qadriyatlar ruhida kamol toptirishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://president. uz/uz/lists/view/2437
2. “O‘zbekiston madaniy merosi” mualliflik turkumi: “Andijon viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi to‘plami” kitob-albomi / F. F. Abduxoliqov, E. Ahmedova, I. Madg’oziyev, R. Muhamedova, A. Poziljonov, D. Yusupov // Toshkent: “Zamon-Press-Info Nashriyot uyi” MChJ, 2025. – 464 b.
3. Teshaboyev A., Mirzakarimova M., Ishanova M. Umumiy pedagogika: darslik. –Andijon, “NumberOne”, 2023. – 420 b.

TA’LIM JARAYONIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

Narzullayeva Mohinur Bahrom qizi
Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim tizimida raqamli transformatsiyaning mohiyati, asosiy yo‘nalishlari hamda uning samaradorligini ta’minlovchi omillar tahlil etiladi. Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish o‘quv jarayonining sifatini oshirish, o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish,

individual yondashuv asosida ta’limni shaxsga yo‘naltirish imkonini berishi isbotlanadi. Shu bilan birga, onlayn platformalar, raqamli o‘quv resurslari, sun’iy intellekt va masofaviy ta’lim vositalaridan foydalanish orqali o‘qituvchilarning metodik imkoniyatlari kengayishi, ta’lim jarayonining tezkorligi va shaffofligi ta’minlanishi qayd etiladi. Maqolada raqamli transformatsiya jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar – axborot-kommunikatsiya infratuzilmasining yetarli emasligi, o‘qituvchilar kompetensiyasini oshirish zaruriyati, raqamli tengsizlik va xavfsizlik masalalari ham ilmiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot natijalari raqamli transformatsiyaning to‘laqonli amalga oshirilishi uchun tizimli yangilanish, malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish, texnik ta’minot va pedagogik hamkorlikning kuchaytirilishi muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, ta’lim tizimi, raqamli texnologiyalar, masofaviy ta’lim, pedagogik innovatsiyalar, raqamli kompetensiya.

Аннотация: В статье рассматривается сущность цифровой трансформации в системе образования, её основные направления и факторы, обеспечивающие эффективность процесса. Доказывается, что внедрение цифровых технологий в учебный процесс способствует повышению качества образования, повышению мотивации обучающихся и реализации личностно-ориентированного подхода. Использование онлайн-платформ, цифровых образовательных ресурсов, искусственного интеллекта и средств дистанционного обучения расширяет методические возможности преподавателей и обеспечивает оперативность и прозрачность образовательного процесса. Вместе с тем в статье освещаются проблемы, возникающие в ходе цифровой трансформации: недостаточность информационно-коммуникационной инфраструктуры, необходимость повышения компетентности педагогов, цифровое неравенство и вопросы безопасности. Результаты исследования показывают, что для полноценной реализации цифровой трансформации важно системное обновление, совершенствование программ повышения квалификации, техническое обеспечение и усиление педагогического сотрудничества.

Ключевые слова: цифровая трансформация, система образования, цифровые технологии, дистанционное обучение, педагогические инновации, цифровая компетентность.

Abstract. This article examines the essence of digital transformation in the education system, its main directions, and the factors that ensure the effectiveness of this process. It is demonstrated that the integration of digital technologies into the learning process improves the quality of education, increases student motivation, and enables a learner-centered approach. The use of online platforms, digital learning resources, artificial intelligence, and distance learning tools expands teachers’ methodological opportunities while ensuring the speed and transparency of the educational process. At the same time, the article highlights the challenges that arise during digital transformation, including insufficient ICT infrastructure, the need to improve teachers’ competencies, digital inequality, and security issues. The results of the study show that successful implementation of digital transformation requires systemic modernization, improvement of professional development programs, technical support, and strengthening of pedagogical cooperation.

Keywords: digital transformation, education system, digital technologies, distance learning, pedagogical innovations, digital competence.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi ta’lim tizimida keng ko‘lamli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli transformatsiya ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilashda muhim omil sanaladi. Onlayn platformalar, raqamli resurslar, sun’iy intellekt va masofaviy ta’lim vositalari o‘qituvchilarning metodik imkoniyatlarini kengaytirib, o‘quv jarayonining tezkor va shaffof bo‘lishini ta’minlaydi [6: 40]. Biroq, raqamli transformatsiya bir qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Xususan, ta’lim muassasalarida texnik infratuzilmaning yetishmasligi, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish zarurati, raqamli tengsizlik va xavfsizlik masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi – ta’lim jarayonida raqamli transformatsiyaning imkoniyat va muammolarini tahlil qilish hamda samaradorlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi omillarni aniqlashdan iborat.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlarning eng muhim omillaridan biri raqamli transformatsiya jarayonidir. Raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalarida tobora keng qo‘llanilayotgani singari, zamonaviy ta’lim ham an’anaviy shakllardan farqli ravishda interaktiv, multimedia

va masofaviy ta’lim vositalariga tayanib borayotgani kuzatilmoqda. Raqamli transformatsiya, avvalo, ta’lim jarayonini optimallashtirish, o‘quvchilar faoliyatini faollashtirish, o‘qituvchilarning metodik salohiyatini kengaytirish hamda o‘quv jarayonida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan. Raqamli transformatsiyaning mohiyati shundaki, ta’lim tizimiga raqamli vositalar va texnologiyalarni kompleks tarzda joriy etish orqali sifatli, moslashuvchan va individual ta’lim muhiti yaratiladi [1:35]. Raqamli transformatsiya nafaqat kompyuter texnikasini almashtirish, balki butun ta’lim jarayonini qayta tashkil etish, metodlarni yangilash, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotni yangi bosqichga olib chiqish demakdir. Mazkur jarayonning asosiy tarkibiy qismlari — raqamli o‘quv resurslari, bulut Texnologiyalari, onlayn platformalar, sun’iy intellekt, masofaviy ta’lim tizimlari va elektron boshqaruv tizimlaridir [9:50]. Raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimiga tatbiq etilishi bir qator imkoniyatlarni ochadi. Avvalo, o‘quv jarayonining sifati oshadi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida tayyorlangan interaktiv darslar, videodarslar, simulyatsiyalar, test tizimlari o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [9:75]. An’anaviy dars shaklidan farqli ravishda, raqamli muhitda o‘quvchi o‘rganilayotgan mavzuni nafaqat eshitadi, balki uni ko‘radi, baholaydi, mustaqil izlanadi, bu esa bilimlarning barqaror o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Raqamli kontentdan foydalanish o‘quv jarayonida motivatsiyani oshiradi, chunki o‘quvchi o‘z faoliyat natijalarini tezkor ko‘rishi, qayta ishlashi va tahlil qilishi mumkin. Raqamli transformatsiya individual ta’lim olish imkoniyatini ham kengaytiradi. Har bir o‘quvchi o‘z o‘rganish tezligi va qiziqishlariga moslab resurslardan foydalanishi mumkin [1: 100]. Onlayn platformalar o‘quv rejalari, topshiriqlar, testlar va materiallarning shaxsiy profil asosida shakllanishiga imkon beradi. Natijada, ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilganlik amal qiladi, o‘quvchi markaziy o‘ringa chiqadi. Bunday muhit o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, vaqtni optimal boshqarishga o‘rgatadi. Raqamli transformatsiyaning yana bir muhim afzalligi o‘qituvchilar faoliyati samaradorligining oshishidir. Raqamli texnologiyalar yordamida o‘qituvchi darslarni tashkil etish, o‘quv materiallarini yaratish, baholash jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniga ega bo‘ladi [7: 260]. Elektron jurnal va kundaliklar, onlayn baholash tizimlari, elektron resurslar o‘qituvchiga o‘quvchilar bilim darajasini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Ta’limdagi tezkor tahlillar,

hisobotlar va natijalar o‘qituvchiga har bir o‘quvchi bilan individual ishlashga ko‘proq vaqt ajratish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiyaning ta’limga joriy etilishi bir qator muammolarni ham yuzaga chiqaradi. Eng avvalo, infratuzilmaning yetarli emasligi muammosi dolzarb. Maktab, kollej va oliy ta’lim muassasalarida internet tezligi, texnik qurilmalar soni, texnik xizmat ko‘rsatish tizimi yetarli darajada rivojlanmagan. Ayrim hududlarda internet aloqasining beqarorligi yoki yetishmovchiligi ta’lim jarayonini to‘liq raqamlashtirishga to‘sqinlik qiladi. Bu esa barcha o‘quvchi va o‘qituvchilarning teng sharoitda ta’lim olishini cheklaydi. Ikkinchi muammo — pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish zarurati. Raqamli texnologiyalarni ta’limga qo‘llash uchun o‘qituvchi tegishli bilim, ko‘nikma va amaliy tajribaga ega bo‘lishi lozim. Shuning uchun muntazam ravishda malaka oshirish kurslari, seminar-treninglar, tajriba almashish platformalari tashkil etilishi zarur. Aks holda, raqamli texnologiyalar mavjud bo‘lsada, ularning samarali qo‘llanilishi ta’minlanmaydi. Raqamli tengsizlik ham jiddiy muammolardan biridir. O‘quvchilarning barchasi uy sharoitida internet, kompyuter yoki planshetga ega emas. Bu ayniqsa masofaviy ta’lim jarayonida sezilarli darajada namoyon bo‘ldi. Texnik imkoniyatlarning turlicha bo‘lishi ta’lim natijalarida farq paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, axborot xavfsizligi masalalari, bolalarni zararli axborotdan himoyalash, shaxsiy ma’lumotlarning saqlanishi ham ta’lim tizimi uchun dolzarb vazifalardan biridir [4: 33]. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Avvalo, infratuzilmani modernizatsiya qilish, ta’lim muassasalarini texnik vositalar bilan ta’minlash, barqaror internet aloqasini tashkil etish zarur. O‘qituvchilar uchun raqamli kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan kurslar, amaliy seminarlar, treninglar muntazam o‘tkazilishi kerak. Raqamli kontent yaratish, milliy platformalarni rivojlantirish, pedagogik resurslarni boyitish raqamli transformatsiya samaradorligini oshiradi. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyatli joriy etilishi tizimli rejalashtirish, hamkorlik va qo‘llab-quvvatlashga tayanadi. Ko‘plab davlatlarda raqamli ta’lim infratuzilmasi davlat darajasida rivojlantiriladi, pedagoglar muntazam malaka oshirish tizimiga jalb qilinadi, o‘quvchi va o‘qituvchilar uchun ochiq multimediya resurslari yaratiladi. Milliy tajribaga mos holda shunday mexanizmlarni shakllantirish raqamli transformatsiyaning samarali amalga oshirilishini

ta’minlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi, o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatini rag‘batlantiradi. Raqamli transformatsiya ta’lim jarayonini zamonaviy talablarga moslashtiradi, tezkor, ochiq va shaffof ta’lim muhiti yaratadi. Muammolar bosqichma-bosqich bartaraf etilgan taqdirda, raqamli transformatsiya ta’lim tizimida sifatli natijalarga erishishga, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Raqamli transformatsiya ta’lim tizimida sifat va samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi muhim jarayon hisoblanadi. U pedagogik innovatsiyalarni rivojlantirish, o‘quvchilarning individual rivojlanishini ta’minlash va ta’lim jarayonini interaktiv, ochiq muhitga aylantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, texnik, metodik va ijtimoiy muammolarni bartaraf etish raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun muhimdir. To‘g‘ri rejalashtirish va kompleks yondashuv ta’lim tizimining barqaror rivojlanishiga, pedagoglar va o‘quvchilar uchun zamonaviy raqamli muhit yaratishga xizmat qiladi [2: 44].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Bates, A. W. (2015). Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. Tony Bates Associates Ltd.

2. Selwyn, N. (2016). Education and Technology: Key Issues and Debates. London: Bloomsbury Academic.

3. UNESCO. (2021). COVID-19 Educational Disruption and Response. UNESCO.

4. European Commission. (2020). Digital Education Action Plan 2021–2027. Brussels: European Commission.

5. Kozlov, V., & Petrova, I. (2019). Digital Transformation in Education: Modern Trends and Practices. Moscow: Higher School of Economics Press.

6. Prensky, M. (2010). Teaching Digital Natives: Partnering for Real Learning. California: Corwin Press.

7. Ertmer, P. A., & Ottenbreit-Leftwich, A. T. (2010). Teacher Technology Change: How Knowledge, Confidence, Beliefs, and Culture Intersect. Journal of Research on Technology in Education, 42(3), 255–284.

8. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2020). Raqamli ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha strategiya. Tashkent: XTV.

9. Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2016). E-Learning and the Science of Instruction: Proven Guidelines for Consumers and Designers of Multimedia Learning. Hoboken: Wiley.

3-SHO‘BA

Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim integratsiyasi va transformatsiyasi.

RAHBARLARDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Yarmatov Raximboy Baxramovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti
pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada rahbar shaxsining emotsional intellektini shakllantirish jarayonining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari tahlil etiladi. Emotsional intellektning boshqaruv samaradorligiga ta’siri, rahbarlik faoliyatidagi hissiy barqarorlik, kommunikativ madaniyat va empatiya ko‘nikmalarining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, emotsional intellektni rivojlantirishning psixologik shart-sharoitlari va ijtimoiy omillari haqida ilmiy asoslangan qarashlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: emotsional intellekt, boshqaruv, empatiya, stressga bardoshlilik, ijtimoiy-psixologik mexanizmlar, kommunikativ madaniyat, hissiy o‘zini boshqarish.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА У РУКОВОДИТЕЛЕЙ

Аннотация. В статье анализируются социально-психологические механизмы формирования эмоционального интеллекта руководителя. Раскрывается влияние эмоционального интеллекта на эффективность управления, значение эмоциональной устойчивости в лидерстве, коммуникативной культуры и навыков эмпатии. Представлены научно обоснованные взгляды на психологические условия и социальные факторы развития эмоционального интеллекта.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, управление, эмпатия, стрессоустойчивость, социально-психологические механизмы, коммуникативная культура, эмоциональное самоуправление.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF DEVELOPING EMOTIONAL INTELLIGENCE IN LEADERS

Abstract: This article analyzes the socio-psychological mechanisms of the process of forming the emotional intelligence of a leader. The impact of emotional intelligence on management effectiveness, the importance of emotional stability in leadership, communicative culture and empathy skills are highlighted. Also, scientifically based views on the psychological conditions and social factors of developing emotional intelligence are presented.

Keywords: emotional intelligence, management, empathy, stress tolerance, socio-psychological mechanisms, communicative culture, emotional self-management.

Bugungi globallashuv, raqamli iqtisodiyot va tezkor o‘zgarishlar davrida inson omilining roli boshqaruv tizimlarida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rahbarlik faoliyati shunchaki tashkilot ishini yuritish emas, balki insonlar bilan ishlash, ularning ruhiyatini, kayfiyatini, ichki motivlarini anglay olish, to‘g‘ri psixologik muhit yaratish san’atidir. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy rahbar uchun emotsional intellekt — professional yetuklikning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Emotsional intellekt (EI) tushunchasi shaxsning o‘z hissiyotlarini to‘g‘ri anglash, boshqarish, boshqalar hissiyotini sezish va ijtimoiy muloqotda ulardan oqilona foydalanish qobiliyatini anglatadi. D. Goleman ta’rificha, emotsional intellekt “insonning o‘zini va boshqalarni boshqarishdagi hissiy aql-idrokidir”. U rahbarlik faoliyatining yuragi bo‘lib, stressli sharoitlarda barqarorlikni saqlash, jamoani ruhlantirish va sog‘lom psixologik muhitni ta’minlashga xizmat qiladi. [1, 9]

Rahbarlarda emotsional intellektning shakllanishi bevosita ijtimoiy-psixologik mexanizmlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular shaxsning ijtimoiy tajribasi, empatiyasi, kommunikativ madaniyati, stressga bardoshliligi va o‘zini tahlil qila olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Mazkur mexanizmlar rahbarning boshqaruvdagi muvaffaqiyati, jamoaning ishonchi va tashkiliy barqarorlik

darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, rahbar shaxsida emotsional intellektni rivojlantirish masalasi nafaqat psixologik, balki ijtimoiy, axloqiy va boshqaruviy ahamiyat kasb etadi. Boshqaruv mahorati uning barcha uslublarini egallash, ulami to‘g‘ri baholab qo‘llash, har bir aniq vaziyatda eng samaralisini topish qobiliyatiga ega bo‘lishdan iboratdir. Bu jarayonni chuqur o‘rganish orqali rahbarlik madaniyatini yuksaltirish, jamoalarda insoniy qadriyatlar asosidagi boshqaruv tamoyillarini shakllantirish mumkin. Emotsional intellekt (EQ) shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini tushunish, boshqarish, va boshqalarninghis-tuyg‘ularini anglash va ularga mos ravishda javob berish qobiliyati sifatida ta'riflanadi. Butushuncha psixologiya fanining eng yangi yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllangan bo‘lib, insonning ijtimoiy va ruhiy rivojlanishiga, shuningdek, uning kundalik hayotdagimuvaffaqiyatiga ta'sir qiladi. Emotsional intellektning psixologik o‘ziga xosligini tushunish, uning inson psixikasida qanday ishlashini va shaxsiyat shakllanishiga qanday hissa qo‘shishinio‘rganishga yordam beradi. Emotsional intellektning psixologik xususiyati uning asosiykomponentlaridan kelib chiqadi. Bu komponentlar shaxsning o‘zini tushunish va boshqalar bilansamarali muloqot qilishga asoslangan, ularning har biri o‘zining psixologik o‘rinlari vaahamiyatiga ega.

O‘zini tushunish – bu o‘z his-tuyg‘ularini, ularning sabablarini, va ularniqanday boshqarishni anglashdir. Bu nafaqat hissiyotlarni tan olish, balki ularni sog‘lom vakonstrukktiv tarzda boshqarish hamdir. Psixologlar ta'kidlaydiganidek, o‘zini tushunish insongao‘zining kuchli va zaif tomonlarini, ehtiyojlarini va istaklarini chuqur anglashga yordam beradi. Bu jarayon psixoterapiya va shaxsiy rivojlanish uchun muhimdir, chunki shaxs o‘zini anglash orqali o‘z ichki dunyosini va ruhiy holatini boshqarishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, bu hissiyotlarni boshqarish va stressga qarshi chidamlilikni oshirishga xizmat qiladi.

Emotsionalintellektning ikkinchi komponenti – boshqalar bilan muvaffaqiyatli muloqot o‘rnatishdir. Buboshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish, ularga nisbatan empatiya ko‘rsatish va mos javoblarberish qobiliyatidir. Empatiya – bu insonning boshqa odamlarning ruhiy holatini anglash vaularga mos ravishda javob berish qobiliyatidir. Empatiya boshqa odamlarning hissiyotlarinitushunish va bu hissiyotlarga to‘g‘ri javob qaytarish orqali ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Psixologik nuqtai nazardan, empatiya jamiyatda o‘zaro tushunish

va o‘zarohurmatni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Emotsional intellektni psixologik jihatdan chuqurroq tahlil qilish, uning insonning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sirini ko‘rsatadi. Bujarayonning asosi sifatida quyidagi psixologik nazariyalar va tushunchalarni ko‘rib chiqish mumkin. Psixologik ilmda emotsiyalar va intellektning bir-biri bilan chambarchas bog‘liqekanligi ko‘rsatilgan. A. N. Leontev va L. S. Vigotskiy kabi olimlar emotsiyalarni tafakkur jarayonlarini shakllantiruvchi asosiy elementlardan biri sifatida tasvirlaganlar. Ularning fikrigako‘ra, hissiyotlar insonning fikrlash va qarorlar qabul qilish jarayonlariga bevosita ta'sir qiladi. Emotsional holatlarning ijobiy yoki salbiy bo‘lishi, shaxsning tafakkur faoliyatini, muammolarni yechish va stressni boshqarishni qanchalik samarali amalga oshirishini belgilaydi.

Emotsional intellekt rahbarning shaxsiy yetukligi, hissiy o‘zini boshqarish, ijtimoiy sezgirlik va empatiya qobiliyatlari orqali boshqaruv samaradorligini oshiradi. U rahbarga quyidagi imkoniyatlarni beradi: murakkab vaziyatlarda hissiy muvozanatni saqlash; jamoa a’zolarining kayfiyatini to‘g‘ri baholash; konstruktiv muloqotni tashkil etish; stressni boshqarish va nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish; jamoani ruhlantirish va motivatsiya berish.

Yuqori emotsional intellektga ega rahbar o‘zining ichki his-tuyg‘ularini anglab, ularni boshqarish orqali jamoa ichida ishonch, ochiqlik va barqarorlikni yaratadi. Bunday rahbarlar qaror qabul qilishda hissiyotdan emas, balki aql-idrokdan kelib chiqadi, shu bilan birga insoniy omilni inkor etmaydi. Rahbarlarda emotsional intellektni shakllantirish murakkab, lekin o‘zaro bog‘langan psixologik va ijtimoiy omillar orqali amalga oshadi. Quyida asosiy mexanizmlar tahlil qilinadi:

Shaxsning ijtimoiy muhitda faol ishtiroki, muloqot tajribasi va boshqalar bilan o‘zaro aloqalari emotsional sezgirlikni rivojlantiradi. Rahbar ijtimoiy tajriba orttirgan sari insonlarning his-tuyg‘ularini aniqlash, ularning ehtiyojlarini anglash qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bu esa uning boshqaruvdagi psixologik moslashuvchanligini kuchaytiradi. Empatiya rahbarlikning eng nozik, ammo eng zarur fazilatlaridan biridir. U boshqalar hissiyotiga hamdardlik bilan yondashish, ularning kayfiyatini his etish, shaxsiy ehtiyojlarini tushunish orqali jamoada ishonchli psixologik muhitni shakllantiradi. Empatiyasi kuchli rahbar jamoa bilan ruhiy uyg‘unlikda ishlaydi.

Rahbarning nutq ohangi, tana tili, tinglash qobiliyati, emotsional ifoda uslubi jamoaga kuchli psixologik ta’sir ko‘rsatadi. Yuqori kommunikativ madaniyat rahbarning emotsional intellektini tashqi ko‘rinishda namoyon qiladi. Shu bois muloqot madaniyatini rivojlantirish rahbar shaxsiy o‘sishining ajralmas qismidir.

Boshqaruv psixologiyasi - jamiyatda faoliyat ko‘rsatayotgan shaxslar, guruhlar va jamoalar o„rtasidagi ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan nazorat, baholash, munosabat qonuniyatlarini, rahbar faoliyati va xarakteri, qobiliyati xususiyatlarini tadqiq qiladigan ijtimoiy psixologiyaning sohasi. [2, 17] Boshqaruv jarayonida stress muqarrar hodisa bo‘lsa-da, emotsional intellekti yuqori rahbar uni ijobiy energiyaga aylantira oladi. Psixologik barqarorlik, sabr, muvozanat va ijobiy fikrlash stressning salbiy oqibatlarini kamaytiradi hamda jamoa faoliyatida tinchlikni ta’minlaydi.

Rahbarlarda emotsional intellektni shakllantirish tasodifiy emas, balki maqsadli o‘qitish, psixologik tayyorlash va amaliy mashg‘ulotlar orqali amalga oshadi. Bunda quyidagi omillar muhim:

- Psixologik treninglar: hissiy o‘zini boshqarish, muloqot psixologiyasi va stressni yengish mashg‘ulotlari;
- Kouching va mentorlik: tajribali rahbarlarning hissiy yondashuv asosida maslahat berish faoliyati;
- Jamoaviy faoliyat: hamkorlikda qaror qabul qilish, muammolarni tahlil qilish va o‘zaro fikr almashish orqali emotsional o‘sish;
- O‘zini rivojlantirish dasturlari: refleksiya, mindfulness, emotsional nazorat texnikalari, kitob o‘qish, san’at bilan shug‘ullanish.

Ushbu omillar rahbar shaxsining ijtimoiy-psixologik jihatdan yetuk, emotsional jihatdan barqaror va insonparvarlik tamoyillariga tayanadigan yetakchiga aylanishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, rahbarlarda emotsional intellektni shakllantirish ijtimoiy va psixologik jihatdan muhim jarayon bo‘lib, u boshqaruv samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biridir. Yuqori emotsional intellekt rahbarni nafaqat intellektual, balki hissiy jihatdan yetuk, o‘zini va boshqalarni anglay oladigan shaxsga aylantiradi. Ijtimoiy-psixologik mexanizmlar orqali rahbar o‘zida empatiya, hissiy nazorat, refleksiya va kommunikativ madaniyatni rivojlantiradi. Bu esa jamoada sog‘lom psixologik muhit, ishonch, hamkorlik va o‘zaro hurmatni

shakllantiradi. Shunday qilib, emotsional intellektni rivojlantirishni rahbar tayyorlash tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qarash zarur. Emotsional jihatdan yetuk, psixologik barqaror va insoniy qadriyatlarga tayanadigan rahbarlar jamiyatda barqaror boshqaruv tizimini yaratadi, bu esa har qanday tashkilotning muvaffaqiyat garovi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. X. A. Muxitdinov, A. A. Sobirov- “Boshqaruv nazariyasi”, darslik, Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2012, 9-bet.
2. U. Fayziyeva, N. Jumayev-UMUMIY PSIXOLOGIYA, Oliy va o‟rta maxsus vazirligi tomonidan oliy o‘quv yurtlarining 5210200 – Psixologiya (sport psixologiyasi) ta’lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan, Buxoro – 2021.
3. Murotmusaev K. B., Rizaeva Sh., Yuldashev Sh. E.., Leadership As an Effective Means inManagement Activities., Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences., 2022 y 135 p.
4. Karakulova U., O‘smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining psixologik o‘ziga xosligi. Международныйнаучно-образовательныйэлектронныйжурнал «ОбразованиеинаукавXXI века». 2021. 251
5. James C., Bore M., Zito S. Emotional Intelligence and Personality as Predictors of Psychological Well-Being. // J. : Journal of Psychoeducational Assessment, 2012. Vol. 30. Iss. 4. P. 425-438. / https://doi. org/10. 1177/0734282-912449448
6. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA'SIRNI O‘RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.
7. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в. (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIYINNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. https://nuzjournals. uz/index. php/yoiit/article/view/79 20.

8. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.

OLIY TA’LIM TALABALARIDA UCHRAYDIGAN PROKRASTINATSIYANING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Mashraboy Xalimova Vahidovna
Andijon davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi mudiri prof. (DSc).,
Kozimov Sayfulloh Maxammadjon o‘g‘li
Andijon davlat pedagogika instituti magistranti
kozimovsayfulloh@gmail. com

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda uchraydigan prokrastinatsiya xulqining asosiy psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, unda motivatsion yetishmovchilik, emotsional regulyatsiya, o‘zini boshqarishdagi qiyinchiliklar, vaqtni noto‘g‘ri rejalashtirish, tashvish va mukammallik kabi omillarning prokrastinatsiyaga ta’siri yoritiladi. Shu bilan birga, prokrastinatsiyaning psixologik mexanizmlarini chuqur o‘rganish ta’lim tizimidagi muammolarni aniqlash bilan birga, ularni bartaraf etishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Mazkur tadqiqot aynan shunday zaruriyatdan kelib chiqqan bo‘lib, talabalardagi kechiktirish xulqining ichki psixologik sabablarini aniqlash, ularning paydo bo‘lish dinamikasini tushuntirish va ushbu jarayonni kamaytirishga qaratilgan samarali strategiyalarni taklif etishni maqsad qiladi.

Kalit so‘zlar: prokrastinatsiya, talaba psixologiyasi, motivatsiya, emotsional regulyatsiya, o‘zini boshqarish, vaqtni boshqarish, tashvish, mukammallik.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ПРОКРАСТИНАЦИИ У СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация: В данной статье анализируются основные психологические механизмы прокрастинационного поведения у студентов.

Также освещается влияние таких факторов, как дефицит мотивации, эмоциональная регуляция, трудности с самоконтролем, плохое планирование времени, тревожность и перфекционизм, на прокрастинацию. Одновременно углубленное изучение психологических механизмов прокрастинации позволяет выявить проблемы в системе образования и разработать научно обоснованные подходы к их устранению. Данное исследование возникло из этой необходимости и направлено на выявление внутренних психологических причин прокрастинационного поведения у студентов, объяснение динамики их возникновения и предложение эффективных стратегий по снижению этого процесса.

Ключевые слова: прокрастинация, психология студентов, мотивация, эмоциональная регуляция, самоконтроль, управление временем, тревожность, перфекционизм.

PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF PROCRASTINATION IN HIGHER EDUCATION STUDENTS

Abstract: This article analyzes the main psychological mechanisms of procrastination behavior in students. It also highlights the impact of factors such as motivational deficits, emotional regulation, self-control difficulties, poor time planning, anxiety, and perfectionism on procrastination. At the same time, an in-depth study of the psychological mechanisms of procrastination allows us to identify problems in the education system and develop scientifically based approaches to eliminate them. This study arose from this need and aims to identify the internal psychological causes of procrastination behavior in students, explain the dynamics of their emergence, and propose effective strategies to reduce this process.

Keywords: procrastination, student psychology, motivation, emotional regulation, self-control, time management, anxiety, perfectionism.

Bugungi zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarning o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish masalasi psixologiya fanining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylangan. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv vazifalarini kechiktirish — ya’ni prokrastinatsiya — nafaqat shaxsiy intizom masalasi, balki murakkab psixologik mexanizmlar bilan bog‘liq bo‘lgan keng qamrovli hodisadir. Talabalarda kuzatiladigan prokrastinatsiya ko‘p omilli tabiatga ega bo‘lib, u motivatsiyaning pasayishi, emotsional zo‘riqish, o‘z-o‘zini nazorat

qilishdagi sustlik, ijtimoiy bosimlar va zamonaviy axborot oqimining haddan tashqari kuchayishi bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu omillar o‘zaro ta’sirlashgan holda o‘quv jarayonining sifatiga, akademik ko‘rsatkichlarga hamda talabaning psixologik farovonligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, prokrastinatsiyaning psixologik mexanizmlarini chuqur o‘rganish ta’lim tizimidagi muammolarni aniqlash bilan birga, ularni bartaraf etishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Mazkur tadqiqot aynan shunday zaruriyatdan kelib chiqqan bo‘lib, talabalardagi kechiktirish xulqining ichki psixologik sabablarini aniqlash, ularning paydo bo‘lish dinamikasini tushuntirish va ushbu jarayonni kamaytirishga qaratilgan samarali strategiyalarni taklif etishni maqsad qiladi.

Oliy ta’lim talabalarida kuzatiladigan prokrastinatsiya zamonaviy psixologiya ilmida bir yoqlama tushuntirib bo‘lmaydigan murakkab psixik holat sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotchilar ko‘pincha ushbu hodisani vaqtni noto‘g‘ri boshqarish yoki shaxsiy intizom yetishmovchiligiga tenglashtirib qo‘yishadi. Biroq empirik izlanishlar prokrastinatsiya tubida yanada chuqurroq psixologik mexanizmlar yotganini ko‘rsatmoqda. Talaba biror vazifani bajarmay kechiktirayotganda, bu faqat tashqi harakat emas — balki ichki kurash, kognitiv baholash, emotsional reaksiya va motivatsion ziddiyatlarning murakkab o‘zaro ta’siridir. Shuning uchun asosiy e’tibor aynan shu mexanizmlarni tushuntirishga qaratilishi lozim. Eng avvalo, prokrastinatsiyaning motivatsion jihati alohida o‘rin tutadi. O‘quv vazifalariga bo‘lgan ichki motivatsiya talabaning tanloviga bevosita ta’sir qiladigan asosiy drayverlardan biridir. Ichki rag‘bat past bo‘lganida, hatto oddiy vazifa ham ortiqcha zo‘riqish sifatida qabul qilinadi. Bu jarayonni Klingsiek[1] tomonidan ilgari surilgan o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi yaxshi sharhlab beradi: talaba o‘z faoliyatini shaxsiy qadriyatlar yoki maqsadlar bilan bog‘lay olmasa, o‘sha faoliyatning psixologik jozibasi pasayadi. Natijada, vazifa kechiktiriladi. Bu esa ko‘pincha “keyin qilaman” degan o‘zini ovutish mexanizmiga aylanadi. Talabalarning ko‘pchiligi aynan shu holatga tushadi: vazifa qiyin bo‘lgani uchun emas, balki uning mazmuni bilan shaxsiy maqsad o‘rtasida aniq bog‘lanish topa olmagani uchun undan qochishadi.

Prokrastinatsiyaning yana bir psixologik omili — bu emotsional regulyatsiya. Sirois[2] kechiktirishni emotsional boshqaruvning zaiflashuvi sifatida talqin qiladi. Talaba murakkab topshiriqni boshlashda o‘zida noqulaylik, xavotir

yoki muvaffaqiyatsizlik qo‘rquvini sezadi. Shunday paytda kechiktirish aynan shu salbiy hissiyotlardan qochishning qisqa muddatli strategiyasiga aylanadi. Ammo paradoks shundaki, vazifani kechiktirish orqali talaba vaqtincha yengillik his qilsada, vazifa muddati yaqinlashgani sayin emotsional bosim yanada kuchayadi. Bu holat “stress-tsikl”ni shakllantiradi: salbiy hissiyotdan qochish — vaqtinchalik yengillik — kuchaygan tashvish — yana qochish. Vujudadagi ushbu sikl o‘quv jarayonining barqarorligini izdan chiqaradi, shuningdek, o‘ziga bo‘lgan ishonchni pasaytiradi. Prokrastinatsiyaning kognitiv mexanizmlarini tahlil qilganda, shaxsning o‘z-o‘zini baholash va idrok jarayonlari alohida e’tiborga loyiq. Ba’zi talabalar vazifani bajarish jarayonini haddan tashqari dramatizatsiya qiladi yoki uni real holatdan ko‘ra og‘irroq deb tasavvur qiladi. Kognitiv buzilishlar — xususan, “hammasi mukammal bo‘lishi kerak” yoki “xato qilmaslik shart” kabi fikrlar — vazifaga psixologik yukni oshiradi. Natijada talaba vazifani boshlashdan o‘zini tiyadi, chunki u harakatni “mukammal boshlash” bilan tenglashtiradi. Mukammallik ehtiyoji bilan bog‘liq prokrastinatsiya ayniqsa yuqori intellektual talab qo‘yiladigan fanlarda ko‘p uchraydi. Talaba o‘zidan yuqori natijani kutgani sayin, vazifani boshlash bo‘yicha ichki qarshilik kuchayadi.

Psixologik mexanizmlarning yana biri — shaxsning o‘zini boshqarish qobiliyatlari. Vaqtni to‘g‘ri rejalashtirish, ustuvorliklarni belgilash, muvaffaqiyatni tasavvur qilish, impulslarni boshqarish kabi ko‘nikmalar yaxshi rivojlanmagan bo‘lsa, prokrastinatsiya ehtimoli yuqori bo‘ladi. [3,82] Ayniqsa, raqamli muhitning kuchaygan bir davrida talabalar chalg‘ituvchi stimullar bilan to‘qnash kelmoqda. Smartfon, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn kontent — bularning barchasi o‘quv jarayoniga raqobat dosh bera oladigan kuchli alternativ stimul sifatida namoyon bo‘ladi. Shaxsning o‘zini boshqarish mexanizmi sust bo‘lsa, bu chalg‘ituvchi omillar ustun keladi va kechiktirish odatiga aylanadi. Prokrastinatsiyada ijtimoiy-psixologik omillar roli ham kam emas. Talabalar o‘qiyotgan muhit, o‘qituvchi bilan bo‘lgan muloqot sifati, guruhdoshlar o‘rtasidagi raqobat yoki mbuyoqni baholash tizimi ham prokrastinatsiya darajasiga ta’sir qiladi. [4,198] Masalan, haddan tashqari tanqidiy munosabat hukmron bo‘lgan ta’lim muhitida talaba o‘z xatolaridan qo‘rqadi. Natijada, vazifani boshlashni kechiktiradi, chunki uning ongida “menga baribir past baho qo‘yishadi” degan xavotir mustahkamlanadi. Bunday holat ko‘pincha tashqi motivatsiya ustuvor bo‘lgan guruhlarda kuzatiladi. Aksincha, qo‘llab-quvvatlovchi va konstruktiv fikr almashinuvi mavjud bo‘lgan

muhitda talabaning kechiktirish ehtimoli pasayadi. Prokrastinatsiyaning yana bir psixologik mexanizmi — shaxsiy maqsadlar va kelajak tasavvurining ravshanligi. Talaba o‘z oldiga aniq va o‘lchab bo‘ladigan maqsad qo‘ya olmasa, o‘quv vazifalarining mazmuni unga parchalanib ketgan, bog‘lanmagan faoliyatlar sifatida ko‘rinadi. Natijada har bir vazifani boshlash alohida ruhiy kuch talab qiladi. Biroq maqsad aniq bo‘lsa, vazifalar o‘zaro mantiqiy zanjirga ulanadi va talaba ularni kengroq kontekstda ko‘ra boshlaydi. Badalova va Sirojova[5,145] Vizyonning mavjudligi motivatsiyani saqlab qoladi va prokrastinatsiya xatti-harakatlari kamayadi.

Oliy ta’lim talabalarida kuzatiladigan prokrastinatsiya ko‘pincha o‘ziga ishonch bilan ham bevosita bog‘liq. O‘z imkoniyatlariga past baho beradigan shaxslar murakkab vazifaga duch kelganda “baribir uddalay olmayman” degan fikr bilan ichki dialogni boshlaydi. [6,10] Bu dialog esa harakat o‘rniga kechiktirishga olib keladi. Vaqt o‘tishi bilan kechiktirish holatiga ayb hissi qo‘shiladi, bu esa yanada kuchliroq emotsional qarshilikka sabab bo‘ladi. Natijada, oddiy vazifa ham talaba uchun psixologik jihatdan og‘ir yukka aylanadi. Shuning uchun o‘ziga ishonchni rivojlantirish prokrastinatsiyani kamaytirishning muhim psixologik komponentidir. Prokrastinatsiyaning psixologik mexanizmlarini tushuntirish jarayonida stress va akademik charchoq ham muhim omil sifatida maydonga chiqadi. Doimiy yuklama, imtihonlar oralig‘ining qisqaligi, murakkab fanlar o‘rtasidagi tafovutlar talabaning resurs sarfini ko‘paytiradi. Resurslar kamayganda esa talaba yengillik beradigan faoliyatlarga o‘tishga moyil bo‘ladi. Bu holat qisqa muddatda ruhiy yengillik bersa-da, uzoq muddatda o‘quv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, akademik charchoq prokrastinatsiyani kuchaytiruvchi psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. [7]

Yuqoridagi mexanizmlar o‘zaro bog‘langan holda talaba xulqini shakllantiradi. Motivatsion bo‘shliq emotsional qiyinchiliklarni kuchaytiradi, kognitiv buzilishlar vazifaga nisbatan qo‘rquvni oshiradi, o‘zini boshqarishdagi sustlik kechiktirishga imkon yaratadi, ijtimoiy muhit esa bu jarayonni yoki kuchaytiradi, yoki yumshatadi. Prokrastinatsiyani tushunish uchun ushbu mexanizmlarni alohida emas, balki tizimli tarzda ko‘rib chiqish zarur. Chunki har bir komponent bir-birini to‘ldiradi va yakunda talabaning kechiktirish xulqi murakkab psixologik konstruksiyaga aylanadi. Prokrastinatsiyani kamaytirishga qaratilgan strategiyalar aynan shu mexanizmlar asosida ishlab chiqilishi lozim.

Ichki motivatsiyani rivojlantirish, emotsional regulyatsiyani mustahkamlash, vaqtni boshqarish texnikalarini o‘rgatish, o‘ziga nisbatan konstruktiv yondashuvni shakllantirish — bularning barchasi ilmiy asosga ega yondashuvlardir. Psixologik treninglar, metakognitiv mashg‘ulotlar, qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhiti, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi samarali muloqot — bu strategiyalarni amaliyotda tatbiq etish imkonini beradi. Shunday qilib, talabalarda kuzatiladigan prokrastinatsiya shunchaki o‘quv vazifasini kechiktirish emas, balki inson psixikasining bir nechta o‘zaro bog‘langan darajalarida kechadigan murakkab jarayondir. Ushbu jarayonni to‘liq anglash ta’lim jarayonida samaradorlikni oshirish va talabaning psixologik farovonligini ta’minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim talabalarida kuzatiladigan prokrastinatsiya hodisasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, kechiktirish xulqi birgina vaqtni boshqarishdagi sustlik natijasi emas, balki motivatsion, emotsional, kognitiv va ijtimoiy omillarning murakkab o‘zaro ta’siri mahsulidir. Tadqiqot davomida aniqlangan psixologik mexanizmlar prokrastinatsiya shaxsning ichki resurslari, o‘ziga nisbatan bahosi, o‘quv jarayoniga munosabati va uning atrof-muhit bilan aloqalari bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Talaba murakkab topshiriqni kechiktirayotganida, bunda ko‘pincha nafaqat vazifaning murakkabligi, balki muvaffaqiyatsizlikdan xavotir, mukammallikka intilishning haddan tashqari kuchayishi, emotsional zo‘riqish yoki shaxsiy maqsadlarning noaniqligi ham muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, prokrastinatsiya ko‘p hollarda qisqa muddatli emotsional yengillik berishi mumkin bo‘lsa-da, uzoq muddatda akademik samaradorlikni pasaytirishi, o‘ziga ishonchni susaytirishi va talabaning umumiy psixologik farovonligiga zarar yetkazishi aniqlanadi. Shu bois prokrastinatsiyani faqat xulq-atvor muammosi sifatida emas, balki talabaning psixologik holati, o‘z-o‘zini boshqarish darajasi va ta’lim muhitidagi psixologik iqlim bilan bog‘liq ko‘p qatlamli jarayon sifatida ko‘rib chiqish zarur. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, prokrastinatsiyani kamaytirishga qaratilgan samarali strategiyalar kompleks va individual yondashuvni talab qiladi. Ichki motivatsiyani kuchaytirish, maqsadlarni aniq belgilash, emotsional boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish, kognitiv buzilishlarni kamaytirish hamda qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini shakllantirish ushbu jarayonning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi. Sifatli muloqot,

konstruktiv fikr-mulohaza berish, talabaning o‘z salohiyatini anglashiga yordam berish prokrastinatsiya xavfini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

Umuman olganda, prokrastinatsiyani tushunish va uni samarali boshqarish talabaning nafaqat akademik natijalariga, balki uning shaxsiy o‘sishiga, psixologik barqarorligiga va kelajakdagi professional faoliyatiga ijobiy ta’sir qiladi. Ushbu mexanizmlarni chuqur tahlil qilish orqali ta’lim jarayonida nafaqat muammoni aniqlash, balki unga ilmiy asoslangan yechimlar taklif etish imkoniyati vujudga keladi. Shu bois, prokrastinatsiya masalasi nafaqat psixologlar, balki pedagoglar va ta’lim tashkilotchilari uchun ham dolzarb bo‘lib qoladi.

REFERENCES:

1. Klingsieck, K. B. (2013). Procrastination: When Good Things Don't Come to Those Who Wait. *European Psychologist, 18(1),* 24–34. https://econtent. hogrefe. com/doi/10. 1027/1016-9040/a000138

2. Sirois, F. M. (2023). Procrastination and Stress: A Conceptual Review of Why Context Matters. *International Journal of Environmental Research and Public Health, 20(6),* 5031. https://www. researchgate. net/publication/369223805_Procrastination_and_Stress_A_Conceptual_Review_of_Why_Context_Matters

3. Steele, P. (2007). The Nature of Procrastination: A Meta-Analytic and Theoretical Review of Quintessential Self-Regulatory Failure. *Psychological Bulletin, 133(1),* 65–94. https://pubmed. ncbi. nlm. nih. gov/17201571

4. Turinboyev B., Sodiqova N. B. The Impact of Procrastination on Students' Learning Efficiency and Methods to Overcome It // Образованиенаукаиинновационныеидеивмире, *75(1),* 196-202. https://scientific-jl. com/obr/article/view/4927

5. Badalova M. U., Sirojova N. I. Oliy ta’lim muassasalari talabalari “time management” ko‘nikmalari bilan ularning o‘quv yutuqlari o‘rtasidagi bog‘liqlik // PEDAGOGS, 84(1), 143–149. https://scientific-jl. com/ped/article/view/23303

6. Yuldasheva N. S., Karimova M. M. Psychological Factors in the Manifestation of Procrastination Among Students // *Ta’limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 43 (1),* 8-12. https://scientific-jl. com/trt/article/view/12720

7. https://doi. org/10. 55640/eijmrms-04-06-28

MILLIY YUKSALISH KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISHDA MA’RIFATNING O‘RNI

Har bir kishining o‘z Vataniga qoldirgan eng yaxshi boyligi, yaxshi tarbiyalangan farzandidir.
(Chingiz Aytmatov).

Qo‘qon universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) v. b dotsent
Mavlonov Ilxomjon Xolmirzayevich
kokand_university1977@gmail. com
https://orcid. org/ 0009-0005-5802-0172
tel: +998999921844
Qo‘qon universiteti Psixologiya ta’lim yo‘nalishi talabasi
Qayumova Muxlisaxon Anvarjon qizi
tel: +998917547088

Annotatsiya

Milliy yuksalish konsepsiyasini amalga oshirish jarayonida ma’rifatli avlodni tarbiyalash zarurati xususida davlatimiz rahbarining ta’lim tizimini isloh qilish masalalari ham alohida diqqat markazida turadi. Tezkor zamon talabidan kelib chiqib, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev yangicha fikrlaydigan, mas’uliyatli, tashabbuskor, ilg’or boshqaruv usullarini puxta o‘zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va tayyorlash bo‘yicha samarali tizim yaratilishini kechiktirib bo‘lmas vazifa etib belgiladi. Ushbu mavzu yuzasidan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida quyidagi fikrlarni ta’kidlab o‘tdilar: “Bugun kelgusi yil uchun reja va dasturlarimizni aniq belgilab olar ekanmiz, mustaqillik yillarida erishgan yutuqlarimizni yanada mustahkamlab, eng muxim va ustuvor sohalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratamiz”-deb ta’kidlab o‘tganligiga ham maqolada alohida fikr bildirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Demokratiya, Renessans, ma’rifat, ta’lim, Vatan, meros, konsepsiya, metodika, ma’naviyat, yuksalish.

Абстрактный

В процессе реализации концепции национального прогресса вопросы реформирования системы образования главы нашего государства также находятся в центре особого внимания, в связи с необходимостью воспитания просвещённого поколения. Исходя из насущных потребностей времени, глава государства Шавкат Мирзиёев поставил в качестве неотложной задачи создание эффективной системы отбора и подготовки новаторских, ответственных, инициативных, патриотичных, честных кадров, овладевших передовыми методами управления. В связи с этим Президент Шавкат Мирзиёев в своём Послании Олий Мажлису и народу Узбекистана подчеркнул следующие моменты: «Сегодня, чётко определив наши планы и программы на предстоящий год, мы ещё больше закрепим достижения, достигнутые за годы независимости, и уделим особое внимание развитию важнейших и приоритетных направлений», — также отмечается в статье.

Ключевые слова: Демократия, Возрождение, просвещение, образование, Родина, наследие, концепция, методология, духовность, возвышение.

Annotation

The issues of reforming the education system of the head of our state about the necessity to educate an enlightened generation are also in the focus of attention in the process of implementation of the concept of national development. In accordance with the requirements of the rapid time, the head of our state Shavkat Mirziyoyev has set an urgent task to create an effective system for the selection and training of innovative, responsible, enthusiastic, well-educated, patriotic and honest personnel. In his address to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan, President Shavkat Mirziyoyev said: “Today, as we clearly define our plans and programs for the following year, we will pay special attention to consolidating our achievements over the years of independence and developing the most important and priority areas. ” This is also specially mentioned in the article. In general, the healthy and harmonious development of the young generation, which will ensure its future, plays a crucial role in the development of any society.

Keywords: Democracy, Renaissance, enlightenment, education, Homeland, heritage, concept, methodology, spirituality, elevation.

Kirish. Jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda milliy yuksalish konsepsiyasini amalga oshirishning zaruriyati va istiqbollari bugungi kunda global o‘zgarishlar davrida uzluksiz ta’lim tizimi bilan bog’liq jarayon hisoblanadi. Shu sababli taraqqiyotning yangi bosqichida mamlakatda ta’lim-tarbiya masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Dunyoning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatish, o‘quv jarayoniga ilg’or xorijiy tajribalarni joriy etish, ayniqsa, istiqbolli ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalarida o‘qitish va ularning malakasini oshirish borasidagi ishlar bugungi kunning dolzarb masalasidir. Buning uchun, avvalombor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur bo‘ladi.

Maqsad va uni asoslash. Mazkur maqolani yozishdan maqsad biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g’oyat og’ir sharoitda ilm-ma’rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g’oyalarini dadil ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o‘rganishimiz lozim. Ularning ulug’ maqsadlar yo‘lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O‘zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi zarur”[1]. Buning uchun esa milliy yuksalish jarayonida “Buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g’oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlash” [2,20] asosiy vazifa qilib belgilanmoqda.

Maqolani yozishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28-yanvardagi 2022−2026- yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g’risida”gi PF-60-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 29- oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi PF-6097-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 26- martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 3- maydagi PQ-4307-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022- yil 22-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda boshqa chop etilgan ma’lumotlardan foydalanildi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Bugun mamlakatimiz demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish yo‘lidan sobitqadamlik bilan bormoqda. Barcha sohalardagi kabi ta’lim tizimini isloh qilish masalalari ham doimo prezidentimizning e’tibori markazida bo‘lib kelmoqda. Tezkor zamon talabidan kelib chiqib, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev yangicha fikrlaydigan, mas’uliyatli, tashabbuskor, ilg’or boshqaruv usullarini puxta o‘zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va tayyorlash bo‘yicha samarali tizim yaratilishini kechiktirib bo‘lmas vazifa etib belgiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida quyidagi fikrlarni ta’kidlab o‘tdilar: “Bugun kelgusi yil uchun reja va dasturlarimizni aniq belgilab olar ekanmiz, mustaqillik yillarida erishgan yutuqlarimizni yanada mustahkamlab, eng muxim va ustuvor sohalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratamiz, albatta Buyuk ajdodimiz Imom Moturidiy hazratlarining “Tiriklik xikmatini sog’liqda, deb bilgin”, degan chuqur ma’noli so‘zlari naqadar to‘g’ri ekanini hayotning o‘zi bugun qayta-qayta isbotlamaqda. Shu bois, mavjud imkoniyat va saloxiyatimiz, pandemiya davrida orttirgan tajribamiz hamda xorijdagi ilg’or yutuqlardan foydalanib, aholi salomatligini asrash va mustahkamlash borasidagi tub islohotlarni yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur. Bunda, aholi ayniqsa, yoshlarimiz o‘rtasida sog’lom turmush tarzini keng targ’ib etish eng ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lishi lozim.

Ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiy bundan qariyb yuz yil avval 1914 yilda “Oyna” jurnali orqali “Muhtaram yoshlarga murojaat” e’lon qilib, unda, jumladan, shunday degandi: “Muhtaram birodarlar! Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotib (maktab-tahrir) – taraqqiyning boshlang’ichi, madaniyat va saodatning darvozasidir. Har bir millat eng avval, makotibi ibtidoiysini (eski maktabini-tahrir) zamonga isloh etib ko‘payturmaguncha tarqqiy yo‘lig’a kirub madaniyatdan foydalanmas. Madaniyati hoziradan (zamonaviy madaniyatdan-tahrir) mahrum qolub, sanoye va ma’orif salohi ila (san’at va ma’rifat quroli bilan-tahrir) qurollanmagan millat esa, dunyoda rohat va saodat yuzini ko‘rolmas”, - degan edi.

Uning zamondoshi va izdoshi Abdulla Avloniy esa o‘zining “Turkiy Guliston yohud ahloq” asarida:

Bu zamonda fil ila aylamak erlik emas,
Er o‘shaldurkim tutar ilm-u hunarning yoqasin.

Beshlab, o‘nlab so‘m topishsa, ilm ila ag’yorlar,
Biz bo‘lib hammol, olodurmiz tiyinlab chaqasin.
Boshqalar san’at, tijorat-la taraqqiy aylasa,
Bizni el tortar ayog’din o‘lgan otning taqasin –
deya kuyinib yozgan.

Yuqoridagi tarixiy misollarni keltirishdan ko‘zlangan maqsad, u yoki bu mamlakatning hozirgi darajasi, kelajakdagi taqdiri o‘sha yurtdagi maktablarning holiga, u yerda beriladigan ta’lim va tarbiyaning mazmuni hamda sifatiga chambarchas bog’liqdir. Zero, bugunning va ertaning egalari ayni shu ilm dargohlarida voyaga yetadi, inson bo‘lib shakllanadi.

Birinchi prezidentimiz ta’lim va tarbiyaning o‘zaro mustahkam bog’liqligini, ularni bir – biridan ajratish aslo mumkin emasligini alohida ta’kidlaydi: “Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”.

Binobarin, yaxshi tarbiya natijasida har bir inson sof vijdoni, baquvvat imoni, qat’iy irodasi, chuqur bilimi, tadbirkorligi, kasb – hunari, umuman olganda, insoniylik saloxiyati bilan Vatan tuyg’usini chuqur anglashi, Vatanini sevishi, himoyalashi, uning ravnaqiga xissa qo‘shishi bilan vatanparvar hisoblanadi. Chunonchi, Vatan ozodligi millatning shon – shuhrati uchun fidoiylik bilan kurashgan To‘maris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Solihbek dodho, mulla

Alimqul dodho singari sheryuraklar va tomirida oxirgi tomchi qoni qolguncha kurashgan Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Abdumalik To‘ra, Qurbonjon dodho, Madaminbek, Ibrohimbek singari bahodirlarimiz bilan har qancha g’ururlansak arziydi. Shuningdek, XX asrning 10-yillaridan millat ozodligi yo‘lida, xalqni uyg’otishga, ular qalbiga istiqlol orzusini payvand etishga kirishgan Munavvar qori, Fitrat, Behbudiy, Cho‘lpon, A. Avloniy, A. Qodiriy kabi millatparvar jadidchilik harakati namoyandalari millat ozodligi va erki yo‘lida fidoiylik na’munasini ko‘rsatganlar.

Xususan, A. Avloniyning “Millatga xitob” she’rida quyidagi misralarni o‘qiymiz:

Ko‘zingni och, ey millat, ko‘p zamon g’ofil yotding,
Umring o‘tdi yotmoqda, qayg’uga toza botding.

Yoki Shiroq va To‘marisning mardlik, qahramonliklari beqiyos saboqdir. Ulug’ bobomiz sohibqiron Amir Temur hazratlarining ona-Vatanni chet ellik

bosqinchilar zulmidan halos etishi, Vatan qudratini oshirish uchun tadbirkorlik bilan olib borgan jangu jadallaridagi afsonaviy jasoratlari, temuriyzoda Bobur Mirzoning o‘zi tug’ilib o‘sgan Vatanidan ayriliqda bir dunyo afsusu nadomatlar ila bitgan:

Tole’ yo‘qi jonimga balolig’ bo‘ldi,
Har ishniki, ayladim, xatolig’ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib, Hind sari yuzlandim,
Yo rab! Netayin, ne yuz qarolig’ bo‘ldi?

kabi dardli satrlari har bir o‘quvchi qalbida Vatanga boqiy muhabbat tuyg’usini tarbiyalashi shubhasizdir. Aziz Vatanimizda yuksak e’tiqod bilan yashash, ona-yurtga hamisha sadoqatli bo‘lish, xalqimizning boy ma’naviy merosi, urf-odat, an’analari, til va madaniyatiga hurmat bilan qarash, yurtimiz tarixini muttasil o‘rganib borish Vatan tuyg’usini shakllantiradi.

Bu tuyg’uni xis etishlik esa, avvalo, o‘zlikni anglash bilan ifodalanadi. O‘zbek xalqi tarixan boy madaniyatga ega. Milliy madaniyatimizni va ma’naviyatimizni hatto chet el bosqinchilari ham katta kuch bilan yo‘q qila olmaganlar. Chunonchi, bu haqda Turkiston bosqini tashkilotchisi Skobelev o‘z podshohiga yozgan maktubida “Mahalliy xalq biz o‘ylagandan ko‘ra madaniyatli ekan. Ularni bo‘ysundira olmayapmiz.. . Bu xalqni o‘tmishida yaratgan barcha asori-atiqalarini, masjidu-madrasalarini, diniy kitoblarini yer bilan yakson qilibgina, uning ma’naviyatini so‘ndiribgina o‘z qanotimiz ostiga olishimiz mumkin ”, deb yozgan edi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev raisligida 2019-yil 23-avgust kuni bo‘lib o‘tgan xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag’ishlangan videoselektor yig’ilishida ta’lim va tarbiyaning ahamiyati haqida o‘z fikrlarini bildirdi. Mazkur yig’ilishda davlatimiz rahbari yosh avlod tarbiyasi, odob-ahloq haqida to‘xtalib: “Maktab- bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Bu masalani davlat, hukumat va hokimlarning o‘zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak. Maktabni o‘zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o‘zgartirib bo‘lmaydi”, -deya alohida ta’kidladi.

Darhaqiqat, uzoq yillar davomida tarbiya bolalar ta’limdan bo‘sh vaqtida amalga oshiriladigan qo‘shimcha yuklama-ikkinchi darajali ishga aylanib uzuq-yuluq jarayon bo‘lib kelganligi hamda jamiyatning pedagogik madaniyati pasayib,

maktabgacha ta’lim, maktab pedagoglari, ota-onalarning tarbiyaga oid pedagogik-psixalogig bilimlari zamon talablariga javob bermay qoldi. Tarbiyada yo‘l qo‘yilgan hatolar asoratlari kundalik hayotda, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinib jamoatchilikning haqli e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda. Shunday bir vaziyatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining: “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g’risida”gi 1059-sonli qarorining chiqishi bu millat kelajagi, millat ma’naviy taraqqiyoti uchun bir o‘ziga xos tarixiy voqelik bo‘ldi.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi o‘zida dunyo pedagogik tajribasi va yutuqlarini mujassam etganligi alohida ta’kidlanadi. Jumladan, Yevropa Ittifoqining tarbiyaviy tavsiyalari, AQSH tajribasidan shaxs erkinligi, tadbirkorlik, muvaffaqiyatga erishishga intilish, Janubiy Koreyada yoshlar ongiga urf-odatlar, ahloqiy ideallarni singdirish, Yaponiyaning “xarakterni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim”, Xitoyning yaxshilik, to‘g’rilik, poklik, donolik va ishonchlilik kabi fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan pedagogik tajribalari o‘rganilgan. Konsepsiyada O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar va uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetentsiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish ishiga katta ahamiyat berilgan. Bunda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta mahsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy pedagogik hamkorligi yangi darajaga ko‘tariladi.

Konsepsiya oldiga qo‘yilgan vazifalar:

- ma’naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;
- tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tadbiq etish;
- uzluksiz tarbiya tizimida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg’or yutuqlaridan samarali foydalanish;

- tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;
- oila, ta’lim muassasalari va mahalla, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo‘lga qo‘yish;
- ma’naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishdan iborat.

Shuningdek, prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasidagi quyidagi o‘rinlarni keltirib o‘tish joiz: “Bir so‘z bilan aytganda, bola tug’ilgandan boshlab 30 yoshgacha bo‘lgan davrda uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o‘rin topishi uchun ko‘mak beradigan yaxlit va uzluksiz tizim yaratiladi. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o‘n, yuz barobar ko‘p foyda keltiradi.

Yoshlikdagi qalbning musaffoligini saqlash, uni imon va ilm-u ma’rifat nuri bilan to‘ldirish uchun eng qulay fursatdir. Shunday ekan, biz muhtaram yurtboshimizning ta’birlari bilan aytganda: Farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda Imom Buxoriy to‘plagan hadislar, Naqshbandiy ta’limoti, Termiziy o‘gitlari, Yassaviy hikmatlari asosida tarbiya qilishimiz lozim.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, bugungi kunda mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, birinchi navbatda, yoshlarga, ularning amaliy faoliyatiga, ahloqiy barkamolligiga, g’oyaviy-siyosiy yetukligiga, milliy o‘zligini qanchalik chuqur va mukammal anglab olganliklariga ham bevosita bog’liq ekani shubhasizdir. Ayni paytda, jamiyatimizda yoshlarga yanada keng yo‘l ochish, ularning davlat va xalq hayotida mustahkam va munosib joy olishi uchun kerak bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratib berish bu yo‘ldagi asosiy va dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Birinchidan, bugun zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallash har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi shartiga aylanib bormoqda. Shuning uchun navqiron avlodni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan barkamol bo‘lib voyaga yetishi uchun bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etadigan davr keldi.

Ikkinchidan, mamlakatimiz taraqqiyoti uchun mayoq bo‘layotgan yangi taraqqiyot strategiyasi doirasida xalq manfaatlariga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Uchinchidan, “Yangi O‘zbekiston-yangicha dunyoqarash” kabi yoshlarni birlashtira olish imkoniyatiga ega bo‘lgan ma’naviy-ma’rifiy targ’ibotlar yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan innovatsion ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni o‘rni katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

To‘rtinchidan, mamlakat taraqqiyotining asosiy shartlaridan biri jamiyatni ma’rifatli kishilar salmog’ining ko‘pligidir. Chunki ma’rifatli shaxslar ma’naviy qaramlik, qo‘rquv va hadikni bartaraf qila olish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Beshinchidan, O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida odamlar ongi va dunyoqarashida o‘zgarish yasash zarurligiga katta e’tibor berib kelinmoqda. Bunda uzluksiz ta’limni tubdan isloh qilish, o‘qish va o‘qitish uslubini jahonning ilg’or tajribalari asosida yangidan ishlab chiqish va shu asosda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish ma’rifiy sohadagi eng dolzarb vazifalardan biridir. Bu esa, hozirgi davrda ma’naviy-ma’rifiy ishlar yo‘nalishi har bir kishi ongi va qalbiga milliy g’oyani singdirish, barkamol avlodni voyaga yetkazish, ezgulik kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017. - Б. 80.

2. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида /Расмий нашр/ - Тошкент: Адолат. 2017. – Б. 112.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 март «Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ПҚ-5040-сон Қарори.

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти 2017 йил 8 сентябрь «Ўзбекистон Республикасида Маъмурий ислоҳотлар концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ- 5185-сон Фармони.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» ПФ-5847-сонли Фармони

6. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Жилд 1. – Тошкент: Ўзбекистон. 2017. –Б 592.

O‘ZBEKISTON UNIVERSITETLARIDA INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO‘NIKMASINI YAXSHILASHDA GEMIFIKATSIYA: EKSPERIMENTAL TADQIQOT

Joemar T. Minoza
Assistant Professor, Cebu Technological University-Consolacion Cebu, Philippines
e-mail: joemar. minoza@ctu. edu. ph
+63 943 288 6619
Bobur Suyunov
Head of Department, Lecturer, Narpay foreign languages faculty, Samarkand State Institute of Foreign Languages, Samarkand, Uzbekistan
Independent researcher, Uzbekistan National Pedagogical University Tashkent, Uzbekistan
E-mail: bobur. suyunov. 95@gmail. com
+998979130403
Doston Pirnazarov
Lecturer, Narpay foreign languages faculty, Samarkand State Institute of Foreign Languages, Samarkand, Uzbekistan
E-mail: dostonpirnazarov124@gmail. com
+998507055524

Annotatsiya. Gemifikatsiya dunyo miqyosida ikkinchi tilni o‘rganishda motivatsiya, qiziqish va natijalarni oshiruvchi innovatsion yondashuv sifatida paydo bo‘ldi. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida talabalarining ingliz tilida og‘zaki nutq malakasini oshirish 2012-yildagi Prezidentning PQ-1875-sonli qaroriga muvofiq milliy ustuvor vazifa hisoblanadi. Ushbu qaror kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga alohida e’tibor beradi. Ushbu tadqiqotda

O‘zbekiston universitetlarida tahsil olayotgan ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganayotgan bakalavr talabalarining umumiy og‘zaki nutq kompetensiyasini yaxshilashda gemifikatsiyalangan ta’limning samaradorligi o‘rganildi. 120 nafar 1- va 2-kurs talabalari bilan kvazi-tajriba usulida tadqiqot o‘tkazilib, ular tajriba guruhi (gemifikatsiyalangan ta’lim) va nazorat guruhi (an’anaviy ta’lim)ga bo‘lindi. Ma’lumotlar oldindan va keyin o‘tkazilgan og‘zaki testlar, so‘rovnomalar, dars kuzatuvlari va suhbatlar orqali to‘plandi.

Natijalar tajriba guruhidagi talabalarda ravonlik, aniqlik, talaffuz va o‘zaro muloqot ko‘nikmalarida sezilarli yaxshilanishni ko‘rsatdi. Tadqiqot shuni tasdiqladiki, motivatsion va kommunikativ nazariyalarga asoslangan gemifikatsiya tizimli qayta aloqa va CEFR darajalariga mos faoliyatlar bilan birgalikda ishlatilganda og‘zaki nutq samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. O‘zbekiston universitetlarida o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, o‘qituvchilarni tayyorlash va texnologiyalarni integratsiya qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar: gemifikatsiya, ingliz tilida og‘zaki nutq kompetensiyasi, oliy ta’lim, xorijiy til sifatida ingliz tili ta’limi, kommunikativ ko‘nikmalar

ГЕЙМИФИКАЦИЯ ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ НАВЫКОВ УСТНОЙ РЕЧИ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ В УНИВЕРСИТЕТАХ УЗБЕКИСТАНА: ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ

Аннотация. Геймификация стала инновационным подходом мирового уровня, повышающим мотивацию, вовлечённость и результаты в изучении второго языка. В контексте высшего образования Узбекистана совершенствование устной речевой компетенции студентов на английском языке остаётся национальным приоритетом в соответствии с Указом Президента РУз № ПК-1875 от 2012 года, делающим акцент на развитии коммуникативной компетенции. Настоящее исследование посвящено изучению эффективности геймифицированного обучения в повышении общей устной речевой компетенции студентов-бакалавров, изучающих английский язык как иностранный в вузах Узбекистана. Был реализован квазиэкспериментальный дизайн с участием 120 студентов первого и второго курсов, разделённых на экспериментальную (геймифицированное обучение) и контрольную (традиционное обучение) группы. Данные собирались с помощью пред- и посттестов устной речи, анкетирования, наблюдений за уроками и интервью.

Результаты показали значительное улучшение беглости, точности, произношения и навыков взаимодействия у студентов экспериментальной группы. Выводы свидетельствуют, что геймификация, основанная на мотивационных и коммуникативных теориях, способна существенно повысить эффективность устной речи при интеграции со структурированной обратной связью и заданиями, соответствующими уровням CEFR. Обсуждаются практические рекомендации по разработке учебных программ, подготовке преподавателей и внедрению технологий в университетах Узбекистана.

Ключевые слова: геймификация, устная речевая компетенция на английском языке, высшее образование, преподавание английского как иностранного, коммуникативные навыки

GAMIFICATION TO IMPROVE ENGLISH SPEAKING SKILLS IN UZBEKISTAN UNIVERSITIES: AN EXPERIMENTAL STUDY

Annotation. Gamification has emerged globally as an innovative approach that enhances motivation, engagement, and performance in second language acquisition. In Uzbekistan’s higher education context, improving students’ English-speaking competence remains a national priority following the Presidential Decree PQ-1875 (2012), which emphasizes communicative competence development. This study investigates the effectiveness of gamified instruction on improving overall speaking competence among undergraduate EFL learners at Uzbekistan universities. A quasi-experimental design was implemented with 120 first- and second-year students assigned to experimental (gamified instruction) and control (traditional instruction) groups. Data were collected through pre- and post-speaking tests, surveys, classroom observations, and interviews. Results showed significant improvement in fluency, accuracy, pronunciation, and interaction skills among students in the experimental group. Findings indicate that gamification, grounded in motivational and communicative theories, can significantly enhance speaking performance when integrated with structured feedback and CEFR-aligned activities. Implications for curriculum design, teacher training, and technology integration in Uzbekistan universities are discussed.

Keywords: gamification, English speaking competence, higher education, EFL instruction, communicative skills

INTRODUCTION

Developing English speaking competence has become a strategic objective for Uzbekistan's higher education system, especially after the implementation of the national foreign language reforms (PQ-1875, 2012). Despite curriculum modernization, university students continue to demonstrate limited speaking proficiency due to insufficient communicative exposure, traditional teaching methods, and low learner motivation [Rakhmatullaeva, 2020]. Gamification-defined as the application of game-design elements in non-game contexts-has emerged as an effective technique to foster engagement and improve language skills [Deterding et al., 2011]. In Uzbekistan, gamification aligns with contemporary pedagogical models promoted by local scholars. Saydahmedov (2013) emphasizes that interactive and motivationally rich environments enhance language learning outcomes. Likewise, Azizxo'jayeva (2007) argues that student-centered strategies are essential for building communicative competence in EFL contexts. However, empirical evidence on the effectiveness of gamification for improving **speaking skills** at the university level in Uzbekistan remains scarce.

This study examines the impact of gamified speaking activities on overall English-speaking competence-fluency, accuracy, pronunciation, interaction skills-among undergraduate students.

Research Questions

1. Does gamification significantly improve students' English-speaking competence compared to traditional instruction?
2. Which components of speaking (fluency, accuracy, pronunciation, interaction) are most positively affected by gamification?
3. How do students perceive gamified instruction in terms of motivation and speaking confidence?

Literature Review. Studies in Uzbekistan indicate that EFL learners often struggle with speaking due to limited exposure, translation-based methods, and insufficient interactive practice [To'xtaxo'jayeva, 2014]. Rakhmatullaeva (2020) notes that many speaking classes rely heavily on scripted dialogues rather than spontaneous communication. The CEFR-aligned curriculum introduced by the Ministry of Higher and Secondary Specialized Education (MHSSE, 2013) emphasizes fluency, interaction, and pragmatic competence, yet classroom practice has been slow to adapt. Gamification uses elements such as points, badges, leaderboards, missions, and role-play. Global research shows that gamification

increases participation, reduces anxiety, and enhances speaking performance [Vandercruysse et al., 2020]. Uzbek researchers [Atayeva, 2019; Ganiyeva, 2021] also report that gamified tasks significantly enhance student motivation and active participation in English classes.

Gamification draws on:

- **Self-Determination Theory [Deci & Ryan, 2000]:** intrinsic motivation increases with autonomy, challenge, and feedback.
- **Communicative Language Teaching:** interaction and meaningful communication are key to developing speaking competence [Hymes, 1972].
- **Activity Theory [Saydahmedov, 2013]:** learning is strengthened through active participation and purposeful tasks.

METHODOLOGY

Research Design

A **quasi-experimental mixed-methods design** was used. Two intact groups at two universities were assigned to:

- **Experimental group (n = 60):** gamified instruction
- **Control group (n = 60):** traditional speaking instruction

Duration: **12 weeks** (3 sessions per week).

Participants

120 undergraduate students (ages 18–21) from:

- Uzbekistan State World Languages University (UzSWLU)
- Tashkent State University of Economics (TSUE)

All participants had CEFR B1–B2 level proficiency.



Instruments

- **Speaking Test (CEFR-aligned)** covering fluency, accuracy, pronunciation, interaction
- **Observation checklist** (adapted from Rakhmatullaeva, 2020)
- **Student perception survey**
- **Semi-structured interviews**

Rubric reliability: **Cronbach α = 0. 87**.

Intervention

The experimental group was instructed using:

- Points, badges, leaderboards
- Speaking missions (debates, role-play)
- Team challenges
- “Vocabulary Quest, ” “Grammar Race, ” “Speed Speaking”
- Mobile apps: Quizizz, ClassPoint, British Council Games

Control group used textbook-based activities and teacher-led discussions.



RESULTS

Pretest Equivalence

Mean speaking scores (out of 40):

- **Experimental group:** M = 18. 6 (SD = 4. 2)
- **Control group:** M = 18. 9 (SD = 4. 1)

No significant difference (t(118) = -0. 37, p = 0. 71)

Posttest Performance

- **Experimental group:** M = 28. 4 (SD = 3. 9)
- **Control group:** M = 22. 1 (SD = 4. 4)

Independent-samples t-test: **t(118) = 8. 24, p < 0. 001**



Component-wise improvement

Component	Experimental Pre	Experimental Post	Control Pre	Control Post
Fluency	4. 6	7. 8	4. 7	5. 5
Accuracy	4. 4	6. 9	4. 3	5. 0
Pronunciation	4. 8	6. 7	4. 9	5. 2
Interaction Skills	4. 8	7. 0	5. 0	5. 4

Gamification had the strongest impact on **fluency and interaction skills**, consistent with communicative theory.

Survey Findings

- 84% reported increased motivation
- 79% felt more confident speaking
- 73% said gamification reduced anxiety
- 88% preferred team-based challenges

Qualitative Insights

Students reported:

- Increased willingness to speak
- Reduced fear of mistakes
- Better vocabulary retention

Teachers observed:

- Higher participation
- Stronger peer support
- More spontaneous communication

ANALYSIS AND DISCUSSION

Gamification significantly improved all components of students' speaking performance, supporting the findings of Atayeva (2019), who emphasizes that game-based techniques increase learner engagement and participation in foreign language classrooms. The substantial gains observed in fluency and interaction skills suggest that gamified speaking tasks foster more spontaneous and natural communication. This improvement is particularly important in the Uzbek EFL context, where learners often struggle to engage in unscripted speaking due to limited communicative practice and a long-standing focus on accuracy over

fluency [To‘xtaxo‘jayeva, 2014]. Through game-based challenges, role-play missions, and competitive speaking tasks, students in the experimental group were encouraged to speak more frequently, negotiate meaning, and respond spontaneously-behaviors that traditional classroom formats rarely stimulate. The survey results further align with the principles of Self-Determination Theory (SDT), which highlights autonomy, competence, and relatedness as critical drivers of intrinsic motivation. Gamification contributed to autonomy by allowing students to make choices within game tasks; to competence by enabling them to track their progress through points, badges, and levels; and to relatedness by promoting teamwork and peer collaboration. These elements collectively fostered higher motivation, as reported by the majority of participants. Many students also indicated a noticeable reduction in speaking anxiety, which remains a common barrier in Uzbek EFL settings. This finding confirms Rakhmatullaeva’s (2020) observations that affective factors-such as fear of making mistakes, low confidence, and stress-often hinder oral communication. Gamified activities appeared to create a psychologically safer space, where students felt comfortable taking risks and practicing speaking without excessive fear of negative evaluation. Additionally, the integration of gamification aligns well with CEFR-oriented communicative standards mandated by the Presidential Decree PQ-1875 (2012), which calls for a shift from grammar-dominant teaching toward communicative, learner-centered instruction. Gamified tasks inherently prioritize communication, interaction, and meaningful language use, making them consistent with CEFR descriptors for spoken production and spoken interaction. The approach also resonates with the pedagogical innovations advocated by Uzbek scholars such as Azizxo‘jayeva (2007), who emphasizes the importance of creativity and active learning, and Saydahmedov (2013), who highlights the role of interactive technologies and motivational strategies in modern education. Despite the positive outcomes, several challenges were identified. First, teachers need targeted training to effectively design and implement gamified learning environments. Without proper methodological preparation, instructors may struggle to integrate game elements meaningfully rather than superficially. Second, some students tended to prioritize earning points or winning competitions instead of focusing on developing their linguistic skills, suggesting that gamification must be carefully structured to keep learning goals at the center. Finally, infrastructure limitations

remain a barrier, especially in regional universities where access to stable internet, digital devices, and interactive platforms is inconsistent. Addressing these issues is essential for ensuring that gamification can be implemented equitably and sustainably across all higher education institutions in Uzbekistan.

CONCLUSION

The findings of this study demonstrate that gamification is a highly effective pedagogical approach for enhancing English-speaking competence among undergraduate students in Uzbekistan. Across all components of speaking-fluency, accuracy, pronunciation, and interaction skills-the experimental group significantly outperformed the control group, confirming that game-based techniques create a more communicative and motivational learning environment. The notable gains in fluency and interaction skills highlight that gamification encourages spontaneous language use, which remains a persistent weakness in traditional Uzbek EFL classrooms. These results reinforce earlier conclusions by Uzbek researchers such as Atayeva (2019) and Ganiyeva (2021), while also supporting international research on the positive influence of gamified learning on student engagement and oral communication.

The findings on learner motivation further underscore the pedagogical relevance of gamification. Students reported greater confidence, reduced anxiety, and stronger willingness to participate in speaking tasks-outcomes that align with Self-Determination Theory (Deci & Ryan, 2000) and echo the observations of Rakhmatullaeva (2020) regarding the central role of affective factors in speaking performance. Gamified tasks promoted autonomy, challenge, and collaboration, enabling learners to engage with English more meaningfully and with higher intrinsic motivation. Importantly, these results support the goals of national foreign language reforms and CEFR-oriented standards introduced through PQ-1875 (2012), which call for communicative, student-centered instruction across all levels of education. At the same time, the study identifies several practical considerations for successful implementation. Teachers require methodological training to design pedagogically grounded gamified tasks rather than relying on superficial game elements. Institutional support is also necessary to address technological limitations, particularly in regional universities where digital infrastructure may be insufficient. Furthermore, gamification should be implemented thoughtfully to prevent students from becoming overly focused on points or competition at the

expense of learning objectives. Overall, the study contributes valuable empirical evidence to the limited body of Uzbek research on gamification in higher education. It demonstrates that when implemented systematically and purposefully, gamification can significantly enhance speaking competence, foster communicative interaction, and strengthen student motivation. These findings suggest that integrating gamified strategies into university curricula can play an important role in advancing Uzbekistan’s ongoing efforts to modernize English language education and develop learners’ communicative competence in line with international standards.

REFERENCES

1. Azizxo‘jayeva, N. N. (2007). *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.* Tashkent: TDPU.
2. Saydahmedov, N. (2013). *Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar.* Tashkent: “Fan”.
3. Rakhmatullaeva, D. (2020). Developing speaking competence in Uzbek EFL classrooms. *Oliy ta’lim*, 6(1), 45–52.
4. To‘xtaxo‘jayeva, M. (2014). Communicative approach in teaching English in Uzbekistan universities. *Til va adabiyot ta’limi*, 3(2), 12–18.
5. Atayeva, N. (2019). Gamification as a modern tool in foreign language teaching. *Innovatsion ta’lim*, 2(4), 34–40.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori PQ-1875. (2012). *Xorijiy tillarni o‘qitishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida.*
7. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. (2013). *CEFR talablari asosida o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha metodik qo‘llanma.*
8. Ganiyeva, M. (2021). Interactive digital tools in EFL classes in Uzbekistan. *Filologiya masalalari*, 5(1), 88–95.
9. Deterding, S., et al. (2011). From game design to gamification. *CHI Conference Proceedings.*
10. Deci, E., & Ryan, R. (2000). *Self-Determination Theory.*
11. Vandercruysse, S., et al. (2020). Gamification and L2 learning outcomes. *Language Teaching Research*, 24(3).

12. Hymes, D. (1972). Communicative competence. In *Sociolinguistics*.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA FOLKLOR ASARLARINI O‘QITISHDA FANLARARO INTEGRATSIYANING O‘RNI

Namunaxon Tursunova Xaydarali qizi,
Qo‘qon universiteti filologiya kafedrasi dotsent v. b
Xonzoda Muhammadjonova Nasimbek qizi,
Qo‘qon universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida xalq og‘zaki ijodining qadimiy janrlaridan biri bo‘lgan topishmoqlarni Adabiyot va Matematika fanlari integratsiyasi asosida o‘qitishning nazariy hamda metodik asoslari yoritiladi. Topishmoqlarning metaforik mazmuni, obrazlar tizimi, matematik kategoriyalar (miqdor, shakl, o‘lcham, fazoviy tasavvur) bilan bog‘liqligi ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchilarning matematik tafakkuri va badiiy-mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan amaliy mashqlar va metodik tavsiyalar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: topishmoqlar, xalq og‘zaki ijodi, integratsiya, adabiyot va matematika, metaforik mazmun, badiiy obraz, matematik kategoriya, miqdor, shakl, o‘lcham, fazoviy tasavvur, metodika, mantiqiy fikrlash, matematik tafakkur.

Annotation

This article examines the theoretical and methodological foundations of teaching riddles—one of the ancient genres of folk oral literature—through the integration of Literature and Mathematics in general secondary education schools. It provides a scientific analysis of the metaphorical content of riddles, their system of imagery, and their relationship with mathematical categories such as quantity, shape, size, and spatial perception. The article also offers integrated practical exercises and methodological recommendations aimed at developing students’ mathematical thinking as well as their artistic and logical reasoning skills.

Keywords: riddles, folklore, integration, literature and mathematics, metaphorical meaning, artistic imagery, mathematical categories, quantity, shape, size, spatial perception, methodology, logical thinking, mathematical reasoning.

Аннотация

В данной статье раскрываются теоретические и методические основы преподавания загадок — одного из древнейших жанров народного устного творчества — на основе интеграции предметов «Литература» и «Математика» в общеобразовательных школах. Проводится научный анализ метафорического содержания загадок, системы образов, а также их связи с математическими категориями (количество, форма, размер, пространственное воображение). В статье предлагаются интегрированные практические упражнения и методические рекомендации, направленные на развитие у учащихся математического мышления, художественно-логического восприятия и способности к рассуждению.

Ключевые слова: загадки, народное устное творчество, интеграция, литература и математика, метафорическое содержание, художественный образ, математические категории, количество, форма, размер, пространственное воображение, методика, логическое мышление, математическое мышление.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida fanlararo integratsiya konsepsiyasi o‘quvchilar bilimini yaxlit holda shakllantirishning eng samarali pedagogic texnologiyalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xalq og‘zaki ijodi — millatning ruhiyati, ma’naviyati va tarixiy xotirasi mujassam bo‘lgan noyob boylikdir. Bugungi kunda fanlarni alohida-alohida emas, balki ularning o‘zaro bog‘liq jihatlarini uyg‘unlashtirgan holda o‘rganish o‘quvchi tafakkurining chuqur, tizimli shakllanishini ta’minlaydi. Xalq og‘zaki ijodi janri bo‘lgan topishmoqlar ana shunday integratsiya uchun qulay didaktik materialdir.

Topishmoqlar o‘zining metaforik mazmuni, obrazliligi, qisqa va lo‘nda shakli bilan adabiy janr bo‘lib xizmat qiladi, ammo ularning ko‘p qismi matematika fanida o‘rganiladigan shakl, miqdor, son, fazoviy munosabatlar, o‘lchov kabi tushunchalarni o‘zida mujassamlashtiradi. Bu esa ularni adabiyot darslarida tahlil qilish bilan birga, matematika fani bilan uzviy bog‘lab o‘rganish imkonini yaratadi.

Topishmoq qadim qadimdan jonli va jonsiz mavjudod, narsa va hodisalarni bir-biriga solishtirish, taqqoslash, o‘xshatish orqali borliqni, undagi mavjud narsalarni ko‘proq bilishga, anglashga, fikr qilishga katta yordam bergan. **Topishmoqlarda topilishi lozim bo‘lgan narsaning shakli, hajmi, rangi, vazifasi va shu kabi xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi, ammo bu belgilar istiora san’atidan foydalanilgan holda boshqa narsa bilan bog‘lanadi**” [1. 210]

Topishmoqlar xalq og‘zaki ijodining badiiy-mantiqiy shakli bo‘lib, real hayotdagi predmet va hodisalarning belgilarini ramziy, metaforik, kinoyaviy yo‘l bilan ifodalaydi. “Xalq og‘zaki ijodi” darsligida: “Xalqimiz orasida topishmoqlar har xil nomlar bilan: topishmoq, topar cho‘pchak, top-top, jumboq, jumoq, ushuk, matal, masala” [1. 62] deb yuritilgan.

Topishmoqlar qisqa, ixcham shaklda bo‘lib, metafora va o‘xshatishlarning ustuvorligi, obrazlilik va tashbeh, dialogik yoki monologik ko‘rinishida, qofiyalangan ritmik tuzilishga ega bo‘ladi.

To‘rt oyoqli do‘stim bor,
Menga har dam hamrohdir. (Javobi: stol) [3. 209]

Bu yerda predmet (stol) o‘xshatish obrazlari orqali berilgan. Obraz yaratish jarayonida fikrni bilvosita yetkazish adabiylikning asosiy mezonidir.

Adabiy topishmoqlarda ko‘rish tasavvuri, tasviriy ifodalar, tuyg‘ular ham ahamiyatli o‘rin tutadi. Topishmoqlar badiiylik orqali o‘quvchini o‘ylashga, mantiqiy bog‘liqlikni anglashga undaydi.

Topishmoqlarning katta qismi ongli ravishda matematik tushunchalar bilan bog‘langan. Bular: 1) Miqdor va son: sonlar, sanash, ko‘payish, bo‘linish, juft-toq tushunchalari orqali

Bir uyda o‘n ikki aka,
Har birining o‘ttizdan sodasi. (Javobi: yil, oylari va kunlar) [3. 365]
Yoki, Qora uyda ming chiroq, uyni yoritmas. (Osmon va yulduzlar)[4. 3]

2) Shakl va geometrik figuralar: doira, uchburchak, to‘rtburchak, radius, perimetr aloqalari ramziy tarzda ifodalanadi

Dumaloq-dumaloq niqob,
Kun bo‘yi yo‘l yuradi. [3. 276] (Javobi: quyosh)

3) Fazoviy tasavvur: yuqori-past, uzun-qisqa, old-ortga nisbati jismning shakli va joylashuvi

Tepasi keng, etagi tor,

Hamma joyda izim bor. [3. 366] (Javobi: qalpoq)

4) O‘lchovlar metr, uzunlik, vaqt, tezlik xalq o‘lchov birliklari (quloch, gaz, chaqirim)

Oy bo‘yi yuraman,

Iz qoldirmay ketaman. [3. 210] (Javobi: vaqt)

Topishmoqlar o‘quvchilarni matematik fikrlashning tabiiy jarayonlari: taqqoslash, tahlil, sintez, umumlashtirish, simvolik o‘ylash bilan shug‘ullantiradi.

Integratsiya — turli fanlar mazmunining o‘zaro uzviy aloqada o‘rganilishi bo‘lib, u: didaktik tamoyillarga asoslanadi.

Mazmuniy yaqinlik tamoyilida topishmoqlarda adabiy obrazlar va matematik tasavvurlar birgalikda mavjud ekanligini isbotlash tamoyilidir.

Yaxlit idrok tamoyilida esa predmetni so‘z va shakl orqali bir vaqtning o‘zida tushunish, mantiqiy ketma-ketlik tamoyili bu badiiy tasvir matematik mohiyat obyektni topishga qaratiladi.

Topishmoqlarning matematik mazmundan kelib chiqib tasnifi geometrik mazmundagi topishmoqlarda shakl tasvirlanadi: dumaloq, to‘rtburchak, uchburchak. Masalan, “To‘rt burchagi to‘rt yo‘l, Ustidan odamlar o‘taverar. (Javobi: ko‘cha kesishmasi)

Arifmetik mazmundagi topishmoqlar sanash, qo‘shish-ayirishga qaratilgan topishmoqlar “Bir uyda besh opa-singil, har birining bittadan akasi bor. Ular nechta? “ [3. 148](Javobi: 6 kishi)

Bir daraxtda o‘n ikki shox, har shoxda o‘ttiz yaproq, yaproqning bir tomoni qora, bir tomoni oq. [5.] Bu topishmoqda obrazlar ramziy tarzda berilgan. “Daraxt”metaforik obraz bo‘lib, daraxt — yaxlitlik, davomiylik, hayotiylik timsoli sifatida olingan. Xalq og‘zaki ijodida daraxt hamisha vaqt, umr, hayot davriyligi bilan bog‘langan. “O‘n ikki shox” — o‘n ikki oy bo‘lib, yil daraxtining har bir “shoxi” bir oyni anglatadi. Bu o‘rinda poetik o‘xshatish qo‘llangan. “Har shoxda o‘ttiz yaproq” — har oyda 30 kun. Yaproq — kunning ramzi sifatida berilgan. Xalq tasavvurida “yaproq” — kichik birlik, mayda bo‘lak, kunlarga o‘xshatiladi. “Yaproqning bir tomoni qora, bir tomoni oq” — tun va kun. Bu misolda antonimiyaga asoslangan poetik tasvir qo‘llanadi:oq — yorug‘lik (kunduz), qora — zulmat (tun). Shu tariqa, topishmoq kunning ikki tomonlama (yorug‘ va qorong‘i) tabiatini obraz sifatida ochib beradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, topishmoqlar: matematik tafakkurni rivojlantiradi. Adabiy ijodkorlikni kuchaytiradi. Qisqa matn yaratish, obrazli tafakkur, badiiy ifoda qilish ko‘nikmalari rivojlanadi. Nutq boyligi oshadi. Xotira, diqqat, kuzatuvchanlik jarayonlarni faollashtiradi.

Topishmoqlar o‘yin xarakterida bo‘lgani uchun o‘quvchi faolligi oshadi.

Topishmoqlar — xalqning tarixiy xotirasi, mantiqiy tafakkuri, badiiy didi mujassam bo‘lgan noyob janrdir. Adabiyot va matematika fanlarini topishmoqlar orqali integratsiya qilib o‘qitish o‘quvchilarda ikki turdagi tafakkur — mantiqiy va badiiy fikrlashning bir vaqtning o‘zida rivojlanishiga xizmat qiladi.

Integratsion yondashuv o‘quvchilarda: matematik tasavvurning mustahkamlanishi, adabiy obrazli fikrlashning shakllanishi, ijodkorlikning o‘sishi, milliy folklor boyliklariga qiziqishning ortishi kabi ko‘plab ijobiy natijalarni yuzaga chiqaradi.

Shu bois topishmoqlarni Adabiyot–matematika integratsiyasi asosida o‘qitish metodikasi zamonaviy ta’limning dolzarb va amaliy ahamiyatga ega yo‘nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. T. Mirzayev, Sh. Turdimov, M. Jo‘rayev, J. Eshonqulov. O‘zbek folklori. Toshkent: MALIK PRINT CO. 2021.
2. Masharipova Z. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Toshkent, 2008.
3. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. 100 jildlilik // 40-jild.
4. www. ziyouz. com//O‘zbek xalq topishmoqlari. Tuzuvchi: Abdurahimov M.
5. https://topishmoq. uz//
6. Qobilova, Z. (2023). AMIRIYNING ALISHER NAVOIY G‘AZALLARIGA BOG‘LAGAN TAXMISLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR. *Academic research in educational sciences*, *4*(Conference Proceedings 1), 39-43.
7. Tursunova, N. (2025). BOSHLANG ‘ICH SINF FANLARINI BADIIY ASARLAR BILAN INTEFRATSIYA ASOSIDA TASHKIL QILISH. *Научный Импульс*, *3*(36), 84-87.
8. Imomaliyeva, M., & Namunaxon, T. (2025). TARIXIY ADABIY JOYLAR VA ULARNING ADABIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI. *University Research Base*, 402-407.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA TABIIY FANLAR INTEGRATSIYASI ORQALI BIOLOGIYA TA’LIMINI MODERNIZATSIYA QILISH

Nizomova Bashoratxon Begaliyevna
ADPI, biologiya va geografiya kafedrasi asissent o‘qituvchisi (PhD),

Annotatsiya: Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida biologiya fanini tabiiy fanlar integratsiyasi orqali modernizatsiya qilish masalalari yoritilgan. Ta’lim sifati va samaradorligi integrativ metodologiya va integrativ yondashuv asosida oshirilishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan. Mazkur yondashuv o‘quvchilarda ilmiy tafakkur, kreativlik, tajriba o‘tkazish ko‘nikmalari va real hayotda samarali faoliyat ko‘rsatish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Biologiya fanida integratsion metodologiyani qo‘llash orqali laboratoriya tajribalari, STEAM-texnologiyalar, muammoli vaziyatlarda o‘qitish, yangilangan modul tizimli o‘quv dasturlari va formativ baholash tizimi tatbiq etiladi. Shu orqali o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalar mustahkamlanadi, murakkab ekologik va biotexnologik masalalarni hal qilish qobiliyati shakllanadi.

Kalit so‘zlar: umumiy o‘rta ta’lim, biologiya ta’limi, tabiiy fanlar integratsiyasi, integrativ metodologiya, integratsion yondashuv, STEAM-texnologiyalar, kreativlik va ilmiy tafakkur, ta’lim sifatini oshirish, formativ baholash, amaliy ko‘nikmalar

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim sifati va samaradorligi ko‘pchilik hollarda tanlangan metodika, uni zamonaviy talablar asosida ishlab chiqilganligi va ta’lim loyihasiga mos kelishiga ham bevosita bog‘langan.

Metodologiya (grek. methodos – yo‘l, yo‘nalish, logos – ta’limot) adabiyotlarda turli ma’nolarda yoritib berilgan: olamni ilmiy bilish usullari yig‘indisi, bilishning umumiy metodlari va tamoyillari haqidagi fan, faoliyatni tashkil etish va metodlar haqida ta’limotdir [1, 240-b., 97, 474-b., 145, 136-b].

Integrativ yondashuv ta’sirida bo‘lgan ta’lim jarayoni sifati va samaradorligi faqat integrativ metodologiya asosida ta’minlanishi mumkin. Ta’lim va fanda yangi yo‘nalishi integrativ metodologiyaning zarurligini akademik A. P. Belyayeva asoslab berdi. A. P. Belyayeva fikricha, tizimli obyektlar bilan bir qatorda (fan, texnika, ishlab chiqarish, ta’lim, inson, jamiyat, tabiat)

metodologiyaning o‘zida o‘zaro kirishish, zichlashish, yangilanish yuz berib, integratsiya va differensiatsiya asosida universal tipdagi uning infratuzilmasini murakkablashuvi, fanlararo o‘zaro ta’siri yuz beradi [3, 240-b].

A. P. Belyayeva ilmiy maktabi tomonidan berilgan tizimli obyekt genetik kelib chiqishi ko‘p qirrali tabiatga ega bo‘lib, uning uchlamchi jihati (pedagogika, faoliyat sohalari, mehnat falsafiy kategoriyalari) chegarasidan chiqib ketishi aniqlangan. A. P. Belyayeva ilmiy – amaliy tadqiqotlari ko‘rsatishicha, metodologiya sohasida keng kompleksni yagona tuzilmaga birlashtirishni integratsiyasiz amalga oshirib bo‘lmaydi [3, 240-b].

Integrativ metodologiyani zarurligining ishonarli psixologik asoslanishini V. V. Kozlov keltirib o‘tadi. Uning fikricha, dunyoqarashdan tashqarida shaxs yo‘q, Metodologiyadan tashqarida esa fan ham mavjud emas [5, 71-72-b].

S. Gardner tanqidiy va ijodiy fikrlash ta’lim metodologiyasining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi haqida mulohazalar bildirib o‘tgan [7, 38-49-b].

Biz esa bunga qo‘shimcha sifatida quyidagi fikrni qo‘shsak bo‘ladi: metodologiyadan tashqarida ta’lim mavjud emas. Inson borlig‘ining barcha bosqichlarida psixologik reallikning yaxlit manzarasini anglashni integrativ metodologiya ta’minlashi mumkin. Mazkur metodologiyadagi eng muhim tamoyillar sifatida quyidagi tamoyillarni ajratib ko‘rsatish mumkin: pozitivlik, mos kelishuvchanlik, haqiqat, potensiallik, ko‘p qirralilik.

“Integrativ metodologiya” va “Integrativ yondashuv metodologiyasi” tushunchalari o‘zaro farqlanadi. Integrativ metodologiya turli metodologik yondashuvlardan kompleks tarzda, shu jumladan integrativ yondashuv metodologiyadan ham foydalanadi. Integrativ yondashuv metodologiyasining keng mustaqil bo‘lish imkoniyatlariga ega. Ko‘p yillardan buyon integrativ yondashuvdan kelib chiqqan (M. S. Pak) turli metodologik yondashuvlar muvaffaqiyatli ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan [6, 36-b]. Bular: integrativ -modulli, integrativ - kontekstli, innovatsion, algoritmik yondashuv, axborot-kompyuterli, integrativ -aksiologik, integrativ-loyihali, integrativ-kompetentli, integrativ-gumanitar va boshqalar.

Shu kontekstda so‘nggi yillarda ta’limning rivojlanish jarayonida fanlararo integratsiya kontseptsiyasi global miqyosda keng tarqalmoqda. Xususan, tabiiy fanlar — biologiya, kimyo, fizika va geografiya — o‘quvchilarning tabiiy ilmiy

dunyoqarashini shakllantirishda asosiy vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. An’anaviy ta’lim tizimida fanlar alohida o‘qitilgan bo‘lsa, integratsion yondashuv orqali o‘quv jarayoni interaktiv, amaliy va zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etiladi, bu esa integrativ metodologiya va yondashuvning amaliy samaradorligini oshiradi.

Biologiya fanini modernizatsiya qilishda tabiiy fanlar integratsiyasi nafaqat bilimning sifatini oshiradi, balki o‘quvchilarda ilmiy tafakkur, kreativlik, tajriba o‘tkazish ko‘nikmalari, muammoli vaziyatlarda yechim topish qobiliyatlarini, umumiy aytganimizda real hayotda yashay olish ko‘nikmasini shakllantiradi. Shu sababli, maktablarda biologiya fanini o‘qitishda integratsion yondashuvni tatbiq etish dolzarb va ustuvor vazifa hisoblanadi.

Fanlararo integratsiya — bu turli fanlar bilimlarini birlashtirish, ularni umumiy bilim tizimi doirasida o‘rgatish jarayoni. Biologiya fanida integratsiya quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

Biologiya fanlaridagi hujayra metabolizmi, fermentlar faoliyati, nafas olish, moddalari almashinuvi kabi mavzularni tushuntirishda kimyo fani bilan **integratsiya asosida tashkil etish bilim samaradorligini oshiradi.** Biologik jarayonlarning fizika fanidagi mexanik, termodinamik va elektromagnit asoslari mavzulariga bog‘lab o‘tish kerak. Masalan, qon aylanish mexanizmi yoki fotosintez jarayonlaridagi energiya almashinuvi.

Biologiya fanini modernizatsiya qilish integratsion yondashuv orqali quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

1. **Interaktiv o‘qitish metodlarini joriy etish**: darslarda laboratoriya tajribalari, eksperimentlar, virtual simulyatsiyalar va multimediya vositalaridan foydalanish. Bu o‘quvchilarning ilmiy qiziqishini oshiradi va nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘laydi.
2. **STEAM-texnologiyalarni tatbiq etish**: biologiya darslarini ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika bilan uyg‘unlashtirish orqali murakkab jarayonlarni tizimli o‘rgatish.
3. **Muammoli vaziyatlarda o‘qitish**: o‘quvchilarga real hayotdagi ekologik, biotexnologik yoki sog‘liqni saqlash masalalarini tahlil qilish va yechim topish vazifalarini berish.

4. O‘quv dasturlarini yangilash: biologiya mavzularini tabiiy fanlar bilan integratsiyalashgan holda modul tizimida ishlab chiqish. Bu mavzularni chuqurroq va tizimli o‘rganish imkonini beradi.

5. Baholash tizimini takomillashtirish: formativ baholash va loyiha asosidagi baholash orqali o‘quvchilarning nazariy bilimlari bilan birga amaliy ko‘nikmalari ham baholanadi [6, 36-b].

Tabiiy fanlar integratsiyasi orqali biologiya ta’limini modernizatsiya qilish o‘quvchilarda:

a) tabiiy ilmiy dunyoqarash va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;

b) mustaqil va kreativ faoliyatni rag‘batlantiradi;

c) amaliy ko‘nikmalar va laboratoriya tajribalari orqali nazariy bilimlarni mustahkamlaydi;

d) murakkab ekologik va biotexnologik masalalarni hal qilishda ko‘nikmalar hosil qiladi.

Maktablarda biologiya fanini tabiiy fanlar integratsiyasi orqali modernizatsiya qilish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarda ilmiy tafakkur va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishning samarali yo‘li hisoblanadi. Integratsion yondashuv ilmiy izlanish, eksperiment va interaktiv metodlarga asoslangan ta’limni tashkil etishga imkon beradi. Shu bilan birga, biologiya darslarini zamonaviy STEAM-texnologiyalar bilan boyitish, o‘quvchilarni real hayotdagi muammolarni tahlil qilishga o‘rgatadi va ularning kelajakda ilm-fan va texnologiya sohalarida faoliyat ko‘rsatish salohiyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nizomova B. B. Biologiya va turdosh tabiiy fanlar integratsiyasi. O‘quv qo‘llanma. Andijon. 2023. – 240 b.

2. Pedagogik atamalar lug‘ati. – T.: O‘zPFITI, 2008. – 136 b.

3. Беляева А. П. Интегративная теория и практика многоуровневого непрерывного профессионального образования. – СПб. : Институт профтех образования РАО, 2002. -240 с.

4. Кукушин В. С. Теория и методика обучения. Ростов н/Д. : Феникс, 2005. – 474, [1] с.

5. Козлов В. В. Интеграция как психологическая категория // Вестник интегративной психологии. М-Ярославль, 2010. – С. 71-72.

6. ПакМ.Концепциии нтегративно-контекстного образования в среднейивыс шейшколе. – СПБ. : Изд-во РГПУим. А. И. Герцена, 2001. – 36 с.

7. Gardner S. «Inquiry is no Mere Conversation (or Discussion or Dialogue): Facilitation is Hard Work», Critical and Creative Thinking: The Australasian // Journal of Philosophy for Children 3, 2 (1995): – P. 38-49.

UZLUKSIZ TA'LIM BOSQICHLARIDA GENDER LINGVISTIKASINING INTEGRATSION JARAYONLARI

Omonov Baxtiyorjon Xabitovich,
Qo‘qon universtiteti dotsenti v. b,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
email: bxomonov@kokanduni. uz
https://orcid. org/0009-0003-0313-3909
tel: +998 97 4188586

Annotatsiya

Ushbu maqola uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida gender lingvistikasining integratsion jarayonlarini chuqur tahlil qiladi. Gender lingvistikasi til va gender o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni o‘rganuvchi soha bo‘lib, ta'lim jarayonida gender stereotiplarini bartaraf etish, inkluziv tilni shakllantirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada maktabgacha, umumiy o‘rta, oliy va kattalar ta'limi bosqichlarida til orqali gender identifikatsiyasining shakllanishi ko‘rib chiqiladi. Xalqaro tajriba (masalan, Yevropa Ittifoqi va AQShdagi islohotlar) va O‘zbekiston konteksti (maktab darsliklaridagi gender ko‘rinishlari, UNESCO tahlillari) asosida integratsiya mexanizmlari taklif etiladi. Tadqiqot feminist tilshunoslik va sotsiolingvistik yondashuvlarga tayangan holda, ta'limdagi tilni gender-neytral qilishning amaliy yo‘llarini ko‘rsatadi. Natijada, uzluksiz ta'limda gender lingvistikasini integratsiya qilish orqali shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy adolat va gender tengligini ta'minlash mumkinligi ta'kidlanadi. Ushbu yondashuv O‘zbekiston ta'lim tizimida gender stereotiplarini kamaytirishga yordam beradi, chunki darsliklar va o‘quv jarayonida ayollar va erkaklar rollari nomuvofiq aks etmoqda.

Аннотация

Данная статья глубоко анализирует интеграционные процессы гендерной лингвистики на различных этапах системы непрерывного образования. Гендерная лингвистика, изучающая сложные отношения между языком и гендером, играет ключевую роль в устранении гендерных стереотипов, формировании инклюзивного языка и обеспечении социального равенства в образовательном процессе. В статье рассматривается формирование гендерной идентичности через язык на этапах дошкольного, общего среднего, высшего и взрослого образования. На основе международного опыта (например, реформы в ЕС и США) и контекста Узбекистана (гендерные представления в школьных учебниках, анализ ЮНЕСКО) предлагаются механизмы интеграции. Исследование опирается на феминистскую лингвистику и социолингвистические подходы, предлагая практические пути для нейтрализации языка по гендерному признаку в образовании. В заключение подчеркивается, что интеграция гендерной лингвистики в непрерывное образование способствует личностному развитию, социальной справедливости и гендерному равенству. Этот подход помогает снизить гендерные стереотипы в системе образования Узбекистана, где роли женщин и мужчин в учебниках и учебном процессе отражены неравномерно.

Abstract

This article provides an in-depth analysis of the integrative processes of gender linguistics across various stages of the lifelong learning system. Gender linguistics, which studies the complex relationships between language and gender, plays a crucial role in eliminating gender stereotypes, shaping inclusive language, and ensuring social equality in the educational process. The article examines the formation of gender identity through language in preschool, general secondary, higher, and adult education stages. Based on international experience (e. g., reforms in the EU and USA) and the Uzbek context (gender representations in school textbooks, UNESCO analyses), integration mechanisms are proposed. The research relies on feminist linguistics and sociolinguistic approaches, offering practical ways to neutralize language by gender in education. In conclusion, it emphasizes that integrating gender linguistics into lifelong learning promotes personal development, social justice, and gender equality. This approach helps

reduce gender stereotypes in Uzbekistan's education system, where roles of women and men are unevenly reflected in textbooks and the learning process. (142 words)

Kalit so‘zlar: gender lingvistikasi, uzluksiz ta'lim, integratsiya jarayonlari, ta'lim bosqichlari, gender stereotiplari, inkluziv til, feminist tilshunoslik, O‘zbekiston ta'limi, UNESCO tahlillari, gender tengligi

Ключевые слова: гендерная лингвистика, непрерывное образование, интеграционные процессы, этапы образования, гендерные стереотипы, инклюзивный язык, феминистская лингвистика, образование в Узбекистане, анализ ЮНЕСКО, гендерное равенство

Keywords: gender linguistics, lifelong learning, integration processes, educational stages, gender stereotypes, inclusive language, feminist linguistics, education in Uzbekistan, UNESCO analyses, gender equality

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimi nafaqat bilim va ko‘nikmalarni berish vositasi, balki ijtimoiy normalar va qadriyatlarni shakllantirishning asosiy instituti hisoblanadi. Uzluksiz ta'lim, ya'ni umrbod o‘rganish modeli, shaxsni hayotning har bir bosqichida rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, gender lingvistikasi bu jarayonda alohida o‘rin egallaydi. Gender lingvistikasi tilning gender identifikatsiyasi va ijtimoiy rollarni qanday aks ettirishini o‘rganadi, chunki til orqali stereotiplar mustahkamlanadi yoki bartaraf etiladi [Djalilova,391]. Masalan, oddiy darslik matnlarida yoki suhbatlarda ishlatiladigan so‘zlar ayollar va erkaklar haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi, bu esa ta'limning barcha bosqichlarida gender tengligini buzishi mumkin.

O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda bu masalalar yanada dolzarbdir. Respublikada ta'lim islohotlari, jumladan, gender stereotiplarini bartaraf etish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Masalan, 2020-yilda UNESCO tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek maktab darsliklarida ayollar ko‘pincha oilaviy rollarda tasvirlanadi, erkaklar esa rahbarlik lavozimlarida [BBC, 202]. Bu holat ta'limning uzluksizligini ta’minlashda to‘siq bo‘lib, bolalikdan kattalar ta'limigacha gender nomuvofiqligini saqlab qoladi. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, darsliklardagi gender stereotiplari qiz bolalarning kasb tanlashiga ta'sir qiladi, ularni an'anaviy sohalarga yo‘naltiradi [Ozawa, 224].

Ushbu maqola gender lingvistikasini uzluksiz ta'lim bosqichlarida integratsiya qilish muammosini hal qilishga qaratilgan. Xalqaro tajriba, masalan, Yevropa Ittifoqidagi umrbod o‘rganish dasturlari (LLL) va AQShdagi feminist

pedagogika amaliyotlari asosida O‘zbekiston uchun takliflar ishlab chiqiladi [Pavlenko,2]. Tadqiqot feminist tilshunoslikka asoslanadi, chunki u tilni ijtimoiy qudrat munosabatlari vositasi sifatida ko‘rib chiqadi [Mallinson & Hudley, 117]. Maqsad – nazariy asoslarni chuqurlashtirish, bosqichma-bosqich integratsiya mexanizmlarini tahlil qilish va amaliy tavsiyalar berish.

Maqolada quyidagi masalalar ko‘rib chiqiladi: gender lingvistikasining nazariy asoslari, maktabgacha va o‘rta ta'limda integratsiya, oliy va kattalar ta'limida transformatsiya, O‘zbekiston konteksti va xalqaro tajriba asosidagi takliflar. Metodlar orasida adabiyotlar tahlili, statistik ma'lumotlar va taqqosiy yondashuv kiradi. Natijada, ta'limdagi tilni gender-neytral qilish orqali shaxsiy rivojlanishni kuchaytirish va ijtimoiy adolatni ta'minlash mumkinligi ko‘rsatiladi. Bu jarayon O‘zbekiston ta'lim tizimida gender tengligini mustahkamlashga xizmat qiladi, chunki so‘nggi yillarda ayollar oliy ta'limda 45% gacha yetgan bo‘lsa-da, kasbiy genderizatsiya saqlanib qolmoqda [Abdugafurov, 202].

1. Gender lingvistikasining nazariy-metodik asoslari va uzluksiz ta'limdagi o‘rni

Gender lingvistikasi 1970-yillarda feminist harakatlar doirasida shakllangan bo‘lib, tilning gender identifikatsiyasini qanday aks ettirishini o‘rganadi. Robin Lakoffning "Ayollar tili" (Language and Woman's Place) kitobi bu sohada asosiy hisoblanadi: ayollar ko‘proq yumshoq, izohli shakllardan foydalanib, ijtimoiy pastlikni mustahkamlaydi [Lakoff,15]. Zamonaviy yondashuvlarda til gender-neytral bo‘lishi kerakligi ta'kidlanadi, chunki u ijtimoiy normalarni shakllantiradi [Pavlenko, 3].

Uzluksiz ta'limda gender lingvistikasi integratsiyasi ta'limning har bir bosqichida stereotiplarni bartaraf etishni nazarda tutadi. Masalan, Yevropa Ittifoqida LLL dasturlari gender tengligini ta'minlash uchun tilni inkluziv qilishni talab qiladi, bu yerda til nafaqat vosita, balki transformatsiya mexanizmi sifatida ko‘riladi [UNESCO, 2025]. O‘zbek tilida gender aks etishi an'anaviy: "ota" va "ona" kabi so‘zlar oilaviy rollarni mustahkamlaydi, ammo zamonaviy ta'limda ularni neytralizatsiya qilish mumkin [Djalilova,395]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, til orqali gender stereotiplari bolalikdan shakllanadi va kattalar ta'limigacha davom etadi [Ozawa, 2024].

Feminist tilshunoslik bu yerda muhim: til qudrat munosabatlarini aks ettiradi va ta'lim orqali o‘zgartirilishi mumkin [Mallinson & Hudley, 2017].

Masalan, ingliz tilida "they" neytral so‘z sifatida ishlatiladi, o‘zbek tilida esa "u" ni kengaytirish taklif etiladi, chunki turkiy tillar tabiatan gender-neytral [Wikipedia, 2025]. Bu nazariy asos uzluksiz ta'limda gender tengligini ta'minlash uchun poydevor bo‘ladi.

Metodik jihatdan, gender lingvistikasini integratsiya qilish ta'lim materiallarini tahlil qilishni talab qiladi. Masalan, O‘zbekistonda EFL darsliklarida ayollar tasvirlari erkaklarnikidan 20% kam, bu patriarxatni mustahkamlaydi [Nasriddinov, 2020, 5]. Inkluziv tilni joriy etish orqali, masalan, gender-neytral iboralarni ishlatish, ta'lim samaradorligini oshiradi [APA, 2022]. Ushbu bo‘limda ko‘rib chiqilgan nazariyalar amaliy integratsiyaga asos bo‘ladi, chunki ular tilni ijtimoiy o‘zgarish vositasi sifatida ko‘rsatadi.

2. Maktabgacha va umumiy o‘rta ta'lim bosqichlarida gender lingvistikasining integratsiyasi

Maktabgacha ta'limda gender lingvistikasi bolaning til rivojlanishiga ta'sir qiladi. Bolalar o‘yinlar va ertaklar orqali gender rollarini o‘rganadi: "qiz bolalar uy ishlarini qiladi" degan stereotiplar til orqali singiladi [Global Citizen, 2020]. O‘zbekistonda maktabgacha darsliklarda ayollar ko‘pincha oilaviy rollarda ko‘rsatiladi, bu gender tengligini buzadi [Fergana News, 2020]. Masalan, darsliklarda qizlar kiyim dizayneri, gimnastika chempioni bo‘lishni orzu qiladi, o‘g'il bolalar esa muhandis yoki biznesmen [BBC, 2020].

Integratsiya jarayoni quyidagicha: pedagoglar gender-neytral ertaklar va o‘yinlarni joriy etishi kerak. Masalan, "Sher va tulki" ertagida rollarni almashtirish orqali bolalar tilni neytral o‘rganadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday yondashuv qiz bolalarning o‘ziga ishonchini oshiradi [Erikson Institute, 2025]. Umumiy o‘rta ta'limda darsliklar asosiy muammo: O‘zbekiston maktab darsliklarida erkaklar 68% holatda rahbar rollarda, ayollar esa 32% da yordamchi sifatida tasvirlanadi [Ozawa, 2024]. Bu til orqali qudrat nomuvofiqligini mustahkamlaydi.

Integratsiya uchun darsliklarni qayta ko‘rib chiqish kerak: gender stereotiplarini olib tashlash va inkluziv matnlar kiritish [CGDEV, 2024]. Misol uchun, ingliz tili darslarida "he/she" o‘rniga "they" ishlatish yoki o‘zbek tilida "talaba" ni jinsdan mustaqil qilish. EFL darsliklarida ayollar tasvirlari 502 ta, erkaklar 611 ta bo‘lib, ayollar uydagi rollarda ko‘proq tasvirlanadi [Nasriddinov, 2020, 4]. Bu bosqichda integratsiya bolalarning til ko‘nikmalarini gender-neytral

shakllantiradi va keyingi bosqichlarga asos bo‘ladi. Pedagogik texnologiyalar, masalan, raqamli o‘yinlar orqali gender-neytral tilni o‘rgatish samarali [UCL, 2023].

3. Oliy va kattalar ta'limi bosqichlarida gender lingvistikasi transformatsiyasi

Oliy ta'limda gender lingvistikasi kasbiy rivojlanishga ta'sir qiladi. O‘zbekistonda qizlar oliy ta'limda 45% ni tashkil etadi, ammo STEM sohalarda 15% dan kam [Abdugafurov, 2024]. Til bu yerda stereotiplarni kuchaytiradi: "texnika erkaklar ishi" degan iboralar orqali. Islomiy diskurslarda ayollar kasb tanlashida erkaklarga bog'liq bo‘lib tasvirlanadi, bu patriarxatni mustahkamlaydi [Abdugafurov, 2024].

Integratsiya: universitet darslarida gender-neytral tilni o‘rgatish. Masalan, seminarlarda "biz hammamiz teng" degan diskurslarni joriy etish [Pavlenko, 2004, 5]. Kattalar ta'limida esa onlayn kurslar orqali tilni transformatsiya qilish: AI vositalari gender stereotiplarini aniqlab, neytral variantlarni taklif qiladi [Training Industry, 2024]. Xalqaro tajribada AQSh universitetlarida gender lingvistikasi kurslari mavjud, bu talabalarning til ko‘nikmalarini oshiradi [ERIC, 2021].

O‘zbekistonda bunday integratsiya orqali ayollar kasbiy muvaffaqiyatini kuchaytirish mumkin, chunki ayollar ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida 56% ni tashkil etadi [Abdugafurov, 2024]. Inkluziv tilni joriy etish, masalan, "o‘qituvchi" so‘zini gender-neytral ishlatish, kasbiy genderizatsiyani kamaytiradi [Beelinguapp, 2022]. Ushbu bosqichda transformatsiya umrbod o‘rganishni gender tengligiga asoslangan qiladi.

4. O‘zbekiston ta'lim tizimida gender lingvistikasi integratsiyasining xalqaro tajriba asosidagi takliflari

O‘zbekistonda gender tengligi bo‘yicha islohotlar bor: 2020-yilda 207 darslik gender stereotiplaridan tozalandi [Global Citizen, 2020]. Biroq, til darajasida integratsiya yetarli emas. Xalqaro tajriba (EU LLL dasturlari) asosida takliflar: milliy standartlarga gender lingvistikasi modullarini kiritish [UNESCO]. Masalan, maktab darsliklarida "ayol rahbar" misollarini ko‘paytirish va pedagoglarni o‘qitish.

UNESCO va O‘zbekiston hamkorligi gender tengligini ta'minlashga qaratilgan, masalan, 2025-yilgi konferensiyada "Gender tengligi orqali multilateral hamkorlik" mavzusi muhokama qilinadi [UNESCO]. Feminist pedagogika orqali

ta'limda tilni o‘zgartirish, masalan, EAP yozuv darslarida gender-neytral yozishni o‘rgatish, talabalar ongini rivojlantiradi [ERIC,121]. O‘zbekistonda bu takliflar orqali kasbiy genderizatsiyani kamaytirish mumkin.

Xulosa

Uzluksiz ta'lim bosqichlarida gender lingvistikasini integratsiya qilish ta'lim sifatini oshiradi va gender tengligini ta'minlaydi. O‘zbekiston uchun bu islohotlar zarur, chunki til orqali shakllanadigan stereotiplar jamiyatni cheklaydi. Kelajakda bu yo‘nalishda ko‘proq tadqiqotlar o‘tkazish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdugafurov, R. (2024). Islam, Women, and Genderization in Professions: The Case of Uzbekistan. Canopy Forum. https://canopyforum.org/2024/04/11/islam-women-and-genderization-in-professions-the-case-of-uzbekistan/

2. APA. (2022). Why Inclusive Language Matters. American Psychological Association. https://www. apa.org/ed/precollege/psn/2022/09/inclusive-language

3. BBC. (2020). Uzbek schools to drop gender stereotypes. BBC News. https://www. bbc. com/news/blogs-news-from-elsewhere-51357949

4. Beelinguapp. (2022). A Simple Guide to Gender-Neutral Languages Around The World. https://beelinguapp. com/blog/gender-neutral

5. CGDEV. (2024). School Textbooks in Low- and Middle-Income Countries Are Overwhelmingly Sexist. Center for Global Development. https://www. cgdev. org/blog/school-textbooks-low-and-middle-income-countries-are-overwhelmingly-sexist

6. Djalilova, Z. (2021). Studies on Gender Linguistics in the Field of Uzbek Language. ARES. UZ. http://ares.uz/storage/app/media/2021/Vol_2_No_3/391-397. pdf

7. ERIC. (2021). Implementing Feminist Language Pedagogy. Education Sciences. https://eric. ed. gov/?id=EJ1307368

8. Erikson Institute. (2025). Inclusive Language is a Classroom Superpower. https://www. erikson. edu/blog/inclusive-language-is-a-classroom-superpower/

9. Fergana News. (2020). Gender stereotypes to be removed from Uzbek schoolbooks. https://en. fergana. news/news/114630/

10. Global Citizen. (2020). Schools in Uzbekistan Will Remove Gender Stereotypes From Their Textbooks. https://www. globalcitizen. org/en/content/schools-in-uzbekistan-remove-gender-stereotypes/

11. Lakoff, R. (1975). Language and Woman's Place. Harper & Row.

12. Mallinson, C., & Hudley, A. H. (2017). Writing the Language of a Feminist Classroom. Ms. Magazine. https://msmagazine. com/2017/12/11/dr-christine-mallinson-dr-anne-charity-hudley-on-the-power-of-linguistic-feminism/

13. Nasriddinov, A. (2020). Sexism in Elementary EFL Textbooks: Spotted in Uzbekistan. ResearchGate. https://www. researchgate. net/publication/343967964_Sexism_in_Elementary_EFL_Textbooks_Spotted_in_Uzbekistan

14. Ozawa, V. (2024). Education and gender inequalities: A critical analysis of school textbooks in Uzbekistan. BAICE. https://baice. ac. uk/hub/education-and-gender-inequalities-a-critical-analysis-of-school-textbooks-in-uzbekistan/

15. Pavlenko, A. (2004). Gender and Sexuality in Foreign and Second Language Education. https://www. anetapavlenko. com/pdf/Gender_and_sexualityin_foreign_and_secondlanguage_education_2004. PDF

16. Training Industry. (2024). The Role of Language in Inclusive Training. https://trainingindustry. com/magazine/summer-2024/the-role-of-language-in-inclusive-training/

17. UCL. (2023). Using inclusive language in education. University College London. https://www. ucl. ac. uk/teaching-learning/publications/2023/jul/using-inclusive-language-education

18. UNESCO. (2025). Promoting Gender Equality through Multilateral Collaboration. https://www. unesco. org/en/articles/promoting-gender-equality-through-multilateral-collaboration

19. Wikipedia. (2025). Uzbek language. https://en. wikipedia. org/wiki/Uzbek_language

20. Omonov, B. (2021). Terminological system as an object of research in linguistics. Scienceweb academic papers collection.

21. Khabitovich, O. B. (2025). The role of gender in teaching English for specific purposes: https://doi. org/10. 5281/zenodo. 15667737. SHOKHLIBRARY, 844-853.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR TARIXIGA NAZAR
ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ
A LOOK AT THE HISTORY OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

Sharipova Nargizaxon Abduqahhorovna
Qo‘qon universiteti dotsenti, PhD
nar.kokand@gmail.com

Annotatsiya

Ilmiy texnik taraqqiyot XX asr oxiriga kelib faqatgina ko‘plab ishlab chiqarish sohalarini texnologiyalashtirishga sabab bo‘lib qolmay, balki madaniyat sohasiga, gumanitar bilimlar sohalariga ham kirib keldi. Bugungi kunda biz endi axborot, tibbiyot texnologiyalari haqida gapiramiz, shu jumladan ta’lim sohasida ham. «Texnologiya» tushunchasi texnik taraqqiyot sababli yuzaga keldi va lug‘atlar talqini bo‘yicha (techne san’at, hunar, fan; logo — tushuncha, ta’limot) materiallarga ishlov berish usullari va vositalari haqidagi bilimlar to‘plami demakdir

Kalit so‘zlar: texnologiya, san’at, jarayon, pedagogik, ko‘rgazma, qo‘llanma

Научно-технический прогресс к концу XX века привел не только к технологизации многих отраслей производства, но и вошел в сферу культуры и гуманитарных наук. Сегодня мы говорим об информационных, медицинских технологиях, в том числе и в сфере образования. Понятие "технология" возникло благодаря техническому прогрессу и, согласно толкованию словарей (techne - искусство, ремесло, наука; logo - понятие, учение), означает совокупность знаний о методах и средствах обработки материалов.

Ключевые слова: технология, искусство, процесс, педагогический, выставка, пособие

Scientific and technological progress towards the end of the 20th century led not only to the technologization of many branches of production but also entered the sphere of culture and humanitarian knowledge. Today we are talking about information and medical technologies, including in the field of education. The concept of "technology" arose due to technical progress and means a set of knowledge about the methods and means of processing materials according to the interpretation of dictionaries (techne - art, craft, science; logo - concept, doctrine).

Keywords: technology, art, process, pedagogical, exhibition, manual

Texnologiya shu bilan birga jarayonni bilish san’atini ham o‘z ichiga oladi. Texnologik jarayon har doim zarur vositalar va sharoitlardan foydalanish bilan operatsiyalar ma’lum ketma-ketligini ko‘zda tutadi. Texnologiya protsessual mazmunda «qanday qilib, nimadan va qaysi vositalar bilan bajarish kerak?» degan savolga javob beradi.

«Pedagogik texnologiya» tushunchasi o‘qitish nazariyasidan keyingi paytlarda yanada kengroq tarqaldi.XX asrning 20-yillarida «pedagogik texnologiya» termini birinchi bor pedagogika bo‘yicha asarlarda tilga olingan. Shu vaqtning o‘zida yana bir boshqa — «pedagogik texnika» termini ham tarqaldi. U pedagogik ensiklopediyada XX asrning 30-yillarida o‘quv mashg‘ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga qaratilgan uslublar va vositalar sifatida ifodalangan. Pedagogik texnologiyalarga o‘quv va laboratoriya uskunalari bilan ishlash, ko‘rgazmali qo‘llanmalardan foydalanish mahoratlari ham kiritilgan.[2, 59]

O‘tgan asrning 40-50-yillarida, o‘qitish — o‘quv jarayonlariga texnik vositalarni tatbiq etish boshlanganida, «ta’lim texnologiyasi» termini paydo bo‘ldi, u keyingi yillar davomida «pedagogik texnologiyaga» aylantirildi. XX asrning 60-yillari o‘rtalarida bu tushunchaning mazmuni chet ellarda pedagogik nashrlarda va xalqaro konferensiyalarda keng muhokama etildi, natijada ushbu sohada turli mamlakatlarda (AQSh, Angliya, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Vengriya) uni talqin qilish darajasiga qarab ikki yo‘nalishi belgilandi. Birinchi yo‘nalish tarafdorlari texnik vositalar va dasturlashtirilgan o‘qitish vositalarini qo‘llash zarurligini ta’kidladilar (technology in education).[1, 78]

Ikkinchi yo‘nalish tarafdorlari esa o‘quv jarayonini tashkil etish samaradorligini oshirish va pedagogik g‘oyalarning texnikaning keskin rivojlanishidan ortda qolishini yo‘qotish muhim deb hisobladilar. Shunday qilib 1-

yo‘nalish «o‘qitishda texnik vositalar» sifatida belgilandi, biz biroz keyinroq yuzaga kelgan 2-yo‘nalish «o‘qitish texnologiyasi» yoki «o‘quv jarayoni texnologiyasi» sifatida belgilandi. XX asrning 70-yillari boshlarida turli xildagi o‘quv uskunalarini va o‘quv vositalarini modernizatsiyalashtirish zarurligi anglab yetildi. Bularsiz o‘qitishning sifatliligi va samaradorligiga erishib bo‘lmas edi. [4, 92] 60-yillar o‘rtalari va 70-yillarning boshlarida AQSh, Angliya, Yaponiya, Italiya kabi yuksak rivojlangan davlatlarda pedagogik texnologiyalar masalalari bilan shug‘ullanuvchi jurnallar nashr etilar edi, keyinchalik bu muammo bilan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va markazlar shug‘ullana boshlaydi. Pedagogik texnologiya deb odatda maqsadi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta’limda ko‘zlangan natijalarga erishish bo‘lgan chet el pedagogikasining yo‘nalishiga aytiladi (M. Klarin, 1989) milliy pedagogik adabiyotlarda bunday hollarda o‘qitishning didaktikasi yoki metodikasi haqida gapiradilar, biroq «texnologiya» termini hozirgi kunda juda keng tarqalgan. «Pedagogik texnologiya» so‘z birligi — bu inglizcha «*an educational technology*» —"ta’lim texnologiyasi" iborasining aniq bo‘lmagan tarjimasidir. «Pedagogik texnologiya» tushunchasi oxirgi paytlarda o‘qitish nazariyasida yanada kengroq tarqalib kelmoqda.[7, 63] Aynan ana shu mazmunda «texnologiya» termini va uning «o‘qitish texologiyasi», «ta’lim texnologiyasi», «ta’limda texnologiya» shakllari pedagogik adabiyotlarda foydalanila boshlandi va mualiflar ta’lim-texnologik jarayonining tuzilishi va tashkil etuvchilarini qanday tasavvur etishlariga qarab ko‘plab ifodalarga ega bo‘ldilar (uch yuzdan ortiq).«Pedagogik texnologiya» termini birinchi bor pedagogika bo‘yicha ishlarda — XX asrning 20-yillarida tilga olingan. Hozirgi kunda pedagogik texnologiya tushunchasini turlicha ifodalash mumkin:

1. Texnologiya— bu biron-bir ishda, mahoratda, san’atda qo‘llaniladigan uslublar to‘plamidir (talqinli lug‘at).

2. Pedagogik texnologiya— bu o‘quv jarayonini amalga oshirish mazmunli texnikasidir (V.P. Bespalko).

3. Pedagogik texnologiya — bu o‘qitishda rejalashtirilgan natijalarga erishish jarayonini tasvirlashdir (I.P. Volkov). 4. Pedagogik texnologiya — bu o‘qitish, tarbiyaviy vositalar, shakllari, metodlari, usul, uslublarining maxsus to‘plami va tuzilishini belgilovchi psixologik-pedagogik ko‘rsatmalar yig‘indisi, u pedagogik jarayonning tashkiliy metodik quroli demakdir (B.T. Lixachev).[6, 95]

5. Pedagogik texnologiya — bu ta’lim shakllarini optimallashtirish masalasini qo‘yuvchi, texnik va insoniy imkoniyatlarni va ularning o‘zaro munosabatlarini hisobga olib o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaratish, qo‘llash va belgilashga sistemali yondashishdir (YuNESKO).

6. Texnologiya — bu san’at, mahorat, mohirlik, ishlab chiqish metodlari to‘plami, holatini o‘zgartirishdir (V.M. Shepel).

7. O‘qitish texnologiyasi— bu o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun so‘zsiz qulay sharoitlar yaratib berish bilan o‘quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish va olib borish bo‘yicha har tomonlama o‘ylab chiqilgan hamkorlikdagi pedagogik faoliyat modelidir (V.M.Monaxov).

8. Pedagogik texnologiya — bu pedagogikada fikrlashning sistemali usulidir (T.Sakamoto).

9. Pedagogik texnologiya — o‘quv jarayonining tashkiliy shakli, metodlari, mazmunini o‘zgartiruvchi uning rivojlanish yangi sistemasidir (E. Bistereki va J.Seller).

10. Pedagogik texnologiya pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan hamma shaxsiy, instrumental va metodologik vositalarni sistemali to‘plami va ishlatilish tartibini bildiradi (M.V.Klarin).

11. Pedagogik texnologiya — bu ta’lim maqsadiga erishishga qaratilgan o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyatini sistemali, kotseptual, qoidali, ob’ektivlashtirilgan, invariant tasvirlashdir (F.A.Fradkin).

12. Pedagogik texnologiya bilimlarni egallashda rejalashtirish, boshqarish va ta’minlashni taxlil qilish uchun faoliyatni tashkil etish usulini, odamlar, g‘oyalar, vositalarni o‘z ichiga oluvchi kompleks integral jarayon demakdir (Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar bo‘yicha AQSh assotsiatsiyasi).[5, 127] Barcha xalqlarda hamma vaqt yaxshi tayyorlangan mutaxassislar, o‘z ishining ustalari hurmat qilingan, mahorat bilan mohirona o‘qitish ham yuksak baholangan.Pedagogika fani tarixida o‘qitish va kadrlar tayyorlashning yanada mukammal metodlarini va usullarini izlash doimiy davom etib kelgan. O‘qitish — bu uning jamiyat taraqqiyoti uchun samarasi pedagogning faoliyati yakunlanishi bilan darxol ko‘rinmasa ham har qanday boshqa faoliyat kabi ishlab chiqarish faoliyatidir. Jamiyat tarixida iqtisodiy davrlar faqatgina nimalar ishlab chiqarilishi, kim tomonidan qancha ishlab chiqarilishi, mehnatning qaysi vositalari bilan ishlab chiqarilishi bilangina farq qilmaydi. [7, 63] Ana shu

nuqtai nazardan biz ijtimoiy tarixda mavjud bo‘lgan «pedagogik davrlarni» ko‘rib chiqamiz:

I. Individual pedagog, qo‘l bilan ishlaydigan pedagogning pedagogik faoliyati davri (qadimgi davrlardan boshlab XVII asrgacha);

II. O‘quv kitobi davri (XVII asrdan hozirgi davrgacha);

III. Audiovizual vositalar davri (XX asrning 50-yillari).

IV. O‘qitishni boshqarishni avtomatlashtirish oddiy vositalari davri (XX asrning 70-yillari).

V. Zamonaviy hisoblash mashinalari asosida ta’limni boshqarishni avtomatlashtirishda adaptiv vositalar davri (XX asr oxiri kompyuterni o‘qitish).«Pedagogik texnologiya» tushunchasi uchta aspektlar bilan taqdim etilishi mumkin:

1) Ilmiy pedagogik texnologiya — o‘qitishning maqsadi, mazmuni va metodlarini o‘rganuvchi va ishlab chiquvchi, pedagogik jarayonlarni loyihalashtiruvchi pedagogik fanning bir qismidir.

2) protsessual-ta’rifiy: jarayonni tasvirlash o‘qitishning ko‘zda tutilgan natijalariga erishish uchun vositalar va maqsad, metodlar to‘plami.

3) protsessual-amaliy: texnologik jarayonni amalga oshirilishi, hamma shaxsiy, instrumental va metodologik pedagogik vositalarning ishga solinishi. Shunday qilib, pedagogik texnologiya o‘qitishning eng samarali yo‘llarini izlovchi fan sifatida ham, o‘qitishda qo‘llaniladigan usullar, prinsiplar va boshqaruvlar sistemasi sifatida ham, o‘qitish haqiqiy jarayoni sifatida ham ishtirok etadi.[6, 45]

Tarix darslarida o‘quvchiga yondashish bo‘yicha texnologiyalar

1) Avtoritar texnologiyalar, bunda pedagog o‘quv-tarbiyaviy jarayonning yakka sub’ekti hisoblanadi, o‘quvchi esa faqatgina «ob’ekt», biror-bir qismdek bo‘ladi. Ular maktab hayotini qat’iy tashkil etilishi, o‘quvchilarning tashabbusi va mustaqilligiga yo‘l qo‘ymaslik, talab va majburlash qo‘llanilishi bilan ajralib turadi.

2) Didaktotsentrik texnologiyalar ham bola shaxsiga e’tiborsizlik yuqori darajasi bilan ajralib turadi, ularda ham o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida sub’ekt-ob’ektli munosabatlarlar hukm suradi, o‘qitish ta’limdan ustun qo‘yiladi va shaxsni shakllantirish eng asosiy omillari didaktik vositalar hisoblanadi.

3) Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar butun maktab,o‘rta maxsus ta’lim tizimi markaziga bola shaxsini, uning rivojlanishi uchun qulay, kelishmovchilik-

larsiz va xavfsiz sharoitlarni ta’minlash, uning tabiiy imkoniyatlarini amalga oshirishni qo‘yadi. Bu texnologiyada bola shaxsi faqatgina ob’ekt emas, balki muhim sub’ekt hamdir: u biror-bir noaniq maqsadga erishish vositasi emas, balki ta’lim tizimi maqsadi hisoblanadi (avtoritar va didaktotsentrik texnologiyalarida bo‘lganidek). Bunday texnologiyalarni yana antrotsentrik deb ham ataydilar.Shunday qilib, shaxsga-yo‘naltirilgan texnologiyalar antrotsentrikligi, insonparvarligi va psixoterapevtik yo‘nalganligi bilan ifodalanadi va bolaning har tomonlama, erkin va ijodiy rivojllanishi maqsad qilib oladi.

Shaxsga-yo‘naltirilgan texnologiyalar doirasida insonparvarlik shaxsiy texnologiyalar, hamkorlik texnologiyalari va erkin tarbiyalash texnologiyalari mustaqil yo‘nalganligi bilan ajralib turadi.

4) Insonparvarlik-shaxsiy texnologiyalar birinchi navbatda o‘zining insonparvarlik mohiyati, shaxsni qo‘llashga psixoterapevtik yo‘nalganligi, unga yordam ko‘rsatishi bilan ajralib turadi. Ular bolaga har tomonlama hurmat va muhabbatni, majburlashni rad etib uning ijodiy qudratiga ishonchni targ‘ib qiladi.[10, 56]

5) Hamkorlik texnologiyasi, o‘qituvchi va bola o‘rtasidagi ob’ekt-sub’ektiv

munosabatlarda demokratiklik, tenglikni, hamkorlikni amalga oshiradi. O‘qituvchi va o‘quvchi birgalikda maqsad, mazmunni ishlab chiqadilar, hamkorlik va birgalikda ijod holatida bo‘lib baho beradilar.

6) Erkin tarbiya texnologiyalar bolaning hayotiy faoliyati doirasida ko‘pmi

ozmi tanlashi va mustaqilligi erkinligi berishga e’tiborni qaratadi. Tanlovni amalga oshirib bola natijalarga tashqi ta’sir ostida emas, balki ichki tuyg‘ulari orqali boradi, u sub’ekt nuqtai nazarini eng yaxshi uslub bilan amalga oshiradi.[5, 72]

2. Tanqidiy fikrlashning faol metodlari. Tanqidiy fikrlashni o‘stirishga xizmat qiladigan metodlar «Demokratik ta’lim uchun» konsorsiumi tomonidan amalga oshiriladigan «Tanqidiy fikrlash uchun o‘qish va yozish» loyihasi doirasida ishlab chiqilgan.Tanqidiy fikrlashning faol metodlarini ishlab chiqishda quyidagi asoslardan kelib chiqadilar: Tanqidiy fikrlash nima? Fikrlash — o‘qish, yozish, so‘zlash va eshitishga o‘xshash jarayon. U faol, muvofiqlashtiruvchi shunday jarayonki, o‘zida biror haqiqat to‘g‘risidagi fikrlarni qamrab oladi. Fikrlash kontekstdan tashqarida hosil qilinadigan ko‘nikma emas.[12, 61]

Tanqidiy fikrlash ta’limiy dastur yoki kundalik hayotning umumiy kontekstidan yiroqlashgan sharoitda o‘rganilishi lozim bo‘lgan hodisa ham emas. Braun (1989) ta’kidlaydiki, vazifa va real hayot maqsadlaridan ajratilgan o‘quv ko‘nikmalari ta’lim oluvchilarga ob’ektiv testlarni yaxshi topshirish imkoniyatini berishi mumkin, lekin ular bu ko‘nikmalarni yangi vaziyatlarda qo‘llay olmaydilar. Rixer ta’biri bo‘yicha o‘rganish va fikrlashning ta’rifi kognitiv psixologiya, falsafa va multmedia madaniyati ta’limi sohasidagi tadqiqotlar natijalariga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston tarixini o‘qitish va o‘rganishning yagona konsepsiyasi.- T.: 1996.
2. O‘zbekiston tarixi umumta’lim va yangi turdagi maktablarning V-XI sinflari uchun dastur T. 1997.
3. O‘zbekiston tarixi fani dasturi. Universitetlar va pedagogika oliy o‘quv yurtlarining tarix fakultetlari uchun. T. 1996
4. Sharipova Nargiza Abdukaxxarovna. REFORMЫ NARODNOGO OBRAZOVANIYa V UZBEKISTANE V GODЫ SOVETSKOY VLASTI CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY VOLUME: 04 ISSUE: 05 | MAY 2023 (ISSN: 2660-6836)
5. Sharipova Nargizakhan Abduqaxxorovna. A look at the history of building schools in Uzbekistan (50-70 years of the 20th century) World Bulletin of Social Sciences (WBSS) Available Online at: https://www.scholarexpress.net Vol. 26, September 2023 ISSN: 2749-361X
6. Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna. XX asrning 40-80 yillarida Farg‘ona vodiysi o‘qituvchilarining jismoniy hordiq chiqarish imkoniyatlari
Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515 VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 16 | 2023
7. N. Sharipova, Milliy tarixni o‘rganish dolzarbligi masalalari / International Conference on Journal of technical research and development Hosted from Delhi, India 1st dec. 2023
8. Sharipova Nargizaxon Abdukaxxorovna, Protsess stanovleniya pedagogicheskix uchebnыx zavedeniy Uzbekistana v 1945-1965 gg. / International Conference on Journal of technical research and development Hosted from Delhi, India 1st dec. 2023

9. Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna. O‘zbekistonda pedagogik bilim yurtlarining shakllanish jarayoni (1945-1965 yillar)/ Vol. 4 No. 1 (2023): SCIENCE PROMOTION Confrence

10. Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna. O`zbekistonda xorijiy tillarning o‘qitilish tarixi/ **Vol. 4 No. 1 (2023): SCIENCE PROMOTION Confrence**

11. Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna. XX asrning 40-80-yillarida Farg‘ona vodiysi o‘qituvchilarining jismoniy hordiq chiqarish imkoniyatlari/ Vol. 2 No. 16 (2023): Educational Research in Universal Sciences (ERUS)

12. Sharipova Nargiza, Ph.D. History of Teacher Training System in Uzbekistan and Changes in it.//Modern Journal of Social Sciences and Humanities ISSN: 2795-4846 Volume22 (Dec-2023) Available online: https://mjssh.academicjournal.io 63-68

TA’LIM BOSQICHLARI UZVIYLIGIDA PSIXOLOGIK MOSLASHUV: MAKTABGACHA TA’LIMDAN MAKTABGA O‘TISH JARAYONINING INTEGRATSIYALASHGAN METODIK KONSEPSIYASI

Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna
Qo‘qon universiteti Ta’lim kaferasi
katta o‘qituvchisi
e-mail: zulfiyaxon08@gmail. com

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta’limdan boshlang‘ich maktabga o‘tish jarayonida bolaning psixologik moslashuvi masalasi nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Integratsiyalashgan metodik yondashuvlar, ta’lim bosqichlari uzviyligi, pedagog va ota-ona hamkorligi hamda raqamli vositalar bolalarning emotsional barqarorligi, mustaqilligi, ijtimoiy faolligi va kognitiv rivojini shakllantirishdagi rolini ochib beradi. Jahon va mahalliy tajribalar asosida psixologik tayyorgarlik, uzluksiz ta’lim va zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘rganiladi. Maqola bola rivojini tizimli va strategik yondashuv bilan qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini nazariy asosda yoritadi.

Kalit so‘zlar: psixologik moslashuv, integratsiyalashgan metodik yondashuv, maktabgacha ta’lim, uzluksiz ta’lim, raqamli pedagogika.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ АДАПТАЦИЯ В ПРЕЕМСТВЕННОСТИ УРОВНЕЙ ОБРАЗОВАНИЯ: ИНТЕГРИРОВАННАЯ МЕТОДИЧЕСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ ПЕРЕХОДА ОТ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ К ШКОЛЬНОМУ ОБУЧЕНИЮ

Аннотация: В статье теоретически рассматривается психологическая адаптация детей при переходе из дошкольного в начальное образование. Интегрированные методические подходы, преемственность образовательных этапов, сотрудничество педагогов и родителей, а также цифровые инструменты раскрывают их роль в формировании эмоциональной устойчивости, самостоятельности, социальной активности и когнитивного развития ребенка. На основе мирового и отечественного опыта изучаются психологическая подготовка, непрерывное образование и современные педагогические технологии. Статья демонстрирует возможности системного и стратегического подхода к поддержке развития детей.

Ключевые слова: психологическая адаптация, интегрированные методические подходы, дошкольное образование, непрерывное образование, цифровая педагогика.

PSYCHOLOGICAL ADAPTATION IN THE CONTINUITY OF EDUCATIONAL STAGES: AN INTEGRATED METHODOLOGICAL CONCEPT OF THE TRANSITION FROM PRESCHOOL TO PRIMARY SCHOOL

Abstract: The article provides a theoretical analysis of children’s psychological adaptation during the transition from preschool to primary education. Integrated methodological approaches, continuity of educational stages, teacher-parent collaboration, and digital tools highlight their role in developing emotional stability, independence, social engagement, and cognitive growth. Based on international and local experiences, the study examines psychological preparation, continuous education, and modern pedagogical technologies. The article demonstrates the potential of a systematic and strategic approach to support children’s development effectively.

Keywords: psychological adaptation, integrated methodological approach, preschool education, continuous education, digital pedagog

Maktabgacha ta’limdan maktabga o‘tish jarayoni — bolaning butun ta’limiy hayotidagi eng mas’uliyatli va murakkab bosqichlardan biridir. Bu jarayon

nafaqat o‘quv faoliyati xarakterining o‘zgarishi, balki bola psixologiyasidagi tub burilishlar, yangi ijtimoiy rollar, mas’uliyat darajasining ortishi va turmush tarzi o‘zgarishlarini ham o‘z ichiga oladi. Shu bois maktabga moslashuv masalasi barcha davrlarda pedagogika va psixologiya fanining markaziy muammolaridan biri bo‘lib kelgan. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida bu masala yanada dolzarb tus olmoqda, chunki zamonaviy maktab endi faqat bilim beradigan maskan emas — u bolada mustaqillik, ijtimoiy ko‘nikma, tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati va moslashuvchanlikni shakllantiradigan murakkab tizimga aylangan.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bolalarning maktabga moslashuvi ularning keyingi yutuqlari, o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi, o‘zini qadrlash darajasi, ijtimoiy moslashuvchanligi va o‘quv natijalariga bevosita ta’sir qiladi. Masalan, OECD ma’lumotlariga ko‘ra, maktabga psixologik moslashuvi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar dastlabki uch yil ichida akademik muvaffaqiyat ko‘rsatkichlari 38 % ga yuqori bo‘lishi aniqlangan [1]. UNESCO esa maktabgacha ta’limni maktab muvaffaqiyatining “asosiy determinanti” sifatida baholab, bu bosqichda shakllangan ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar keyingi ta’lim natijalariga kuchli ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi [2].

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham maktabgacha ta’limga qaratilgan e’tibor so‘nggi yillarda keskin kuchaydi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5545-son Farmonida maktabga tayyorlov jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, maktabgacha ta’limni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilash vazifalari aniq ko‘rsatib berilgan [3]. Shuningdek, “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish Konsepsiyasi”da bola rivojining psixologik, nutqiy, emotsional va ijtimoiy jihatlari maktabga muvaffaqiyatli o‘tishning asosiy sharti sifatida e’tirof etilgan [4].

Shu bilan birga, mahalliy tadqiqotlar ham maktabgacha ta’lim va maktab o‘rtasidagi “uzilishlar” o‘quvchi rivojiga salbiy ta’sir qilishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Xususan, pedagog olimlar T. Tursunov va N. Yo‘ldoshevalarning tadqiqotlarida maktabga tayyorgarligi past bo‘lgan o‘quvchilarning 1-sinfning ilk choragidayoq o‘quv motivatsiyasi 27–35 % gacha pasayishi aniqlangan [5]. Finlyandiya, Janubiy Koreya va Kanada ta’lim tizimlarida esa maktabga o‘tish

jarayonining psixologik modeli maxsus modul sifatida ishlab chiqilgan bo‘lib, bu integratsiyalashgan yondashuvning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Bugungi zamon ta’limi o‘z oldiga endi bitta vazifa — “bolani maktabga olib borish” vazifasini qo‘ymaydi; balki u bolani maktabga tayyor holda yetkazish, bunda uning emotsional barqarorligi, ijtimoiy faolligi, mustaqilligi, nutqiy rivoji va kognitiv faoliyati uyg‘un rivojlanishini ta’minlashni talab qiladi. Shu sababli, maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan maktablar o‘rtasida metodik, psixologik, diagnostik va mazmuniy integratsiya zarur bo‘lib qoldi. Integratsiyaning asosiy g‘oyasi — bolaning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tishida “shok effekti”ni kamaytirish, uyg‘un ta’lim muhitini yaratish, bosqichlararo uzviylikni ta’minlash va eng muhimi — o‘quvchining psixologik farovonligini kafolatlashdir.

Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekistonda ham maktabga o‘tish jarayonida ayrim muammolar saqlanib qolmoqda: bolalarning nutqiy rivojlanishi bilan bog‘liq cheklanishlar, diqqatning barqaror emasligi, jamoaviy ishlash ko‘nikmasining yetarli shakllanmagani, ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari, qo‘rquv va xavotir darajasining yuqoriligi, yangi tartib va qoidalarga moslashish qiyinchiliklari. Shu sababli, mazkur maqolada maktabgacha ta’limdan maktabga o‘tish jarayonida psixologik moslashuvni qo‘llab-quvvatlovchi integratsiyalashgan metodik yondashuvlar, xalqaro tajribalar, mahalliy amaliyotlar va davlat siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlar chuqur tahlil qilinadi.

Shuningdek, maqola davomida O‘zbekiston Respublikasining ta’lim siyosati, kompetensiyaviy yondashuv, integratsion modellar, raqamli vositalarning psixologik moslashuvga ta’siri, shuningdek, bola shaxsining ijtimoiy-emotsional rivoji masalalari fundamental manbalar va yangi ilmiy tadqiqotlar asosida yoritiladi. Mazkur yondashuvning ahamiyati shundaki, u bola rivojini yagona tizim sifatida ko‘rib, maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni bir butun ta’lim ekotizimi sifatida talqin qiladi.

Ayni paytda Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “inson kapitalini rivojlantirish” g‘oyasi, yosh avlodning raqobatbardoshligini ta’minlash, ularda keng ko‘lamli kompetensiyalarni shakllantirish siyosati aynan maktabga o‘tish jarayonidagi psixologik moslashuv masalasini strategik ahamiyatga ega bo‘lgan ta’lim vazifasi sifatida belgilaydi. Bu esa mazkur tadqiqotni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham nihoyatda dolzarb qiladi.

Maktabgacha ta’limdan maktabga o‘tish jarayonida bolaning psixologik moslashuvi ko‘p omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning eng muhimlaridan biri — bu bosqichlarga xos metodik tizimlarning bir-biriga moslashganligidir. Bu jarayonning samaradorligi ta’lim dasturlarining vertikal uyg‘unligi, pedagogik yondashuvlarning izchilligi hamda bola rivojlanishining individual dinamikasini hisobga olgan integrativ metodik konsepsiyaning mavjudligiga tayanadi. Qator xalqaro tadqiqotlarda ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi “pedagogik uzviylik” bolalarning psixologik barqarorligiga, o‘qishga bo‘lgan motivatsiya va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalariga bevosita ta’sir qilishi ta’kidlangan. [6]

Maktabgacha ta’lim tizimida shakllantiriladigan “ijtimoiy-emotsional rivojlanish”, “mustaqil fikrlash”, “o‘zini boshqarish”, “hamkorlikda muloqot” kabi kompetensiyalar maktabda muvaffaqiyatli moslashuvning tayanch omili sifatida qaraladi. Shuning uchun ham ta’lim tizimi bolani akademik jarayonga tayyorlash bilan birga, emotsional barqarorlik, ijtimoiy faollik va xavfsizlik hissini kengaytirishga qaratilgan pedagogik muhitni yaratishi zarur. Shu ma’noda, L. S. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi ham bosqichlar uzviyligining metodik asosini tashkil qiladi. Unga ko‘ra, bola yangi ta’lim muhitiga moslashishda o‘zining mavjud rivojlanish bosqichi bilan kelajak darajasi o‘rtasidan o‘rin olgan “ko‘prik” orqali taraqqiy etadi, bu “ko‘prikni” esa pedagogik qo‘llab-quvvatlovchi texnologiyalar belgilaydi.

Bolaning maktabga psixologik tayyorgarligida o‘yin faoliyati asosiy mexanizmlardan biri bo‘lib, u maktabgacha davrning yetakchi faoliyati sifatida e’tirof etiladi. Ammo ko‘plab tadqiqotlar maktabgacha ta’limdan maktabga o‘tayotgan bolalarda o‘yin faoliyatining keskin kamayishi tufayli stress, xavotir, diqqat tarqoqligi, moslashuvda qiyinchiliklar kuzatilishini ko‘rsatadi[7]. Shu bois zamonaviy ta’lim tizimlarida “play-based learning” va “learning through exploration” kabi modellar maktabning boshlang‘ich sinf dasturlariga ham integratsiya qilinmoqda. Bu yondashuv bolaning o‘tish jarayonini yumshatadi, yangi tartib, yangi talablar va yangi muloqot tizimiga moslashishni yengillashtiradi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda maktabgacha ta’limni modernizatsiya qilish va boshlang‘ich ta’lim bilan uzviy integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan davlat siyosati samarali natija bermoqda. Xususan, “2023–2027 yillarda maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirish konsepsiyasi”da bolalarning maktabga psixologik

moslashuvini ta’minlash, tayyorlov guruhlari faoliyatini takomillashtirish, dasturlarni moslashtirish kabi ustuvor vazifalar aniq belgilab berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qarorlarda tayanch kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish, maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’lim dasturlarining yangi avlod standartlari orqali integratsiyasini kuchaytirish nazarda tutilgan. Bu hujjatlar ta’lim tizimida psixologik moslashuvni nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-iqtisodiy vazifa sifatida ham e’tirof etayotganini ko‘rsatadi.

Integratsiyalashgan metodik yondashuvning yana bir tarkibiy qismi — bu o‘qituvchi va tarbiyachilar o‘rtasidagi professional hamkorlikdir. Bolaning maktabga o‘tish jarayonida faqat dasturlar mosligi yetarli emas, balki pedagoglar o‘rtasida muloqot tizimi, kuzatuv natijalari bilan o‘rtoqlashish, o‘quvchining individual psixologik portretini uzatish amaliyotini yo‘lga qo‘yish muhim hisoblanadi. Finlyandiya, Estoniya, Janubiy Koreya kabi ilg‘or ta’lim tizimlarida har bir bola maktabga qabul qilinayotganda “transition profile” deb ataladigan individual rivojlanish xaritasi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga topshiriladi. Bu esa moslashuv jarayonini ilmiy asosda boshqarish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar ham maktabgacha ta’limdan maktabga o‘tishdagi psixologik moslashuv mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Raqamli portfoliolar, elektron rivojlanish kundaliklari, diagnostika platformalari bolalarning emotsional holati, kognitiv rivojlanishi, ijtimoiy faoliyatini tizimli ravishda qayd etish imkonini beradi. Natijada, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari yangi o‘quvchi haqida keng va aniq ma’lumotga ega bo‘ladi. Bu nafaqat individual yondashuvni mustahkamlaydi, balki bolaning moslashuv trayektoriyasini oqilona rejalashtirish imkonini yaratadi.

Psixologik moslashuv jarayonida ota-onaning roli alohida o‘rin tutadi. Maktabgacha ta’lim muassasalari va maktablar o‘rtasida “ota-ona — tarbiyachi — o‘qituvchi” uchburchagini shakllantirish, o‘quvchini yangi bosqichga tayyorlash bo‘yicha birgalikdagi faoliyatni yo‘lga qo‘yish samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Shu nuqtada zamonaviy psixologiya fanida keng qo‘llanilayotgan “family-centered transition approach” konsepsiyasi o‘zini oqlagan. Bu yondashuvda ota-onalar bolaga qo‘llab-quvvatlovchi psixologik muhit yaratishning faol sub’ekti sifatida ishtirok etadi, bu esa moslashuvning xavfsiz va barqaror kechishiga zamin yaratadi.

Maktabga o‘tish jarayonida bolalarning emotsional tayyorgarligi, shuningdek, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarining darajasi moslashuv muvaffaqiyatini belgilovchi eng muhim psixologik omillardan biri hisoblanadi. Dunyo tajribasida bunga “school readiness” modelida keng e’tibor qaratiladi, ayniqsa Yevropa va Osiyo davlatlari o‘rtasida olib borilgan qiyosiy tadqiqotlarda bolaning emotsional barqarorligi akademik tayyorgarlikdan ham ko‘proq ahamiyatga ega ekani ko‘rsatilgan [8]. Bu shuni anglatadiki, bola yangi vazifalarni bajarishdan avval o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishni o‘rganishi zarur.

Psixologik moslashuvning muhim tarkibiy qismi — bu pedagoglarning bolani yangi muhitga tayyorlashda qo‘llaydigan metodlaridir. Maktabgacha ta’limda qo‘llaniladigan erkin o‘yin, jamoaviy mashg‘ulotlar va kreativ faoliyat boshlang‘ich ta’limning dastlabki bosqichiga oson o‘tkazilganda, bola keskin “o‘qish rejimi”ga duch kelmaydi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘yinga asoslangan o‘quv modeli yordamida maktabga o‘tgan bolalar stressni yengilroq boshdan kechiradi, o‘qituvchilar bilan ijobiy aloqa tezroq shakllanadi. Bu esa moslashuv davrini sezilarli darajada qisqartiradi.

O‘zbekiston tajribasida so‘nggi yillarda “Maktabgacha ta’limdan maktabga uzluksiz o‘tish” konsepsiyasi asosida boshlang‘ich ta’limo‘qituvchilari bilan bog‘cha tarbiyachilari o‘rtasida metodik hamkorlik yo‘lga qo‘yila boshladi. Tarbiyachilar tomonidan yuritiladigan bolalarning rivojlanish kartalari, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga yetkazilayotgani amaliyotda individual yondashuvni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, nutqida nuqsoni bo‘lgan, ijtimoiy muloqoti sust yoki emotsional jihatdan sezgir bolalarda bu tizimning samarasi yuqori ekani ko‘zga tashlanmoqda.

Psixologik moslashuvning yana bir yo‘nalishi — bu “o‘tish sinflari” yoki “moslashuv haftaliklari” modeli. Bu jarayon davomida o‘quvchilar maktab muhitiga asta-sekin kirib boradi: sinf xonalarini tanishib chiqadi, o‘qituvchi bilan birgalikda o‘yin shaklidagi mashg‘ulotlar bajaradi, maktabning qoidalari yumshoq tarzda tushuntiriladi. Bunday modelni amaliyotga tatbiq etgan davlatlarda moslashuvning keskinlik darajasi 40–60% ga pasaygani qayd etilgan. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekiston maktablarida ham bosqichma-bosqich joriy etilayotgan integratsion yondashuvlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Oila va pedagoglar o‘rtasidagi hamkorlik ham psixologik moslashuvning muhim elementi sanaladi. Chunki bola uchun maktab — nafaqat yangi ta’lim

muhiti, balki yangi ijtimoiy makon hamdir. Agar ota-ona bolaning bu jarayondagi ruhiy holatini to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlasa, o‘qituvchi bilan muloqotni tizimli yo‘lga qo‘ysa, moslashuv juda tez amalga oshadi. Singapur va Janubiy Koreya tajribasida “Family-School Partnership Model” orqali ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish o‘tish jarayonining samaradorligini oshirgani ta’kidlanadi [9].

Bundan tashqari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari va maktab psixologlari o‘rtasidagi hamkorlik ham alohida e’tiborga ega. Bugungi kunda O‘zbekistonda psixologlar uchun bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligini aniqlashga qaratilgan skrining testlar ishlab chiqilmoqda. Bu skrining natijalari maktab pedagoglariga bolaning individual ehtiyojlarini oldindan ko‘ra olish va mos ravishda metod tanlash imkonini beradi. Bu esa integratsiyalashgan metodik konsepsiyaning real amaliy ko‘rinishi hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar ham bu jarayonda tobora muhim rol o‘ynamoqda. Masalan, elektron portfoliolar, raqamli kuzatuv kartalari, “child development tracker” tizimlari bolaning maktabgacha davrda to‘plagan ko‘nikmalarini aniq aks ettiradi. Bu ma’lumotlar maktab tizimiga avtomatik uzatilgan taqdirda, o‘qituvchi bolani yangi bosqichda mantiqiy davomiylik bilan qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Raqamlashtirish orqali uzviylik kafolatlanishi integratsion yondashuv samaradorligini bir necha baravar oshiradi [10].

Maktabga moslashuvda ota-onalar bilan ilmiy asoslangan hamkorlik strategiyalari juda muhim. Zamonaviy tadqiqotlarga ko‘ra, ota-onaning emotsional qo‘llab-quvvatlashi moslashuvning 45–50 % ko‘rsatkichini tashkil etadi. Shu sababli integratsiyalashgan konsepsiya oilani jarayonning faol subyekti sifatida ko‘radi. [11]

O‘zbekistonda oila instituti mustahkam, bu esa psixologik moslashuv mexanizmlarini samarali joriy etish uchun qulay sharoit yaratadi. Ota-onalar uchun metodik qo‘llanmalar, moslashuv seminar-treninglari, boshlang‘ich sinfga moslashtirilgan “profilaktik uchrashuvlar” tizimi konsepsiyaning muhim tarkibiy qismidir. Bu yondashuv bolaning hissiy barqarorligini ta’minlab, maktabga kirishdagi stressni kamaytiradi.

Psixologik moslashuv samaradorligini baholash uchun diagnostika, oraliq monitoring va yakuniy tahlil bosqichlari joriy etiladi. Bu jarayon bolaning individual rivojlanish kartasi (IRK), moslashuv ko‘rsatkichlari, motivatsion

dinamika va ijtimoiy faollik parametrlari asosida olib boriladi. Xalqaro tajribada bu jarayon “transition assessment toolkit” sifatida qo‘llanadi.

Milliy ta’lim tizimida 2023-yildan boshlab raqamli monitoring tizimlari modernizatsiya qilinayotgani mazkur jarayonni yanada aniq va tizimli olib borishga zamin yaratmoqda. Raqamli diagnostika vositalari psixolog va pedagoglar uchun qulay analitik platforma sifatida xizmat qiladi.

Ta’lim bosqichlari uzviyligida psixologik moslashuvni ta’minlash — maktabgacha ta’limdan maktabga o‘tish jarayonining muvaffaqiyati uchun asosiy shart hisoblanadi. Tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, integratsiyalashgan metodik yondashuv bolalarning emotsional barqarorligini, ijtimoiy muloqotini va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi. Maktabgacha ta’lim metodikasi va boshlang‘ich ta’limning dastlabki yondashuvlari orasidagi uzviylik, pedagog va psixologlar hamkorligi, ota-onaning faol ishtiroki, shuningdek, raqamli monitoring vositalari moslashuv jarayonini yanada samarali qiladi.

Shu tariqa, integratsiyalashgan yondashuv nafaqat bolaning akademik tayyorgarligini oshiradi, balki uning psixologik rivojlanishini ham mustahkamlaydi. Bu esa uzluksiz ta’limning sifatli va zamonaviy amalga oshirilishini ta’minlovchi muhim mexanizm hisoblanadi. Shu bois, mamlakatimizda psixologik moslashuvni qo‘llab-quvvatlovchi strategiyalarni yanada rivojlantirish, pedagoglarning metodik tayyorgarligini oshirish va oilalarni jarayonga faol jalb qilish dolzarb vazifa sifatida qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. OECD. (2020). Starting Strong 2020: Early Childhood Education and Care. OECD Publishing. https://doi. org/10. 1787/9789264391219-en

2. UNESCO. (2019). Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. Paris: UNESCO.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). PF–5545-son “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmon. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati.

4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2021). Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish Konsepsiyasi. Tashkent.

5. Tursunov, T., & Yo‘ldosheva, N. (2018). Maktabga tayyorgarlikning o‘quvchi rivojiga ta’siri. Pedagogika va Psixologiya Jurnali, 4(12), 45–56.

6. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

7. NIEER. (2021). The State of Preschool 2021. National Institute for Early Education Research. https://nieer. org

8. OECD. (2018). School Readiness and Early Learning. OECD Publishing. https://doi. org/10. 1787/9789264302776-en

9. Lee, M., & Choi, J. (2019). Family-school partnership and early transition to school: Evidence from South Korea. Early Childhood Education Journal, 47(2), 123–136. https://doi. org/10. 1007/s10643-018-0915-4

10. McCoy, D. C., et al. (2019). Early childhood development and digital assessment tools. Child Development Research, 2019, 1–12. https://doi. org/10. 1155/2019/8425631

11. Epstein, J. L. (2018). School, Family, and Community Partnerships: Your Handbook for Action (4th ed.). Thousand Oaks, CA: Corwin.

12. Mirzaliyevna, S. Z. (2025). MILLIY TARBIYA ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH TA’LIMO‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH. BILGI ÇEŞMESI, 1(6), 88-94.

13. Mirzaliyevna, S. Z., & Mashhura, X. (2023). Pedagogik texnalogiyalarning vazifalari va maqsadi. Qo ‘qon universiteti xabarnomasi, 687-689.

BOLALARDA MEHNAT MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHDA ODDIY MAISHIY ISHLARNING O‘RNI

Sanginova Gulnoza Baxodirovna
Qo‘qon universiteti
Ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: @gulnoza7001

Annotatsiya:

Maqolada bolalarda mehnat malakalarini shakllantirishda oddiy maishiy ishlarning pedagogik va tarbiyaviy ahamiyati batafsil tahlil qilinadi. Tadqiqot ota-ona va tarbiyachining hamkorligi orqali bolalarda mas’uliyat, mustaqillik, tashkilotchilik, ijtimoiy va mehnatsevarlik fazilatlarini rivojlantirish jarayonini yoritadi. Oddiy uy vazifalari — stol yozish, o‘yinchoqlarni tartibga qo‘yish, gullarga qarash kabi faoliyatlar — bolaning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi, mehnatni qadrlash hissini uyg‘otadi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga tayyorlaydi. Shuningdek, maqolada xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotlar hamda Prezident qarorlari va davlat dasturlari asosida mehnat tarbiyasining samarali mexanizmlari va amaliy tavsiyalari ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: Mehnat tarbiyasi, maishiy ishlar, bolalar rivoji, ota-ona hamkorligi, pedagogik yondashuv, ichki motivatsiya, ijtimoiy ko‘nikmalar.

РОЛЬ ПРОСТЫХ БЫТОВЫХ ДЕЛ В ФОРМИРОВАНИИ ТРУДОВЫХ НАВЫКОВ У ДЕТЕЙ

Аннотация

Статья посвящена анализу педагогического и воспитательного значения выполнения простых домашних обязанностей в формировании трудовых навыков у детей. Исследование рассматривает процесс сотрудничества родителей и воспитателей, направленный на развитие у детей ответственности, самостоятельности, организаторских навыков, трудолюбия и социальных компетенций. Простые домашние дела — сервировка стола, приведение игрушек в порядок, уход за растениями — укрепляют внутреннюю мотивацию ребенка, формируют уважение к труду и готовят его к активному участию в общественной жизни. В статье также представлены эффективные механизмы трудового воспитания на основе международных и

местных исследований, а также указов Президента и государственных программ.

Ключевые слова: Трудовое воспитание, домашние обязанности, развитие ребенка, сотрудничество родителей и педагогов, педагогический подход, внутренняя мотивация, социальные навыки.

THE ROLE OF SIMPLE HOUSEHOLD TASKS IN DEVELOPING WORK SKILLS IN CHILDREN

Annotation

The article is devoted to an analysis of the pedagogical and educational significance of performing simple household chores in the development of work skills in children. The study examines the process of cooperation between parents and educators aimed at fostering in children responsibility, independence, organizational skills, diligence, and social competencies. Simple household tasks — setting the table, tidying up toys, taking care of plants — strengthen a child’s internal motivation, instill respect for work, and prepare them for active participation in social life. The article also presents effective mechanisms of labor education based on international and local research, as well as presidential decrees and government programs.

Keywords: Labor education; household duties; child development; cooperation of parents and educators; pedagogical approach; internal motivation; social skills.

Bolalik — bu inson hayotidagi eng nozik, eng sermazmun davr bo‘lib, aynan shu bosqichda bola har bir harakati, har bir urinishida o‘zining kichik, ammo mustahkam “men”ini quradi. Maktabgacha yosh davri nafaqat o‘yinlar, quvnoqliklar, balki asta-sekin mehnatni, tartibni, mas’uliyatni anglash davri hamdir. Bolaga mehnatni o‘rgatish, avvalo, uning o‘z ehtiyojlari va kundalik hayotda duch keladigan vazifalarni mustaqil bajara olishiga turtki beradi. Shu bois oddiy maishiy ishlar — stol tuzatish, o‘yinchoqlarni yig‘ish, gullarga suv quyish, kiyimlarini taxlash — bola uchun shunchaki ish emas, balki tarbiyaviy maktabdir. [1]

Maishiy mehnatning eng katta afzalligi shundaki, u bola hayotining tabiiy qismidir: bunda sun’iy, majburiy vazifa emas, balki real ehtiyojga asoslangan faoliyat mavjud. Bola o‘zining kichik hissasi orqali “men foydali bo‘lishim

mumkin”, “men qila olaman”, “men mas’uliyatli insonman” degan ichki ishonchni shakllantira boshlaydi. Bu esa psixologik rivojlanishning eng muhim poydevoridir.

Ilmiy-pedagogik qarashlarga ko‘ra, maishiy mehnat bolalarda nafaqat mayda motorikani va idrokni, balki ijtimoiy hislarni — hamkorlik, mas’uliyat, mehnatga hurmat, jamoaga qo‘shilish kabi fazilatlarni shakllantiradi. Shuning uchun tarbiyachi va ota-onalar tomonidan maishiy ishlarning to‘g‘ri tashkil etilishi — bolaning kelajak shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mehnatning eng qulay va tabiiy shakli — bu oddiy maishiy faoliyatdir. O‘yinchoqlarni yig‘ish, stol tayyorlash, gullarga suv quyish, kiyimlarini tartibga keltirish kabi kichik yumushlar bolaning jismoniy rivojlanishi bilangina emas, balki ijtimoiy-emotsional shakllanishiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Jahon pedagogik amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, bola eng samarali o‘rganadigan maydon — bu real hayotiy faoliyatdir. Dewey ta’kidlaganidek, “bola amalda qilgan ishidagina bilimni chuqur anglaydi”. [2]

Shu sababli oddiy maishiy ishlar bolaga mehnatni sun’iy topshiriq emas, balki hayotning tabiiy bo‘lagi sifatida ko‘rsatadi. Bu jarayonda tarbiyachining yo‘l-yo‘rig‘i va ota-onaning uy sharoitida faol davom ettirishi bolaning mehnatga ijobiy munosabatini shakllantiradi. Mazkur birlik O‘zbekiston ta’lim siyosatida ham alohida urg‘u bilan belgilangan: maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning mustaqilligi va kundalik mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish davlat tomonidan tasdiqlangan asosiy vazifalardan biridir. [3]

Maishiy ishlarning tarbiyaviy kuchi shundaki, ular bolada “natija” tushunchasini shakllantiradi. Bola o‘zi tozalagan stolni ko‘rganda, suv quygan guli jonlanib turganda, manfaatli mehnatning natijasini his qiladi. Bu esa Vygotskiy ta’riflagan sotsiokultural rivojlanish jarayonining muhim qismidir — bola kattalarning yo‘nalishi ostida ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni o‘zlashtirib boradi. [4]

Oddiy maishiy vazifalar bolaning ichki dunyoqarashi va ijtimoiy ongini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Mehnat orqali bola o‘zining kichik “katta dunyosi”ni kashf etadi: u buyumlarni tartibga qo‘yadi, tartibsizlikdan tartib yaratadi va natijaga erishadi. Bunday tajriba uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini kuchaytiradi, chunki bola o‘zi qilgan ishlari natijasini ko‘rib, “men foydali bo‘lishim mumkin” degan tuyg‘uni his qiladi.

Bundan tashqari, maishiy mehnat bolaga ijtimoiy mas’uliyatni o‘rgatadi. U oiladagi kichik vazifalarini bajarib, “men ham oilaning bir a’zosiman” degan

tushunchaga ega bo‘ladi. Bu Vygotskiy sotsiokultural nazariyasi bilan ham mos keladi: bola ijtimoiy muhit orqali shakllanadi va uning mahorati “mashq va muloqot” orqali o‘sadi.

Mustaqillik va mas’uliyatni shakllantirishda Montessori uslubi ham muhim rol o‘ynaydi. Maria Montessori amaliy hayot mashg‘ulotlarini bola mustaqil harakat qilishi va natijani ko‘rishi uchun mo‘ljallagan; bunda tarbiyachi markazda emas, yo‘l-yo‘riq beruvchi sifatida ishtirok etadi. Shu tarzda bola “o‘zining kichik hayotida” tartib, tartib-intizom va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi[1].

Shuningdek, maishiy ishlar jamoadagi hamkorlikni rivojlantiradi. Masalan, ota-ona bolaga stolni yig‘ishtirishda yoki idishlarni yuvishda yordam beradi, bu esa bola uchun ham jamoaviylik, ham o‘z roli borligi tushunchasini beradi. Bu Bronfenbrennerning ekologik rivojlanish nazariyasiga murojaat qiladi: u maktab va oila muhitlarining bir-biriga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatadi. [5]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 8-mayda qabul qilingan PQ–4312-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” bolalarda mustaqillik va hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga katta e’tibor beradi. Konsepsiya doirasida maktabgacha ta’lim muassasalarida nafaqat akademik bilim, balki amaliy mehnat faoliyati ham ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida ko‘rilishi kerakligi belgilandi. [6]

Bu siyosiy yondashuv oddiy maishiy vazifalarni tarbiyaviy vosita sifatida tantanali qabul qilishni anglatadi — ya’ni maktabgacha yoshdagi bolalar oilada va ta’lim muassasasida bir xil talablar asosida oamaliy mehnatga jalb etilishi maqsadga muvofiq ekani tushuntirilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida oddiy maishiy ishlarning ta’siri beqiyosdir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bola dastlabki hayotiy ko‘nikmalarni aynan maishiy mehnat jarayonida egallaydi, chunki u tabiiy, takrorlanuvchi, bolaning yoshiga mos va eng muhimi — real hayot bilan bevosita bog‘langan faoliyatdir. Shuning uchun mehnat tarbiyasini “kichik vazifalardan boshlash” — xalqaro va mahalliy metodikada birinchi tamoyil sifatida e’tirof etiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda maishiy ishlar orqali mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish — bu nafaqat kichik vazifalarni bajarish, balki

bolaning shaxs sifatida rivojlanishi, mustaqilligi va mas’uliyat tuyg‘usini mustahkamlashning samarali vositasidir. Oddiy uy yumushlari — o‘yinchoqlarni yig‘ish, stol tayyorlash, gullarga suv quyish va kiyimlarini tartibga keltirish — bolaga o‘z kuchiga ishonch, natija tushunchasi, ijtimoiy mas’uliyat va hamkorlik ko‘nikmalarini beradi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, jumladan Montessori va Vygotskiy nazariyalari, shuningdek, davlat va xalqaro ta’lim siyosati bolaga amaliy faoliyat orqali hayotiy ko‘nikmalarni erta shakllantirish muhimligini tasdiqlaydi. Shu bois, maishiy mehnat — bolaning kelajakdagi tashabbuskor, mas’uliyatli va ijtimoiy moslashuvchan shaxs bo‘lib yetishishidagi muhim poydevor hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3907-son qarori. (2018, 30-sentabr). *Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida*.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4312-son qarori. (2019, 8-aprel). *Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida*.

3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (2020). *O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi*.

4. Maktabgacha ta’lim vazirligi. (2021). *Ilk qadam: Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun davlat o‘quv dasturi*. Toshkent.

5. Bronfenbrenner, U. (1979). *The ecology of human development: Experiments by nature and design*. Harvard University Press.

6. Dewey, J. (1916). *Democracy and education*. Macmillan.

7. Сангинова Г. Б. (2023). ЗНАЧЕНИЕ И МЕСТО НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. Экономика и социум, (4-1 (107)), 840-846.

8. Bohodirovna, S. G., & Usmanova, H. (2022). MODEL OF INNOVATIVE STRATEGY ON THE BASIS OF VARIATIVE APPROACH TO PRESCHOOL EDUCATION. In *Conference Zone* (pp. 197-199).

9. IMPROVING ORGANIZATION IN THE FIRST ENVIRONMENTAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. (2024). *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, *4*(4), 440-447.

10. Goodnow, J. (1995). The organization of household tasks: Implications for children's development. *Human Development*, *38*(1), 28–45.

11. Child Development. (2022). Household chores and the development of executive functions in early childhood. *Child Development, 93*(4), 1120–1135.

12. OECD. (2020). *Early Childhood Education and Care Policy Review*. OECD Publishing.

13. UNESCO. (2019). *ECCE (Early Childhood Care and Education) Framework*. UNESCO Publishing.

14. UNICEF. (2021). *Early childhood development guidance for caregivers*. UNICEF.

15. Xoliqulova, R., & Yo‘ldosheva, D. (2020). *Maktabgacha tarbiya nazariyasi va metodikasi*. Toshkent: Fan va texnologiya.

16. Jabborova, M. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasining psixologik asoslari. *Pedagogika va psixologiya jurnali, 4*(3), 45–52.

MAKTABGACHA, UMUMIY O‘RTA, O‘RTA MAXSUS VA OLIY TA’LIM INTEGRATSIYASI VA TRANSFORMATSIYASI

Komiljonova Guluzraxon Nizomjon qizi
Qo‘qon universiteti Ta’lim kafedrasi dotsenti v. b.
komiljonovaguluzra6@gmail. com
Yo‘ldashevaNaimaxon Ubaydullo qizi
Qo‘qon Universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi
3-bosqich talabasi
naimaxonyoldasheva1@gmail. com

Annotatsiya. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari — maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim — o‘zaro integratsiyalashuvi va raqamli transformatsiyasi jadallik bilan amalga oshirilmoqda. 2023–2025 yillardagi islohotlar ta’lim bosqichlari o‘rtasida uzviylikni ta’minlash, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish, raqamli platformalar orqali muvofiqlashtirilgan ta’lim kontenti yaratish va kadrlar salohiyatini oshirishga qaratildi. Maktabgacha ta’limda rivojlantiruvchi metodikalar va raqamli kuzatuv tizimlari, umumiy o‘rta ta’limda yangilangan o‘quv dasturlari, o‘rta maxsus ta’limda kasbiy modul integratsiyasi hamda oliy ta’limda kredit-modul tizimi va masofaviy ta’lim imkoniyatlarining kengayishi ta’lim tizimining yagona metodik model sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda. Ushbu integratsiya ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi uzviylikni kuchaytirib,

raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishini tezlashtiradi va ta’limning barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

Kalit so‘zlar Integratsiya, transformatsiya, ta’lim tizimi, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus ta’lim, oliy ta’lim, kompetensiya, kredit-modul tizimi, raqamli ta’lim, metodik yangilanish.

ИНТЕГРАЦИЯ И ТРАНСФОРМАЦИЯ ДОШКОЛЬНОГО, ОБЩЕГО, СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО И ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В последние годы все звенья системы образования Узбекистана – дошкольное, общее среднее, среднее специальное и высшее – стремительно интегрируются и цифровизируются. Реформы на 2023–2025 годы направлены на обеспечение преемственности между ступенями образования, внедрение компетентностного подхода, создание скоординированного образовательного контента на основе цифровых платформ и повышение кадрового потенциала. Развивающие методики и системы цифрового мониторинга в дошкольном образовании, обновленные учебные программы в общем среднем образовании, интеграция профессиональных модулей в среднее специальное образование, расширение кредитно-модульной системы и возможностей дистанционного обучения в высшем образовании способствуют формированию системы образования как единой методической модели. Эта интеграция укрепляет преемственность между ступенями образования, ускоряет подготовку конкурентоспособных кадров и создает основу для устойчивого развития образования.

Ключевые слова Интеграция, трансформация, система образования, дошкольное образование, общее среднее образование, среднее специальное образование, высшее образование, компетенции, кредитно-модульная система, цифровое образование, методическое обновление.

INTEGRATION AND TRANSFORMATION OF PRESCHOOL, GENERAL SECONDARY, SECONDARY SPECIALIZED AND HIGHER EDUCATION

ANNOTATION. In recent years, all parts of the education system in Uzbekistan - preschool, general secondary, secondary specialized and higher education - have been rapidly integrated and digitally transformed. The reforms for 2023–2025 are aimed at ensuring continuity between educational stages,

introducing a competency-based approach, creating coordinated educational content through digital platforms, and increasing human resources capacity. Developmental methodologies and digital monitoring systems in preschool education, updated curricula in general secondary education, integration of vocational modules in secondary specialized education, and the expansion of credit-module systems and distance learning opportunities in higher education are contributing to the formation of the education system as a single methodological model. This integration strengthens the continuity between educational stages, accelerates the training of competitive personnel, and creates the basis for the sustainable development of education.

Keywords. Integration, transformation, education system, preschool education, general secondary education, secondary specialized education, higher education, competence, credit-module system, digital education, methodological renewal.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim bosqichlarining o‘zaro integratsiyasi va kompleks transformatsiyasini taqozo etmoqda. Ta’lim jarayonida bosqichlararo uzviylikni kuchaytirish, o‘quv dasturlarini yagona kompetensiyaviy yondashuv asosida uyg‘unlashtirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish 2023–2025 yillardagi modernizatsiya siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu esa pedagogik jarayonlarni yangilash, o‘quvchilarni bosqichma-bosqich rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va xalqaro talablarga mos ta’lim tizimini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktabgacha ta’limda rivojlantiruvchi dasturlar, tarbiyaviy standartlar va raqamli kuzatuv tizimlarining joriy etilishi bola rivojining ilk bosqichdan boshlab sifatli nazorat qilinishiga imkon bermoqda. Umumiy o‘rta ta’limda yangi o‘quv standartlari, kompetensiyaviy yondashuv, STEAM ta’limi va raqamli platformalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirmoqda. O‘rta maxsus ta’limda kasbiy modul integratsiyasi, dual ta’lim elementlari va bozor talabiga mos kasb yo‘nalishlarining kengaytirilishi yoshlarning amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Oliy ta’limda kredit-modul tizimi, akademik mobil’lik, xalqaro akkreditatsiya va masofaviy ta’lim imkoniyatlarining kengayishi esa kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. [1]

Ta’limning barcha bo‘g‘inlarining uyg‘un holda rivojlanishi ularni yagona metodik, raqamli va tashkiliy ekotizimga birlashtirish zaruratini tug‘dirmoqda. Bosqichlararo integratsiya orqali o‘quvchi yoki talabaning individual rivojlanish traektoriyasini shakllantirish, o‘quv resurslaridan samarali foydalanish va ta’limning uzluksizligini ta’minlash mumkin bo‘lmoqda. Transformatsiya jarayonining asosini raqamli ta’lim platformalari, onlayn monitoring tizimlari, o‘quv dasturlarining moslashuvchanligi va pedagoglarning malakasini oshirish mexanizmlari tashkil etadi. Ushbu jarayonlar natijasida O‘zbekiston ta’lim tizimi bosqichma-bosqich xalqaro standartlarga yaqinlashib, ta’limning sifat ko‘rsatkichlari yaxshilanib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayoni tezlashmoqda. Shu bois maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim integratsiyasi va transformatsiyasini o‘rganish bugungi ta’lim siyosatining eng dolzarb ilmiy-amaliy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. [2]

2023–2025 yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarini yagona metodologik va raqamli platformaga integratsiyalash jarayoni jadallashdi. Maktabgacha ta’limda rivojlantiruvchi dasturlar, elektron portfoliolar va kuzatuv tizimlari joriy etilishi bola rivojlanishini erta bosqichdan diagnostika qilish imkonini yaratmoqda. Umumiy o‘rta ta’limda kompetensiyaviy yondashuv, STEAM va raqamli ta’lim modullarining kengayishi o‘quv jarayonining moslashuvchan va amaliy yo‘naltirilgan bo‘lishini ta’minlamoqda. O‘rta maxsus ta’limda kasbiy modul integratsiyasi, amaliy mashg‘ulotlar, dual ta’lim elementi, bozor talabiga mos yo‘nalishlar ochilishi kadrlar bozoridagi bo‘shliqni qisqartirmoqda. Oliy ta’limda kredit-modul tizimi, xalqaro akkreditatsiya, masofaviy ta’lim va ilmiy-tadqiqot faolligining ortishi ta’limning sifat ko‘rsatkichlarini sezilarli oshirdi.

Bosqichlararo uzviylikni mustahkamlash uchun 2024–2025 yillarda yagona raqamli ta’lim platformalari (“my. edu. uz”, “e–kadr”, “talaba. uz”) joriy etildi, bunda o‘quv ma’lumotlari bosqichdan bosqichga uzluksiz ko‘chiriladi. Integratsiya natijasida ta’lim dasturlarining takrorlanishi 18–25 % ga qisqarib, o‘quv yuklamasi optimallashtirildi. O‘quv dasturlarining moslashuvchanligi va ularning vertikal uyg‘unligi ta’limning sifat ko‘rsatkichlarining yillik o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. [3] Quyidagi jadval 2023–2025 yillar oralig‘ida ta’lim bosqichlaridagi integratsiya va transformatsiya yo‘nalishlarining asosiy ko‘rsatkichlarini umumlashtirib beradi:

1-Jadval. 2023–2025 yillarda ta’lim bosqichlaridagi integratsiya va transformatsiya ko‘rsatkichlari

Ta’lim bosqichi	Asosiy islohotlar	Integratsiya ko‘rsatkichi	Natija
Maktabgacha ta’lim	Rivojlantiruvchi dasturlar, elektron kuzatuv, “Raqamli bog‘cha”	65 %	Erta diagnostika, rivojlanish xaritasi shakllanishi
Umumiy o‘rta ta’lim	STEAM, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli darslar	72 %	O‘quv dasturlarining uzviyligi kuchaydi
O‘rta maxsus ta’lim	Kasbiy modul, dual ta’lim, amaliyot tizimi	68 %	Kadrlar bozoriga mos ko‘nikmalar oshdi
Oliy ta’lim	Kredit-modul tizimi, masofaviy ta’lim, xalqaro akkreditatsiya	78 %	Ta’lim sifati, ilmiy faollik oshdi

Integratsiya jarayonining umumiy natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi metodik uyg‘unlik kuchayib, talabalar va o‘quvchilarning rivojlanish traektoriyasi aniq shakllanmoqda. Raqamli platformalar orqali ma’lumotlarning uzluksiz almashuvi ta’lim tizimining samaradorligini oshirib, sifat monitoringini avtomatlashtirmoqda. 2025-yil yakunlariga ko‘ra, o‘quv jarayonining raqamlashtirilishi ta’lim sifatining yillik o‘sishiga o‘rtacha 12–15 % ijobiy ta’sir ko‘rsatgani qayd etildi. [4,76]

Ushbu integratsiya nafaqat pedagogik jarayonlarni uyg‘unlashtiradi, balki ta’limning barcha bo‘g‘inlarini yagona, barqaror, zamonaviy va bozor talablariga mos raqamli ekotizimga birlashtiradi.

Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi integratsiya va transformatsiya 2023–2025 yillardagi islohotlar natijasida O‘zbekiston ta’lim tizimining strategik rivojlanish yo‘nalishiga aylandi. Raqamli texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, kredit-modul tizimi va dual

ta’lim elementlarining keng joriy etilishi ta’lim bosqichlarining o‘zaro bog‘liqligini kuchaytirib, uzluksiz ta’limning sifatini oshirdi.

Integratsiya natijasida o‘quv dasturlarining takrorlanishi qisqarib, ta’lim yuklamasi optimallashtirildi, o‘quvchilarning rivojlanish traektoriyasini kuzatish imkoniyati kengaydi, kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish samaradorligi oshdi. Raqamli platformalar ta’lim jarayonining shaffofligi, monitoringi va samaradorligini ta’minlab, bosqichlararo uzviylikni raqamli ekotizim darajasiga olib chiqdi. Ushbu jarayonlarning kengayishi natijasida O‘zbekiston ta’lim tizimi xalqaro standartlarga yaqinlashib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga yo‘naltirilgan, zamonaviy, barqaror va moslashuvchan ta’lim modeli shakllanmoqda. Integratsiya va transformatsiya jarayonlari kelgusida ta’lim samaradorligini yanada oshirish, innovatsion metodikalarni tatbiq etish va ta’lim tizimini global raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. McKinsey & Company. *Global Education Transformation Trends 2024*.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hisobotlari (2024).
3. “My. edu. uz” va “Talaba. uz” platformalari integratsiya bo‘yicha ochiq ma’lumotlar to‘plami (2024–2025).
4. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi — Kredit-modul tizimi bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar (2023).
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha qarorlari (2023–2025).
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi — “Raqamli ta’lim” konsepsiyasi (2023).
7. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI AMALGAOSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. EducationalResearch in Universal Sciences, 2(12), 198–201. Retrieved from http://erus. uz/index. php/er/article/view/5505
8. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA CHETEL O ‘QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA

SAMARALI TAQDIRLASH. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 783-785.

9. UNESCO. *Education Transformation Framework 2024*.

10. UNICEF. *Early Childhood Development Innovations* (2023).

MILLIY MUSIQA SAN’ATINI O‘QITISHDA JANRLAR XILMA-XILLIGI

Mansurova Nigoraxon Rustamjonovna
Farg‘ona davlat universiteti Vokal va cholg‘u ijrochiligi kafedrasi katta o‘qituvchisi
Rahimberdiyeva Gulbahor Kamalidin qizi
Qahhorov Ozodbek Sohib o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti “Cholg‘u ijrochiligi” yo‘nalishi 1-bosqich talabalari

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek milliy musiqa merosining qadimiy janrlaridan biri bo‘lgan folklor san’ati va uning ijrochilik an’analari haqida so‘z boradi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida folklor san’ati muhim ahamiyat kasb etishi va uning tarixiy manbalarda keltirilishi bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: folklor, yalla, o‘lan, lapar, terma, aytim.

РАЗНООБРАЗИЕ ЖАНРОВ В ПРЕПОДАВАНИИ НАЦИОНАЛЬНОГО МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА

Аннотация. В данной статье рассматривается фольклорное искусство – один из древнейших жанров узбекского национального музыкального наследия, и его исполнительские традиции. Значение фольклорного искусства в узбекском устном народном творчестве объясняется его упоминанием в исторических источниках.

Ключевые слова: фольклор, ялла, улан, лапар, терма, айтим.

GENRE DIVERSITY IN TEACHING NATIONAL MUSIC ART

Abstract. This article discusses folklore art, one of the ancient genres of the Uzbek national musical heritage, and its performing traditions. The importance

of folklore art in Uzbek oral folk art is explained by its mention in historical sources.

Keywords: folklore, yalla, o‘lan, lapar, terma, aytim.

Milliy musiqa san’ati yosh o‘sib kelayotgan avlodlarni yetuk, har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda asosiy tarbiya vositalaridan biri hisoblanadi. Asrlar osha bizgacha yetib kelgan o‘lmas an’ana – bu milliy musiqiy meros qadriyatlaridir. Har bir inson o‘z millatining tarixi, an’analari, qadriyatlari, madaniyati va san’atini bilmog‘i uning oldida turgan yuksak vazifalaridan biridir. Ajdodlarimiz tomonidan bir necha ming yillar davomida ijod namunalari yaratilib, zamonlar osha bizgacha yetib kelgan boy musiqiy merosimizning turli go‘zal, noyob, uslubga boy va o‘ziga xos jihatlari uning qadimdan mavjudligi, kuchli va bitmas-tuganmas ma’naviyat sarchashmalaridan ekanligidan dalolat beradi.

Sharq xalqlari, xususan, o‘zbek xalqining bebaho merosi sifatida musiqiy madaniyati, ayniqsa milliy musiqa san’ati, xalq kuy va qo‘shiqlari, og‘zaki an’anadagi xalq og‘zaki ijodi namunalari avloddan avlodga o‘tib kelayotgan musiqiy san’at durdonalari muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimiz orasida azaldan ijro etib kelingan xalq kuy va qo‘shiqlari, laparlar, o‘lanlar, yallalar, dostonlar va og‘zaki ijod namunalari musiqiy merosimizning bebaho ma’naviy xazinasi xisoblanadi. Yurtimizda bu san’at turini o‘rganish va o‘rgatish jarayonlariga bog‘liq ta’lim tizimi og‘zaki an’nanga asoslanlangan bo‘lib, O‘zbekiston hududida bir necha mahalliy uslublarni yuzaga kelishiga va bu san’at turini yanada ommaviy bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Mustaqillik yillarida folklor san’atini o‘rganish, o‘zbek xalqining boy musiqa san’atini butun dunyoga tanitish, uning noyob ijod namunalarini namoyon qilish, yo‘qolib borayotgan ijod namunalarini to‘plash va yig‘ish, iste’dod egalarini topish va ular ijodini qo‘llab quvvatlashga qaratilgan islohotlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida” 2018-yil 1-noyabrdagi PQ–3990-son Qarori [1], “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 14-maydagi PQ–4320-son Qarori, “Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tkazib borishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 3-oktabrdagi PF–5841-son, “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 26-maydagi PF–6000-son

farmonlari, Vazirlar Mahkamasining “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 22-noyabrdagi 946-son, “O‘zbek milliy maqom san’ati markazi huzuridagi Marg‘ilon shahar musiqali maqom teatri faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2019-yil 5-sentabrdagi 732-son, “Madaniyat markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” hamda “Madaniyat markazlari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 30-martdagi 263-son va 264-son qarorlari imzolanib, hayotga tatbiq etilayotgani, folklor san’ati sohasida “Nurli navolar”, “Ipak va ziravorlar”, “Boysun bahori”, “Raqs sehri”, “Buyuk ipak yo‘li” kabi xalqaro festivallar o‘tkazilishi, shuningdek, turli ko‘rik-tanlovlar, “davra suhbatlari”, “ustoz saboqlari”, ilmiy anjumanlar tashkil etilayotgani, kitoblar chop etiishi, maqolalar bosilishi, televideniye va radio orqali ko‘rsatuv va eshittirishlar yo‘llanishi bu boradagi faol amaliy ishlarga yaqqol misollardir [2, 35].

Asosiy qism. XX asrning 80-yillariga kelib xalq ijodiyoti namunalarini targ‘ib etuvchi folklor jamoalariga birmuncha e’tibor berilishi shunday jmoalar paydo bo‘lishi va rivojlanishi uchun zamin yaratdi. O‘z navbatida, tashkil topgan jamoalar yashab turgan hududlari chegarasida saqlanib qolgan xalq qo‘shiqlari, kuylari, raqslari, udumlari va urf-odatlarini o‘rganish hamda sahna vositasida targ‘ib qilishga kirishib ketdilar [3, 6].

Xalq og‘zaki ijodiyotida folklor san’ati alohida o‘rinni egallaydi. U mazmun jihatidan keng ma’noni anglatadi va shu tufayli o‘z ichiga xilma-xil shakl va tur (aytim, cholg‘u kuy)larini qamrab oladi.

Unining ko‘rinishlari dastalab qobiliyatli insonlar tomonidan yakka yoki jamoa tarzida yaratilib, keyin xalq orasida tarqalib, ommaviylashib boradi. Shu tariqida bir necha ming yillardan buyon xalq qo‘shiq va kuylari ajdodlardan-avlodlarga og‘zaki tarzda meros sifatida bizgacha etib keldi. Ammo bu an’analar og‘zaki tarzda o‘rgatilgani bois, asrlar davomida turli xil o‘zgarishlarga uchrab, har bir ijrochining ijro imkoniyatidan kelib chiqib, musiqiy folklor an’analarning turlicha ko‘rinishlari yuzaga kelgan.

Xalq aytimlari tarkibi va tabiati sinkretik san’atdir. Bunda so‘z, kuy va o‘yin (raqs, ma’lum harakat) unsurlarining o‘zaro “qorishib” kelishini anglatadi. Chunki musiqiy folklor namunalari kelib chiqish mabalariga ko‘ra xalq hayoti bilan bog‘liq turli ko‘rinishlarda, hususan, mehnat jarayoni, oilaviy marosim va

urf-odatlar, sayl va boshqa ommaviy tantanalarida qaror topgan va ijro etib kelingan [4, 195].

Musiqiy folklor namunalari xalq hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati jihatidan ikki guruhga tasniflanadi:

1. Ijro etilishi turli vaziyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘shiqlar;
2. Erkin mavzudagi qo‘shiqlar (Inpravizasiya qo‘shiqlari ham kiradi.

Birinchi turdagi qo‘shiqlar mehnat jarayoni, mavsumiy va oilaviy marosim aytimlariga xos bo‘lib, ma’lum vaziyatlar yuzaga kelganda ijro etilishi nazarda tutiladi. Masalan, “Alla” aytimi chaqaloqni uhlatayotganda, “Yor-Yor” qo‘shig‘i kelin uzatish marosimida, “Qo‘sh hayda” aytimi mehnat marosimida yerni haydash jarayonlarida aytishni taqazo etadi.

Erkin mavzudagi kuy-qo‘shiqlar esa, terma, yalla, lapar, o‘lan kabi janrlarni tashkil etadi. Ular vaqt va maxsus joy va mavsum tanlamaydi. Ihtiyoriy tarzda ijro etilaveradi.

Mehnat qo‘shiqlari. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida mehnat qo‘shiqlari inson mehnat faoliyati turlaridan bo‘lgan er haydash, tegirmon yanchish, ip yigirish, hosil yig‘im terimi va hokazo jarayonlarida o‘ziifodasini topgan. Bu aytim turi ham o‘z navbatida uch guruhga bo‘linadi:

1. Chorvachilik qo‘shiqlari;
2. Dehqonchilik qo‘shiqlari;
3. Hunarmadchilik qo‘shiqlariga bo‘linadi.

Bu kabi aytimlarda mehnat mazmuniga bog‘liq she’riy to‘rtliklar kichik ovoz (kvarta, goho-kvinta) doirasida bo‘lgan nutqdosh va so‘zdosh ohanglar ustuvorligida ifodalanadi; shakliy tuzilmalarining yuzaga kelishida “yettilik” bo‘g‘in-ritmi etakchi o‘rin tutadi; she’riy bandlari oldidan yoki ulardan so‘ng mustaqil naqarotlar deyarli qo‘llanilmaydi, ammo band misralarga ulanib keluvchi maxsus takroriy so‘z-iboralar (masalan, xo‘sh-xo‘sh, turey-turey, mayda-mayda va h. k) qo‘llanilishi pirovardida o‘ziga xoslik kichik naqarotlar yuzaga keladi; asosan yakka ijroni taqoza etuvchi bu qo‘shiqlar jo‘rnavozlik vazifasini bajaruvchi musiqiy cholg‘ular qo‘llanilmaydi [4, 197].

Chorvachilik qo‘shiqlari. Chorvadorlik qo‘shiqlari asosan chorva hayvonlarini sog‘ish jarayonlarida yuzaga kelgan qadimiy aytim qo‘shiqlaridir. Odatda sog‘in qo‘shiqlari sigir, qo‘y-echki, biya, tuya va uy hayvonlarini sog‘ishda tinchliantirish, erkalash ko‘proq sut sog‘ib olishda ijro etilgan. “Xo‘sh-xo‘sh”,

“Turey-turey”, “Churey-churey” kabi aytimlar manashu jarayonlarda kuylangan. Bu aytim turi odatda kvarta va kvinta oralig‘ida yonma-yon bo‘lgan tovushlar oralig‘ida sekin-asta mayinlik bilan kuylangan.

Dehqonchilik qo‘shiqlari. Dehqonchilik qo‘shiqlari yer haydash, donni yanchish, hosil yigim-terimida va bahorgi mehnat jarayonlarini boshlanishi bilan bog‘liq. Ushbu qo‘shiqlar oddiy xalq va dehqonlar tomonidan ularning mehnati va mashshaqatini aks ettiruvchi badiha tarzida to‘rtliklarda savol-javob tarzida ifoda etiladi. Masalan, “Qo‘sh xayda”, “O‘rim qo‘shig‘i”, “Xo‘p mayda”, “Mayda-mayda” kabi qo‘shiqlar shular jumlasidandir.

Hunarmandchilik qo‘shiqlari. Hunarmandchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar asosan ayollar tomonidan ularning ichki kechinmalari, dardlarini aytish orqali ish jarayonlarida ifoda etganlar. Bu qo‘shiqlar asosan ip yigirish, gilam to‘qish, do‘ppi tikish, tikuvchilik kabi mehnat jarayonlari bilan bog‘liqdir. Shu tariqa mehnat bilan boshlangan qo‘shiqlar “Dil yozdi” ohanglariga ulanib ketgan.

Mavsumiy marosim qo‘shiqlari. Mavumiy marosim qo‘shiqlari asosan yil fasllarida yuz beradigan voqea va hodisalar bilan bog‘liqdir. Masalan: Navro‘z bayrami, Sust xotin, Shox moylar, Gul bayramlari – bahor faslida; Choy momo-yoz faslida; Hosil bayrami, Oblo baraka, Shamol chaqirish – kuz faslida; Yas-yusun, Gap-gashtak kabi qo‘shiqlar qish fasllarida ijro etilgan.

Mavsumiy marosim qo‘shiqlarining eng ko‘p namunalari bahor fasli va undagi marosimlar bilan bog‘liq. Navro‘z bayrami munosabati bilan o‘tkaziladigan marosimlarda bolalar ijodiyoti e’tiborga loyiqdir. Bolalar kattalar qatori marosimlarda qatnashib kelganlar. Shu bois “Boychechak”, “Laylak keldi”, “Oq terakmi – ko‘k terak” kabi bolalar tabiatiga mos o‘yin-qo‘shiqlar ijod qilingan [5, 1].

Shuningdek, “Yor-Yor”, “Kelin salom”, “Yig‘i” hamda diniy mazmundagi qo‘shiqlar oilaviy marosim qo‘shiqlari sirasiga kiradi. Kabi qo‘shiqlar ham marosim qo‘shiqlari ichida o‘ziga xos an’ana kasb etadi.

Erkin mavzudagi aytimlar. Bu turdagi aytim qo‘shiqlari asosan xalq orasida erkin mavzularda kuylanuvchi va mahalliy hududlarga xos bo‘lgan qo‘shiqlarga bo‘linadi.

Qo‘shiq. Qo‘shiq – she’r va kuyi xalq tomonidan ijod qilinib va xalq orasida keng tarqalgan janr; qo‘shiq she’rlari bir necha band bo‘lib, ba’zan naqarotli bo‘ladi. Qadimda xalq orasida keng tarqalgan bu janrning she’r va

muzikasi bir yo‘la yaratilgan. Hozir O‘zbekistonda bastakor va kompozitorlar yaratayotgan qo‘shiqlar mavzusi broy va turli-tuman, ular turli marosim, mehnat, ishqiy-lirik, qahramonlik mavzularini o‘z ichiga oladi [6, 35]. Qo‘shiq odatda oddiy barmoq vaznida yozilgan she’rlarga asoslanib yaratiladi. U to‘rtliklardan iborat bo‘ladi. Uning musiqiy shakli unchalik katta bo‘lmagan intervallarini tashkil etadi. Ba’zan oktkavagacha bo‘lgan diopozonni ham tashkil etadi.

Terma. Xalq musiqasida juda ken qo‘llaniladigan janrlardan biri termalardir. Terma-saralab olingan, tanlangan, terib olingan, saylangan degan ma’nolarni anglatadi. Terma janrining xalq ijodiyotida ikki turi mavjud bo‘lib: birinchisi; baxshilar, go‘yandalar, doston ijrochilari, shoirlar tomonidan ijro etiladigan termalar; ikkinchisi: xalq termalari bo‘lib, xalq orasidagi kuy va qo‘shiqlarni bir-biriga mutanosib tarzda terma qilib ijro etiladigan termalardir. Ommaviy bayramlarda, xalq sayllarida, to‘y marosimlarida va turli yig‘in marosimlarda baxshilar tomonidan dostonlardan turli xil termalar ijro etiladi. Xalq orasidagi termachilar esa kuy va qo‘shiqlardan saralab sho‘x, raqsbop termalarni ijro etishadi. Bu asriy an’analar bugungi kunda ham davom etib kelmoqda va rivojlanib, yangi-yangi ijod namunalarini ijrochilar tomonidan kashf etilmoqda.

Lapar atamasi taxminga ko‘ra, ikki so‘zga (lapar) birikmasidan hosil bo‘lgan: “par” – juft ikki kishi [7, 571] ma’nosida, ko‘makdosh yasovchi “la” esa “aytmoq”(aytish) fe’li o‘rnida (masalan, “kuyla”, “so‘zla” kabi) keladi. Demak lapar deganda ikki kishi aytishuvi nazarda tutiladi.

Laparlar asosan yigit va qiz o‘rtasida lapar-aytishuvlari o‘tkazilgan. Bunday vaziyat esa ko‘proq an’anaviy nikoh to‘y marosimida, qiz oshi bazmida yuzaga kelgan. Bunda “qizlar va yigitlar tomonidan ikki kishi sal oldinroqqa chiqib lapar aytishadi. Lapar bilan qiz va yigitlar bir-birlariga muhabbat izhor etib, tanishgan va ahdi-paymon qilishgan. O‘z yurak dardini musiqasiz ma’lum ohangda ashula qilib aytishgan. Bordi-yu lapar aytayotgan yigit va qiz bir-birini yoqtirib qolsa, lapar aytib turib bir-biriga sovg‘a berishgan” [4, 205].

O‘zbek xalq laparlari folklorimizning mustaqil janrlaridan biri bo‘lib, u o‘zining tarixiylik ildizlari bilan ancha qadimiydir. Bu qadimiylik janrning ijro o‘rni-bevosita marosim bilan aloqadorlikda yaratish va ijro etish, ijro tarzi-ikki jinsga mansub shaxslar o‘rtasida aytishuv shaklida voqe bo‘lishi, o‘z tarkibida so‘z va musiqa uyg‘unligi, xoreografik hamda dramatik turga xos hususiyatlarning mavjudligi – folklorga xos sinkretizmning ishtirok etishi bilan to‘la tasdiqlanadi [8,

90]. Laparlarda raqsbop doira usullari ham tez-tez qo‘llanib turiladiki, bu hol goho laparchilarning navbatma-navbat raqsga tushib kuylashlariga sabab bo‘ladi.

Xalq laparlarini yig‘ish va ularni chop etishda adabiyotshunos olim, etnograf Elbek bu sohada ulkan ishlarni olib borgan va uning “Laparlar” nomi ostida xalq qo‘shiqlarini chop qildirgan (1922 y). Ushbu adabiyotda olimning lapar hususida quyidagicha yozadi: “laparlar o‘peraga yaqinroq bir ruhda aytilgan narsa bo‘lib, buni qizlarning nikohidan bir-ikki kun burun o‘yun kechasida kuy bilan aytib o‘quydilar. Munda kelin bo‘lg‘uchi qiz o‘zining yaqin o‘rtoqlarini choqirib bazm kechasi yasaydilar. Buning bu kechasiga qizlardan tashqari xotunlar va kuyov tomonidan yigitlar ham keladilar. Bu ko‘ngilli kechani boshqarish ishi qari xotunlarg‘a topshirilg‘anlikdan, tartib saqlab kechani juda yaxshi o‘tkazadilar”[9, 22].

Yalla – ko‘p hususiyatlari, jumladan, raqsning qo‘llanilishi, ijroda ko‘pchilikning ishtirok etishi kabi jihatlari bilan laparga yaqin bo‘lgan janrdir. Ammo laparda eng avvalo, aytishuvlik sifati muhim bo‘lgani holda, yallada badiiy so‘z(she’riyat) kuy va raqsning mushtarakligi nisbatan barqarordir. Shu boisdan yallaga “raqsiy aytim” (F. Karomatov), ya’ni raqs bilan kuylanadigan aytim iborasi qo‘llanib turiladi. Ushbu holat “yalla” atamasida ham ma’lum aks etgan. Chunonchi xalq og‘zaki ijodida “yalla” so‘z “o‘ynab-kulish”, “o‘ynab-kuylash” va umuman, xushvaqt bo‘lishlik ma’nolarida qo‘llaniladi. Shundan kelib chiqqan holda, “yalla” so‘zini “o‘ynab-kuyla” ma’nosining qisqartma “yalla” birikmasidagi ifodasidir, deb taxmin qilish mumkin. Yallalar laparlardan farli o‘laroq, naqarotli band shaklida bo‘ladi. Bunda yakkaxon (yallachi) doira, dutor yoki cholg‘u ansambli jo‘rligida raqsga tushib bandlarni kuylasa, naqarotni ko‘pchilik(naqarotchilar) yallaning band-naqarot (yoki naqarot-band) shakliga monand holda navbatma-navbat kuylashadi. Yallaning o‘ynab-kuylash hususiyati uning so‘z (she’r) va kuy (musiqa) asoslarida o‘ziga xos aks etadi. Jumladan barmoq vaznli she’rlari asosan engil hazil-mutoyiba bilan yo‘g‘irilgan sevgi mavzularida bo‘lib, naqarotlarida esa ko‘pincha o‘ynab-kulishga, xush kayfiyat bo‘lishga da’vat etuvchi “yalla” so‘zi hamda uning “yallo”, “yalli” kabi ma’nodoshlari ishlatiladi:

Yallama yorim, yallola,
Yallolashaylik, bedodlashaylik (va. h. k)

Ba’zan “yalla” o‘rnida “o‘yin”, “o‘ynasin”, “aylansin”, “o‘rgilay”, “tarallo”, “xoralli” kabi so‘z iboralari ham ishlatiladi.

Yallalarning raqs-o‘yin hususiyati ayniqsa, ritm omilida yorqin zuhur etadi. Chunonchi aksariyat yallalarda 6/8 ritm o‘lchovida kelgan jozibali rasbop ufar usulining quyidagi turli varimntlar keng qo‘llaniladi [10, 23].

Xalq ashulalari. Farg‘ona-Toshkent musiqa uslubida xalq ashulalari ham muhim o‘rin tutadi. Bu ashulalar terma, lapar, qo‘shiq singari aytishlarga nisbatan ovoz doirasining kengligi hamda kuychan, so‘lim ohanglari bilan ajralib turadi. Xalq ashulalari barmoq vaznida bo‘lgan she’rlari yoki aruz vaznidagi mumtoz she’riyat asosida aytiladi. Ashulalar ijod etilishiga ko‘ra ikki xil bo‘lishi mumkin:

1. Xalq og‘zaki musiqa ijodida yuzaga kelgan ashulalar.
2. Kasbiy musiqaga oid ustoz bastakorlar tomonidan ijod etilgan ashulalar.

“Tanovar”, “Ey Nozanin”, “Oydek to‘libdur”, “Farg‘ona”, “Ul parivash” singari xalq ashulalari nafaqat hofiz-ashulachilar, balki, ziyolilar, hunarmandlar, kosiblar va boshqa kasb egalari tlmonidan ham ijro etib kelmngan. Shuningdek bu turdagi ashulachilar xotin-qizlar tomonidan ichkarida kuylangan. Jumladan, “Chaman ichra”, “Tanovar”, “Qora sochim” kabi ashula yo‘llari dutor jo‘rligida xotin-qizlar tomonidan sevib ijro etiladi (10, 24).

Shundan ko‘rinadiki, qadim asrlar beri ota-bobolarimizdan bizgacha etib kelgan nodir ijro san’at janrlaridan bo‘lgan folklor ijrochiligi o‘zining serjilo ko‘rinishlari bilan xalqimizni xushnud etaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik ma’lumorlari milliy bazasi. https: // lex. uz

2. Arzimatov B. FOLKLOR SAN’ATI TARIXI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI TUTGAN O‘RNI. “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 1 / March 2022. ISSN 2181-063X. – B. 35.

3. Toshmatov O‘. “Folklor qo‘shiqlari”. – T.: Abdulla Qodiriy nomidadi xalq merosi nashriyoti, 2003. – B. 6.

4. Ibrohimov O. A, Xudoyev G‘M. “Musiqa tarixi”. – T.: “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2018.. – B. 195, 197, 207.

5. Nurmatov H, Yo‘ldosheva N. “O‘zbek xalq musiqa ijodi”. – T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi”, 2007. – B. 1.

6. Akbarov I. “Musiqa lug‘ati”. – T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi” Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. – B. 35.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-2-tomlar. –M. : 1981. – 571 b.
8. O‘zbek xalq poetik ijodi. – T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1980. – B. 90.
9. XX asr o‘zbek folklorshunosligi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. T.: Davlat ilmiy nashriyoti. – Antologiya. 2018, – B. 3, 22.
10. Tursunov R, Mannopov S. “An’anaviy qo‘shiq ijorchiligi uslubiyati”. – T.: “Ijod dunyosi” nashriyoti, 2003. – B. 23-24.

BOLALARDA MEHNAT TARBIYASIDA TARBIYACHI VA OTA-ONA HAMKORLIGI

Sanginova Gulnoza Baxodirovna
Qo‘qon universiteti
Ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: @gulnoza7001

Annotatsiya. Ushbu ish maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirish jarayonida tarbiyachi va ota-onalar hamkorligining o‘rni va ahamiyatini tahlil qiladi. Mehnat tarbiyasi bola shaxsining mas’uliyat, mustaqillik, tashabbuskorlik, hamjihatlik kabi ijtimoiy-psixologik fazilatlarini rivojlantiruvchi muhim pedagogik tizim sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda Vygotskiy, Dewey, Piaget kabi pedagog olimlarning nazariy qarashlari asosida mehnat faoliyatining bola rivojiga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida “bog‘cha — oila — mahalla” tamoyili asosida olib borilayotgan mehnat tarbiyasi siyosati, ota-onalarni jarayonga jalb qilish mexanizmlari, pedagogik uyg‘unlikning ahamiyati ham ochib beriladi. Amaliy tahlillar mehnat tarbiyasining muvaffaqiyati oilaviy qo‘llab-quvvatlash, tarbiyachi tomonidan yoshga mos mehnat faoliyatlari tashkil etilishi, emotsional rag‘bat va jamoaviy mehnat loyihalarining samarali qo‘llanishiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ushbu ish mehnat tarbiyasining tizimli yo‘lga qo‘yilishi orqali bola shaxsining kelajakdagi ijtimoiy moslashuvi va mehnatsevarlik sifatlarini shakllantirishning ilmiy-amaliy asoslarini yoritadi.

Kalit so‘zlar:jamoaviy mehnat, mehnatsevarlik, mas’uliyat, ota-ona va tarbiyachi hamkorligi, ijtimoiy-psixologik rivojlanish.

СОТРУДНИЧЕСТВО ВОСПИТАТЕЛЯ И РОДИТЕЛЕЙ В ТРУДОВОМ ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ

Аннотация. Данная работа анализирует роль и значение сотрудничества воспитателя и родителей в процессе формирования трудового воспитания у детей дошкольного возраста. Трудовое воспитание рассматривается как важная педагогическая система, направленная на развитие у ребенка таких социально-психологических качеств, как ответственность, самостоятельность, инициативность и согласованность действий. В исследовании раскрывается влияние трудовой деятельности на развитие ребенка на основе теоретических взглядов педагогов Л. Выготского, Д. Дьюи, Ж. Пиаже. Кроме того, освещается политика трудового воспитания в системе дошкольного образования Узбекистана, реализуемая на основе принципа «детский сад — семья — махалля», механизмы вовлечения родителей в процесс и значимость педагогической согласованности. Практический анализ показывает, что успех трудового воспитания зависит от семейной поддержки, организации воспитателем соответствующей возрасту трудовой деятельности, эмоционального поощрения и эффективного применения коллективных трудовых проектов. Работа раскрывает научно-практические основы формирования у ребенка трудолюбия и социальной адаптации в будущем посредством системного подхода к трудовому воспитанию.

Ключевые слова: коллективный труд, трудолюбие, ответственность, сотрудничество родителей и воспитателя, социально-психологическое развитие.

COOPERATION BETWEEN EDUCATORS AND PARENTS IN CHILDREN’S LABOR EDUCATION

Annotation. This study analyzes the role and significance of cooperation between educators and parents in the process of developing labor education in preschool children. Labor education is considered an important pedagogical system that fosters such socio-psychological qualities as responsibility, independence, initiative, and cooperation. The research highlights the impact of labor activities on child development based on the theoretical views of pedagogues such as Vygotsky, Dewey, and Piaget. In addition, the study discusses the labor education policy

implemented in Uzbekistan’s preschool education system in accordance with the “kindergarten — family — community” principle, mechanisms for involving parents in the process, and the importance of pedagogical coherence. Practical analysis shows that the success of labor education depends on family support, age-appropriate labor activities organized by the educator, emotional encouragement, and the effective use of collective labor projects. This work outlines the scientific and practical foundations for shaping children’s work ethic and future social adaptation through a systematic approach to labor education.

Keywords: collective work, work ethic, responsibility, parent–educator cooperation, socio-psychological development.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirish — bu faqat maishiy ko‘nikmalarni o‘rgatish emas, balki bola shaxsining ijtimoiy, axloqiy va psixologik jihatdan kamol topishiga xizmat qiladigan murakkab tarbiyaviy jarayondir. Mehnat faoliyati orqali bola o‘zini anglash, mas’uliyatni his etish, mustaqillik va tashabbus ko‘rsatish kabi muhim sifatlarni egallaydi. Bu jarayonning eng muhim jihatlaridan biri — tarbiyachi va ota-onaning uyg‘un, izchil hamkorligidir. Chunki bola bog‘chada egallagan bilim va ko‘nikmalar oilada mustahkamlanmasa, tarbiya jarayonida uzilishlar yuzaga keladi va mehnat odatlarining shakllanishi sustlashadi. [1]

Zamonaviy pedagogika nuqtai nazaridan qaraganda, mehnat tarbiyasi bolada faqat mahorat emas, balki ijtimoiy kompetensiyalarni — hamjihatlik, muloqot, jamoa bilan ishlash, javobgarlikni o‘z zimmasiga olish kabi fazilatlarni ham rivojlantiradi. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi, Deweyning “amal orqali o‘rganish” tamoyili, Piagetning kognitiv rivojlanish bosqichlari mehnat faoliyati bolaning fikrlashi va shaxs sifatida shakllanishida beqiyos rol o‘ynashini ilmiy jihatdan asoslaydi.

O‘zbekiston sharoitida esa bu jarayon “bog‘cha — oila — mahalla” tamoyili orqali izchil yo‘lga qo‘yilmoqda. Davlat tomonidan qabul qilingan hujjatlarda mehnat tarbiyasi maktabgacha ta’lim dasturlarining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo‘lib, bunda oilaviy hamkorlik, tarbiyachining metodik yondashuvi va jamoaviy qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Shu bois mehnat tarbiyasining samaradorligi tarbiyachi va ota-onaning bir

yo‘nalishda ishlashiga, pedagogik uyg‘unlik va uzluksiz aloqa o‘rnatilishiga bevosita bog‘liqdir. [2]

Demak, bolada mehnatsevarlikni uyg‘otish — bu bir kunlik ishlov emas, balki oilaning iliqligi va bog‘chaning ilmiy asoslangan tarbiyasi bilan yo‘g‘rilgan murakkab rivojlanish tizimidir. Tarbiyachi va ota-onaning hamkorligi bir yo‘nalishda harakat qilsagina bola mehnatga mehr qo‘yadi, mehnatni qadrlashni o‘rganadi va eng muhimi — kelgusida ijtimoiy mas’uliyatli, faol, mustaqil shaxs sifatida shakllanadi. Bugungi ta’lim siyosati ham aynan shunday maqsadga xizmat qilmoqda: bola uchun hamkorlikda yaratilgan tarbiyaviy makon — uning eng katta boyligidir. [3]

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mehnat — bu nafaqat muayyan natija beruvchi faoliyat, balki shaxsning ichki dunyosini shakllantiruvchi kuchli tarbiyaviy jarayondir. Shu bois tarbiyachi va ota-ona ushbu jarayonda sherik sifatida maydonga chiqadi. Ularning hamkorligi biryoqlama tashkiliy ish emas, balki bolaga nisbatan yagona pedagogik yondashuvni ta’minlaydigan murakkab ijtimoiy-pedagogik tizimdir. Hamkorlikning mazmuni shundan iboratki, bola mehnatni faqat bajarish emas, balki uni qadrlash, mehnat jarayonidagi ma’naviy-axloqiy ma'nolarni anglash orqali o‘zlashtiradi.

Avvalo, tarbiyachi bolaga mehnatni yoshiga mos, qiziqarli va mazmunli ko‘rinishda taklif etadi. Ota-ona esa bu jarayonni oilada davom ettirib, mustahkamlaydi. Aynan oila — bolaning mehnatga bo‘lgan munosabati shakllanadigan birinchi maktabdir. Tarbiyachi qanday muloqot tilida, qanday uslubda bola bilan ishlasa, ota-onaning ham ana shunday pedagogik yondashuvni qo‘llashi bolaning mehnat malakalarini barqaror qiladi. [5]

Hamkorlikning samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biri — pedagogik uyg‘unlikdir. Bunda tarbiyachi va ota-ona bolaga bir xil talabni qo‘yadi, mehnat jarayonida bir xil tartib, bir xil qadriyat va bir xil odatlarni singdiradi. Chunki bir makonda rag‘bat berilgan xatti-harakat, boshqa makonda rad etilsa, bola mehnatning mazmunini noto‘g‘ri talqin qiladi. Demak, mehnat tarbiyasida yagona maqsad va yagona talablarga amal qilish — hamkorlikning asosiy shartidir.

Shuningdek, tarbiyachi va ota-onaning hamkorligi faqat bola oldida birga turish emas; bu — o‘zaro axborot almashinuvi, tahlil, kuzatuv, muvaffaqiyat va muammolarni birgalikda baholash jarayonidir. Tarbiyachi boladagi o‘zgarishlarni muntazam ravishda ota-onaga yetkazib borishi, ota-ona esa oilada kuzatilgan

holatlar haqida tarbiyachini xabardor qilib turishi kerak. Shu tarzda mehnat odatlarining shakllanishi uzluksiz jarayonga aylanadi. [6]

Mehnat tarbiyasining samaradorligini oshiradigan yana bir jihat — bu bola uchun mehnatning ijtimoiy ahamiyatini his qildirishdir. Tarbiyachi jamoaviy mehnat jarayonlarini tashkil etsa, ota-ona oila ichida biror ishlarga mahalla-madaniy muhit nuqtai nazaridan doira beradi. Natijada bola mehnat — bu faqat shaxsiy emas, balki jamiyat oldidagi mas’uliyat ekanini anglay boshlaydi. U kichik yoshdanoq o‘z ishi orqali boshqalarga foyda yetkazishni qadrlashni o‘rganadi.

Mehnat tarbiyasi jarayonida bolaga o‘z mehnat natijasini ko‘rib baholay olish imkonini yaratish ham ikki tomonlama hamkorlikning muhim qismidir. Tarbiyachi bolani kichik loyihalarga, ijodiy topshiriqlarga jalb etsa, ota-ona uy sharoitida uning sa’y-harakatini tan oladi, rag‘batlantiradi. Bu jarayon bolada mehnatga nisbatan ichki motivatsiyani kuchaytiradi, tashqi rag‘batga bog‘liq bo‘lmagan haqiqiy qiziqishni shakllantiradi. [7]

Shu tariqa tarbiyachi va ota-onaning birlashgan sa’y-harakati mehnat tarbiyasining oddiy pedagogik jarayon emas, balki bolani kelajak hayotga tayyorlovchi integral tizimga aylanishini ta’minlaydi. Samarali hamkorlik natijasida bola faqat mehnat qilishni emas, balki intizom, mas’uliyat, tashabbuskorlik, va eng muhimi — mehnatning o‘ziga xos ma’naviy qadriyat ekanini anglab boradi.

Tarbiyachi va ota-onaning bolaga nisbatan samarali mehnat tarbiyasini shakllantirishi uchun avvalo hamkorlikning ma’lum pedagogik mexanizmlari yo‘lga qo‘yilishi zarur. Bu mexanizmlar ichida birgalikda rejalashtirish, kuzatuv natijalarini tahlil qilish, ota-onalarni pedagogik jarayonga jalb etish, mehnat faoliyatini differensial tashkil etish kabi yo‘nalishlar muhim o‘rin tutadi.

Birinchi navbatda, hamkorlikni rejalashtirish jarayoni faqat ota-onalarni yig‘ilishda ma’lumot bilan tanishtirish emas. Bu — bolaning har bir bosqichda erishishi mumkin bo‘lgan rivojlanish ko‘rsatkichlarini oldindan belgilab olish va oilaviy sharoitdagi real imkoniyatlarni inobatga olgan holda mehnat faoliyatini individuallashtirishdir. Shu tariqa tarbiyachi oila pedagogikasini, oila esa maktabgacha ta’lim muassasasi talablarini chuqurroq anglab boradi.

Ikkinchi muhim mexanizm — ota-onalarning faol pedagogik ishtirokidir. Bu ishtirok bir martalik tadbirlar emas, balki muntazam davom etadigan o‘zaro muloqot tizimiga asoslanishi lozim. Ota-onaning mehnat mashg‘ulotlarida

kuzatuvchi sifatida qatnashishi, bolalar faoliyatida rol o‘ynashi, kichik mehnat loyihalarida murabbiy sifatida ishtirok etishi bolaning faoliyatga qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Bolaning o‘zi uchun ahamiyatli bo‘lgan inson — uning onasi yoki otasi — mehnat jarayonida yonida bo‘lishi mehnatga bo‘lgan munosabatni iliqlashtiradi, jarayonni ijtimoiy-emotsional jihatdan yanada boyitadi.

Yana bir samarali yo‘nalish — mehnatni bosqichma-bosqich murakkablashtirish texnologiyasidir. Tarbiyachi va ota-ona har bir yosh davrida bolaga mos vazifalarni belgilashi, ularni ortiqcha yuklamasdan, lekin yetarli darajada o‘sishga undaydigan darajada berishi kerak. Masalan, 3–4 yoshda bola buyumlarni yig‘ishtirish, suv quyish, o‘yinchoqlarni saralash kabi sodda faoliyatlarni bajarsa, 5–6 yoshda kichik jamoaviy mehnat, o‘simlik parvarishi, oddiy maishiy vazifalarni mustaqil bajarish ko‘nikmalariga o‘tadi. Bu jarayonda tarbiyachi texnologik izchillikni, ota-ona esa uy sharoitida mos mashg‘ulotlarni ta’minlaydi.

Shuningdek, mehnat tarbiyasida emotsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmi ham alohida o‘rin tutadi. Tarbiyachi bolaning harakatini yuqori baholash orqali unda mehnatga nisbatan ijobiy emotsional fon yaratadi. Ota-ona ham uni tan olishi, kichik yutuqlarini qadrlashi zarur. Aks holda, bola mehnatni majburiyat sifatida qabul qiladi, jarayon ichki motivatsiyasiz, quruq bajariladigan ishga aylanadi.

Hamkorlikning yana bir qudratli vositasi — kuzatuv va tahlilning muntazamligidir. Bola mehnat faoliyatining qanday o‘zgarayotgani, qaysi metod samarali bo‘layotgani va qaysi faoliyat bolaning qiziqishiga mos kelmagani haqida ota-ona va tarbiyachi bir-biri bilan axborot almashishi kerak. Bu jarayon o‘z vaqtida to‘g‘rilash kiritish, mehnat topshiriqlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Ushbu mexanizmlar uyg‘unlashib borgan sari hamkorlikning mazmuni tobora chuqurlashadi, bola esa mehnat jarayonini tabiiy ehtiyoj sifatida qabul qiladigan darajaga yetadi. Bu esa kelajakda mas’uliyatli, tashabbuskor va mehnatsevar shaxsning shakllanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirish — bu nafaqat amaliy faoliyatlarni bajarish ko‘nikmasini o‘rgatish, balki bola shaxsining ijtimoiy, ma’naviy va emotsional rivojlanishini ta’minlaydigan kompleks pedagogik jarayondir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mehnatsevarlikning ilk poydevori aynan 3–7 yosh oralig‘ida qo‘yiladi. Bu jarayonning samarasi esa faqat

tarbiyachi yoki faqat ota-onaning harakati bilan emas, balki ularning uzviy hamkorligi orqali ta’minlanadi. [8]

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha qabul qilingan davlat qarorlari va dasturlar bolada mehnat madaniyatini shakllantirishni dolzarb tarbiyaviy vazifa sifatida belgilab bermoqda. «Bog‘cha — oila — mahalla» tamoyilining mustahkamlanishi mehnat tarbiyasini faqat ta’lim muassasasida emas, balki oilaviy va ijtimoiy makonda ham uyg‘un tarzda olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

Xalqaro pedagogik yondashuvlar, xususan, Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi, Deweyning amaliy ta’lim tamoyillari, Piagetning faol o‘rganish modeli mehnat tarbiyasining bolalar rivojlanishiga ko‘rsatadigan kuchli ta’sirini ilmiy asoslaydi. Bu qarashlar shuni anglatadiki, bola mehnatni ko‘rish, kuzatish, o‘rganish va real faoliyatda sinash orqali o‘zlashtiradi. Tarbiyachi va ota-ona esa uning “bilimli boshqalar”i sifatida mehnat malakalarini bosqichma-bosqich shakllantiradi.

Tahlil shuni tasdiqlaydiki, tarbiyachi va ota-onaning hamkorligi quyidagi jihatlar orqali mehnat tarbiyasi sifatini keskin oshiradi:

pedagogik uyg‘unlik — bola uchun ikki muhitda bir xil talab, bir xil madaniy me’yor va bir xil yondashuvning mavjudligi;

- amaliy va o‘yin orqali o‘rgatish — mehnatni bolaning tabiiy faoliyati bilan bog‘lash;
- psixologik qo‘llab-quvvatlash — rag‘bat, e’tirof, ijobiy emotsional fon yaratish;
- nazorat va tahlilning uzluksizligi — bola rivojlanishini muntazam baholab borish;
- jamoaviy va oilaviy mehnat loyihalari — bola uchun mehnatning ijtimoiy ahamiyatini anglashga sharoit yaratish.

Ushbu omillar uyg‘unlashganda mehnat tarbiyasi oddiy topshiriqlar yig‘indisiga emas, balki bolani kelajakdagi ijtimoiy hayotga tayyorlovchi mustahkam tarbiyaviy tizimga aylanadi. Mehnatni qadrlaydigan, o‘z hissasini jamiyatga qo‘shishni istaydigan, mas’uliyatli, intizomli, tashabbuskor shaxs aynan mana shu hamkorlik muhitida shakllanadi.

Shu bois tarbiyachi va ota-onaning hamjihatligi — bolada mehnat tarbiyasining eng muhim sharti, uning kelajak hayotidagi muvaffaqiyati uchun esa

eng muhim poydevordir. Bolaga berilgan har bir kichik vazifa, har bir qo‘llab-quvvatlovchi so‘z, har bir birgalikdagi mehnat jarayoni — ertangi mehnatsevar va ma’naviy barkamol avlodning shakllanishi sari qo‘yilgan eng zarur qadamlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2018-yil 30-sentabr). Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida (PQ–3907-son qaror).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019-yil 8-aprel). Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida (PQ–4312-son qaror).

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2020). Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun.

4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. (2021). Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun davlat o‘quv dasturi “Ilk qadam”. Toshkent.

5. Hasanboeva, O., Yo‘ldosheva, Sh., & To‘raeva, M. (2020). Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.

6. G‘aniyeva, M. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasi metodikasi. Toshkent: Ilm ziyo.

7. Jalolova, D. (2021). Maktabgacha ta’limda oila va bog‘cha hamkorligi. Ta’lim jarayoni, 4(2), 55–62.

8. Xudoyberdieva, N. (2023). Bolalarda mehnat ko‘nikmalarini shakllantirishda tarbiyachining roli. Pedagogik innovatsiyalar jurnali, 5(1), 73–80.

9. Bronfenbrenner, U. (1979). The ecology of human development. Cambridge: Harvard University Press.

10. Сангинова Г. Б. (2023). ЗНАЧЕНИЕ И МЕСТО НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. Экономика и социум, (4-1 (107)), 840-846.

11. Bohodirovna, S. G., & Usmanova, H. (2022). MODEL OF INNOVATIVE STRATEGY ON THE BASIS OF VARIATIVE APPROACH TO PRESCHOOL EDUCATION. In *Conference Zone* (pp. 197-199).

12. IMPROVING ORGANIZATION IN THE FIRST ENVIRONMENTAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. (2024). *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, *4*(4), 440-447.

FANLARARO INTEGRATSIYANING TA’LIMDAGI AHAMIYATI

Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna
Qo‘qon universiteti Ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail:zulfiyaxon08@gmail. com
Nishonova Husnida Bahromjon qizi
Qo‘qon universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Anatatsiya: Ushbu tezisda zamonaviy ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyaning o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Fanlararo bog‘liqlik o‘quvchilarda kompleks fikrlashni shakllantirish, olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay bilish, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Integratsion ta’lim o‘quv jarayonini tizimli, mazmunli va samarali tashkil etishga yordam berib, o‘qituvchilardan metodik yondashuvlarni yangilashni talab etadi. Tezisda fanlararo integratsiyaning ustunliklari, uni amaliyotga joriy etish yo‘llari hamda boshlang‘ich ta’limda qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘z: Fanlararo integratsiya, ta’lim jarayoni, kompetensiya, tizimli yondashuv, kreativ fikrlash, innovatsion metodlar, o‘quvchi faolligi.

ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В данном тезисе освещаются роль и значение междисциплинарной интеграции в современном образовательном процессе. Межпредметные связи способствуют формированию у обучающихся комплексного мышления, развитию способности применять полученные знания в реальных жизненных ситуациях, а также развитию творческого и критического мышления. Интегративное обучение помогает системно, содержательно и эффективно организовать учебный процесс, требуя от педагогов обновления методических подходов. В тезисе анализируются преимущества междисциплинарной интеграции, пути её внедрения в практику и возможности применения в начальном образовании.

Ключевые слова: междисциплинарная интеграция, образовательный процесс, компетенция, системный подход, творческое мышление, инновационные методы, активность учащихся.

THE IMPORTANCE OF INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN EDUCATION

Annotation: This thesis highlights the role and importance of interdisciplinary integration in the modern educational process. Interdisciplinary connections help students develop complex thinking, apply acquired knowledge in real-life situations, and enhance creative and critical thinking skills. Integrative education enables systematic, meaningful, and effective organization of the learning process, requiring teachers to update their methodological approaches. The thesis analyzes the advantages of interdisciplinary integration, ways to implement it in practice, and opportunities for its application in primary education.

Keywords: interdisciplinary integration, educational process, competence, systematic approach, creative thinking, innovative methods, student engagement.

Zamonaviy ta’limda fanlararo integratsiya turli fanlar va sohalarni bir-biriga bog‘lash orqali o‘quvchilarga qulaylik yaratishni maqsad qiladi. Bu integratsiya usullari o‘quvchilarga turli fanlarni birga o‘rganish, masalalar va muammolarga integratsiyalashish orqali tushunchalarini kengaytirish va ularning fikrlarini rivojlantirishni talab qiladi. Integratsiya (lotin tilida integratio – tiklash, to‘ldirish, integer – butun so‘zidan kelib chiqqan). Bu so‘z bir necha ma’nolarda o‘z funksiyasiga ega. Ammo ayni pedagogik ta’limdagi o‘rni fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayonini anglatuvchi tushuncha ma’nosida yoritiladi. Integratsiya so‘zi differensiatsiya so‘zi bilan bir o‘rinda ham qo‘llaniladi. Integratsiya differensiatsiya bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu jarayonlar o‘quv fanlari tizimini qurish va yoshlar bilimlarini umumlashtirish usullarini izlashda aks etadi. Differensiatsiya deganda butunni uning tarkibiy elementlariga bo‘lish, ajratish tushuniladi. [1]

Zamonaviy ta’limda fanlararo integratsiya har bir fan va mavzu ustida o‘quvchilarga o‘zaro bog‘lanishni ta’minlaydigan bir qancha yondashuvlardan iborat bo‘lib, bu, masalan, matematika va texnologiyalar bilan boshqa turli fanlarni bog‘lashni ta’minlaydi. Bu usul o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun foydali bo‘ladi, chunki ularga mavzuni eng yaxshi tushunish uchun qo‘llanma va elektron resurslardan foydalanish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, bu usul o‘quvchilar

uchun ko‘proq motivatsiyani keltirib chiqaradi va ularning qiziqishlarini zarur fanlarga bog‘lantiradi.

Fanlararo integratsiya — o‘quv jarayonida ikki yoki undan ortiq fanlarni mazmunan, metod jihatdan yoki amaliy faoliyat orqali o‘zaro bog‘lash, bilimlarni yagona tizimda shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvdir. Bugungi kunda ta’limning modernizatsiya qilinishi va bilimlar sohalarining bir-biriga yaqinlashuvi integrativ yondashuvning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Avvalo, fanlararo integratsiya o‘quvchilarda kompleks va tizimli fikrlashni shakllantiradi. O‘quvchi ma’lumotni alohida bo‘laklar emas, balki yaxlit jarayon sifatida qabul qiladi. Masalan, matematika va texnologiya fanlarini bog‘lab o‘tilgan mashg‘ulotlarda o‘quvchi nafaqat hisoblash, balki amaliy konstruktsiya, muhandislik fikrlashni ham o‘rganadi. Bu esa real hayotda uchraydigan vaziyatlarni hal qilishda ko‘p fanli yondashuvni qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Fanlararo integratsiyaning yana bir muhim jihati — o‘quvchini faol ta’lim jarayoniga jalb qilishdir. Faqat bittagina fan doirasida berilgan topshiriq ko‘pincha cheklangan bo‘ladi, biroq bir nechta fan uyg‘unligidagi loyihaviy yoki amaliy topshiriqlar o‘quvchini mustaqil izlanishga undaydi. Misol uchun, tabiatshunoslik, matematika va tasviriy san’atni integratsiya qilgan holda o‘quvchi o‘simlikning o‘sish jarayonini o‘lchaydi, jadvalga joylaydi va grafik chizadi. Bu jarayon orqali u ilmiy kuzatish, tahlil qilish, matematik modellashtirish va ijodiy ifodalash ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Integratsiya o‘quvchilarda motivatsiya va qiziqishni oshiradi, chunki ular o‘rganayotgan mavzuning boshqa fanlardagi o‘rni va amaliy ahamiyatini tushunib yetadi. Bir-biri bilan bog‘liq fanlar o‘quvchini ilmiy-falsafiy dunyoqarashga ega bo‘lishiga, o‘z qarashlarini dalillar bilan asoslay oladigan shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. [2] Shuningdek, fanlararo integratsiya o‘qituvchilarga ham ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda yordam beradi. Integrativ darslar mavzularni takroran o‘qitishni kamaytiradi, vaqtni tejaydi, o‘quvchilar bilimini chuqurlashtiradi. O‘qituvchilar hamkorlikda dars loyihalash orqali kasbiy mahoratini oshiradi va innovatsion o‘qitish strategiyalarini kasbiy jihatdan boyitadi.

Fanlararo integratsiya (fanning birlashuvi) ta’limda o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, bilimlarni hayotga bog‘laydi, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi, shu bilan birga o‘quv jarayonini

yanada qiziqarli va mazmunli qiladi; bu esa ularni zamonaviy dunyoning murakkab masalalariga yechim topishga tayyorlaydi.

Bilimlarning uzluksizligi va yaxlitligi: Fanlararo integratsiya turli fanlar o‘rtasidagi chegaralarni yo‘q qilib, haqiqiy dunyodagi kabi bilimlarning bir-biriga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi (masalan, tarix va adabiyot, biologiya va ekologiya).

Amaliy ko‘nikmalar va hayotga tatbiq etish: O‘quvchilar nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qanday qo‘llashni o‘rganadilar, bu esa o‘qishni yanada amaliy va foydali qiladi (masalan, matematikani fizika yoki iqtisodiyotda qo‘llash).

Yuksak darajadagi kognitiv jarayonlar: Integratsiya o‘quvchilarni alohida faktlarni yodlashdan ko‘ra, tahlil qilish, sintezlash, baholash va yangi g‘oyalar yaratishga undaydi. [3]

Motivatsiya va qiziqishning oshishi: Mavzular o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rish o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, chunki ular nima uchun o‘rganayotganini yanada aniqroq tushunadilar.

Kelajakga tayyorlash: Zamonaviy dunyo global va interdisiplinar muammolar bilan to‘la (masalan, iqlim o‘zgarishi). Fanlararo integratsiya o‘quvchilarni bu murakkab muammolarni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqishga o‘rgatadi.

Innovatsiya va ijodkorlikning rivojlanishi: Turli fanlardan olingan g‘oyalarni birlashtirish yangi yechimlar va innovatsiyalarga olib keladi (masalan, san’at va texnologiya birlashuvi).

Ta’lim-tarbiya jarayonida fanlararo integratsiya – bu o‘quv-uslubiy jarayonda farzandlarga bir necha fanlarni bir-biriga bog‘lash va ularning o‘zaro aloqalarini kuchaytirishni maqsad qiladi. Bu uslubiylar o‘quvchilarning tushunchalarini, fikrlarini va mahoratlarini rivojlantirishga yordam beradi va ularning ko‘nikmalarini integrativ tarzda yaxshiroq tushunishiga yordam beradi. Bu uslubiy jarayon, o‘quvchilar uchun adabiyot, tarix, ona tili va boshqa fanlar orasidagi bog‘lanishni tushunishga imkon beradi va ularning bilimlarini kengaytirishga yordam beradi. Ta’lim-tarbiya jarayonida fanlararo integratsiya ya’ni ta’limda fandan boshqa fanlarni ham o‘qitishning asosiy prinsiplaridan biridir. Bu turli fanlar va mavzularni bir-biriga bog‘laydigan, ularni bir qatorda o‘rgatish va o‘rganuvchiga ta’limga qiziqishni yaratishning usullaridan biridir. [4]

Fanlararo integratsiya jarayonida, murabbiy va o‘quvchilar faqatgina bir fanni o‘qigan bo‘lmaydi, balki turli fanlarni bog‘langan darsliklar, mashg‘ulotlar va amaliyotlar orqali o‘rganadi. Misol uchun, matematika va fizikni birgalikda o‘rgatish orqali murabbiy o‘quvchilarga bu ikki fanni bir-biriga bog‘liq ekanligini tushuntirishi mumkin. [1]

Fanlararo integratsiya zamonaviy ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, o‘quv jarayonini yaxlit tizim sifatida tashkil etishga xizmat qiladi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar turli fanlar mazmuni o‘rtasidagi ichki bog‘liqlikni anglaydilar, o‘z bilimlarini turli kontekstlarda qo‘llashni o‘rganadilar. Integratsiyalangan ta’limning asosiy afzalligi — o‘quvchining tafakkurini bir yoqlama emas, balki ko‘p qirrali rivojlantirishidir. Chunki real hayotda muammolar birgina fan doirasida hal qilinmaydi; ular ko‘pincha matematika, til, texnologiya, san’at, tabiatshunoslik va boshqa bilimlar uyg‘unligini talab etadi. Shu bois integratsiya o‘quvchilarda tahlil qilish, solishtirish, xulosa chiqarish, modellashtirish kabi intellektual ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bundan tashqari, ularning ijodiy fikrlashi, kommunikativ madaniyati, jamoada ishlash qobiliyati ham kuchayadi.

Ayniqsa boshlang‘ich ta’limda integratsiyaning o‘rni beqiyos, chunki kichik yoshdagi bolalar atrof-muhitni yaxlit holda qabul qiladilar va ularning dunyoqarashi tabiatan integrativdir. Fanlararo integratsiyaning yana bir muhim jihati — o‘qituvchining kasbiy mahoratini rivojlantirishidir. O‘qituvchi dars rejalarini tuzishda, faol metodlarni tanlashda, o‘quvchilarni baholashda yangicha, kreativ yondashuvni qo‘llaydi. Bu esa ta’lim sifatining oshishiga, zamonaviy kompetensiyalar shakllanishiga va o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasining ortishiga olib keladi. Umuman olganda, fanlararo integratsiya ta’lim jarayonini samarali, mazmunli va hayotga yaqinlashtirilgan shaklga keltiradi. Bu yondashuv kelajakda mustaqil fikrlovchi, raqobatbardosh, innovatsion g‘oyalarga ochiq yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dusbayev I. R Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti direktori https://doi. org/10. 5281/zenodo. 11214597

2. Ergasheva N. A. Zamonaviy pedagogik ta’limda integratsiyaning ahamiyati va o‘rni.

3. R. Mavlyanova, N. Raxmankulova. "Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi, Toshkent "Voris nashriyot", 2013.

4. https://ilmiyanjumanlar. uz/uploads/conferences/0036/5. 8. pdf

5. Mirzaliyevna, S. Z. (2025). MILLIY TARBIYA ASOSIDA BO ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH TA’LIM O ‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH. *BILGI ÇEŞMESI*, *1*(6), 88-94.

6. Saidaxon, D. (2023). Boshlang‘ich ta’limda STEAM texnalogiyasini qo‘llash

7. Rustamova, D. (2024). METAFORA MEHANIZMI MURAKKAB LINGVO-KOGNITIV RIVOJLANISH SIFATIDA. *University Research Base*, 861-865.

"STEAM" TA’LIMI ASOSIDAGI INNOVATSION METODLAR VA ULARNING BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA TA’SIRI

Xusanova Gulruxsor To‘lqin qizi
FarDU boshlang‘ich ta’lim uslubiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
Mahinabonu Azamjonova
FarDU boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada STEAM ta’limi asosidagi innovatsion metodlarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’siri keng qamrovda tahlil qilingan. STEAM yondashuvining mazmuni, pedagogik tamoyillari, o‘quvchilarning kreativ fikrlashi va bilish faoliyatini faollashtirishdagi roli ilmiy yondashuv asosida yoritiladi. Shu bilan birga, matematika, texnologiya, muhandislik va san’at integratsiyasining boshlang‘ich yoshdagi bolalarning motivatsiyasiga, qiziqishiga, amaliy ko‘nikmalariga va muammolarni hal qilish kompetensiyalariga ta’siri misollar, dalillar va real pedagogik holatlar asosida ochib beriladi. Maqolada innovatsion metodlar - loyihaviy yondashuv, gamifikatsiya, tajribalar asosida o‘rganish, konstruktorlik faoliyati va ijodiy muhitning ta’lim samaradorligiga qo‘shgan hissasi keng tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’limda STEAM metodlarini samarali joriy etish bo‘yicha

metodik tavsiyalarga boy bo‘lib, kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos yaratadi.

Tayanch so‘zlar: STEAM ta’limi, innovatsion metodlar, integratsiya, kreativ fikrlash, konstruktiv o‘qitish, gamifikatsiya, boshlang‘ich sinf, raqamli savodxonlik, muammoli vaziyatlar, loyihaviy ta’lim, ijodiy kompetensiya.

INNOVATIVE METHODS BASED ON STEAM EDUCATION AND THEIR IMPACT ON PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the impact of innovative methods based on STEAM education on the development of primary school students. The essence of the STEAM approach, its pedagogical principles, and its role in fostering students’ creative thinking and cognitive activity are examined through a scientific perspective. Additionally, the influence of the integration of science, mathematics, technology, engineering, and art on young learners’ motivation, interests, practical skills, and problem-solving competencies is revealed through examples, evidence, and real pedagogical cases. The article presents an in-depth analysis of innovative methods project-based learning, gamification, inquiry- and experiment-based learning, constructive activities, and creative environments and their contribution to educational effectiveness. The research results provide methodological recommendations for the effective implementation of STEAM methods in primary education and form a theoretical foundation for future scientific investigations.

Keywords: STEAM education, innovative methods, integration, creative thinking, constructive teaching, gamification, primary school, digital literacy, problem-based situations, project-based learning, creative competence.

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ НА ОСНОВЕ STEAM-ОБРАЗОВАНИЯ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В данной статье всесторонне проанализировано влияние инновационных методов, основанных на STEAM-образовании, на развитие учащихся начальных классов. Раскрываются сущность STEAM-подхода, его педагогические принципы, роль в формировании креативного мышления учащихся и активизации их познавательной деятельности на научной основе. Кроме того, на основе примеров, доказательств и реальных педагогических

ситуаций показано влияние интеграции науки, математики, технологий, инженерии и искусства на мотивацию, интерес, практические навыки и компетенции решения проблем у младших школьников. В статье подробно анализируется вклад инновационных методов проектного подхода, геймификации, обучения на основе экспериментов, конструкторской деятельности и творческой образовательной среды в повышение эффективности учебного процесса. Результаты исследования представляют собой методические рекомендации по эффективному внедрению STEAM-методов в начальное образование и создают теоретическую базу для дальнейших научных исследований.

Ключевые слова: STEAM-образование, инновационные методы, интеграция, креативное мышление, конструктивное обучение, геймификация, начальная школа, цифровая грамотность, проблемные ситуации, проектное обучение, творческая компетентность.

STEAM ta’limi bugungi kunda dunyo pedagogikasida eng samarali yondashuvlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu konseptning asosiy maqsadi - fanlarni bir-biriga bog‘langan holda o‘qitish, o‘quvchini nazariy bilimlardan tashqari amaliy faoliyatga jalb etish, shuningdek, kreativ fikrlash, innovatsion yondashuv, muammoni tahlil qilish, muhandislik madaniyati va texnologik savodxonlikni rivojlantirishdir. Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar uchun bunday yondashuv ayniqsa foydali, chunki bu bosqichda bilish faoliyati faolligi, tajribaga bo‘lgan qiziqish va amaliy faoliyatga ehtiyoj juda yuqori bo‘ladi. STEAM metodlari o‘quvchining tabiiy intilishlariga mos keladi, darsni jonlantiradi, uning motivatsiyasini oshiradi va o‘quv jarayonini o‘zi ishtirok etadigan, o‘zi yaratadigan, o‘zi tekshiradigan faol maydonga aylantiradi.

Bugungi kunda o‘qituvchilar oldida eng dolzarb vazifalardan biri - bolaning mustaqil o‘rganishga bo‘lgan ichki ehtiyojini uyg‘otishdir. Oddiy yodlashga asoslangan darslar o‘quvchini zeriktirishi yoki uni faqat tashqi rag‘bat bilan o‘rganishga majbur qilishi mumkin. Ammo loyihaviy ishlanmalar, tajriba asosida o‘rganish, konstruktorlik topshiriqlari, robototexnika elementlari yoki san’atga oid ijodiy mashg‘ulotlar o‘quvchini jarayonga jalb qiladi, unga “men ham qila olaman” degan ishonch beradi. STEAM metodlarining kuchi ham shunda - o‘qituvchi emas, balki o‘quvchi jarayonning markazida bo‘ladi. U o‘zi izlanadi, o‘zi sinab ko‘radi, o‘zi yechim topadi, o‘zi xulosa chiqaradi. Bu esa uning nafaqat

bilimini, balki xarakterini, irodasini, mas’uliyatini, mustaqilligini va ijodkorligini ham shakllantiradi.

Boshlang‘ich ta’lim fanlari - matematika, atrof-muhit, ona tili, texnologiya, tasviriy san’at, hatto musiqa - barchasi STEAM yondashuviga mos holda integratsiyalash imkoniga ega. Masalan, oddiy darslikdagi matematik masalani jonlantirish uchun o‘quvchi undan model yasaydi, grafik chizadi, konstruktor orqali masalaning jismoniy modelini quradi yoki uni kompyuter dasturida simulyatsiya qiladi[1,99]. Bu holatda masala faqat raqamlar majmuasi bo‘lib qolmaydi; u hayotiy mazmun kasb etadi. O‘quvchi “nima uchun bu sonlar shunday o‘zgaradi?” degan savolga o‘zi amaliy yo‘l bilan javob topadi. Bunday tajribalar matematikaning murakkab bo‘lib tuyulishini kamaytiradi, aksincha u bilan o‘ynab, o‘rganib, izlanib bilim olishga imkon yaratadi.

STEAM ta’limining eng kuchli jihatlari orasida o‘yin texnologiyalariga xos jihatlar ham mavjud. Dars jarayonida o‘yin tamoyillaridan foydalanish bolalarning psixologik ehtiyojlariga mos tushadi, chunki boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchi o‘yin orqali eng yaxshi o‘rganadi. Didaktik o‘yinlar, gamifikatsiya elementlari, bosqichma-bosqich ball yig‘ish, vazifalarni bajarib “level” oshirish, kreativ topshiriqlar orqali mukofot berish kabi yondashuvlar ta’lim jarayonini o‘quvchi uchun qiziqarli va jonli qiladi[3]. O‘yin jarayonida o‘quvchi o‘z faoliyatining natijasini darhol ko‘radi, tezkor fikrlaydi, o‘rganishga ishtiyoqi oshadi. STEAM metodologiyasi aynan shu tabiiy ehtiyojdan kelib chiqib yaratilgan. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun quyidagi elementlar nihoyatda samarali hisoblanadi:

- o‘yin orqali o‘rganish (gamifikatsiya);
- rang-barang vizual materiallar;
- tezkor javob va baholash;
- mustaqil ishlash imkoniyati;
- qiyin mavzularning animatsion, oson tilda tushuntirilishi;
- konstruktor va model yasash topshiriqlari;
- kreativ ijodiy loyihalar;
- muammoli vaziyat asosida fikrlashni faollashtirish.

Bu elementlarning har biri o‘quvchining bilish jarayonlariga o‘ziga xos tarzda ta’sir ko‘rsatadi. O‘yin texnologiyalari motivatsiya jarayoniga bevosita ta’sir qilsa, vizual materiallar e’tibor va xotirani mustahkamlaydi, tezkor baholash esa

o‘quvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi[5]. Animatsion tushuntirishlar qiyin mavzularni soddalashtirib, bolaning qiyin tushunchalarga bo‘lgan psixologik qarshiligini kamaytiradi. Konstruktor bilan ishlash esa uning fazoviy tasavvurini, mantiqiy fikrlashini, qo‘l motorikasini, muhandislik intuisiyasini shakllantiradi.

STEAM metodlari o‘quvchini faqat tayyor ma’lumotni qabul qiluvchi emas, balki yangilik yaratuvchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, oddiy karton, plastmassa bo‘laklari yoki rangli qog‘ozlar yordamida ko‘prik modeli yasash topshirig‘i o‘quvchining konstruktiv fikrlashini rivojlantiradi. U model yasash jarayonida muammo bilan uchrashadi: ko‘prik qulab tushishi mumkin, u bardoshli bo‘lmasligi mumkin, noto‘g‘ri burchak ostida joylashishi mumkin. O‘quvchi bu muammoni hal qilishga urinadi va shu jarayonda tajriba orttiradi. Bu esa uning “haqiqiy o‘rganish” jarayonini yaratadi. Ushbu ta’limining yana bir afzalligi - fanlarni hayot bilan bog‘lash imkoniyatidir. O‘quvchi “Nega daraxt barglari yashil?”, “Nega soya uzunligi o‘zgaradi?”, “Nega muz eriydi?” kabi oddiy savollarga amaliy tajribalar orqali javob topadi. Bunday jarayonlarda bola atrof-muhitni ilmiy ko‘z bilan ko‘ra boshlaydi. U tabiatdagi hodisalarni tahlil qiladi, o‘z kuzatuvlarini yozadi, xulosa chiqaradi. Shu bilan birga, u bilimlarni yodlab emas, balki tushunib oladi[8].

STEAM metodlarining ijtimoiy-psixologik ta’siri ham katta. O‘quvchilar ko‘pchilik loyihalarni jamoada bajaradi, guruhlarda ishlaydi, o‘zaro fikr almashadi, vazifalarni taqsimlaydi. Bu jarayon ijtimoiy ko‘nikmalarni - muloqot, hamkorlik, liderlik, fikrni asoslab berish, tinglay olish, hurmat qilish - kabi fazilatlarni shakllantiradi. Shu bois, STEAM yondashuvi nafaqat bilim, balki shaxs tarbiyasiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining STEAM bo‘yicha kompetensiyasi alohida masala hisoblanadi. O‘qituvchilar texnologiya, konstruktorlik, fizika asoslari, matematik modellashtirish, axborot savodxonligi bo‘yicha yetarli tayyorgarlikka ega bo‘lishi zarur. Chunki har bir loyiha, har bir tajriba, har bir konstruktor topshirig‘i o‘qituvchidan metodik fikrlash, puxta rejalashtirish, jarayonni to‘g‘ri boshqarish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni talab qiladi. Shuning uchun STEAM metodlarini joriy etishda o‘qituvchilarni qayta tayyorlash kurslari, seminarlar, amaliy treninglar, master-klasslar muhim ahamiyatga ega.

Bu yondashuvning ta’lim samaradorligiga ta’siri bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, STEAM metodlaridan foydalangan sinflarda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi an’anaviy dars o‘tadigan sinflarga nisbatan 20-30% yuqori bo‘ladi. O‘quvchilar mavzuga tez kirishadi, topshiriqlarni bajarishda qiziqish bildiradi, bilimni eslab qolish muddati uzoqlashadi, mavzudan qo‘rquv kamayadi[7]. Yana bir muhim jihat shuki, STEAM metodlari o‘quvchilar orasidagi qobiliyat farqlarini yumshatadi: darsning har bir jarayonida deyarli barcha o‘quvchilar ishtirok etadi, hammaning o‘z yutug‘i bo‘ladi.

Shuningdek, STEAM yondashuvining kreativ fikrlashga ta’siri juda kuchli. Bolalar o‘ylaganidek emas, balki o‘ylashi mumkin bo‘lganidek fikrlay boshlaydi. Ular muammoga bir emas, bir nechta yechim taklif qiladi, ularning orasidan eng maqbulini tanlaydi, ba’zan esa mutlaqo yangi usulni o‘ylab topadi. Bu jarayon kreativ fikrlashning asosiy ko‘rsatkichidir: moslashuvchan fikrlash, original g‘oya yaratish, mavjud tajribadan tashqariga chiqish. STEAM loyihalari bolalarning kommunikativ ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Har bir loyiha yakunida o‘quvchilar o‘z ishlanmalarini taqdim qiladi, ularni izohlab beradi, savollarga javob beradi, guruhdoshlarini tinglaydi, fikr bildiradi. Bu esa boshlang‘ich sinf yoshida juda muhim bo‘lgan jamoat oldida nutq so‘zlash, o‘z fikrini aniq ifodalash, o‘z ishini himoya qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Bugungi kunda STEAM ta’limi faqat maktab bilan cheklanmayapti. Ba’zi oilalar uy sharoitida ham STEAM o‘yinlari, konstruktorlar, lego robotlari, tajribalar to‘plamlaridan foydalanmoqda. Bu bolaning intellektual rivojlanishini sezilarli tezlashtiradi. Maktab va oila o‘rtasida uzviy hamkorlik bo‘lganda STEAM metodlarining samarasi yanada oshadi. Yana bir muhim jihat - STEAM ta’limi o‘quvchilarda IT savodxonligini erta yoshda shakllantiradi. Kompyuterda rasm chizish, grafik modellar yaratish, oddiy dasturlash, animatsiya qilishi yoki simulyatsiyalar yaratish kabi mashg‘ulotlar bola uchun murakkab ko‘rinmaydi, aksincha tabiiy ko‘rinadi. Bu esa kelajakda IT sohasida o‘qishga, muhandislik yoki dizayn yo‘nalishlariga kirishga zamin yaratadi.

Umuman olganda, STEAM ta’limi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun nafaqat bilim beradi, balki keng qamrovli kompetensiyalarni shakllantiradi: ijodkorlik, muammoli vaziyatni tahlil qilish, amaliy faoliyatga kirishish, axborot bilan ishlash, guruhda ishlash, muloqot qilish, ijtimoiy moslashuv, texnik tafakkur, fazoviy tasavvur, tasviriy ko‘nikmalar va boshqalar. Shu bois, mazkur metod

bugungi ta’lim jarayonida o‘z o‘rniga ega bo‘lib bormoqda va o‘qituvchilar tomonidan tobora keng qo‘llanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bybee R. W. The Case for STEM Education. Arlington: NSTA Press, 2013.

2. Yakman G. STEAM Education Framework and Integration Model. Virginia Tech Publications, 2016.

3. Bers M. Coding as a Playground: Programming and STEM Development in Early Childhood. Routledge, 2018.

4. Honey M., Kanter D. Design, Make, Play: Growing the Next Generation of STEM Innovators. Routledge, 2013.

5. Yo‘ldoshev, J., & Usmonov, S. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.* – Toshkent: TDPU, 2020.

6. Begimqulov, U. *Raqamli pedagogika asoslari.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

7. Qodirova, F. *Boshlang‘ich ta’lim metodikasi.* – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2019.

8. Oltiyev, A., & Xasanov, M. *Innovatsion ta’lim texnologiyalari.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

ЎҚУВ ЖАРАЁНИДА ЭЛЕКТРОН АХБОРОТ ТАЪЛИМ РЕСУРСЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ВА УЛАРНИ ЯРАТИШ ЖАРАЁНИ

Монасипова Рената Фидановна
Гулистон давлат университети, Ахборот технологиялари ва физика-математика факультети, Ахборот технологиялари кафедраси ўқитувчиси
e-mail: monasipovarenata@gmail. com
Қўчқоров Шодмурод Холмурод ўғли
Гулистон давлат университети, Ахборот технологиялари ва физика-математика факультети, Ахборот технологиялари кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада, ўқув жараёнида электрон ахборот таълим ресурсларининг аҳамияти ва уларни яратиш жараёнидаги талаблар

кўриб чиқилади. Муаллифлар, замонавий Wэб технологиялар ёрдамида ўқув модулларини ишлаб чиқиш ва педагоглар қобилиятларини ошириш зарурлигини таъкидлайдилар. Электрон ахборот ресурслари, ўқувчиларнинг билим ва кўникмаларини шакллантиришда муҳим восита сифатида хизмат қилади ва мустақил таълим фаолиятини ривожлантиришга ёрдам беради. Шунингдек, чет тилини ўрганишда электрон луғат дастурларининг ўрни ҳам алоҳида эътиборга олинади.

Калит сўзлар: Электрон таълим ресурслари, Web технологиялар, ўқув модуллари, педагогик компетенция, мустақил таълим, электрон луғат дастури, таълим сифатини ошириш, инновацион педагогика.

ЗНАЧЕНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ И ПРОЦЕСС ИХ СОЗДАНИЯ

Аннотация: В статье рассматривается значение электронных информационно-образовательных ресурсов в образовательном процессе и требования к их созданию. Авторы подчеркивают необходимость разработки образовательных модулей с использованием современных веб-технологий и повышения квалификации преподавателей. Электронные информационные ресурсы служат важным инструментом формирования знаний и умений студентов, а также способствуют развитию самостоятельной учебной деятельности. Особое внимание уделяется роли программ-электронных словарей в изучении иностранного языка.

Ключевые слова: Электронные образовательные ресурсы, веб-технологии, образовательные модули, педагогическая компетентность, самостоятельное обучение, программа-электронный словарь, повышение качества образования, инновационная педагогика.

THE IMPORTANCE OF ELECTRONIC INFORMATION AND EDUCATIONAL RESOURCES IN THE EDUCATIONAL PROCESS AND THE PROCESS OF THEIR CREATION

Abstract: This article examines the importance of electronic information and educational resources in the educational process and the requirements for their creation. The authors emphasize the need to develop educational modules using modern web technologies and to improve teacher qualifications. Electronic information resources serve as an important tool for developing students'

knowledge and skills and also facilitate the development of independent learning. Particular attention is paid to the role of electronic dictionary programs in foreign language learning.

Key words: Electronic educational resources, web technologies, educational modules, pedagogical competence, independent learning, electronic dictionary program, improving the quality of education, innovative pedagogy.

Ҳозирги кунда таълим тизимининг самарадорлигини ошириш учун электрон ахборот таълим ресурсларидан фойдаланиш зарурий талабга айланмоқда. Гобализация жараёнлари ва рақобатбардош ёш авлодни тайёрлаш мақсадида, ўқув жараёнида янги метод ва технологияларни қўллаш муҳим аҳамият касб этади. Электрон ахборот таълим ресурслари, яъни ЭАТР, таълим сифатини оширишда ва ўқувчиларнинг билимларини кенгайтиришда самарали восита бўлиб хизмат қилади.

ЭАТРларнинг яратилиши, педагогик жараённинг таълим сифатини янада ошириб, талабаларда замонавий билим ва кўникмаларни шакллантириш имконини беради. Ушбу ресурслар ўқувчилар учун ўқиш жараёнини қизиқарли ва интерактив равишда ташкил этишда муҳим рол ўйнайди. Шунингдек, ЭАТРларнинг таркиби, ўқув модули, методик кўрсатмалар, ўқув материаллари ва бошқа компоненцияларни ўз ичига олади.

Шу билан бирга, ЭАТРларни шакллантириш жараёнида, малакали педагогларнинг тажрибаси ва ахборот-коммуникация технологиялари бўйича билимларини жалб қилиш аҳамиятлидир. Таълим жараёнида электрон ресурсларни муваффақиятли интеграциялаш, нафақат ўқитиш сифатини ошириш, балки мустақил ўқиш фаолиятини ривожлантиришга ҳам хизмат қилади.

Ўқув жараёнида электрон ахборот таълим ресурсларининг аҳамияти ва уларни яратиш жараёнидаги талабларга эътибор қаратилади, бу эса таълим тизимидаги ўзгаришларга мос равишда янги имкониятларни тақдим этади.

Бугунги кунда таълимни ташкил этишда тезкорлик ва сифат кўрсаткичларига эришиш муҳим аҳамиятга эга. ЭАТР ни Web технология асосида яратиш бугунги куннинг муҳим талабларидан бири саналади. Электрон ахборот таълим ресурслари икки, яъни:

1) илмий-методологик;

2) дастурий-техник даражаларда режалаштирилади.

Мазур ўқув воситасига қўйиладиган бирламчи ва энг муҳим талаб, мазмуни ва амалиётга тадбиқ этилиши жиҳатидан талабаларда таълим стандартларига мос келадиган билим, кўникма ва малакалар шаклланишини таъминлай олиши зарур. Электрон ахборот таълим ресурсларини яратиш жараёнига ўқув модули бўйича бой иш тажрибасига эга, билимли, юқори касбий компетентликка эга педагоглар жалб этиш мақсадга мувофиқ. Махсус фанлар педагогларининг ўқув модуллари бўйича Web технологиясига асосланган электрон ахборот таълим ресурсларини яратишда ахборот-коммуникация технологиялар бўйича касбий билим, малакаларга эга мутахассислар билан ҳамкорликда иш олиб боришлари жараённинг самарали кечишини таъминлайди. Айни вақтда республикада мустақил таълимни ташкил этиш борасида муайян тажриба тўпланган бўлса-да, бироқ, уни янада бойитишга нисбатан эҳтиёж мавжуд. Ушбу эҳтиёжни самарали қондиришнинг йўлларидан яна бири–электрон ахборот таълим ресурсларини яратиш ҳисобланади [3,112].

Замонавий таълим тизимидаги глобал ўзгаришлар ва талаблар, таълим жараёнини ташкил этишда янги ёндашувлар ва инновацион технологияларни жорий этишни тақозо этмоқда. Ушбу шароитда, электрон ахборот таълим ресурслари (ЭАТР) юқори сифат ва тезкорлик кўрсаткичларига эришишда муҳим восита сифатида пайдо бўлмоқда. ЭАТРларни яратиш, айниқса, Wэб технологияларидан фойдаланиш, ўқув жараёнини янада самарали қилиш учун замонавий талабдир.

ЭАТР икки асосий даражада, яъни илмий методологик ва дастурий-техник даражаларда ишлаб чиқилади. Илмий ҳамда методологик даража, ўқув жараёнининг мазмуни ҳамда амалий қўлланилишида таълим стандартларига мос келадиган билим ва кўникмаларни шакллантиришга қаратилган. Ушбу талабларга жавоб берадиган ресурслар, ўқитувчиларнинг педагогик компетенцияларини ошириши ва ўқувчиларнинг таълим олиш жараёнини самарали ташкил этишларига ёрдам беради.

ЭАТРларни яратишда, тажрибали ва юқори касбий компетентликка эга педагогларни жалб этиш жуда муҳимдир. Ўқитувчилар, ўз билим ва тажрибаларини замонавий Wэб технологиялари билан уйғунлаштириб, таълим ресурсларини ишлаб чиқишлари керак. Уларнинг ҳамкорлиги

ахборот-коммуникация технологиялари бўйича малакали мутахассислар билан биргаликда амалга оширилса, жараённинг самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Республикада мустақил таълимни ташкил этиш борасида маълум тажрибалар тўпланган бўлса-да, бунда ҳали ҳам ривожланиш ва бойитиш учун кўплаб имкониятлар мавжуд. ЭАТРларни ишлаб чиқиш жараёнида, инновацион ёндошувлар ва методикаларни қўллаш ушбу эҳтиёжни самарали қондиришга ёрдам беради. Ушбу ресурслар нафақат ўқувчилар учун, балки ўқитувчилар учун ҳам мукаммал методик қўлланма сифатида хизмат қилиши мумкин.

ЭАТРларнинг самарадорлиги, шунингдек, ўқув жараёнини янада интерактив ва ёрдам берувчи шаклда ўтказиш имконини беради. Электрон ресурслар ёрдамида талабаларга дарсликларни тез топиш, қўшимча материалларни осон ўзлаштириш ва ўқитувчилар билан бевосита мулоқот қилиш имконияти яратилади. Бу борада, масофавий таълим платформаларидаги имкониятлардан фойдаланиш, ўқувчилар ўртасида мулоқотни кучайтиради ва уларнинг таълим жараёни билан фаол иштирок этиш имкониятларидан фойдаланишга ёрдам беради.

Шу боис, ўқув жараёнида ЭАТРларнинг ўрни ва аҳамиятини эътиборга олиб, таълим стандартларига мос келадиган электрон ахборот ресурсларини яратишга алоҳида эътибор қаратиш зарур. Бу нафақат таълим сифатини ошириш, балки келажак авлодни замонавий билимлар билан таъминлашда муҳимдир. Мактабгача таълимдан бошлаб, олий таълимгача, барча босқичларда ЭАТРларни қўллаш, таълим жараёни самарадорлигини оширади ва ўқувчиларнинг билим даражасини сезиларли даражада яхшилайди.

Шундай қилиб, электрон ахборот таълим ресурсларининг аҳамияти таълим тизимидаги барча иштирокчилар учун — ўқитувчилар, ўқувчилар ва таълим менежерлари учун кутилаётган натижаларни юзага келтиришда ўз ўрнини эгаллайди. Уларни яратиш жараёнида илмий-методологик ёндошувлар ва замонавий технологиялардан фойдаланиш, таълим тизимини янада такомиллаштиришга хизмат қилади.

Электрон ахборот таълим ресурсларининг таркибий асосини ташкил этувчи элементларни қуйидагича гуруҳларга ажратиш мумкин: (1-расм):



1-расм. электрон ахборот таълим ресурсларнинг таркибий асоси

Қуйида электрон ахборот таълим ресурсларининг таркибий асосини белгиловчи таркибий элементлар моҳияти хусусида сўз юритилади [2,64].

1. Ўқув модулининг ишчи ўқув дастури;
2. Ўқув модулини ўрганишга оид методик кўрсатмалар;
3. Ўқув ва ўқув-методик материаллар;
4. Луғавий маълумотларни берувчи манбалар;
5. Ўқув кўрсатмали материаллар;
6. Атамалар луғати ёки глоссарий;
7. Жорий, оралиқ ва якуний назорат;
8. Педагогик амалиёт ҳужжатлари;
9. Ўқув-библиографик материаллар.

Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, мамлакатимизда Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни ҳамда «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури»ни амалга ошириш доирасида чет тилларини ўқитишнинг комплекс тизими, яъни уйғун камол топган, мустақил фикрловчи ёш авлодни шакллантиришга, республиканинг жаҳон ҳамжамиятига янада интегратсия-лашувига йўналтирилган тизим яратиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012-йил 10-декабрдаги «Чет тилларини ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-1875 сонли Қарори қабул қилинган. Мазкур қарор ижросини таъминлаш мақсадида Республикада бир қатор намунали ишлар амалга оши-рилмоқда, жумладан, инглиз тилини биринчи синфдан бошлаб ўқитиш тизими жорий этилди.

Чет тилини ўрганувчилар учун муҳими сўз бойлиги бўлиб, бунда луғатларнинг аҳамияти катта ҳисобланади, бироқ уларни доимий равишда, олиб юриш бир мунча ноқулайликлар туғдиради ва улардан фойдаланиш маълум бир вақтни талаб этади. Ҳозирги пайтда чет тилларини ўрганиш жараёнида электрон луғатлардан фойдаланиш таълим жараёнининг унумдорлигини ошириб, таълимда янгича ёндашувни юзага келтиради. Шу сабабдан ҳам ўзбек, рус ва инглиз тиллари бўйича умумий электрон луғат дастурини ишлаб чиқиш долзарб масалалардан бири ҳисобланади. Электрон луғатлар анъанавий луғатларга қараганда, бир қатор афзалликларга эга бўлади. Замонавий электрон луғатлар нафақат ўзининг сўз бойлиги бўйича, балки бу сўзларни тезда қидириб топиш билан ҳам ажралиб туради [1].

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Мирзиёев Ш. М. нинг ПФ-4947 сонли Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича “Харакатлар стратегияси”. Т. : 2017 йил.

2. Электрон ўқув-услубий мажмуалар ва таълим ресурсларини яратиш методикаси. Методик қўлланма. Тузувчилар: Ф. Закирова, У. Муҳамедханов, Ш. Шарипов, Р. Исянов, Ф. Эсанбобоев, С. Доттоев, -Т. : ОЎМТВ, 2010. –64 б.

3. Web технология асосида электрон ахборот таълим ресурсларини яратиш ва уларни амалиётга жорий этиш / Муслимов Н. А., Сайфуров Д. М., Усмонбоева М. Ҳ., Тўраев А. Б. – Тошкент: 2015. – 128 бет.

4. Абдурашидов, А. "Замонавий таълимда электрон ахборот ресурсларининг роли. " Таълим ва инновациялар, 2022. – 85 б.

5. Холматова, Д. "Wэб технологиялар ёрдамида таълим сифатини ошириш. " Таълим ва ўқитишда замонавий ёндашувлар, 2023. – 112 б.

6. Тўраев, А. Б., Муслимаэва, Н. А. "Онлайн таълим платформалари ва электрон ресурслар. " Инновацион таълим, 2023. – 100 б.

7. Юсупов, Р. "Ўқув жараёнида электрон ресурслар ва уларнинг педагогик ўрни. " Ўқитувчилар учун методик қўлланмалар,

2021. – 64 б.

8. Сайфуров, Д. М., Усмонбаэва, М. Ҳ. "Таълим жараёнида рақамли технологиялар ва электрон материаллар. " Замонавий таълим методлари, 2022. – 150 б.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA DIFFERENSIAL TA’LIMNING BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI RIVOJLANISHIGA TA’SIRINING EPISTEMOLOGIK ASOSLARI.

Xolmirzayeva Dlaferuz Fattayevna
“University of economics and pedagogy” NOTM
“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi
dilafruzxolmirzayev270@gmail. com
Mamajonova Mohigul
“Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 2-bosqich BT_03-24-guruh talabasi
mamajonovaqwert@gmail. com

Annotatsiya: Ushbu maqolada differensial ta’limning boshlang‘ich ta'lim jarayonidagi o‘rni, kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’siri epistemologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Differensial ta’lim — bu o‘quvchilarning individual xususiyatlari, bilish faoliyati, o‘qish sur’ati, qiziqishlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib, ularga turlicha murakkablik darajasidagi topshiriqlar, metodlar va ta’lim shakllarini qo‘llash orqali bilim berish jarayonidir. Differensiallashgan ta’lim har bir bolaning o‘ziga xos o‘rganish imkoniyatini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etishni taqozo etadi. O‘quvchilarning bilim olish jarayonidagi individual farqlarni (proksimal rivojlanish zonasi, kognitiv uslub, o‘zlashtirish sur’ati va motivatsion holati) hisobga olgan holda ta’lim mazmuni, jarayoni va baholashni moslashtirish orqali bilimning shaxsiy konstruktsiyasini ta’minlaydi. Differensial ta’lim o‘quvchilarning individual bilim olish trayektoriyasini real vaqt rejimida aniqlash, moslashtirish va optimallashtirish imkonini beruvchi adaptiv raqamli platformalar, sun’iy intellekt asosidagi tahlil vositalari va moslashuvchan o‘quv kontentlari orqali yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Ushbu yondashuv L. S. Vygotskiyning proksimal rivojlanish zonasi nazariyasi, J. Piagetning kognitiv rivojlanish bosqichlari va C. Tomlinsonning differensial ta’lim modeliga asoslanadi.

Kalit so‘zlar: differensial ta’lim, epistemologiya, proksimal rivojlanish zonasi, kognitiv rivojlanish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, konstruktsionizm, raqamli transformatsiya, adaptiv o‘quv platformalar, sun’iy intellekt,

Эпистемологические основы влияния дифференцированного обучения на развитие учащихся начальных классов в условиях цифровой трансформации.

Аннотация: В статье анализируется роль дифференцированного обучения в начальном образовании, а также его влияние на когнитивное, эмоциональное и социальное развитие младших школьников с эпистемологической точки зрения. Дифференцированное обучение представляет собой процесс передачи знаний, при котором учитываются индивидуальные особенности учащихся, их познавательная активность, темп усвоения, интересы и возможности, а задания, методы и формы обучения подбираются с различным уровнем сложности. Дифференцированное обучение требует организации учебного процесса в личностно-ориентированном ключе с учётом уникальных возможностей каждого ребёнка. Оно обеспечивает личностную конструкцию знаний путём адаптации содержания, процесса и оценки обучения с учётом индивидуальных различий в усвоении знаний (зона ближайшего развития, когнитивный стиль, скорость усвоения и мотивационное состояние). В условиях цифровой трансформации дифференцированное обучение выходит на новый уровень благодаря адаптивным цифровым платформам, инструментам анализа на основе искусственного интеллекта и гибкому учебному контенту, которые позволяют в реальном времени определять, корректировать и оптимизировать индивидуальную траекторию усвоения знаний. Данный подход опирается на теорию зоны ближайшего развития Л. С. Выготского, стадии когнитивного развития Ж. Пиаже и модель дифференцированного обучения К. Томлинсон.

Ключевые слова: дифференцированное обучение, эпистемология, зона ближайшего развития, когнитивное развитие, личностно-ориентированное обучение, конструктивизм, цифровая трансформация, адаптивные учебные платформы, искусственный интеллект.

Epistemological foundations of the impact of differentiated education on the development of primary school pupils in the context of digital transformation.

Abstract: The article examines the role of differentiated instruction in primary education and its impact on pupils’ cognitive, emotional, and social development from an epistemological perspective. Differentiated instruction is defined as a teaching process that takes into account students’ individual characteristics, cognitive activity, learning pace, interests, and abilities by applying tasks, methods, and forms of instruction of varying complexity. It requires the organization of a student-centered learning process that respects each child’s unique learning opportunities. By adapting content, process, and assessment in accordance with individual differences in knowledge acquisition (zone of proximal development, cognitive style, rate of assimilation, and motivational state), differentiated instruction ensures the personal construction of knowledge. In the context of digital transformation, differentiated instruction reaches a new level through adaptive digital platforms, artificial intelligence-based analytical tools, and flexible learning content that enable real-time identification, adjustment, and optimization of individual learning trajectories. The approach is grounded in L. S. Vygotsky’s theory of the zone of proximal development, J. Piaget’s stages of cognitive development, and C. Tomlinson’s model of differentiated instruction.

Keywords: differentiated instruction, epistemology, zone of proximal development, cognitive development, student-centered learning, constructivism, digital transformation, adaptive learning platforms, artificial intelligence.

Jannatmakon yurtimiz O‘zbekistonda ta’lim sohasi kundan kunga rivojlanib bormoqda. Davlatimizda ta’lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy metodlarni joriy etish va o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga yuksak e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va “Ta’lim-2030” konsepsiyasi ta’lim jarayonini to‘liq raqamlashtirish va har bir o‘quvchiga individuallashtirilgan ta’lim trayektoriyasini yaratishni asosiy vazifa qilib qo‘ygan. Bunday sharoitda differensial ta’lim endi faqat qog‘ozdagi “uch xil kartochka” emas, balki real vaqt rejimida o‘quvchi faoliyatini tahlil qilib, avtomatik ravishda mos topshiriq tanlaydigan, qiyinchilik darajasini o‘zgartiradigan va o‘qituvchiga analitik ma’lumot taqdim etadigan innovatsion texnologik yechimdir. Shu o‘rinda

differensial ta’limning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Zero, har bir o‘quvchi o‘z qobiliyati, qiziqishi va tayyorgarlik darajasiga ko‘ra boshqalardan farq qiladi. Differensial yondashuv esa ana shu individual farqlarni inobatga olib, har bir bolaga moslashtirilgan ta’lim berishni taqozo etadi. Bu yondashuv yoshlarning bilim olish jarayonini osonlashtiradi, ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantiradi hamda ularni kelajakda jamiyatda munosib o‘rin egallashga tayyorlaydi.

Differensial ta’lim zamonaviy pedagogikada konstruktsionistik epistemologiyaga asoslanadi bilim tayyor holda berilmaydi, balki o‘quvchi tomonidan faol ravishda o‘z tajribasi va mavjud bilimlari asosida qayta ishlanadi va shaxsiy ma’noga ega bo‘ladi[1,234]. Vygotskiy ta’kidlaganidek, har bir bola o‘ziga xos “proksimal rivojlanish zonasi”ga ega bo‘lib, u kattalar yoki tengdoshlari yordami bilan bajarishi mumkin bo‘lgan vazifalar doirasini anglatadi[1,245]. Differensial ta’lim aynan shu zonani aniqlab, topshiriqlarning murakkabligini shunga moslashtiradi va shu tariqa bilimning chuqur va mustahkam o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Hususan, topshiriq o‘quvchi uchun juda qiyin bo‘lsa — qiziqishi kamayadi. Juda oson bo‘lsa zerikadi. Differensial ta’lim o‘quvchi imkoniyatiga mos topshiriq berib, uning o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini saqlab turadi. Har xil murakkablikdagi topshiriqlar o‘quvchilarni tahlil qilish, solishtirish, xulosa chiqarish, ijodiy fikrlashga undaydi va o‘quvchini mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi. O‘quvchi o‘ziga mos bo‘lmagan tezlikda ishlashga majbur bo‘lsa, stress, qo‘rquv yoki o‘ziga ishonchsizlik paydo bo‘lishi mumkin. Differensianal ta’limda bunday holatlarning oldi olinib, o‘quvchilarning o‘zini erkin his qilishiga imkon beradi. Psixologik qulay muhitni yaratadi. Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv platformalar ham (masalan, Kundalik. com’ning yangi AI-moduli, Dream Box, Khan Academy Kids) o‘quvchining har bir javobini real vaqt rejimida tahlil qilib, uning hozirgi bilim darajasidan 10–15 % yuqori qiyinchilikdagi keyingi savolni taklif etadi. Bu jarayon Vygotskiyning “eng yaqin rivojlanish zonasi” tamoyilining raqamli ekvivalentidir

Piaget nazariyasiga ko‘ra, 6–11 yoshdagi bolalar “aniq operatsiyalar” bosqichida bo‘lib, abstrakt tushunchalarni faqat aniq misollar orqali o‘zlashtira oladi[2]. Biroq bir sinfdagi bolalarning kognitiv tayyorgarlik darajasi turlicha bo‘ladi ba’zilari hali “old operatsion” bosqichda qolishi, boshqalari esa rasmiy operatsiyalarga o‘tishga tayyor bo‘lishi mumkin. Yagona dastur va bir xil

murakkablikdagi topshiriqlar epistemologik jihatdan samarasizdir, chunki u o‘quvchining mavjud bilim sxemasiga mos kelmasa, yangi bilim assimilyatsiya yoki akkomodatsiya jarayonida rad etiladi yoki sirtqi o‘zlashtiriladi.

Sinflarda turli qobiliyatga ega bolalar bo‘lishi tabiiy hol albatta. Bugungi zamonaviy ta’limning asosiy talabi — shaxsga yo‘naltirilgan ta’limdir. Differensial ta’lim aynan mana shu yondashuvning amaliy ko‘rinishi bo‘lib, o‘quvchini ta’lim jarayonining markaziga qo‘yadi. Bundan tashqari, bilim olishning samaradorligini oshirishda neurodidaktika – ta’lim jarayonlarining neyrobiologik asoslarini o‘rganuvchi yondashuv muhim rol o‘ynamoqda. Bu konsepsiyaga ko‘ra, ta’lim samaradorligi miyaning axborotni qabul qilish, emotsional bog‘liqlik va diqqatni boshqarish qobiliyatlari bilan bevosita bog‘liq[5].

Proksimal rivojlanish zonasini faollashtirish differensial topshiriqlar har bir o‘quvchining hozirgi bilim darajasidan biroz yuqori, lekin yetarli yordam bilan bajarib bo‘ladigan darajada bo‘ladi. Natijada o‘quvchi “o‘z-o‘zidan emas, balki “boshqalar bilan birga” yangi bilimlarni quradi[1,134].

Kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirish turli murakkablikdagi topshiriqlar (oddiy, o‘rta, murakkab) o‘quvchilarda metakognitiv strategiyalarni shakllantiradi: ular o‘z bilim darajasini baholashni, qiyinchilikni tan olishdan ko‘ra o‘z strategiyasini o‘zgartirishni o‘rganadi[3,112].

Motivatsiya va o‘z-o‘zini tartibga solish o‘quvchi uchun juda qiyin topshiriq “o‘rganilgan ojizlik”ka olib keladi, juda oson topshiriq esa “zerikish” hosil qiladi. Differensial yondashuv “optimal qiyinchilik” prinsipiga asoslanib, intrinsik motivatsiyani saqlaydi va epistemologik jihatdan bilimni chuqur qayta ishlashga undaydi[4,165].

Differensianal ta’lim metodlari:

1. Individuallashtirilgan topshiriqlar berish. Ya’ni har bir o‘quvchining bilish darajasi, qiziqishi va o‘qish sur’atini hisobga olib topshiriq berish. Masalan: Matematika darsida kuchli o‘quvchilarga murakkab masalalar berish, o‘rta darajadagilarga standart masalalar, bilim darajasi past bo‘lganlarga esa sodda tushuntirish bilan birgalikda mashqlar taqdim etish

2. Guruh va juft ishlash. Bunda o‘quvchilarni qobiliyatiga qarab kichik guruhlarga bo‘lish, bir biriga yordam berishni rag‘batlantirish. Masalan: Ona tili darsida o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, har guruhga o‘ziga mos darajadagi matnlarni tahlil qilish yoki hikoya yozish topshirig‘i berish.

3. Loyiha va ijodiy ishlar. Bunga ko‘ra o‘quvchilarga mustaqil va ijodiy yondashuvga mos vazifalar berish. Misol uchun Tabiyatshunoslik darsida o‘quvchidan o‘z bog‘i yoki hayvonlar dunyosi haqida kichik loyiha yaratishni so‘rash, qobiliyatiga qarab oddiy rasm chizish yoki batafsil taqdimot tayyorlash.

4. Masofaviy va interaktiv metodlar. Bunda zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘quvchilarga moslashtirilgan vazifalar berish. Ya’ni o‘quvchi bilish darajasiga qarab onlayn platformalarda interaktiv mashqlarni bajaradi; kuchli o‘quvchi ko‘proq murakkab testlar, boshqalar esa sodda mashqlar bilan shug‘ullanadi.

Bu metodlar o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltiradi, bilim olishni samarali qiladi va har bir bolaning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Hozirgi zamonda ta’lim tizimi global o‘zgarishlar va innovatsion texnologiyalar ta’sirida rivojlanib bormoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari esa turli xil qobiliyat, bilish sur’ati va individual xususiyatlarga ega bo‘lib, ular uchun yagona yondashuv yetarli natija bermaydi. Shu sabab, differensial ta’lim hozirgi zamon boshlang‘ich ta’limining ajralmas qismiga aylangan.

Tomlinson va boshqalar tomonidan olib borilgan ko‘p yillik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, differensial ta’lim qo‘llanilgan sinflarda: o‘quvchilarning akademik ko‘rsatkichlari o‘rtacha 20–35 % ga oshgan; o‘z-o‘zini baholash va metakognitsiya ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlangan; stress darajasi pasaygan, sinfda ijobiy psixologik muhit shakllangan[3].

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda olib borilgan tajribalar (Qarshi davlat universiteti va viloyat NOTMlarida) differensial topshiriq kartochkalari sinovlari) o‘quvchilarning matematika va ona tili fanlaridan o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari 18–27 % ga oshganini tasdiqlaydi

Zamonaviy pedagogik amaliyot shuni ko‘rsatadiki, differensial ta’lim har bir o‘quvchining bilish darajasini va o‘qishga qiziqishini oshirish, individual imkoniyatlarga moslashtirilgan topshiriqlar orqali motivatsiyani kuchaytirish,

mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish, psixologik qulay muhit yaratish va stressni kamaytirish, inkluziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash va qobiliyati past bolalarga yordam berish kabi jihatlarda samarali ekanligini ko‘rsatadi. Differensial ta’limning epistemologik asoslari Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasi, Piagetning kognitiv bosqichlar nazariyasi va zamonaviy konstruktsionistik yondashuvlarda mustahkamlangan. U bilimni shaxsiy tajriba orqali faol qurish, proksimal rivojlanish zonasini doimiy faollashtirish va o‘quvchining kognitiv, emotsional va ijtimoiy resurslarini optimal ishlatish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Vygotskiy L. S. **Pedagogik psixologiya**. – Moskva: AST, 2018. 672 bet.
2. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2001. 202 p.
3. Tomlinson C. A., Moon T. R. Assessment and Student Success in a Differentiated Classroom. – Alexandria, VA: ASCD, 2013. – 174 p.
4. Csikszentmihalyi M. Flow: The Psychology of Optimal Experience. – New York: Harper Perennial, 2008. – 303 p.
5. D. F. Xolmirzayeva. Texnologik ta’lim jarayonida bilish faoliyatining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari. NamDU Ilmiy Axborotnomasi 2025-8-son 708 bet.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KOOPERATIV TA’LIM VA AVTODIDAKTIK RIVOJLANISH INTEGRATSIYASIGA ASOSLANGAN PEDAGOG TAYYORLASHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYASI

Sabirova Muxarramoy Nurbek qizi
Andijon viloyati pedagogik instituti o‘qituvchisi,

Annotatsiya. Raqamli transformatsiya jarayonlari pedagog tayyorlash mazmunini tubdan o‘zgartirib, kooperativ ta’lim va avtodidaktik rivojlanishning integratsiyasiga asoslangan yangi texnologiyalarni joriy etishni talab etmoqda. Ushbu maqolada “raqamli kooperativ–avtodidaktik texnologiya”ning nazariy mazmuni, tarkibiy komponentlari va amaliy imkoniyatlari ilmiy asosda yoritiladi. Taklif etilgan model diagnostika, raqamli hamkorlik va mustaqil o‘rganish-

refleksiya bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Natijalar bo‘lajak pedagoglarda raqamli kompetensiyalar, refleksiv faoliyat, hamkorlik madaniyati va kasbiy mustaqillikning oshganini ko‘rsatadi.

ИННОВАЦИОННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ПОДГОТОВКИ ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ КООПЕРАТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ И АВТОДИДАКТИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Аннотация. Цифровая трансформация существенно меняет содержание подготовки педагогов и требует внедрения технологий, основанных на интеграции кооперативного обучения и автодидактического развития. В статье раскрываются теоретические основы и структурные элементы инновационной «цифровой кооперативно-автодидактической технологии». Модель включает диагностику, обучение в цифровой кооперативной среде и самостоятельное обучение с постоянной рефлексией. Результаты показывают развитие у будущих педагогов цифровых компетенций, рефлексивных умений, навыков сотрудничества и профессиональной автономии.

INNOVATIVE TECHNOLOGY FOR TEACHER TRAINING BASED ON THE INTEGRATION OF COOPERATIVE LEARNING AND SELF-DIRECTED DEVELOPMENT IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION

Abstract. Digital transformation is reshaping teacher education and requires the adoption of integrated pedagogical technologies that combine cooperative learning with self-directed development. This article presents the theoretical foundations and structural components of an innovative “digital cooperative–self-directed technology. ” The model includes diagnostic assessment, digital collaborative learning, and independent learning accompanied by continuous reflection. The findings demonstrate improvements in future teachers’ digital competences, reflective skills, collaboration abilities, and professional autonomy. The proposed technology enhances learning motivation and responsibility in digital environments.

Kalit so‘zlar: Raqamli transformatsiya; kooperativ ta’lim; avtodidaktik rivojlanish; pedagog tayyorlash; innovatsion texnologiya; raqamli

kompetensiyalar; refleksiv faoliyat; hamkorlikda o‘qitish; self-directed learning; digital pedagogika.

Ключевые слова: Цифровая трансформация; кооперативное обучение; автодидактическое развитие; подготовка педагогов; инновационная технология; цифровые компетенции; рефлексивная практика; совместное обучение; учебная автономия; высшее педагогическое образование.

Key words: Digital transformation; cooperative learning; self-directed development; teacher education; innovative technology; digital competences; reflective practice; collaborative pedagogy; learner autonomy; higher education.

XXI asrda raqamli transformatsiya jarayonlari ta’lim tizimini tubdan yangilashni talab qilmoqda. Zamonaviy pedagogdan endilikda faqat nazariy bilim emas, balki raqamli savodxonlik, mustaqil o‘rganish, hamkorlikda ishlash, refleksiv fikrlash kabi ko‘nikmalarni kompleks egallash kutiladi. UNESCOning “Reimagining Our Futures Together” hisobotida ta’kidlanishicha, raqamli muhitda o‘qituvchi faoliyati “moslashuvchan, hamkorlikni qo‘llovchi va o‘quvchini mustaqil o‘rganishga yo‘naltiruvchi kasbiy modelga” aylanmoqda [12, 34-b.]. Shuningdek, OECD TALIS tadqiqotlari ham ta’lim samaradorligini oshirishda hamkorlikda o‘qitish va o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyalarining ustuvor ahamiyatini alohida ta’kidlaydi [8, 56-b.]. Shu nuqtai nazardan, raqamli muhitda kooperativ ta’lim va avtodidaktik rivojlanish tamoyillarini uyg‘unlashtiruvchi innovatsion texnologiya pedagog tayyorlash jarayonida dolzarb va strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolaning maqsadi — mazkur integrativ texnologiyaning nazariy asoslari, metodik mexanizmlari va amaliy natijalarini ilmiy jihatdan tahlil qilishdir.

Raqamli transformatsiya davrida pedagog tayyorlash jarayoni o‘z mohiyati jihatidan murakkablashib, kooperativ ta’lim, avtodidaktik o‘qitish va digital learning konsepsiyalarining integratsiyalashgan yondashuvini talab etmoqda. So‘nggi o‘n yillik ilmiy manbalar tahlili ushbu yo‘nalishlarning har biri bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini zamonaviy talablarga mos shakllantirishda alohida o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Quyida ushbu yo‘nalishlar tizimli ravishda tahlil qilinadi.

Kooperativ ta’lim bo‘lajak pedagoglar uchun eng samarali kompetensiya shakllantiruvchi yondashuvlardan biri sifatida ilmiy adabiyotlarda keng e’tirof etilgan. Johnson va uning hamkasblari kooperativ o‘qitishning asosiy tamoyillarini quyidagicha izohlaydi:“Kooperativ o‘qitish tuzilmalari talabalarda ijobiy o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytiradi, individual mas’uliyatni oshiradi hamda shaxslararo ko‘nikmalarni mustahkamlaydi. ” [5, 45-b.] Mazkur ta’rifning eng muhim jihati — kooperativ strukturaning faqat guruhda ishlash emas, balki “o‘zaro bog‘liqlik” va “individual mas’uliyat”ni yagona jarayon sifatida qo‘rishidir. Bu aynan bo‘lajak pedagoglar uchun eng zarur kompetensiyadir, chunki ular kelajakda sinfda jamoa yetakchisi ham, muvofiqlashtiruvchi shaxs ham bo‘ladi. Ko‘p yillik kuzatuvlarim ko‘rsatadiki, OTM talabalari kooperativ yondashuvsiz faqat passiv bilim oluvchiga aylanib qoladi. Shuning uchun ushbu tamoyil texnologiyamning asosiy poydevorlaridan biridir.

Slavin esa kooperativ o‘qitishning ta’lim natijalariga bevosita ta’sirini quyidagi ilmiy asos bilan tasdiqlaydi:“Talabalar bilimni birgalikda qurish jarayonida ko‘proq o‘rganadilar va o‘zlashtirilgan ma’lumotni uzoq muddat saqlab qoladilar. ” [10, 62-b.]. Slavin fikridagi “bilimni uzoq vaqt saqlab qolish” jihati ayniqsa ahamiyatli. O‘z tadqiqotim davomida ham ko‘rdimki, talaba mustaqil o‘qigan mavzuni bir necha hafta ichida unutishi mumkin, biroq kooperativ topshiriqda muhokama qilingan kontent ikki-uch baravar ko‘proq esda qoladi. Demak, bilimning barqarorligi kooperativ muhitda yuqori bo‘ladi — bu raqamli transformatsiya davri uchun ham dolzarb natija.

Raqamli davrda shaxsning o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyasi markaziy o‘ringa chiqmoqda. Knowles avtodidaktik rivojlanish jarayonini quyidagicha ta’riflaydi:“Avtodidaktik o‘rganish — bu shaxsning o‘z o‘quv ehtiyojlarini aniqlash, maqsadlar qo‘yish, strategiyalarni tanlash va natijalarni baholash jarayonida tashabbus ko‘rsatishidir. ” [7, 18-b.]. Knowles ta’rifi mening tadqiqot konsepsiyamning asosiy qismi bo‘lib xizmat qiladi. Chunki avtodidaktik yondashuvsiz raqamli transformatsiya sharoitida pedagog tayyorlashning imkoni yo‘q. Bugungi yoshlar raqamli vositalarni ishlata oladi, lekin o‘z o‘quv jarayonini mustaqil boshqara olmaslik muammosi kuchli. Shu bois men yaratgan texnologiyada talabaning o‘z maqsadini qo‘yish va refleksiya yuritishi markaziy komponent sifatida belgilangan.

Garrison SDL modelida metakognisiya, motivatsiya va refleksiyani asosiy ustun sifatida belgilab, shunday yozadi:“Avtodidaktik o‘qitish motivatsiya, o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘zini boshqarish o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir orqali qo‘llab-quvvatlanadi. ”[4, 27-b]

Garrisonning o‘zaro ta’sir iborasi — juda muhim. Men talabalarda refleksiv yozuvlarni tahlil qilganimda ular aynan motivatsiya past bo‘lgan haftalarda o‘z-o‘zini monitoring qilishni ham sustlashtirganini kuzatdim. Demak, motivatsiya avtodidaktik rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Bu texnologiya modeliga motivatsion modullar qo‘shishni ilmiy jihatdan asoslaydi.

Zamonaviy ta’limning markazida data, shaxsiylashtirilgan o‘qitish va raqamli muhitni boshqarish turadi. Siemens O‘quv analitikasining mohiyatini quyidagicha ochadi:“ O‘quv analitikasi talabalarning o‘quv faoliyati haqidagi amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan tahliliy ma’lumotlarni taqdim etadi va moslashuvchan, shaxsiylashtirilgan ta’lim muhitlarini yaratishga imkon beradi. ” [9, 11-b]

Siemens fikri asosida men o‘tkazgan tajribada learning analytics menga nafaqat statistik ma’lumot berib, balki individual o‘quv trayektoriyalarini aniqlashda asosiy vosita bo‘ldi. Masalan, bir xil vazifani bajarishda talabalar o‘rtasidagi vaqt farqi, Google Docsdagi faollik darajasi, refleksiya matnlaridagi kalit so‘zlar men uchun diagnostika vositasiga aylandi. Bu esa texnologiyani aniq dalillarga tayanadigan qilib qo‘ydi.

Milliy ta’lim siyosati hujjatlarida ham pedagog raqamli kompetensiyasini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. “O‘zbekiston–2030” strategiyasida raqamli ta’lim muhitini joriy etish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni kengaytirish va o‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha alohida vazifalar belgilangan [11, 12-b.]. Azizxo‘jayeva ham zamonaviy pedagog shaxsining kompetensiyalarini “texnik bilimlar bilan bir qatorda, o‘z-o‘zini rivojlantirish madaniyatini talab qiluvchi murakkab tizim” sifatida talqin etadi [1, 54-b.].

Shu boisdan, raqamli kooperativ o‘qitish va avtodidaktik rivojlanishning integratsiyasi bo‘lajak pedagogni zamonaviy ta’lim talablariga mos holda tayyorlashning dolzarb va ilmiy asoslangan texnologiyasi sifatida qaraladi. Mazkur maqola aynan shu integrativ texnologiyaning nazariy jihatlari, metodik modellari va amaliy natijalarini ochib berishga qaratilgan.

Pedagog tayyorlash jarayonining raqamli transformatsiyasi sharoitida kooperativ ta’lim va avtodidaktik o‘rganishning integratsiyasi nazariy va amaliy jihatdan asoslangan yangi texnologik yondashuvni talab etadi. Adabiyotlar tahlili, mavjud nazariy modellar va milliy ta’lim siyosati natijalariga asoslanib, muallif tomonidan “Raqamli kooperativ–avtodidaktik texnologiya modeli” ishlab chiqildi. Mazkur model bo‘lajak pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini, jamoaviy faoliyatini, mustaqil o‘quv qobiliyatini va refleksiv madaniyatini birlashtiruvchi integratsion konsepsiyani anglatadi.

Model quyidagi to‘rt asosiy komponentlardan tarkib topadi:

1. Diagnostika moduli,
2. Raqamli kooperatsiya muhitida jamoaviy o‘qitish moduli,
3. Avtodidaktik o‘rganish va refleksiya moduli,
4. O‘quv analitikasiga asosida monitoring moduli.

Diagnostika moduli “Raqamli kooperativ–avtodidaktik texnologiya” modelining boshlang‘ich bosqichi bo‘lib, talabaning raqamli kompetensiyasi, o‘z-o‘zini boshqarish darajasi, kooperativ faoliyatdagi roli va refleksiv tayyorgarligini chuqur va tizimli aniqlashni nazarda tutadi. Zamonaviy pedagogika tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, diagnostika dastlabki bosqichning to‘g‘ri tashkil etilishi ta’lim jarayonining keyingi modullarini individual talabaning ehtiyojlari va rivojlanish darajasiga moslashtirish imkonini beradi [2, 74-b.].

Yevropa Komissiyasining DigCompEdu modeli (European Commission, 2017) pedagogik raqamli kompetensiyani aniqlashda xalqaro mezon sifatida e’tirof etilgan. [3, 4-b.]. Mazkur model raqamli kompetensiyani olti yo‘nalish bo‘yicha baholashni taklif etadi:

1. professional faoliyatda AKTdan foydalanish,
2. raqamli resurslar yaratish va moslashtirish,
3. raqamli pedagogik strategiyalardan foydalanish,
4. baholash jarayonida AKTni qo‘llash,
5. talabalarning raqamli savodxonligini rivojlantirish,
6. ta’lim jarayonini texnologiyalar asosida boshqarish.

So‘nggi tadqiqotlarda raqamli kompetensiya aynan talabaning o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati bilan chambarchas bog‘liqligi ta’kidlangan, chunki raqamli muhitda mustaqil ishlash uchun talaba o‘z faoliyatini nazorat qilish, mos resurslarni tanlash va strategik rejalashga tayyor bo‘lishi zarur[6, 41-b.]. Ushbu

model talabaning mustaqil o‘rganish jarayonini ikki darajada — psixologik-metakognitiv va raqamli-amaliy jihatdan baholash imkonini beradi.

Garrison avtodidaktik o‘rganishning asosiy mexanizmini quyidagicha izohlaydi:

“Motivatsiya o‘quv jarayonining ichki harakatlantiruvchi kuchi, o‘z-o‘zini boshqarish esa resurs tanlash va strategik rejalashtirishni belgilaydi, monitoring esa o‘quvchini refleksiv nazoratga yo‘naltiradi” [4, 27-b.].

Bu yondashuv bo‘lajak pedagogning o‘z bilimini boshqarish, maqsadbelgilash va mustaqil rivojlanish qobiliyatini kompleks baholash imkonini beradi.

Raqamli ta’lim sharoitida SDL jarayoni faqat metakognitiv tayyorlik bilan cheklanib qolmaydi. Shu bois Kim va Leetomonidan taklif qilingan “Digital SDL Competencies” modeli talabaning raqamli muhitdagi mustaqillik darajasini quyidagi jihatlar orqali aniqlaydi:

– raqamli resurslarni izlash va baholash;
– mos o‘quv strategiyalarini tanlash;
– onlayn o‘quv jarayonida o‘z faoliyatini monitoring qilish;
– refleksiya va natijalarni raqamli portfoliolarga qayd etish[6, 41-b.].

Ushbu ikki yondashuvning integratsiyasi, o‘z navbatida, diagnostika modulining ilmiy asoslanganligini kuchaytiradi va bo‘lajak pedagogning raqamli-avtodidaktik tayyorgarligini aniq va tizimli baholash imkonini beradi.

Raqamli hamkorlik sharoitida talabaga quyidagi rollardan biri moslashtiriladi:

1. Lider – guruh faoliyatini boshqaradi, muhokamani yo‘naltiradi;
2. Muvofiqlashtiruvchi – vazifalarni taqsimlaydi, jarayonni tartibga soladi;
3. Kotib (recorder) – asosiy g‘oyalarni qayd etadi, yakuniy natijani shakllantiradi;
4. Motivator – guruh a’zolarini rag‘batlantiradi, faol ishtirokni qo‘llab-quvvatlaydi;
5. Nazoratchi – jarayonni kuzatadi, xatoliklarni ko‘rsatadi va takomillashtirish bo‘yicha takliflar beradi.

Kooperativ o‘qitish jarayonida guruh a’zolari o‘rtasida rollarning maqsadli taqsimlanishi ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy ijtimoiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Aynan rollar tizimi — liderlik, muvofiqlashtirish, nazorat,

muloqotni boshqarish, umumlashtirish kabi funksiyalar — guruhning ichki dinamikasini faollashtiradi, o‘quv jarayonini harakatlantiruvchi kuchga aylanadi. Shu sababli, talabalarning kooperativ faoliyatdagi roli ularning kommunikativ kompetensiyasi, jamoada ishlash madaniyati va ijtimoiy moslashuvchanligini aniqlashda muhim diagnostik ko‘rsatkich sifatida qaraladi. Rollarning to‘g‘ri taqsimlanishi nafaqat guruhning umumiy natijasini, balki har bir talabaning shaxsiy faolligi, tashabbuskorligi va hamkorlikka tayyorligini kuchaytiradi.

Raqamli transformatsiya sharoitida kooperativ ta’limni tashkil etish texnologiyalarning rivoji bilan yanada kengayib bormoqda. Zamonaviy raqamli vositalar talabalarning jamoaviy faoliyatini faollashtiruvchi, o‘zaro aloqani mustahkamlovchi va bilimni konstruktiv ravishda birgalikda yaratish imkonini beruvchi muhitni shakllantiradi. Raqamli kooperatsiya nafaqat muloqotni tezlashtiradi, balki o‘quv jarayonining mazmunini interaktiv, ochiq va mavjud axborot resurslariga tayanadigan tizimga aylantiradi.

Kooperativ ta’limning mazmuni talabalarning birgalikda fikrlashi, masalalarni muhokama qilishi, o‘zaro yordam ko‘rsatishi va bir-biridan o‘rganishiga tayangan holda shakllanadi. Guruh ichida rollarning tabiiy taqsimlanishi, umumiy maqsad sari harakat, o‘zaro mas’uliyat, faol muloqot va qarorlar almashinuvi ta’lim jarayonining ijtimoiy energiyasini oshiradi. Raqamli vositalar aynan shu jarayonni kuchaytirib, jamoaviy o‘rganishni yangi shakl va sifatga olib chiqadi.

O‘zbekiston OTMlarining real tajribasida keng qo‘llaniladigan quyidagi platformalar jamoaviy o‘qitishning samarali texnologik vositalari sifatida ajralib turadi:

HEMIS raqamli boshqaruv tizimi sifatida talabalarning dars jadvali, elektron jurnal, reyting, topshiriq yuklash va portfel yuritish jarayonlarini yagona platformada birlashtiradi. Ushbu tizim bevosita kooperativ ta’lim vositasi bo‘lmasa ham, u guruhdagi umumiy faoliyatni monitoring qilish, talabalarning ishtirok darajasini tahlil qilish va topshiriqlarni taqqoslash imkoniyatlarini yaratgani sababli kooperativ jarayonni bilvosita qo‘llab-quvvatlaydi. Bunda o‘qituvchi va talabalar o‘zaro axborot almashishi barqaror raqamli kanalda davom etadi.

Zoom platformasi jamoaviy ta’limni real vaqt rejimida tashkil etishning qulay vositasidir. “Breakout rooms” funksiyasi talabalarni kichik guruhlarga bo‘lib, kooperativ muhokamalarni tashkil etish imkonini beradi. Kamera va ekran

ulash funksiyalari jamoaviy prezentatsiya, fikr almashinuvi, muammoli vaziyatlarni birgalikda tahlil qilish jarayonini jonli va interaktiv ko‘rinishga keltiradi.

Telegram O‘zbekiston ta’lim muhitida eng faol ishlatiladigan muloqot platformalaridan biridir. Guruhlar, kanallar, “Topics” bo‘limlari orqali talabalar kichik jamoalarga bo‘lingan holda vazifalarni muhokama qiladi, o‘zaro resurs almashadi, g‘oyalarni bildiradi va o‘quv jarayonidagi muammolarni birgalikda hal qiladi. Bu platforma tezkor muloqot va moslashuvchan kooperatsiya uchun eng qulay raqamli maydonlardan biridir.

LearningApps interaktiv mashqlar yaratish, guruhli topshiriqlarni real vaqt rejimida bajarish va natijalarni solishtirish imkonini beradi. Talabalar bir-birining javoblarini ko‘rib, tahlil qiladi, xatolarni aniqlaydi, yangi g‘oyalar ishlab chiqadi. Bu nafaqat kooperativ fikrlashni, balki refleksiv tahlilni ham kuchaytiradi.

YouTube ta’limiy videolar, dars yozuvlari, bilim manbalari va ko‘nikma namoyishlarini guruhli muhokama qilish uchun qulay maydon yaratadi. Talabalar bir xil videoni ko‘rib, keyin jamoaviy tahlil, sharhlash, savol-javob va refleksiya jarayonlarini amalga oshiradi. Bu kooperativ ta’limni multimodal tarkib bilan boyitadi.

Raqamli kooperatsiya muhitining ahamiyati, avvalo, talabalarning ijtimoiy faolligini kuchaytirishida namoyon bo‘ladi. Raqamli vositalar yordamida tashkil etilgan jamoaviy faoliyat guruhda ishlash madaniyatini rivojlantirib, talabalarda mas’uliyat, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Bu jarayon talabaning mustaqil fikrlashi, tashabbus ko‘rsatishi va ijodiy muhokamalarda faol qatnashishiga yordam beradi. O‘zaro fikr almashinuvi va birgalikdagi tahlil bilimning yanada mustahkam va mazmunli shakllanishiga olib keladi.

Shuningdek, raqamli hamkorlik muhiti ta’lim jarayonini doimiy va ochiq tizimga aylantirib, bo‘lajak pedagoglarda kommunikativ, kooperativ va raqamli kompetensiyalarni bir vaqtning o‘zida rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa ta’limning zamonaviy talablarga mos, moslashuvchan va innovatsion shaklda tashkil etilishini ta’minlaydi.

Avtodidaktik o‘rganish moduli raqamli kooperativ–avtodidaktik texnologiya modelining markaziy bo‘g‘ini bo‘lib, talabaning o‘z o‘quv jarayonini mustaqil boshqarish, maqsad qo‘yish, strategiya tanlash va o‘z faoliyatini baholash qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi. Ushbu modulning asosiy mazmuni talaba

shaxsining o‘z-o‘zini boshqarishga tayyorligini kuchaytirish, o‘quv jarayonidagi mustaqilligini oshirish va refleksiv tafakkurini shakllantirishdan iborat.

Raqamli muhitda avtodidaktik o‘rganishning asosiy afzalligi — talabaning o‘quv trayektoriyasini individual ravishda rejalashtira olishi, o‘z ehtiyojlariga mos resurslarni tanlashi hamda o‘z rivojlanishini real vaqt rejimida monitoring qila olishi hisoblanadi. Talaba raqamli platformalar orqali turli o‘quv materiallarini izlab topadi, vazifalarni mustaqil bajaradi, o‘zining kuchli va zaif tomonlarini tahlil qiladi. Bunday mazmunli mustaqillik o‘quv jarayonini tashqi boshqaruvdan ichki o‘z-o‘zini boshqarishga o‘tkazadi.

Refleksiya mazkur modulning tarkibiy yadrosi sanaladi. Talabalar har bir topshiriq, mashg‘ulot yoki jamoaviy faoliyatdan so‘ng o‘z tajribasini baholaydi, o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini tahlil qiladi, yuzaga kelgan muammolarni aniqlaydi va keyingi qadamlar uchun aniq strategiyalar ishlab chiqadi. Refleksiya jarayonini rivojlantirishda elektron portfoliolar, shaxsiy o‘sish kundaliklari, reflektiv esse va video-refleksiyalar samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Bu jarayon talabalarning o‘z tafakkuri ustida ishlashini faollashtiradi hamda o‘quv motivatsiyasini mustahkamlaydi.

Avtodidaktik o‘rganish moduli raqamli vositalar bilan integratsiyalashganda yanada samarali natija beradi. Moodle, HEMIS, Google Drive, Telegram guruhlari kabi platformalar talabaning mustaqil izlanishini qo‘llab-quvvatlaydi, jarayonni izchil tashkil etish imkoniyatini yaratadi. Masalan, elektron portfel talabaning shaxsiy rivojlanish dinamikasini jamlaydi, refleksiv yozuvlar esa o‘zgarishlarni ko‘rish va tahlil qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Video topshiriqlar, multimediali sharhlar va individual izohlar talabaning metakognitiv faolligini kuchaytiradi.

Mazkur modul talabaning o‘qituvchi ko‘magisiz ham izlanish olib borish qobiliyatini, o‘z-o‘zini baholash madaniyatini va o‘quv jarayonini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Avtodidaktik o‘rganishning shakllanishi esa bo‘lajak pedagog uchun zarur bo‘lgan kasbiy mustaqillik, tashabbuskorlik, refleksiv tafakkur va uzluksiz o‘qib-o‘rganishga tayyorlikni ta’minlaydi.

O‘quv analitikasi moduli— o‘quvchilar faoliyatini raqamli ma’lumotlar asosida tahlil qilib, ta’limni boshqarish va shaxsiylashtirish imkonini beruvchi tizimdir. Siemensning fikricha, “o‘quv analitikasi o‘quvchi xatti-harakatlaridan olingan amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etuvchi

mexanizmdir” [9, 11-b.]. Ushbu modul talabalarning o‘quv faolligi, kompetensiya o‘sishi va mustaqil o‘rganish jarayonidagi dinamikani real vaqt rejimida tahlil qilishga imkon beruvchi raqamli tahlil vositalariga asoslanadi. O‘quv analitikasi nafaqat kuzatuv jarayonini, balki ta’limni chuqur tahlil qilish, qaror qabul qilishni dalillarga tayangan holda amalga oshirish va o‘quv jarayonini individuallashtirishning samarali vositasidir.

Monitoring jarayonida talabalarning darslardagi ishtiroki, topshiriqlarni bajarish tezligi, mustaqil izlanish faolligi, guruhdagi roli, muloqot sur’ati hamda refleksiv yozuvlarning sifati kabi ko‘rsatkichlar muntazam qayd etiladi. Moodle tizimidagi analitika bloklari, HEMIS reyting dinamikasi, Google Classroom hisobotlari, Zoom darslar statistikasi va Telegram guruhlaridagi faollik darajasi mazkur jarayonning asosiy raqamli manbalariga kiradi. Ushbu ma’lumotlar talabaning o‘quv holati haqida aniq tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

O‘quv analitikasining pedagogik ustunligi — talabaning shaxsiy o‘quv trayektoriyasini faktlarga tayanib shakllantirish imkoniyatidadir. Tahlil natijalariga ko‘ra talaba uchun mos o‘quv strategiyalari belgilanadi, mustaqil ishlashdagi qiyinchiliklar aniqlanadi va zarur tavsiyalar beriladi. Masalan, topshiriqlarni kechiktirish, guruh muhokamalarida past faollik yoki yuzaki refleksiya talabaning qo‘shimcha yordamga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi; muntazam faollik va tahliliy fikr esa murakkabroq vazifalarni tavsiya qilish uchun asos bo‘ladi.

O‘quv analitikasi kooperativ ta’limni ham takomillashtiradi. Guruh ichida kimning yetakchilik qilayotgani, kimning muloqotdagi faolligi pastligi yoki kimning muhokamalarga eng ko‘p hissa qo‘shayotgani kabi jihatlar aniq ko‘rsatkichlar orqali tahlil qilinadi. Bu esa kooperativ jarayonning ichki dinamikasini anglash va jamoaviy faoliyatni yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Mazkur modul refleksiya jarayoni bilan chambarchas bog‘langan. Talaba o‘z raqamli faolligi asosida o‘z-o‘zini baholaydi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi va o‘z o‘quv strategiyasini ongli ravishda qayta tashkil etadi. Bu esa avtodidaktik rivojlanishning asosiy belgilaridan biridir.

O‘quv analitikasiga tayanadigan monitoring bo‘lajak pedagoglar uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Raqamli tahlil madaniyatiga ega bo‘lgan pedagog nafaqat o‘zining, balki kelajakda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini ham dalillarga asoslangan yondashuv asosida boshqara oladi. Shu bois o‘quv analitikasi

talabalarning raqamli, refleksiv, analitik va tashkiliy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirib, ta’lim jarayonining umumiy samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Raqamli transformatsiya sharoitida pedagog tayyorlash jarayoni endi an’anaviy metodlar bilan cheklanib qolmay, shaxsning mustaqil o‘rganish, hamkorlikda faoliyat yuritish va raqamli muhitda o‘zini boshqarish qobiliyatlarini uyg‘un holda rivojlantirishni talab etmoqda. Mazkur bobda ishlab chiqilgan “Raqamli kooperativ–avtodidaktik texnologiya” modeli tahlili ushbu yo‘nalishlar o‘zaro bog‘liq, bir-birini to‘ldiruvchi va pedagogik jihatdan uzviy tizim ekanini ko‘rsatdi.

Ushbu tadqiqotda ishlab chiqilgan “Raqamli kooperativ–avtodidaktik texnologiya”ning samaradorligini aniqlash maqsadida Andijon davlat pedagogika institutining 3-kurs talabalari ishtirokida tajriba–sinov ishlari tashkil etildi. Tadqiqot metodologiyasi ishlab chiqilib, tajriba jarayoni bosqichma-bosqich diagnostika, texnologiyani joriy etish va yakuniy monitoring orqali amalga oshirildi.

Avvalo, tajribaning asosiy maqsadi — ishlab chiqilgan texnologiyaning bo‘lajak pedagoglar raqamli kompetensiyasi, kooperativ faoliyatga tayyorgarligi, mustaqil o‘rganish (avtodidaktik) qobiliyati va refleksiv tafakkuriga ta’sirini aniqlashdan iborat bo‘ldi. Shu maqsadni aniqlashtirish uchun bir qator vazifalar belgilandi: talabalarni dastlabki diagnostik baholash; texnologiyaning tarkibiy bosqichlarini amaliyotga joriy etish; o‘quv jarayonini raqamli analitika orqali kuzatish; yakuniy natijalarni nazorat guruhi bilan taqqoslash.

Tajriba ishtirokchilari sifatida 62 nafar talaba jalb qilinib, ular eksperimental (32 nafar) va nazorat (30 nafar) guruhlariga ajratildi. Tadqiqot mezonlari xalqaro kompetensiya modellariga mos tarzda tanlandi: raqamli kompetensiya DigCompEdu mezonlari asosida baholandi. Ko‘rsatkichlarni aniqlashda diagnostik testlar, kuzatuv jadvallari, pre-test/post-test natijalari, HEMIS, Moodle, Google Forms va Zoom statistikasi kabi raqamli analitik vositalardan foydalanildi.

Tajribaning birinchi bosqichi – diagnostika – talabalarning mavjud tayyorgarlik darajasini aniqlashga qaratildi. Olingan natijalar raqamli kompetensiyada 48 %, kooperativ ko‘nikmalarda 52 %, avtodidaktik rivojlanishda 46 % ko‘rsatkich qayd etilganini ko‘rsatdi. Bunda, ayniqsa, refleksiya

madaniyatining sustligi, mustaqil o‘rganish strategiyalarining shakllanmaganligi aniqlangan bo‘lib, bu eksperimentning keyingi bosqichlariga metodik asos bo‘lib xizmat qildi.

Ikkinchi bosqich – texnologiyani amaliyotga joriy etish – 8 hafta davomida olib borildi. Eksperimental guruh talabalari Zoom’ning “breakout rooms” imkoniyati, Telegram muhokama guruhlari, LearningApps mashqlari va YouTube videodarslari asosida kooperativ topshiriqlarni bajarishdi. Ushbu jarayon o‘zaro bog‘liqlik, individual mas’uliyat va jamoaviy muloqotni kuchaytirdi. Shu bilan birga talabalarning avtodidaktik o‘rganish ko‘nikmalari mustahkamlandi: ular haftalik o‘quv maqsadlarini belgiladi, elektron portfoliolar yaratdi, video-refleksiya topshiriqlarini bajarib, o‘z rivojlanishini monitoring qildi. Har hafta refleksiv baholash amalga oshirilgani talabalarning o‘z o‘quv faoliyatini ongli boshqarishiga olib keldi.

Tajribaning uchinchi bosqichida o‘quv analitikasi orqali monitoring olib borildi. Moodle tizimidagi faoliyat ko‘rsatkichlari, Google Classroom hisobotlari, HEMIS reyting dinamikasi, Zoom qatnashuv statistikasi va Telegram muhokama faoliyati tahlil qilindi. Ushbu multima’lumotli analitika talabalar faoliyati dinamikasini aniq raqamlar asosida baholash imkonini berdi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, texnologiya samarasi muvaffaqiyatli va sezilarli, biroq real sharoitga mos darajada namoyon bo‘ldi. Eksperimental guruhda raqamli kompetensiya o‘rtacha 14 %ga oshdi: talabalar raqamli vositalar bilan ishlash, resurs tanlash va raqamli baholash elementlaridan foydalanishda ancha faollashdi. Kooperativ ko‘nikmalarda 15% atrofida o‘sish qayd etilib, jamoaviy o‘rganish sifati, o‘zaro muloqot va mas’uliyat darajasida ijobiy siljishlar kuzatildi. Avtodidaktik rivojlanish ko‘rsatkichlari ham 15 %ga oshib, talabalarning o‘zini boshqarish, maqsad qo‘yish va refleksiya sifatlari bosqichma-bosqich rivojlanganini ko‘rsatdi. Motivatsiya darajasining nisbatan oshishi, topshiriqlarning o‘z vaqtida bajarilishi va darslarda qatnashuv ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi texnologiyaning psixologik omillarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatganini anglatadi. Shu bilan birga, o‘qituvchi roli asta-sekin an’anaviy “bilim beruvchi” modelidan “yo‘naltiruvchi va fasilitator” modeliga o‘tgani ta’lim jarayonining talaba markaziga ko‘chirilganini ko‘rsatdi.

Umuman olganda, tajriba natijalari ishlab chiqilgan texnologiya bo‘lajak pedagoglar uchun zarur bo‘lgan raqamli kompetensiya, kooperativ faoliyat,

mustaqil o‘rganish, refleksiya, tashabbuskorlik kabi kompetensiyalarning kompleks rivojlanishini ta’minlashini ko‘rsatdi. Raqamli muhitda kooperativ ta’lim va avtodidaktik rivojlanishning integratsiyasi ta’limning zamonaviy talablari bilan to‘liq mos keladigan pedagogik model sifatida o‘zini namoyon qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azizxo‘jayeva N. N. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.* — Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi, 2006.

2. Brockett R., Hiemstra R. *Self-direction in Adult Learning*. Springer, 2019.

3. European Commission. *DigCompEdu*. Luxemburg, 2017.

4. Garrison D. R. *Self-Directed Learning*. Routledge, 2020.

5. Johnson D., Johnson R., Smith K. *Cooperative Learning*. 2018.

6. Kim Y., Lee J. *Digital Self-Directed Learning Competencies*. Springer, 2020.

7. Knowles M. *Self-Directed Learning*. Cambridge Press, 2015.

8. OECD. *Education at a Glance 2021*. Paris, 2021.

9. Siemens G. *Learning Analytics and EDM*. LAK, 2019.

10. Slavin R. E. *Cooperative Learning*. Routledge, 2020.

11. PF–158. “O‘zbekiston — 2030 strategiyasi”, 2023.

12. UNESCO. *Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education*. Paris: UNESCO Publishing, 2021.

FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA DIZAYN FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Valiyeva Nargiza Athamboyevna
Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi
Nargizavaliyeva1992@gmail. com
(ORCID:0009-0003-7317-0510)

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dizayn fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari yoritilgan. Ta’lim jarayonida fanlararo integratsiya orqali dizayn fikrlashning asosiy komponentlari –

muammo aniqlash, g‘oya yaratish va prototiplash bosqichlarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, integratsiyalashgan ta’limning o‘quvchilarning ijodiy, tanqidiy va amaliy fikrlashiga ta’siri ochib beriladi. Tadqiqotda integratsiyalashgan ta’limning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilishga qiziqishi, mustaqil qaror qabul qilish, jamoada ishlash, muloqotga kirishish hamda real hayotiy muammolarga moslashuvchan yondashuvini shakllantirishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Maqola natijalari boshlang‘ich ta’lim amaliyotida dizayn fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishda metodik tavsiyalar sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: fanlararo integratsiya, dizayn fikrlash, boshlang‘ich ta’lim, kompetensiya, ijodiy fikrlash, prototiplash.

ФОРМИРОВАНИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ ДИЗАЙН-МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ МЕЖПРЕДМЕТНОЙ ИНТЕГРАЦИИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются научно-педагогические основы формирования компетенций дизайн-мышления у учащихся начальных классов. Анализируются возможности развития основных компонентов дизайн-мышления — выявления проблемы, генерации идей и этапа прототипирования — посредством межпредметной интеграции в образовательном процессе. Также раскрывается влияние интегрированного обучения на развитие творческого, критического и практического мышления учащихся. В исследовании обосновывается значимость интегрированного обучения в формировании у младших школьников познавательного интереса, навыков самостоятельного принятия решений, работы в команде, коммуникативной активности и гибкого подхода к решению реальных жизненных проблем. Результаты статьи могут быть использованы в качестве методических рекомендаций при внедрении инновационных педагогических технологий, направленных на развитие компетенций дизайн-мышления в практике начального образования.

Ключевые слова: межпредметная интеграция, дизайн-мышление, начальное образование, компетенция, творческое мышление, прототипирование.

DEVELOPING DESIGN THINKING COMPETENCIES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON INTERDISCIPLINARY INTEGRATION

Abstract

This article examines the scientific and pedagogical foundations for developing design thinking competencies in primary school students. The study analyzes the possibilities of enhancing the key components of design thinking—problem identification, idea generation, and the prototyping stage—through interdisciplinary integration in the educational process. It also reveals the impact of integrated learning on students’ creative, critical, and practical thinking skills. The research substantiates the importance of interdisciplinary integrated education in fostering primary school students’ cognitive interest, independent decision-making skills, teamwork abilities, communication competence, and flexible approaches to solving real-life problems. The findings of the article may serve as methodological recommendations for the implementation of innovative pedagogical technologies aimed at developing design thinking competencies in primary education practice.

Keywords: interdisciplinary integration, design thinking, primary education, competence, creative thinking, prototyping.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarda faqat bilim emas, balki muammoni hal qilish, ijodiy fikrlash va innovatsion yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf davrida shakllanadigan fikrlash kompetensiyalari o‘quvchilarning keyingi ta’lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan, dizayn fikrlash yondashuvi boshlang‘ich ta’lim uchun dolzarb pedagogik texnologiyalardan biri hisoblanadi. [4,53]

Bugungi kunda dunyo ta’lim amaliyotida dizayn fikrlash tamoyillari ta’limning barcha bosqichlariga integratsiya qilinmoqda. Bu yondashuv o‘quvchilarni tayyor bilimni o‘zlashtiruvchi emas, balki real muammolarga yechim izlovchi, g‘oyalarni sinovdan o‘tkazuvchi va ularni amaliyotda qo‘llovchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, fanlararo loyiha ishlari orqali dizayn fikrlashni rivojlantirish o‘quvchilarda turli fanlardan olingan bilimlarni yagona kontekstda qo‘llash, tahlil qilish va yangilik yaratish qobiliyatini kuchaytiradi. [1,164]

Fanlararo integratsiya esa dizayn fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib, turli fanlar mazmunini uyg‘unlashtirgan holda o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini amaliy faoliyatga yo‘naltiradi.

Dizayn fikrlash tushunchasi va uning komponentlari

Dizayn fikrlash – bu muammolarni aniqlash, tahlil qilish va ijodiy yechimlar ishlab chiqishga yo‘naltirilgan fikrlash jarayonidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun dizayn fikrlash quyidagi asosiy komponentlar orqali shakllantiriladi:

Muammo aniqlash – real hayotiy vaziyatlarni kuzatish, savollar berish va muammoni anglash;

G‘oya yaratish – muammoni hal etish bo‘yicha turli fikr va yechimlarni ilgari surish;

Prototiplash – taklif etilgan g‘oyalarni chizma, model yoki amaliy mahsulot ko‘rinishida namoyon etish. [2,1050]

Mazkur komponentlar o‘quvchilarning mustaqil va faol fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Fanlararo integratsiya orqali dizayn fikrlashni shakllantirish imkoniyatlari

Fanlararo integratsiya boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dizayn fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik shart hisoblanadi. Masalan:

1. Ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarida matn asosida muammo aniqlash va hikoya yechimlarini taklif qilish;
2. Matematika fanida amaliy masalalar orqali muammoni tahlil qilish va mantiqiy yechim topish;
3. Tasviriy san’at va texnologiya fanlarida g‘oyalarni chizma, maket va modellar orqali prototiplash;
4. Atrof-muhitni o‘rganish fanida real hayotiy vaziyatlar asosida dizayn loyihalarini ishlab chiqish. [6,41]

Bunday integratsiya o‘quvchilarning bilimlarini bir butun tizim sifatida idrok etishiga hamda ularni amaliyotda qo‘llashga imkon yaratadi.

Fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar orqali dizayn fikrlashni rivojlantirish.

Integratsiyalashgan topshiriqlar o‘quvchilarning dizayn fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, “Qulay sinfxona modeli”, “Ekologik toza o‘yinchoq”, “Orzudagi maktab” kabi loyihaviy

topshiriqlar orqali o‘quvchilar muammo aniqlaydi, g‘oya ishlab chiqadi va uni prototip ko‘rinishida taqdim etadi. [3,33]

Bu jarayonda o‘quvchilarda: ijodiy faollik, jamoada ishlash, tanqidiy va reflektiv fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi.

Xulosa qilganda, boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat bilim, balki XXI asrga xos kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dizayn fikrlash kompetensiyalarini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Dizayn fikrlashning muammo aniqlash, g‘oya yaratish va prototiplash kabi asosiy bosqichlari integratsiyalashgan darslar orqali o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos holda shakllantirilishi mumkin.

Fanlararo integratsiya o‘quvchilarda bilimlarni alohida fanlar doirasida emas, balki yagona tizim sifatida idrok etishiga yordam beradi. Natijada o‘quvchilar real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarga ijodiy yondashish, mustaqil va asosli qarorlar qabul qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Tadqiqot jarayonida integratsiyalashgan ta’limo‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishini oshirishi, jamoada ishlash, muloqot qilish, o‘z fikrini erkin ifodalash hamda tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Shuningdek, dizayn fikrlashga asoslangan integrativ yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan ta’limda faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Bu esa ularning kelgusida murakkab hayotiy muammolarni hal etishga tayyor, moslashuvchan va ijodkor shaxs bo‘lib shakllanishiga zamin yaratadi. Demak, fanlararo integratsiya dizayn fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishda samarali pedagogik vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Fikrimizni yakuni sifatida quyidagilarni taklif qilamiz:

- ✓ Boshlang‘ich sinf darslarini loyihalashda fanlararo integratsiyani tizimli ravishda joriy etish va dizayn fikrlash elementlarini (muammo qo‘yish, g‘oya ishlab chiqish, yechimni sinovdan o‘tkazish) har bir mavzuga moslashtirish tavsiya etiladi.

✓ O‘qituvchilar uchun dizayn fikrlash va integratsiyalashgan ta’limga oid maxsus metodik qo‘llanmalar hamda o‘quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish zarur.

✓ Ta’lim jarayonida amaliy mashg‘ulotlar, loyiha va guruhli ishlar ulushini oshirish orqali o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga e’tibor qaratish lozim.

✓ Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining fanlararo integratsiya va dizayn fikrlash bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini oshirish maqsadida malaka oshirish kurslari va seminar-treninglar tashkil etish tavsiya etiladi.

✓ O‘quvchilarning dizayn fikrlash kompetensiyalarini baholash uchun an’anaviy baholashdan tashqari, formatif baholash, portfolio va loyiha natijalariga asoslangan baholash tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

✓ Kelgusida mazkur yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlarida dizayn fikrlashning boshlang‘ich ta’limdagi ta’sirini eksperimental sinovlar asosida chuqurroq o‘rganish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Valiyeva N. A. Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o‘quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. 2025-yil, noyabr, 11-son. B 164.

2. INTEGRATION OF PROBLEM-BASED LEARNING AND DESIGN THINKING IN TEACHING PRIMARY SCHOOL STUDENTS. (2025). *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, *5*(10), 1047-1054.

3. Valiyeva, N. A. (2025). Forming Independent, Creative And Design Thinking In Students Through Innovative Technologies. TLEP–International Journal of Multidiscipline, 2(5), 30-34.

4. Rasuljonovna, E. Z. (2025). BOLALARDA BADIIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOFIZIOLOGIK ASOSI. Journal of universal science research, 3(6), 49-57.

5. Tojimuxammadovna, D. S., & Qaxramonovich, M. M. (2024). Tashqi va ichki motivatsiyalarning yoshga bog ‘liqligi. *University Research Base*, 168-171

6. Mirzaliyevna, S. Z. (2025). BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARINING TAFAKKURNI RIVOJLANTISHDA KITOB O ‘QISHNING AHAMIYATI. Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 56(2), 37-42.

7. Baxodirovna, Sanginova Gulnoza. "BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI. " Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi 44. 1 (2025): 114-116.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA SHAXMAT O‘YINING AHAMIYATI

Axmedova Dilnoza Xabibullo qizi
Qo‘qon universiteti Andijon filiali Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi
Yusufjonova Zebo Muzaffar qizi
Qo‘qon Universiteti Andijon filiali Itisodiyot va pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 24-01-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda shaxmat o‘yinining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shaxmatning kognitiv rivojlanish, strategik fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, diqqatni jamlash va mustaqil fikrlash jarayonlariga ta’siri ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, boshlang‘ich sinflarda shaxmatni o‘qitishning samarali metodlari, amaliy integratsiya yo‘llari va shaxmat darslari orqali o‘quvchilarda kuzatiladigan ijobiy o‘zgarishlar o‘rganiladi. Maqolada xalqaro tajribalar, psixologik va pedagogik qarashlar keng yoritilib, boshlang‘ich ta’lim uchun amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Shaxmat, mantiqiy tafakkur, boshlang‘ich ta’lim, kognitiv rivojlanish, strategik fikrlash, ta’lim texnologiyalari, kombinatsiya, mental rivojlanish, o‘yin metodi.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение шахмат в развитии логического мышления учащихся начальных классов. Анализируется влияние шахмат на когнитивное развитие, стратегическое мышление, способность решать проблемные ситуации, концентрацию внимания и формирование самостоятельности мышления. Также изучаются методы эффективного обучения шахматам в начальной школе, пути интеграции игры в учебный процесс и положительные изменения в развитии учащихся. В статье освещается международный опыт, психологические и

педагогические аспекты использования шахмат в образовании, а также предлагаются практические рекомендации.

Ключевые слова: Шахматы, логическое мышление, начальное образование, когнитивное развитие, стратегическое мышление, образовательные технологии, комбинация, умственное развитие, игровой метод.

Abstract: This article examines the importance of chess in developing logical thinking among primary school students. The cognitive benefits of chess, including strategic reasoning, problem solving, attention regulation, and independent thinking, are analyzed based on scientific sources. The paper also discusses effective teaching methods, integration strategies, and practical outcomes observed in young learners who regularly engage in chess activities. International experience, psychological perspectives, and pedagogical approaches are reviewed to evaluate the role of chess as an educational tool. Practical recommendations for primary school teachers are provided.

Keywords: Chess, logical thinking, primary education, cognitive development, strategic thinking, educational technologies, combination, mental development, game method.

5. INTEGRATION OF PROBLEM-BASED LEARNING AND DESIGN THINKING IN TEACHING PRIMARY SCHOOL STUDENTS. (2025). *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, *5*(10), 1047-1054.

6. Valiyeva, N. A. (2025). Forming Independent, Creative And Design Thinking In Students Through Innovative Technologies. TLEP–International Journal of Multidiscipline, 2(5), 30-34.

E. HEMINGUEY POVESTLARIDA QO‘LLANGAN INGLIZ TILIDAGI ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLARNING STRUKTUR-SEMANTIK TABIATI VA ULARNING O‘ZBEK TILIGA TARJIMADA AKS ETISH MEXANIZMLARI

Kosimova Nozimaxon Kobiljonovna
Andijon Davlat Chet tillari instituti
1-kurs magistranti
E-mail: nozimakosimova264@gmail. com
Tel: +998 95 792 12 05

ANNOTATSIYA. Ushbu maqola Ernest Heminguey povestlarida uchraydigan inglizcha ergash gapli qo‘shma gaplarning struktur-semantik xususiyatlari va ularning rus tiliga tarjima jarayonidagi grammatik hamda mazmuniy o‘zgarishlarini tahlil qiladi. Tadqiqot davomida vaqt, sabab, shart, maqsad, natija va aniqlovchi ergash gaplar badiiy matndagi funksiyasi nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. Inglizcha misollar rus va o‘zbek tillaridagi ekvivalentlari bilan qiyoslanib, tarjima jarayonida uchraydigan transpozitsiya, kompensatsiya va struktur o‘zgarishlar yoritiladi. R. Quirk, M. Baker, P. Newmark kabi ingliz olimlari hamda N. Mahmudov va G‘. M. Xo‘shimovning sintaktik-semantik qarashlari asosida tahlil chuqurlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: *ergash gap, qo‘shma gap, tarjima, sintaktik struktura, Heminguey, ruscha tarjima, semantik tahlil.*

СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ ПРИРОДА СЛОЖНОПОДЧИНЕННЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ, ИСПОЛЬЗОВАННЫХ В ПОВЕСТЯХ Э. ХЕМИНГУЭЯ, И МЕХАНИЗМЫ ИХ ОТРАЖЕНИЯ В ПЕРЕВОДЕ НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

АННОТАЦИЯ. Данная статья посвящена анализу структурно-семантических особенностей сложноподчинённых предложений, используемых в повестях Э. Хемингуэя, а также специфике их перевода на русский язык. В работе рассматриваются временные, причинные, условные, целевые, следственные и определительные придаточные предложения, их роль в художественном тексте и способы передачи их значения при переводе. Путём сопоставления английских примеров с русскими и узбекскими эквивалентами выявляются основные трансформации, такие как транспозиция, расширение, сокращение и смысловая компенсация. Анализ опирается на труды Р. Куирка, М. Бейкер, П. Ньюмарка, а также Н. Махмудова и Г. М. Хошимова, раскрывающих семантико-синтаксическую природу придаточных конструкций.

Ключевые слова: *придаточное предложение, сложноподчинённое предложение, перевод, структурно-семантический анализ, трансформация, эквивалентность.*

STRUCTURAL-SEMANTIC NATURE OF COMPLEX SENTENCES WITH SUBORDINATE CLAUSES IN E. HEMINGWAY'S SHORT STORIES AND THE MECHANISMS OF THEIR REFLECTION IN UZBEK TRANSLATION

ABSTRACT. This article examines the structural and semantic characteristics of subordinate clauses found in Ernest Hemingway’s novellas and analyzes how these complex sentences are translated into Russian. The study focuses on temporal, causal, conditional, final, resultative, and relative clauses, exploring their stylistic and narrative functions in the original text. By comparing English examples with their Russian and Uzbek equivalents, the research identifies major translation strategies such as transposition, expansion, reduction, and semantic compensation. The analysis draws on the works of R. Quirk, M. Baker, P.

Newmark as well as Uzbek linguists N. Mahmudov and G‘. M. Xoshimov, who have contributed significantly to the study of syntactic-semantic relations in complex sentences.

Keywords: *subordinate clause, complex sentence, translation, structural semantics, transformation, equivalence.*

Ushbu maqola Ernest Heminguey asarlarida, xususan uning povestlarida uchraydigan inglizcha ergash gapli qo‘shma gaplarning struktur-semantik xususiyatlari hamda ushbu konstruksiyalarning rus tiliga tarjimadagi grammatik va mazmuniy transformatsiyalari tahliliga bag‘ishlanadi. Ingliz tilidagi complex sentence tarkibida uchraydigan vaqt, sabab, shart, natija, maqsad va aniqlovchi ergash gaplarning badiiy matnda bajaradigan vazifasi, ularning sintaktik xususiyatlari va tarjimada yuzaga keladigan o‘zgarishlar aniq misollar asosida ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari R. Quirk, P. Newmark, M. Baker [1. P. 11–28] kabi ingliz tilshunoslari hamda o‘zbek tilshunosligining yirik vakillari N. Mahmudov va G‘. M. Xo‘shimovlarning fikrlari bilan mustahkamlanadi. [7. C. 97–129, 9. S. 12–29]

Heminguey sintaksisi ko‘pincha sodda, ko‘p hollarda hatto "telegraph style" deb nomlanuvchi ixchamlik bilan tavsiflansa-da, muallif matnida muhim dramatik yoki psixologik holatlarni ochib beradigan ergash gapli qo‘shma gaplar tez-tez uchraydi. Bu konstruksiyalar voqealar ketma-ketligini aniq belgilash, sabab-oqibatni ko‘rsatish, qahramonning ruhiy holatini yoritish yoki predmet va hodisalarni tavsiflash kabi funksiyalarni bajaradi. Ingliz tilidagi ergash gaplar odatda minimal vositalar bilan aniq semantik yukni uzatadi; tarjima jarayonida esa rus tilining sintaktik normalari bois ayrim konstruksiyalarning grammatik shakli kengaytiriladi yoki o‘zgartiriladi. [3.68]

Masalan, “When he woke, the sea was still calm” kabi vaqt ergash gapli konstruksiya Heminguey ijodiga xos bo‘lgan sodda lekin ta’sirchan tasvirning bir ko‘rinishidir. Rus tiliga u “Когда он проснулся, море всё ещё было спокойным” shaklida deyarli struktur o‘zgarishsiz tarjima qilinadi. O‘zbek tiliga ham “U uyg‘onganida dengiz hali ham tinch edi” tarzida to‘g‘ri keladi. G‘. M. Xo‘shimov vaqt ergash gaplari haqida shunday deydi: *“Vaqt ergash gaplar voqea mantig‘ining ketma-ketligini ta’minlaydi, nutq oqimini tabiiylashtiradi”*. Uning bu fikridan kelib chiqilsa, Heminguey va tarjimonlar aynan shu tabiiy oqimni saqlagan. [8.113]

Sabab ergash gaplarida esa biroz kengayish kuzatiladi. Masalan: “He was careful because he knew the sea could betray him” O‘zbek tilida esa “U ehtiyotkor edi, chunki dengiz uni aldashi mumkinligini bilardi” shakli mazmunni to‘liq qayta yaratadi. N. Mahmudov sabab ergash gaplarni mazmuniy mantiqni ochuvchi markaz sifatida baholaydi, Hemingueyda ham sabab ergash gaplar aynan shu vazifani bajaradi. [7. 129]

Shart ergash gaplari esa dramatik kuchlanishni oshiradi. Masalan: “If he lost the fish, he would lose himself” jumlasi qahramonning ichki holatini, maqsad peshtoqida turgan xavfni tasvirlaydi. O‘zbek tiliga “Agar u baliqni yo‘qotsa, o‘zini ham yo‘qotardi” shaklida mukammal tarjima qilinadi. G‘. M. Xo‘shimov shart ergash gaplarini “potensial voqelik maydoni” deb ataydi, ya’ni shart gap voqealar rivojining ehtimoliy yo‘nalishini ko‘rsatadi Heminguey konstruksiyalarida aynan shu dramatik ehtimol kuchli seziladi.

Aniqlovchi (relative) ergash gaplarda esa tarjima jarayonida sezilarli sintaktik transformatsiyalar yuz beradi. Masalan, “The fish that he was fighting seemed endless” jumlasi o‘zbek tilida esa “U kurashayotgan baliq tuganmasdek tuyuldi” shaklida bog‘lovchi tushirilgan, ko‘proq fe’l-sifatdoshlik shakli qo‘llangan. Bu holat tarjima nazariyasidagi transpozitsiya hodisasi bilan tushuntiriladi: ya’ni grammatik forma o‘zgaradi, lekin semantik mazmun saqlanadi. P. Newmarkning fikricha, aynan bunday holatlarda “formal ekvivalentlik emas, balki kommunikativ ekvivalentlik muhim”, ya’ni mazmunning o‘quvchi uchun ta’sirchanligi ustuvor sanaladi. [3.165]

Heminguey matnlarida object-clause ya’ni *that-clause*lar qahramonning ichki fikr-mulohazasini ifodalash uchun keng qo‘llanadi. Masalan, “He knew that the sea was both his friend and his enemy” gapida dengizning ikki tomonlama mohiyati qahramon ongida aks ettiriladi. O‘zbekcha shakl: “U dengiz unga ham do‘st, ham dushman ekanini bilardi”. Bu turdagi ergash gaplar haqida G‘. M. Xo‘shimovning quyidagi fikri aynan Heminguey matniga mos keladi: *“Ichki nutqni ifodalovchi ergash gap matnning psixologik qatlamini shakllantiradi va qahramon ongidagi kurashni yoritadi. ”*[9. 113]

Tarjima jarayonida ayrim konstruksiyalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, ba’zilarida rus tilining tabiiy sintaksisini ta’minlash uchun gap bo‘linadi, ba’zida esa bir nechta gap birlashtirilib, matn oqimi yumshatiladi. M. Baker bu jarayonni “matn ekvivalentligi”ni ta’minlash deb ataydi ya’ni tarjima

o‘quvchiga original o‘quvchisi olgan ta’sirning o‘zini berishi kerak. Shu sababli Heminguey matnlarida sodda sintaktik oqim tarjimada ham sodda, ravon shaklda saqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Heminguey povestlaridagi inglizcha ergash gapli qo‘shma gaplar semantik jihatdan juda ixcham bo‘lsa-da, mazmun zichligi bilan ajralib turadi. Ularning rus tiliga tarjimasida strukturaviy moslik ko‘pincha saqlansa-da, ma’lum holatlarda grammatik transpozitsiya, kengaytirish, qisqartirish yoki birlashtirish kabi usullar qo‘llanadi. Ingliz va o‘zbek tilshunoslarining qarashlari shuni ko‘rsatadiki, ergash gaplarda asosiy narsa mantiqiy bog‘lanishlar va semantik yadroni saqlashdir; Heminguey asarlarining tarjimalarida esa aynan shu tamoyil ustuvor bo‘lgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., Svartvik, J. *A Comprehensive Grammar of the English Language*. London: Longman, 1985.
2. Baker, M. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge, 1992.
3. Newmark, P. *A Textbook of Translation*. Prentice Hall, 1988.
4. Leech, G., Short, M. *Style in Fiction*. Longman, 1981.
5. Catford, J. C. *A Linguistic Theory of Translation*. Oxford University Press, 1965.
6. Комиссаров, В. Н. Современное переводоведение. М. : ЭТС, 2001.
7. Махмудов, Н. Хозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент: Ўқитувчи.
8. Ҳожиев, А. Ўзбек тили синтаксиси масалалари. Тошкент: Фан.
9. Xo‘shimov, G‘. M. *O‘zbek tilining sintaktik qurilishi masalalari bo‘yicha ilmiy ishlari*. (maqolalar to‘plami).
10. Vinay, J. -P., Darbelnet, J. *Stylistique comparée du français et de l’anglais*. Paris: Didier, 1958.

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Тожиддинова Мохларой Илёсбек кизи,
Андижанский государственный институт иностранных языков
Магистрант 2 курса

Аннотация. В данной статье анализируется использование цифровых средств в развитии коммуникативной компетенции учащихся. Средства медиаобразования играют важную роль в образовательном процессе, выступая эффективным инструментом развития речевых, социальных и коммуникативных компетенций учащихся и воспитанников. В качестве условий, оказывающих воздействие на формирование коммуникативной компетенции, автор выделяет определенный стиль общения учителя с учащимся, создание атмосферы доверия и открытости в классе, обеспечение учителем чувства безопасности у учащихся в связи с их высказываниями. С помощью таких технологий как медиаобразование преподаватель получает возможность донести свою речь до учащихся выразительно, коммуникативно и культурно релевантно. Здесь медиаобразование повышает педагогическую речевую культуру преподавателя, основываясь на современных коммуникативных требованиях.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, видеоанализ, аудирование, анализ подкастов, виртуальная коммуникация, рефлексивное медиаблогирование.

KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION METODLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishda raqamli vositalardan foydalanish tahlil qilinadi. Media-ta'lim vositalari o‘quv jarayonida hal qiluvchi rol o‘ynaydi, o‘quvchilarning og'zaki, ijtimoiy va kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirish uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Muallif o‘qituvchi-o‘quvchi muloqotining o‘ziga xos uslubini, sinfda ishonch va ochiqlik muhitini yaratishni va o‘quvchilarning o‘z so‘zlari bilan o‘zlarini xavfsiz his qilishlarini ta'minlashni kommunikativ kompetentsiya rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar sifatida belgilaydi. Media-ta'lim kabi texnologiyalardan foydalangan holda o‘qituvchilar

o‘z nutqlarini o‘quvchilarga ifodali, kommunikativ va madaniy jihatdan tegishli tarzda yetkaza oladilar. Shu nuqtai nazardan, media-ta'lim zamonaviy kommunikatsiya talablariga asoslanib, o‘qituvchilarning pedagogik og'zaki madaniyatini oshiradi.

Kalit so‘zlar: Kommunikativ kompetensiya, video tahlil, tinglab tushunish, podkast tahlili, virtual muloqot, refleksiv media blog yuritish.

INNOVATIVE METHODS OF DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE

Abstract. This article analyzes the use of digital tools in developing students' communicative competence. Media education tools play a crucial role in the educational process, serving as an effective tool for developing students' verbal, social, and communicative competencies. The author identifies a specific teacher-student communication style, creating an atmosphere of trust and openness in the classroom, and ensuring students feel safe in their own words as factors that influence the development of communicative competence. Using technologies such as media education, teachers are able to convey their speech to students in an expressive, communicative, and culturally relevant manner. In this context, media education enhances teachers' pedagogical verbal culture, based on modern communication requirements.

Keywords: Communicative competence, video analysis, listening comprehension, podcast analysis, virtual communication, reflexive media blogging.

В последние годы цифровые технологии в системе образования стремительно развиваются, а инструменты медиаобразования становятся неотъемлемой частью учебного процесса.

Цифровая трансформация вывела образование на новый уровень, кардинально изменив формы и содержание взаимодействия педагогов и учащихся. При этом медиаинструменты выступают не только источником знаний, но и дидактическим ресурсом, организующим коммуникацию, активизирующим анализ и стимулирующим творческое мышление.

В частности, речевая культура учителя русского языка в национальных школах является неотъемлемой частью его профессиональной компетентности, выражая способность учителя к грамотной, логичной, культурной и нормативной речи в педагогическом общении.

Речевая культура считается важным показателем интеллектуального уровня личности педагога, коммуникативных навыков и эстетического вкуса [Бастрикова,44]. Поэтому для педагога-лингвиста владение речевой компетенцией с использованием цифровых инструментов является непременным требованием современного педагогического мастерства.

Средства медиаобразования играют важную роль в образовательном процессе, выступая эффективным инструментом развития речевых, социальных и коммуникативных компетенций учащихся и воспитанников. С их помощью создаются следующие возможности в образовательном процессе: моделирование речевой ситуации на визуально-аудиальной основе, развитие навыков анализа и рефлексии, укрепление культуры общения, а также вовлечение обучающегося в активный коммуникативный процесс. Благодаря аудиовизуальным материалам обучающиеся получают возможность видеть и слушать реальные речевые ситуации, что формирует у них навыки правильного использования естественной интонации, произношения, мимики и жестов в общении.

Среди современных методов медиаобразования особое значение имеют видеоанализ, аудирование и анализ подкастов, виртуальная коммуникация и рефлексивное медиаблогирование. Например, в процессе видеоанализа обучающиеся анализируют выступления преподавателей или спикеров и учатся различать нормативные, культурные и эмоциональные аспекты речи. Прослушивание подкастов развивает навыки аудирования, учит различать акценты и произношения, а также развивает вербальное мышление [Охотникова,57]. Занятия на виртуальных коммуникационных платформах (форумах, видеоконференциях, чатах) обучают студентов этикету цифрового общения, культуре онлайн-речи и принципам социальной ответственности.

Метод рефлексивного медиаблоггинга развивает у учащихся культуру анализа речевого опыта, письменного выражения своих мыслей, критическое мышление и самостоятельную работу [Караулов, 34]. Этот процесс укрепляет их навыки самооценки и положительно влияет на речевую деятельность преподавателя.

В целом, методы медиаобразования гармонизируют нормативные, культурные и коммуникативные аспекты речи преподавателя, формируют у

учащихся речевой этикет, культуру общения, аналитическое мышление и навыки творческого самовыражения. В результате образовательный процесс становится интерактивной и эффективной системой, основанной на принципах современного коммуникативного подхода.

На занятиях, проведенных на старших классах, результаты групп, обучавшихся с использованием инструментов медиаобразования, были следующими: активность речевого участия учеников увеличилась на 35%, количество речевых ошибок сократилось на 28%, культура общения и качество произношения улучшились у 81% учеников. Эти показатели свидетельствуют об эффективности активизации образовательного процесса посредством медиа и повышения культуры речи преподавателя.

Заключение.

Использование медиаобразования имеет большое значение в формировании речевой культуры учащихся. Медиа служат эффективным методическим ресурсом для развития речевой компетенции преподавателя, укрепления его умения ясно, логично и эстетично излагать свои мысли. С помощью таких технологий преподаватель получает возможность донести свою речь до слушателя выразительно, коммуникативно и культурно релевантно. При этом медиаобразование повышает педагогическую речевую культуру преподавателя, основываясь на современных коммуникативных требованиях, то есть повышает уровень точности, стилистической насыщенности и соответствия культурным нормам в его устной и письменной речи.

Инструменты медиаобразования (видеоуроки, интерактивные презентации, подкасты, онлайн-платформы, виртуальные дискуссии) дополнительно оживляют коммуникативный процесс между преподавателем и учащимися при обучении русскому языку. Благодаря этим инструментам учащиеся не только осваивают язык, но и учится использовать его в реальной коммуникативной среде, свободно выражать свои мысли, овладевает культурой общения и речевым этикетом[Кармадонова, 2019, 56]. Таким образом, медиаобразовательный процесс служит обогащению речевой культуры обеих сторон – преподавателя и учащихся.

Кроме того, медиаобразовательные технологии развивают рефлексивную деятельность преподавателя. То есть преподаватель

записывает свою речь на аудио- или видеоносители и анализирует её, выявляя ошибки, совершенствуя произношение, интонацию, стилистику и коммуникативные стратегии. Этот процесс повышает уровень речевого самосознания преподавателя и позволяет системно развивать профессиональную речевую культуру.

Поэтому необходимо сделать медиаобразовательные средства неотъемлемой частью лингвистического и педагогического процесса. Ведь это не только повышает эффективность обучения, но и обеспечивает гармоничное развитие речевой культуры преподавателя и учащихся. Интеграция медиаобразования выводит методику обучения иностранным языкам на современный уровень, превращает образовательный процесс в интерактивную, коммуникативную и культурно обогащённую систему.

Использованная литература:

1. Бастрикова Е. М. Коммуникативная компетенция как лингводидактический феномен // Русская и сопоставительная филология: Лингвокультурологический аспект / Казан. гос. ун-т., филол. фак. – Казань: Казан. гос. ун-т, 2004. – С. 43–48.
2. Охотникова В. В., Суртаева Н. Н. Вопросы коммуникативной компетентности при подготовке специалистов в вузе. – СПб. : ИОВ РАО, 2002. – 118 с.
3. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. – М. : Наука, 2017. – 263 с.
4. Кармадонова О. Ф. Развитие коммуникативных умений учащихся и коррекция общения подростков на уроках русского языка : дис. . . . канд. пед. наук. – Новосибирск, 2019. – 223 с.

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QITISH METODLARINING TRANSFORMATSIYASI

Axmedova Mushtariybonu Maxmudjonovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti Pedagogika fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi.

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston boshlang‘ich ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonining mazmun-mohiyati va uning o‘qitish metodlariga ta’siri o‘rganilgan. Ishda raqamli texnologiyalarni joriy etishning nazariy asoslari, interaktiv platformalar, multimedia vositalari va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘zlashtirishiga ta’siri tahlil qilindi. Shuningdek, raqamli kompetensiyani shakllantirish, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi, dars jarayonida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish yo‘nalishlari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijasida raqamlashtirish sharoitida o‘qitish metodlarining transformatsiyasi boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda muhim omil ekani asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, transformatsiya, boshlang‘ich maktab, pedagogik texnologiyalar, raqamli kompetensiya, interaktiv metodlar, multimedia.

ТРАНСФОРМАЦИЯ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ

Аннотация. Статье исследуется процесс цифровой трансформации в системе начального образования Узбекистана и её влияние на методы обучения. В работе анализируются теоретические основы внедрения цифровых технологий, использование интерактивных платформ, мультимедийных средств и современных педагогических подходов в учебном процессе. Особое внимание уделено развитию цифровой компетентности учащихся, повышению методической подготовки учителей и эффективному применению ИКТ на уроках. Результаты исследования показали, что трансформация методов обучения в условиях цифровизации является важным фактором повышения качества начального образования.

Ключевые слова: цифровое образование, трансформация, начальная школа, педагогические технологии, цифровая компетентность, интерактивные методы, мультимедиа.

TRANSFORMATION OF TEACHING METHODS IN PRIMARY GRADES IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION

Abstract. This article examines the process of digital transformation in the primary education system of Uzbekistan and its impact on teaching methods. The research analyzes the theoretical foundations of integrating digital technologies,

the use of interactive platforms, multimedia tools, and modern pedagogical approaches in the learning process. Special attention is given to the development of students’ digital competence, the improvement of teachers’ methodological preparedness, and the effective use of ICT in classroom instruction. The findings demonstrate that the transformation of teaching methods in the digitalization era is a crucial factor in improving the quality of primary education.

Keywords: digital education, transformation, primary school, pedagogical technologies, digital competence, interactive methods, multimedia.

XXI asrda ta’lim tizimining modernizatsiyasi raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etilmaydi. Raqamli ta’lim (digital learning) – bu o‘quv jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) orqali tashkil etish, o‘quv materiallarini elektron shakllarda taqdim etish, masofaviy va aralash o‘qitish modellaridan foydalanish hamda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini raqamli vositalar yordamida boshqarish jarayonidir [5-6].

Raqamli ta’limning asosiy komponentlariga quyidagilar kiradi:

- Elektron resurslar: elektron darsliklar, videodarslar, elektron testlar, interaktiv mashqlar;

- Texnik vositalar: kompyuter, planshet, smartfon, interaktiv doska;

- Onlayn platformalar: my. edu. uz, eduportal, Google Classroom, Zoom, Moodle;

- Raqamli pedagogik metodlar: gamifikatsiya, flipped classroom, STEM, vizual ta’lim, multimedia o‘qitish [3-9].

Raqamli ta’limning mazmuni an’anaviy ta’limdan tubdan farq qiladi. Unda axborot va bilimlarni tayyor ko‘rinishda emas, balki interaktiv faoliyat orqali olish, mustaqil izlanish, tajriba qilish va multimediaviy materiallar bilan ishlash ustuvor o‘rin egallaydi. Raqamli ta’limning asosiy afzalliklari: o‘quvchilarning motivatsiyasi yuqori bo‘ladi; dars jarayonida ko‘rgazmalilik oshadi; o‘quvchining individual qobiliyatlari hisobga olinadi; o‘qituvchi uchun vaqt tejaladi; baholash jarayoni avtomatlashtiriladi. Shuningdek, raqamli ta’limo‘quvchi shaxsining faol subyektga aylanishini ta’minlaydi. O‘quvchi faqat tinglovchi emas, balki izlovchi, tahlil qiluvchi, mustaqil topuvchi roliga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda raqamli transformatsiyani barcha sohalarda, jumladan ta’lim tizimida jadallashtirmoqda. Buning natijasida raqamli

ta’limni joriy etish uchun mustahkam normativ-huquqiy zamin yaratildi. Quyidagi hujjatlar ta’limni raqamlashtirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi:

✓ “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi [1]. Ushbu strategiya ta’lim jarayonining to‘liq raqamli muhitga o‘tishi, elektron darsliklar, virtual ta’lim platformalari, sun’iy intellekt asosidagi baholash tizimlarini yaratishni ko‘zda tutadi.

✓ “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun [2]. Qonunda ta’limning raqamli resurslar asosida tashkil etilishi, masofaviy ta’limning qonuniy maqomi va raqamli texnologiyalarni qo‘llashning asosiy tamoyillari mustahkamlab qo‘yilgan.

✓ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020–2024 yillarga mo‘ljallangan maktab ta’limini rivojlantirish strategiyasi. Unda: maktablarni AKT vositalari bilan jihozlash; o‘qituvchilarni raqamli savodxonlik bo‘yicha qayta tayyorlash; elektron jurnal va kundalik tizimlarini joriy etish kabi vazifalar belgilangan [6].

✓ Maktab ta’limi vazirligining elektron ta’lim platformalari bo‘yicha qarorlari. Bu hujjatlar my. edu. uz, eduportal kabi platformalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan [4].

Yuqoridagi hujjatlar boshlang‘ich ta’limda raqamli metodlarni keng joriy etish uchun mustahkam asos yaratmoqda.

Raqamli ta’limning samarali joriy etilishi bevosita pedagogik tamoyillarning to‘g‘ri qo‘llanishi bilan bog‘liq. Boshlang‘ich ta’limda raqamlashtirish quyidagi asosiy tamoyillarga tayangan holda amalga oshiriladi:

1. Faollik tamoyili. Raqamli vositalar o‘quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Interaktiv doska, onlayn testlar, animatsion topshiriqlar o‘quvchilarni faol fikrlashga undaydi.

2. Ko‘rgazmalilik tamoyili. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tasvirlar orqali o‘rganishga moyil. Raqamli ta’limda: video; multimedia; virtual obyektlar; animatsiya ko‘rgazmalilikni keskin oshiradi va murakkab tushunchalarni yengillashtiradi.

3. Individual yondashuv tamoyili. Raqamli ta’lim platformalari har bir o‘quvchi uchun: individual topshiriqlar; moslashtirilgan o‘quv yo‘nalishi; mustaqil tezlikda o‘qish imkonini beradi.

4. Muammoli ta’lim tamoyili. Interaktiv vositalar orqali o‘quvchiga muammoli vaziyatlar yaratish oson. O‘quvchilar raqamli muhitda masalalar yechadi, izlanadi, tahlil qiladi.

5. Mustaqillik tamoyili. Elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, onlayn topshiriqlar o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi [7-9].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari raqamli vositalarni joriy etishda alohida ahamiyatga ega:

- E’tiborning barqaror bo‘lmasligi. O‘quvchi 6–10 yoshda qisqa muddatli e’tibor bilan xarakterlanadi. Raqamli materiallar aynan shu ehtiyojni qondiradi: qisqa, rangli videolar; interaktiv testlar; qiziqarli animatsiyalar; o‘yin shaklidagi topshiriqlar.
- O‘yin orqali o‘rganish xususiyati. Boshlang‘ich yoshdagi bola uchun o‘yin yetakchi faoliyat hisoblanadi. Shu sababli gamifikatsiya metodlari eng samarali sanaladi.
- Vizual materiallarni tez qabul qilish. Raqamli texnologiyalar vizual axborotga boy bo‘lib, murakkab mavzularni sodda shaklda tushuntirish imkonini beradi.
- Tezkor rag‘batga ehtiyoj. Virtual ball, badge, daraja oshirish kabi elementlar o‘quvchilarni doimiy motivatsiya bilan ta’minlaydi.

Shunday qilib, raqamli metodlarni quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin (1-jad).

1- Jadval. Boshlang‘ich ta’limda qo‘llanilayotgan raqamli o‘qitish metodlarining tasnifi

INTERAKTIV METODLAR	INNOVATSION METODLAR	MASOFAVIY TA’LIM METODLARI	MULTIMEDIALI O‘QITISH METODLARI
Interaktivtaqdimotlar;onlayn testlar; elektron mashqlar; virtuallaboratoriyalar	Flipped Classroom (ag‘darilgan sinf); STEAM;	Zoom, Google Meet orqali o‘qitish; Google Classroom	animatsiya va audio-video texnologiyalar; vizual modellar; 3D obyektlar;

	Gamifikatsiya; Case-study raqamli formatda	orqali topshiriq berish; video darslar	virtual ekskursiyalar

Shunday qilib, bugungi kunda raqamlashtirish ta’lim uchun tanlov emas, balki majburiy ehtiyojdir. Buning sabablari: jamiyatning texnologiyalarga tayanishi; AKT orqali o‘qitishning samaradorligi yuqoriligi; bolalarning digital muhitga moslashgan avlod ekanligi; pandemiya davrida masofaviy ta’lim zarurati; xalqaro ta’lim standartlariga moslashish. Shu bois, O‘zbekiston boshlang‘ich ta’limida raqamli metodlar nafaqat yordamchi, balki asosiy pedagogik vositaga aylangan.

2-jadval. Raqamli ta’limning afzalliklari va cheklovlari



O‘zbekiston ta’lim tizimida oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llash darajasini keskin oshirdi. Bugungi kunda ko‘plab maktablarda: interaktiv doskalar; planshetlar; zamonaviy kompyuter sinflari; tezkor internet; elektron darsliklar; my. edu. uz, uzedu platformalari amaliyotga faol joriy etilmoqda. Shuningdek, o‘quvchilar uchun Elektron kundalik, Web-portal, EduMarket, Google Classroom kabi platformalardan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. O‘qituvchilar esa o‘z faoliyatida PowerPoint, Kahoot, Quizizz, Canva, Menti, Wordwall kabi raqamli instrumentlardan keng foydalanmoqda. Bu jarayon o‘quvchilar bilimini yanada mazmunli, zamonaviy, qiziqarli tarzda shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Boshlang‘ich ta’limda raqamli metodlardan foydalanish samaradorligini aniqlash uchun quyidagi mezonlar ishlab chiqildi:

1. O‘quvchilar bilim darajasining oshishi: davlat ta’lim standartlari bo‘yicha bilim ko‘rsatkichlari; nazorat ishlari natijalari; elektron testlar jarayonidagi o‘sish dinamikasi.

2. O‘quvchilarning qiziqish va ishtirok darajasi: darsdagi faol ishtirok; raqamli topshiriqlarni bajarish tezligi; o‘yin orqali o‘rganishga bo‘lgan motivatsiya.

3. Pedagogik jarayonning sifat ko‘rsatkichlari: dars samaradorligi; ko‘rgazmalilikning oshishi; mustaqil ishlash ko‘nikmalarining rivojlanishi.

4. O‘qituvchining raqamli kompetensiyasi: elektron taqdimotlar tayyorlay olish; raqamli platformalarda ishlash malakasi; masofaviy ta’limni tashkil eta olish.

5. Vaqt tejalishi: baholashning avtomatlashtirilishi; o‘quv materiallarining elektron shaklda saqlanishi; dars jarayonining optimallashuvi.

Mazkur mezonlar asosida ta’lim samaradorligi aniqlanadi va tahlil qilinadi. Misol tariqasida raqamli metodlardan foydalanilgan dars ishlanmasini (amaliy misol) ko‘rib chiqamiz. Quyida 3-sinf “O‘qish savodxonligi” darsidan namunaviy dars ishlanmasi keltiriladi (jad-3).

3-jadval. Namunaviy dars ishlanmasi (3-sinf misolida)

Mavzu:	**Tabiatni asraylik!**
Dars turi:	Yangi bilim beruvchi
O‘qitish metodi:	interaktiv metodlar, multimedia, gamifikatsiya
Darsda qo‘llaniladigan texnologiyalar:	Interaktiv doska, Wordwall, Quizizz, Animatsion video, Elektron ish daftarlar
Darsning borishi:	
Tashkiliy qism	Dars Wordwall platformasidagi quvnoq “Warm-up” o‘yini bilan boshlanadi. O‘quvchilar animatsion tabiat tasvirlari orqali mavzuga jalb qilinadi.
Asosiy qism	- Multimedia orqali tushuntirish: tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha qisqa animatsion video namoyish qilinadi. - Matn ustida ishlash. O‘quvchilar elektron doskada guruhlarga bo‘linib, matn bo‘yicha topshiriqlarni bajaradilar: asosiy g‘oyani topish; savollarga javob berish; xulosa

	chiqarish. - Gamifikatsiya elementi: Quizizz platformasida 10 ta test savoli bajariladi. O‘quvchilar jonli natijalar reytingini kuzatadi.
Mustahkamlash	Interaktiv doskada “To‘g‘ri – noto‘g‘ri” o‘yini o‘ynaladi
Baholash	elektron test natijalariga asoslanadi;Quizizz avtomatik baholaydi
Uyga vazifa	Elektron daftar orqali “Tabiatni asrash bo‘yicha tavsiyalar” mavzusida kichik grafik loyiha tayyorlash

Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli metodlardan foydalanish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

1. O‘quvchilar bilim faolligi ortadi. Interaktiv va vizual darslar sabab bolalar mavzuni oson va tez qabul qiladi.

2. Mustaqil izlanish ko‘nikmalari shakllanadi. Elektron darsliklar, multimediya materiallari bolalarda mustaqil o‘rganish madaniyatini rivojlantiradi.

3. Ta’lim sifati oshadi. Dars materialining tushunarli bo‘lishi va ko‘rgazmalilik darajasining yuqoriligi ta’lim samaradorligini oshiradi.

4. Kommunikativ ko‘nikmalar rivojlanadi. Onlayn platformalarda guruhlarda ishlash o‘quvchilarda muloqot madaniyatini kuchaytiradi.

5. Tezkor fikrlash va ijodkorlik ortadi. 3D modellar, virtual obyektlar, animatsiyalar fikrlash doirasini kengaytiradi.

6. O‘qituvchining mehnati yengillashadi. Test, baholash, dars materiallarini tayyorlash jarayoni optimallashadi.

Boshlang‘ich ta’limda raqamli metodlarni joriy etishda uchraydigan muammolar hamda bir qator qiyinchiliklar ham kuzatiladi:

✓ Texnik muammolar: internet tezligi pastligi; kompyuterlar yetishmovchiligi; interaktiv doskalarning buzilishi.

✓ O‘qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasi yetarli emas. Ba’zi o‘qituvchilar raqamli platformalarda ishlashda qiynaladi.

✓ O‘quvchilarning haddan tashqari ekran vaqti. Ko‘p vaqt mobil qurilmalarga bog‘lanib qolish xavfi mavjud.

✓ Elektron xavfsizlik masalalari: bolalarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish; zararli kontentdan himoyalash.

✓ Metodik ta’minotning yetishmasligi. Har bir fan uchun to‘liq raqamli darsliklar mavjud emas.

4-jadval. Muammolarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar

Texnik bazani yaxshilash	**O‘qituvchilar malakasini oshirish**	**Raqamli gigiyena qoidalarini o‘rgatish**	**Elektron resurslar bazasini kengaytirish**	**Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish**
maktablarni zamonaviy kompyuterlar bilan ta’minlash; tezkor internetni barqaror qilish; interaktiv doskalar sonini oshirish	AKT bo‘yicha muntazam seminarlar; raqamli metodlar bo‘yicha qisqa kurslar; onlayn treninglar	ekran vaqtini me’yorlash; ko‘z mashqlari; xavfsiz internet ko‘nikmalari	fanlar kesimida elektron darsliklar yaratish;animatsion o‘quv filmlari tayyorlash	Raqamli ta’lim jarayoniga ota-onalarni jalb etish dars samaradorligini oshiradi

Shunday qilib, O‘zbekiston ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, xususan, raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish boshlang‘ich ta’lim sifatini tubdan yangilashga xizmat qilmoqda. Maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘qitish metodlarining raqamlashtirish sharoitida transformatsiyalanishi, ularning nazariy asoslari, zamonaviy yondashuvlari hamda amaliy qo‘llanilish mexanizmlari batafsil o‘rganildi. Tadqiqot davomida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

- Raqamli pedagogikaning shakllanishi boshlang‘ich ta’limning sifat ko‘rsatkichlarini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Bu jarayon nafaqat texnik vositalarni qo‘llashni, balki o‘qituvchining metodik savodxonligini oshirishni, o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

- An’anaviy metodlar raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashganda yuqori samaradorlikka erishiladi. Multimediya darslar, elektron darsliklar, videodarslar,

interaktiv platformalar (Maktab. uz, EduMarket, LearningApps) o‘quv jarayonining qiziqarli va tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.

- Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun moslashtirilgan raqamli vositalar ularning bilish faoliyatini faollashtiradi. Vizual materiallar, animatsiyalar, interaktiv mashqlar “ko‘rgazmalilik” tamoyilini kuchaytiradi va o‘quvchining mustaqil faoliyatini rag‘batlantiradi.

- O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, zamonaviy o‘qituvchi nafaqat fan metodikasini, balki raqamli didaktika, multimediali dars yaratish, platformalarda ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

- Raqamlashtirish jarayonida ayrim muammolar mavjud: texnik ta’minotning yetarli emasligi, internet tezligining pastligi, o‘qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasidagi nomutanosiblik, o‘quvchilarning ortiqcha ekran vaqtiga bog‘liq salbiy ta’sirlar. Biroq ular bosqichma-bosqich bartaraf etilmoqda.

- Kelajakda metodlar transformatsiyasi yanada chuqurlashadi: sun’iy intellekt, adaptiv o‘qitish, AR/VR texnologiyalar, raqamli diagnostika va big data asosida o‘quv jarayonini individuallashtirish boshlang‘ich ta’limning asosiy yo‘nalishiga aylanadi.

Umuman olganda, raqamli transformatsiya boshlang‘ich ta’limda metodlarning yangilanishi, ta’lim mazmunining boyishi va o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Maqolada olingan natijalar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, uslubchilar va ta’lim tashkilotchilari uchun amaliy yordam bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi. — Toshkent, 2021.

3. Anderson T., Dron J. Teaching Crowds: Learning and Social Media. Athabasca University Press, 2024.

4. Hasanboyeva O., Yo‘ldosheva Sh. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: Fan, 2020.

5. Erkaboyeva N., Madjidova M. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. — T., 2022.

6. Kamilova S. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — S., 2024.
7. Majidova L. Raqamli ta’limning nazariy asoslari. — T., 2022.
8. Turdiqulova G. Interaktiv metodlar va boshlang‘ich ta’limda ularning qo‘llanilishi. — T., 2019.
9. UNESCO. ICT in Education Strategy Papers. 2018–2022.

O‘ZBEK QAHRAMONLIK EPOSIDA JISMONIY TARBIYANING MILLIY SPORT AN’ANALARI BILAN BOG‘LIQLIGI: TARIXIY-PEDAGOGIK TAHLIL

Ergashev Shahboz Dilmurodjon o‘g‘li,
Qo‘qon universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek qahramonlik eposidagi jismoniy tarbiya g‘oyalari bilan an'anaviy milliy sport turlari o‘rtasidagi pedagogik bog‘liqlik tarixiy-genetik va kontent-tahlil metodlari asosida o‘rganilgan. «Alpomish», «G‘o‘ro‘g‘li» va «Rustamxon» dostonlaridan 168 ta jismoniy tarbiyaviy fragment tanlab olinib, yettita motor kompetentlik mezoni bo‘yicha tasniflangan. Tadqiqot ko‘rsatadiki: epik fragmentlarning 91% i an’anaviy o‘zbek sport turlarida (kurash, ot poygasi, kamonkashlik, qilichbozlik, tosh ko‘tarish) qo‘llaniladigan motor ko‘nikmalar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri korrelyatsiyaga ega ($r=0,78$; $p<0,001$). Bu natija folklor va an’anaviy sport o‘rtasidagi uzluksiz pedagogik aloqani birinchi marta kontent-tahlil metodida isbotlaydi va jismoniy tarbiya tarixini qayta ko‘rib chiqishga asos yaratadi.

Abstract. This article examines the pedagogical relationship between physical education ideas in Uzbek heroic epic poetry and traditional national sports through historical-genetic and content analysis methods. 168 physical education fragments were selected from the epics Alpomish, G‘o‘ro‘g‘li and Rustamxon and

classified according to seven motor competence criteria. The study reveals that 91% of epic fragments directly correlate with motor skills applied in traditional Uzbek sports (kurash wrestling, horse racing, archery, sword fighting; r=0.78; p<0.001). These findings provide the first content-analysis proof of the continuous pedagogical link between Uzbek folklore and traditional sports, offering new foundations for the history of physical education.

Kalit so‘zlar: o‘zbek qahramonlik eposi, milliy sport an'analari, jismoniy tarbiya tarixi, folklor pedagogikasi, kontent-tahlil, motor kompetentlik, etnopedagogika, kurash, ot poygasi, kamonkashlik.

O‘zbek milliy sport an'analari — kurash, ot poygasi, kamonkashlik, qilichbozlik va tosh ko‘tarish — ming yillar davomida xalqning jismoniy tarbiya tizimini tashkil etib kelgan. Bu sport turlarining pedagogik asoslari, ta'lim-tarbiyaviy mohiyati va avloddan avlodga o‘tish mexanizmlari haqida ilmiy adabiyotda turli nuqtai nazarlar mavjud. Bir guruh olimlar (Jalilov, 2015; Razzaqov, 2018) milliy sportni mustaqil tarixiy-madaniy hodisa sifatida ko‘rib chiqsa, boshqalar (Hasanboyev, 2012; Ergashev, 2024) uni keng folklor-pedagogika tizimining bir qismi sifatida talqin etadi. Ikkala yondashuv ham bir muhim savolga to‘liq javob bermaydi: o‘zbek qahramonlik eposi bilan an'anaviy sport turlari o‘rtasidagi pedagogik bog‘liqlik qanchalik sistemali va o‘lchanishi mumkin?

Muammoning dolzarbligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-martiagi «Jismoniy tarbiya va massoviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PQ-5013 sonli Qarorida ham qayd etilgan: milliy sport an'analarini zamonaviy ta'lim mazmuniga organik kiritish talab etiladi. Shu maqsadda milliy sport an'analarining tarixiy-pedagogik ildizlarini, xususan epik adabiyot bilan bog‘liqligini ilmiy asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro ilmiy adabiyotda epik she'riyat va sport o‘rtasidagi munosabat turli madaniyatlar misolida o‘rganilgan. Yunon eposida (Homer, «Iliada») sport va jismoniy tarbiya g‘oyalari o‘rtasidagi aloqa Sansone (1988) tomonidan keng tahlil qilingan [1]. Yapon budo an'analari va samuray eposi o‘rtasidagi pedagogik kontinuitet Nakamura (2018) [2] tomonidan isbotlangan. Skandinaviya saga adabiyoti va milliy sport (Viking sport) o‘rtasidagi bog‘liqlikni Lindstrom (2014) [3] kontent-tahlil metodi asosida tadqiq etgan. Biroq o‘zbek qahramonlik eposi va milliy sport an'analari o‘rtasidagi pedagogik bog‘liqlik shu darajadagi sistemali empirik tekshiruvdan o‘tmagan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: o‘zbek qahramonlik eposida jismoniy tarbiya g‘oyalari bilan an'anaviy milliy sport turlari o‘rtasidagi pedagogik bog‘liqlik birinchi marta kontent-tahlil metodi asosida miqdoriy jihatdan o‘lchangan va korrelyatsion tahlil bilan isbotlangan.

Tadqiqotning maqsadi: o‘zbek qahramonlik eposidagi jismoniy tarbiyaviy fragmentlarni tasniflash va ularning an'anaviy milliy sport turlarida qo‘llaniladigan motor ko‘nikmalar bilan pedagogik bog‘liqligini miqdoriy va sifat tahlili orqali aniqlash.

Tadqiqot savollari:

1. O‘zbek qahramonlik eposida qanday jismoniy tarbiyaviy fragmentlar mavjud va ular qanday motor kompetentlik mezonlari bo‘yicha tasniflanishi mumkin?

2. Epik fragmentlarda aks etgan motor ko‘nikmalar an'anaviy milliy sport turlari bilan statistik jihatdan ishonchli korrelyatsiyaga egami?

3. Epik jismoniy tarbiyaviy mazmunning milliy sport turlari bo‘yicha taqsimlanishi pedagogik uzluksizlik g‘oyasini qanday asoslab beradi?

Ilmiy gipoteza: O‘zbek qahramonlik eposidagi jismoniy tarbiyaviy fragmentlar va an'anaviy milliy sport turlari o‘rtasida o‘rtacha kuchli ijobiy korrelyatsiya ($r>0,60$; $p<0,001$) mavjud bo‘lib, bu folklor adabiyoti milliy sport an'analarini avloddan avlodga uzatishda maqsadli pedagogik vosita bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotda uchta metodologik yondashuv uyg‘unlashtirildi: (1) tarixiy-genetik tahlil — jismoniy tarbiya g‘oyalarining tarixiy rivojlanishini kuzatish; (2) kontent-tahlil — epik matnlardagi jismoniy tarbiyaviy fragmentlarni miqdoriy o‘lchash; (3) korrelyatsion tahlil — epik mazmun va milliy sport turlari o‘rtasidagi statistik bog‘liqlikni aniqlash.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

1. Korpus shakllantirildi: «Alpomish» (Fozil Yo‘ldoshev varsiyasi, 1928; T.Mirzayev nashri, 1999), «G‘o‘ro‘g‘li» (Said Nosir Mirzayev tomonidan yozib olingan, 1927; Hodi Zarif nashri, 1971) va «Rustamxon» (Ergash Jumanbulbul o‘g‘li varsiyasi; T.Mirzayev nashri, 2005) dostonlarining to‘liq akademik nashrlari asosiy manba sifatida tanlandi.

2. Kontent-tahlil protokoli ishlab chiqildi. Jismoniy tarbiyaviy fragment deb quyidagi mezonlarga javob beruvchi matn parchasi qabul qilindi: (a) qahramonning jismoniy harakati tasvirlangan; (b) harakat batafsil ta'riflangan (kamida 2 misra); (c) aniq motor ko‘nikma (kuch, tezlik, muvozanat va h.) aniqlanishi mumkin.

3. Har bir fragment yettita motor kompetentlik mezoni bo‘yicha baholandi (0/1 shkala): kuch, chidamlilik, tezlik, koordinatsiya, muvozanat, epchillik, aniqlik. So‘ngra har fragment uchun an'anaviy sport turlari bilan moslik ko‘rsatkichi (0–5 ball) belgilandi.

Kontent-tahlilni ikki mustaqil ekspert (jismoniy tarbiya o‘qituvchisi va folklorshunos olim) mustaqil ravishda amalga oshirdi. Ekspertlararo kelishuv koeffitsienti (Cohen's kappa) k=0,84 — «juda yuqori kelishuv» darajasida [4]. Nomuvofiqliklari bo‘lgan 14 ta fragment (jami 168 fragmentning 8,3%) muhokama orqali hal qilindi.

An'anaviy sport turlari bo‘yicha klassifikator sifatida O‘zbekiston sport va jismoniy tarbiya bo‘yicha davlat standarti (DTSt 2019) va UNESCO tomonidan ro‘yxatga olingan o‘zbek nomoddiy madaniy meroslar katalogi qo‘llanildi [5]. Yettita asosiy an'anaviy sport turi belgilandi: kurash, ot poygasi (chavandozlik), kamonkashlik, qilichbozlik, tosh ko‘tarish, chillak va ko‘pkari (ulak). Har sport turi uchun zaruriy motor ko‘nikmalar profili (7 mezon bo‘yicha) sport texnikasi uslubiy qo‘llanmalaridan olindi.

Statistik tahlil: IBM SPSS Statistics 26.0 dasturida Pirson korrelyatsiyasi (r), Spearman rho (ma'lumotlar normal taqsimlanmagan holat uchun), xavf-xatarsizlik chegarasi p<0,001. Effekt o‘lchami: Cohen's d va eta-kvadrat (partial eta2). Normal taqsimlanishni tekshirish: Shapiro-Wilk testi. Ko‘p o‘zgaruvchili tahlil: MANOVA (motor komponentlar bo‘yicha sport turlari farqlarini aniqlash uchun).

Kontent-tahlil natijasida uchta dostondan jami 168 ta jismoniy tarbiyaviy fragment ajratildi: «Alpomish» — 78 ta (46,4%), «G‘o‘ro‘g‘li» — 56 ta (33,3%), «Rustamxon» — 34 ta (20,2%). Fragmentlarning o‘rtacha uzunligi 4,7 misra (min: 2, maks: 18).

Doston	Jami fragment	O‘rtacha uzunlik (misra)	Motor komp. soni (o‘rtacha)
Alpomish	78 (46,4%)	5,2	4,3
G‘o‘ro‘g‘li	56 (33,3%)	4,4	3,9
Rustamxon	34 (20,2%)	3,8	3,6
Jami / O‘rtacha	168 (100%)	4,7	4,1

1-jadval. Dostonlar bo‘yicha jismoniy tarbiyaviy fragmentlar statistikasi

Motor kompetentlik mezonlari bo‘yicha tahlil (168 fragment): kuch — 147 fragmentda (87,5%), koordinatsiya — 138 (82,1%), epchillik — 129 (76,8%), tezlik — 121 (72,0%), chidamlilik — 103 (61,3%), muvozanat — 94 (56,0%), aniqlik — 87 (51,8%). 78 fragmentda (46,4%) barcha yettita motor kompetentlik mezoni bir vaqtda mavjud — bu epik jismoniy tasvirning kompleks ekanligini ko‘rsatadi.

«Alpomish bir sakrab otga mindi, surib ketdi askar boshida, tizgini qo‘lida, nayzasi belida, g‘irt to‘g‘ri o‘tirdi egarda — tik va mustahkam.» Motor kompetentliklar (kontent-tahlil): kuch (+), koordinatsiya (+), muvozanat (+), tezlik (+), epchillik (+). Sport moslik ballari: ot poygasi — 5/5, kurash — 3/5, kamonkashlik — 2/5.

An'anaviy sport turlari bilan epistemik bog‘liqlik tahlili quyidagi natijalarni ko‘rsatdi:

An'anaviy sport turi	Mos fragmentlar soni	% (jami 168 dan)	O‘rtacha moslik balli (0-5)
Kurash (belbo‘g‘li kurash)	143	85,1%	4,2
Ot poygasi (chavandozlik)	128	76,2%	4,0
Kamonkashlik	97	57,7%	3,5
Qilichbozlik	89	53,0%	3,7
Tosh ko‘tarish (pahlavonlik)	112	66,7%	3,9
Chillak	61	36,3%	2,8
Ko‘pkari (ulak)	74	44,0%	3,1

2-jadval. Epik fragmentlarning an'anaviy sport turlari bilan moslik tahlili

** Bir fragment bir nechta sport turi bilan mos kelishi mumkin.*

Korrelyatsion tahlil natijasi: epik fragmentlarning motor kompetentlik profili va an'anaviy sport turlarining motor talab profili o‘rtasida Pirson korrelyatsiyasi r=0,78 (p<0,001) aniqlandi. Spearman rho=0,74 (p<0,001) — normal taqsimlanish

shartlariga bog‘liq bo‘lmagan holda ham kuchli aloqa mavjudligini tasdiqlaydi. Effekt o‘lchami: eta2=0,61 — «juda kuchli» darajada (Cohen, 1988 bo‘yicha) [6].

Sport turlari bo‘yicha alohida tahlil: kurash bilan korrelyatsiya eng yuqori — r=0,82 (p<0,001). Bu kutilgan natija, chunki kurash o‘zbek xalqining eng qadimiy va keng tarqalgan sport turi bo‘lib, eposda ham eng ko‘p aks etgan. Kamonkashlik (r=0,69; p<0,001) va ot poygasi (r=0,75; p<0,001) ham yuqori korrelyatsiya ko‘rsatdi. Chillak bilan korrelyatsiya nisbatan past — r=0,51 (p<0,001) — bu an'anaviy bolalar o‘yini sifatida eposda kam aks etishiga mos keladi.

«Pahlavon bo‘lmoq — faqat kuch emas, pahlavon bo‘lmoq — adolat va iymon. Tanasi baquvvat, ko‘ngli toza bo‘lmagan kishi hech qachon haqiqiy pahlavon bo‘la olmaydi.»
Motor kompetentliklar: kuch (+), chidamlilik (+), muvozanat (+). Sport moslik: kurash — 5/5, tosh ko‘tarish — 4/5.

Qo‘shimcha MANOVA tahlili (yetti motor komponent, yetti sport turi) sport turlarini motor talablari bo‘yicha statistik jihatdan ishonchli farqlash imkonini berdi (Wilks' Lambda=0,23; F=18,47; p<0,001; partial eta2=0,77). Bu shuni anglatadiki, har bir an'anaviy sport turining o‘ziga xos «motor profili» mavjud bo‘lib, epos ham aynan shu profillarni aks ettiradi.

Motor kompetentlik	Kurash	Ot poygasi	Kamonkashlik	Qilichbozlik	Tosh ko‘tarish
Kuch	5/5	3/5	2/5	4/5	5/5
Chidamlilik	4/5	4/5	2/5	3/5	3/5
Tezlik	4/5	5/5	3/5	5/5	2/5
Koordinatsiya	4/5	5/5	4/5	5/5	3/5
Muvozanat	3/5	5/5	3/5	4/5	3/5
Epchillik	5/5	4/5	4/5	5/5	2/5
Aniqlik	3/5	3/5	5/5	4/5	2/5

3-jadval. An'anaviy sport turlarining motor kompetentlik profili (ekspert baholash, 0–5 ball)

** DTSt 2019 va sport uslubiy qo‘llanmalari asosida tuzilgan.*

Tarixiy-genetik tahlil natijasi: uchta doston uchun ham fragmentlar tarixiy davrga ko‘ra kuzatildi. «Alpomish» ning arxaik qatlamida (milodiy VII–X asrlar motivi) kuch va chidamlilik fragmentlari ustunlik qiladi (68%). Klassik qatlamda (XI–XIX asr elementlari) koordinatsiya va aniqlik elementlari kuchayadi (54%). Bu dinamika Markaziy Osiyoda an'anaviy sport evolyutsiyasining umumiy tendensiyasi bilan mos keladi: erta o‘rta asrlarda kuch sportig ustun bo‘lgan, keyinchalik aniqlik va koordinatsiya talab etuvchi sport turlari (kamonkashlik, qilichbozlik) ko‘proq qadrlangan (Matyoqubov, 2004) [7].

«G‘o‘ro‘g‘li uchdi — yoydek tez, qushday engil, bir o‘tkir o‘q otdi — yo‘l bo‘yi uch mingga yetdi. Na nafas oldi, na to‘xtadi — shamolday o‘tdi.» Motor kompetentliklar: tezlik (+), koordinatsiya (+), aniqlik (+), epchillik (+). Sport moslik: kamonkashlik — 5/5, ot poygasi — 4/5.

Sifat tahlili (germenevtik qatlam) uchta muhim pedagogik topilmani ko‘rsatdi. Birinchidan, epik matndagi sport tasviri har doim faqat jismoniy ko‘rinishni emas, balki ma'naviy va ijtimoiy o‘lchamni ham o‘z ichiga oladi (168 fragmentning 89% ida). Ikkinchidan, sport mahorati eposda tug‘ma emas, balki muntazam mashq natijasida erishiladigan sifat sifatida tasvirlangan (121 fragmentda — 72%). Uchinchidan, sport g‘alabasi eposda har doim jamoa manfaati bilan bog‘liq — faqat shaxsiy yutug‘ emas (138 fragmentda — 82%).

Tadqiqot natijasi ilmiy gipotezani to‘liq tasdiqladi: o‘zbek qahramonlik eposidagi jismoniy tarbiyaviy fragmentlar va an'anaviy milliy sport turlari o‘rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya ($r=0,78$; $p<0,001$) mavjud. Bu natijani bir nechta nuqtai nazardan ko‘rib chiqish muhim.

Birinchi yo‘nalish — tarixiy-pedagogik talqin. Aniqlangan kuchli korrelyatsiya ($r=0,78$) tasodifiy emas: epos va sport birgalikda bir madaniy

matritsadan — o‘zbek xalqining hayot tarzidan — o‘sib chiqqan. Volkov (1974) etnopedagogika nazariyasida ta'kidlaganidek, xalq pedagogikasida bilim uzatishning uchta asosiy kanali mavjud: so‘z (folklor), namuna (o‘sib kelayotgan avlodga namoyish etish) va amaliyot (bevosita ishtirok) [8]. Epos «so‘z» kanali, sport esa «namuna» va «amaliyot» kanali bo‘lib, ikkalasi birgalikda jismoniy tarbiyaning yaxlit pedagogik tizimini tashkil etgan.

Xalqaro qiyoslov nuqtai nazaridan — Homer «Iliada» sida yunon sport (olimpiya o‘yinlari) bilan kuchli bog‘liqlik mavjud: Sansone (1988) 94 ta sport epizodini aniqlagan [1], Nakamura (2018) yapon budo eposida r=0,71 ni topgan [2]. Bizning natijamiz (r=0,78) bu ko‘rsatkichlardan yuqori, biroq qiyoslash ehtiyotkorlikni talab etadi: uslubiyat va madaniy kontekst farqlar tufayli to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqqoslash cheklangan. Baribir, uchta mustaqil tadqiqotda o‘xshash darajadagi korrelyatsiya universalroq qonuniyatning — epik adabiyot milliy sport an'analarini kodlaydigan pedagodik vosita sifatida ishlashi — borligini ko‘rsatadi.

«Epos — bu xalqning sport darsligidir. Faqat u bosma shaklda emas, og‘zaki, ohangdor va yurakka o‘rnaladigan shaklda berilgan. Har bir pahlavonlik sahnasi — bu aslida trener ko‘rsatmasi.» (Jalilov B. O‘zbek milliy sport tarixi. — Toshkent, 2015. — 89-b.)

Ikkinchi yo‘nalish — pedagogik uzluksizlik. 91% fragmentning milliy sport turlari bilan bog‘liqligi shuni ko‘rsatadiki, epos sport an'analarini tasodifiy aks ettirmagan — balki maqsadli pedagogik vosita sifatida ishlagan. Sport ustasi (polvon) obrazi eposda avvalo tarbiyalanuvchi, keyin ustoz sifatida ko‘rinadi: 72% fragmentda mashq va tayyorgarlik jarayoni ta'riflangan. Bu «ustoz-shogird» pedagogik modeli o‘zbek kurash maktablarida hanuzgacha saqlanib qolganligini (Nazarov, 2019) [9] va uning eposda ham ilk ifodasini topganligini ko‘rsatadi.

Uchinchi yo‘nalish — ma'naviy-jismoniy birlik. 89% fragmentda jismoniy mahorat ma'naviy sifatlar bilan birgalikda tasvirlangan. Bu holat o‘zbek milliy sport an'analarida ham saqlanib qolgan: kurashda «pahlavonlik odobi» — raqibga hurmat, adolatli o‘yin, g‘alaba oldidan va keyin tasbeh tortish — aniq ifodalangan norma sifatida ta'riflanadi. Deci va Ryan (2000) ning motivatsiya nazariyasi nuqtai nazaridan [10], bu ma'naviy komponent jismoniy faollikning ichki motivatsion o‘zagini tashkil etadi va sport faoliyatini mexanik harakatdan farqlaydi.

Cheklovlar va kelajakdagi tadqiqotlar. Birinchidan, ushbu tadqiqot faqat uchta doston bilan cheklangan; kelajakda «Oybek», «Manas» va boshqa Markaziy Osiyo eposlarini qamrab oluvchi qiyosiy kontent-tahlil zarur. Ikkinchidan, kontent-tahlil natijasi ekspert baholashiga asoslangan va sub'ektivlikdan to‘liq xalos emas (Cohen's kappa=0,84 yuqori bo‘lsa-da). Uchinchidan, tadqiqot epik matnlar bilan sport o‘rtasidagi bog‘liqlikni isbotlaydi, lekin kauzal bog‘liqlik (epik ta'sir → sport rivojlanishi) emas, korrelyatsiyani ko‘rsatadi. Kauzal munosabatni aniqlash uchun tarixiy-arxeologik va etnografik metodlarning uyg‘unlashuvi zarur.

Ta'lim amaliyotiga tatbiq etish nuqtai nazaridan: aniqlangan r=0,78 korrelyatsiya shunday pedagogik xulosa chiqarishga imkon beradi — o‘zbek qahramonlik eposi milliy sport an'analarini o‘rgatishda motivatsion va ma'rifiy resurs sifatida tizimli qo‘llanilishi mumkin. Jismoniy tarbiya darslari oldidan tematik epik parchalar o‘qilishi kurash texnikasini, kamonkashlik qoidalarini yoki chavandozlik mahoratini nafaqat ko‘rsatma sifatida, balki madaniy ma'no bilan to‘ldirib o‘rgatishi mumkin. Bu yondashuv Nakamura (2018) Yaponiyada budo ta'limiga tadbiq etgan «epik kontekstualizatsiya» metodiga o‘xshash bo‘lib, motivatsiya indeksini 38% ga oshirishini ko‘rsatgan [2].

Ushbu tadqiqot o‘zbek qahramonlik eposidagi jismoniy tarbiya g‘oyalari bilan an'anaviy milliy sport turlari o‘rtasidagi pedagogik bog‘liqlikni birinchi marta kontent-tahlil metodi asosida miqdoriy jihatdan o‘lchadi. Asosiy xulosalar:

1. Uchta dostondan 168 ta jismoniy tarbiyaviy fragment ajratildi; ularning 78% ida motor rivojlanishning kamida beshta komponenti bir vaqtda mavjud — bu eposning kompleks motor pedagogik vosita ekanligini ko‘rsatadi.

2. Epik fragmentlarning 91% i an'anaviy milliy sport turlari (kurash, ot poygasi, kamonkashlik, qilichbozlik, tosh ko‘tarish) bilan motor kompetentlik bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos keladi.

3. Kontent-tahlil natijasi va sport motor profili o‘rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya ($r=0,78$; $p<0,001$; $eta2=0,61$) aniqlandi. Ilmiy gipoteza to‘liq tasdiqlandi.

4. Epik matndagi jismoniy tarbiyaviy fragmentlar faqat motor komponentni emas, balki ma'naviy-ijtimoiy o‘lchamni ham qamrab olishi (89% fragmentda) o‘zbek milliy sport an'analarining yaxlit pedagogik tizim ekanligini isbotlaydi.

5. Aniqlangan natijalar o‘zbek qahramonlik eposini milliy sport an'analarini o‘rgatishda motivatsion va kontekstual pedagogik resurs sifatida tizimli qo‘llash uchun ilmiy asos yaratadi.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiya: Markaziy Osiyo xalqlarining epik merosini qiyosiy kontent-tahlil qilish va epos-sport pedagogik uzluksizligining kauzal mexanizmlarini etnografik metodlar yordamida o‘rganish.

Muallif kontent-tahlilni mustaqil ekspert sifatida amalga oshirgan folklorshunos olim shu.prof. T.Mirzayevga va Farg‘ona davlat universiteti jismoniy tarbiya kafedrasi jamoasiga hamkorlik uchun minnatdorlik bildiradi. Tadqiqot Farg‘ona davlat universiteti ilmiy ishlar bo‘limi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI / REFERENCES

1. Sansone D. Greek Athletics and the Genesis of Sport. — Berkeley: University of California Press, 1988. — 212 p.

2. Nakamura Y. Budo and Physical Education in Japanese Schools: Historical and Pedagogical Analysis // Journal of Asian Martial Arts. — 2018. — Vol.27, №1. — P. 12–31. DOI: 10.1234/jama.2018.001

3. Lindstrom E. Viking Sport and Saga Literature: A Content Analysis of Motor Skills in Old Norse Epic // Scandinavian Journal of Sport Sciences. — 2014. — Vol.18, №2. — P. 78–97.

4. Landis J.R., Koch G.G. The Measurement of Observer Agreement for Categorical Data // Biometrics. — 1977. — Vol.33, №1. — P. 159–174.

5. UNESCO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Representative List. — Paris: UNESCO, 2016. URL: https://ich.unesco.org

6. Cohen J. Statistical Power Analysis for the Behavioral Sciences. 2nd ed. — Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1988. — 567 p.

7. Matyoqubov M. Jismoniy tarbiya tarixi. — Toshkent: Sharq, 2004. — 284 b.

8. Volkov G.N. Etnopedagogika. — Moskva: Prosveshcheniye, 1974. — 240 s.

9. Nazarov D. O‘zbek kurashi: an'ana va zamonaviylik. — Toshkent: Sport, 2019. — 196 b.

10. Deci E.L., Ryan R.M. The «What» and «Why» of Goal Pursuits: Human Needs and the Self-Determination of Behavior // Psychological Inquiry. — 2000. — Vol.11, №4. — P. 227–268.

11. Mirzayev T. Alpomish dostoni. Akademik nashr. — Toshkent: Fan, 1999. — 512 b.

12. Mirzayev T. G‘o‘ro‘g‘li epos sikli. — Toshkent: Fan, 2005. — 438 b.

13. Mirzayev T. Rustamxon dostoni. — Toshkent: Fan, 2005. — 324 b.

14. Hasanboyev J. O‘zbek etnopedagogikasi: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Fan, 2012. — 318 b.

15. Jalilov B. O‘zbek milliy sport tarixi. — Toshkent: Sharq, 2015. — 246 b.

16. Razzaqov K. Jismoniy madaniyat va an'anaviy sport. — Toshkent: TDYU, 2018. — 180 b.

17. Ergashev Sh.B. Folklor va jismoniy tarbiya: nazariya va amaliyot. Monografiya. — Toshkent: Akademiya, 2024. — 184 b.

18. Pellegrini A.D., Smith P.K. Physical activity play: The nature and function of a neglected aspect of play // Child Development. — 1998. — Vol.69, №3. — P. 577–598.

19. Sarimsaqov B. O‘zbek folklori. — Toshkent: Fan, 1986. — 312 b.

20. Ibn Sino. Tib qonunlari. I jild. — Toshkent: Fan, 1981. — 547 b.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-martdagi «Jismoniy tarbiya va massoviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PQ-5013 sonli Qarori. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi, 2021.

22. Zaripov X. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1999. — 286 b.

JADID PEDAGOGIKASIDA TIL VA IMLO MASALASI

Javharova Nilufar Odiljon qizi,
Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy tilimiz, Ashurali Zohiriy shaxsi va uning ma’rifatparvarlik faoliyati yoritilgan. Shuningdek, jadid pedagogikasida til va imlo masalasining tutgan o‘rni, milliy til taraqqiyotiga oid qarashlarning shakllanishi hamda Ashurali Zohiriyning bu boradagi ma’rifatparvarlik faoliyati tahlil qilinadi. Jadid ma’rifatparvarlarining ona tilini saqlash, uni xalq ma’naviyati va milliy o‘zlikning asosiy omili sifatida rivojlantirishga qaratilgan g‘oyalari ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, Ashurali Zohiriyning imlo birligi, savodxonlikni oshirish, darslik va lug‘atlar yaratish borasidagi xizmatlari hamda uning pedagogik qarashlari jadidchilik harakatining ma’rifiy maqsadlari bilan uyg‘un holda tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik davri, o‘zbek adabiy tili, jonli til, adabiy til, ilmiy til, imlo masalasi, milliy uyg‘onish davri.

Abstract. This article highlights the development of the Uzbek national language, the personality of Ashurali Zohiriy, and his enlightenment activities. It also analyzes the role of language and orthography in Jadid pedagogy, the formation of ideas related to the development of the national language, and Ashurali Zohiriy’s educational and enlightenment activities in this field. The study scientifically examines the ideas of Jadid enlighteners aimed at preserving the mother tongue and developing it as a key factor of national identity and spiritual values of the people. Furthermore, the article investigates Ashurali Zohiriy’s contributions to the unification of orthography, improvement of literacy, creation

of textbooks and dictionaries, as well as his pedagogical views in connection with the educational goals of the Jadid movement.

Keywords: Jadidism period, Uzbek literary language, spoken language, literary language, scientific language, orthography issue, period of national awakening.

Jadidchilik davrida Qo‘qon bu harakatning qaynoq nuqtasi bo‘lgani tarixdan ma’lum. Jadidlarning tilagida siyosiy maqsadlar bir oz yashirin tarzda turgan bo‘lsa-da, ma’rifat, maktab-maorif, adabiyot, til va boshqa ijtimoiy muammolarga jamiyatning eng og‘riqli masalasi, deb qaralgan va ko‘plab jadid ma’rifatparvarlar ayni shu harakatlarning faol ishtirokchisiga aylangan. Turkistonda, xususan, Farg‘ona vodiysida tilshunoslik maktabining shakllanishi 1930-yilda Farg‘onada oliy ta’lim muassasasi paydo bo‘lganidan boshlanganligi qayd etiladi. Ushbu faoliyatni Ashurali Zohiriy faoliyati bilan bog‘lash mumkin. Ashurali Zohiriy Qo‘qon shahridagi birinchi doriulmuallimin tashkilotchisi hisoblanib, birinchi zamonaviy maktablarda o‘qituvchilar tarbiyalashdagi mehnatlari alohida hurmatga loyiq. Shuningdek, “Turkiy xrestomatiya yoxud terma kitob”, “Imlo” darsliklarini yaratgan va nashr ettirgan. Uning ma’rifatchilik faoliyati ko‘plab yoshlarning ilm-ma’rifat ziyosidan bahramand bo‘lishlariga xizmat qiladi. Odamlarda yangi o‘y, yangi dunyoqarashlarning shakllanishiga asos bo‘ladi. Ashurali Zohiriyning “Ona tili”, “Imlo” masalasida ikkinchi turli mulohaza”, “Olti oylik o‘zbek adabiyotiga bir qarash”, “Til va imlo masalasi” singari maqolalari ana o‘sha davr til mutaxassislari hamda ma’rifatparvarlari orasida qizg‘in o‘rganilganligi ham Ashurali Zohiriyning olim sifatida muhim masalalar yechimi ustida mulohaza qilganligidan dalolatdir.

U adabiyotshunoslik hamda tilshunoslik rivojiga ham munosib ulush qo‘shadi. Ona tili o‘qitish usullari, o‘zbek adabiy tilining qonun-qoidalarini belgilash, o‘zbek tilining taraqqiyotining yo‘nalishlarini belgilashda Ashurali Zohiriyning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birgalikda u olim sifatida til quriltoyi, o‘zbek madaniyat hamda maorif xodimlarining o‘lka quriltoyi, O‘rta Osiyo ilmiy anjumanlari, taraqqiyot qurultoyida ishtirok etib, o‘zbek adabiy tilining shakllanishida munosib xizmatlar qilgan. 1908-yil hamda 1913-yillar oralig‘ida u o‘zining “Yangi usul” deb nomlangan mualliflik uslubida Qo‘qon shahri maktablarida dars bergan va ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaviy faoliyat bilan shug‘ullanadi. Uning yaratgan ta’lim uslubi klassik o‘zbek va sharq mumtoz adabiyoti namunalarini o‘rganib, chiqargan xulosasiga asoslangan edi[2]. Mazkur yillar oralig‘ida Zohiriy rus, turk, ozarbayjon, tatar tillarini puxta o‘zlashtiradi. 1910-yilda Qo‘qon shahridagi jadid ma’rifatchilarining yetakchisi sifatida “Taraqqiyparvarlar jamiyati”ga asos soladi. Ushbu tashkilotning 5-6 moddadan iborat bo‘lgan o‘zining programmasi hamda Ustavi bo‘lib, asosan xalq ta’limini qo‘llab-quvvatlash va ushbu maqsad yo‘lida kuchlarini birlashtirishdan iborat bo‘lgan edi. Tashkilot Qo‘qonda bir necha yangiusulda o‘qitiladigan maktablar tashkil qiladi. Tashkilot shuningdek, bu yillarda Hazrat Alisher Navoiyning “Muhokamat-ul lug‘atayn” va “Vaqfiya”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” singari asarlarini nashrdan chiqaradi. Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘otayn” asarini alohida husnihatda ko‘chirib, 1917-yilda Qo‘qonda joylashgan Vayner kutubxonasida nashr ettirgan. 1914-yilda o‘zbek tili haqidagi “Ona tili” kitobini yozadi. Unda Navoiyning “Muhokamat-ul lug‘atayn” asarida keltirilgan o‘zbek tili tarixi to‘g‘risida fikr bildiradi.

[2]T.Tog‘ayev.Ashurali Zohiriyning tilshunoslik merosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya, 2006.

Ashurali Zohiriyning tilshunoslikka qo‘shgan hissasi kattadir. Olim o‘zbek tilini o‘rganar ekan, uni uch uslubga bo‘ladi:

1. Jonli til.

2. Adabiy til.

3. Ilmiy til.

Ular haqida to‘xtalar ekan, tilimizning o‘ziga xos tomonlarini ochib berishga harakat qiladi. Garchi, adabiy til bilan ilmiy tilni ajratsa-da, bular orasida katta farq yo‘qligini ko‘rsatadi. Olim adabiy til bilan jonli tilni yaqinlashtirish va adabiy tilni omma uchun tushunarli til bo‘lishi lozimligini uqtiradi. Ashurali Zohiriy ko‘p shevali o‘zbek tilida adabiy til uchun tayanch dialektni belgilab olish borasidagi fikrlari diqqatga sazovor. Olim – adabiy til birligida boshvoqsizlik va bir yoqadan bosh chiqarmaslikka barham berish uchun albatta, o‘zbek shevalaridan birini asos qilib olish kerakligini uqtirar ekan, bu masalada to‘g‘ri yo‘lda turgan va adabiy tilga Farg‘ona shevasini asos qilib olish taklifini ilgari suradi. 1929-yilda Samarqandda bo‘lib o‘tgan Til, imlo va istiloh konferensiyasida ham ushbu fikrni qizg‘in himoya qiladi. Ushbu anjumanda Elbek ham adabiy til uchun Farg‘ona shevasini asosga olishni yoqlagan. Hozirgi adabiy til morfologik jihatdan Farg‘ona shevasiga asoslanganligi olimning fikri to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi[3].

Ashurali Zohiriy atamalar masalasida to‘xtalar ekan, til sofligiga alohida e’tibor beradi. Olim atamalar tizimini yaratishda imkon qadar o‘zbek tilining o‘z ichki imkoniyatlaridan foydalanish g‘oyasini ilgari surgan. Olim xalq tiliga singib ketgan forscha (obdasta, kafgir, go‘sht, sabzi, darvish), arabcha (maktab, kitob, qalam, mehnat), siyosiy va falsafiy sohaga oid ruscha baynalmilal (dinamo, volt, radio) kabi so‘zlarni o‘z holicha qoldirishni tavsiya etadi. Shu bilan birga, u ba’zi bir atamalarni tilimizdagi ayrim so‘zlar bilan almashtirishni talab qiladi, lekin bu

[3] .Abduhakimova M. Millatparvarlar din isyoniga jo‘r bo‘lgan , tabarruk, turkona tilim. Til.gov.uz.2021

so‘zlar iste’molga kiritilmaydi. Masalan, “astronomiya” so‘zini yulduz birligi, “gidrologiya” so‘zini suv birligi, “botanika” so‘zini o‘simlik birligi kabi so‘zlar bilan almashtirish o‘zini oqlamaydi.

Ashurali Zohiriy o‘z maqolasida imlo masalasiga ham alohida to‘xtalib o‘tadi. Olim o‘zbek imlosini savtiy (fonetika) va shakliy – sarfiy formulogiya (morfologiya) asosida qurish taklifini ilgari suradi. Darhaqiqat, o‘zbek tili imlo qoidalari ushbu tamoyillarga asoslangan. Ashurali Zohiriyning imlo to‘g‘risida ilgari surgan fikrlarida morfologik tamoyil – imloda sarfiy birlikni mahkam ushlash – yetakchilik qiladi. Olim so‘zlarni qanday eshitsak, shunday yozmasdan ularni ma’lum bir qoidalar asosida yozish lozimligini alohida uqtiradi. Masalan “d”bilan boshlanadigan qo‘shimchalar “t” eshitilsa ham, asliga muvofiq “d” yozilishini ta’kidlaydi. Shu bilan bir qatorda, -ni va -ning qo‘shimchalari ham turlicha talaffuz qilinsa, -da, yoki -n tovushi o‘rnida -d, -t tovushlari talaffuz qilinsa ham (Masalan, sichqondi uyi, itdi bolasi kabi) asliga ko‘ra -ni va -ning sichqonning uyi, itning bolasi yozish lozimligini ko‘rsatadi. Bu holat hozirgi o‘zbek tili imlo asoslarini o‘sha davrdayoq to‘g‘ri belgilanganligidan dalolat beradi. Ashurali Zohiriyning o‘zbek tilshunosligi tarixida birinchi bo‘lib, bosh harflar imlosini ko‘tarib chiqishi, ularni amaliyotga tadbiq etishi imloga qo‘shgan katta xizmatidir. U arab alifbosida bosh harflar imlosi yo‘qligini ta’kidlab, eski arab alifbosida bosh harflarning yo‘qlig‘i-husni yaxshilig‘i emas, balki uning kamchiligi edi, degan fikrni bildiradi. Lotin alifbosiga o‘tilar ekan, yozuvda bosh harflarni olish zarurligini ilgari suradi. Bosh harflarni qabul qilish alifbeni o‘rganish va o‘rgatishda hamda bosmaxonada harf teruvchilarga ortiqcha qiyinchilik tug‘diradi, deb hisoblovchilarning da’vosi asossizligini ko‘rsatib beradi. Bunga yevropaliklarning yozuvlarida bosh harflar qo‘llanishini dalil sifatida keltiradi. Bundan tashqari, Ashurali Zohiriy bosh harflar imlosining yozma

nutqda ma’no farqlash tomonini, shuningdek, ta’lim-tarbiyaviy, amaliy ahamiyatini alohida ko‘rsatib o‘tadi. Bosh harflar imlosidagi boshqa holatlarni ham shu tarzda birma-bir ko‘rsatib, dalillab beradi. Bular olimning 20-yillar tilshunosligiga qo‘shgan hissasi salmoqli ekanini ko‘rsatadi. 20-yillar o‘zbek lug‘atchiligi yaxshi rivojlanmagan paytda rus tilini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojni tezroq qondirish maqsadida A.Zohiriy tomonidan “Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘at” ning nashr etilishi o‘sha davr madaniy hayotida ulkan yutuq bo‘ldi. “Ruscha-o‘zbekcha” lug‘atning 1-jildi A-O harflarini o‘z ichiga olib, 352 sahifani tashkil etadi. U 1927-yilda O‘zbekiston davlat nashriyoti tomonidan Samarqand-Toshkent manzili bilan bosilib chiqdi. Bu haqida quyidagi ma’lumot beriladi.

Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘at:

“Bu lug‘at 352 katta sahifaga ega bo‘lib, O‘zbekiston davlat nashriyoti tomonidan bostirilg‘on. Hozirda lug‘atning faqat O harfigacha bo‘lg‘on qismi bosilg‘on va bu qismning bahosi 2 so‘m 40 tiyindur. Bu lug‘at rus adabiyotidan foydalanmoqchi bo‘lg‘on o‘rtoqlar uchun juda zarurdir. Shuning uchun lug‘atdan foydalanishni yoki o‘qig‘uchilarimizga, ayniqsa, muallimlarimizga tavsiya qilamiz. Kitobning ikkinchi qismi tezda chiqadi”.

Lug‘at to‘la nashr etilgach, bunday xabarlar boshqa gazetalarda ham bosildi. Jumladan, “shunday bir zamonda tilga boy bo‘lg‘on ruscha-o‘zbekcha kitobining maydonga chiqishi cho‘llagan daraxtlarga suv berganday bo‘ldi” deya baho beradi Hazratiy ismli kishi Moskvadan turib. Bu lug‘at rus-o‘zbek tillari tarjima lug‘atchiligining asosi bo‘lib qoldi. Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘at Ashurali Zohiriyning tilshunoslikdagi eng salmoqli ishidir[4].

Ashurali Zohiriy milliy uyg‘onish davrining ko‘zga ko‘ringan ma’rifatparvar ziyolisi va istiqlol kurashchisidir. U o‘zidagi bor iste’dod va iqtidorini milliy

[4] https://civil.uz/ru/kutubxona/

mustaqillik yo‘liga baxshida etdi. Xalqni ma’rifat yo‘li bilan tarbiyalashda muhim bo‘lgan milliy maktab-maorifni tashkil qilishda, matbaachilik, jurnalistika va yana boshqa sohalarda fidokorona xizmat qilgan. Olim ona tili – milliy o‘zbek tili jonkuyari, himoyachisi, yetuk tilshunos olim sifatida munosib nom qoldirgan, o‘zbek tilining bir qator amaliy masalalarini hal qilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining milliy uyg‘onishi, ma’naviy taraqqiyoti va zamonaviy ta’lim tizimini shakllantirishda muhim tarixiy bosqich bo‘ldi. Mazkur tadqiqot natijalari jadid pedagogikasida til va imlo masalasi alohida ahamiyat kasb etganini ko‘rsatdi. Jadid ma’rifatparvarlari ona tilini millatning ma’naviy boyligi, milliy o‘zlik va taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sifatida baholaganlar. Shu sababli ular xalq savodxonligini oshirish, ta’lim sifatini yaxshilash va milliy tafakkurni rivojlantirishda til va imlo birligini muhim pedagogik vosita deb hisoblaganlar.

Tadqiqot davomida Ashurali Zohiriyning til, imlo va ma’rifat masalalariga oid qarashlari jadid pedagogikasining muhim tarkibiy qismi ekanligi aniqlandi. Uning darsliklar yaratish, lug‘atchilik faoliyati, matbuotdagi chiqishlari hamda imlo masalasiga oid fikrlari xalqni ilm-ma’rifatga chorlash va yosh avlodni savodli qilib tarbiyalashga xizmat qilgan. Ayniqsa, imlo birligini yaratishga qaratilgan sa’y-harakatlari o‘zbek tilining rivoji va pedagogik jarayonning samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Shuningdek, maqolada til va imlo masalasining pedagogikadagi o‘rni ham alohida yoritildi. To‘g‘ri va yagona imlo tizimi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning savodxonligini oshirish, fikrni aniq va ravon ifodalash hamda milliy til me’yorlarini shakllantirishda muhim omil ekanligi asoslandi. Jadidlar tilni nafaqat aloqa vositasi, balki ma’naviy tarbiya va milliy ongni shakllantiruvchi kuch

sifatida talqin qilganlar. Shu jihatdan jadid pedagogikasidagi til va imlo masalalari bugungi zamonaviy ta’lim tizimi uchun ham dolzarb ahamiyatga ega.

Umuman olganda, Ashurali Zohiriyning ma’rifatparvarlik faoliyati va jadidlarning til hamda imloga oid qarashlari milliy pedagogika tarixining muhim sahifalaridan biri hisoblanadi. Ularning ilmiy-ma’rifiy merosi bugungi kunda ham yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, savodxonlik va ma’naviy yetuklik ruhida tarbiyalashda muhim nazariy va amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” mavzusida O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi. 2017-yil, 4 avgust.

2. T.Tog‘ayev.Ashurali Zohiriyning tilshunoslik merosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya, 2006.

3. Abduhakimova M. Millatparvarlar din isyoniga jo‘r bo‘lgan, tabarruk, turkona tilim. Til.gov.uz.2021

4. Nilufar, J. (2023). ASHURALI ZOHIRIY “YURT” JURNALINING MATBUOTIMIZ TARAQQIYOTIDAGI ROLI. World of Philology, 2(2), 41-45.

5. Nilufar, J. (2022). TIL MILLATNING JON BULOG ‘I. World of Philology, 1(2), 61-65.

6. https://civil.uz/ru/kutubxona/

MUMTOZ LIRIKA NAMUNALARINI OLIY TA’LIMDA O‘QITISH
(Mirzo Hayrullo Xo‘qandiy ijodi misolida)

Umarjon Melikuziyev,
Qo‘qon universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada mumtoz lirika namunalarini oliy ta’lim jarayonida o‘qitishning nazariy va metodik jihatlari Mirzo Hayrullo Xo‘qandiy ijodi misolida tadqiq etiladi. Mumtoz she’riyatning poetik tabiati, janr xususiyatlari, obrazlar tizimi, badiiy san’atlar va ramziy-majoziy ifoda vositalarini talabalarga yetkazish masalalariga e’tibor qaratiladi. Xususan, Mirzo Hayrullo Xo‘qandiy lirikasidagi ishqiy, tasavvufiy, axloqiy-falsafiy mazmunning badiiy ifodasi hamda ularni zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida o‘rganish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada mumtoz matnni shunchaki mazmunan sharhlashdan ko‘ra, uning poetik qurilishi, obraz va ramzlar tizimi, badiiy-estetik mohiyatini kompleks o‘rganish talabaning adabiy-estetik tafakkurini rivojlantirishning muhim omili ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: mumtoz adabiyot, mumtoz lirika, oliy ta’lim, adabiyot o‘qitish metodikasi, Mirzo Hayrullo Xo‘qandiy, g‘azal, poetika, badiiy obraz, tasavvuf, integrativ ta’lim.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological aspects of teaching examples of classical lyric poetry in higher education, with particular reference to the literary works of Mirzo Hayrullo Khokandi. It focuses on the ways of presenting to students the poetic nature of classical poetry, its genre-specific characteristics, system of imagery, literary devices, and symbolic and figurative means of expression. Particular attention is paid to the artistic representation of

lyrical, Sufi, ethical, and philosophical themes in Mirzo Hayrullo Khokandi’s poetry, as well as to the possibilities of studying these aspects through modern educational technologies. The article argues that, rather than merely interpreting the content of classical poetic texts, a comprehensive examination of their poetic structure, system of images and symbols, and artistic and aesthetic significance constitutes an important factor in developing students’ literary and aesthetic thinking.

Keywords: classical literature, classical lyric poetry, higher education, methodology of teaching literature, Mirzo Hayrullo Khokandi, ghazal, poetics, artistic imagery, Sufism, integrative education.

Mumtoz adabiyot namunalarini oliy ta’lim tizimida o‘qitish talabalarda milliy adabiy tafakkur, badiiy-estetik did va tarixiy-madaniy dunyoqarashni shakllantirishning muhim vositalaridan biridir. Mumtoz lirika o‘zining mazmuniy teranligi, obrazlar tizimining murakkabligi, ramziy-majoziy ifoda imkoniyatlarining kengligi va poetik shaklining mukammalligi bilan zamonaviy o‘quvchi uchun alohida metodik yondashuvni talab qiladi.

O‘zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotida Qo‘qon adabiy muhiti alohida o‘rin egallaydi. Mazkur muhitda ijod qilgan shoirlar milliy she’riyatning janriy, badiiy va estetik imkoniyatlarini boyitishga munosib hissa qo‘shganlar. Ana shunday ijodkorlardan biri Mirzo Hayrullo Xo‘qandiy bo‘lib, uning lirik merosi mumtoz she’riyat an’analarining XIX–XX asrlar chegarasidagi davomiyligi va o‘ziga xosligini o‘rganish uchun muhim manbalardan sanaladi.

Mumtoz lirika mohiyatini anglashda matnning tarixiy-estetik kontekstini hisobga olish muhim. Chunki mumtoz she’rda qo‘llangan obraz, timsol va badiiy san’atlarning aksariyati muayyan adabiy an’ana hamda falsafiy-estetik qarashlar bilan uzviy bog‘liq. Shu sababli mumtoz matnni zamonaviy o‘quvchi ongiga

yaqinlashtirish jarayonida tarixiylik va zamonaviylik tamoyillarining uyg‘unligi muhim metodik ahamiyat kasb etadi. Adabiyot ta’limining asosiy vazifalaridan biri badiiy asarni tayyor xulosalar asosida o‘rgatish emas, balki o‘quvchini badiiy matn bilan mustaqil ishlashga, uning mazmun va shakl birligini anglashga yo‘naltirishdir [1, 51-b]. Shu nuqtayi nazardan Mirzo Hayrullo Xo‘qandiy lirikasini oliy ta’limda o‘rganish nafaqat shoir ijodini o‘zlashtirish, balki talabalarda mumtoz poetik tafakkurni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Mumtoz lirikaning ta’limiy imkoniyatlari

Mumtoz lirika namunalarini oliy ta’limda o‘qitishda, avvalo, talabaning matnni idrok etish darajasini hisobga olish zarur. Mumtoz she’rning lug‘aviy qatlamlari, aruz tizimi, qofiya va radif xususiyatlari, an’anaviy obrazlar va badiiy san’atlar zamonaviy o‘quvchi uchun muayyan qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Shu bois mumtoz lirika ta’limida kontekstual, poetik, hermenevtik va qiyosiy yondashuvlarning uyg‘unligidan foydalanish samarali natija beradi. Kontekstual yondashuv orqali talaba she’r yaratilgan davrning ijtimoiy-madaniy muhitini o‘rganadi. Poetologik yondashuv she’rning janri, vazni, qofiyasi, radifi, kompozitsiyasi, obrazlar tizimi va badiiy san’atlarini tahlil qilish imkonini beradi. Hermenevtik yondashuv esa badiiy matnning ko‘pqatlamli ma’nolarini anglashga yo‘naltiradi. Qiyosiy yondashuv yordamida esa Mirzo Hayrullo Xo‘qandiy lirikasidagi an’anaviy obraz va poetik motivlarning boshqa mumtoz shoirlar ijodidagi ko‘rinishlari bilan o‘xshash va farqli jihatlari aniqlanadi.

Mumtoz adabiyotning badiiy-estetik xususiyatlarini o‘rganishda obraz masalasi alohida ahamiyatga ega. Mumtoz lirika poetikasida “yor”, “oshiq”, “rind”, “zohid”, “may”, “sabo”, “gul”, “bulbul”, “hijron”, “visol” kabi obraz va timsollar uzoq tarixiy-adabiy an’analar asosida shakllangan. Ularning har biri matnning kontekstiga qarab turlicha semantik yuklama kasb etishi mumkin [2, 18-

b]. Shuning uchun oliy ta’limda mumtoz she’rni o‘rganish jarayonida talabalarga obrazning faqat lug‘aviy ma’nosini emas, balki uning an’anaviy-poetik, ramziy va falsafiy ma’nolarini aniqlash vazifasini berish maqsadga muvofiq.

Mirzo Hayrullo Xo‘qandiy lirikasini o‘rganishning metodik asoslari. Mirzo Hayrullo Xo‘qandiy ijodini oliy ta’limda o‘rganish jarayonida shoir lirikasining janriy rang-barangligi va mazmuniy qatlamlariga e’tibor qaratish zarur. Uning lirik merosida g‘azal janri yetakchi mavqega ega bo‘lib, ishqiy lirika bilan bir qatorda diniy-tasavvufiy, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-didaktik mazmundagi she’rlar ham uchraydi. Bu holat shoir ijodini faqat bir mavzu doirasida emas, balki inson va jamiyat, inson va ma’naviyat, ishq va komillik, dunyo va boqiylik kabi muhim masalalar kesishmasida o‘rganish imkonini beradi.

Mirzo Hayrullo Xo‘qandiy lirikasini o‘qitishda birinchi bosqichda talabalarga shoir hayoti va ijodiy muhiti haqida umumiy ma’lumot berish, ikkinchi bosqichda matnning lug‘aviy-semantik qatlamini ochish, uchinchi bosqichda poetik xususiyatlarini tahlil qilish, yakuniy bosqichda esa talabaning mustaqil estetik xulosasini shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunday metodik tizimni quyidagicha ifodalash mumkin:

tarixiy kontekst → matnni anglash → poetik tahlil → qiyosiy tahlil → mustaqil talqin.

Mazkur ketma-ketlik mumtoz matnni o‘zlashtirishni tizimli jarayonga aylantiradi. Ayniqsa, g‘azalni o‘rganishda uning kompozitsion qurilishiga e’tibor berish zarur. Talaba matla’, maqta’, qofiya, radif, baytlar o‘rtasidagi mazmuniy munosabat, an’anaviy obrazlar hamda lirik qahramon ruhiy holatini aniqlash orqali g‘azalning yaxlit poetik tizimini anglay boshlaydi [3, 74-b].

Shuningdek, aruz vaznini o‘rganish ham mumtoz lirika tahlilining ajralmas qismidir. Biroq aruzni faqat nazariy qoidalar yig‘indisi sifatida emas, balki

she’rning ritmik va estetik tabiatini belgilovchi poetik vosita sifatida o‘rgatish samaraliroqdir. Mirzo Hayrullo Xo‘qandiy she’rlarini interaktiv usullar asosida o‘rganish zamonaviy oliy ta’limda mumtoz adabiyot namunalarini o‘qitish jarayonida talabaning faol ishtirokini ta’minlaydigan metodlardan foydalanish muhim. Xususan, “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Insert”, “Konseptual xarita”, “Badiiy matn xaritasi”, “Qiyosiy jadval”, “Debat” kabi metodlar mumtoz lirika tahlilida samarali qo‘llanishi mumkin.

Masalan, Mirzo Hayrullo Xo‘qandiy g‘azalini o‘rganishda talabalarga quyidagi savollarni berish mumkin:

1. G‘azalning asosiy mavzusi va g‘oyasi nimadan iborat?
2. Lirik qahramonning ruhiy holati qaysi badiiy vositalar orqali ifodalangan?
3. G‘azalda qanday an’anaviy obraz va timsollar mavjud?
4. Qaysi badiiy san’atlar she’rning estetik ta’sirchanligini oshirgan?
5. G‘azalning qofiya va radif tizimi qanday?
6. She’rda majoziy va tasavvufiy ma’nolar qanday uyg‘unlashgan?
7. Mazkur g‘azalni boshqa mumtoz shoirlarning shu mavzudagi asarlari bilan qiyoslash mumkinmi?

Bunday savollar talabaning tayyor ma’lumotni qabul qilishi emas, balki matn asosida mustaqil fikrlashiga xizmat qiladi.

Masalan, “Badiiy matn xaritasi” metodida talabalar she’rni quyidagi tarkibiy qismlarga ajratib tahlil qilishlari mumkin:

№	Tahlil komponenti	Talaba aniqlaydigan jihat
1.	Mavzu	She’rda nima haqida so‘z yuritilgan?
2.	G‘oya	Shoir qanday fikrni ilgari surgan?
3.	Lirik qahramon	Uning ruhiy holati qanday?

4.	Obrazlar	Qaysi an’anaviy timsollar mavjud?
5.	Badiiy san’atlar	Tashbeh, istiora, tazod va boshqalar
6.	Shakl	Janr, vazn, qofiya, radif
7.	Ramziy qatlam	Obrazlarning majoziy ma’nosi
8.	Xulosa	Talabaning mustaqil talqini

Mazkur metod talabaning badiiy matnni yaxlit tizim sifatida qabul qilishiga yordam beradi. Fanlararo integratsiya asosida o‘qitish Mirzo Hayrullo Xo‘qandiy lirikasini oliy ta’limda o‘qitishda fanlararo integratsiya alohida metodik imkoniyatlarga ega. Shoir ijodini mumtoz adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, tasavvuf, tarix, falsafa, tilshunoslik va san’atshunoslik fanlari bilan bog‘lab o‘rganish mumkin. Masalan, g‘azaldagi tasavvufiy obrazlarni tahlil qilishda tasavvuf falsafasiga oid tushunchalardan foydalanish zarur bo‘lsa, aruz vaznini o‘rganishda mumtoz poetika va tilshunoslik bilimlariga murojaat qilinadi. Qo‘qon adabiy muhitini o‘rganishda esa tarixiy manbalar va adabiy jarayon haqidagi ma’lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday integratsiya talabaning muayyan she’rni faqat adabiy hodisa sifatida emas, balki tarixiy, falsafiy, lingvistik va estetik hodisa sifatida idrok etishiga imkon beradi. Oliy ta’limning zamonaviy kompetensiyaviy modelida ham talabaning mustaqil fikrlashi, axborotni tahlil qilishi, turli manbalarni qiyoslay olishi va o‘z xulosasini asoslay olishi muhim ko‘nikmalar sifatida qaraladi[4, 55-b]. Mumtoz lirika aynan shunday ko‘nikmalarni shakllantirish uchun katta didaktik imkoniyatga ega.

Mumtoz lirika namunalarini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ham ta’lim samaradorligini oshiradi. Xususan, elektron matnlar, raqamli lug‘atlar, interaktiv taqdimotlar, elektron bibliografik bazalar va vizual konseptual xaritalardan foydalanish talabaning mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Mirzo Hayrullo Xo‘qandiy she’rlarini elektron shaklda taqdim etish orqali talabalarga matn ustida belgilash, izoh yozish, notanish so‘zlarni aniqlash va badiiy san’atlarni ajratib ko‘rsatish kabi topshiriqlarni berish mumkin. Masalan, amaliy mashg‘ulot davomida talabalar kichik guruhlarga bo‘linib, bir guruh leksik qatlam, ikkinchi guruh badiiy san’atlar, uchinchi guruh obrazlar tizimi, to‘rtinchi guruh esa g‘oyaviy-falsafiy mazmunni tahlil qilishi mumkin. Yakunda guruhlar o‘z natijalarini birlashtirib, she’rning yaxlit poetik modelini yaratadilar. Bunday yondashuvda o‘qituvchi tayyor xulosani beruvchi emas, balki talabaning mustaqil ilmiy izlanishini tashkil etuvchi moderator vazifasini bajaradi.

Mumtoz lirika orqali talabalarning adabiy-estetik tafakkurini rivojlantirish

Mumtoz lirika ta’limining eng muhim natijalaridan biri talabalarda badiiy-estetik tafakkurning shakllanishidir. Chunki mumtoz she’rni tushunish uchun faqat lug‘aviy ma’noni bilish yetarli emas. Talaba obraz, timsol, ramz, badiiy san’at, vazn, ohang va kompozitsiya o‘rtasidagi munosabatni anglay olishi kerak. Mirzo Hayrullo Xo‘qandiy lirikasidagi ishqiy mavzuni o‘rganish jarayonida ham bu masala yaqqol ko‘rinadi. Mumtoz she’riyatdagi ishq tushunchasi ko‘pincha faqat shaxsiy muhabbat doirasida qolmay, insonning ma’naviy kamoloti, go‘zallikni anglash, komillikka intilish kabi falsafiy ma’nolarni ham ifodalaydi. Shu sababli talaba she’rni biryoqlama talqin qilmasdan, uning ko‘pqatlamli semantik tuzilishini anglashga yo‘naltirilishi lozim.

Bu jarayonda “matndan xulosaga” tamoyili muhim. Ya’ni talaba avval matndan dalillarni topadi, keyin ularni izohlaydi va nihoyat umumlashma xulosaga keladi. Bu usul ilmiy tafakkurning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan dalillilikni ham shakllantiradi.

Xulosa. Mumtoz lirika namunalarini oliy ta’limda o‘qitish jarayonida Mirzo Hayrullo Xo‘qandiy ijodidan foydalanish muhim ilmiy-metodik imkoniyatlarga ega. Shoir lirikasining janriy va tematik rang-barangligi, poetik shaklining an’anaviyligi, obrazlar tizimining ko‘pqatlamliligi hamda ishqiy, axloqiy, falsafiy va tasavvufiy mazmunning uyg‘unligi talabalarning adabiy-estetik tafakkurini rivojlantirish uchun qulay zamin yaratadi.

Mirzo Hayrullo Xo‘qandiy lirikasini o‘qitishda tarixiy-kontekstual, poetik, qiyosiy, hermenevtik va integrativ yondashuvlarni uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv talabaning mumtoz matnni nafaqat mazmunan, balki shakl, poetika va estetik jihatdan ham anglashiga imkon beradi. Shuningdek, interfaol metodlar va raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish mumtoz she’rni o‘rganish jarayonini yanada samarali va talaba uchun qiziqarli tashkil etish imkonini beradi. Ayniqsa, badiiy matnni mustaqil tahlil qilish, obraz va ramzlarni aniqlash, badiiy san’atlarni izohlash, boshqa ijodkorlar asarlari bilan qiyoslash kabi topshiriqlar talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Demak, Mirzo Hayrullo Xo‘qandiy lirikasini oliy ta’lim jarayoniga tatbiq etish bir tomondan shoir ijodiy merosini chuqur o‘rganishga, ikkinchi tomondan esa mumtoz adabiy tafakkurning o‘ziga xos xususiyatlarini zamonaviy ta’lim metodlari asosida talabalarga yetkazishga xizmat qiladi. Bu esa mumtoz adabiyot ta’limining mazmunini boyitish, milliy adabiy merosga ilmiy-estetik munosabatni

shakllantirish va ta’limning integrativ imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.

2. Boltaboyev H. Mumtoz poetika. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2008.

3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti,

2018.

4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018.

5. Sirojiddinov Sh. O‘zbek mumtoz adabiyotining falsafiy-estetik asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011.

6. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1976.

7. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.

8. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.

9. Boltaboyev H. Mumtoz poetika. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2008.

10. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007.

11. Mirzo Hayrullo Xo‘qandiy. Bayoz. – Qo‘lyozma va nashr materiallari asosida.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘Z

Z.B.Qobilova. Ta’lim – kelajak poydevori…… ……...…….4

1-SHO‘BA
Uzluksiz ta’limning nazariy-metodik asoslari va xalqaro tajriba.

M.A.Ashurov. Uzluksiz ta’lim konsepsiyasini rivojlantirishda xalqaro tajribaning pedagogik-innovatsion yondashuvlari…..…...7
Н. Р. Махмудова. Методическая ценность пословиц при изучении иностранных языков……..….16
М.И.Абдужалилов, О.К.Порохина. Особенности формирования мотивации при изучении русского языка в школе……22
Sh.I.Jumanova. Zamonaviy peyzaj lirikasida ekologik tafakkur muammosi…...28
N.R.Maxmudova, Sh.F.Ortiqov. Tillarni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati……...……..36
M.I.Imomaliyeva, **S.Sh.Aliyeva**. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirishdagi muammolar…….……..…40
Z. K. Kalendarova. Ona tili darslarining noan’anaviy shakl va usullari orqali o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish…….51
M.Sh.Dehqonova. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik tafakkurni mantiqiy masalalar orqali shakllantirishning nazariy-metodik asoslari……..56
Z. K. Kalendarova, **M.N.To‘xtaboyeva.** Ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishda muammoli ta’limdan foydalanishning ahamiyati……..61
D. B. Kayumov, A.A.Anarkulova. The teaching methods like content-based and task-based instructions in teaching english classes…….66
S.S.Ergasheva. Tarixiy realiyalar va ularning o‘zbek-turk badiiy tarjimasidagi lingvomadaniy xususiyatlari……71
D.Inomova. Ijodiy individuallik (Mukarrama Murodova she’riyati misolida)…..76

D.S.Yokubjonova, Sh.R.Mirzabadalova. Integrated educational pathways: challenges and strategies for continuity in uzbekistan annotation……..79
O.A.Karimova. Difference between teaching english to children and adults……85
D.Q.Inoyatova. Bolalar she’riyatini o‘qitish jarayonida kreativ o‘qish strategiyalarining pedagogi ahamiyati……93
D.Inomova. She’riyatda ijtimoiy muammolarning badiiy talqini……..99
A.A.Saparova. Vizual o‘quv muhitining kasbiy kompetentsiya rivojlanishidagi roli……104
A.A.Saparova. Talabalarning muammoni hal qilish ko‘nikmalarini vizual usullar bilan shakllantirish……112
D.Q.Inoyatova. Bolalar she’riyatida milliy qadriyatlar va ularning tafakkurga ta’siri……117
S.S.Ergasheva. Tarixiy realiyalar tarjimasida realiyalarni funksional qayta kodlanishi……..123
G.I.Ziyauddinova. Muhiddin omon she’rlarida umr sarhisobining poetik talqini……128
K.I.Ashrabiyeva. Nutqning turli tiplarida shaxsiy ifodalardan foydalanish: kasbiy rivojlanish nuqtayi nazaridan……134
X.G‘.Karimova. Musiqa ta’limida o‘quvchilarning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish……139
A.A.Jurakhonov. From zoology to pragmatics: a semantic-pragmatic analysis of animal-based idioms in English……145

2-SHO‘BA
Ta’limda innovatsiyalar, raqamli transformatsiya va pedagogik texnologiyalar

M.A.Ashurov. Pedagogik innovatsiyalar orqali ta’lim jarayonini transformatsiya qilish: digital va blended learning yondashuvlari……153
N.A.Yuldasheva, S.Sh.Bekturdiyev, S.A.Tursunova, O.M.Bekmurzayeva. Raqamli texnologiyalar orqali ta’limni modernizatsiya qilish: drayverlar va muammolar……160
G.M.Davlatova. Zamonaviy sharoitda ta’limning iqtisodiyot va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni……169

M.S.Muxtoriy. Badiiy va ilmiy-ommabop matnlar asosida o‘quvchilarning o‘qish motivatsiyasini oshirish texnologiyasi……..177
Н.Х.Рахманкулова. Практическое применение методики развития когнитивной компетентности будущих учителей на основе фасилитативного подхода……..181
L.O.Shabdullayeva, T.G.‘Murodjonov. Talabalarni kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlashning metodik jihatlari……..186
S.T.Davlatova, M.J.Davronova. Raqamli ta’lim va xalqaro tajribalar……..…192
I.U.Xolimtayeva. Ta’lim tarmoqlarida kiberhujumlarni monitoring qilish…….199
D.S.Yokubjonova, I.I.Muhammadjonova. Innovations in education, digital transformations, and pedagogical technologies…….210
Г.Б.Каримова.Важность информационной компетентности для воспитателей дошкольного образования……..……219
Z.M.Sadriddinova. Boshlang‘ich ta’limda milliy tarbiyaning o‘qituvchi pedagogik mahoratini shakllantirishdagi o‘rni……..225
Sh.N.Quysinova. Raqamli transformatsiya sharoitida o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish nazariyasi……235
Z.M.Sadriddinova, M.Mamadaliyeva. Ekologik tarbiya va barqaror rivojlanish……..240
Z.P.Komilova. Germaniya bog‘chalarida ta’lim-tarbiya jarayonining o‘ziga xosligi ……..…….249
Z.M.Sadriddinova M.B.Shavkatova. Dars samaradorligini oshirish omillari:interfaol metodlar……...……..255
M.A.Tayirov. Raqamli ta’lim transformatsiyasida steam texnologiyalari va sun’iy intellekt (ai) asosida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining innovatsion metodik tayyorgarligini rivojlantirish……262
G.B.Eshquvatova, L.S.Sayfullayeva. Implementing technologies to the english classroom for improving the communication skills……..270
M.A.Nortojiyev. O‘tkir hoshimov asarlari misolida “ bolalik ” konsepsiyasining raqamli pedagogika orqali o‘qitilishi……280

I.A.Nishonov. Raqamli pedagogika sharoitida o‘quv jarayonidagi kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish……..286
N.T.Qudbiyev. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun buxgalteriya hisobi o‘qitishning ijtimoiy ahamiyati…….291
X.Orziqulov, D.Abdurashidova. Raqamli ta’lim muxitida uzliksiz ta’lim sifatini oshirishdagi muammolar va yechimlar…….299
Sh.B.Axmedov, O.Z.Adhamova, boshlang‘ich sinf matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi……..305
Z.M.Sadriddinova, Z.Baxromova. Ta’limda akademik halollikning ahamiyati……...309
D.Ismoilova, M.X.Akbaraliyeva. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tezkor hisoblash usullarini o‘rgatishda axborot texnologiyalarining o‘rni……...316
D.I.Abdulfaizova. Internet va raqamli maydonda diniy-ma’rifiy axborot: xavflar va imkoniyatlar…….325
D.K.Hotamova. Bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli savodxonlikni takomillashtirish……330
M.Q.Mamatvaliyev. Maqsud shayxzodaning “jaloliddin manguberdi” dramasini o‘qitishda tarixiy materialdan foydalanish masalasi…….339
A.A.Kodirov. Raqamli pedagogika sharoitida ingliz tilini o‘qitish: talabalarda media savodxonlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish……347
F.R.Anvarov, M.A.Tojimamatova. Yosh organizmning rivojlanishida stress va uning psixologik ta’siri……..353
A.X.Abdullayev, D.S.Turg‘unboyeva. Axborot tizimlarida ommaviy xizmatlarni avtomatlashtirish va samaradorligini oshirishning zamonaviy yondashuvlari…..361
D.N.Abduvaxidov. Umumta’lim maktablarida tarix fanini o‘qitishda innovatsion usullar va metodlardan foydalanish……...370
Sh.Y.Kurbanova. Turkiy adabiyotda shaxs kamoloti: hofiz xorazmiy didaktik qarashlari misolida pedagogik model……..……..377
M.P.Hayrullayeva. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligini uzluksiz ta’limda o‘qitishning metodik asoslari.....385
M.S.Tohirova. Bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik imidjini shakllantirishda innovatsion ta’lim yondashuvlari va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar integratsiyasi.....392

N.Ummataliyeva. Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarda innovatsion fikrlash va izlanish madaniyatini shakllantirish yo‘llari……401
M.B.Ergasheva. Andijon viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyining habibiy muzeyi filialida ta’lim jarayonini tashkil etishning ahamiyati va o‘quvchilar ma’naviy tarbiyasidagi o‘rni.....406
M.B.Narzullayeva. Ta’lim jarayonida raqamli transformatsiya: imkoniyatlar va muammolar.....410

3-SHO‘BA

Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim integratsiyasi va transformatsiyasi.

R.B.Yarmatov. Rahbarlarda emotsional intellektni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari……...…417
X.V.Mashraboy, S.M.Kozimov. Oliy ta’lim talabalarida uchraydigan prokrastinatsiyaning psixologik determinantlari.....423
I.X.Mavlonov, M.A.Qayumova. Milliy yuksalish konsepsiyasini amalga oshirishda ma’rifatning o‘rni..... 430
J.T.Minoza, B.Suyunov, D.Pirnazarov. O‘zbekiston universitetlarida ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini yaxshilashda gemifikatsiya: eksperimental tadqiqot.....439
N.X.Tursunova, X.N.Muhammadjonova. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida folklor asarlarini o‘qitishda fanlararo integratsiyaning o‘rni.....451
B.B.Nizomova. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tabiiy fanlar integratsiyasi orqali biologiya ta’limini modernizatsiya qilish.....456
B.X.Omonov. Uzluksiz ta'lim bosqichlarida gender lingvistikasining integratsion jarayonlari……460
N.A.Sharipova. Pedagogik texnologiyalar tarixiga nazar……468

Z.M.Sadriddinova. Ta’lim bosqichlari uzviyligida psixologik moslashuv: maktabgacha ta’limdan maktabga o‘tish jarayonining integratsiyalashgan metodik konsepsiyasi……...…475
G.B.Sanginova. Bolalarda mehnat malakalarini shakllantirishda oddiy maishiy ishlarning o‘rni…….…….484
G.N.Komiljonova, N.U.Yo‘ldasheva. Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim integratsiyasi va transformatsiyasi…….……490
N.R.Mansurova, G.K.Rahimberdiyeva. Milliy musiqa san’atini o‘qitishda janrlar xilma-xilligi.....495
G.B.Sanginova. Bolalarda mehnat tarbiyasida tarbiyachi va ota-ona hamkorligi……...…503
Z.M.Sadriddinova H.B.Nishonova Husnida. Fanlararo integratsiyaning ta’limdagi ahamiyati……..……511
G.T.Xusanova M.Azamjonova. “Steam” ta’limi asosidagi innovatsion metodlar va ularning boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’siri……..517
Р.Ф.Монасипова, Ш.Х.Қўчқоров. Ўқув жараёнида электрон ахборот таълим ресурсларининг аҳамияти ва уларни яратиш жараёни……523
D.F.Xolmirzayeva, M.Mamajonova. Raqamli transformatsiya sharoitida differensial ta’limning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari rivojlanishiga ta’sirining epistemologik asoslari……..…….529
M.N.Sabirova. Raqamli transformatsiya sharoitida kooperativ ta’lim va avtodidaktik rivojlanish integratsiyasiga asoslangan pedagog tayyorlashning innovatsion texnologiyasi……..536
N.A.Valiyeva. Fanlararo integratsiya asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dizayn fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish……....549
D.X.Axmedova, Z.M.Yusufjonova. Boshlang‘ich ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda shaxmat o‘yinining ahamiyati.....554
M.A.Qo‘shbaqova. O‘zbek tilidagi publitsistik matnlarda substitutsiya va integratsiya mexanizmlarining funksional-semantik tahlili…….560
O.S.Parpiyeva. Akademik litsey o‘quvchilarining fizika fanidan kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish shart-sharoitlari……..567
R.S.Ashuraliyev. Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim integratsiyasi va transformatsiyasi……...….573

N.K.Kosimova. E. Heminguey povestlarida qo‘llangan ingliz tilidagi ergash gapli qo‘shma gaplarning struktur-semantik tabiati va ularning o‘zbek tiliga tarjimada aks etish mexanizmlari……..579
М.И.Тожиддинова. Инновационные методы развития коммуникативной компетенции……..……..583
M.M.Axmedova. Raqamlashtirish sharoitida boshlang‘ich sinflarda o‘qitish metodlarining transformatsiyasi……..…….588
Sh.D.Ergashev. O‘zbek qahramonlik eposida jismoniy tarbiyaning milliy sport an’analari bilan bog‘liqligi: tarixiy-pedagogik tahlil……..……..598
N.O.Javharova. Jadid pedagogikasida til va imlo masalasi……611
U.U.Melikuziyev. Mumtoz lirika namunalarini oliy ta’limda o‘qitish (Mirzo Hayrullo Xo‘qandiy ijodi misolida)…….619